Если модуль обращен к Солнцу так, что лучи падают перпендикулярно его поверхности, то угол его наклона равен полярному углу Солнца (рис. 2.)

$$\beta = 90 - \alpha, \quad (1)$$

где α – угол возвышения – высота Солнца на небе, измеренная в градусах от горизонтального положения. Склонение равно нулю в дни (22 марта и 22 сентября), положительному, когда в северном полушарии лето, и отрицательному, когда там зима. Склонение достигает максимума 23,45 22 июня и минимума -23,45 22 декабря.



Рис 3. Уголь склонения по месяцам

Склонение можно рассчитать по формуле (12), градус

$$\Delta = 23.45^\circ \cdot \sin\left(\frac{360}{365}(\delta - 81)\right) \quad (2)$$

где δ - день года, для января -1, для 2 января = 2 и так далее. Согласно полученным результатам, оптимальный угол наклона солнечных панелей для полного автономного питания электростанции составит 24,2 градуса.




Рис 4. Распределения угля по месяцам

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Плотность потока энергии, падающего на модуль, зависит от угла наклона β между модулем и Солнцем. Когда поверхность панели и солнечное излучение перпендикулярны друг другу, плотность потока излучения будет максимальной. При изменении угла наклона плотность потока излучения уменьшается. Таким образом, угол наклона существенно влияет на излучение, падающее на поверхность модуля. Если угол наклона равен широте φ расположения модуля, т. е. $\beta = \varphi = 53^\circ$, поток излучения имеет максимально возможное значение.

REFERENCES

1. Местников, А.Е. Тепловая защита зданий на севере: материалы, изделия, конструкции. А. Е. Местников, П. С. Абрамова. М.: Издательство ABC, 2009. – 5 – 10 с.
2. Христофорова Т.А. Внедряем новые энергоэффективные технологии. Т.А. Христофорова. Энергосбережение в Якутии. 2017. № 6 (12). С. 10-11.
3. Тайланов Н.А. Расчет энергетических параметров автономной солнечной электростанции в Арнасайском районе. Узбекский физический журнал, том 20, № 1, 2018 г.
4. Тайланов Н.А. Расчет энергетических параметров солнечной электростанции. Международная научная конференция. «Роль женщин в современной науке и технологиях» 12-14 апреля 2017 г., Узбекистан, Джизакский политехнический институт, г. Джизак, Узбекистан.

ЗАТРАТЫ РАБОЧЕГО ВРЕМЕНИ МЕДИЦИНСКИХ СЕСТЕР ОТДЕЛЕНИЙ ВОССТАНОВИТЕЛЬНОГО ЛЕЧЕНИЯ

И.Р. Уразалиева

Доцент Школы общественного здравоохранения, Ташкентская медицинская академия

Ж. Х. Кодиров

Самостоятельный соискатель Самаркандского государственного медицинский университет, г. Самарканд

Д.С. Туляганова

Магистр Школы общественного здравоохранения, Ташкентская медицинская академия

ВВЕДЕНИЕ

Реформирование системы здравоохранения предусматривает модернизацию стационарной медицинской помощи, которая должна соответствовать уровню и характеру заболеваемости, потребностям населения в различных видах специализированной медицинской помощи и обеспечивать восстановление функциональных возможностей организма человека.

Увеличение потребности населения в больничной реабилитационной помощи реформа сестринского дела предполагают значительное изменение функций организации труда среднего медицинского персонала, что будет способствовать более рациональному использованию потенциала медицинских работников. Отдельными авторами рассматриваются вопросы организации сестринской работы в мультидисциплинарных бригадах.

Целью данного исследования является разработка комплекса мероприятий оптимизации деятельности медицинских сестер отделений восстановительного лечения и реабилитации стационара.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

Исследование проводилось в стационаре. Были изучены основные методы восстановительного лечения, оборудования структура реабилитационной помощи в зависимости от профиля коек лечебных отделений, а также система медицинской документации, планирование работы нагрузка среднего медицинского персонала. Объекты

исследования отделения восстановительного лечения и реабилитации многопрофильных больниц, средний медицинский персонал, врачи и пациенты отделений восстановительного лечения и реабилитации многопрофильных больниц Исследование проводилось в двух основных направлениях медико-статистическом и клинико-организационном. Первое включало в себя изучение мнений медицинских сестер отделений восстановительного лечения и реабилитации, мнений врачей различных специальностей и мнений пациентов по вопросу организации сестринской реабилитационной помощи и мерах по ее оптимизации. Статистическая обработка полученных данных включала использование традиционных методик расчета статистических показателей, средних величин (и их ошибок), оценку достоверности разных показателей критерия Стьюдента.

РЕЗУЛЬТАТЫ

С целью изучения структуры рабочего времени среднего медицинского персонала отделения восстановительного лечения и реабилитации проводилось фотохронометражное исследование имевшихся трудозатрат. Проведено фотохронометражное наблюдение работы 115 медицинских сестер отделения восстановительного лечения и реабилитации, из них 30 - инструкторы по ЛФК, 30 - медицинские сестры по массажу, 50 - медицинские сестры по физиотерапии.

Проведен анализ структуры и степени использования рабочего времени среднего медицинского персонала отделений восстановительного лечения и реабилитации. Максимальными являются средние затраты рабочего времени на основную деятельность - от 183,01 + 12,4 минут до 246,8 + 10,2 минут. Они зависят от объема работ, выполняемых медицинскими сестрами, и количества имеющихся назначений. Большую часть рабочего времени средний медицинский персонал затрачивает на выполнение зависимых сестринских вмешательств, в среднем от 127,2 + 9,8 минут до 209,5 + 10 минут. Для инструкторов ЛФК такие затраты рабочего времени зависят от метода проведения процедуры лечебной гимнастики. Меньше всего времени непосредственно на отпуск процедур расходуют медицинские сестры по физиотерапии (в среднем 127,2 + 9,8 мин.) На выполнение взаимозависимых сестринских вмешательств приходится в среднем всего от 12,8 + 4,3 минуты и до 26,2 + 5,8 минут. Этот показатель в основном определяется состоянием пациента и случайными обстоятельствами, сопутствующими реабилитационному

процессу. Независимые сестринские вмешательства у медицинских сестер разных специальностей, отличаются по структуре, однако их доля не превышает 20% от основного времени. Современные требования к сестринскому процессу предполагают значительные затраты рабочего времени на обучение пациентов и родственников, собеседование. Эти действия выполняют медицинские сестры всех специальностей. Максимальную активность проявляют инструкторы ЛФК. $15,4 \pm 2,05$ минут в среднем затрачивается на обучение и $20,07 + 0,8$ минут - на собеседование с пациентом. Максимальные затраты рабочего времени на вспомогательную деятельность выявлены у медицинских сестер по физиотерапии (в среднем $106,7 + 6,2$ минут), причем они зависят от имеющегося на отделении парка аппаратуры и оборудования. При анализе затрат рабочего времени на переходы выявлено, что удельный ее последний при правильном типе застройки в 2,1 раза превышает данный показатель при расположении ЛПУ в одиночном здании.

Таким образом, на затраты рабочего времени, связанные со вспомогательной деятельностью, влияют тип застройки учреждения, особенности организации лечебно-реабилитационного процесса, метод проведения реабилитационного пособия, наличие младшего медицинского персонала, количество процедур, выполняемых у постели пациента. Величина затрат на составление письменных рекомендаций для пациентов и их родственников колеблется от $11 + 2,7$ минут (м/с по физиотерапии) до $23,09 + 4,4$ минуты (инструкторы по ЛФК).

По нашему мнению, затраты рабочего времени, используемые для контакта с пациентом, его обучения и формирования здорового образа жизни, явно недостаточны для осуществления сестринского реабилитационного процесса в соответствии с современными требованиями. При работе с документацией средний медицинский персонал заполняет различные типы первичных медицинских документов, количество и содержание которых зависит от особенностей организации работы в стационаре.

При анализе документации установлено, что предоставляемая информация недостаточна для объективной оценки качества сестринской помощи. Удельный вес служебных разговоров недостаточен для успешного согласования сестринского реабилитационного процесса. Длительность служебных разговоров зависит от производственной ситуации, составляя в среднем от $13,3 + 1,4$ минуты до $22,4 + 2,1$ минут для медсестер разных специальностей. Кратковременный отдых обязательно должен быть запланирован при расчете нагрузки

на средний медицинский персонал отделения реабилитации, так как его представители выполняют тяжелую физическую работу.

Однако от 73,4% до 92,5% медицинских сестер не имеют такой возможности. В структуре незагруженного времени максимальный удельный вес имеет простой при этом затраты рабочего времени в среднем составляют от 16,5 + 3,9 минут до 32,5 + 5,7 минут для медицинских сестер разных специальностей. Длительность простоя зависит от причин прерывания трудового процесса. Так, простой от 5 до 30 минут связан с несогласованностью действий персонала разных отделений и специальностей. Простой от 45 до 95 минут связан с тем, что медицинские сестры работают с высокой интенсивностью в первую половину дня и просто присутствуют в отделении после 14 часов, что связано с плохой организацией их труда.

ВЫВОДЫ

Максимальные трудозатраты сестринского персонала отделений восстановительного лечения и реабилитации многопрофильного стационара приходятся на основную деятельность, в среднем от 183,01+ 12,4 минут до 246,8 + 10,2 минут в зависимости от специальности, причем большую часть времени (от 84,8% для медсестер по массажу до 69,5% для медсестер по физиотерапии) средний медицинский персонал расходует на выполнение зависимых сестринских вмешательств. Независимые сестринские вмешательства у медицинских сестер разных специальностей отличаются по структуре, а их доля не превышает 20% от основного времени. Взаимозависимые вмешательства для медицинских сестер разных специальностей занимают в среднем от 12,8 + 4,3 минуты и до 26,2 ± 5,8 минут.

На затраты рабочего времени, связанные со вспомогательной деятельностью, влияют тип застройки учреждения (удельный вес переходов при правильном типе застройки превышает в 2,1 раза данный показатель при расположении ТУ в одиночном здании), особенности организации лечебно-реабилитационного процесса, метод проведения реабилитационного пособия, используемый парк аппаратуры и оборудования, количество назначений, выполняемых «у постели больного». Затраты рабочего времени на беседы и обучение пациентов и их родственников колеблются от 7,5 + 1,5 минут до 20,07 + 0,8 минут для медсестер разных специальностей и недостаточны для осуществления сестринского реабилитационного процесса. Непродуктивно загруженное время среднего медицинского персонала чаще всего связано с простоем, который

обусловлен несогласованностью действий персонала различных специальностей (от 5 до 20 минут) и нерациональным распределением рабочего времени (от 30 до 90 минут).

REFERENCES

1. Алексеева Е.Е., Новокрещенова И.Г., Чунакова В.В., Новокрещенов И.В. Социальный портрет специалиста со средним медицинским образованием в современном здравоохранении // Саратовский научно-медицинский журнал. – 2015. – Т. 11. – № 3. – С. 237 – 242.
2. Ачкасов Е.Е. Пузин С.Н., Машковский Е.В. Технические средства реабилитации инвалидов и без барьерная среда. Учебное пособие. – М.: «ГОЭТАР-Медиа», 2019. – 128с.
3. Ильницкий А. Н. Медсестра и реабилитация в гериатрии // Медицинская сестра. –2017. – №5. – С.4 – 7.
4. Маматкулов Б., Уразалиева И.Р. Удовлетворенность пациентов качеством работы медицинских сестер первичного звена здравоохранения // Ўзбекистон тиббиёт журнали. - Тошкент. - 2012. -№4. - С 49-51.
5. Уразалиева И.Р., Маматкулов Б. М., Гурьянова Н.В. Основные аспекты деятельности медсестер первичного звена здравоохранения. Научно-практический рецензируемый журнал «Современные проблемы здравоохранения и медицинской статистики» 2020 г., № 1 Стр 371-382.



ИНГЛИЗ ТИЛИДА “FOOT ” ЛЕКСИК-СЎЗ ҲОСИЛ ҚИЛУВЧИ УЯНИНГ “МОСЛАМА” СЛОТЛИ ФРЕЙМ ТАҲЛИЛИ

Г. Р. Мамадалиева

Андижон давлат педагогика институти

АННОТАЦИЯ

Ушбу тадқиқот когнитив тилшунослик соҳаси бўйича амалга оширилди. Тадқиқот инглиз тилининг соматик лексикасига йўналтирилган бўлиб, ундан мақсад бизни ўраб турган оламда тил эгалари ўзларини қандай қабул қилишлари ҳақида ўзига хос тасаввурга эга бўлишдир.

Калит сўзлар: концепт, оламнинг когнитив манзараси, оламнинг лисоний манзараси, лексик сўз ҳосил қилувчи уя, фрейм модель, слот, пропозиционал схема, пророзиция

Ҳозирги кунда алоҳида эътибор инсоннинг тили ва тафаккури ўртасидаги боғлиқликка қаратилган тилни ўрганишга антропоцентрик ёндашув янада долзарб бўлиб бормоқда. эътибор марказий тушунчаларидан бири концепт бўлмиш когнитив тилшунослик каби йўналишда бу ёндашувга айниқса алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Концептларни татқиқ қилишда соматизмларга, яъни инсон танаси аъзоларини англатувчи сўзларга тобора кўпроқ эътибор қаратилмоқда. Чунки соматизмларни ўрганиш тил эгаларини бизни ўраб турган оламда ўзларини қандай қабул қилишлари тўғрисида тасаввур беради.

Инглиз тилида foot сўзи анчайин тор маънога эга- бут. Оёқ аъзо сифатида leg сўзга мос тушади. Leg – ушбу тана аъзосининг барча йиғиндиси – бут (foot), тўпик (ankle), болдир (lower leg), тизза (knee), сон (thigh)ни англатувчи сўздир. Лекин, изланишлар шуни кўрсатдики, foot сўзи кўплаб миқдордаги ясама сўзларга эга бўлган бир пайтда, leg сўзи деярли дериватлар ҳосил қилмайди. Бундан шундай хулосага келиш мумкинки, ўзбек тилида бунга ўхшаш функциялар учун умумий оёқ сўзи ишлатилсада, инглиз тилида айнан foot оёқнинг энг функционал қисми ҳисобланади. Шунинг учун бизнинг ишимизда foot таҳлиliga кенг ўрин берилади ва унинг маъноси бут эмас, балки оёқ сифатида талқин қилинади.

Oxford Dictionary of Current English луғатига кўра foot сўзи бта лексик-семантик вариантга (ЛСВ) эга:

1). The lowest part of the leg, below the ankle, on which a person or animal stands – *оёқнинг инсон ёки хайвонни тик тутиб турувчи, тўпиқдан пастдаги энг қуйи қисми.*

2) Тик холатдаги бирор нарсанинг қуйи қисми.

3) Тўшакнинг оёқ тарафда жойлашган қисм.

4) дюмга (33,48 см) га тенг ўлчов бирлиги

5) (шеърятда) метрнинг базавий бирлигини ташкил қилувчи бўғинлар йиғиндиси.

б) (феъл, оғзаки нутқ) ҳисобни тўламоқ

Биз томондан ушбу сўзнинг 1-2-3- ва 4- лексик-семантик вариантлари (ЛСВ)га мансуб бўлган 72 та сўз бирикмаси топилди. Энг кўп сонли сўз бирикмалари 1-ЛСВга тегишли бўлиб, 60 тани ташкил этади. 2-ЛСВ бта, 3- ва 4-ЛСВлар эса 3тадан сўз бирикмаларига эга эканлиги маълум бўлди. 5-6-ЛСВларга мансуб сўз бирикмалари эса биз томондан аниқланмади. Ушбу ЛСВларнинг ҳар бири *foot* умумий фреймининг алоҳида субфреймларини ҳосил қилади. Қуйида ушбу субфреймларнинг бири бўлган “ Оёқнинг инсон юрганида босадиган тўпиқдан пастки қисми” номли 1-ЛСВнинг “мослама” слотли 11 та сўз бирикмаларининг таҳлили келтирилади.

. “Мослама” слоти унинг орқали ўз навбатида бир нечта пропозицияларни (кейинги ўринларда П) ҳосил қилувчи бир дона “мослама-предикат-объект” пропозиционал схемани (кейинги ўринларда ПС) ҳосил қилади: “оёқ қўйиш учун мослама”-**footboard I**- масалан, поезднинг, оёқ қўйгичи - a narrow platform on which to stand or brace the feet- транспортнинг оёқни қўйиб чиқадиган энсиз зиначаси. (*On its return journey at 5:30 pm it ran back on the slow up line and into Loughton siding where there was a raised platform some 60 ft long at coach footboard height, for milk churns to be loaded on the daily milk train. The railway men: Wolverton 1838-1986. B. West*) **footrest**- a support for the feet- оёқ қўйгич . (*I sit beside Crilly on the footrest. Deliria. A. Hall*). **footplate**- the platform in the cab of a locomotive on which the engineer stands to operate the controls- локомотивни бошқараётган поезд машинистининг оёқда тик турувчи жойи. (*Mr. Reynolds second premonition again took place on the footplate of №43106 leaving Bridgnorth. (Railway ghosts and phantoms. W.B. Herbert.)*) “устида юришга мўлжалланган мослама” **II- footbridge**- a bridge designed for pedestrians- пиёдалар кўприги.

(*Anabelle scrambled across the footbridge to the other side of the canal. (A tale of anabelle Hedgehog. S. Lawhead)*); “тана аъзосини тутиб турувчи мослама” **II- footing (foothold)** -a place providing support for the foot in standing or climbing- Оyoqning turishi

yoki chiqishiga yordam beruvchi joy, taglik, oyoqqo'ygich. (*The cat spat suddenly, startling her and almost making her lose her footing on the branch, but Virginia kept her head as well as her footing, and , pulling back one of the branches forming the fork, lifted the cat free. (The challenge book of brownie stories. R. Moss; At last she was through, with a narrow foothold on the side of the boat. Only two can share. A. Murray)* “инсонлар тана аъзоси ёрдамида унда харакатланадиган мослама” **П-footpath (footway)**- a path or track for pedestrians –сўқмоқ, йўлак, пиёдалар юриш жойи, тротуар. (*Outside on the footpath he stood like a stone reading the letter. Amongst women. J. McGahern. Cross and turn right on footway back to Hundred House. Outdoor Action*) “Оёқнинг остига қўйиладиган мослама” **П- footstool**- a low seat or a stool to rest the feet of a seated person- курсида ўтирган одам оёқларини қўйиши учун мўлжалланган стулча (*A friend of mine had their grandmother living with them - I remember her sitting in her special chair, her feet on a footstool, with people getting her this and that. (The reluctant Samaritan. W. Beechey)*; “Оёққа кийиладиган мослама” **П- footwear (footgear)**- clothing worn on a person's feet- оёқ кийим, поябзал. (*Whatever footwear you choose, it needs to be comfortable and give your feet proper support. Outdoor Action. Boots are the only sensible footgear for this expedition, which in places traverses rough and rocky ground. Wainwright in the limestone dales. A. Wainwright*) “Тана аъзоси ёрдамида ўйналадиган мослама” **П-foot bag**- a small bag usually made of patches of leather or similar material and stuffed with pellets- одатда чарм куроклардан ёки шунга ўшаш нарсалардан қилинадиган ва ичи қийқимлар билан тўлдириладиган кичик тўп. (*Dragonfly Foot bags is the premier brand of high quality, handmade foot bags (hacky sacks) in the U. S. and abroad. Dragonfly foot bags. Internet- дўкон эълони*) “Оёқни қўйишга мўлжалланган мослама” **П- footwell**- a space for the feet in front of a seat in a vehicle or aircraft-автотранспорт ёки самолётдаги ўриндик қаршисидаги оёқлар учун мўлжалланган чуқурлик. (*WPC Susan Larkin, 24, said she had taken cover in the foot well of her police car as bullets hit the vehicle. [Scotsman]. u.p., n.d., World affairs material*) “Оёқнинг иссиқлигини сақловчи мослама” **П-foot muff**- a muff used to keep the child feet warm- бола оёқларини иссиқ сақлаш учун ишлатиладиган муфта. (*The Bugaboo Foot muff keeps your child warm, protected and adds a dash of color to your stroller. Bugaboo International B. V. Интернет-магазин рекламаси*)

Юқоридаги таҳлил кўрсатиб турибдики, “foot” сўзидан салувчи бирикмалар ичидан “мослама” уясини хосил қилувчи аниқ гуруҳларни ажратиш олиш мумкин. Бундан ташқари, ушбу

субфрейм “восита-предикат-объект” пропозиционал схемаси билан характерланади.

Шу тарика мақолада айнан foot сўзидан ясаладиган бирикмалар учун ҳос бўлган субфреймларнинг баъзиларининг ўзига ҳосликлари кўрсатиб берилди.

REFERENCES

1. Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико – фразеологической семантике языка – Воронеж, Изд. Воронежского университета [Types of concepts in lexico – phraseological semantics of the language Voronezh. Voronezh University publishing House] 1996.
2. Бабушкин А.П., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика и семасиология [Cognitive linguistics and semasiology Monography] Монография. – Воронеж: ООО “Ритм” 2018
3. Во’tayev Sh. English – Uzbek, Uzbek – English Dictionary Tashkent. “O’qituvchi” – Nashriyot – matbaa ijodiy uyi. 2013
4. Карасик В.И. Языковой круг: Личность, концепты, дискурс [Language circle: personality, concepts, discourse] – Волгоград: Перемена, 2002
5. Кондаков Н.И. Логика. [Logics] М., 1954
6. Крючкова Н.В. Лингвокультурное варьирование концептов. [Linguacultural variations of concepts] – Саратов: Научная книга, 2005.
7. Мамадалиев А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 5 жилди Т., “O’zbekiston nashriyoti” 2020. [Explanatory Dictionary of the Uzbek language]
8. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. (Cognitive linguistics) – М: Восток – Запад, 2007
9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати [Explanatory phrasological Dictionary of the Uzbk language “O’qituvchi” pub. House] Т., “Ўқитувчи” нашриёти, 1978
10. Сафаров Ш. Когнитив лингвистика [Cognitive linguistics Jizzak “Sangzor” pub. House] Жиззах “Сангзор” нашриёти, 2006
11. Стернин И.А., Попова З.Д. Полевая модель концепта // Введение в когнитивную лингвистику. [Field model of the concept // Introduction to cognitive linguistics] – Вып. 4. – 2 – е изд. испр, и доп. – Кемерово, 2009
12. Хашимов Ғ.М. К Теории метаязыка транслатологии: Таржиманинг лингвокогнитив, коммуникатив – прагматик ва лингвокультурологик аспектлари To the theory of the metalanguage of translatology: Linguocognitive, communicative pragmatic and linguacultural aspects of translation. Materials of the Republican scientific –

practical conference Республика илмий – амалий анжумани материаллари тўплами Андижон, “Andijon nashriyoti – matbaa МЧЖ”. 2015 21 – 25 б.

13. Hornby A.S Oxford Advanced Learners Dictionary of Current English Oxford University press 2000 Кунин А.В. Англо – русский фразеологический словарь [English – Russian phraseological dictionary] Изд. 3 – е, испр, в двух книгах. М., “Сов. Энциклопедия”, “Sov – Encyclopedia ” 1967

14. Юсупов Ў.Қ. Теоретические основы сопоставительной лингвистики [Theoretical foundations of contrastive linguistics] Т., “Фан”, 2007

15. Юсупов Ў.Қ. Концепт ва лингвокультуре атамалари хусусида: On the terms concept and Linguocultureme Қиёсий – чоғиштирма, типологик ва умумий тилшуносликнинг долзарб муаммолари Problems of comparative – contrastive, typological and general linguistics (Республика илмий – амалий анжумани материаллари) [Republican scientific – practical conference] Андижан 2010, 9 – 15 б.

YORMAT TOJIYEV NAZDIDA SINONIM AFFIKSLAR

Azizbek Mamatqulov

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Yormat Tojiyev nazdida sinonim affikslar masalasi tarixiy va ilmiy ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Tilshunoslik, affikslar, Yormat Tojiyev, o'zbek tili.

KIRISH

Tilshunoslikda, dastlab, affikslar yuzasidan X asrgacha umumiy fikrlar-mulohazalar mavjud bo'lgan bo'lsa, XI asrdan e'tiboran esa turkiy tillar kesimida o'rganila boshlandi. Yildan yilga tahliliy xulosalarning oydinlashib borishi XX asrning 70-yillaridan kelib o'zbek tilshunosligida qo'shimchalarning ma'nodoshlik masalasi asosiy o'rinni egallay boshlaganligi sezilib turardi.

Affikslarning uslubiy bo'yoqdorlik masalasi, ularning sinonimik qatordan joy olishi hamda darajalanish kabi alohida belgilarini tadqiq qilish borasidagi misilsiz ishlarni o'zbek tilshunosligining jonkuyari professor Yormat Tojiyev ilmiy faoliyatida kuzatishimiz mumkin. Affiksial sinonimiya haqida gap ketganda, albatta, turkiy tillardagi dastlabki ko'rinishga ega bo'lgan qo'shimchalar qatoriga, asl hamda fors-tojikcha o'zlashma affikslar munosabatini ham jiddiy o'ganish taqazo etishni talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bu xususida olim 1991-yil "O'zbek tilida affikslar sinonimiyasi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida batafsil to'xtab o'tgan. Professor Yormat Tojiyevgacha olib borilgan tadqiqotlarda sinonimik affikslarning, asosan, shaxs otlari va sifat yasovchi affikslar doirasida o'rganilganligi kuzatilgan. Olim bu boradagi ishlarga fe'l yasovchi va fe'l formalari hosil qiluvchi affikslarning o'zaro sinonimik munosabati, jumladan, ularning semantik-stilistik xususiyatlarini tahlil qilib o'tadi. U o'z ilmiy izlanishlarida sinonimik qatorga kiruvchi affikslarning ayrim hollarda ma'no jihatdan farqlanishi ko'rsatib turuvchi jihatlari va sinonimik munosabatga kirisha olmasligini belgilab beradigan holatlarini ta'kidlab o'tadi.

Yormat Tojiyev fe'l yasovchi affikslarni tadqiq qilar ekan, jumladan, *-la* affiksining fe'l yasashda unumliligini e'tirof etish bilan birga uning juda ko'p qo'shimchalar: *-ka, -ar, -ur, -sa, -si* va

hakazo affikslar bilan sinonimik munosabatga kirishini aytadi. Masalan, iska, o'ngar, suvsa, alahsa Ayni chog'da, ularda mavjud bo'lgan stilistik ottenkalarga e'tibor qaratadi. Shu bilan birgalikda davr o'tishi bilan so'zlarda bo'ladigan fonetik jarayonlarni tahlil qilib o'tadi va so'zlardagi o'zgarishlarni hisobga oladi.

Olimning keyingi izlanishlaridan biri fe'l darajalari yasovchi affikslar sinonimiyasi yuzasidan fikr yuritar ekan, majhul, ortirma, birgalik, o'zlik darajalarini ifodalovchi affikslarning o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtalib o'tadi hamda nutqda ularning sinonimik munosabatga alohida to'xtaladi. Xususan, majhul va o'zlik nisbatlari haqida fikr yuritar ekan, ular o'rtasidagi farq sub'ekt va obyektning aloqasiga bog'liq deydi. Shu bilan birgalikda tarixan o'zlik nisbati hosil qiluvchi -ik, -man kabi qo'shimchalarning ma'nodoshligiga ham to'xtalib o'tadi.

Sifatdosh yasovchi affikslar sinonimiyasi haqida so'z yuritar ekan, olim sifatdaosh yasovchi qo'shimchalarning tilimiz tarkibida ko'p ekanligini, ularning tadrijiy taraqqiyoti to'g'risida ham tahliliy ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Hozirgi o'zbek tilida uchraydigan -gusi, -gisi, -kusi, -asi, -mas, -ag'on kabi kamunum qo'shimchalariga alohida to'xtalib o'tadi.

Bundan tashqari, sifatdosh yasovchi affikslarning sinonimik munosabatini belgilashda, sifatdoshning aniqlovchilik belgisini o'zbek tili qonuniyatlariga mos ravishda asos qilib oladi. Olim o'zbek tilshunosligida grammatik kategoriyalar tasnifi jihatida hozirgi o'zbek tilidagi ravishdosh yasovchi affikslarni ham qiyosiy jihatdan o'rganib, bu xoslangan shaklning o'zaro sinonimik munosabat hosil qilishini qayd etadi. -sh, -ish harakat nomi yasovchi affikslari keladigan bo'lsak, -gani affiksli kabi birikma hosil qilganda, bunday jarayon nutqda sinonimik holatga kelishini aytib o'tadi.

Yuqoridagi fikrlarni asos qilib oladigan bo'lsak, harakat nomi yasovchi affikslar tilimizning tadrijiy taraqqiyoti davrlarida turlicha bo'lishidan tashqari, ularning iste'mol doirasi ham davr nuqtai nazaridan tofovutlanadi. Agar eski o'zbek adabiy tilida -moq, -mak affikslarining iste'mol doirasi keng bo'lgan bo'lishi o'sha davr nutq iste'moli nuqtai nazaridan yondashilgan bo'lsa, -sh, -ish va -v, -uv affikslarining so'zlar tarkibida kelishi jihatidan qo'llanishi doirasi nisbatan keyinroqqa to'g'ri keladi. Olim bu guruhdagi affikslarning sinonimik munosabatiga to'xtalganda, ularning uslubiy farqini hisobga oladi. Masalan, ko'maklashuv-ko'maklashish, erishish-erishuv. Agar hozirgi o'zbek adabiy tiliga e'tibor beradigan bo'lsak, hozirda -sh, -ish boshqa affikslarga qaraganda ko'p iste'molda. Bu misol sifatida, janr nuqtai nazaridan tahlil qilinadigan -moq, -mak affikslari hozir she'riyatda saqlanib qolganligiga guvoh bo'lamiz. Biroq ular tabiiyki, sinonimik munosabat kasb etishi

tilshunoslikda aks etib turadi. Ayni chog‘da ularning har biri nutqiy jozibani ko‘rkamlashtirishda ro‘l o‘ynashi o‘zbek tilining serqirraligidan dalolat beradi.

Olimning so‘z turkumlaridagi yasovchilik xususiyatlariga ham to‘xtalganligiga ham guvoh bo‘lishimiz mumkin. Jumladan, sifat yasovchi affikslar haqida bildirgan fikrlari ham alohida ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Xususan, -li va -ser affikslarining o‘zaro ma‘no jihatdan teng kelishi va ayrim jihatlarda sinonimik munosabatda bo‘la olmasligi haqida fikr yuritar ekan, olim -li affiksi o‘zakdan anglashilgan obyektga me‘yordan ortiq darajaga ega ekanlik ma‘nosini ifodalab kelganda -ser affiksi bilan sinonimik munosabat hosil qilishini isbotlashga harakat qilgan. Chunki -ser affiksi bilamizki, o‘zbek tiliga tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, obyektning miqdoriy jihatdan ortiqqligini bildirib keladi.

Olimning yillar davomida to‘plagan ilmiy xulosalari asosida quyidagicha fikr bildirib o‘tadi: “-li va ser- affikslari o‘zbek tilida hamma vaqt ham o‘zaro sinonimik munosabat hosil qilavermaydi: Buni bir nechta misollar orqali asoslash mumkin. Masalan, *G‘ijduvon uzumlari, tukli, sersuv shaftolilari taxlanib yotardilar (I.Jo‘rayev). Sertuk qo‘llarini ko‘kragiga chalkashtirib bir-ikki minut indamadi (Oybek).* Keltirilgan misollardagi *tukli* va *sertuk* so‘zlarida -li va ser- o‘zaro sinonim emas. Chunki *tukli* so‘zi tarkibidagi -li affiksi predmetning o‘zakdan anglashilgan obyektga ega ekanligini ifodalaydi, *sertuk* so‘zi tarkibidagi ser- affiksi o‘zakdan anglashilgan obyektga me‘yordan ortiq darajada egalikni ifodalab kelgan”, deb ilmiy asoslashga harakat qilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda olim -li va ser- qo‘shimchalari haqidagi fikrini davom ettirib, -li qoshimchasi ot turkumiga oid ayrim so‘zlarga qo‘shilganda ser- affiksi bilan sinonimik munosabat hosil qilishi ilmiy manbalar asosida tahlil etilgan. Bunga misol sifatida *daromadli, g‘ayratli savlatli, shijoatli* so‘zlarini keltiradi va aytadiki, -li va ser- affikslarining sinonimik munosabatga kirishida hamda shu affikslar vositasida yasalgan so‘zning birikib kelgan aniqlanmishi hal qiluvchi ro‘lni o‘ynaydi, deb fikr yurita oladi.

REFERENCES

1. “O‘zbek tilida affiksali sinonimiya”-T., 1991.Yormat Tojiyev.
2. “Til ilmiga sadoqat”-T., 2010.Yormat Tojiyev.
3. “O‘zbek tili morfemikasi”-T.,1992.Yormat Tojiyev.



АНДИЖОН ВИЛОЯТИДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ХОНОБОД ТУРИСТИК РЕКРЕАЦИОН ЗОНАСИНИНГ ЎРНИ

Юсуфжон Исмоилович Аҳмадалиев

Фарғона давлат университети география кафедраси профессори, г.ф.д.

Муроджон Насириллохон ўғли Мусаев

Фарғона давлат университети география кафедраси магистранти

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақола Андижон вилоятининг Хонобод рекреацион туристик зонасида туризм ва рекреацияни ривожлантириш масалаларига қаратилган. Шунингдек, Хонобод рекреацион туристик зонасини истиқболда ривожлантиришнинг асосий йўналишлари белгилаб берилган

Калит сўзлар: туризм, саёҳ, зиёратгоҳ, рекреация, туристик -рекреацион зона.

КИРИШ

Республикаси Президентининг 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисидаги Фармонининг 35-мақсадида туризмни ривожлантириш бўйича қуйидаги мақсадлар илгари сурилган. Жумладан, “Ўзбекистон бўйлаб саёҳат қилинг” дастури доирасида маҳаллий сайёҳлар сонини 12 миллион нафардан ошириш ҳамда республикага ташриф буюрадиган хорижий туристлар сонини 9 миллион нафарга етказиш вазифалари қўйилган [1]. Бу вазифаларни бажаришда туризмни ривожлантиришнинг географик жиҳатларини ўрганиш муҳим амалий аҳамият касб этади. Шунингдек, Ўзбекистон Президентининг 2017 йил 16 августдаги қарори билан Ўзбекистонга саёҳат қилишни енгиллаштириш, туризм инфратузилмаларини ривожлантириш ва янги туризм объектларини ташкил этишга қаратилган “2018–2019 йилларда туризм соҳасини ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар дастури” тасдиқланди. Бир ой муддат ичида фуқароларига 2018 йилнинг 1 январидан виза тартибини соддалаштириш таклиф этилаётган мамлакатлар ҳамда фуқароларига махсус зиёрат туризми дастурлари таклиф этиладиган давлатлар рўйхати шакллантирилади [2].

АДАБИЁТЛАР ТАХЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯСИ

Рекреация ва туризмни географик жиҳатдан ўрганиш ва ривожлантиришнинг илмий услубий асослари Н.Робинсон, S.Williams, С.М.Налл, S.J.Page, Robert W.Wyllie, R.W.Butler, В.С.Преображенский, Н.С.Мироненко, С.Р.Ердавлетов, Л.Ю.Мажар, Н.В.Шабалина ва бошқа олимларнинг тадқиқотларида кенг ёритилган. Айни вақтда, республикамизда ҳам рекреация ва туризмнинг айрим муаммолари бўйича А.С.Солиев, А.Н.Нигматов, Н.Тўхлиев, Ф.Комилова, Ю.И.Аҳмадалиев, М.Р.Усмонов, О.И.Абдуғаниев каби тадқиқотчилар шуғулланишган [5, 15, 18, 19, 20].

Бундан ташқари, Н.Шамуратова, Б.Х.Камолов, Ш.Т.Якубжонова, Ш.Ф.Шомуродова, М.М.Махмудов, А.Р.Матназаров, Ш.А.Холмуродов, Ў.Б.Бадалов каби тадқиқотчилар томонидан рекреация ва туризм масалалари бўйича ҳудудларни тадқиқ этиш, етакчи йўналишларини янада ривожлантириш бўйича тавсиялар ишлаб чиқиш каби масалалари кенг кўламда ва чуқур таҳлил этилган [5, 15, 17, 19].

Туризм (французча сайр, саёҳат), сайёҳлик — саёҳат (сафар) қилиш, дам олиш деган маънони билдиради. Туризм деганда жисмоний шахснинг доимий истиқомат жойидан соғломлаштириш, маърифий, касбий амалий ёки бошқа мақсадларда борилган жойда (мамлакатда) ҳақ тўланадиган фаолият билан шуғулланмаган ҳолда узоғи билан 1 йил муддатга жўнаб кетиши (саёҳат қилиши) тушунилади. Замонавий туризм тарихи XIX аср бошларига бориб тақалади. Дастлаб Англиядан Францияга уюшган сайёҳлик ташкил этилган (1815). Туризмнинг асосчиси ҳисобланган инглиз руҳонийси Томас Кук 1843-йилда 1-темир йўл сайёҳлигини ташкил қилди. Шундан сўнг у ўзининг хусусий туристик корхонасини тузди ва 1866-йилда дастлабки сайёҳлик гуруҳларини АҚШга жўнатган [3, 5, 6, 18].

Шарқда араб сайёҳи Ибн Баттута 21 ёшида саёҳатини бошлаб, деярли барча Шарқ ва Шимолий Африка мамлакатларини пиёда кезиб чиқди. Илк кўчманчилар эрамиздан аввалги 4 - 3 минг йилликларда, ҳатто ундан олдинги даврларда ҳам бўлган. Осиё, Шимолий Африка ва Жанубий Европа ҳудудларида уларнинг дастлабки жамоаларини кузатамиз (масалан - аборигенлар, индейслар). Эрамиздан аввалги 2 - минг йилликнинг охири ва 1 - минг йилликда Марказий Осиё ҳудудида ҳам чорвадор подачи жамоаларининг моддий маданият ёдгорликлари қадимий Хоразм (Тозабоген)да, Зарафшон водийси (Ургут, Каттакўрғон)да, Фарғона водийси (Водил ва Қаромкўл)да, Тошкент воҳаси (Ачикўл) да ҳам мавжуд бўлган [3, 8, 9, 10]. Ўлкамиздаги кўчманчи қабилалар ҳақида

"Авесто"да, юнон тарихчилари асарларида муҳим манбаалар мужассам. Эрамиздан аввалги VI асрларда ёзилган ва оташпарастлик (зороастризм) динининг мазкур китобида Эрон ва Марказий Осиё халқларининг қадимги маданияти (эътиқоди, тили, адабиёти), тарихи ҳақида қимматли маълумотлар мужассам [4, 8, 11]

НАТИЖА ВА МУҲОКАМАЛАР

Мамлакатимиз туризм салоҳиятида Андижон вилояти, жумладан Хонобод шаҳри алоҳида ўрин тутди. Шаҳарга 1972-йилда асос солинган бўлиб, аҳолиси 41 минг кишини, умумий ер майдони эса, 23 километр квадратни ташкил этади [5]. Хонобод шаҳри Қорадарёнинг ўнг соҳилида, вилоятнинг шарқида жойлашган. Вилоят марказидан 80 км узоқликда жойлашган. Қўқон хонлиги даврида бу ҳудуд "Бешкапа" деб юритилган. Маҳаллий ривоятга кўра, Қўқон хонлари Хонобод атрофидаги тўқайзорларга келиб шикор уюштириб, дам олишни хуш кўрганлар. Шу боис бу ҳудуд ободонлаштирилган. Қорадарёда Андижон сув омбори қурилишининг бошланиши билан (1969 йил) Хонобод шаҳри аҳолиси кўпайган [5, 6, 7].

Амир Темуриятган империянинг шарқий сарҳадлари саналган Фарғона водийси, азалдан яратувчанлик ва бунёдкорлик билан шуғулланган эл ва элатлар билан беозор тотувликда яшаб келган. Ўрта асрнинг иккинчи ярмида хукмронлик қилган Қўқон хони Норбўтабий ва унинг фарзандлари хонлик даврларида нафақат сарҳадларини кенгайтиришга, балки дехқончиликни ривожлантиришга ҳам кенг имконият яратиб берган. Жумладан, Андижон ўлкасининг серхосил адирлик яйловлари ва текисликларига Оқ бўра ҳамда Қорадарёдан оқаётган сувларни жиловлаб, каналлар орқали керакли жойларга сув таъминлаш тизимини ташкил этган. Тяньшань тоғларининг ғарбий қорли чўққиларидан ҳосил бўлган сувлар Ясси ва Куршаб irmokларидан ташкил топган "Қорадарё" (катта дарё) ўзининг асовлиги билан Кампирровот дарасидан ўтгач оқими бўйлаб гоҳ ўнга Фозилмон, Хидиршо, Сузоқ каби жойларга, чапда эса Султонобод, Дардоқ, Ойим каби томонларга ёйилиб оққанлиги учун дарё ўзанида катта кичик оролчалар ҳосил бўлиб турли туман хайвонот ва кушлар учун табиий кўпайиш масканига айланиб борган [3, 4, 12].

Шаҳарда рекреация ва туризмни ривожлантиришнинг бир қанча географик қулайликлари мавжуд. Хонобод шаҳри денгиз сатҳидан 750-800 метр баландликда, ўзининг кўркем манзараси, табиатининг гўзаллиги, тоза ҳавоси билан

сайёҳларнинг диққатини ўзига жалб қила оладиган энг обод ҳудудлардан биридир. Туризм ёки сайёҳликни ташкил этишда ҳудуддаги табиий, маданий-этнографик ва тарихий объектлар ёки ҳудудлар ўрганилади. Танлаб олинган объект ва ҳудудларни картада тасвирлашда уларнинг барча хусусиятларини ҳамда туристик имкониятларини эътиборга олиш мақсадга мувофиқдир.

Дастлаб ҳудуднинг географияси, экологияси ва бошқа хусусиятлари бўйича турли адабиётлар, карталар ва фонд материаллари ўрганилди ва таҳлил қилинди. Сўнгра тўпланган материаллар асосида ҳудуд бўйича олинган аэрокосмик суратлар (GIS ёрдамида) ўрганилиб чиқилади. Аэрокосмик суратларни ўрганиш жараёнида каньонсимон водийлар, дарё қайиридаги “яшил кўприклар”, булоқлар, ҳаракатчан барханлар, дарёларнинг реликт водийлари, асосий транспорт йўллари, аҳоли пунктлари ва бошқалар аниқланади [13, 14, 16].

Туристтик объект сифатида ҳисобга олинган табиий-антропоген объект ва ҳудудлар ҳар томонлама ўрганилади ҳамда таърифланади. Дала шароитида туристик объектларни карталаштиришда топографик карталар, аэросуратлар ва космик суратлардан фойдаланилади. Улар ёрдамида туристик ресурсларнинг мақсади ва вазифалари аниқланади.

Туристтик ресурсларни картада тасвирлашда уларни географик хусусиятлари ва таснифига алоҳида эътибор қаратилади. Карталарда ҳалқаро, маҳаллий, касбий саёҳат, соғломлаштириш, соғликни тиклаш, диний, спорт ва танишув даражасидаги туристик объектлар алоҳида ажратиб тасвирланади. Ошхона, кафе ва барлар, ҳордиқ оладиган жойлар ва магазинлар бир-бирига яқин жойлаштирилади. Пиёда, отда, велосипедда ва бошқа транспорт воситаларида уюштирилладиган маршрутлар йўналишлари тасвирланади ва бир-биридан ажратиш учун ҳар хил рангларда тасвирланади. Маршрут йўналишидаги сайёҳларни ўзига жалб қиладиган объектлар ҳам тасвирланади. Картага илова тарзида сайёҳларни ўзига жалб қиладиган объектларнинг хусусиятлари ва маршрутнинг ўзига хослиги келтирилади.

ХУЛОСА

Минтақанинг рекреацион-туристик салоҳияти маъмурий-худудий бирликлар асосида таҳлил қилинди, ҳар бир маъмурий бирлик учун туристик-рекреацион салоҳиятнинг юқори ва паст кўрсаткичга эга бўлган турлари аниқланади. Ҳудудий бирликларда туристик-рекреацион фаолиятни йўлга қўйишда ҳамда истиқболли мақсадли дастурини юқоридаги кўрсаткичларни эътиборга олган ҳолда ишлаб чиқилади.

Юқоридаги маълумотлар шуни кўрсатиб турибдики Хонобод рекреацион туристик зонаси жуда қулай табиий шароитга эга. Қулай автомобил йўллари туташган, сув манбаалари билан яхши таъминланган, иқлими жуда қулай ҳудуд ҳисобланади. Лекин ҳудуднинг асосий қисми морфологик жиҳатдан тоғ ва тоғолди минтақаларидан иборат бўлгани учун тўла тўқис иқтисодий фаолият учун ҳозирча ўзлаштирилмаган . Бироқ ҳудуднинг бу жиҳати ҳам тоғ туризмни ривожлантириш учун қулайдир. Шаҳарнинг бундай ўзига хос географик шароитини ҳар томонлама ўрганиш у ерда рекреация ва туризмни ривожлантиришнинг асосий йўналишларини аниқлашда муҳим омиллардан бири саналади.

REFERENCES

1. 2022-2026- йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони . 2022-й. 28-январ ПФ -60.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018-2019- йилларда туризм соҳасини ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора тадбирлар тўғрисида ПҚ 3217 сонли қарори. 17.08.2017.
3. Аҳмадалиев Ю. И. Ер ресурсларидан фойдаланиш геоэкологияси //Т: Fan va texnologiya. – 2014. – Т. 340.
4. Аҳмедов Б. “ Ўзбекистон тарихи манбаалари” Тошкент “Ўқитувчи” 2001.
5. Аҳмадалиев Ю. И., Абдуғаниев О. И. The value of geocological principles in the system of protected natural territories //Ўзбекистон ва Россияда география фани: умумий муаммолар, ҳамкорлик салоҳияти ва истиқболи. – 2019. – С. 48-50.
6. Аҳмадалиев Ю. И. НЕОБХОДИМОСТЬ ПРОБЛЕМНОГО ПОДХОДА К ИССЛЕДОВАНИЮ ЗЕМЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ РЕГИОНА //Актуальные вопросы современной науки. – 2015. – №. 3. – С. 24-28.
7. Ahmadaliyev Y. I. et al. Changes in the Natural Composition of the Land Fund and Its Protection (on the Example of Khojaabad District) //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2021. – Т. 2. – №. 04. – С. 165-168.
8. Аҳмадалиев Ю. И. Этноэкологическая культура населения Ферганской долины в конце XIX и начале XX века //Социально-экономическая география. Вестник Ассоциации российских географов-обществоведов. – 2015. – №. 4. – С. 181-187.
9. АХМАДАЛИЕВ Ю. И., КОМИЛОВА Н. Ў. ЭТНОЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИНГ ҲУДУДИЙ ЖИҲАТЛАРИ. – 2020.
10. Аҳмадалиев Ю. И., Алимджанов Н. Н. ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ТРАДИЦИОННОГО ВОДОПОЛЬЗОВАНИЯ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ

//География: развитие науки и образования. – 2020. – С. 375-380.

11. Ахмадалиев Ю. И. ЭТНОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЦИОНАЛЬНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ //Известия Географического общества Узбекистана. – 2015. – Т. 45. – С. 180-183.

12. Ахмадалиев Ю. И., Абдувалиев Ҳ. А., Алимджанов Н. Н. ABOUT THE ETHO GEOGRAPHIC ROOTS OF PROBLEMS OF THE CONSUMING WATER AND GROUND RESOURCE //Геоэкологические проблемы бассейна Аральского моря: научные идеи, исследования, инновации. Сборник материалов Международной научно-практической конференции. – 2019. – С. 107-111.

13. Ahmadaliyev Y. I. et al. Geocological and Farm Stress Level (on the Example of Khojaabad District) //Academia Globe: Inderscience Research. – 2021. – Т. 2. – №. 04. – С. 169-174.

14. Ismoilovich A. Y. et al. АНКЛАВ ҲУДУДЛАРДА ЕР РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АМАЛИЙ АҲАМИЯТИ //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 180-186.

15. Абдуганиев О. И., Махкамов Э. Г. Географические особенности организации туристско-рекреационной деятельности в охраняемых природных территориях //Экономика и социум. – 2019. – №. 9. – С. 383-390.

16. Абдуганиев О. И., Махкамов Э. Г., Комилова Т. Д. ГЕОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ //Экономика и социум. – 2020. – №. 4. – С. 1072-1077.

17. Abduganiev O. I., Makhkamov E. G. ECOLOGICAL TOURISM IN PROTECTED NATURAL AREAS //Journal of Geography and Natural Resources. – 2022. – Т. 2. – №. 02. – С. 25-32.

18. Абдуганиев О. И. и др. ЛАНДШАФТ ВА БИОЛОГИК ХИЛМА-ХИЛЛИКНИ ГАТ-ТАХЛИЛ АСОСИДА БАҲОЛАШ //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 53-58.

19. Абдувалиев, А. Ҳ., & Абдулхамидов, А. А. Ў. (2021). ФАРҒОНА ВОДИЙСИДА АҲОЛИ ЖОЙЛАШУВИНИНГ ИЖТИМОЙИҚТИСОДИЙ ОМИЛЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 1127-1136.

20. Makhkamov E. GEOGRAPHICAL DISTRIBUTION OF MEDICAL PLANTS OF THE FERGANA VALLEY, RECREATION POSSIBILITIES AND GEOECOLOGICAL ASPECTS OF THEIR PROTECTION: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1414> //RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES. – 2021. – №. 18.06.

МИЛЛИЙ БОҒЛАРДА ФУНКЦИОНАЛ ЗОНАЛАРГА АЖРАТИШДА ГАТ-ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

М. Н. Дехканбаева

Фарғона давлат университети катта ўқитувчиси

Р. Мустаев

Фарғона давлат университети ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақола миллий боғларнинг ҳудудларни функционал жиҳатдан зоналарга ажратишнинг геоэкологик жиҳатларини ўрганишга қаратилган бўлиб, бу жараёнда ГАТтехнологиясидан фойдаланиш усулларини таҳлил қилинган.

Калит сўзлар. Миллий боғ, ГАТ, экологик каркас, геоэкология, барқарор ривожланиш, кўриқхона, экотизим, туризм.

ABSTRACT

This article is aimed at studying the geoeological aspects of the functional zoning of national parks, and analyzes the methods of using GAT technology in this process.

Keywords. National park, GAT, ecological framework, geoeology, sustainable development, nature reserve, ecosystem, tourism.

КИРИШ

Жаҳонда инсон фаолияти таъсирига учрамаган ва табиий ландшафтларни сақлаш, ўсимликлар ва ҳайвонот олами ва уларнинг яшаш муҳитини муҳофаза қилиш ҳамда улардан илмий ва ўқув амалий соҳаларда фойдаланиш иконини берувчи муҳофаза этиладиган табиий ҳудудларни аниқлаш ҳамда улрани ГАТ-технологиялари ёрдамида баҳолашга бўлган эҳтиёж йилдан-йилга ортиб бормоқда. Жумладан, БМТнинг 2030 йилгача барқарор ривожланиш бўйича дастурида “қуруқлик экосистемаларини муҳофаза қилиш ва тиклаш, улардан оқилона фойдаланиш, ўрмонларни рационал бошқариш, чўлланишга қарши курашиш, ерларнинг деградациясини тўхтатиш ва биологик хилма-хиллик йўқолишининг олдини олиш” бўйича вазифалар белгилаб берилган. ГАТ-технологиялари ёрдамида ҳудудларни экологик карталаштириш, шу жумладан миллий боғ ҳудудларини

функционал зоналарга ажратишда аналитик ва синтетик карталарни яратишни тақозо этади.

Республикамизда табиатни муҳофаза қилиш соҳаларида ГАТ технологиялари, жумладан AtlasGIS, WinGIS, ArcInfo, MapInfo, ArcGIS, QGIS (АҚШ), GeoDraw GeoGraph (Россия) дастурлари, Hydrus 1D (Германия) моделида карталар яратиш, аэрокосмик суратларни юклаш, тасвирларни қайта ишлаш, рақамлаштириш ва векторлаштириш, маълумотлар базасини яратиш, картографик тасвирлаш белгиларини қуриш, диаграммаларни тузиш ва моделлаштириш юзасидан муҳим вазифалар белгилаб берилган. Бу вазифаларни амалга оширишда, ГАТ технологияларини қўллаган ҳолда миллий боғларнинг ҳудудларини зоналарга ажратиш, уларда юзага келиши мумкин бўлган экологик ҳолатни карталаштириш ва моделлаштириш муҳим аҳамият касб этади [2, 12].

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Экологик картографияни ривожлантириш ва тадқиқ қилиш, экологик карталарни яратиш борасида илмий тадқиқот ишлари Randel Washburne, W.Hartman, А.М.Берлянт, А.П.Золовский, Б.Е.Кочуров, Ф.Ҳ.Ҳикматов Ю.Ахмадалиев, А.Нигматов, В.А.Рафиқов, Ш.М.Шарипов, О.И.Абдуғаниев ва К.Хакимовалар томонидан амалга оширилган. Экологик атласлар яратиш бўйича Review of Napa Valley Historical Ecology Atlas (2012), Ecological Atlas of Alaska (2016), Россия Федерацияси экологик атласи (2002), Москва области экологик атласи (2012) каби ишларда муайян тадқиқотлар олиб борилган ҳамда уларнинг барчаси маълум даражада ижобий натижаларга эришилган.

Бу тадқиқотлар экологик картографияни географик жиҳатларининг илмий асосларини такомиллаштириш учун муайян имкониятларни беради. Бироқ, юқоридаги тадқиқотларда алоҳида миллий боғларни зоналарга ажратишда ГАТ-технологиялардан фойдланишнинг илмий-назарий асослари муайян узвийликда ўрганилмаган, атласлари яратилмаган [3, 4].

НАТИЖА ВА МУҲОКАМАЛАР

Миллий боғларда функциянал зоналарнинг сони ҳудуднинг табиий хусусиятларига ва мавжуд фойдаланиш моҳиятига боғлиқ ҳолда белгиланади. Юқоридаги тадқиқотчилар томонидан функциянал зоналарнинг чегаралари ердан фойдаланишнинг мавжуд контурларига ёки ҳудудий бошқарувга имкон қадар кўпроқ мос келиши асослаб берилган. Жойни ташқи кўриниши чизиқли шаклда

ориентирлашни амалга оширишда сув ҳавзалари, дарё ирмоғи, йўллар, экологик сўқмоқлар ва бошқалар ҳисобга олинган. Шу билан бирга, айрим ҳолларда миллий боғнинг функционал зонларининг ичида алоҳида субзонлар ёки ҳудудларни ажратилиши мумкин. Бундай ҳудудлар, биринчи навбатда, миллий боғни ёки табиатни махсус муҳофаза қилиш режимига эга бўлган зоналарда бўлиши керак [3, 5, 6].

Муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар тўғрисида давлат Қонунларида миллий боғларда бир-биридан функционал фарқланувчи турли зоналарга ажратилган. Масалан, Россия федерал қонунида миллий боғлар 7 та зонага бўлинган:

- кўриқхона (асосий функцияси – табиий комплекслар ва объектларни ҳамда уларнинг табиий ҳолатини сақланиш) зонаси;
- алоҳида муҳофаза қилинадиган (алоҳида табиий мажмуалар ва объектларни сақлаб туриш учун шароитни таъминлаш) зона;
- таништурув туризми (экологик таълим-тарбия бериш ва диққатга сазовор объектлар билан таништириш) учун ажратилган ҳудуд;
- рекрецион (табиий шароитда дам олишни ташкиллаш) зона;
- тарихий-маданий объектларни муҳофаза қилиш (тарихий ва маданий объектларни сақлаб қолиш учун шароитни таъминлаш) зонаси;
- миллий боғ ҳудудига ташриф буюрувчиларга хизмат кўрсатиш (кечки тунаш жойлар, чодир лагерлари, маданий дам олиш, маиший, ахборот ва бошқа сайёҳлик хизматлари) учун мўлжалланган ҳудудлар;
- хўжалик мақсадлар (миллий боғнинг функционал зоналарини фаолиятини таъминлашда зарур бўлган хўжалик фаолиятни амалга ошириш) учун ажратилган ҳудудлар.

Айниқса, маҳаллий аҳоли яшайдиган ҳудудларда яратилган миллий боғларга алоҳида қаратилади. Юқоридаги функционал зоналарга кўшимча равишда, аҳолининг тирикчилик эҳтиёжларини қондириш учун бу ерда анъанавий табиатдан фойдаланиш ҳудуди ажратилади. Бундай ҳудуд доирасида ов хўжалигини юритиш ёки балиқ овлаш, мевалар ва кўзқоринларни йиғиш, халқ ҳунармандчилигини ва бошқаларга рухсат берилиши мумкин.

Мураккаб зоналар тизими фақат баъзи ҳолларда зарур ҳисобланади: қайердаки, мавжуд табиат комплекси ва ҳудуддан фойдаланиш хусусияти ҳаддан ташқари жуда майдалашган ҳолатда бўлса. Бироқ, бундай ҳолатларда, юқоридагиларни этиборга олиб, ҳар қандай йўл билан миллий боғ моделини соддалаштириш учун ҳаракат қилиш керак. Бундай соддалаштириш усулларида бири функцияси

бир бирига яқин бўлган зоналарни бирлаштириш ҳисобланади. Масалан, бундай усул ёрдамида Болтиқбўйи давлатларида миллий боғларни моделлаштиришда фойдаланиб келмоқдалар. Натижада, Болтиқбўйи давлатларида миллий боғлар 5 та асосий функционал зонага ажратилган:

- кўриқхона режимига эга ҳудудлар,
- рекреация ва танишув туризми учун ажратилган ҳудудлар,
- меҳмон ёки ташриф буюрувчиларга хизмат кўрсатиш зоналари,
- анъанавий табиатдан фойдаланиш зонаси,
- хўжалик мақсадлари учун мўлжалланган ҳудудлар.

Юқорида келтирилган миллий боғнинг моделига эътибор қаратилса, сайёҳларни дам олиши ва танишув туризми вазифалари бажарувчи ҳудудлар миллий боғда бир зонага бирлаштирилган. Миллий боғ, шунингдек кўриқхоналарнинг атрофида кўриқланма зонаси ажратилади. Кўриқланма зоналар муҳофаза этиладиган табиий ҳудудларга салбий таъсирнинг олдини олиш мақсадида хўжалик фаолияти ва бошқа фаолият чекланади ёки тақиқланади [7, 8]. Шунингдек, бундай зонанинг кенглиги табиий ва ижтимоий-иқтисодий шароитларга боғлиқ. Ҳимоя зоналарнинг ўлчамлари ва режими, шунингдек ер участкаларини сақлаш вазифаси муҳофаза этиладиган табиий ҳудудларни ташкил этиш билан бир вақтда белгиланади. Бундай зоналар ҳудуди собиқ ер эгалари назорати остидадир, аммо иқтисодий фаолият миллий боғнинг маъмурияти билан мувофиқлаштирилган бўлиши шарт.

Илмий тадқиқотлар Самарқанд вилояти Самарқанд туманида жойлашган, “Аъзам Азамат агро” ферми хўжаликида ўтказилди. Ушбу фермада жами 250 бош Голштин зотиға мансуб қорамоллар мавжуд бўлиб, шундан 100 бош сизир, 75 бош бузоқлар ва 75 бош бўқалар ташкил қилади. Шу фемадан 40 бош икки гуруҳдан, жами тўрт гуруҳға 10 бошдан иккита тажриба ва иккита назорат гуруҳларға ажратиб, тажриба ўтказилди. Тадқиқотлар давомида қорамолларнинг барча физиологик кўрсаткичлари текшириб борилди. Насл олишда биринчи навбатда сизирларнинг генетиксини яхшилаш энг самарали усул ҳисобланади. Қорамолчиликда генетикани яхшиланинги энг самарали усули *Эмбрион трансплантация* яъни донир сизирдан авлод олиш бўлса, иккинчи усули бу *чет элда уруғлантирган насли гунажинларини* олиб келиш орқали бузоқ олиш, учунчи усул *насли бўқаларнинг уруғи билан сунъий уруғлантириш* орқали тўғилган урғочи бузоқларнинг қатъий юруқнома асосида боқиб уларни кўпайтириш орқали эришилади. Бу усуллардан *Эмбрион трансплантация* ҳозирча Ўзбекистон шароитида қўлланилмаган, тажрибалар давомида *чет элда уруғлантирган насли гунажинларини* олиб келиш орқали бузоқ олиш ва *насли бўқаларнинг уруғи билан сунъий уруғлантириш* усуллардан фойдаланилди. Ушбу усуллардан фойдаланиш ҳозирги кунда чорвачилик хўжаликларида кенг қўлланилмоқда

ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ

Қорамоллардан ўтказилган тадқиқотлар натижасига кўра 40 бош Голштин зотли Голландиядан келтирилган насли сизирларда олиб борилди. Бунда чет элдан уруғлантириб келтирилган насли ғўножинлар жами 20 бош иккита тажриба гуруҳлари 10 бошдан ажратилди, унъий уруғлантирилган насли сизирлар эса жами 20 бош, 10 бошдан иккита назорат гуруҳларға ажратиб ўрганилди. Тадқиқотнинг натижалари қўйдаги диаграмма орқали ифодаланган.

Диаграмма №1



Ушбу диаграммада 40 бош тажриба ва назорат гуруҳидаги сигирлардан олинган бузоқларни фоизга ҳисоблаганда Чет элдан уруғлантириб келтирилган наслии ғуножинлардан жами 20 бош яъни 10 бошдан иккита тажриба гуруҳларга чет элдан уруғлантириб, келтирилган наслии ғўнажинларнинг насл бериши 44 % ни ташкил қилган бўлса, Сунъий уруғлантирилган сигирлар 12 % насл олинганлиги кузатилди. Иккита назорат гуруҳлардаги жами 20 бош яъни 10 бошдан иккита тажриба гуруҳлардаги чет элдан уруғлантириб келтирилган наслии ғўнажинларнинг насл бериши 35 % натижа қайт этиган бўлса, сунъий уруғлантирилган сигирлардан 5 % натижа кузатилди. Ҳар иккала гуруҳларда ҳам Чет элдан уруғлантириб келтирилган ғўножинлардан олиган насл фоизи кўйиб ҳисобланганда кўрсаткичи юқори эканлиги диаграммада ифодаланди.

ХУЛОСА

Олинган натижаларга кўра Тажриба гуруҳда ва назорат гуруҳда ҳам Чет элдан уруғлантириб келтирилган наслии ғўножинлардан олинган маҳсулдорлик юқори эканлиги аниқланди.

1. Насл олишнинг юқори самарадорлиги чет элдан уруғлантирилиб келтирлаётган ғўножинларни уруғлантириш генетик жиҳатдан соғлом маҳсулдорлиги юқори, аниқ

текширишларга асосан танланган бўқолар орқали уруғлантирилганлиги аниқланди.

2. Сунъий уруғлантирилган насли сизирлардан олган натижаларни нисбатан паст натижа қайт этганлиги эканлиги маҳсулдорлиги юқори бўқоларга боғлиқ ҳолда насл олиниши исботланди .

3. Сунъий уруғлантирилган сизирларни сақлаш, озиклантириш, маҳсулдорлиги паст сизирларни танланганлиги натижаларни кескин тушушига сабаблиги тажрибаларда аниқланди.

REFERENCES

1. Аширов М.И., Аширов Б.М., Юлдошев А.А. Разведение голштинского скота в Узбекистан. Монография, Ташкент., «Навруз» 2020 ,172 с.
2. Дунин И, Кочитков А, Шаркаев В.Пленные и продуктивные качества молочного скота в Российской Федерации. Ж «Молочное и мясное скотоводство», №6 2010, с.2-4.
3. Кузнецов В.М./2003 Методические рекомендации по скрещиванию с введением в теорию ВЛУВ/ Киров Зонольне НИИШ Северо Востока им. Н.В. Рудникова, 358 с.
4. Кузнецов В.М. «Основы научных исследований в животноводстве» Киров: Зональный НИИСХ Североро Восток, 2006 г, 568 с.



ЭКОЛОГИК-ХЎЖАЛИК ҲОЛАТИНИ ГЕОИНФОРМАЦИОН ТИЗИМ АСОСИДА ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ (ФАРҒОНА ТУМАНИ МИСОЛИДА)

Олимжон Исомиддинович Абдуғаниев

Фарғона давлат университети география кафедраси доценти, г.ф.н.

Бахромжон Нишон ўғли Нишонов

Фарғона давлат университети география кафедраси ўқитувчиси

Хасанбой Тожиматов

Фарғона давлат университети география йўналиши 4-курс талабаси

АННОТАЦИЯ

Фарғона тумани худудининг экологик-хўжалик ҳолатини баҳолаш турли даражадаги антропоген юк кўрсаткичи билан таснифланадиган ердан фойдаланишнинг асосий тоифалари бўйича берилган. Ердан фойдаланиш таркибини такомиллаштириш асосида муҳофаза этиладиган табиий худудларни майдонини кенгайтириш бўйича таклифлар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: барқарор ривожланиш, экологик-хўжалик мувозанат, муҳофаза этиладиган табиий худудлар, антропоген босим, табиий ҳимояланиш кўрсаткичлари.

КИРИШ

Табиий ландшафтларнинг такрор ишлаб чиқариш имконияти ва ресурс салоҳиятини сақлаш, қайта тиклаш ва улардан оқилона фойдаланиш – Ўзбекистоннинг 2030 йилгача бўлган даврда барқарор ривожланиш стратегик режасида белгиланган асосий миллий мақсад ва вазифалардан биридир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармонида қайд этилганидек, “халқнинг турмуш даражаси ва даромадларини ошириш учун ҳар бир худуднинг табиий, минерал ва хом ашё, саноат, қишлоқ хўжалиги, туризм ва меҳнат салоҳиятидан комплекс ва самарали фойдаланишни таъминлаш ҳамда атроф-табиий муҳит, аҳоли соғлиғи ва генофондига путур етказувчи экологик муаммоларнинг олдини олиш” жуда муҳим ҳисобланади. Шу боис, табиий ресурсларни такрор ишлаб чиқариш ва қайта тиклаш жараёнини узоқ муддат давомида барқарор сақлаб тура оладиган табиатдан оқилона

фойдаланишнинг ҳудудий шаклини яратиш муҳим аҳамиятга эгадир. Айниқса, табиат ва табиий ресурсларни баҳолаш ишлари нафақат иқтисодий, балки минтақанинг экологик хавфсизлик ва барқарорлигини таъминлаш нуқтаи назаридан ҳам кўриб чиқилиши керак.

Бундай мақсад ва вазифаларга эришишда экологик каркас тузилмасининг элементларини оптимал нисбатини аниқлаш талаб этилади. Бу эса, товар ишлаб чиқаришга нисбатан хом ашё ресурсларини таёйрлаш устун бўлган, қишлоқ хўжалиги ривожланган ва аҳолининг асосий қисми қишлоқ туманларда яшайдиган минтақалар учун алоҳида аҳамиятга эгадир. Шуни алоҳида қайд этиш керакки, кўп ҳолларда қишлоқ жойларнинг экологик ҳолати бошқа ҳудудларга, масалан, шаҳарларга нисбатан ижобий баҳоланади, бироқ, табиатга таъсири кўлами ва давомийлиги, ландшафт-экологик ҳолатнинг ўзгарганлиги қишлоқ жойларда етарли муаммолар борлигини кўрсатади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Жаҳондаги барқарор ривожланиш ва бозор иқтисодиёти талабларидан келиб чиқиб, қишлоқ жойларидаги географик тадқиқотларда геоэкологик йўналишга эътибор кучаймоқда. Бундай муаммоларни аниқлаш ва ечимдаги самарали ёндашувлардан бири экологик-хўжалик ҳолатни (ЭХХ) баҳолаш концепцияси ҳисобланади. Минтақанинг ЭХХ таҳлил қилиш бўйича дастлабки методик ёндашувлар Б.Кочуров, Ю.Иванов ва В.Лобковскийлар томонидан ишлаб чиқилган.

Экологик-хўжалик мувозанат (ЭХМ) концепцияси ердан фойдаланишнинг ҳудудий таркибини такомиллаштиришга қаратилган бўлиб, минтақанинг барқарор экологик ва иқтисодий ривожланишини таъминлаш учун ҳудудий режалаштиришда самарали асос бўлиши мумкин. ЭХХ концепциясида асосий эътибор, мамлакат ер фондининг тоифалари ва турларига мос келувчи антропоген юк даражасини аниқлаш ҳамда ердан фойдаланиш тузилмасини экологиялаштиришга қаратилган.

Фарғона туманининг экологик-хўжалик ҳолатини тадқиқ этиш мақсадида 2010-2021 йиллар бўйича ердан фойдаланиш тузилмаси таҳлил қилинди. Тадқиқотда Б.Кочуров (1999), В.Лобковский (), Ю.Иванов (), Ю.Аҳмадалиев (2007), Ш.Шарипов (2011), Д.Мўминов (2012), О.Абдуғаниев (2020) ва бошқаларнинг ишларида келтирилган баҳолаш услублардан фойдаланилди. Маъмурий бирликлар доирасида ер фондининг ҳолати, уларнинг миқдор ва сифат жиҳатдан ўзгариши таҳлил қилиш орқали экологик муаммоларни аниқлаш ҳамда уларни олдини

олиш бўйича тезкор чора тадбирларни ишлаб чиқиш имкониятига эга бўлинади.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Ландшафтларда юз бераётган қайта тикланмайдиган ўзгаришлар минтақалар иқтисодиётидаги маъқул экологик диверсификация имкониятларини камайтиради, бу эса ўз навбатида аҳолининг яшаш муҳитини ёмонлашиб боришига таъсир кўрсатади [22]. Шунинг учун, ҳар бир туманга мос келадиган *маъқул экологик диверсификация имкониятини* аниқлаш зурурдир. Б.Кочуров (1999, 2003) бўйича экологик-хўжалик ҳолатни баҳолаш коэффицентлари 1-жадвалда келтирилган.

Худудининг ЭХХни баҳолаш учун қуйидаги кўрсаткичлар: ерларнинг тури ва тоифаси бўйича тақсимланиши, МЭТХларнинг майдони, ҳудуд майдони бўйича антропоген босимнинг тури ва даражаси, ҳудуднинг экологик ва хўжалик ҳолат бўйича зўриқиш даражаси, антропоген юкнинг интеграл интенсивлиги, ҳудуднинг табиий ҳимояланиш имконияти ҳамда минтақадаги экологик заҳира учун ажратилган ерларнинг ҳолати таҳлил қилинади. Ердан фойдаланиш тузилмасининг таҳлили ер кадастри классификацияси бирликлари асосида амалга оширилади. Минтақадаги антропоген юк (АЮ) даражасини аниқлаш учун эксперт баҳолаш баллари аниқланади, унга мувофиқ ҳар бир ердан фойдаланиш турлари мос ҳолда балл белгиланади.

1-жадвал

Минтақанинг экологик-хўжалик ҳолатни баҳолаш коэффицентлари (Б.Кочуров, 1999, 2003).

Коэффициентларини номланиши	Формула	Фойдаланиладиган манбаалар	Олинган натижа ёки қийматларни ўзгариш хусусияти
$K_{мээ}$ – мутлоқ экологик зўриқиш коэффицентлари	$K_{мээ} = \frac{АЮ6}{АЮ1}$	Антропоген юк юқори бўлган ер майдонлари–АЮ6; антропоген юк паст бўлган (МЭТХ) ер майдонлари–АЮ1.	$K_{мээ} \uparrow$ – зўриқиш кўрсаткичини ўсиб боришини билдиради.
$K_{нээ}$ – нисбатан экологик зўриқиш коэффицентлари	$K_{нээ} = \frac{АЮ4 + АЮ5 + АЮ6}{АЮ1 + АЮ2 + АЮ3}$	Минтақадаги антропоген юк кўрсаткичи юқори бўлган (АЮ4, АЮ5, АЮ6) ва нисбатан паст бўлган (АЮ1, АЮ2, АЮ3) ер тоифаларини ўзаро нисбати таҳлил қилинади.	$K_{нээ} \rightarrow 1$ минтақадаги ЭХМнинг зўриқиш даражаси меъёрида; $K_{нээ} \uparrow$ – зўриқиш кўрсаткичини ўсиб боришини билдиради.

<p>$K_{\text{тх}}$ – табиий химояланиш коэффициенти</p>	$K_{\text{тх}} \frac{P_{\text{хэз}}}{P_{\text{хуеф}}}$	<p>$P_{\text{хуеф}}$ – тадқиқ этиладётган ҳудуд ер фондининг умумий майдони.</p>	<p>$K_{\text{тх}} \uparrow$ – табиий химояланиш коэффициенти ўсиши; $K_{\text{тх}} \leq 0.5$ табиий химояланиши критик даражада.</p>
<p>$P_{\text{хэз}}$ – экологик заҳира ерлари</p>	$P_{\text{хэз}} = P1 + 0,8 \times P2 + 0,6 \times P3 + 0,4 \times P4$	<p>$P_{\text{хэз}}$ – ҳудуднинг экологик заҳира ерларининг умумлаштирилган майдони бўлиб, асосан, муҳит ҳосил қилувчи ва ресурс сақловчи функцияларининг барқарорлигини таъминланганлиги билан белгиланади.</p>	<p>$P_{\text{хэз}}$ кўрсаткичи минтақанинг табиий химояланиш даражасини белгилаб беради.</p>

Минтақадаги антропоген юкни (АЮ) баҳолаш учун экспертлар томонидан тўпланган балл шкаласи ишлаб чиқилади. Унга мувофиқ ҳар бир ердан фойдаланиш тури маълум бир балл олади. Шундай қилиб, барча ер фонди хўжалик фаолият турига ва ердан фойдаланиш интенсивлигига кўра олтига тоифага ажратилди. Бундай ёндашув ердан фойдаланиш турларини балл кўрсаткичи бўйича гуруҳларга ажратиш имконини беради. Саноат, транспорт, алоқа, мудоқа ерлари, аҳоли пунктлари, қишлоқ хўжалиги ерлари ва турли инфратузилмалардан иборат ерларда АЮ катта бўлганлиги учун энг юқори баллга эга. Энг паст балл билан табиатни муҳофаза қилиш аҳамиятига эга бўлган ва табиий ўрмонлар баҳоланади (2-жадвал).

2-жадвал

Ер фондининг тоифалар ва турларини антропоген юк даражаси бўйича таснифланиши

№	Ердан фойдаланиш турларини	Антропоген юк (АЮ)		
		Тоифаси	Балл	АЮ даражаси
1.	Ижтимоий бино ерлари, иморат билан банд ерлар, мелиоратив қурилиш ҳолатидаги ерлар, бўз ерлар, ижтимоий ҳовли, кўча ва майдон йўллари	АЮ6	6	Жуда юқори
2.	Қишлоқ хўжалиги ва томорқалардаги экин ерлари	АЮ5	5	Нисбатан юқори



3.	Сув остидаги ерлар (сув омборлар ва сув хавзалари, канал, коллетор ва зовурлар), боғ ва сабзовотчилик уюшмалари ерлари	АЮ4	4	Юқори
4.	Боғлар, узумзорлар, тутзорлар, боғ ва мевали дарахтзорлар, МЭТХлар (VI тоифалари) ерлари	АЮ3	3	Ўрта
5.	Қишлоқ хўжалигида фойдаланилмайдиган ерлар, яйловлар, пичанзорлар, ўрмонзорлар (ихота ва теракзорлар), МЭТХлар (V тоифа) ерлари	АЮ2	2	Паст
6.	МЭТХлар (1-IV тоифалари), сув остидаги ерлар (дарё, сой ва кўллар), муҳофаза қилинадиган ўрмонларнинг ерлари	АЮ1	1	Жуда паст

Фарғона тумани худуди экологик-хўжалик ҳолатини баҳолашда қишлоқ фуқаролари йиғинлари (ҚФЙ) бўйича экологик зўриқиш ва табиий ҳимояланиш коэффициентлари ҳисоблаб чиқилади. Шунингдек, ҚФЙларида экологик заҳира ерларини кенгайтириш асосида муҳофаза этиладиган табиий ҳудудларни ташкил этиш имкониятлари аниқланди. Фарғона туманининг умумий ер майдони 61270 гектар бўлиб, шундан бошқа туманларда фойдаланадиган ерлар 1109 гектарни ташкил этади. Туманнинг экологик-хўжалик ҳолатини баҳолаш учун ер фондининг тоифалар ва турлари 2-жавдал асосида таснифланди (3-жадвал). Унга кўра ҚФЙлар бўйича мутлоқ экологик зўриқиш, нисбатан экологик зўриқиш ва табиий ҳимояланиш коэффициентлари ҳисоблаб чиқилди. Натижалар қуйидаги 3-жадвалда берилган.

3-жадвал

Фарғона тумани ер фондининг тоифалар ва турлари антропоген юк даражасининг ҚФЙ лар бўйича тақсимланиши.

Т/р	ҚФЙ	АЮ1	АЮ2	АЮ3	АЮ4	АЮ5	АЮ6	Жами
1	Аввал	259	117,0	312,3	267,2	1262	418,1	2635,7
2	Хонқиз	746	391,1	381	154,5	1188,8	415,8	3277,3
3	Водил	483,8	42,7	853,0	252,6	1588	546,1	3766,4
4	Гулшан	580	51,7	353,3	155,3	1524	1969,2	4633,3
5	Дамкўл	311	42,9	634,1	149,8	1167	266,6	2571,5

6	Каптархона	90,2	124	923,1	161,7	1105,8	268,9	2673,8
7	Қўрғонтепа	565	56,8	198,8	186,3	1020,6	336,6	2364,2
8	Лоғон	1280	105,6	696,3	153,4	1184,1	343,9	3762,9
9	Лоғон Машаал	111	63,4	128,5	100,7	536,0	108,3	1048,1
10	Миндон	331,6	64	343	197,5	892,1	2089,7	3918,0
11	Новкент	116	9,2	406,8	120,2	976,4	121,9	1750,8
12	Оқбиллол	2170	230,8	646,6	153,1	763,6	172,0	4136,4
13	Т.Шодиева	41	13,0	823,8	69,9	340,7	183,2	1471,1
14	Чимён	98,8	40,0	570,6	204,1	1118,1	633,8	2665,5
15	Чекшўра	340,8	15,5	435,8	119,3	1526,0	1808,3	4245,9
16	Сойбўйи	2675	1549,6	562	94,5	754	504,9	6140,1
17	Шоҳимар Дон Ёрдон	3159,3	143,5	64,4	48,6	232,2	174,6	3822,6
18	Шоҳимар Донобод	107,9	113,2	659,4	142,3	1353,7	105,7	2482,4
19	Юқори Водил	259,8	107,0	338,2	97,8	762	226,5	1791,4
20	Бошқа туманларда	56	21	203	50	723	56	1109
	ЖАМИ:	13872,3	3301,8	9633,5	2946,6	20587,6	10928,9	61270

Аниқланган $K_{мээ}$ мутлоқ экологик зўриқиш коэффициентлари қийматлари минтақадаги антропоген таъсир интенсивлигини белгилаб беради. Бу орқали эса, минтақада табиий ландшафтлар ва ресурсларни қайта тикланиш имконияти сақланганлик даражасини аниқлашимиз мумкин. Бундай ташхиз натижасида минтақада қандай тоифадаги МЭТХларни ташкил этиш зарурияти ва улар учун талаб этилган майдон катталиги ҳам аниқланади. Коэффициент қийматлари қанчалик паст бўлса, тадқиқ этилаётган ҳудуднинг экологик ҳолат шунчалик қулай бўлади. $K_{мээ}$ –мутлоқ экологик зўриқиш коэффициентлари 1 дан юқори бўлса зўриқиш кўрсаткичини ўсиб боришини билдиради (4-жадвал).

4-жадвал

Фарғона туманида экологик ҳўжалик мувозанатни баҳолаш натижалари

Т/р	ҚФЙлар	$K_{мээ}$	$K_{нээ}$	$K_{тх}$
1	Аввал	1,6	2,8	0,2
2	Хонқиз	0,5	1,1	0,4
3	Водил	1,1	1,7	0,3

4	Гулшан	3,3	3,7	0,1
5	Дамкўл	0,8	1,6	0,3
6	Каптархона	2,9	1,3	0,3
7	Кўрғонтепа	0,5	1,8	0,3
8	Лоғон	0,2	0,8	0,4
9	Лоғон Машаал	0,9	2,4	0,2
10	Миндон	6,3	4,3	0,1
11	Новкент	1,0	2,2	0,2
12	Оқбиллол	0,07	0,3	0,6
13	Т.Шодиева	4,4	0,6	0,3
14	Чимён	6,4	2,7	0,2
15	Чекшўра	5,3	4,3	0,1
16	Сойбўйи	0,1	0,2	0,6
17	Шоҳимардон Ёрдон	0,05	0,1	0,8
18	Шоҳимардонобод	0,9	1,8	0,2
19	Юқори Водил	0,8	1,5	0,3

Юқоридаги жадвалга мувофиқ, Аввал, Водил, Гулшан, Каптархона, Миндон, Т.Шодиева, Чимён, Чекшўра каби ҚФЙларда антропоген зўриқиш кўрсаткичини ўсиб бораётганлигини кўришимиз мумкин. Қолган Хонқиз, Дамкўл, Кўрғонтепа, Лоғон, Лоғон Машаал, Оқбиллол, Соибўйи, Шоҳимардон Ёрдон, Шоҳимардонобод ва Юқори Водил ҚФЙларида экологик зўриқиш паст даражада

K_{HEZ} – нисбатан экологик зўриқиш коэффициентни баҳолаш жараёнида ўрганилаётган ҳудуддаги барча ердан фойдаланиш турлари ҳисобга олинади ва минтақа бўйича умумий экологик танглик баҳоланади. K_{HEZ} кўрсаткичини аниқлаш учун ўрганилаётган ҳудуддаги антропоген юк кўрсаткичи юқори бўлган (АЮ4, АЮ5, АЮ6) ва нисбатан паст бўлган (АЮ1, АЮ2, АЮ3) ер тоифаларини ўзаро нисбати таҳлил қилинади. Агар, K_{HEZ} қиймати 1 га яқин бўлса, у ҳолда АЮ бўйича ҳудудда мувозанат сақланганлиги кузатилади. Шунга мувофиқ Лоғон, Оқбиллол, Т.Шодиева, Соибўйи, Шоҳимардон Ёрдон каби ҚФЙ ларда нисбатан экологик зўриқиш даражаси меъёрида.

Нисбий экологик зўриқиш коэффициенти 1 дан юқори бўлса зўриқиш кўрсаткичини ўсиб боришини билдиради. Демак, Аввал, Хонқиз, Водил, Гулшан, Дамкўл, Каптархона, Кўрғонтепа, Лоғон Машаал, Миндон, Новкент, Чимён, Чекшўра, Шоҳимардонобод ва Юқори Водил ҚФЙ ларида нисбатан экологик зўриқиш кўрсаткичи ўсиб бораётганлигини кўришимиз мумкин. Минтақада табиий антропоген ёки табиий ландшафтларнинг юқори даражадаги хилма – хиллиги

сақланган ва улар ўртасидаги нисбатан мос ҳолда оптимал бўлса, ҳудуднинг антропоген таъсирга нисбатан барқарорлиги ҳам юқори бўлади. Бундай турдаги барқарорликнинг меъёри ёки чегараси ҳудуднинг экологик захирасини ($P_{\text{хез}}$) ташкил этадиган ер участкалари майдонларининг оптимал катталигига боғлиқдир.

Ҳудуднинг табиий ҳимояланиш ($X_{\text{ТХ}}$) даражаси қанчалик юқори бўлса, ландшафтнинг барқарорлиги ҳам мос ҳолда юқори бўлади. Шунингдек, ҳудуднинг табиий муҳофазаланиши ер участкаларидаги антропоген юк даражасини тақсимланишига ҳам боғлиқдир. Юқори кўрсаткичга эга антропоген юк билан тавсифланадиган ҳудудлар, одатда, паст табиий ҳимояланиш даражасига эга бўлади. Табиий ҳимояланиш коэффиценти ($K_{\text{ТХ}}$) 0,5 дан кичик ёки тенг бўлса, табиий ҳимояланиш критик даражада бўлади. Шунга кўра тадқиқ этилаётган Фарғона туманининг Аввал, Хонқиз, Водил, Гулшан, Дамқўл, Каптархона, Қўрғонтепа, Лоғон, Лоғон Машаал, Миндон, Новкент, Т.Шодиева, Чимён, Чекшўра, Шоҳимардонобод ва Юқори Водил каби ҚФЙларида табиий ҳимояланиш кўрсаткичи критик ҳолатда эканлиги аниқланди.

Минтақада ($K_{\text{ТХ}}$) – табиий ҳимояланиш коэффиценти қийматининг ортиб бориши эХМнинг барқарорлигини пасайиб бораётганлигини кўрсатади. Фарғона туманида экологик захира ҳудудларини кенгайтириш орқали ҳудудларнинг табиий ҳимояланиш ҳолатини яхшилаш ва антропоген юкни меъёрлаштириш мумкин.

ХУЛОСА

Фарғона тумани ҳудудида кейинги йилларда ижтимоий бино ва иморат билан банд ерлар, ижтимоий ҳовли, кўча ва майдон билан банд бўлган ер тоифаларининг улуши ортиб бормоқда. Натижада, ҳудуднинг табиий ландшафт таркибининг ўзгариши кўлами ва даражаси ортиб бормоқда. экологик-хўжалик ҳолатни таъминловчи, экологик функцияни бажарувчи ландшафтларнинг салмоғи йилдан–йилга камайиб фақат хўжалик функцияни бажарувчи, демоиктисодий каркас элементларининг майдони кенгайиб боришининг ҳудудий жиҳатлари аниқланди.

Фарғона тумани ҳудудининг ер ресурсларини таҳлил қиладиган бўлсак, умумий майдонига нисбатан ижтимоий бино билан банд бўлган ҳудудларнинг энг юқори кўрсаткичли Гулшан, Миндон ва Чекшўра МФЙларига тўғри келади. Масалан, Гулшан ҳудудининг 42,5%и, Миндон ҳудудининг 53,3%и, Чекшўра ҳудудининг

42,6%и ижтимиий бинолар билан банд. Шу боис, урбокомплексларнинг экологик ҳолатини баҳолаш ва ўрмон полсаларидан иборат яшил майдонларни кенгайтиришга эътибор қаратиш зарурдир.

Туманда умумий майдонига нисбатан суғориладиган ерлар майдони бўйича энг юқори кўрсаткичга эга бўлган ҳудудларга Машаал (51,1%), Новкент (55,7%), Шоҳимардонобод (54,5%) ҚФЙлари киради. ҚФЙлардан Аввал (47,8%), Водил (42,1%), Дамкўл (45,3), Қўрғонтепа (43,1), Каптархона (41,3%), Чимён (41,9%) ва Юқори Водил (42,5%) суғориладиган ерлар меъёрида. Демоиқтисодий каркас элементлари катта майдонга эга бўлган ҳудудларда қуйидагиларга эътибор қаратилади:

–кўриқхона режимига эга “микроқўриқхона”ларни ташкил этиш;

–экинзорлар атрофида экологик каркасинг яхлитлигини таъминлашда муҳим бўлган экологик йўлак вазифасини бажарувчи ўрмон полсалари ва ихотазорларни ташкил этиш;

–суғориладиган ерларни оптимал улушини таъминлаш, яъни 60% дан ортиқ бўлмаслигини таъминлаш, боғдорчилик ёки яйлов чорвачилигини ташкил этиш.

REFERENCES

1. Ahmadaliyev, Y. I., & Mamadalievich, X. A. (2021). Geocological and Farm Stress Level (on the Example of Khojaabad District). *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(04), 169-174.
2. Ahmadaliyev, Y. I., & Mamadalievich, X. A. (2021). Changes in the Natural Composition of the Land Fund and Its Protection (on the Example of Khojaabad District). *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(04), 165-168.
3. Ismoilovich, A. Y., & Erkinovich, M. A. (2022). THE USE OF HYDRONICS IN THE STUDY OF CHANGES OCCURRING IN THE PROCESS OF WATER USE. *PEDAGOGS jurnali*, 10(1), 148-154.
4. Isomiddinovich, A. O. (2018). Comparative analysis of the protected natural territories of the Republic of Uzbekistan and the international Union of nature protection. *European science review*, (9-10-1), 67-70.
5. Isomiddinovich, A. O., & Yigitaliyevich, X. R. (2021). Territorial Structure and Stability of Ecological Framework. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 29(2), 462-467.
6. Олимжон Исомиддинович Абдуғаниев, Турсуной Дилмуродовна Комилова, & Муҳаммадюсуф Темурхон Ўғли Мухториддинов (2022). УРБАНИЗАЦИЯЛАШГАН



ҲУДУДЛАРНИНГ ЭКОЛОГИК ОЛАТИНИ БАҲОЛАШДА ГАТ-ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МЕТОДЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (5), 757-765.

7. Абдуғаниев, О. И. (2022). ЛАНДШАФТ ВА БИОЛОГИК ХИЛМА-ХИЛЛИКНИ ГАТ-ТАХЛИЛ АСОСИДА БАҲОЛАШ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(1), 53-58.

8. Равшан Топволдиевич Пирназаров, & Тоҳирбек Салим Ўғли Собиров (2022). ИҚЛИМ ЎЗГАРИШ ШАРОИТИДА СУВГА БЎЛГАН ТАЛАБЧАНЛИКНИНГ ОРТИШИ ВА УНИНГ ЕЧИМЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (5), 404-408.

9. Абдувалиев, А. Ҳ., & Парпиева, Г. М. (2022). ФАРҶОНА ВОДИЙСИДА АҲОЛИНИНГ ЕР БИЛАН ТАЪМИНЛАНГАНЛИК ДАРАЖАСИ ВА УНИНГ АҲОЛИ ЗИЧЛИГИГА ТАЪСИРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(4), 1174-1183.

10. Abduvaliyev, N. A. A., Hamdamova, F. A. Q., & Eraliyev, Z. Z. Q. (2021). LANDSHAFT OMILI ASOSIDA AHOLI HUDUDIY TAKRIBINI TAKOMILLASHTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 1219-1223.

11. Холиков, Р., & Кўчқаров, О. (2021, August). BASIC PRINCIPLES OF URBAN EKOLOGICAL TERRITORIAL ORGANIZATION OF URBAN DEVELOPMENT: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1326>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).

12. Xolikov, R., & Qo'chqarov, O. (2021, July). BASIC PRINCIPLES OF URBAN EKOLOGICAL TERRITORIAL ORGANIZATION OF URBAN DEVELOPMENT. In *Конференции*.

13. Muhitdinov, I. (2022). O'ZBEKISTONNING KO'LLARI VA SUV OMBORLARI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(2), 261-263.

14. Zarifjon o'g'li, M. Z., & Ihtiyorjon o'g'li, M. I. (2022). FARGONA VODIYSINING IQLIMI VA YOGINLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 2(1), 49-52.

15. Mamatisakov, J. J. O. G. L., & Muhitdinov, I. I. O. G. L. (2021). PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF ECOTOURISM IN THE PROTECTED NATURAL AREAS OF FERGANA REGION. *Scientific progress*, 2(3), 986-989.

16. Topvoldievich, P. R., & Ugli, M. I. I. Hydrological Description of Some Small Mountain Rivers in the Fergana Valley. *JournalNX*, 6(12), 264-267.

17. Jahongirmirzo Jamoliddin, O. G. (2021). 'Li Mamatisakov, Ilhomjon Ihtiyorjon O 'G 'Li Muhitdinov, Ablazbek Erkinjon Ogli Madraximov PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF

AGRICULTURAL TOURISM IN FERGANA REGION. *Scientific progress*, 8.

18. Khikmatov Bekzod Fazliddinovich, & Pirnazarov Ravshan Topvoldievich (2018). Calculation of the outbreak discharges through a closure channel with trapezoid shape of cross-section. *European science review*, (7-8), 51-53.

19. Равшан Топволдиевич Пирназаров, & Тоҳирбек Салим Ўғли Собиров (2022). ИҚЛИМ ЎЗГАРИШ ШАРОИТИДА СУВГА БЎЛГАН ТАЛАБЧАНЛИКНИНГ ОРТИШИ ВА УНИНГ ЕЧИМЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (5), 404-408.

20. Mahkamov, E. (2021, August). GEOGRAPHICAL DISTRIBUTION OF MEDICAL PLANTS OF THE FERGANA VALLEY, RECREATION POSSIBILITIES AND GEOECOLOGICAL ASPECTS OF THEIR PROTECTION: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1414>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).

21. Elyorjon G'ayratovich Mahkamov, & Dilafruz Baxromjon Qizi Karimqulova (2021). EKOTURISTIK MARSHRUTLAR VA ULARNI ISHLAB CHIQUISH USULLARI. *Academic research in educational sciences*, 2 (12), 1137-1140.

22. Dehkanbayeva, M. N. (2019). TERRITORIAL LOCATION AND FUNCTION OF SACRED LANDSCAPES (FERGANA REGION). *Экономика и социум*, (11), 919-921.

23. Muhitdinov, I. I. (2021). Kichik tog'daryolari oqiminig shakllanishida meteorologik omlarning roli (Farg'ona vodiysining janubiy qismi misolida). *magistrlik dissertatsiyasi.-Farg'ona*, 87.

IMPROVING STUDENTS' GEOLOGICAL KNOWLEDGE BY SCHOOL GEOGRAPHY EDUCATION

Jahongirmirzo Mamatisakov

Doctoral student, Fergana State University

m.jahongirmirzo94@gmail.com

ABSTRACT

This article discusses the use of the means of natural geography education in the formation of geological knowledge and skills of students. In this, it is noted that the importance of school geography lessons is high in increasing students' geological knowledge.

Keywords: pedagogical skills, state educational standard, theoretical model, mineral collection, rock and mineral collection, natural objects for excursions,

INTRODUCTION

A number of general concepts that reflect the essence of the methodology of geography education in school geography lessons belong to certain categories. They act as leaders, forming a whole system of scientific geographical knowledge. Therefore, it is advisable to take the essence of geography education, the processes of geographical cognition in students, as well as the formation of geographical culture, based on the main categories of the methodology of geography education.

The above-mentioned main professional pedagogical categories also apply to the essence of geography education, which is carried out in schools. Because, the process of geography education based on pedagogical categories will be methodologically properly organized. That is, elementary natural geographical knowledge and skills that allow students to form a geographical culture, their application to practice should be carried out in the form of a system or complex on the basis of a specific theoretical model.

In the course of natural geography lessons, which are held in general secondary schools, natural geographical knowledge and skills are formed. We have described the content of geography education as a holistic process and result, relying on this point of view in this article. For this purpose, we used the modeling method and followed the principle of a systematic approach. The following points of view were taken into account in this:

According to research work on the field of pedagogy, pedagogical systems are inherent in social structures, which are

characterized by the presence of the following important signs: purpose, general laws and real connections between themselves. The pedagogical model and, in particular, the educational process model programs specific educational activities and the sequence of their implementation and results in order to achieve private educational goals on the basis of general educational goals.

The model of the methodological system consists of a set of interrelated, interdependent components, consisting of methods, forms, planning tools, organization, training, study, analysis and improvement of the educational process.

The methodological system of education is a set of interconnected, ordered and interconnected methods, forms, planning tools, consisting in the organization, training, study, analysis and improvement of the educational process aimed at the effectiveness of students' education. Didactic modeling of the geographical culture of students and its components in the process of geography education of secondary schools was carried out on the basis of the following several principles:

- a) accuracy and chaos of the concepts of "geography education" and "student geographic culture";
- b) geography education and the structural structure of the geographical culture of students;
- s) geography is almost an allusion to the complexity of the components that make up the content of education and the geographical culture of students;
- d) the brevity and accuracy of the statement of these components;
- e) unity of Word and demonstrativeness in the transfer of educational material;
- f) the relationship of educational materials with the geographical environment;
- g) the wealth of information of the geography education process, that is, the ability to pass from simple activities to complex activities on the basis of constant sequence, consistency.

The modern features of the teaching methodological system are as follows consists of:

- planning the educational process on a scientific basis;
- mutual integrity of theoretical and practical training;
- difficult level of educational material and rapid assimilation of the unit;
- maximum activity of students and independent learning;
- the embodiment of individual and collective activity;
- enrichment of the educational process with educational tools;
- a complex approach to mastering various disciplines.

Based on the didactic principles highlighted above, we have theoretically substantiated the model of the methodological



system of using educational tools in the formation of students' geological knowledge and skills, highlighting the main components of the model. In this methodological model, we looked at the process of geography education as a whole process, taking into account that it is a special type of activity of the teacher and the student in the process, indicating an important place of educational tools in the process, and in this place we have interconnected the components of the teacher as a project, manager and The target component (component) in the structure of the methodological system model, taking into account the content and requirements of the programs of the state educational standard (DTS) vageography in geography, embodies aspects that determine the quality of the student's personality at the same level, that is, at the general and private level. While goals at the general level provide for the formation of geological knowledge and skills in the student's personality, the development of a creative, self-conscious personality, goals at the private level provide for the formation of knowledge about the nature of the globe, the formation of the necessary knowledge, skills, qualifications and competencies under the educational program. In the structure of the motivational component, others were concentrated, such as showing the practical significance of the material being studied, stimulating interest in acquiring knowledge. The content of the meaningful component includes natural geography courses taught in schools in the general education system geography program, namely, the course "Primary natural geography" taught in the 5th grade, the course "Natural geography of continents and oceans" taught in the 6th grade, the courses "Natural geography of Central Asia" and "Natural geography of Uzbekistan" taught in the 7th grade. The structure of the process component included the methods of education, forms of Organization of education and the type of educational activity. Educational methods, in turn, were classified according to the source of knowledge, according to the nature of cognitive activity and according to didactic goals. In the section of the component forms of educational organization, educational work is defined, which is performed in classes (lesson, practical training, elective courses), extracurricular activities (quiz, excursion, competition) and as homework. The educational process on the types of educational activities of this component was divided into individual, subgroup, collective and frontal approaches. Educational tools were seen as the main factor ensuring the effectiveness of the motivational, content and process components of this model, and the main classification units of the tools were introduced. As well, the classification of educational tools mainly includes textbooks from geography, exercise books, geographical maps, globe, graphs, schema, tables, pribors, natural guides, models, interactive maps, electronic educational reserves.



In the assessment and the result component, the levels of increased motivation of students to acquire geological knowledge and the level of formation of students' geological knowledge and skills (insufficient, sufficient, high level) were determined. We tried in this article to comprehensively substantiate the methodological essence of the process of geography education in experimental schools:

1. From the point of view of the activities of geography teachers and students, the content of the geography education process includes the following components:

a) consists in studying the pedagogical activity of teachers of geological knowledge, creating in students a complete picture of the processes of geographical cognition, their conditions, methods and means of conditions; guiding the activities of students in the process of performing geographical educational technologies and geographical educational and creative work; analyzing and controlling the achievements of students in learning, including checking and assessing the development;

b) the educational activity of students consists in studying, including the adoption of geographical and geological knowledge guidelines of geography teachers, understanding their essence, thinking and planning of the work ahead; technologies of geography education and geographical training included control of oneself and the results of work in the process of performing creative work.

2. From the point of view of educational tools, the content of the geography education process included the following components:

a) natural objects (mineral collection, rock and mineral collection, herbariums, natural objects for excursions, etc.k.);

b) image of geographical objects and phenomena (models, paintings, paintings, portraits, photographs, diaphilms and diapositives, motion pictures, etc.k.);

c) description of geographical objects and phenomena, their reflection in a symbolized form: oral reasoned manuals (textbooks, manuals, workbooks, reference books, simple manuals (chrestomatias), etc.k.); cartographic guides (maps, maps, maps, etc.k.); graphic manuals (graphs, diagrams, etc.k.); g) instruments for the analysis and re-reflection of geological objects and phenomena (models, equipment, equipment, equipment for monitoring, measuring and analyzing Geological objects and phenomena, etc.k.);

d) methodological manuals for teachers (educational and methodical instructions and manuals on the organization of geography education and its methodology, methodological developments, reference manuals, advanced experiments, methodological recommendations, etc.k.).

CONCLUSION

In this article, we felt the need to implement a technological approach based on pedagogical requirements in the processes of formation of geological knowledge and skills of students. This necessity prompted us to design a technological scheme in the status of a benchmark (sample or template) in educational and educational processes, as a result of which a drawing of technology was formed and applied to practice in experimental fields, which is an educational technology based on the complex use of traditional and modern educational tools during integrated training, designed and organized applied. In this educational technology, two stages are distinguished, based on the content of the topic to be studied at the first stage - organizational and draft stage, the form of education, educational goals, educational methods, as well as the competencies that students should acquire, the importance of choosing the appropriate educational tools, the second stage-the complex use of educational tools at the On the basis of educational technology based on the complex use of traditional and modern educational tools, educational and educational processes in geography (topics in the curriculum, extracurricular activities) were designed and organized.

REFERENCES

1. Ahmadaliyev, Y. I., & Mamadalievich, X. A. (2021). Geocological and Farm Stress Level (on the Example of Khojaabad District). *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(04), 169-174.
2. Ismoilovich, A. Y., & Erkinovich, M. A. (2022). THE USE OF HYDRONICS IN THE STUDY OF CHANGES OCCURRING IN THE PROCESS OF WATER USE. *PEDAGOGS jurnali*, 10(1), 148-154.
3. АХМАДАЛИЕВ, Ю., & КОМИЛОВА, Н. (2020). ЭТНОЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИНГ ХУДУДИЙ ЖИХАТЛАРИ.
4. Ахмадалиев, Ю. И., & Алимджанов, Н. Н. (2020). ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ТРАДИЦИОННОГО ВОДОПОЛЬЗОВАНИЯ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ. In *География: развитие науки и образования* (pp. 375-380).
5. Ахмадалиев, Ю. И., Абдувалиев, Х. А., & Алимджанов, Н. Н. (2019). ABOUT THE ETHO GEOGRAPHIC ROOTS OF PROBLEMS OF THE CONSUMING WATER AND GROUND RESOURCE. In *Геоэкологические проблемы бассейна Аральского моря: научные идеи, исследования, инновации. Сборник материалов Международной научно-практической конференции* (pp. 107-111).
6. Abduganiev, O. I., & Turdiboyeva, S. (2019). Estimation of ecological-economic condition of territories (on the example of Ferghana regions). *Экономика и социум*, (9), 371-377.

7. Ахмадалиев, Ю. И., & Абдуғаниев, О. И. (2019). The value of geocological principles in the system of protected natural territories. In *Узбекистон ва Россияда география фани: умумий муаммолар, ҳамкорлик салоҳияти ва истиқбол* (pp. 48-50).
8. Abdug‘Aniyev, O. I., Turdiboeva, S. X. Q., & Abdullayeva, H. R. Q. (2022). BARQAROR TARAQQIYOT VA ETNOEKOLOGIIYA. *Academic research in educational sciences*, 3(5), 94-101.
9. Abduvaliev, H. A. (2020). Some issues of population dynamics in the Fergana Valley. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(9), 135-140.
10. Абдувалиев, А. Ҳ., & Парпиева, Г. М. (2022). ФАРҶОНА ВОДИЙСИДА АҲОЛИНИНГ ЕР БИЛАН ТАЪМИНЛАНГАНЛИК ДАРАЖАСИ ВА УНИНГ АҲОЛИ ЗИЧЛИГИГА ТАЪСИРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(4), 1174-1183.
11. Абдувалиев, А. Ҳ., & Абдулхамидов, А. А. Ў. (2021). ФАРҶОНА ВОДИЙСИДА АҲОЛИ ЖОЙЛАШУВИНИНГ ИЖТИМОЙИҚТИСОДИЙ ОМИЛЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 1127-1136.
12. Ахмадалиев, Ю. И., Абдувалиев, Ҳ. А., & Алимджанов, Н. Н. (2019). ABOUT THE ETHOGEOGRAPHIC ROOTS OF PROBLEMS OF THE CONSUMING WATER AND GROUND RESOURCE. In *Геоэкологические проблемы бассейна Аральского моря: научные идеи, исследования, инновации. Сборник материалов Международной научно-практической конференции* (pp. 107-111).
13. Topvoldievich, P. R., & Ugli, M. I. I. Hydrological Description of Some Small Mountain Rivers in the Fergana Valley. *JournalNX*, 6(12), 264-267.
14. Muhitdinov, I. I. (2021). Kichik tog'daryolari oqiminig shakllanishida meteorologik omllarning roli (Farg'ona vodiysining janubiy qismi misolida). *magistrlik dissertatsiyasi.- Farg'ona*, 87.
15. Muhitdinov, I. (2022). O'ZBEKISTONNING KO'LLARI VA SUV OMBORLARI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(2), 261-263.
16. Muhitdinov, I. I. O. G. L. (2021). SO 'X DARYOSI OQIMINIG SHAKLLANISHIDA GIDROMETEOROLOGIK OMILLARNING ROLI. *Academic research in educational sciences*, 2(7), 286-290.
17. Jahongirmirzo Jamoliddin, O. G., Mamatisakov, L., & Ilhomjon Ihtiyorjon, O. G. (2021). Li Muhitdinov PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF ECOTOURISM IN THE PROTECTED NATURAL AREAS OF FERGANA REGION. *Scientific progress*, (3).
18. Ilhomjon Ihtiyorjon, O. G., Muhitdinov, L., Jahongirmirzo Jamoliddin, O. G., Li Mamatisakov, F. O., & GIDROGRAFIYASI, V. J. Q. *Scientific progress*. 2021. № 3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n7farg-ona-vodiysining-janubiy-qismi-gidrografiya> (dama obraçeniya: 07.12. 2021).



19. Ilhomjon Ihtiyorjon, O. G. (2021). Li Muhitdinov, Jahongirmirzo Jamoliddin O. G'Li Mamatisakov FARG 'ONA VODIYSINING JANUBIY QISMI GIDROGRAFIYASI//Scientific progress, 3.
20. Jahongirmirzo Jamoliddin, O. G. (2021). 'Li Mamatisakov, Ilhomjon Ihtiyorjon O 'G 'Li Muhitdinov, Ablazbek Erkinjon Ogli Madraximov PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF AGRICULTURAL TOURISM IN FERGANA REGION. *Scientific progress*, 8.
21. Mamatisakov, J. J. O. G. L., Abduqaxxorov, L. S. O. G. L., Rahmatjonov, A. A. O. G. L., & Vahobjonov, A. A. O. G. L. (2021). REGIONAL ASPECTS OF DEVELOPMENT OF TOURIST ROUTES. *Scientific progress*, 2(8), 57-60.
22. Jamoliddin o'g'li, J. M., & Isroiljon o'g, D. R. Z. (2022). DESCRIPTION OF LOCAL HISTORY AND EXCURSION OBJECTS OF FERGANA REGION.
23. Махкамов, Э. Г., & Маматисаков, Ж. (2021). РЕКРЕАЦИЯ ВА ТУРИЗМ ОБЪЕКТЛАРИНИ ХУДУДИЙ ЖОЙЛАШТИРИШНИНГ ГЕОГРАФИК ЖИХАТЛАРИ. *ГЕОГРАФИЯ: ПРИРОДА И ОБЩЕСТВО*, 2(1).
24. Muhitdinov, I. I. O. G. L., & Mamatisakov, J. J. O. G. L. (2021). FARG 'ONA VODIYSINING JANUBIY QISMI GIDROGRAFIYASI. *Scientific progress*, 2(3), 975-980.
25. Обидов, У., Усманов, М., & Мадаминов, З. (2020). ФАРҒОНА ВОДИЙСИДА ИҚЛИМИЙ ВА ГИДРОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ ОЛИБ БОРИЛИШИ. *ОБЩЕСТВА УЗБЕКИСТАНА*, 196.
26. Madaminov, Z. K. (2020). PRODUCTION AND CONSUMPTION OF GOODS OF PEOPLE'S CONSUMPTION AS AN OBJECT OF GEOGRAPHICAL RESEARCHES. *Экономика и социум*, (1), 61-63.
27. Мадаминов, З. Х. (2019). ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОТРЕБЛЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ. *Экономика и социум*, (10), 485-488.
28. Мадаминов, З. Х., Абдукаххоров, Л. Ш., & Алижоннова, Н. У. (2022). ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ВА ИСТЕЪМОЛ ҚИЛИШГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР. *Academic research in educational sciences*, 3(5), 88-93.
29. Makhkamov, E. G. (2020). Use of natural conditions of the Fergana region for recreation and tourism. *Экономика и социум*, (4), 63-65.
30. Makhkamov, E. (2021, July). GEOGRAPHICAL DISTRIBUTION OF MEDICAL PLANTS OF THE FERGANA VALLEY, RECREATION POSSIBILITIES AND GEOECOLOGICAL ASPECTS OF THEIR PROTECTION. In *Конференции*.

ANDIZ (*INULA HELENIUM* L.) O‘SIMLIGIDAN KOMPLEKS BIOFAOL MODDALARNING BIOTEXNOLOGIYADA QO‘LLANILISHI

Sobira Boyqul qizi Axmedova
Zufar Zafar o‘g‘li Qarshiboyev
Muhammadjon Abduvaliyevich Mustafakulov
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
mmustafakulov@bk.ru

ANNOTATSIYA

Inula turkumiga mansub turlar evaziga dorivor o‘simliklarning yuqori xom-ashyo bazasini kengaytirish juda dolzarb bo‘lib, bunday qiziqish uyg‘otadigan o‘simliklardan biri bu *I. salicina* turi hisoblanadi. Ushbu istiqbolli turning kelajakda xom-ashyo bazasini yaratish ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish hamda madaniylashtirish borasidagi tavsiyalarni ishlab chiqish bilan belgilanadi.

Kalit so‘zlar: *I. helenium*, saponinlar, smola, shilimshiq va achchiq moddalar, alantolaktonlar, izoalantolaktonlar, fitomilan, inulin, polisaxarid, fruktooligosaxaridlar.

KIRISH

Dunyoning ko‘plab davlatlarida dorivor o‘simliklardan turli kasalliklarning oldini olish va davolashda ishlatiladigan biologik faol moddalarni ajratib olish hamda turlarni introduksiya sharoitida yetishtirish, ulardan oqilona foydalanish kabi yo‘nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mazkur sohada dunyoning yetakchi ilmiy markazlari olimlari, jumladan: J. Wang, Y.M. Zhao, C.Y. Guo [1] *I. helenium* turining ildiz ekstrakti, biologik faol moddalarning boy manbai ekanligi, xususan inulin, polisaxarid, fruktooligosaxaridlar, flavanoidlar saqlashi, S. Amin, Z.A. Kaloo [2] tadqiqotlarida esa efir moyining asosini galenin, laktonlardan alantolakton, izoalantolakton hamda alantokislotalar tashkil etishini aniqlashgan. Malarz *I. helenium* ildiz va ildiz poyasi ba’zi bir gramm-musbat va gramm-manfiy bakteriyalar va *Candida* turlariga hamda mikroblarga qarshi faol ekanligini aniqlagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘zbekiston Respublikasi florasida mavjud dorivor o‘simliklardan xalq xo‘jaligida foydalanish sohasida ham tadqiqotlar olib borilgan jumladan: H.X. Xolmatov, Z.H. Habibov [3] baland bo‘yli andiz ildizpoyasining tarkibida efir moylari, saponinlar, smola,

shilimshiq va achchiq moddalar, alantolaktonlar, izoalantolaktonlar, fitomilan va boshqa asetilen birikmalari, inulin va psevdoinulin uchrashi to'g'risida ma'lumotlarni keltirishgan. Q. Hojimatov, M. Olloyorov [4], A.Yu. Ibragimov [5] va boshqalarning tadqiqotlarida ham baland bo'yli andizning areali, kimyoviy tarkibi, tabobatda va zamonaviy tibbiyotda ishlatilishi bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilgan.

Qoqio'tdoshlar oilasiga mansub xalq tabobati va rasmiy tibbiyotda keng qo'llanib kelinayotgan dorivor o'simliklardan biri baland bo'yli andizdir. *I. helenium* - baland bo'yli andiz - Devisila vysokogo – bu o'simlik qadim zamonlardan xalq tabobatida ishlatilib kelingan. Ushbu turkumning nomlanishi "Inula" grekcha so'zdan "ineo" – tozalash, "helos" – botqoq o'simligi, "helios" – quyosh hamda juda chiroyli manzarali o'simlik degan ma'nolarni anglatadi. Baland bo'yli andiz qadim zamonlarda xalq tabobatida to'qqiz dardga davo sifatida ishlatilgan va ruscha nomi shundan kelib chiqqan. Baland bo'yli andiz ildiz poyasining tarkibida 1-3 % efir moylari, saponinlar, smola, shilimshiq va achchiq moddalar shu bilan birga ildiz moylarining asosini alantolaktonlar, izoalantolaktonlar, fitomilan va boshqa asetilen birikmalari, inulin va psevdoinulin uchraydi. Alantolakton antigelmintik ta'sirga ega. Dorivor o'simlikdan uning alohida qismlaridagina emas, balki kompleks holda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. J.M. Dergachyova, N.A. Troskaya ma'lumotlari bo'yicha yaqin vaqtgacha faqat baland bo'yli andiz ildiz va ildiz poyalari farmakopeya xom ashyosi hisoblangan bo'lib, Belorusiya Respublikasi Davlat Farmakopeyasi ro'yxatiga (Belarusiya Davlat Farmakopeyasi) ushbu turning gullari ham kiritilgan [6].

D. Polina izomerli seskviterpenli laktonlar: alantolakton, izoalantolakton va diprofillin *I. helenium* ildizining tarkibidagi efir moylari kuchli antistafilokokk ta'sirga ega moddalar ekanligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Iuliana Spiridon ma'lumotlari asosida baland bo'yli andiz tarkibidagi alantolakton, izoalantolakton saratonni oldini oluvchi vosita sifatida qo'shimcha baholanishga loyiqligini ko'rsatgan. *I. helenium* ning ildiz ekstrakti, biologik faol moddalarning boy manbai, xususan, inulin, polisaxarid, fruktooligosaxaridlar, flavonoidlar mavjud. *I. helenium* Xitoy, Mo'g'uliston, Hindiston, Bolgariya, Tibet xalq tabobatida qo'llaniladi. Xalq tabobatida mikroblarga qarshi faolligi bilan *I. helenium* ildiz va ildiz poyasi ba'zi bir gram-musbat va gram-manfiy bakteriyalar va *Candida* turlariga hamda mikroblarga qarshi faol ekanligi aniqlangan.

XULOSA

Baland bo'yli andiz ildiz va ildiz poyasi tarkibidagi gelinin moddalari bakterial floraning rivojlanish xususiyatlarini



kamaytirganligi sababli terini va mushak qavatini dezinfeksiyalashda qo'llaniladi. Baland bo'yli andiz rasmiy tibbiyotda, oziq-ovqat biotexnologiyasi sanoatida va ozuqa ishlab chiqarishda ishlatiladigan istiqbolli o'simlik. Tabiiy populyatsiyalarini o'rganish ularning biologik potensialini baholash, ko'paytirish va qimmatli iqtisodiy xususiyatlarni saqlab qolish istiqbollari bashorat qilish juda muhim ahamiyatga ega.

Shu sababdan Inula turkumiga mansub turlar evaziga dorivor o'simliklarning yuqori xom ashyo bazasini kengaytirish juda dolzarb bo'lib, bunday qiziqish uyg'otadigan o'simliklardan biri bu I. salicina turi hisoblanadi. Ushbu istiqbolli turning kelajakda xom-ashyo bazasini yaratish ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish hamda madaniylashtirish borasidagi tavsiyalarni ishlab chiqish bilan belgilanadi

REFERENCES

1. Wang J., Zhao Y.M., Guo C.Y., Zhang S.M., Liu C.L., Zhang D.S., Bai X.M. Ultrasoundassisted extraction of total flavonoids from Inula helenium. Pharmacognosy Magazine, 2012. – Vol 8. – P. 166-170.
2. Amin S., Kaloo Z.A., Singh S., Altaf T. Medicinal importance of genus Inula-A Review. IJCRR, – Vol. 5(2). – 2013. – P. 20-26.
3. Xolmatov H.X., Habibov Z.H. O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari. Toshkent: O'z SSR Meditsina nashriyoti, 1976.
4. Hojimatov Q., Olloyorov M. O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari va ularni muhofaza etish. – T.: Fan nashriyoti, 1988. – B. 15-17.
5. Ibragimov A.Yu. Dorivor va ziravor o'simliklar. – Toshkent, 2016. – B. 171-173.
6. Дергачёва Ж.М., Троская Н.А., Макаренко Е.Н. Микроскопические признаки Девясила высокого листов. Достижения фундаментальной, клинической медицины фарматсии. Материалы 73-ой научной сессии ВГМУ. – Витебск, 2018. Част 2. – С. 420-422.

TOSHKENT VILOYATI QIBRAY TUMANI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH BO'LIMI SHAROITIDA GO'SHTNI VETERINARIYA-SANITARIYA EKSPERTIZASI

Yunus Yusuf o'g'li Mingishev

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti, Toshkent filiali assistenti

ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekiston Respublikasi Toshkent viloyati Qibray tumani veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi sharoitida o'rganilgan mol go'shti namunalarning sifat, yangilik va xavfsizlik talablariga muvofiqligini tekshirish natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: veterinariya-sanitariya ekspertizasi, mol go'shti, sifat, yangilik

ABSTRACT

The article presents the results of checking the compliance of quality, freshness and safety requirements of beef samples under the conditions of the Department of Veterinary and Animal Husbandry Development, Qibray District, Tashkent Region, Uzbekistan.

Keywords: veterinary-sanitary expertise, beef, quality, freshness

KIRISH

Har xil turdagi korxonalarda turli xil saqlash sharoitlarida va stress omillari mavjud bo'lgan go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarish intravital fiziologik ko'rsatkichlarning o'zgarishiga va so'yish mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlari va veterinariya-sanitariya xususiyatlarining yomonlashishiga olib keladi [1, 2]. . Shu munosabat bilan go'sht xom ashyosining veterinariya-sanitariya holati har doim ham normativ-huquqiy hujjatlar talablariga javob bermaydi [5]. Qayta ishlash korxonalarini xavfsiz xomashyo bilan ta'minlash, aholini xavfsiz sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash, xavfli yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olishda sotilayotgan qishloq xo'jaligi hayvonlarining go'shtini veterinariya-sanitariya ekspertizasidan o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi [3, 4, 6].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqot ob'ektlari veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasining hayvonlar diagnostikasi va oziq-



ovqat xavfsizligi markazining veterinariya-sanitariya ekspertiza laboratoriyasida tekshirilgan turli ishlab chiqaruvchilarning mol go'shti namunalari bo'ldi. Toshkent viloyati Qibray tumani : №1 namuna –shaxsiy xo'jaligidagi Tursunboeva S.; namuna № 2 va 3 – “ Uznasl Elita” MChJdan; 4-namuna — Komilov Ya.F.ning shaxsiy xo'jaligidagidan; 5-son namunasi – “Imkon plyus” MChJ dan.

So'yish mahsulotlarini baholash yarim tana go'shti, chorak va organlarni dastlabki tekshirishdan boshlandi. Patologik o'zgarishlarga e'tibor qaratildi: qon ketishlar, shikastlanishlar, shishlar, neoplazmalar, xo'ppozlar va boshqalar. Finnozni tekshirish uchun bo'yin, dorsal, bel, son va diafragma mushaklarida diagnostik kesmalar qilingan. Shu bilan birga, parazitlarning lichinkalari tekshirilganda ularning borligi aniqlanmagan.

Organlar, mushak va yog' to'qimalarining ko'rinishi, rangi va hidi aniqlandi. Tana go'shtini ko'zdan kechirish chog'ida hayvonlar agonal holatda nobud bo'lmagani va o'rganilgan mol go'shti namunalari veterinariya nazoratidan o'tiladigan tovarlarga qo'yiladigan veterinariya-sanitariya talablari va GOST 34120-2017 yangiligi va xavfsizligi bo'yicha talablarga javob berishi aniqlandi. Barcha namunalar to'g'ri quritish qobig'iga ega , №1, 2 namunalarda pushti rang va 3,4,5-namunalarda qizil, va barcha namunalarning konsistensiyasi zich, elastik, bosilganda hosil bo'lgan chuqurchalar tezda tekislangan, kesilgan muskullar bir oz nam bo'lib, filtr qog'ozida nam dog'lar qoldirmagan, №1, 2 namunalardagi mushaklarning rangi pushti, 3,4,5-sonli namunalarda esa - qizil, hidi o'ziga xos, yaxshi sifatli mol go'shtiga xos, 3-5 namunada aniqroq, tendonlari - elastik, zich, bo'g'inlar yuzasi silliq, yaltiroq, och pushti rangda, yog'lilik – sho'rlik yoki achchiqlik hidi yo'q , oq rangda edi. mustahkamlik - zich va elastik. Qaynatish sinovi shuni ko'rsatdiki, bulon shaffof bo'lib, yangi mol go'shtiga xos spetsifik hidi bor.

O'rganilgan mol go'shti namunalarning yangiligi biokimyoviy ko'rsatkichlar bo'yicha ham baholandi. Barcha namunalarda peroksidaza faolligiga reaksiyasi ijobiy bo'ldi (go'sht ekstraktining ko'k-yashil bo'yalishining tez paydo bo'lishi), mis sulfat bilan birlamchi oqsil parchalanishi mahsulotlariga reaksiyasi salbiy (sinov naychasining tarkibi shaffof bo'lib qoldi), Nesslerning ammiak va ammoniy tuzlari uchun reaktivi bilan reaksiya salbiy bo'ldi (ekstrakti yashil-sariq rangga ega bo'lib, shaffof bo'lib qoladi), vodorod sulfidiga reaksiyasi salbiy.

Amino - ammiak azot , uchuvchi yog 'kislotalari va pH reaksiyasi baholandi (jadval). Aniqlanishicha, uchuvchi yog 'kislotalari va aminokislotalar va ammiak azotining miqdori yangi go'sht uchun standartda belgilangan chegaradan oshmagan va mos ravishda 3,1-3,3 mg va 0,49-0,56 mg ni tashkil

etgan, muhitning reaksiyasi biroz ishqoriy edi. , bu ham yangi go'shtga xos va 5,81 dan 5,96 gacha.

Jadval - Mol go'shtining yangiligini biokimyoviy tadqiqotlar natijalari

Indeks	Norm GOST 23392-2016	Mol go'shti namunalari uchun natijalar				
		namuna raqami 1	namuna raqami 2	namuna raqami 3	namuna raqami 4	namuna raqami 5
10 sm ³ ekstrakti boshiga amino - ammiak azot, mg NaOH mazmuni	1,26 dan ko'p bo'lmagan - yangi; 1.27-1.68 - shubhali tazelik; 1,68 dan yuqori - eskirgan	0,49	0,51	0,54	0,52	0,56
VFA miqdori, mg KOH/100 g	4,0 gacha - yangi; 4.0-9.0 - shubhali yangilik; 9,0 dan ortiq - eskirgan	3.10	3.16	3.22	3.21	3.29
pH	5,7-6,2 - yangi; 6.3-6.4 - shubhali tazelik; 6.6 va undan yuqori - eskirgan	5.81	5.83	5.93	5.89	5.96

Tozalikdan tashqari, biz sog'lom yoki kasal hayvondan kelib chiqishini shakllantirish reaksiyasi bilan aniqlash uchun go'sht namunalarini o'rgandik. O'rganilayotgan go'shtning barcha namunalari sog'lom hayvonlardan olingan, chunki filtrat reagent qo'shgandan keyin shaffof bo'lib qoldi (salbiy reaksiya).

XULOSA

Organoleptik va biokimyoviy tadqiqotlar bilan bir qatorda, go'sht iste'molchi uchun mikroskopiya va xavfsizlik bo'yicha tadqiqotlardan o'tkazildi, buning uchun biz mazok izlari mikroskopiya va serologik tadqiqotlar o'tkazdik. Mol go'shtining mikroflora bilan mikrobial ifloslanishi yangi go'shtga to'g'ri keldi, izlar past rang intensivligiga ega, to'qimalarning parchalanishining izlari yo'q, mikroskopning ko'rish sohasida mikroskop ostida ularda bitta kokklar topilgan (1 maydonda 1 dan ko'p bo'lmagan holatda). Patogen mikroflora topilmadi. Kuydirgi va pasterellyoz uchun serologik tekshiruvlar manfiy chiqdi.

Hayvonlar diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi davlat markazida veterinariya-sanitariya nazorati ostidagi savdoga qo'yilgan go'sht va go'sht mahsulotlari organoleptik, biokimyoviy, mikrobiologik ko'rsatkichlari bo'yicha yangi, sog'lom hayvonlardan olingan va iste'molchi uchun xavfsiz deb topildi va ularga ruxsat berildi. cheklovlarsiz sotiladi..

REFERENCES

1. Burmistrov, E. A. Qora-oq sigirlarning fasllarga qarab qon morfologik parametrlarining dinamikasi / E. A. Burmistrov, M. F. Yudin, V. N. Lazarenko // Chorvachilikning texnologik muammolari : Mat. universitetlararo . fan - amaliyot . va ilmiy - uslubiy . Konf ., Troitsk, 2001 yil 02-05 aprel. - Troitsk: Ural GAVM, 2001. - S. 14-17.
2. Burmistrov, E. A. Genotipning Janubiy Uraldagi sigirlarning xulq-atvori va sut mahsuldorligiga ta'siri : 06.02.04 "Veterinariya xirurgiyasi" ixtisosligi: qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya / Burmistrov Evgeniy Aleksandrovich. - Troitsk, 2001. - 147 p.
3. Yarim dudlangan kolbasalarning veterinariya-sanitariya xususiyatlariga texnologik omillarning ta'siri / E. A. Burmistrov // Agrosanoat kompleksini innovatsion rivojlantirishda fan va amaliyotning dolzarb masalalari: Butunrossiya ilmiy-ishlab chiqarish majmuasi materiallari. , 2020 yil 25 dekabr . - n os. Persianovskiy : FGBOU VPO "Donskoy GAU", 2020. - S. 139-143.
4. Naumova, N.L., Burmistrov, E.A., Burmistrova, O.M. Parranda go'shtidan tayyorlangan tabiiy yarim tayyor mahsulotlarning yangiligi va vitamin qiymatini past haroratda qayta ishlash chuqurligiga qarab o'rganish . - 2018 yil - 4-son (51). - S. 72-77.
5. Savostina, T. V. So'yish punkti sharoitida olingan so'yish mahsulotlarini veterinariya-sanitariya baholashi IP Abdullaeva M.K. Butunrossiya NMK , 2017 yil 2 mart. - Ivanovo: FGBOU VPO Ivanovo davlat qishloq xo'jaligi akademiyasi, 2017. - P. 205-209.
6. Qiyma go'sht sifati va xavfsizligini qiyosiy baholash / TV Savostina, AS Mizhevikina, ER Sayfulmukov [va boshq.] // IOP konferentsiya seriyasi: Yer va atrof-muhit fanlari, Michurinsk, 12 aprel , 2021 yil . – Michurinsk, 2021. – P. 012118. – DOI 10.1088/1755-1315/845/1/012118.

ТОҒ ДАРЁЛАРИДА ЁМҒИР СУВЛАРИ ҲИСОБИГА ҲОСИЛ БЎЛГАН ТОШҚИН ДАВРИДАГИ МАКСИМАЛ СУВ САРФИНИ ҲИСОБЛАШ

Равшан Топволдиевич Пирназаров

Фарғона давлат университети география кафедраси доценти
pirnazarov.73@mail.ru

Дилафруз Тожимухаммад кизи Махмудова

Фарғона давлат университети география кафедраси магистранти
maxmudovadilafruz2@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье описаны результаты исследования по расчету максимального расходов воды, формируемого за счет дождевых паводков в бассейнах горных рек.

Ключевые слова: максимальный расход воды, коэффициент стока, гидрологический створ, базовый сток, паводок, поверхностный сток, сформированный за счет дождевой воды, плотинные озера.

ABSTRACT

This article describes the results of a study on the calculation of the maximum water flow, formed due to rain floods in mountain river basins.

Keywords: maximum water discharge, runoff coefficient, hydrological section, base runoff, flood, surface runoff formed due to rainwater, dam lakes.

КИРИШ

Ўзбекистон ва унга туташ бўлган тоғли ҳудудларда ёмғир тошқинлари тез-тез такрорланиб туради. Улар жуда қисқа муддат ичида рўй бериши билан бошқа табиий офатлардан ажралиб туради. Ёғиннинг жадаллиги, ёнбағирларнинг нишаблиги, тоғ жинсларининг ғоваклиги ва ўсимлик қопламнинг сийрак бўлиши сел тошқинининг ҳам шунча кучли, шиддатли ва хавфли бўлишига сабаб бўлади. Масалан, 1977 йилнинг баҳорида Олой тоғларининг шимолий ёнбағирларига тушган кучли жала ёғинларидан (17-18 мм) лойқа сел оқими ҳосил бўлиб, унинг сарфи 200 м³/сек. га етган. Сел оқимлари Сўх, Шоҳимардонсой, Исфайрамсой ва бошқа дарёларда тошқинни келтириб чиқарган. Марғилонсойнинг тошишидан Фарғона шаҳри катта зарар кўрган. Кўпинча

бундай тошқинлар тунги вақтларга тўғри келганлиги сабабли аҳолини олдиндан огоҳлантириш имконияти бўлмайди.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОЛОГИЯ

Ер юзидаги дарёларнинг учдан икки қисмида максимал сув сарфлари ёмғир сувлари ҳисобига ҳосил бўлади. Шунинг учун ҳам гидрологияда ёмғир сувлари ҳисобига ҳосил бўлган тошқин давридаги максимал сув сарфларини - ёмғир тошқинларини ҳисоблаш усулларини такомиллаштиришга катта эътибор қаратилган. Жумладан, А.В.Огиевский, Г.А.Алексеев, М.А.Великанов, Н.Ф.Бефани, Ю.Б.Виноградов ва бошқа олимлар томонидан ёмғир сувлари ҳисобига оқим ҳосил бўлиш жараёни батафсил ўрганилган [1, 2, 3, 4].

Ўзбекистон ва унга туташ тоғли ҳудудларда кузатиладиган ёмғир тошқинларини ҳисоблаш усулларини такомиллаштириш масалалари Ю.М.Денисов, А.Ф.Шоҳидов, Б.Д.Салимова каби мамлакатимиз олимларининг эътиборидан четда қолмаган [3, 6].

МУҲОКАМА

Ёмғир сувларидан шаклланадиган тошқинларнинг ҳосил бўлиши жуда мураккаб жараён. Унда ёмғирнинг ёғиш жадаллиги, давом этиш вақти ва умумий миқдори; дарё ҳавзасининг рельефи ва экспозицияси; дарё ўзани ва ҳавзасининг нишаблиги; дарё ҳавзасидаги тупроқ-грунтларнинг сув ўтказувчанлиги; дарё ҳавзасида ер ости сувларининг жойлашиш чуқурлиги ва шу каби табиий ва гидрометеорологик омиллар иштирок этади. Мазкур омилларни инобатга олган ҳолда, юқорида қайд этилган мақсадни амалга ошириш учун ишда қуйидаги вазифалар белгиланди ва яқунда ўз ечимини топди:

-тадқиқот даврида Кўксув дарёси ҳавзасида қайд этилган кунлик максимал ёғин миқдорини аниқлаш;

-Кўксув дарёсида ёмғир сувлари ҳисобига ҳосил бўлган максимал сув сарфини ҳисоблаш;

-Кўксув дарёси ҳавзасининг оқим коэффициенти (η)ни аниқлаш;

-Кўксув дарёси оқимининг ўртача йиллик қатлами (Y)ни аниқлаш;

-ҳавзага ёғадиган атмосфера ёғинлари қатлами (X)ни аниқлаш;

-ёмғир ҳисобига ҳосил бўлган тошқиннинг секундларда ифодаланган давомийлиги (T)ни ҳисоблаш;

-Кўксув дарёси ҳавзасида ёмғир сувларидан ҳосил бўлган юза оқимнинг ҳисоб гидрологик створига етиб келиш вақти (τ)ни ҳисоблаш;

-Кўксув дарёсидаги базавий оқим (Q_0)ни ҳисоблаш;

-Кўксув дарёси ҳавзасида ёмғир сувлари ҳисобига ҳосил бўлган тошқин давридаги максимал сув сарфи (Q_{max} , м³/с) ни ҳисоблаш.

Кўксув дарёси ҳавзасида жойлашган тўғонли кўл - Қурбонкўлнинг сув сатҳи Кўксув дарёси сув сарфи билан боғлиқ ҳолда ўзгаради. Ҳавзада олиб борган сув ўлчаш ишларимизда Қурбонкўл сув сатҳининг критик чегара қиймати, яъни $H = 2154$ см га, Кўксув дарёсининг хавфсиз чегара сув сарфи эса $10,9$ м³/с га тенг эканлиги аниқланган. Кўришиб турибдики, кўлдаги сув сатҳи хавфсиз чегара қийматда сақланиб туриши учун Кўксув дарёсининг сув сарфи $10,9$ м³/с дан ортмаслиги лозим. Акс ҳолда, сув қулама тўғон устидан ошиб ўта бошлайди. Натижада, қулама тўғоннинг ювилиш хавфи кучаяди.

НАТИЖАЛАР

Кўксув дарёсининг сув сарфи май ойининг ўрталаридан бошлаб июнь, июль, август ойигача ортиб боради. Шунга боғлиқ ҳолда Қурбонкўлнинг сув сатҳи ҳам июнь-август ойларида энг катта қийматга эришади. Мана шу даврда дарё ҳавзасида интенсив жала ёмғирларининг ёғиши Кўксув дарёсининг сув сарфини меъёрдан бир неча баробар ортиб кетишига, пировард натижада, Қурбонкўл тўғонининг ювилиш хавфини кучайишига олиб келади. Мазкур ҳолатни баҳолаш мақсадида, дарё ҳавзасида ёмғир сувлари ҳисобига шаклланадиган тошқин давридаги максимал сув сарфи (Q_{max} , м³/с) ни аниқлашга ҳаракат қилдик ва бунга эришдик. Бунда қуйидаги тенгликдан фойдаландик:

$$Q_{max} = Q_0 + Q_e, \quad (1)$$

бу ерда: Q_0 – тошқин бошлангунча Кўксув дарёсида мавжуд бўлган сув сарфи (базавий оқим); Q_e – Кўксув дарёси ҳавзасида ёмғир сувлари ҳисобига ҳосил бўлган сув сарфи.

Қурбонкўл ва ундан юқорида янгидан шаклланган “Янги кўл”да сув сатҳи июнь-август ойларида энг катта қийматларга эришади. Шу ҳолатни ҳисобга олиб, Шоҳимардон метеорологик станциясида тадқиқот олиб борилган муддатларда июнь–август ойларида қайд этилган кунлик максимал ёғин миқдори 2002 йил 20 июлда $28,4$ мм га тенг бўлганлигини аниқладик [5].

Кўксув дарёсида ёмғир сувлари ҳисобига ҳосил бўлган максимал сув сарфини ҳисоблашда кунлик ёғин миқдорининг ана шу энг катта қийматига асосландик. Ҳисоблашлар

дастлаб А.В.Огиевский таклиф этган, сўнг Г.А.Алексеев томонидан такомиллаштирилган қуйидаги ифода ёрдамида амалга оширилди [1, 4]:

$$Q_{\varepsilon} = \frac{k \cdot \eta \cdot F \cdot Y_{\max}}{T}, \quad (2)$$

бу ерда: k - ўлчам бирлиги коэффиценти, η - оқим коэффиценти, F - ҳавза майдони (171 км^2), Y_{\max} - мумкин бўлган 100% ли максимал оқим қатлами (мм), унинг қиймати кунлик максимал ёғин миқдори (28,4 мм) га тенг деб олинди; T – ёмғир ҳисобига ҳосил бўлган тошқиннинг секундларда ифодаланган давомийлиги.

Юқоридаги ифодада “ k ” ўлчам бирлиги коэффиценти бўлиб, унинг қиймати қуйидагича аниқланди:

$$k = \frac{\text{км}^2 \cdot \text{мм}}{\text{с}} = \frac{10^3 \cdot \text{м}^3}{\text{с}}. \quad (3)$$

Кўксув дарёси ҳавзасининг оқим коэффиценти “ η ” қуйидаги ифода билан аниқланди:

$$\eta = \frac{Y}{X}, \quad (4)$$

бу ерда: Y - Кўксув дарёси оқимининг ўртача йиллик қатлами бўлиб, стандарт гидрологик кузатиш маълумотлари асосида унинг қиймати 441 мм га тенг эканлиги аниқланди; X - ҳавзага ёғадиган атмосфера ёғинлари қатлами И.А.Ильин маълумотлари асосида, Ю.М.Денисов тадқиқотлари натижаларини ҳисобга олган ҳолда, 655 мм ни ташкил этиши аниқланди. Ушбу рақамни аниқлашда Кўксув дарёси ҳавзасининг ўртача баландлиги $H_{\text{ўрт}} = 3010 \text{ м}$ га тенг эканлиги назарда тутилди [3, 5].

Демак, юқорида қайд этилганларини ҳисобга олсак, Кўксув дарёсининг оқим коэффиценти $\eta = 0,67$ га тенг эканлиги аниқ бўлади.

Ёмғир ҳисобига ҳосил бўлган тошқиннинг секундларда ифодаланган давомийлиги (T) ни аниқлашда қуйидаги ифодадан фойдаланилди:

$$T = T_{\varepsilon} + \tau, \quad (5)$$

бу ерда: T_{ε} – ёмғирнинг давом этиш вақти, секундларда; τ - ҳавзада ёмғир сувлари ҳисобига шаклланган юза оқимнинг ҳисоб гидрологик створига етиб келиш вақти, секундларда.

Биз юқорида қабул қилган энг катта қийматдаги кунлик ёғин миқдори (28,4 мм), Шоҳимардон метеорологик станцияси маълумотларига кўра, 2002 йил 20 июль куни соат 15⁵⁰ да

бошланиб, 19²⁰ да тўхтаган. Демак, шу кундаги ёмғир 3 соат 30 минут давом этган.

Кўксув дарёси ҳавзасида ёмғир сувларидан ҳосил бўлган юза оқимнинг ҳисоб гидрологик створига етиб келиш вақти (τ) қуйидаги ифода билан аниқланди:

$$\tau = \frac{L}{V}, \quad (6)$$

бу ерда: L – Кўксув дарёсининг узунлиги, 22 км; V – дарё ўзанида сувнинг ўртача оқиш тезлиги бўлиб, унинг қиймати 3 та гидрологик постларда ўлчанган тезликларнинг ўртача арифметик қиймати сифатида 1,19 м/с га тенг эканлиги ҳисоблаб топилди.

Юқоридаги рақамларни ҳисобга оладиган бўлсак, Кўксув дарёси ҳавзасида ёмғир ҳисобига шаклланган оқимнинг ҳисоб гидрологик створига етиб келиш вақти $\tau = 5$ соат 8 минутга тенг бўлади. Юқорида келтирилган (5) ифодага асосан, Кўксув дарёси ҳавзасида ёмғир ҳисобига ҳосил бўлган тошқиннинг секундларда ифодаланган давомийлиги $T = 3$ соат 30 мин + 5 соат 8 мин = 8 соат 38 мин = 31080 секундни ташкил этади.

Юқорида келтирилган (3)-(6) ифодаларнинг аниқланган қийматларини (2) ифодага қўйсак, Кўксув дарёсида ёмғир сувлари ҳисобига ҳосил бўлган тошқин давридаги сув сарфининг энг катта қийматини ҳисоблаш имкониятига эга бўламиз:

$$Q_{\varepsilon} = \frac{k \cdot \eta \cdot F \cdot Y_{\max}}{T} = \frac{10^3 \cdot 0,67 \cdot 171 \cdot 28,4}{31080} \cdot \frac{m^3}{c} = 104,7 \frac{m^3}{c}.$$

Ушбу рақам Кўксув дарёси ҳавзасида 2002 йил 20 июлда кузатилган кунлик энг катта қийматдаги ёмғир қатлампидан ҳосил бўлган тошқин давридаги максимал сув сарфини ифодалайди. Лекин, бу даврда дарё ўзанида унинг ҳавзасидаги мавжуд музликлар ва қор қопламнинг эришидан ҳосил бўлган маълум миқдорда сув оқади. Биз уни июль ойидаги базавий оқим (Q_0) деб атадик. Унинг ўртача кўп йиллик қиймати $Q_0 = 6,8$ м³/с га тенг эканлиги стандарт гидрологик маълумотлар асосида аниқланди. Шу рақамни ҳисобга оладиган бўлсак, юқоридаги (1) ифода билан Кўксув дарёсида ёмғир сувлари ҳисобига ҳосил бўлган тошқин давридаги максимал сув сарфи (Q_{\max}) ни аниқлаймиз:

$$Q_{\max} = Q_0 + Q_{\varepsilon} = 6,8 + 104,7 = 111,5 \text{ м}^3/\text{с}.$$

ХУЛОСА

Ҳисоблаш натижаларидан кўриниб турибдики, 2002 йил 20 июлда ёққан ёмғир сувлари ҳисобига шаклланган максимал сув сарфи ($Q_{\max}=111,5 \text{ м}^3/\text{с}$) дарё ўзанида шу даврда оқётган базавий оқим ($Q_6=6,8 \text{ м}^3/\text{с}$) дан қарийб 16 мартаба катта қийматни ташкил этган. Бу қийматдаги сув дастлаб “Янги кўл”га, сўнг унинг сел тошқинлари ҳосил қилган муваққат тўғонидан ошиб ўтиб, Қурбонкўлга қуйилади. Ҳар икки ҳолатда ҳам, яъни бундай катта миқдордаги сувнинг “Янги кўл”га қуйилиши, унинг тўғонидан ошиб ўтиб, Қурбонкўлни тўлдириши ўта хавфли вазиятларни юзага келтиради.

Таъкидлаш лозимки, “Янги кўл” маълум гидрометеорологик шароитлар натижасида сувга тўлиб турган бўлса, юқорида қайд этилган $Q_{\max} = 111,5 \text{ м}^3/\text{с}$ миқдордаги сув тўғридан-тўғри унинг тўғонидан ошиб ўта бошлайди. Бундай ҳолатда мустақкам бўлмаган тўғон ювилиб, ундан ошиб ўтаётган сув миқдори янада кўпаяди. Бу эса Қурбонкўлга қуйилаётган сув миқдорининг ва, пировард натижада, кўлдаги сув сатҳининг кескин ортишига сабаб бўлиб, кулама тўғоннинг барқарорлигига катта хавф солади.

REFERENCES

1. Алексеев Г.А. Генетико-статистический метод определения вероятных максимальных расходов воды // Тр. ГГИ. –Вып.43(97). –Л.: Гидрометеоздат, 1954. –С.5-21.
2. Виноградов Ю.Б. Вопросы гидрологии дождевых паводков на малых водосборах Средней Азии и Южного Казахстана // Тр. КазНИГМИ. – Алма-Ата, 1967. –Вып. 28. – 262 с.
3. Денисов Ю.М. О расчете максимальных расходов воды дождевых паводков // Тр. САРНИГМИ. – М.: Гидрометеоздат. – 1986. – С.23-43.
4. Огиевский А.В. Гидрология суши. –М.–Л.: Изд-во Главная редакция энергетической литературы, 1936. – 512 с.
5. Пирназаров Р.Т., Ҳикматов Ф.Ҳ. Тўғонли кўлларнинг гидрологик режими ва улар хавфини камайтириш масалалари. Монография. - Тошкент: Fan va texnologiya, 2013. -176 б.
6. Шахидов А.Ф., Салимова Б.Д., Денисов Ю.М. Руководство по расчету максимальных расходов дождевых вод. МКН 27-2007. // Ведомственные нормы и правила. – Ташкент, 2008. – 60 с.
7. Fazliddinovich, K. V., & Topvoldievich, P. R. (2018). Calculation of the outbreak discharges through a closure channel with trapezoid shape of cross-section. *European science review*, (7-8), 51-53.

8. Ahmadaliyev, Y. I., & Mamadalievich, X. A. (2021). Changes in the Natural Composition of the Land Fund and Its Protection (on the Example of Khojaabad District). *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(04), 165-168.
9. Ismoilovich, A. Y., & Erkinovich, M. A. (2022). THE USE OF HYDRONICS IN THE STUDY OF CHANGES OCCURRING IN THE PROCESS OF WATER USE. *PEDAGOGS jurnali*, 10(1), 148-154.
10. Равшан Топволдиевич Пирназаров, & Тоҳирбек Салим Ўғли Собиров (2022). ИҚЛИМ ЎЗГАРИШ ШАРОИТИДА СУВГА БЎЛГАН ТАЛАБЧАНЛИКНИНГ ОРТИШИ ВА УНИНГ ЕЧИМЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (5), 404-408.
11. Хикматов, Б. Ф., & Пирназаров, Р. Т. (2020). ОЦЕНКА ПОСТУПЛЕНИЯ ТВЕРДОГО МАТЕРИАЛА В ЧАШУ ОЗЕРА КУРБАНКУЛЬ И АНАЛИЗ ДОННЫХ ОТЛОЖЕНИЙ. In *ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ГИДРОМЕТЕОРОЛОГИИ, ВОДНОМ ХОЗЯЙСТВЕ И ГЕОЭКОЛОГИИ* (pp. 153-156).
12. Олимжон Исомиддинович Абдуғаниев, Турсунной Дилмуродовна Комилова, & Муҳаммадюсуф Темурхон Ўғли Мухториддинов (2022). УРБАНИЗАЦИЯЛАШГАН ХУДУДЛАРНИНГ ЭКОЛОГИК ОЛАТИНИ БАҲОЛАШДА ГАТ-ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МЕТОДЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (5), 757-765.
13. Абдуғаниев, О. И. (2022). ЛАНДШАФТ ВА БИОЛОГИК ХИЛМА-ХИЛЛИКНИ ГАТ-ТАҲЛИЛ АСОСИДА БАҲОЛАШ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(1), 53-58.
14. Абдувалиев, А. Ҳ., & Парпиева, Г. М. (2022). ФАРҶОНА ВОДИЙСИДА АҲОЛИНИНГ ЕР БИЛАН ТАЪМИНЛАНГАНЛИК ДАРАЖАСИ ВА УНИНГ АҲОЛИ ЗИЧЛИГИГА ТАЪСИРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(4), 1174-1183.
15. Abduvaliyev, N. A. A., Hamdamova, F. A. Q., & Eraliyev, Z. Z. Q. (2021). LANDSHAFT OMILI ASOSIDA AHOLI HUDUDIY TAKRIBINI TAKOMILLASHTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 1219-1223.
16. Холиков, Р., & Қўчқаров, О. (2021, August). BASIC PRINCIPLES OF URBAN EKOLOGICAL TERRITORIAL ORGANIZATION OF URBAN DEVELOPMENT: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1326>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).
17. Pirnazarov, R., Topvoldiyeva, M., & Kenjayeva, O. (2021, August). USE OF GRAPHIC ORGANIZERS IN THE LESSON



PROCESS: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1387>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).

18. Muhitdinov, I. (2022). O'ZBEKISTONNING KO'LLARI VA SUV OMBORLARI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(2), 261-263.

19. Zarifjon o'g'li, M. Z., & Ihtiyorjon o'g'li, M. I. (2022). FARGONA VODIYSINING IQLIMI VA YOGINLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 2(1), 49-52.

20. Mamatisakov, J. J. O. G. L., & Muhitdinov, I. I. O. G. L. (2021). PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF ECOTOURISM IN THE PROTECTED NATURAL AREAS OF FERGANA REGION. *Scientific progress*, 2(3), 986-989.

21. Topvoldievich, P. R., & Ugli, M. I. I. Hydrological Description of Some Small Mountain Rivers in the Fergana Valley. *JournalNX*, 6(12), 264-267.

22. Jahongirmirzo Jamoliddin, O. G. (2021). 'Li Mamatisakov, Ilhomjon Ihtiyorjon O'g'li Muhitdinov, Ablazbek Erkinjon Ogli Madraximov PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF AGRICULTURAL TOURISM IN FERGANA REGION. *Scientific progress*, 8.

23. Khikmatov Bekzod Fazliddinovich, & Pirnazarov Ravshan Topvoldievich (2018). Calculation of the outbreak discharges through a closure channel with trapezoid shape of cross-section. *European science review*, (7-8), 51-53.

24. Mahkamov, E. (2021, August). GEOGRAPHICAL DISTRIBUTION OF MEDICAL PLANTS OF THE FERGANA VALLEY, RECREATION POSSIBILITIES AND GEOECOLOGICAL ASPECTS OF THEIR PROTECTION: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1414>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).

25. Elyorjon G'ayratovich Mahkamov, & Dilafruz Baxromjon Qizi Karimqulova (2021). EKOTURISTIK MARSHRUTLAR VA ULARNI ISHLAB CHIQUISH USULLARI. *Academic research in educational sciences*, 2 (12), 1137-1140.

26. Muhitdinov, I. I. (2021). Kichik tog'daryolari oqiminig shakllanishida meteorologik omllarning roli (Farg'ona vodiysining janubiy qismi misolida). *magistrlik dissertatsiyasi.-Farg'ona*, 87.

КЎКСУВ ДАРЁСИ ҲАВЗАСИНИНГ ГИДРОМЕТЕОРОЛОГИК ШАРОИТИ

Равшан Топволдиевич Пирназаров

Фарғона давлат университети география кафедраси доценти
pirnazarov.73@mail.ru

Дилафруз Тожимухаммад кизи Махмудова

Фарғона давлат университети география кафедраси магистранти
maxmudovadilafruz2@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада Олой тизмасининг шимолий экспозициясида жойлашган Шоҳимардон дарёсининг ўнг ирмоғи бўлган Кўксув дарёси ҳавзасининг гидрометеорологик шароити, хусусан ҳаво ҳарорати ва атмосфера ёгинларининг йил ичида ўзгариши ҳамда дарё оқимининг шаклланишида муҳим ўрин тутувчи тоғ музликлари, уларнинг динамикаси ва деградацияси масалалари ҳавзада олиб борилган кузатиш маълумотлари асосида ёритиб берилган.

Калит сўзлар: Шоҳимардон дарёси, Кўксув дарёси, дарё ҳавзаси, дарёнинг тўлинсув даври, оқимнинг йил ичида тақсимланиши, сел тошқинлари, ҳаво массалари, музликлар, музликларнинг қуйи чегараси, музликлар динамикаси, музликлар деградацияси.

ABSTRACT

In this article, the hydrometeorological conditions of the Koxsu river basin, which is the right tributary of the Shahimardan river, located in the northern exposure of the Alay ridge, in particular, the changes in air temperature and atmospheric precipitation during the year, as well as mountain glaciers, which play an important role in the formation of the river flow, their dynamics and degradation, are covered based on the observation data in the basin.

Keywords: Shahimardan River, Koxsu River, river basin, river's filling period, annual flow distribution, floods, air masses, glaciers, lower limit of glaciers, dynamics of glaciers, degradation of glaciers.

КИРИШ

Сайёрамизда кечаётган иқлим ўзгариши жараёнлари сўнгги йилларда дунё миқёсида рўй бераётган экстремал, яъни ноқулай об-ҳаво ҳодисалари, жумладан, жазирама иссиқлар, интенсив жала ёмғирлар, уларнинг оқибатида келиб чиқадиган ҳалокатли сув тошқинлари, кучли шамоллар, довулларнинг тез-тез такрорланиши ҳамда баланд тоғлардаги музликларнинг жадал суратларда қисқариб бораётганлиги ва бошқа кўплаб хавfli гидрометеорологик жараёнларда ўз тасдиғини топмоқда. Буларнинг барчаси, ўз навбатида, дарёлар оқимининг шаклланишига ва уларнинг гидрологик режимини ўзгаришига, пировард натижада эса, иқтисодиёт тармоқларини сув ресурслари билан таъминлашдаги муаммоларнинг кескинлашуви сабаб бўлмоқда. Мазкур муаммоларнинг ижобий ечимлари мамлакатимизда, келажакда нафақат республика қишлоқ хўжалиги ривожини, балки иқтисодий ва ижтимоий ҳаётнинг бошқа тармоқлари барқарор тараққиётини ҳам белгилаб беради [5].

Дарёларнинг гидрологик режимини ўрганишда даставвал улар жойлашган ҳавзанинг гидрометеорологик шароитига баҳо бериш мақсадга мувофиқдир. Шу мақсадда атмосфера ёғинлари ва ҳаво ҳароратининг глобал иқлим исиши шароитида ўзгариши, улар билан боғлиқ ҳолда тоғ музликлари динамикасини ва уларнинг деградациясини ўрганиш бугунги куннинг долзарб муаммоларидан биридир.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Дарёларнинг гидрологик режимига иқлимий омилларнинг таъсири, дарёлар сув режимининг глобал иқлим исиши шароитидаги ўзгаришлари В.Л.Щульц (1949, 1965), О.П.Щеглова (1972, 1983), И.А.Ильин (1956), М.Н.Большаков (1974), В.Е.Чуб (2000, 2007), Ф.Ҳ.Ҳикматов (2002, 2011), Д.П.Айтбаев (2013), Э.Солиев (2008), Р.Зияев (2021) каби олимлар томонидан ўрганилган. Лекин, ушбу тадқиқотларда Кўксув дарёси ҳавзасининг гидрометеорологик шароити батафсил ва алоҳида кўриб чиқилмаган.

МУҲОКАМА


Ҳудуднинг геологик ўтмишида палеозой эрасида рўй берган герцин бурмаланиши муҳим ўрин тутди. Мазкур бурмаланишда Ўрта Осиёдаги кўплаб тоғ тизмалари, жумладан Фарғона водийсининг жанубидаги Олой тизмаси ҳам кўтарилган. Кейинчалик неогеннинг бошларида рўй берган альп бурмаланиши ва

тўртламчи даврдаги янги тектоник ҳаракатлар натижасида ҳудуднинг ҳозирги рельеф қиёфаси шаклланган. Кўксув дарёси ҳавзасидаги тоғ жинсларининг асосий қисмини палеозой оҳақтошлари (58%), сланецлар (27%), интрузив жинслар (12%) ҳамда ҳозирги замон ётқизиқлари (3%) ташкил этади [2].

Шоҳимардонсой ҳавзаси иқлим шароитининг шаклланишида унинг Фарғона водийсининг жанубида жойлашганлиги, денгиз сатҳидан баландлиги, тоғ ёнбағирларининг экспозицияси муҳим ўрин тутди. Шунингдек, дарё ҳавзасининг орографик хусусиятларига боғлиқ ҳолда кечадиган атмосфера циркуляцияси жараёнлари ҳудуд иқлимида ҳал қилувчи аҳамият касб этади.

Кўксув дарёси ҳавзасининг тор водийда жойлашганлиги ўзига хос иқлимий шароитни юзага келтиради. Йилнинг иссиқ мавсумида ҳавзада булутсиз, қуруқ об-ҳаво шаклланади. Шоҳимардон метеорологик станцияси маълумотлари бўйича июль ойининг ўртача кўп йиллик (1981-2020 йиллар) ҳаво ҳарорати $+21,7^{\circ}\text{C}$ га тенг. Баъзан йилнинг иссиқ мавсумида ҳудудга кириб келган совуқ ҳаво массалари тоғ тизмаларида тўсилиб, ҳароратнинг пасайишига ва жала ёмғирларга сабаб бўлади. Айрим ҳолларда бундай ёғинлар Кўксув дарёси ва унинг ирмоқлари, яъни мавсумий сув оқадиган Кўшилиш ҳамда Охункўл сойларида кучли сел тошқинларини келтириб чиқаради. Масалан, 1987 йил 17 июль куни тунда кучли жала ёмғир натижасида Кўксувнинг чап ирмоғи бўлган Охункўл сойи ҳавзасида шиддатли сел оқими шаклланган. Сел оқими шу даражада кучли бўлганки, у қум, шағаллардан иборат тоғ жинслари билан бирга $4 \times 5 \times 3 \text{ м}^3$ ўлчамдаги иккита улкан харсанг тошларни ҳам олиб келган.

Ўрганилаётган ҳавзада сентябрь-октябрь ойларидан бошлаб ҳаво ҳарорати кескин пасая бошлайди. Октябрнинг иккинчи ярмида “ноль” изотерма 3000 м баландликлардан ўтади, ноябрь ойидан бошлаб эса 2000-2400 м баландликларда қишки шароит шаклланади. Январь ойида ҳавзанинг барча қисмида ҳарорат 0°C дан пасайиб, ўртача кўп йиллик (1981-2008 йиллар) ҳаво ҳарорати $-2,4^{\circ}\text{C}$ га тенг бўлади. Шоҳимардон метеорологик станцияси маълумотлари бўйича ўртача йиллик ҳаво ҳарорати $+10,5^{\circ}\text{C}$ ни ташкил этади (1-расм).



1-расм. Шоҳимардон метеорологик станциясида 1981-2020 йиллар давомидаги ўртача ойлик ҳаво ҳарорати ва атмосфера ёғинлари йиғиндиси

Ҳавзада баландликнинг ортиб бориши билан ёғин миқдори ҳам кўпая боради. Айрим тадқиқотларда қайд этилишича, ҳавзанинг 1600 м баландликда 400 мм, 2000 метрда - 500 мм, 2500 метрда - 600 мм ва ниҳоят 3500 м баландликда 700 мм атрофида ёғин ёғади [2]. Умуман олганда Шоҳимардон қишлоғи ва унинг атрофларига йил давомида ўртача 400 мм атрофида ёғин тушади.

Шоҳимардон дарёси ҳавзасида музликлар катта майдонни эгаллайди ва ҳавзадаги дарёларнинг тўйинишида фаол иштирок этади. И.А.Ильиннинг (1959) дастлабки маълумотларига кўра, ҳавзада 20 та музликлар ҳисобга олинган ва уларнинг майдони 52,6 км² бўлиб, умумий сув тўплаш майдонининг 3,7 фоизини эгаллайди. Жумладан, Кўксув дарёси ҳавзасидаги музликларнинг сони 4 та, умумий майдони 11,2 км² ёки сув тўплаш майдонига нисбатан 6,6 фоизни ташкил этади. Шоҳимардон ҳавзасида музликларнинг қуйи чегараси 3000-4020 м баландликларга тўғри келиб, бошқа ҳавзаларга қараганда анча пастгача тушиб келади. Кўксув ҳавзасидаги музликларнинг қуйи чегараси 3300-3700 метр, ўртача 3420

метр. Қайд этиш лозимки, қўшни Исфайрамсой ҳавзасида бу кўрсаткич океан сатҳига нисбатан 3640 метрга тўғри келади [2].

Бу борада аниқ маълумотлар “Музликлар каталоги” да келтирилган [3]. Унда қайд этилишича, Кўксув дарёси ҳавзасидаги музликларнинг умумий сони 14 тани, уларнинг умумий майдони эса 5,5 км² ни ташкил этади (1-жадвал). Бироқ бу маълумотлар ўтган асрнинг 60-йилларига тегишли бўлиб, ҳозирги кунда уларнинг майдони сезиларли даражада кичрайган.

Шоҳимардон ҳавзасидаги музликлар майдонининг динамикаси масалалари А.С.Шетинников (1997, 1998), Р.С.Ботиров ва А.В.Яковлев (2004) ларнинг илмий тадқиқотларида ўрганилган. Уларнинг маълумотларига кўра ҳавзадаги музликлар майдони ўтган давр мобайнида, яъни XX асрнинг 60-йилларидан буён сезиларли даражада қисқариб бормоқда.

Жумладан, Шоҳимардон ҳавзасидаги музликларнинг “Музликлар каталоги” бўйича аниқланган майдони 1957 йилда 39,46 км² ни ташкил этган бўлса, 1980 йилдаги космофотосуратлар маълумотлари бўйича 30,14 км² га, 2001 йилда эса бу қиймат 28,19 км² га тенг бўлган. Кўришиб турибдики, охириги эллик йил давомида музликларда деградация жараёни 1957-1980 йиллар давомида йилига ўртача 1,03 фоизни, 1980-2001 йилларда эса 0,31 фоизни ташкил этган [1].

НАТИЖАЛАР

Шоҳимардон ҳавзасидаги музликлар майдонининг қисқариб бораётганлиги А.С.Шетинников тадқиқотларида алоҳида таъкидланган. Унинг маълумотларига кўра Шоҳимардон ҳавзасидаги музликларнинг майдони қарийб 50 йил давомида ўртача 23,6 фоизга қисқарган [9]. Шу ҳолатни ҳисобга олсак, Кўксув дарёсидаги музликлар майдони деградация жараёнида камая бориб, кўрсатилган давр охирида, яъни 2001 йилда 4,24 км² ни ташкил этган. Дарё ҳавзасида ҳаво ҳароратининг кескин кўтарилиши натижасида мавжуд музликлар жадал суратларда эриши мумкин. Бу ҳолат Кўксув дарёси сув сарфининг ортишига, натижада эса дарё ҳавзасида жойлашган тўғонли кўл, Қурбонқўлда сув сатҳининг кўтарилишига олиб келиб, тўғон барқарорлигига хавф солиши мумкин.

1-жадвал.

Кўксув дарёси ҳавзасидаги музликлар ҳақида маълумот (Коллектор
тизмасининг шимолий ёнбағирлари)


Т/р	Номланиши	Музликдан бошланадиган дарё	Морфологик тури	Умумий экспозиция	Узунлиги, км	Майдони, км ²	Қуйи нуқтасининг баландлиги, м
1	№515	Уларсой	Осилган кара	ШШқ	1,2	0,5	3900
2	№516	Шоит дарёси ирмоғи	Осилган кара	ШШқ	1,4	0,4	3800
3	№517	Шоит дарёси ирмоғи	Кара	Ш	0,6	0,3	3800
4	№518	Шоит дарёси ирмоғи	Кара	ШШқ	1,2	0,4	3750
5	№519	Шоит дарёси ирмоғи	Осилган кара	ШШқ	1,0	0,5	3620
6	№520	Шоит	Осилган кара	ШҒ	1,8	0,8	3670
7	№521	Шоит дарёси ирмоғи	Осилган кара	Ш	1,3	0,6	3640
8	№522	Шоит дарёси ирмоғи	Водий	ШҒ	2,0	1,0	3820
9	№523	Бурсун дарёси ирмоғи	Кара	Ш	0,6	0,1	3700
10	Бурсун	Бурсун	Кара	ШҒ	1,2	0,4	3660
11	№525	Бурсун дарёси ирмоғи	Кара	ШҒ	1,0	0,3	3700
12-14	3 та кичик музлик				> 0,3	0,2	

Изоҳ: 1) Ш - шимол, Шқ – шарқ, Ғ – ғарб; 2) музликларнинг умумий сони 14 та бўлиб, уларнинг умумий майдони 5,5 км² ни ташкил этади [3].

Қурбонқўлнинг тўйиниши Кўксув дарёси оқими, шунингдек, Кўксув дарёсининг мавсумий оқувчи чап ирмоқлари - Қўшилиш (Кўкқўл билан бирга) ва Охунқўл сойлари суви ҳисобига рўй беради. Қўлдан сувнинг оқиб чиқиши қўл тўғони танасидан сизиб ўтиш шаклида кузатилади. Қулама тўғондан сизиб ўтган сувлар қўлдан 900-1100 метр масофада 80-100 метр кенгликдаги участкадан булоқлар кўринишида оқиб чиқади. Уларнинг қўшилишидан Кўксув дарёси қайта шаклланади. Алоҳида қайд этиш лозимки, дала тадқиқотлари жараёнида сувнинг қулама тўғон устидан ошиб ўтганлигини кўрсатувчи белгиларни учратмадик.

ХУЛОСА

Кўксув дарёси Коллектор тизмасининг шимолий ёнбағирларидан, 4300-4900 метр баландликлардан бошланувчи Бурсун, Шохсой ва Гандикуш каби ирмоқларнинг қўшилишидан ҳосил бўлади. Гидрологик маълумотларда қайд этилишича, Кўксув дарёси ҳавзасининг сув тўплаш майдони 175 км², ўртача баландлиги эса 3010 м га тенг.



2-расм. Кўксув дарёси (қуйилиши) ўртача кўпйиллик оқимининг йил давомида ойлар бўйича тақсимланиши (1947-2020 йиллар)

Кўксув дарёсининг қуйилишида жойлашган гидрологик пост маълумотлари бўйича 1947-2007 йилларда кузатилган ўртача кўп йиллик оқимнинг йил давомида ойлар бўйича тақсимланишини ўрганиш натижасида қуйидаги фикрларни билдириш мумкин. Ушбу жараён акс этган 2.2-расмдан кўриниб турибдики, дарё оқими, тўлинсув даврини ҳисобга олмаганда, йил давомида деярли бир текис тақсимланган. Демак, дарё оқимининг йил давомида тақсимланишига кулама тўғоннинг оқимни бошқариш хусусияти катта таъсир кўрсатади.

REFERENCES

1. Батыров Р.С., Яковлев А.В. Мониторинг горных ледников некоторых районов Гиссаро-Алая с использованием космических снимков ASTER TERRA // Труды НИГМИ. – Ташкент, 2004. – Вып. 3(248). – С. 22-27.
2. Ильин И.А. Водные ресурсы Ферганской долины. – Л.: Гидрометеоздат, 1959. – 247 с.

3. Каталог ледников СССР. –Л.: Гидрометеиздат, 1974. –Т.14. – Вып.1. –Ч. 10. – 88 с.
4. Пушкаренко В.П., Никитин А.М. Опыт регионального исследования состояния плотин горных озер Средней Азии и характер формирования прорывных селей // В кн.: Оползни и сели. – Москва, 1984. – С. 6-17.
5. Шульц В.Л. Реки Средней Азии. – Л.: Гидрометеиздат, 1965. – Ч. 1,2. – 691 с.
6. Щетинников А.С. Морфология оледенения речных бассейнов Памиро-Алая по состоянию на 1980 год (справочник). – Ташкент: САНИГМИ, 1997. – 148 с.
7. Fazliddinovich, K. V., & Topvoldievich, P. R. (2018). Calculation of the outbreak discharges through a closure channel with trapezoid shape of cross-section. *European science review*, (7-8), 51-53.
8. Ahmadaliyev, Y. I., & Mamadalievich, X. A. (2021). Changes in the Natural Composition of the Land Fund and Its Protection (on the Example of Khojaabad District). *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(04), 165-168.
9. Равшан Топволдиевич Пирназаров, & Тоҳирбек Салим Ўғли Собиров (2022). ИҚЛИМ ЎЗГАРИШ ШАРОИТИДА СУВГА БЎЛГАН ТАЛАБЧАНЛИКНИНГ ОРТИШИ ВА УНИНГ ЕЧИМЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (5), 404-408.
10. Хикматов, Б. Ф., & Пирназаров, Р. Т. (2020). ОЦЕНКА ПОСТУПЛЕНИЯ ТВЕРДОГО МАТЕРИАЛА В ЧАШУ ОЗЕРА КУРБАНКУЛЬ И АНАЛИЗ ДОННЫХ ОТЛОЖЕНИЙ. In *ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ГИДРОМЕТЕОРОЛОГИИ, ВОДНОМ ХОЗЯЙСТВЕ И ГЕОЭКОЛОГИИ* (pp. 153-156).
11. Олимжон Исомиддинович Абдуғаниев, Турсун Дилмуродовна Комилова, & Муҳаммадюсуф Темурхон Ўғли Мухториддинов (2022). УРБАНИЗАЦИЯЛАШГАН ХУДУДЛАРНИНГ ЭКОЛОГИК ОЛАТИНИ БАҲОЛАШДА ГАТ-ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МЕТОДЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (5), 757-765.
12. Абдуғаниев, О. И. (2022). ЛАНДШАФТ ВА БИОЛОГИК ХИЛМА-ХИЛЛИКНИ ГАТ-ТАХЛИЛ АСОСИДА БАҲОЛАШ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(1), 53-58.
13. Абдувалиев, А. Ҳ., & Парпиева, Г. М. (2022). ФАРҶОНА ВОДИЙСИДА АҲОЛИНИНГ ЕР БИЛАН ТАЪМИНЛАНГАНЛИК ДАРАЖАСИ ВА УНИНГ АҲОЛИ ЗИЧЛИГИГА ТАЪСИРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(4), 1174-1183.



14. Холиков, Р., & Қўчкаров, О. (2021, August). BASIC PRINCIPLES OF URBAN EKOLOGICAL TERRITORIAL ORGANIZATION OF URBAN DEVELOPMENT: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1326>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).
15. Pirnazarov, R., Topvoldiyeva, M., & Kenjayeva, O. (2021, August). USE OF GRAPHIC ORGANIZERS IN THE LESSON PROCESS: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1387>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).
16. Muhitdinov, I. (2022). O'ZBEKISTONNING KO'LLARI VA SUV OMBORLARI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(2), 261-263.
17. Zarifjon o'g'li, M. Z., & Ihtiyorjon o'g'li, M. I. (2022). FARGONA VODIYSINING IQLIMI VA YOGINLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 2(1), 49-52.
18. Jahongirmirzo Jamoliddin, O. G. (2021). 'Li Mamatisakov, Ilhomjon Ihtiyorjon O'g'li Muhitdinov, Ablazbek Erkinjon Ogli Madraximov PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF AGRICULTURAL TOURISM IN FERGANA REGION. *Scientific progress*, 8.
19. Khikmatov Bekzod Fazliddinovich, & Pirnazarov Ravshan Topvoldievich (2018). Calculation of the outbreak discharges through a closure channel with trapezoid shape of cross-section. *European science review*, (7-8), 51-53.
20. Mahkamov, E. (2021, August). GEOGRAPHICAL DISTRIBUTION OF MEDICAL PLANTS OF THE FERGANA VALLEY, RECREATION POSSIBILITIES AND GEOECOLOGICAL ASPECTS OF THEIR PROTECTION: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1414>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).
21. Muhitdinov, I. I. (2021). Kichik tog'daryolari oqiminig shakllanishida meteorologik omllarning roli (Farg'ona vodiysining janubiy qismi misolida). *magistrlik dissertatsiyasi.-Farg'ona*, 87.

ФАРҒОНА ВОДИЙСИНИНГ МУҚАДДАС ЛАНДШАФТЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ЭКОЛОГИК ФУНКЦИЯСИ

М. Дехконбоева

Фарғона давлат университети

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада Фарғона водийсининг муқаддас ландшафтлари ва уларнинг экологик функцияси таҳлил қилинган бўлиб, муқаддас ҳудуд ва объектлар ҳам муҳофаза қилинадиган тарихий-маданий ҳудуд сифатида ташкил этилиши асослаб берилган.

Калит сўзлар. муқаддас ҳудуд, сакрал ландшафтлар, қадрият, урф-одат, тарихий-этнографик минтақа, барқарор ривожланиш, қўриқхона, экотизим, туризим.

КИРИШ

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг 2030 йилгача барқарор ривожланиш бўйича дастурида иқтисодий, ижтимоий ва экологик муаммоларни ҳамда тинчлик ва хавфсизлик масалалари билан боғлиқ чоратадбирлари алоҳида эмас, балки бир бири билан чамбарчас боғлиқ тарзда амалга ошириш талаб этилмоқда. Бу борада авлоддан-авлодга ўтиб келган ва тўпланиб, бойитиб борилган маданий мероснинг ажралмас қисми бўлган анъанавий билимлар, қадриятлар ва урф-одатлар жамиятнинг атроф-муҳит билан ўзаро алоқасини оптималлаштиришда муҳим аҳамиятга эгадир.

Фарғона водийси ўзига хос тарихий-этнографик минтақа ҳисобланиб, унинг ҳудуди шимолий - ғарбда Қурама ва Чотқол тоғ тизмалари, шимолий-шарқдан Фарғона, Жанубий Олой ва қисман Туркистон тоғ тизмалари билан ўралган. Водийнинг марказий қисмида эса, чўл минтақаси шаклланган. Шунинг учун, Фарғона водийсида турли ноёб ва жозибали табиат манзаралари, агроландшафтларидан ташқари диққатга сазовор бўлган диний, маданий ва тарихий марказлари мавжуд бўлиб, бу жойларга ташриф буюрувчилар сони йилдан-йилга ортиб бормоқда. Бундай жойлар Ўрта Осиёда, хусусан, Фарғона водийсида “муқаддас жойлар” ёки “муқаддас қадамжойлар” деб юритилади.

Муқаддас ландшафтларга маданий қадрияти муқаддас деб ҳисобланадиган ва қадрлаш мақсадининг мавжудлиги билан белгиланадиган барча ҳудудий комплекс ва объектлар киритилади. Маҳаллий аҳолининг минг йиллар давомида

табиатдан фойдаланиш анъаналари билан боғлиқ диний маросимлар ўтказиладиган жойларнинг барчаси муқаддас ва табаррук жой сифатида сакрал ландшафтларни шаклланишига асос бўлиб келган.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Фарғона водийсидаги муқаддас ҳудудлар ва объектларни тадқиқ этишнинг назарий-услубий асослари Г.Конклин, В.П.Наливкин, В.И.Козлов, Л.Н.Гумелев, А.Н.Ямсков, И.Ю.Гладкий, В.Н.Калуцков, М.В.Рагулина, И.Жабборов, И.Аширов, У.Абдуллаев, Р.Баллиева, Ю.Аҳмадалиев ва бошқа бир қатор олимлар томонидан яратилган. Рус сайёҳи В.П.Наливкиннинг (1886 й) маълумотларига кўра, Фарғона водийсида XVI асрдан бошлаб муқаддас қадамжойларнинг салмоғи ортиб борган. Муқаддас жойлар зиёратгоҳ вазифасини бажариш билан бирга табиатни муҳофаза қилиш ва ундан оқилона фойдаланишда муҳим аҳамият касб этган. Мазкур даврда табиатдаги ноёб яратмаларни муқаддаслаштириш орқали кишилар ўзига хос тарзда экологик мувозанатни сақлаб туришга эришганлар.

НАТИЖА ВА МУҲОКАМАЛАР

Диний мақсадларда фойдаланиладиган муқаддас ҳудуд ва объектлар ҳам муҳофаза қилинадиган тарихий-маданий ҳудуд сифатида ташкил этилади. Бундай ҳудуд ва объектларда табиатдаги хилма-хиллик яхши сақланган бўлиб, уларга табиат ёдгорлиги мақомини бериш ҳам мумкин [1, 9]. Айрим ҳолларда муқаддас ландшафт сакрал жойга ўхшаш (Sacred Site) ёки сакрал жойлар бундай ландшафтнинг семантик марказлари бўлиб хизмат қилиши мумкин. Маданий ландшафтдан фарқ қилган ҳолда сакрал жой ҳудудий комплекс бўлмаслиги ҳам мумкин ва у сакрал функцияга эга бўлган тош, дарахт, булоқ ва бошқа нуқтасимон объектларда намоён бўлади (1-жадвал).

Табиатдан фойдаланишнинг тарихий ва маҳаллий хусусиятларини ўрганишда “табиат-аҳоли-хўжалик” ўртасидаги алоқадорликни, унинг оқибатида юз берадиган жараёнларни тушуниш тизимли ёндашув орқали амалга оширилади. Ландшафтдан фойдаланишни бундай ёндашув асосида ўрганишда ҳудудий тизимларни бошқариш ва муҳофаза қилишда ҳисобга олиниши керак бўлган тарихий-географик омиллар аниқ намоён бўлади. Масалан, бундай ҳудудларда ўрмонларнинг кесиб юборилиши ва ерларни ўзлаштириб суғорилиши минтақада сув ҳавзаларининг ифлосланишига, ўз навбатида эса ичимлик суви

танқислигига, сел, сурилма каби жараёнларни вужудга келишига олиб келган.

1-жадвал

**Фарғона водийси дарёларининг сув йиғадиган ҳавзаларида жойлашган
қадамжой ва зиёратгоҳлар**

№	Дарёлар	Зиёратгоҳ ва қадамжойлар номи
1.	Сўх	Чашма, Хушёр, Қалача, Йигитпирим
2.	Шоҳимардонсой	Кўли Куббон, Бешпанжа, Чаккатомар, Хазрат Али, Ёрдон, Жаннатариқ, Қизилбулок, Оксувазиз, Толмазор, Чурчулмозор, Олтинбешик, Хурқизлар, Арчамозор, Дугоба, Белсилкама, Қўтирбулок, Қорадувон, Чинортаги, Мозортаги
3	Исфайрам	Чавай, Учкўрғон
4	Обширсой	Обширота
5	Аравонсой	Чилустун, Чилмахрам
6	Оқбура	Ўшпирим
7	Қуршоб	Арслонбоп
8	Чортоқсой	Садда мозор, Ҳазратишо, Алком ача
9	Намангансой	Почча ота, Сафед Булон, Бобо Яхсиз, Султон
10	Косонсой	Чашмаи Сафед
11	Чодак	Она кўзёши

Шунинг учун, маҳаллий аҳоли томонидан тоғ ва адир минтақаларида муқаддас зиёратгоҳлар ташкил этилган. Бундай ҳудудлар ободонлаштирилган ва диний туризм мақсадларида кенг фойланилган. Натижада мазкур минтақадаги турли салбий жараёнларнинг (сел, сурилма, туроқ эрозияси) олди олинган. Бундай ҳудудларга Фарғона водийсидаги Шоҳимардон, Ёрдон, Чўнқора, Хўжа Билолота, Абширота каби муқаддас қадамжойларни келтириш мумкин [2, 3].

Тоғли ҳудудлар табиатини сақлашда аҳоли диний-ҳуқуқий усуллардан кенг фойдаланган. Масалан, Сомонийлар даврида (IX-X аср) Фарғона водийси дарёларининг бошланиш жойларида муқаддас зиёратгоҳлар ва кўриқлар ташкил этилган бўлиб, улардан фойдаланиш чеклаб қўйилган. Бундай ўзига хос «кўриқхона»ларда дарахт кесиш, ҳайвонот дунёсига зарар етказиш, айрим жойларда ерларни ҳайдаш таъқиқланган. Аҳолининг анчагина қисми дарёнинг қуйи қисмидаги деҳқончилик билан шуғулланувчилар томонидан олиб келинган хайр-эҳсон, назр-ниёз ҳисобига яшаган ва табиатга ортиқча аралашшига эҳтиёж сезмаган [5, 6]. Фарғона водийнинг атрофидаги дарё ҳавзаларида 40 дан ортиқ «муқаддас зиёратгоҳ»лар борлигини кўриш мумкин.

Тоғ ва адир минтақасида ўзбек, тожик, қирғиз миллатига мансуб аҳоли чорвачилик, лалмикор деҳқончилик, тоғ ўрмонларида боғбонлик, муқаддас зиёратгоҳларда посбонлик қилишдан ташқари яна бир вазифани бажарганлар. Дарёларнинг тоғ ва адирликларидан текисликка чиқиш жойидаги қишлоқлар аҳолиси дарё сувини тартибга солиш ва сел хавфидан дарёнинг куйи қисмидаги аҳолини хабардор қилиб туриш вазифасини ҳам бажарган. Бундай қишлоқлар топонимикаси ўрганилганда, уларга кўпроқ қалъа, қалъача, Ҳушёр каби номлар берилганлигини таъкидлаш мумкин.

Ер фондидан фойдаланишни ташкил этишда тоғ билан текислик ўртасидаги ўзаро алоқадорлик, модда ва энергия алмашинуви жараёни яъни «тоғ-текислик» геожуфтлиги тўла ҳисобга олинган. Тоғли ҳудудларнинг сув ва намликни сақлаб, дарё режимини тартибга солишдаги экологик функциясига алоҳида эътибор қаратилган. Мазкур ҳудудларда табиатни муҳофаза қилиш ва рекреация мақсадлари учун (муқаддас зиёратгоҳлар, қадамжолар кўринишида) ажратилган. Табиатни асрашда диний-ҳуқуқий одатлар ва расм-русумлардан кенг фойдаланилган. Конус ёйилмаларининг юқори қисмида сув тақсимлаш иншоатлари қурилган бўлиб, у ерлар сув хўжалигини юритиш, ариқларга сувни навбатлаб бериш вазифасини бажарувчи қурилмаларни ўрнатиш учун ажратилган. Ер фондининг бундай тақсимлаш ҳудуд табиий имкониятларидан тўла фойдаланишни таъминлаш орқали ишлаб чиқариш харажатлари ортиб кетишининг олдини олган, ердан иқтисодий жиҳатдан унумли фойдаланишни таъминлаган.

Бундай ёндашув аҳолининг бандлик масаласини ҳам жой хусусиятларидан келиб чиқиб оқилона ҳал қилинишига таъсир кўрсатган. Тоғ минтақасида аҳоли боғдорчилиги, чорвачилик, «муқаддас зиёратгоҳлар»да посбонлик билан машғул бўлган бўлса, адир минтақасида боғбонлик, мироблик билан, чўл минтақасида эса, деҳқончилик, пиллачилик, хунармандчилик ва савдогарлик билан шуғулланган касб эгалари кўпчиликини ташкил этган. Аҳолини иш билан таъминлашда бозорларнинг роли ва ўрни алоҳида бўлган.

Фарғона водийси атрофидаги тоғлардан бошланадиган дарёларнинг юқори қисмидаги қишлоқлар «муқаддас зиёратгоҳлар» вазифасини бажаради. Мазкур қишлоқларнинг топонимида ислом динига тааллуқли бўлган азиз авлиёлар, пайғамбарлар номлари кўпчиликини ташкил этади. Қишлоқ хўжалигига ихтисослашмаган иккинчи қишлоқлар гуруҳи таркибида бозор ва қарвон сўзлари кўп қатнашган бўлиб, аҳоли асосан савдогарлик билан машғул бўлган. Диний зиёратгоҳларнинг пайдо бўлишида Ўрта Осиё ҳудудидаги қадимги динлар

таъсири ҳам алоҳида ўрин тутади. Айрим манбаларда кўрсатилишича, Анахитага атаб зардуштийлик даврида, ҳатто, одамлар ҳам қурбон қилинган. “Авесто” китобида Анахита доимо гўзал, бақувват, хушқомат, камарини баланд боғлаган, олтин зийнатли кўп бурмали мурсак кийган бир қиз сифатида таърифланган.

Ўрта Осиёда Анахита култи билан бирга сув ва намгарчилик пири сифатида “Эр хубби” ёки “Хубби” култи ҳам мавжуд бўлган. Бу култ ҳақида кўплаб муаллифлар томонидан маълумотлар ёзиб қолдирилган. Ушбу култ ҳақида академик Я.Ғуломов қуйидагиларни ёзади: “Табиийки, ислом дини ёйилгандан сўнг ҳам халқ исломгача бўлган сув худоси Хубби ҳақидаги афсонани сақлаб қолди, натижада у мусулмон агиографик адабиётига кириб келди”. Эр хубби култига сиғиниш водийнинг Сўх туманида кўпроқ сақланиб қолган эди [8].

Сўх деҳқонлари эрта баҳорда ариқларга сув очишдан олдин дарё бўйида турли жонлиқлар сўйиб Эр хубби култига атаб қурбонлиқ қилишган. Бу ерда Эр хуббини “йигит хубби” деб аташган. Шу ўринда қайд этиш ўринлики, Сўх дарёсининг бошланиш қисмида “Йигит Али Пирим” зиёратгоҳи ҳам мавжуд бўлиб, бу ерда маҳаллий аҳоли қурбонлиқлар қилиб туришган, ушбу зиёратгоҳ Хазрат Али номи билан боғлиқ. Қолаверса, водий деҳқонлари қурғоқчилик йиллари ёмғир чақириш билан боғлиқ турли маросимлар ўтказганлар.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтганда, муқаддас зиёратгоҳлар кишиларнинг ижтимоий ва маданий турмушида тутган ўрндан ташқари, жойларнинг топографиясини ва ҳудуднинг диний-ментал ҳаритасини яратадиган омилларни келтириб чиқарувчи мураккаб кўринишни ўзида акс эттиради. Қадимдан мазорлар муқаддас жойлар сифатида эъзозлаб келинган ва одатда, уларнинг кўп қисми ҳудуднинг иқтисодий ривожланган марказларида жойлашган. Шу сабадан улар суғориш иншоотлари ва сув ҳавзалари ҳамда савдо йўлларини кесиб ўтувчи чорраҳалар, тоғ доволари сингари жойлар билан боғлиқ бўлган.

Муқаддас зиёратгоҳларнинг атроф-муҳитни асраб авайлашдаги функцияси ва уларнинг ҳудудий жиҳатларини ўрганиш мазкур тадқиқот ишида асосий масалалардан бири сифатида кўрилади. Бунда ислом динидаги табиат неъматларга бўладиган муносабат, азиз ва мақаддас жойлар, зиёратгоҳлар ва уларнинг диний-экологик функцияси ҳақида тўпланган маълумотлар, уларнинг тарихий-географик моҳияти, хариталар, топонимик манбалардан олинган

маълумотларнинг этноэкологик жиҳатларига эътибор қаратилади.

Фарғона водийси аҳолисининг муқаддас зиёратгоҳлар билан боғлиқ тушунчаларида булоқлар, дарахт ва буталар, тоғ ва тошларни муқаддаслаштириш сингари анимизм, тотемизм, шомонийлик, зардўштийлик билан боғлиқ табиатни илоҳийлаштириш каби қадимги аجدодлар қарашлари сақланиб қолган. Муқаддас зиёратгоҳлар турли тарихий-этнографик минтақалар тарихини ўрганишда, шунингдек, аجدодларимизнинг табиатдан фойдаланиш маданиятини ўрганишда муҳим тадқиқот объекти бўлиб хизмат қилади.

REFERENCES

1. Ahmadaliyev, Y. I., & Mamadalievich, X. A. (2021). Geocological and Farm Stress Level (on the Example of Khojaabad District). *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(04), 169-174.
2. Ahmadaliyev, Y. I., & Mamadalievich, X. A. (2021). Changes in the Natural Composition of the Land Fund and Its Protection (on the Example of Khojaabad District). *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(04), 165-168.
3. Ismoilovich, A. Y., & Erkinovich, M. A. (2022). THE USE OF HYDRONICS IN THE STUDY OF CHANGES OCCURRING IN THE PROCESS OF WATER USE. *PEDAGOGS jurnali*, 10(1), 148-154.
4. Isomiddinovich, A. O. (2018). Comparative analysis of the protected natural territories of the Republic of Uzbekistan and the international Union of nature protection. *European science review*, (9-10-1), 67-70.
5. Isomiddinovich, A. O., & Yigitaliyevich, X. R. (2021). Territorial Structure and Stability of Ecological Framework. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 29(2), 462-467.
6. Олимжон Исомиддинович Абдуғаниев, Турсуной Дилмуродовна Комилова, & Муҳаммадюсуф Темурхон Ўғли Мухториддинов (2022). УРБАНИЗАЦИЯЛАШГАН ХУДУДЛАРНИНГ ЭКОЛОГИК ОЛАТИНИ БАҲОЛАШДА ГАТ-ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МЕТОДЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (5), 757-765.
7. Абдуғаниев, О. И. (2022). ЛАНДШАФТ ВА БИОЛОГИК ХИЛМА-ХИЛЛИКНИ ГАТ-ТАХЛИЛ АСОСИДА БАҲОЛАШ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(1), 53-58.
8. Tojidinova, B., & Haydarov, A. (2022). GEOGRAFIYA DARSLARIDA SAYOHATLAR TASHKIL QILISHNING



- BOLA PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(19), 649-653.
9. Абдувалиев, А. Х., & Парпиева, Г. М. (2022). ФАРФОНА ВОДИЙСИДА АҲОЛИНИНГ ЕР БИЛАН ТАЪМИНЛАНГАНЛИК ДАРАЖАСИ ВА УНИНГ АҲОЛИ ЗИЧЛИГИГА ТАЪСИРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(4), 1174-1183.
10. Abduvaliyev, N. A. A., Hamdamova, F. A. Q., & Eraliyev, Z. Z. Q. (2021). LANDSHAFT OMILI ASOSIDA AHOLI HUDUDIY TAKRIBINI TAKOMILLASHTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 1219-1223.
11. Холиков, Р., & Қўчқаров, О. (2021, August). BASIC PRINCIPLES OF URBAN ECOLOGICAL TERRITORIAL ORGANIZATION OF URBAN DEVELOPMENT: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1326>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).
12. Xolikov, R., & Qo'chqarov, O. (2021, July). BASIC PRINCIPLES OF URBAN ECOLOGICAL TERRITORIAL ORGANIZATION OF URBAN DEVELOPMENT. In *Конференции*.
13. Muhitdinov, I. (2022). O'ZBEKISTONNING KO'LLARI VA SUV OMBORLARI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(2), 261-263.
14. Zarifjon o'g'li, M. Z., & Ihtiyorjon o'g'li, M. I. (2022). FARGONA VODIYSINING IQLIMI VA YOGINLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 2(1), 49-52.
15. Mamatisakov, J. J. O. G. L., & Muhitdinov, I. I. O. G. L. (2021). PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF ECOTOURISM IN THE PROTECTED NATURAL AREAS OF FERGANA REGION. *Scientific progress*, 2(3), 986-989.
16. Topvoldievich, P. R., & Ugli, M. I. I. Hydrological Description of Some Small Mountain Rivers in the Fergana Valley. *JournalNX*, 6(12), 264-267.
17. Jahongirmirzo Jamoliddin, O. G. (2021). 'Li Mamatisakov, Ilhomjon Ihtiyorjon O'g'li Muhitdinov, Ablazbek Erkinjon Ogli Madraximov PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF AGRICULTURAL TOURISM IN FERGANA REGION. *Scientific progress*, 8.
18. Khikmatov Bekzod Fazliddinovich, & Pirnazarov Ravshan Topvoldievich (2018). Calculation of the outbreak discharges through a closure channel with trapezoid shape of cross-section. *European science review*, (7-8), 51-53.
19. Равшан Топволдиевич Пирназаров, & Тоҳирбек Салим Ўғли Собиров (2022). ИҚЛИМ ЎЗГАРИШ ШАРОИТИДА СУВГА БЎЛГАН ТАЛАБЧАНЛИКНИНГ ОРТИШИ ВА УНИНГ ЕЧИМЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (5), 404-408.

20. Mahkamov, E. (2021, August). GEOGRAPHICAL DISTRIBUTION OF MEDICAL PLANTS OF THE FERGANA VALLEY, RECREATION POSSIBILITIES AND GEOECOLOGICAL ASPECTS OF THEIR PROTECTION: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1414>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).
21. Elyorjon G'Ayratovich Mahkamov, & Dilafruz Baxromjon Qizi Karimqulova (2021). EKOTURISTIK MARSHRUTLAR VA ULARNI ISHLAB CHIQISH USULLARI. *Academic research in educational sciences*, 2 (12), 1137-1140.
22. Dekhkanbaeva, M. N. (2022). Prospects Of Tourism Development In Uzbekistan. *The American Journal of Applied sciences*, 3(02), 95-99.
23. Хамидов, А. А., & Дехканбаева, М. Н. (2022). ИССЛЕДОВАНИЕ БИОГЕОГРАФИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ. *Academic research in educational sciences*, 3(5), 881-886.
24. Хамидов, А. А., & Дехканбаева, М. Н. (2022). ИССЛЕДОВАНИЕ БИОГЕОГРАФИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ. *Academic research in educational sciences*, 3(5), 881-886.
25. Dehkanbayeva, M. N. (2019). TERRITORIAL LOCATION AND FUNCTION OF SACRED LANDSCAPES (FERGANA REGION). *Экономика и социум*, (11), 919-921.
26. Muhitdinov, I. I. (2021). Kichik tog'daryolari oqiminig shakllanishida meteorologik omllarning roli (Farg'ona vodiysining janubiy qismi misolida). *magistrlik dissertatsiyasi.-Farg'ona*, 87.

ТЎҒОНЛИ КЎЛЛАРНИНГ ТЎҒОНИНИ БУЗИБ ЎТИШ МЕЗОНЛАРИ ВА ХУСУСИЙ БЕЛГИЛАРИГА КЎРА ТАСНИФЛАШ

Равшан Топволдиевич Пирназаров

Фарғона давлат университетининг география кафедраси доценти

pirnazarov.73@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада Ўрта Осиёда жойлашган тўғонли кўллар, уларнинг гидрологик режимининг ўзгариши билан боғлиқ муаммолар, уларда рўй бериши мумкин бўлган тошқин хавфини баҳолаш услублари ҳамда кўлларнинг хавфлилик тоифасини ўзгариш хусусиятига кўра гуруҳлаштириш масалалари ёритиб берилган.

Калит сўзлар: тоғ кўллари, тўғонли кўллар, кулама кўллар, кулама-тектоник кўллар, музлик кўллари, гляциоген кўллар, морена-музлик кўллари, тўғонли бузиб ўтиш хавфи бўлган кўллар, сел тошқинлари, кўлларнинг хавфлилик даражаси, кўлларнинг тўғонли бузиб ўтиш мезонлари, кўлларнинг хавфлилик тоифалари.

ABSTRACT

This article describes dammed lakes located in Central Asia, problems related to the change of their hydrological regime, flood risk assessment methods that may occur in them, and issues of grouping the danger category of lakes according to the nature of the change.

Key words: mountain lakes, dammed lakes, collapsing lakes, collapsing-tectonic lakes, glacial lakes, glaciogenic lakes, moraine-glacial lakes, lakes at risk of dam breaching, floods, level of danger of lakes, criteria for breaching the dam of lakes, categories of danger of lakes.

КИРИШ

Ўрта Осиёнинг тоғли ҳудудларида 660 дан ортиқ тоғ кўллари мавжуд. Хусусан, уларнинг 368 таси Қирғизистон [2] ва 300 таси Тожикистон тоғларида жойлашган [4]. Тўғонли кўллар ўзларида катта ҳажмдаги сувни тўплаб туриши билан бирга, баъзан, ҳалокатли сел тошқинларини келтириб чиқариши билан ҳам характерланади. Гарчи улар кўшни давлатлар ҳудудида жойлашган бўлсада, уларда рўй берадиган сел тошқинлари мамлакатимизга ҳам катта зарар етказиши аниқ.



Иқлим ўзгариши шароитида тоғли ҳудудларда ҳаво ҳароратининг кескин исиб кетиши қор ва музликларнинг интенсив эришига, бу эса тўғонли кўлларга қуйилаётган сув ҳажмининг ортиб кетишига сабаб бўлади. Натижада кўлларнинг сув сатҳи хавфли қийматларгача кўтарилади, баъзан ундан ҳам ортиб, уларда тошқин ҳавфи келиб чиқади. Бу жараён айниқса гляциоген келиб чиқишли кўлларда жуда хавфли кечади. Чунки гляциоген кўллар бошқа кўлларга қараганда анчагина баландда жойлашади. Улар тарқалган баландлик зоналарида атмосфера босимининг пастлиги сабабли ҳаво ҳароратидаги кичик ўзгаришлар ҳам қор ва музликларнинг эриш жараёнини тезлаштириб юборади. Қолаверса, бундай кўллар тўғонларининг музлик ва мореналардан тузилганлиги, ҳавфни янада орттиради. Юқорида қайд этилган ҳолатларнинг барчаси тўғонли кўллар хавфлилик даражасини баҳолашнинг долзарб муаммо эканлигидан дарак беради.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Тўғонли кўллар хавфли гидрологик объектлар сифатида алоҳида илмий ёндашув ва эътиборни талаб этади. Шу мақсадда тўғонли кўллар жойлашган ҳудудларнинг табиий шароитини ва, энг муҳими, гидрометеорологик режимини мажмуали ўрганиш асосида уларнинг ҳолатини баҳолаш, мониторингини ташкил этиш жуда муҳимдир. Бу эса, пировард натижада, тўғонли кўллар хавфини камайтириш, турли сабаблар таъсирида тўғонининг бузилиши оқибатида келиб чиқиши мумкин бўлган сел тошқинларининг олдини олиш ёки, ҳеч бўлмаганда, уларнинг зарарини камайтиришга йўналтирилган чоратadbирларни белгилашда муҳим илмий ва амалий аҳамият касб этади.

Тўғонли кўлларда сув тошқинининг рўй бериш ёки бермаслигини олдиндан аниқ айтиш жуда мушкул. Масалан, Исфайрамсой дарёси ҳавзасидаги Яшинкўлда рўй бериши мумкин бўлган ҳалокатли сув тошқини ҳақидаги дастлабки тахминлар Н.Л.Корженевский томонидан XIX асрнинг бошларида айтилган эди, ҳодиса эса 1966 йилда рўй берди [5]. Бу билан тўғонли кўллар тўғонининг бузилишини олдиндан прогноз қилиш самарасиз, деган фикрни айтишдан йироқмиз.

Тўғонли кўллар, уларнинг генезиси масалалари дастлаб Н.Л.Корженевский (1936), Л.А.Молчанов (1929), М.А.Первухин (1937), кейинчалик Б.Б.Богословский (1960), В.Н.Рейзвих (1971), А.М.Никитин (1987) ва бошқаларнинг тадқиқотларида ёритилган. Шу турдаги кўлларнинг, жумладан, Сарез кўлининг гидрологик режимини ўрганишга эса Г.Е.Глазирин, А.М.Никитин ва

А.С.Шетинниковларнинг ҳамкорликдаги тадқиқотлари (1986), О.Е.Агаханянц (1989), В.И.Аслов ва Н.Е.Горелкинларнинг (2002) рисолалари бағишланган. Бевосита тоғ кўллари тўғонининг хавфсизлиги масалалари, уларни гидрологик ва геоморфологик нуқтаи-назардан дала шароитида тадқиқ этиш натижалари Г.Е.Глазирин ва бошқалар (2005) ҳамда Ю.Хергет ва Г.Е.Глазиринларнинг (2005) мақолаларида ўз аксини топган.

МУҲОКАМА

Тадқиқотнинг мақсади Ўзбекистон ва унга туташ тоғли ҳудудларда жойлашган, тўғонини бузиб ўтиш хавфи мавжуд бўлган гляциоген кўлларнинг тўғонини бузиб ўтиш мезонларини аниқлаш ва уларнинг хавфлилик даражасини баҳолашдан иборат.

Юқорида қайд этилган мақсадни амалга ошириш учун қуйидаги вазифалар белгиланди ва яқунда ўз ечимини топди:

- Ўзбекистон ва унга туташ тоғли ҳудудлардаги гляциоген кўлларнинг тўғонини бузиб ўтиш мезонларини аниқлаштириш;

- кўлларнинг хусусий белгиларига кўра хавфлилик даражасини баҳолаш.

Илмий манбааларда тўғонли кўлларда рўй берган ҳалокатли сув тошқинлари тўғрисида жуда кўплаб маълумотлар сақланиб қолган. Шундай ҳолатдан энг ҳарактерлиси Писком дарёси ҳавзасида жойлашган Шавуркўл ва Ихноч кўлларида кузатилган. Ихноч кўлининг сув ҳажми 4,80, Шавуркўлники эса 3,90 млн. м³ га тенг. Адабиётларда кўпсувли йиллари (1967 йил) бу ҳар икки кўлнинг сув сатҳи мос равишда 11 ва 10 млн.м³ гача кўтарилганлиги қайд этилган. Бундай ҳолат Ғовасой дарёси ҳавзасидаги Кугала (сув ҳажми 37,3 млн.м³) тоғ-водий қулама кўлида ҳам кузатилган. Бу даврда кўлнинг сув сатҳи 41 млн.м³ гача кўтарилган [1]. Яна бир шунга ўхшаш ҳолат 2012 йил 31 июль куни Адиген дарёси (Ола арча дарёсининг чап ирмоғи) ҳавзасидаги Тез-тор кўлида рўй берди. Ҳаво ҳароратининг кескин исиб кетиши натижасида кўлнинг сув ҳажми кескин ортиб, тўғон устидан ошиб ўта бошлаган. Бу билан дарёнинг сув сарфи 15-20 м³/с дан 30-35 м³/с гача кўпайган. Орадан бир ярим соат вақт ўтгач, кўлдаги сув сатҳи яна асл ҳолига қайтган [7]. Ҳартугул жараён узоқ давом этмаган. Шундай бўлсада, дарё ҳавзасида жойлашган 7 та қишлоқнинг аҳолиси зудлик билан тоғларга эвакуация қилинган. Илмий манбааларда қайд қилинишича, Қирғизистон Республикасида 1952 йилдан буён кўл тўғонларининг бузилиши билан боғлиқ 70 та [6], Тожикистоннинг биргина Тоғли Бадахшон автоном

областида 1991-2008 йиллар оралиғида 3 та ҳолат кузатилган [4].

НАТИЖАЛАР

Илмий манбааларда келтирилишча, тўғонли кўлларнинг тўғонини бузиб ўтиш хавфини 3 та тоифа бўйича баҳолаш мумкин [3, 32-б]:

1-тоифа – юзага келиши муқаррар ҳалокатнинг олдини олиш учун ҳимоя ва профилактик муҳандислик тадбирлар ўтказилишини талаб этадиган, тўғонини бузиб ўтиш босқичидаги кўллар;

2-тоифа – айна вақтда бевосита таҳдид мавжуд бўлмаган, лекин кузатув режимини ўрнатиш талаб этиладиган, тўғонини бузиб ўтиш босқичига яқинлашаётган кўллар;

3-тоифа – ҳозирда хавфсиз, лекин ҳар йили аэровизуал кузатувни талаб этадиган, келажакда тўғонини бузиб ўтиш хавфи мавжуд бўлган кўллар.

Қирғизистоннинг шимолий қисмида жойлашган тоғ кўлларининг кузатиш натижасида 2006-2015 йиллар оралиғида ҳавфлилик жиҳатдан ҳеч бўлмаганда бир маротаба 1 ёки 2-тоифага киритилган тўғонли кўллар каталоги тузилди. Каталогга киритилган 111 та кўл устидан ўрнатилган мониторинг натижалари таҳлил қилинганда, сўнги ўн йил давомида турли сабабларга кўра кўл тўғонининг бузилиши натижасида 18 та кўл косаси тўлиқ ва 14 та кўл косаси қисман сувдан бўшаганлиги аниқланди (1-жадвал) [2].

1-жадвал

Тўғонининг бузилиши натижасида тўлиқ ёки қисман сувдан бўшаган тўғонли кўлларнинг ҳавзалар бўйича тақсимланиши
(С.А.Ерохин ва В.В.Загинаевлар бўйича)

Ҳавза	Тўғонининг бузилиши натижасида тўлиқ сувдан бўшаган кўллар сони	Тўғонининг бузилиши натижасида қисман сувдан бўшаган кўллар сони
Чуй	8	7
Иссиқкўл	7	5
Талас	2	
Норин	1	2
Жами	18	14

Мониторинг натижалари асосида кўлларнинг хавфлилик тоифаларининг ўзгариш хусусиятига кўра 8 та гуруҳга бирлаштирилди (2-жадвал) [2].

2-жадвал

Тўғонли кўлларнинг тўғонини бузиб ўтиш мезонлари ва хусусий белгиларига кўра гуруҳлари
(С.А.Ерохин ва В.В.Загинаевлар бўйича)

№	Кўл гуруҳларининг асосий белгилари	Кўл гуруҳининг хусусиятлари	Хавфлилик даражасини белгиловчи мезонлар	Кўллар сони
1.	Деярли ҳар йили сувдан бўшайдиган кўллар	Интрогляциал оқим каналларига эга бўлган музлик кўллари	-кўлнинг сувга тўлиши.	2
2.	Қисман сувдан бўшагандан кейин ҳам тўғонини бузиб ўтиш хавфини юқори даражада сақлаб қолувчи кўллар	Кўл косаси доимо сувга тўлиб турадиган морена-музлик кўллари	-ер ости оқим каналларининг шаклланиши. -кўлнинг сувга тўлиши. -тўғон деворининг чўкиши	4
3.	Қисман ёки тўлиқ сувдан бўшагандан кейин ҳам тўғонининг бузилиш хавфини 3-тоифасини сақлаб қолувчи кўллар	Интроморена депрессияли морена-музлик кўллари. 2-3 ой ичида сувга тўлиши ва муқаррар тошқин эҳтимоли бўлган кўллар.	-кўлнинг сувга тўлиши. -ер ости оқим каналларининг шаклланиши.	13
4.	Қисман ёки тўлиқ сувдан бўшагандан сўнг тинч, стабил ривожланадиган, янги тошқин эҳтимоли кам бўлган 4-тоифадаги кўллар.	Интроморена депрессия ва термокарст воронкаларидаги морена-музлик кўллари, шунингдек тош-глетчерли-қулама кўллар. Уларнинг тўғонини бузилиш хавфи фақат табиий шароитдаги сезиларли ўзгаришларга боғлиқ ҳолда тикланиши мумкин.	-экстримал ходисалар. -кўлнинг сувга тўлиши.	11

5.	Тўғонини бузиб ўтмаган, сўнги 3-5 ва ундан кўпроқ йиллар давомида мустақкам тўғонининг бузиб ўтмасдан ривожланиш белгиларини сақлаб қолган, 4-тоифадаги кўллар	Интрморена депрессиядаги морена-музлик кўллари. Доимо, хатто қишда ҳам кўл косасида маълум ҳажмдаги сувни сақлайди.	-экстримал ҳодисалар. -кўлнинг сувга тўлиши.	8
6.	Тўғонини бузиб ўтмаган, сўнги 3-5 ва ундан кўпроқ йиллар давомида тўғонини бузиб ўтиш хавфининг ривожланиш белгиларини сақлаб қолган кўллар. Тўғонини бузиб ўтиш хавфи 3-тоифадаги кўллар.	Барқарор ер ости оқимига эга бўлган интрморена депрессиядаги морена-музлик кўллари	-ер ости оқим каналларининг шаклланиши. -кўлнинг сувга тўлиши.	48
7.	Тўғонини бузиб ўтмаган, сўнги 5-10 йил давомида 1 ва 2-тоифадаги тўғонини бузиб ўтиш хавфи белгиларини юқори даражада сақлаб қолган кўллар.	Интрморена депрессиядаги тикинли ер ости оқимига эга бўлган морена-музлик кўллари. Музликнинг чекинишидан кўл косаси кенгайди.	-ер ости оқим каналларининг шаклланиши. -кўлнинг сувга тўлиши. -тўғон деворининг чўкиши.	18
8.	Тўғонини ювиб ўтмаган, аммо сўнги 1-3 йилда тўғонини бузиб ўтиш белгилари юқори даражага етган кўллар.	Беқарор ер ости оқимига ҳамда ҳажми катта тебранишларга эга бўлган интрморена депрессиядаги морена-музлик кўллари.	-кўлнинг сувга тўлиши -ер ости оқим каналларининг шаклланиши.	8

ХУЛОСА

Хулоса ўрнида айтишимиз мумкинки, тўғонини бузиб ўтишга мойил бўлган гляциоген кўллар турли сценарийлар



бўйича ривожланади. Бу билан уларнинг хавфлилик даражаси ҳам турли кўринишда ўзгариб боради. Бунинг асосий сабаби юқорида таъкидланганидек, гляциоген кўллар кенг тарқалган баландлик зоналарининг табиий шароитидир. Шунга боғлиқ ҳолда бундай кўллар қисқа вақт ичида бутунлай кўл сифатида йўқ бўлиб кетиши, ёки қисқа вақт ичида пайдо бўлиб, кўл косасининг сувга максимал тўлиши натижасида тўғонини ювиб ўтиш хавфи юқори бўлган кўллар гуруҳидан жой олиши мумкин.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, мазкур гуруҳлаштириш асосан гляциоген кўлларда амалга оширилган. Ваҳоланки, бундай кўлларнинг сони кўп бўлсада, кичик миқдордаги сув ҳажмига эга бўлган майда кўллардан иборат. Бироқ, гляциоген кўллар жойлашган дарё ҳавзасида бошқа кўлларнинг ҳам мавжудлигини эътиборга олсак, кутилаётган хавфнинг нақадар аянчли бўлишини тасаввур қилиш қийин эмас. Қиёслаш тариқасида бугунги кунда хавфлилиги жиҳатдан тўғонли кўллар қаторида энг олдинги ўринни банд этган Сарез кўли ҳамда яқингинада тўғонининг ўпирилиши натижасида тошқин келиб чиққан Сардоба сув омборини кўз олдимизга келтирайлик. Сардоба сув омборининг сув сифими $0,93 \text{ км}^3$, Сарез кўлида эса ундан 17 маротаба кўп, яъни $16,1 \text{ км}^3$ ҳажмда сув тўпланган. Текисликда жойлашган Сардоба сув омборидан шаклланган сув тошқини Ўзбекистон ва Қозоғистон Республикаларининг бир нечта туманларини сув босишига, юз минглаб аҳолини ҳудуддан эвакуация қилинишига сабаб бўлди. Мабодо денгиз сатҳидан 3263 метр баландда жойлашган Сарез кўлида тошқин рўй берса, унинг оқибатини тасаввур қилиш қийин эмас. Шундай экан, тўғонли кўлларнинг хавфлилик даражасини баҳолашда гляциоген кўллар билан бир қаторда тўғонли кўлларнинг бошқа вакиллари устидан ҳам мониторинг ишларини ташкил этиш ва улар хавфини баҳолаш ишларини амалга ошириш мақсадга мувофиқ. Бу эса ўз навбатида тўғонли кўлларнинг барқарорлигини таъминлаш, уларнинг хавфини камайтириш мақсадида илмий асосланган чора-тадбирларни ишлаб чиқишга, турли сабаблар таъсирида тўғоннинг бузилиши натижасида ҳосил бўладиган сел тошқинларининг олдини олишга имкон беради.

REFERENCES

1. Глазырин Г.Е. и др. Результаты исследования прорывоопасных ледниковых озер в бассейне р. Пскем летом 2003 г. - Сб. науч. трудов НИГМИ. – Ташкент, 2005. – Вып. 5 (250). – С. 43-55.

2. Ерохин С.А., Загинаев В.В. Прогноз прорывоопасности горных озер Кыргызстана на основе их каталога. -В эл. кн. Мониторинг чрезвычайных ситуаций (mes.kg).
3. Устойчивость горных озер Центральной Азии. Риски воздействия и принятие мер. Оценочный доклад. –Отв.ред. Негматуллаев С.Х. –Душанбе, 2008. -51 с.
4. Пирмамадов У.Р. и др. Риск и последствия прорывов высокогорных озёр Таджикистана. Селевые потоки: катастрофы, риск, прогноз, защита. -Труды 6-й Международной конференции (Душанбе–Хорог, Таджикистан). -Том 1. –Душанбе: ООО «Promotion», 2020. –С. 1-24.
5. Пирназаров Р.Т., Хикматов Ф.Х. Тўғонли кўлларнинг гидрологик режими ва улар хавфини камайтириш масалалари. Монография. - Тошкент: Fan va texnologiya, 2013. - 176 б.
6. <https://24.kg/archive/ru/community/42145-2008/11/14/97949.html/>
7. <https://lenta.ru/news/2012/07/31/lake/>
8. Fazliddinovich, K. B., & Topvoldievich, P. R. (2018). Calculation of the outbreak discharges through a closure channel with trapezoid shape of cross-section. *European science review*, (7-8), 51-53.
9. Ahmadaliyev, Y. I., & Mamadalievich, X. A. (2021). Changes in the Natural Composition of the Land Fund and Its Protection (on the Example of Khojaabad District). *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(04), 165-168.
10. Ismoilovich, A. Y., & Erkinovich, M. A. (2022). THE USE OF HYDRONICS IN THE STUDY OF CHANGES OCCURRING IN THE PROCESS OF WATER USE. *PEDAGOGS jurnali*, 10(1), 148-154.
11. Равшан Топволдиевич Пирназаров, & Тохирбек Салим Ўғли Собиров (2022). ИҚЛИМ ЎЗГАРИШ ШАРОИТИДА СУВГА БЎЛГАН ТАЛАБЧАНЛИКНИНГ ОРТИШИ ВА УНИНГ ЕЧИМЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (5), 404-408.
12. Хикматов, Б. Ф., & Пирназаров, Р. Т. (2020). ОЦЕНКА ПОСТУПЛЕНИЯ ТВЕРДОГО МАТЕРИАЛА В ЧАШУ ОЗЕРА КУРБАНКУЛЬ И АНАЛИЗ ДОННЫХ ОТЛОЖЕНИЙ. In *ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ГИДРОМЕТЕОРОЛОГИИ, ВОДНОМ ХОЗЯЙСТВЕ И ГЕОЭКОЛОГИИ* (pp. 153-156).
13. Олимжон Исомиддинович Абдуғаниев, Турсуной Дилмуродовна Комилова, & Муҳаммадюсуф Темурхон Ўғли Мухториддинов (2022). УРБАНИЗАЦИЯЛАШГАН ҲУДУДЛАРНИНГ ЭКОЛОГИК ОЛАТИНИ БАҲОЛАШДА ГАТ-ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МЕТОДЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (5), 757-765.
14. Абдуғаниев, О. И. (2022). ЛАНДШАФТ ВА БИОЛОГИК ХИЛМА-ХИЛЛИКНИ ГАТ-ТАХЛИЛ АСОСИДА БАҲОЛАШ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(1), 53-58.
15. Abduvaliyev, N. A. A., Namdamova, F. A. Q., & Eraliyev, Z. Z. Q. (2021). LANDSHAFT OMILI ASOSIDA AHOLI HUDUDIY



TAKRIBINI TAKOMILLASHTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 1219-1223.

16. Холиков, Р., & Қўчқаров, О. (2021, August). BASIC PRINCIPLES OF URBAN ECOLOGICAL TERRITORIAL ORGANIZATION OF URBAN DEVELOPMENT: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1326>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).

17. Pirnazarov, R., Topvoldiyeva, M., & Kenjayeva, O. (2021, August). USE OF GRAPHIC ORGANIZERS IN THE LESSON PROCESS: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1387>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).

18. Muhitdinov, I. (2022). O'ZBEKISTONNING KO'LLARI VA SUV OMBORLARI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(2), 261-263.

19. Zarifjon o'g'li, M. Z., & Ihtiyorjon o'g'li, M. I. (2022). FARGONA VODIYSINING IQLIMI VA YOGINLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 2(1), 49-52.

20. Mamatisakov, J. J. O. G. L., & Muhitdinov, I. I. O. G. L. (2021). PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF ECOTOURISM IN THE PROTECTED NATURAL AREAS OF FERGANA REGION. *Scientific progress*, 2(3), 986-989.

21. Topvoldievich, P. R., & Ugli, M. I. I. Hydrological Description of Some Small Mountain Rivers in the Fergana Valley. *JournalNX*, 6(12), 264-267.

22. Jahongirmirzo Jamoliddin, O. G. (2021). 'Li Mamatisakov, Ilhomjon Ihtiyorjon O 'G 'Li Muhitdinov, Ablazbek Erkinjon Ogli Madraximov PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF AGRICULTURAL TOURISM IN FERGANA REGION. *Scientific progress*, 8.

23. Khikmatov Bekzod Fazliddinovich, & Pirnazarov Ravshan Topvoldievich (2018). Calculation of the outbreak discharges through a closure channel with trapezoid shape of cross-section. *European science review*, (7-8), 51-53.

24. Mahkamov, E. (2021, August). GEOGRAPHICAL DISTRIBUTION OF MEDICAL PLANTS OF THE FERGANA VALLEY, RECREATION POSSIBILITIES AND GEOECOLOGICAL ASPECTS OF THEIR PROTECTION: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1414>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).

25. Elyorjon G'ayratovich Mahkamov, & Dilafruz Baxromjon Qizi Karimqulova (2021). EKOTURISTIK MARSHRUTLAR VA ULARNI ISHLAB CHIQUISH USULLARI. *Academic research in educational sciences*, 2 (12), 1137-1140.

26. Muhitdinov, I. I. (2021). Kichik tog'daryolari oqiminig shakllanishida meteorologik omllarning roli (Farg'ona vodiysining janubiy qismi misolida). *magistrlik dissertatsiyasi.- Farg'ona*, 87.

МУҲОФАЗА ЭТИЛАДИГАН ТАБИЙ ҲУДУДЛАРНИНГ АСОСИЙ ТОИФАЛАРИ ВА ТАСНИФЛАРИ

О. И. Абдуганиев

А. Мадрахимов

Фарғона давлат университети

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада муҳофаза этиладиган табиий ҳудудларнинг асосий тоифалари ва таснифлари таҳлил қилинган бўлиб, уларни тоифаларини ўрганиш, таснифлаш ҳамда ягона тизимга бирлаштиришнинг илмий ва назарий асосларини кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар, IUCN, барқарор ривожланиш, биологик ва ландшафт хилма-хиллиги, туризм, рекреация, экотизм.

КИРИШ

Ҳозирги кунда дунёнинг деярли барча мамлакатларида муҳофаза этиладиган табиий ҳудуд(МЭТХ)лар тизими орқали табиатни муҳофаза қилиш ва ундан оқилона фойдаланиш ғояси миллий анъаналар ва халқаро тажрибасини ўзлаштириш ҳисобига аста-секин такомиллашиб бормоқда. IUCN томонидан берилган маълумотларга кўра (2006) дунё миқёсида муҳофаза қилинадиган ҳудудларнинг тоифаси ва турлари жуда хилма-хил бўлиб, ҳаттоки бир тоифадаги ва бир хил номланишдаги МЭТХларнинг ҳуқуқий мақоми ҳам айрим ҳолларда бир биридан кескин фарқ қилишини кузатилади.

Шунинг учун, МЭТХларини барча хусусиятларини қамраб оладиган ва мамлакатлар қонунчилигига тўлиқ мос келадиган таснифни ишлаб чиқиш долзарб масалалардан биридир. Бу борада табиатни ҳудудий муҳофаза қилиш соҳасидаги етакчи халқаро ташкилот - Табиатни муҳофаза қилиш халқаро уюшмаси (IUCN) томонидан МЭТХларни таснифлаш билан боғлиқ тадқиқотлар олиб борилмоқда [3, 4].

МЭТХларни халқаро даражада бошқарувчи IUCN ташкилоти 1948 йилда ташкил этилган бўлиб, бугунги кунда унинг аъзолари 100 дан ортиқ давлат ва турли нодавлат ташкилотларда фаолият олиб бормоқда. IUCNнинг олти Комиссияси таркибида 10,000 дан ортиқ эксперт-кўнгилчилар ва ишчи гуруҳлар турли лойиҳалар доирасида бирлашган. Мазкур экспертларнинг иш фаолиятида алоҳида эътибор асосан, биологик хилма-хилликни ва турларнинг яшаш жойларини муҳофаза қилиш, табиатдан оқилона фойдаланишни бошқариш масалаларига қаратилган [26].

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

МЭТХлар билан боғлиқ масалалар IUCN ташкил этилганидан буён асосий устувор йўналишлар қаторидан ўрин

олган. МЭТХлар бўйича Бутун Жаҳон Конгрессида муҳофаза этиладиган табиий ҳудудларни режалаштириш ва таснифлаш ишларини бошқаришда IUCN етакчилик қилмоқда. Грецияда 1958 йилда Афина шаҳрида ўтказилган IUCNнинг олтинчи Бош Ассамблеясида табиатни муҳофаза қилиш ва ундан оқилона фойдаланиш борасида тажриба алмашувини йўлга қўйиш мақсадида Миллий боғлар бўйича биринчи Ҳалқаро конференция ўтказиш тавсия этилган. Мазкур таклиф 1962 йилда АҚШнинг Сиэтл шаҳрида 1962 йил июл ойида амалга оширилган. МЭТХлар бўйича Ҳалқаро Конгресс томонидан ҳар 10 йилда ҳалқаро конференция ва амалий учрашувлар ташкил этилиб келинмоқда. Мазкур тадбирлар бутун дунё миқёсида қўриқхона фаолиятини назарий ва амалий жиҳатдан йўлга қўйилишига ҳамда МЭТХлар билан боғлиқ амалий ишларни тез ривожланишига кучли таъсир кўрсатди [26, 5, 6].

НАТИЖА ВА МУҲОКАМАЛАР

IUCNнинг олтинчи Бош Ассамблеясида БМТ томонидан дунё бўйича миллий боғлар ва МЭТХлар мақомига тенг кела оладиган муҳофаза этиладиган ҳудудларни рўйхатини тузиш таклифи берилган. Мазкур рўйхат биринчи мартда 1962 йилда IUCN томонидан нашр этилган. Ҳозирги кунда ҳам БМТнинг МЭТХлар бўйича рўйхати приоритет бўлиб, дунё бўйича МЭТХлар ва уларнинг тизими тўғрисида маълумот берувчи асосий манбаа ҳисобланади.

IUCN томонидан МЭТХлар бўйича ишлаб чиқилган тасниф жаҳон миқёсида тан олинган. Биринчи тасниф IUCN томонидан 1978 йилда, кейинги навбатда 1994 йилда ишлаб чиқилган. Ушбу таснифга мувофиқ, МЭТХларнинг олти асосий тоифаси ва иккита кичик тоифаси мавжуд (1-жадвал). Таъкидлаш жоизки, бу жадвалнинг мазмунидан келиб чиққан ҳолда, IUCN таснифи муҳофаза қилинадиган ҳудудларнинг давлатлар қонунчилиги бўйича амалга оширилган миллий таснифлардан сезиларли даражада фарқ қилади. Таснифларни тақослашда ёки амалиётга жорий этишда муҳофаза қилинадиган табиий ҳудудларни ташкил этиш мақсади ва йўналишига, яъни амалий аспектига эътибор қаратилади: рекреация ва туризм, табиий ресурслардан барқарор фойдаланиш, анъанавий табиатдан фойдаланишни ва бошқалар [1, 2, 26].

Нуфузли халқаро ташкилотларнинг ҳисоботларида келтирилган материалларга кўра, сўнгги ўн йилликлар ичида қўриқланадиган ҳудудлар сони барқарор равишда кўпайиб бормоқда. Масалан, 1962 йилда уларнинг сони 9214, 1972 йилда - 16394, 1982 йилда - 27794, 1992 йилда - 48388 тани ташкил этган. МЭТХлар бўйича Конгресс маълумотларига кўра, 2003 йилга келиб дунёда 102102 та қўриқланадиган ҳудуд ташкил этилган бўлиб, уларнинг умумий майдони 18,8 миллион км² ташкил этган (БМТнинг 2003 йилдаги МЭТХлар бўйича рўйхати).

Ўтган йиллардаги МЭТХлар бўйича Конгресс томонидан берилган ҳисоботларда дунёда муҳофаза қилинадиган табиий ҳудудлар сони, тури ва тоифалари ҳам ошиб бормоқда. Масалан,



2005 йилнинг бошида муҳофаза қилинадиган ҳудудлар бўйича Бутунжаҳон маълумотлар базасида 108786 та ҳудуд ва объектлар МЭТХ сифатида рўйхатдан ўтказилган. Уларнинг умумий майдони 20 миллион км²га ташкил этган. Ушбу ҳудудларнинг умумий майдони 2008 йилга келиб, 21 миллион км² дан зиёд майдонни қамраб олган ва 120000 дан зиёд МЭТХлар рўйхатдан ўтказилган.

Ҳар бир давлатнинг Муҳофаза этиладиган ҳудудлари дунё бўйича МЭТХлар тизимининг бир қисми ҳисобланади. Мазкур ҳудудларнинг ташкил этилиши дунё миқёсида табиий, экологик ва маданий аҳамиятга эга бўлган ва халқаро ташкилотлар томонидан эътироф этилган ҳудуд ва объектларни сақлаб қолишга эришилди. БМТнинг муҳофаза этиладиган ҳудудлар тўғрисидаги рўйхатига кўра (Deguignet M. United Nations List of Protected Areas, 2014), 2014 йилга келиб, МЭТХларнинг сони 209 мингдан ортиб кетганлигини кўришимиз мумкин. МЭТХлар эгаллаган майдон эса, 32 млн. км² дан ортиб кетган. Ер шарида қуруқликнинг 14%, дунё океанининг 3,41%и МЭТХ сифатида муҳофазага олинган. МЭТХларнинг сони ва эгаллаган майдонини 1962 йилга нисбатан тақослаганимизда, уларнинг сони 23 маротабага, майдони эса 8 маротаба ортганини кўришимиз мумкин (1-чизма).

МЭТХларнинг халқаро миқёсдаги тушунчаси ва категориялари Халқаро табиатни муҳофаза қилиш уюшмаси (IUCN) томонидан амалга оширилган бўлиб, қуйидагича таъриф берилган: муҳофаза этиладиган ҳудуд – бу биологик хилма-хилликни қўллаб-қувватлаш ҳамда табиий ресурслар ва улар билан боғлиқ маданият элементларини сақлаб қолиш учун мўлжалланган, бундай мақсадга хос бўлган қонуний ва маъмурий бошқарув тартибига бўйсунган қуруқлик ва/ёки денгиз қисми (IUCN, 1994). Халқаро табиатни муҳофаза қилиш уюшмаси (ХТМКУ) томонидан 1978 йилда МЭТХлар клацификациясини амалга оширган бўлиб, улар 6 катогорияга ажратилган. Шунингдек, МЭТХларнинг клацификацияси 1994 йилда такомиллаштирилган.

IUCN таснифидаги МЭТХларнинг IV-VI категорияларида турли кўринишдаги хўжалик фаолиятини кенг миқёсда амалга ошириш мумкин. Масалан, IUCN бўйича МЭТХларнинг функцияларидан қуйидаги амалий жиҳатларига эътибор қаратилган: туризм ва рекреация, табиий ресурслардан барқарор фойдаланиш, экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасини қўллаб қувватлаш ва бошқ. Халқаро ҳуқуқ нормалари бўйича IUCN классификацияда ва турли мамлакатларнинг миллий қонунчилигида МЭТХларнинг тушунчаси ҳамда категориялари ўртасида ўзаро боғлиқлик бўйича ҳам умумий фикрлар йўқ.

Масалан, А.С.Кротик бўйича дендрологик парк ва ботаника боғи II категорияга мансуб бўлса, давлат табиат буюртма кўриқхоналари IV категорияга киритилган. Ўз ўрнида Т.В.Ковалева дендрологик парк ва ботаника боғини V категорияга, федерал аҳамиятга эга бўлган буюртма кўриқхоналарини III ва IV категорияга, регионал аҳамиятга эга бўлганларини эса, IV ва V категорияга мансуб МЭТХ деб ҳисоблайди [6, 7].

1-жадвал

Халқаро табиатни муҳофаза қилиш уюшмасининг МЭТХлар бўйича клацификацияси [27].

Тонфаси	Функцияси
Ia. Қаттиқ муҳофаза қилинадиган табиий резерватлар (Strict nature reserve)	Ноёб ёки типик экотизимларни, геологик ёки геоморфологик объектларни ёки биологик турларни ўз ичига олган ер ва /ёки денгиз қисми бўлиб, улардан фойдаланишнинг асосий шакли илмий-тадқиқот фаолияти ва экологик мониторингни юритиш белгиланган.
Ib. Ёввойи табиатни сақлаб қолиш учун бошқариладиган муҳофаза ҳудудлари (Wilderness area)	Қуруқлик ва/ёки денгизнинг одамлар жойлашмаган ёки аҳоли томонидан кучсиз ўзлаштирилган катта кўламдаги қисми бўлиб, уни табиий ҳолатини сақлашни таъминлайдиган тартиб (режимни)ни ушлаб туради.
II. Миллий боғ (National park)	Қуруқлик ҳудуди ва денгиз акваториясининг муҳофаза қилинадиган қисми бўлиб, асосан экотизимларни муҳофаза қилиш ва рекреация учун ташкил қилинади. Қуйидаги функцияларни бажаради: А) Бугунги ва келажак авлодлар манфаати ҳисобга олган ҳолда бир ёки бир неча экотизимларнинг экологик яхлитлигини сақлаб қолиш; Б) табиатдан фойдаланиш ва бошқа фаолият турларига рухсат бериледи, фақат миллий боғ режимига номувофик бўлганлари бундан мустасно. в) аҳолининг маънавий, илмий, маърифий, рекреацион ва сайёҳлик эҳтиёжларини қондириш ҳамда табиий муҳит ва маданий объектларни сақлаб қолиш мақсадларига мос келиши.
III. Табиий ёдгорликлари (Natural monument)	Ноёб, ўрнини тўлдириб бўлмайдиган, эстетик жиҳатдан қийматга эга бўлган бир ёки бир неча табиий ёки табиий ва маданий объектларини ҳамда ўзига хос табиий объект ва жараёнларни сақлаб қолиш учун ташкил этилан муҳофаза ҳудуди ҳисобланади.
IV. Турлар яшаш жойларни тартибга солинадиган ҳудудлар (Habitat/species management area)	Асосан биологик турларни яшаш жойларни сақлаб қолиш ёки зарурий шароитини қўллаб қуватлаш учун муҳофаза қилинадиган ҳудудни (қуруқлик ва / ёки денгиз) тартибга солиш йўли билан ташкил этилади.
V. Муҳофаза этиладиган ландшафт/акваландшафт (Protected landscape/seascape)	Асосан ландшафт ёки денгиз акваториясини сақлаб қолиш ва рекреация учун ташкил этилади. Бундай ҳудудлар ўзига хос эстетик, экологик ва/ёки маданий характери ва қўпинча биологик хилма-хилликнинг юқори даражасига эга бўлганлиги билан ажралиб турадиган, инсон ва табиатнинг узок давом этган ўзаро таъсири доирасида шакланган ҳудудлар ҳисобланади.

<p>VI. Табиий ресурслардан фойдаланишни бошқариш учун мўлжалланган муҳофаза этиладиган ҳудудлар (Managed resource protected area)</p>	<p>Маҳаллий аҳолини эътиёжини қондириш учун табиий экотизмлардан барқарор фойдаланиш билан бир қаторда узок йиллар давомида биологик хилма-хилликни муҳофазасини таъминлаш мақсадида кам ўзгаришга учраган табиий комплексларда ташкил этилади.</p>
---	---

В.Н.Горбачев ва Н.А.Соболевлар ўз тадқиқотларида буюртма кўриқхоналари аҳамиятидан қаттиқ назар IV категорияга киритишган. Н.А.Соболев эса, табиат боғини V категорияга, табиат ёдгорликларини эса III ва IV категорияларга тенглаштиради. Б.Британияда турли категорияга ва мазмунга эга бўлган МЭТХлар ташкил этилган. МЭТХлардаги табиий учаскаларни нуфузи ва асосий функцияси бўйича 12 категорияга ажратиш мумкин. Лекин, 12 категорияни номланишидаги айнан ўхшашлик ва фарқлар фақат Б.Британияни Англия, Шотландия, Уэльс ва Шимолий Ирландия каби ҳудудий бўлинмалари бўйича кузатилади. Дунёда бундай турли-туманликка ажабланмаса ҳам бўлади. Чунки, ҳалқаро даражадаги МЭТХларнинг тушунчаси бўйича турли-хил термин ва таърифлар жуда кўп бўлиб, уларнинг барчасидан фойдаланиб келинмоқда. Бундай хусусият амалиётда дунёнинг кўпгина мамлакатлари томонидан қўлланилади. Масалан, биргина Австралияда 50 хил номланишдаги МЭТХлар мавжуд [3, 4, 6, 7].

С.Лупачаева (2013) томонидан алоҳида муҳофаза этиладиган табиий ҳудудларнинг умумий клацификацияси таклиф этилган. Мазкур клацификацияда МЭТХларнинг аҳамияти, муҳофаза қилиш ёки кўриқланиш даражаси, ташкил этиш структурасининг тури, муҳофаза қилиш режимининг хусусияти асос қилиб олинган. Шунингдек, Россия Федерациясининг Қонуни бўйича МЭТХларнинг тоифалари ва турларини ҳалқарор стандартларга мос келиши таҳлил қилинган.

С.Скибин (2015) Россия Федерацияси қонунчилиги бўйича МЭТХлар тушунчаси ва категорияларига аниқлик киритишга ҳаракат қилган бўлиб, тадқиқот ишида МЭТХларнинг тоифалари бўйича амалга оширилган таснифларни IUCN бўйича қиёсий таҳлилни амалга оширган. Олинган натижалар асосида МЭТХлар ва уларнинг буфер зоналаридан хўжалик мақсадида фойдаланиш бўйича тавсиялар ишлаб чиққан.

Экологик хавфсизлик ва барқарорликни таъминлаш ёки биологик ва ландшафт хилма-хиллигини сақлаб қолиш муайян ҳудудлардаги ландшафтларни муҳофаза қилиш ҳамда уларни ресурсларини қайта тиклаш орқали амалга оширилмоқда. Чунки, муҳофазага олинган ҳудудлар нафақат ўзлари жойлашган ландшафтларнинг ноёб хусусиятларини сақлаб қолиш ва ресурсларини тиклаш, балки бутун минтақада иқтисодий, ижтимоий ва экологик барқарорлигини таъминлаш имконини беради. Бу вазифани бажариш учун эса, туман, вилоят ёки республика миқёсида экологик районлаштириш олиб борилмоқда.

ХУЛОСА

МЭТХлар турли вазифаларни (мухит яратувчи, ресурс сақловчи, объектни химоя қилувчи, туристик, рекреация, ахборот ва бошқ.) бажариш хусусиятига эга. Бу хусусиятлар бир-бири билан узвий боғланган ҳамда бир-бирини тўлдиради. Шунинг учун, МЭТХлар тизимида уларнинг тоифалари ёки турлари қанчалик тўлиқ иштирок этса, минтақада шаклланган мақсадли экологик мувозанатни узоқ йиллар давомида сақлаб туриш ҳамда улардан фойдаланиш учун қулай имконият яратилади. МЭТХларни ландшафтларни оптималлаштириш ёки улардан фойдаланиш мақсадида баҳолашда бу вазифалар ичидан энг муҳимини танлаб олиш катта аҳамиятга эгадир. Демак, МЭТХларга экотизим, агротизим ва урботизимлар билан биргаликда ягона тизимда регулятор, яъни тартибга келтирувчи сифатида қараш муҳимдир. Турли вазифаларни бажарувчи МЭТХларни ижтимоий-иқтисодий ва экологик жиҳатдан баҳолаш анча мураккаб ишдир. Шунинг учун, МЭТХларни тушунчаси ва тоифаларини аниқлаш ҳамда таснифлаш муҳим аҳамиятга эгадир.

Турли йилларда чоп этилган адабиётларда, халқаро конвенцияларда, қабул қилинган давлат қонунларида ва муҳофаза этиладиган ҳудудларнинг турли таснифларида умумий ўхшашлик бўлса-да, уларда ўзига хосликлар ҳамда фарқлар ҳам кузатилади. Бу фарқлар МЭТХларни тоифаларга ёки гуруҳларга ажратишда фойдаланилган тамойилларга ҳамда ҳар бир давлатнинг миллий қонунчилигидан келиб чиққан. Шунинг учун, МЭТХлар туғрисидаги қонун ёки таснифларни бирон бир мамлакатга ёки минтақага тўғридан тўғри тадбиқ этиб бўлмайди. МЭТХларнинг тушунчасини аниқлашда, уларни категорияларга ажратишда ҳамда классификациясида халқаро тажрибаларни ҳисобга олиш мақсадга мувофиқдир. Чунки, улар иқтисодий ва экологик манфаатлар бирлигини таъминлашга йўналтирилган муҳофаза қилинадиган ҳудудларнинг ягона экологик тизими(экологик каркас)ни яратиш имконини беради.

REFERENCES

1. Ahmadaliyev, Y. I., & Mamadalievich, X. A. (2021). Geoecological and Farm Stress Level (on the Example of Khojaabad District). *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(04), 169-174.
2. Ahmadaliyev, Y. I., & Mamadalievich, X. A. (2021). Changes in the Natural Composition of the Land Fund and Its Protection (on the Example of Khojaabad District). *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(04), 165-168.
3. Ismoilovich, A. Y., & Erkinovich, M. A. (2022). THE USE OF HYDRONICS IN THE STUDY OF CHANGES OCCURRING IN THE PROCESS OF WATER USE. *PEDAGOGS jurnali*, 10(1), 148-154.
4. Isomiddinovich, A. O. (2018). Comparative analysis of the protected natural territories of the Republic of Uzbekistan and the international Union of nature protection. *European science review*, (9-10-1), 67-70.



5. Isomiddinovich, A. O., & Yigitaliyevich, X. R. (2021). Territorial Structure and Stability of Ecological Framework. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 29(2), 462-467.
6. Олимжон Исомиддинович Абдуғаниев, Турсуной Дилмуродовна Комилова, & Муҳаммадсосуф Темурхон Ўғли Мухториддинов (2022). УРБАНИЗАЦИЯЛАШГАН ХУДУДЛАРНИНГ ЭКОЛОГИК ОЛАТИНИ БАҲОЛАШДА ГАТ-ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МЕТОДЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (5), 757-765.
7. Абдуғаниев, О. И. (2022). ЛАНДШАФТ ВА БИОЛОГИК ХИЛМА-ХИЛЛИКНИ ГАТ-ТАХЛИЛ АСОСИДА БАҲОЛАШ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(1), 53-58.
8. Равшан Топволдиевич Пирназаров, & Тоҳирбек Салим Ўғли Собиров (2022). ИҚЛИМ ЎЗГАРИШ ШАРОИТИДА СУВГА БЎЛГАН ТАЛАБЧАНЛИКНИНГ ОРТИШИ ВА УНИНГ ЕЧИМЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (5), 404-408.
9. Абдувалиев, А. Х., & Парпиева, Г. М. (2022). ФАРҶОНА ВОДИЙСИДА АҲОЛИНИНГ ЕР БИЛАН ТАЪМИНЛАНГАНЛИК ДАРАЖАСИ ВА УНИНГ АҲОЛИ ЗИЧЛИГИГА ТАЪСИРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(4), 1174-1183.
10. Abduvaliyev, N. A. A., Hamdamova, F. A. Q., & Eraliyev, Z. Z. Q. (2021). LANDSHAFT OMILI ASOSIDA AHOLI HUDUDIY TAKRIBINI TAKOMILLASHTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 1219-1223.
11. Холиков, Р., & Қўчқаров, О. (2021, August). BASIC PRINCIPLES OF URBANEKOLOGICAL TERRITORIAL ORGANIZATION OF URBAN DEVELOPMENT: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1326>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).
12. Холіков, Р., & Қо‘чқаров, О. (2021, July). BASIC PRINCIPLES OF URBANEKOLOGICAL TERRITORIAL ORGANIZATION OF URBAN DEVELOPMENT. In *Конференция*.
13. Muhitdinov, I. (2022). O'ZBEKISTONNING KO'LLARI VA SUV OMBORLARI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(2), 261-263.
14. Zarifjon o'g'li, M. Z., & Ihtiyorjon o'g'li, M. I. (2022). FARGONA VODIYSINING IQLIMI VA YOGINLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 2(1), 49-52.
15. Mamatisakov, J. J. O. G. L., & Muhitdinov, I. I. O. G. L. (2021). PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF ECOTOURISM IN THE PROTECTED NATURAL AREAS OF FERGANA REGION. *Scientific progress*, 2(3), 986-989.
16. Topvoldievich, P. R., & Ugli, M. I. I. Hydrological Description of Some Small Mountain Rivers in the Fergana Valley. *JournalNX*, 6(12), 264-267.



17. Jahongirmirzo Jamoliddin, O. G. (2021). 'Li Mamatisakov, Ilhomjon Ihtiyorjon O 'G 'Li Muhitdinov, Ablazbek Erkinjon Ogli Madraximov PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF AGRICULTURAL TOURISM IN FERGANA REGION. *Scientific progress*, 8.
18. Khikmatov Bekzod Fazliddinovich, & Pirnazarov Ravshan Topvoldievich (2018). Calculation of the outbreak discharges through a closure channel with trapezoid shape of cross-section. *European science review*, (7-8), 51-53.
19. Равшан Топволдиевич Пирназаров, & Тоҳирбек Салим Ўғли Собиров (2022). ИҚЛИМ ЎЗГАРИШ ШАРОИТИДА СУВГА БЎЛГАН ТАЛАБЧАНЛИКНИНГ ОРТИШИ ВА УНИНГ ЕЧИМЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (5), 404-408.
20. Mahkamov, E. (2021, August). GEOGRAPHICAL DISTRIBUTION OF MEDICAL PLANTS OF THE FERGANA VALLEY, RECREATION POSSIBILITIES AND GEOECOLOGICAL ASPECTS OF THEIR PROTECTION: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1414>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).
21. Elyorjon G'ayratovich Mahkamov, & Dilafruz Baxromjon Qizi Karimqulova (2021). EKOTURISTIK MARSHRUTLAR VA ULARNI ISHLAB CHIQUISH USULLARI. *Academic research in educational sciences*, 2 (12), 1137-1140.
22. Dekhkanbaeva, M. N. (2022). Prospects Of Tourism Development In Uzbekistan. *The American Journal of Applied sciences*, 3(02), 95-99.
23. Хамидов, А. А., & Дехканбаева, М. Н. (2022). ИССЛЕДОВАНИЕ БИОГЕОГРАФИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ. *Academic research in educational sciences*, 3(5), 881-886.
24. Dehkanbayeva, M. N. (2019). TERRITORIAL LOCATION AND FUNCTION OF SACRED LANDSCAPES (FERGANA REGION). *Экономика и социум*, (11), 919-921.
25. Muhitdinov, I. I. (2021). Kichik tog'daryolari oqiminig shakllanishida meteorologik omllarning roli (Farg'ona vodiysining janubiy qismi misolida). *magistrlik dissertatsiyasi.- Farg'ona*, 87.
26. Deguignet M., Juffe-Bignoli D., Harrison J., MacSharry B., Burgess N., Kingston N., (2014) Liste des Nations Unies des Aires Protégées 2014. UNEP-WCMC: Cambridge, UK.
27. IUCN (2007). Connectivity conservation. International experience in planning, establishment and management of biodiversity corridors. Gland, Switzerland: IUCN. 18 p.

ГЕОГРАФИЯ КРУПНЫХ ПЛОТИН

Равшан Топволдиевич Пирназаров

доцент кафедры географии Ферганского государственного университета

pirnazarov.73@mail.ru

Мадина Баходиржон кизи Журакузиева

магистрант кафедры географии Ферганского государственного университета

mjuraqoziyeva@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье описаны крупные плотины, география их распространение в бассейнах рек и связанные с ними чрезвычайные ситуации.

Ключевые слова: гидротехнические сооружения, крупные плотины, трансграничные реки, чрезвычайные ситуации, гидроэнергетические ресурсы, активная сейсмическая зона.

ABSTRACT

This article describes huge dams, the geography of their distribution in river basins and related emergencies.

Keywords: hydraulic structures, huge dams, transboundary rivers, emergency situations, hydropower resources, active seismic zone.

ВВЕДЕНИЕ

В последние годы различные страны мира все чаще стремятся строить крупные плотины в бассейнах рек, чтобы получать дешевую электроэнергию. Это очень важно для развития экономики страны, но также ясно, что чрезвычайные ситуации, которые могут возникнуть в них, неизбежно поставят под угрозу жизнь людей. Рассматриваемые как огромный источник дохода, огромные убытки, которые могут возникнуть в результате строительства этих гигантских сооружений, игнорируются. Действительно, невозможно точно просчитать последствия этих потерь, угроз и опасностей. Особенно в горных районах Средней Азии строительство гидротехнических сооружений с такими огромными плотинами является явно опасным шагом с точки зрения безопасности людей. Потому что в геологических научно-полевых исследованиях, проведенных в 19 веке, было определено, что большая территория Центральной Азии

находится в районе магнитуды 9-10 (7,6 балла по шкале Рихтера) по шкале МСК-64. Сейсмологические исследования, проведенные в 50-х и 60-х годах прошлого века в связи со строительством Нурекского водохранилища в Таджикистане и Тохтагульского водохранилища в Кыргызстане, наглядно это подтвердили [1]. В частности, большие плотины, строящиеся одна за другой в одном речном бассейне, повышают риск затопления. Эти ситуации требуют анализа географического положения крупных гидротехнических сооружений, расположенных в речном бассейне, и оценки возможных в них чрезвычайных ситуаций.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ

Сведения о гидрологических сооружениях с плотинами впервые опубликовали Л.А.Молчанов, Н.Л.Корженевский, М.А.Первухин, Б.Б.Богословский, В.Н.Рейзвих, А.М.Никитин, позже Н.Е.Горелкин, Мягков С.В., Хикматов Ф.Х., Пирназаров Р. Т., Кудышкин В.А., Хикматов Б и др. исследования. Однако эти исследования посвящены изучению естественных плотинных озер, расположенные в горных районах. В них не уделялось особого внимания научным исследованиям, связанным с размещением гидротехнических сооружений с плотинами на бассейнах рек, опасными наводнениями, которые они могут вызывать, их последствиями, и разработкой мероприятий, направленных на снижение риска и ущерба от наводнений, и вопросы, связанные с этой проблемой, не были тщательно изучены. Вопросы, связанные с крупными гидротехническими сооружениями и связанными с ними чрезвычайными ситуациями, сохранились лишь в отраслевых сводках, научных сборниках и коротких заметках в средствах массовой информации.

РЕЗУЛЬТАТЫ

По данным источников, по состоянию на январь 2022 года в разных регионах мира насчитывается 57 плотин высотой более 200 метров. В этом списке первое место занимает Усойская плотина Сарезского озера. Плотины гидротехнических сооружений, построенных людьми, перечислены в следующих местах [5]. Высокие плотины, включенные в список, принадлежат 22 странам мира. В частности, в Китае имеется 14 высоких плотин, в Турции - 5, в США, Швейцарии, Иране - 4, в Колумбии и Мексике - по 3, в Бразилии, Канаде, России, Таджикистане и Индии - по 2, в остальных 10 странах - по 1 (Таблица 1).

Таблица 1

Список стран с самыми высокими плотинами в мире

№	Страны	Количество плотин	№	Страны	Количество плотин
1	Китай	14	12	Индия	2
2	Турция	5	13	Австрия	1
3	США	4	14	Гондурас	1
4	Швейцария	4	15	Грузия	1
5	Иран	4	16	Испания	1
6	Колумбия	3	17	Италия	1
7	Мексика	3	18	Кыргызстан	1
8	Бразилия	2	19	Малайзия	1
9	Канада	2	20	Филиппины	1
10	Россия	2	21	Черногория	1
11	Таджикистан	2	22	Эфиопия	1

Эти плотины территориально расположены в бассейнах 48 рек. В частности, на реке Карун (Иран) имеется 3 высоких плотины, по 2 на реках Колорадо (США) и китайских реках Меконг, Цзинхэ и Ялуныцзян и по 1 на бассейнах других рек. 14 из этих рек протекают по территории двух и более стран, то есть имеют трансграничное значение.

Международная комиссия по большим плотинам перечислила 177 крупных гидротехнических сооружений, производящих больше всего электроэнергии в мире. Они принадлежат 46 странам мира. В частности, 24 в Бразилии, 20 в США и Канаде, 18 в Китае, 15 в России, 13 в Японии, 8 в Индии, по 4 в Италии, Турции, Иране, Венесуэле, Колумбии, Мексике, по 3 в Пакистане, Германия, Тайвань, В Украине 2 крупных гидротехнических сооружения и по 1 в остальных 29 странах [5].

Эти сооружения расположены в бассейнах 107 рек, 30 из которых носят трансграничный характер. Следует отметить, что последовательное расположение крупных гидротехнических сооружений в бассейне одной реки приводит к нарастанию последствий потерь, которые могут возникнуть в них по тем или иным причинам. Потому что большой расход воды, вызванный обрушением сооружения в верхней части речного бассейна, вызывает обрушение плотины сооружения, расположенного ниже. Таких объектов 8 на реке Колумбия (США и Канада), 5 на Волге (Россия), Игуасу (Бразилия), Ла Гранд (Канада), Парана (Аргентина и Уругвай), Манкуаган (Канада), Рио Гранде (Бразилия).), 4 реки в Сан-Франциско (Бразилия), Хуанхэ (Китай), Ангара (Россия), Замбези (Замбия, Зимбабве, Мозамбик), Карони (Венесуэла), Карун (Иран), Колорадо

(США), Нельсон (Канада), Паранаиба (Бразилия и Парагвай), Фрот (Турция), Янцзы (Китай) 3 реки, Грихальва (Мексика), Енисей (Россия), Меконг (Китай), Нармада (Индия), Ниагара (США), Нил (Египет и Судан). , Сатледж (Индия), Синано (Япония), Тигр (Ирак и Турция), Токантис (Бразилия), Тонс (Япония), Уругвай (Аргентина, Уругвай, Бразилия), Уцзян (Китай), Инд (Пакистан), 2 реки [5]. Однако это положение не может быть основанием для того, чтобы мы пришли к ошибочному выводу о том, что уровень опасности сооружений, расположенных в остальных речных бассейнах, невысок. Поскольку в этот перечень входят только крупные сооружения с большой энергоёмкостью, к тому же, принимая во внимание, что в них необходимо набрать большое количество воды для получения большой мощности, понятно, что происходящая в них катастрофа будет очень опасна . В то же время, как отмечалось выше, в список включены только объекты с большой энергетической мощностью, и трудно поверить, что в этом речном бассейне нет других гидротехнических сооружений, не включенных в список из-за их малой мощности. Здесь же рассмотрим отдельно другую сторону дела.

2) Тўлиқ муҳофаза қилинадиган лекин чекланган хўжалик фаолияти олиб бориладиган эталон ҳудудларга микроқўриқхона, ландшафт буюртма қўриқхонаси киритилади. Улар алоҳида экологик қийматга эга бўлган табиий объектлар ва мажмуаларни асл ҳолатида сақлашга мқлжалланган табиий эталонлардир.

3) Қисман муҳофаза қилинадиган эталон ҳудудларга тарихий-маданий ва эстетик жиҳатдан ноёб бўлган табиий, табиий-антропоген ҳудуд ва объектларни муҳофаза қилувчи музей-қўриқхоналар киритилади.

Фарғона водийсининг Фарғона, Андижон ва Наманган вилоятларида биологик ва ландшафт хилма-хиллигини сақлаб қолиш, ноёб ландшафт яратмаларини тиклаш ва атроф-муҳит мониторингини олиб боришда муҳим бўлган эталон қўриқхоналар ташкил этилмаган. Хўжаликнинг турли тармоқлари ривожланган, аҳоли зич жойлашагн ва урбанизация тез ўсаётган Фарғона водийсида катта майдонни эгаллаган қўриқхоналарни ташкил этишнинг имконияти йўқ.

Шунинг учун, антропоген омил таъсирида ландшафтлари ўзгаришга учраб, ўзларининг ноёб хусусиятларини йўқотиб бораётган, кам ўзгаришга учраган Марказий Фарғонада ҳудудида эталон қўриқхона ташкил этишни тавсия қилдик. Марказий

Фарғонада эса ҳанузгача бирорта кўриқхона ташкил этилмаганлиги сабабли бу ҳудудда биологик ва ландшафт хилма-хиллигини сақлаб қолиш чоратadbирларини юқори даражада самарали бўлишини қийинлаштирмоқда.

ХУЛОСА

Айнан ана шу ҳолат маҳаллий, регионал ва миллий экологик хавфсизликни таъминлаш устувор вазифалардан бири сифатида табиатнинг алоҳида ресурсларини ҳимоя қилишдан геокомплексларни умумий муҳофаза қилишга, инсон яшаш муҳитининг қулай жиҳатларини кафолатлашга йўналтирилган экологик сиёсатни олиб бориш зарур қилиб қўймоқда. Бу борада ҳар-бир табиий географик районда давлат кўриқхоналарини ташкил этиш муҳим аҳамият касб этади.

Юқоридаги таҳлилларга кўра Республикамизда, айниқса, Фарғона водийсида МЭТХлар тизимини такомиллаштириш долзарб масалалардан бири ҳисобланади. Шунинг учун, МЭТХ таркибини юқорида келтирилган талаблар асосида қайта кўриб чиқиш ҳамда мамлакатимизнинг барча минтақалари ҳамда вилоятларида давлат кўриқхона ташкил этиш зарур, деб ҳисоблаймиз. Бу эса, Республикада МЭТХларни яҳлит бир тизимдан иборат бўлишини, экологик хавсизлик ва барқарорликни ҳамда биохилма-хилликни узоқ вақт сақлаб қолишни таъминловчи экологик каркасни барпо этиш имконини беради.

REFERENCES

1. «2019-2028 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасида биологик хилма-хилликни сақлаш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори N 484. 11.06.2019 й.
2. Реймерс Н.Ф., Штальмарк Ф.Р. Особо охраняемые природные территории. – М.: Мысль. 1978. -295 с.
3. Черных Д.В. Особо охраняемые природные территории и основы территориальной охраны природы [Текст]: учебное пособие / Д.В. Черных. – Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 2014. – 227 с.
4. Ahmadaliyev, Y. I., & Mamadalievich, X. A. (2021). Geocological and Farm Stress Level (on the Example of Khojaabad District). *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(04), 169-174.
5. Ahmadaliyev, Y. I., & Mamadalievich, X. A. (2021). Changes in the Natural Composition of the Land Fund and Its Protection (on the Example of Khojaabad District). *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(04), 165-168.



6. Ismoilovich, A. Y., & Erkinovich, M. A. (2022). THE USE OF HYDRONICS IN THE STUDY OF CHANGES OCCURRING IN THE PROCESS OF WATER USE. *PEDAGOGS jurnali*, 10(1), 148-154.
7. Isomiddinovich, A. O. (2018). Comparative analysis of the protected natural territories of the Republic of Uzbekistan and the international Union of nature protection. *European science review*, (9-10-1), 67-70.
8. Isomiddinovich, A. O., & Yigitaliyevich, X. R. (2021). Territorial Structure and Stability of Ecological Framework. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 29(2), 462-467.
6. Олимжон Исомиддинович Абдуғаниев, Турсуной Дилмуродовна Комилова, & Муҳаммадюсуф Темурхон Ўғли Мухториiddинов (2022). УРБАНИЗАЦИЯЛАШГАН ХУДУДЛАРНИНГ ЭКОЛОГИК ОЛАТИНИ БАҲОЛАШДА ГАТ-ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МЕТОДЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (5), 757-765.
9. Абдуғаниев, О. И. (2022). ЛАНДШАФТ ВА БИОЛОГИК ХИЛМА-ХИЛЛИКНИ ГАТ-ТАХЛИЛ АСОСИДА БАҲОЛАШ. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(1), 53-58.
10. Равшан Топволдиевич Пирназаров, & Тоҳирбек Салим Ўғли Собиров (2022). ИҚЛИМ ЎЗГАРИШ ШАРОИТИДА СУВГА БЎЛГАН ТАЛАБЧАНЛИКНИНГ ОРТИШИ ВА УНИНГ ЕЧИМЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (5), 404-408.
11. Абдувалиев, А. Ҳ., & Парпиева, Г. М. (2022). ФАРҶОНА ВОДИЙСИДА АҲОЛИНИНГ ЕР БИЛАН ТАЪМИНЛАНГАНЛИК ДАРАЖАСИ ВА УНИНГ АҲОЛИ ЗИЧЛИГИГА ТАЪСИРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(4), 1174-1183.
12. Abduvaliyev, N. A. A., Namdamova, F. A. Q., & Eraliyev, Z. Z. Q. (2021). LANDSHAFT OMILI ASOSIDA AHOLI HUDUDIY TAKRIBINI TAKOMILLASHTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 1219-1223.
13. Холиков, Р., & Кўчқаров, О. (2021, August). BASIC PRINCIPLES OF URBAN EKOLOGICAL TERRITORIAL ORGANIZATION OF URBAN DEVELOPMENT: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1326>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).
14. Holikov, R., & Qo'chqarov, O. (2021, July). BASIC PRINCIPLES OF URBAN EKOLOGICAL TERRITORIAL ORGANIZATION OF URBAN DEVELOPMENT. In *Конференции*.

15. Muhitdinov, I. (2022). O'ZBEKISTONNING KO'LLARI VA SUV OMBORLARI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(2), 261-263.
16. Zarifjon o'g'li, M. Z., & Ihtiyorjon o'g'li, M. I. (2022). FARGONA VODIYSINING IQLIMI VA YOGINLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 2(1), 49-52.
17. Mamatisakov, J. J. O. G. L., & Muhitdinov, I. I. O. G. L. (2021). PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF ECOTOURISM IN THE PROTECTED NATURAL AREAS OF FERGANA REGION. *Scientific progress*, 2(3), 986-989.
18. Topvoldievich, P. R., & Ugli, M. I. I. Hydrological Description of Some Small Mountain Rivers in the Fergana Valley. *JournalNX*, 6(12), 264-267.
19. Jahongirmirzo Jamoliddin, O. G. (2021). 'Li Mamatisakov, Ilhomjon Ihtiyorjon O'g'li Muhitdinov, Ablazbek Erkinjon Ogli Madraximov PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF AGRICULTURAL TOURISM IN FERGANA REGION. *Scientific progress*, 8.
20. Khikmatov Bekzod Fazliddinovich, & Pirnazarov Ravshan Topvoldievich (2018). Calculation of the outbreak discharges through a closure channel with trapezoid shape of cross-section. *European science review*, (7-8), 51-53.
21. Равшан Топволдиевич Пирназаров, & Тоҳирбек Салим Ўғли Собиров (2022). ИҚЛИМ ЎЗГАРИШ ШАРОИТИДА СУВГА БЎЛГАН ТАЛАБЧАНЛИКНИНГ ОРТИШИ ВА УНИНГ ЕЧИМЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (5), 404-408.
22. Mahkamov, E. (2021, August). GEOGRAPHICAL DISTRIBUTION OF MEDICAL PLANTS OF THE FERGANA VALLEY, RECREATION POSSIBILITIES AND GEOECOLOGICAL ASPECTS OF THEIR PROTECTION: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1414>. In *RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES* (No. 18.06).
23. Elyorjon G'ayratovich Mahkamov, & Dilafruz Baxromjon Qizi Karimqulova (2021). EKOTURISTIK MARSHRUTLAR VA ULARNI ISHLAB CHIQUISH USULLARI. *Academic research in educational sciences*, 2 (12), 1137-1140.
24. Dehkanbayeva, M. N. (2019). TERRITORIAL LOCATION AND FUNCTION OF SACRED LANDSCAPES (FERGANA REGION). *Экономика и социум*, (11), 919-921.
25. Muhitdinov, I. I. (2021). Kichik tog'daryolari oqiminig shakllanishida meteorologik omlarning roli (Farg'ona vodiysining janubiy qismi misolida). *magistrlik dissertatsiyasi.-Farg'ona*, 87.

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TARKIBIDAGI ELEMENTLARNING TIRIK ORGANIZMLAR UCHUN AHAMIYATI

Mashkura Omon qizi Bexudova

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shaxrisabz filiali

mashhurabehudova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Oziq-ovqat texnologiyasi amaliy xarakterga ega fan sohasi bo'lib, ovqatlanish mahsulotlari ishlab chiqarish usullarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Zamonaviy oziq-ovqat sanoati o'ziga xos ajoyib texnologiya, jihoz va uskunalarga ega o'nlab tarmoqlarni qamrab oladi. Bu tarmoqlarning korxonalarida don, un, yorma, omixta yem, non, makaron, qandolat, moy va yog'lar, shakar, go'sht, sut, konservalangan mahsulotlar, spirt, pivo va inson ovqadanishi uchun zarur bo'lgan boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarilmoqda

Kalit so'zlar: Foydali oziq-ovqat mahsulotlari, dukkaklilar, dengiz mahsulotlari, sabzi, avakado, mineral o'g'itlar, nitrat, nitrit,

ABSTRACT

Food science is an applied branch of science that deals with the study of food production methods. The modern food industry receives dozens of products with their own amazing technologies, equipment and equipment. With the participation of these enterprises, grain, flour, cereals, compound feed, bread, pasta, confectionery, oil and fat, sugar, meat, dairy, canned products, alcohol, beer and other food products necessary for human consumption are produced.

Keywords: Useful food products, legumes, seafood, carrots, avocado, mineral fertilizers, nitrate, nitrite,

KIRISH

Zamonaviy oziq-ovqat texnologiyasi amalda barcha fundamental fanlarga tayanadi. Xomashyoni qayta ishlash, tayyor mahsulotga aylantirish kabi murakkab jarayonlar fizika, kimyo, biokimyo, mikrobiologiya va boshqa fanlar qonuniyatlariga asoslangan. Bu sohalardan chuqur bilimlarga ega bo'lgan kishi haqiqiy bilimdon texnolog bo'lishi mumkin.

Istalgan xossalarga va shaklga ega mahsulotni eng arzon narxda ishlab chiqarish juda maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, bu



oziq-ovqat mahsulotlariga taalluqli. Demak, texnologiya iqtisodiyot bilan hamchambarchas bog'liq.

Sog'lomlikning asosi - sport, kerakli miqdordagi suvni har kuni iste'mol qilish va sog'lom va tabiiy mahsulotlarni o'z ichiga olgan to'g'ri tanlangan parhez. Olimlar va dietologlarning fikriga ko'ra, quyidagi mahsulotlar tana uchun eng foydali o'ntalikka kiradi va ayollar va erkaklar uchun mos keladi.



Dengiz baliqlarida rekord miqdorda Omega-3, Omega-6 va temir mavjud. Ushbu elementlar xolesterinni normallashtirishga, yurak xuruji xavfini kamaytirishga yordam beradi, gematopoezda ishtirok etadi, soch holatini yaxshilaydi, xotira yo'qolishining oldini oladi va hatto saratonning ayrim turlarini oldini oladi. Baliq, go'sht kabi, oqsillar, yog'lar va minerallarni o'z ichiga oladi, lekin organizm tomonidan osonroq so'riladi. Qizil ikra ayniqsa foydali deb hisoblanadi, u ozuqa moddalarining maksimal miqdorini o'z ichiga oladi. Keyingi o'rinlarda orkinos, skumbriya va seld - 8% dan ortiq yog'. Ular haftasiga 1-2 marta iste'mol qilinishi kerak.

Sarimsoq tarkibiga muhim moddalar - kaliy, kaltsiy, fosfor, B va C vitaminlari, selen, marganets, yod va efir moylari kiradi.

Mahsulotning shifobaxsh xususiyatlari:

- immunitet tizimi va miya faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi;
- ichakdagi patogen mikrofloradan xalos bo'lishga yordam beradi;
- ovqat hazm qilishni yaxshilaydi va metabolik jarayonlarni tezlashtiradi;
- yomon xolesterin darajasini pasaytiradi, qon pıhtılarının va yurak xurujining -shakllanishiga to'sqinlik qiladi;
- hujayralarning g'ayritabiiy rivojlanishini qo'zg'atadigan erkin radikallarni tanadan olib tashlash orqali saraton rivojlanishining oldini oladi;
- jigar va o't pufagi kasalliklariga yordam beradi - safroni suyultiradi, shu bilan toshlar paydo bo'lishining oldini oladi;
- genitouriya tizimidagi yallig'lanish jarayonlarini yo'q qiladi;

-bolalarda gelmintozning oldini olish va davolash usuli sifatida ishlatiladi.
Maksimal ta'sirga erishish uchun sarimsoqni xom ashyoni iste'mol qilish kerak.

Yashil choy



Yashil choy eng foydali va to'yimli mahsulotlarning yuqori qismida etakchi hisoblanadi. Bu kuchli tabiiy antioksidantlar - polifenollarning yuqori miqdori bilan bog'liq. Ushbu moddaning alohida navi yashil choyning bir qismi bo'lgan katexinlardir. Ular hujayralarga ta'sir qiluvchi va kasallik va qarishning sababi bo'lgan erkin radikallarni olib tashlaydi.

Shuningdek, sog'lom ichimlik tarkibiga A, C, B, K, P, F vitaminlari va iz elementlari kiradi. Ular soch, terining salomatligini, asab tizimining faoliyatini yaxshilaydi, qon shakar darajasini tartibga soladi va qon tomirlarini mustahkamlaydi, buyraklar va metabolizmning ishlashiga yordam beradi. 20 turdagi aminokislotalar va glutamik kislota miyani rag'batlantiradi va asab tizimini tiklaydi. Kofein va L-teanin ohangni oshiradi va teobromin diuretik ta'sir ko'rsatib, vazn yo'qotishga yordam beradi.

Avokado



Meva pulpasida ko'plab minerallar (kaltsiy, fosfor, temir, yod va boshqalar), vitaminlar (B, E, A, F, C guruhleri, foliy kislota), tolalar va to'yingan yog'lar mavjud. Avakado to'yinmagan yog'li kislotalar tufayli ozuqa moddalarining so'rilishini tezlashtiradi, vazni normallantiradi, xolesterin va qon shakarini kamaytiradi. Ushbu mahsulot yurak-qon tomir tizimi va oshqozon-ichak trakti kasalliklari bo'lgan odamlar uchun tavsiya etiladi. Yuqori tolali tarkib tufayli meva, ayniqsa, ich qotib qolishga moyil bo'lganlar uchun foydalidir, chunki xun tolasi ichak sog'lig'ini yaxshilaydi va foydali bakteriyalar uchun ko'payish zaminidir.

Sabzi



Bu qimmatli oziq moddalar manbai bo'lgan noyob sabzavotdir. Sabzi tarkibidagi va tanani sog'lom bo'lishiga imkon beradigan asosiy komponentlar:

Keratin - reproduktiv organlar va ko'rishni normallantiradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ko'p miqdorda sabzi iste'mol qilgan odamlarda yoshi bilan tungi ko'rlikning rivojlanish xavfi 40% ga kamayadi.

Biotin - hujayra o'sishi va yangilanishiga yordam beradi.

Pantotenik va foliy kislotalari yog'lar va uglevodlarni parchalashda, qizil qon tanachalari va jinsiy gormonlar ishlab chiqarishda, xolesterin sintezida ishtirok etadi.

C, B1, B2, B3, E, K va PP vitaminlari - immunitet tizimining faoliyatini yaxshilaydi.


Fitonsidlar - bu bakteriyalar va viruslarning ko'payishini inhibe qiluvchi tabiiy antibiotiklar.

Efir moylari - ovqat hazm qilishni yaxshilaydi, immunitet tizimini mustahkamlaydi, tanani tozalashga yordam beradi, yurak-qon tomir tizimini qo'llab-quvvatlaydi.

Minerallar: kaliy, magniy, sink, kaltsiy va yod - qon aylanishini yaxshilaydi va yurak-qon tomir tizimiga yukni kamaytiradi. Bu tananing normal ishlashi uchun asosiy yordamchilardir. Ular tananing o'zi tomonidan ishlab chiqarilmaydi va faqat oziq-ovqat orqali keladi.

Sog'lom yurak va qon tomirlari, kuchli immunitet, ovqat hazm qilish tizimining yaxshi ishlashi, saraton rivojlanishining oldini olish, sog'lom teri, ko'zlar, tishlar va milklar - sabzi foydali xususiyatlarining ro'yxati cheksizdir.

Dukkaklilar



Fasol, no'xat va yasmiq tarkibida ko'p miqdorda o'simlik oqsili mavjud, shuning uchun ular inson salomatligi uchun eng foydali 10 ta oziq-ovqat tarkibiga kiritilgan. Oziq-ovqatlarda loviyadan foydalanish xolesterin darajasini normallashtirishga va qon bosimini pasaytirishga yordam beradi. Ushbu mahsulotdan tayyorlangan idishlar yurak kasalliklari, diabet, osteoporozning oldini olish uchun javob beradi. Shuningdek, ular tanani samarali tozalaydi va ichaklarni rag'batlantiradi, ochlikni tezda qondiradi va energiya beradi. Dukkaklilar B va A vitaminlari, uglevodlar va oqsillarga boy, ko'p miqdorda tolaga ega. Ushbu kompozitsiya suyak to'qimalarining holatini yaxshilashga yordam beradi, gormonal darajasini yaxshilaydi, qarish jarayonini sekinlashtiradi, miya faoliyatini yaxshilaydi.

Qishloq xo'jaligiga yaroqli erlarning katta qismi allaqachon dunyoning deyarli barcha mintaqalarida ekilgan. Bu shuni anglatadiki, kelajakda oziq-ovqat xavfsizligini oshirish asosan o'stirilgan tuproqlarda qishloq xo'jaligini intensivlashtirish bilan bog'liq bo'ladi, bu esa yuqori hosilni saqlash uchun o'g'itlarni qo'llash amaliyotini davom ettirishni nazarda tutadi.

Agar hozirgi tendentsiyalar davom etsa, 2050 yilga borib, prognozlarga ko'ra, azotning jahon iste'moli bugungi kunga nisbatan 2,7 barobar, fosfor esa 2,4 barobar oshadi; boshqa hisob-kitoblarga ko'ra, o'g'itlardan foydalanishning o'sishi kichikroq bo'ladi, yiliga taxminan 1%ni tashkil qiladi.

Oziq moddalarning kamayishi nafaqat tuproq unumdorligini pasaytirdi, balki erning degradatsiyasiga ham olib keldi, chunki organik moddalarning kamayishi suvni ushlab turish qobiliyatining pasayishiga, tuproqning jismoniy etukligi va fizik tuzilishining pasayishiga olib keladi va eroziyaga moyilligini oshiradi. Oziq moddalar va organik moddalarning yo'qolishi hosildorlikning asta-sekin kamayib borishi, organik moddalarning kirib kelishini yanada kamaytiradi va tuproq degradatsiyasini oshiradi.

Dunyoning ko'plab mintaqalarida, jumladan, Sahroi Kabirdan janubiy Afrikada (Saxaradan janubda joylashgan Afrika - 48 mamlakat) va Lotin Amerikasining ba'zi qismlarida o'g'itlardan jiddiy foydalanmaslik yoki muvozanatsiz foydalanish ozuqa moddalarining kamayishiga va azot, fosfor va minerallarning olib tashlanishiga olib keldi.

Mahsulot sifati

Mineral o'g'itlar ta'sirida mahsulotlarning tez o'sishi va pishishining salbiy tomoni bor - ular sifatining yomonlashishi. Bu sabzavot tarkibidagi uglevodlar miqdorining pasayishi va xom protein miqdorining oshishi bilan namoyon bo'ladi. Kartoshkada kraxmal miqdori kamayadi, donli

ekinlarda esa aminokislotalarning muvozanati buziladi. Mahsulotlarning saqlash muddati ham qisqaradi.

O'zingizni nitratlardan qanday himoya qilish kerak?

Siz tushunishingiz kerakki, ma'lum miqdorda nitratlar tanaga zararli emas va hatto u tomonidan foydali birikmalarga qayta ishlanishi mumkin. Ammo nitratlarning haddan tashqari ko'pligi muqarrar ravishda nitritlarga aylanadi va noxush oqibatlariga olib keladi. Shuning uchun, organik mahsulotlar, siz iste'mol qilinadigan nitratlar miqdorini kamaytirishga yordam beradigan qoidalarga rioya qilishingiz kerak.



Agar turli sabzavot va mevalardagi nitratlar miqdori haqida gapiradigan bo'lsak, unda ularning ko'pchiligi lavlagida to'planadi. Maydanoz va piyozda kamroq nitratlar uchraydi. Va pishgan pomidor, qizil va qora smrodina umuman uchramaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi mineral moddalar o'simlikning o'sishiga, hosilning unumdor bo'lishiga xizmat qilishi bilan bir qatorda inson organizmi uchun qator zararli oqibatlarni keltirib chiqarar ekan.

Bugungi kunda barcha oziq-moddalar tarkibida kimyoviy elementlar ko'payib ketayotganligi sababli insoniyat immuniteti zararli elementlar bilan kurashmoqda. Natijada organizm turli xildagi virusli kasalliklarga chalinishi kuzatilmoqda. Bu kasalliklarni oldini olish uchun oziq-ovqat tarkibiga ahamiyat berish, yarim tayyor ovqatlar hamda energetik ichimliklardan voz kechish lozim. Shundagina kelajak avlod sog'lom bo'lib tug'iladi.

REFERENCES

1. M. G'. Vasiyev, Q. O. Dadayev, I. B. Isaboyev, Z. Sh. Sapayeva, Z. J. G'ulomova "Oziq-ovqat texnologiyasi asoslari" Toshkent "Voris-nashryot"2012
2. "Makaraon mahsulotlari texnologiyasi" Ravshanov S.S.Mirzayev J.D. Toshkent-2020, 260 b.
3. Т.Худоушукуров, В. Атоев, М.Р.Мухторова «Научно-теоритический основы технологии производства продукции на предприятиях общественного питания » МКИ 1981 йил, 224 с,
4. "Cavity Ring-Down Spectroscopy" – Martyn D. Wheeler, Stuart M. Newman, Andrew J. OrrEwing and Michael N. R. Ashfold, J. Chem. Soc. Faraday Trans., 1998, 94(3), 337-351.
5. Antidepressant-Like Activity of Sonchus oleraceus in Mouse Models of Immobility Tests. //Journal of Medicinal Food. 2010, 13(1): -p. 219-222
6. к.х.н., доцент К.Б. Бажыкова.Казахский национальный университет имени аль-Фараби, г. Алматы
ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ КОРНЕЙ SONCHUS OLERACEUS L
7. <https://greenbelarus.info/articles/29-06-2016/udobreniya-i-pesticidy-kogda-produkty-stanovyatsya-yadom>
8. <https://www.zerno-ua.com/journals/2015/iyun-2015-god/vliyanie-udobrenij-na-okruzhayushhuyu-sredu-i-bezopasnost-pishhevyh-produktov/>
9. <https://www.unep.org/ru/novosti-i-istorii/istoriya/udobreniya-problemy-i-resheniya>

HIND TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY USUL VA METODLARDAN FOYDALANISH

Muhayyo Furqatovna Turdioxunova
Toshkent shahar Olmazor tumanidagi
24-IDUM hind tili o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ixtisoslashtirilgan umumta'lim muassasalarida hind tilini o'qitish jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy usul va metodlardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari, o'quvchilarning hind tilini o'rganishida asosiy rol o'ynaydigan usullar haqida fikr mulohazalar bildirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Metod, texnologiya, ko'nikma, zamonaviy, innovatsion, lug'at, interfaol, kommunikativ, so'z boyligi.

ABSTRACT

In this article, the specific aspects of the use of modern methods and methods used in the process of teaching the Hindi language in specialized educational institutions, and the methods that play a key role in the students' learning of the Hindi language, are discussed. raised

Keywords: Method, technology, skill, modern, innovative, vocabulary, interactive, communicative, vocabulary.

KIRISH

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi ta'limning ajralmas qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Turli sohalardagi mutaxassislarda chet ellik hamkorlar bilan hamkorlik qilish ko'rsatgichi yuqori bo'lganligi sababli, ularda til o'rganishga bo'lgan talab yuqoridir. Zamonaviy jamiyatda chet tillari kasbiy ta'limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Bunday bilimlarni insonlar dastlab maktab, litsey, keyinchalik oliy ta'lim muassasalarida, o'quv kurslarida yoki mustaqil ravishda xorijiy tilni o'rganishga yordam beruvchi asosiy ma'lumot to'plamlari bilan tanishgan holda o'rganadilar. Bugungi kunda turli darajadagi til bilimiga ega kishilar uchun o'quv materiallarining katta to'plamlari mavjud. Ushbu maqsadga yetishishda muvaffaqiyatga erishish, o'qituvchilarning amaliy uslublari va malakasiga bog'liq. Axborot texnologiyalari va zamonaviy o'qitish uslublaridan foydalanish qobiliyati yangi materiallarni tezkor tushunishga yordam beradi. Turli usullarni birlashtirib o'qituvchi muayyan

ta'lim dasturlarini yechishga qodir bo'ladi. Shu munosabat bilan o'qituvchilar xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy usullari bilan tanishishlari kerak. Natijada maqsadlariga erishish uchun eng samarali usullarni tanlay bilish ko'nikmalari shakllanadi. Bunda o'qitish va o'rganishning bir necha metodlaridan foydalanish samarali natija beradi. O'qitish kichik bosqichlarda amalga oshiriladi va o'quvchining mavjud bilim tizimiga asoslanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hind tilini o'rgatishda o'rganuvchining salohiyat va darajasi, yoshidan kelib chiqqan holda bosqichma-bosqich o'rgatish yaxshi natija beradi. Bunda o'quvchilar boshlang'ich bosqichda o'qitish, o'rta bosqichda o'qitish, yuqori bosqichda o'qitish asosida guruhlariga bo'linadi. Har bir bosqich uchun o'qituvchi tomonidan maxsus dastur ishlab chiqiladi.

Boshlang'ich bosqichda talaffuzga muhim e'tibor beriladi. O'quv jarayonining boshlanishida o'qituvchi asosiy e'tiborini o'quvchining talaffuziga qaratishi kerak. Grammatika va lug'at asosiysi hisoblansada, ma'ruzachi talaffuzi noto'g'ri bo'lsa, buning hammasi befoyda hisoblanadi. Shuning uchun o'qitishda dastavval asosiy e'tibor talaffuzga qaratiladi. Bunda turli xil audiolardan foydalanish yaxshi natija beradi. O'qituvchi dars davomida harflar, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatishi kerak. Shuningdek, boshlang'ich bosqichda og'zaki nutqqa va o'qish texnikasini o'stirishga katta e'tibor beriladi. Bunda chet tilini o'qitishning nutq faoliyati turlari bo'yicha ko'rib chiqadigan bo'lsak, ularni o'rgatishda quyidagi vazifalarni bajarish zarur:

- o'qish mexanizmini hosil qilish;
- og'zaki o'qish texnikasini o'stirish;
- o'qiganni tushunishga o'rgatish.

Boshlang'ich bosqichda o'qishning asosan ovoz chiqarib o'qish turiga keng o'rin ajratiladi. O'qish uchun ajratilgan matnlar ham eng sodda va oddiydan asta-sekin murakkablashib boradi. Lekin shuni aytish kerakki, boshlang'ich bosqichlardagi ish faoliyati asosan og'zaki nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishiga qaramay hind tilida og'zaki nutqni o'stirish masalasini hal qila olmaydi. U haqiqiy og'zaki nutq ustida ishlash uchun faqat tayyorgarlik bosqichini o'taydi. Qolaversa, so'zlarni chiroyli va ravon o'qish o'quvchining shu tilni o'rganishga bo'lgan muhabbatini oshiradi.

Hind tilini o'rganishning o'rta bosqichida asosiy e'tibor ko'proq hajmdagi matnlarni o'qib tushunishda fikrlashni, nutq faoliyatini, tashabbuskorlikni oshirishga yordam beradigan

usullardan foydalanish kerak. O'quvchilarga uy vazifasi sifatida matnlar berib boriladi. Matnni tushunganligini tekshirish uchun turli xil savollar beriladi. Savol – javob mashqlaridan foydalangan holda nutqni kuchaytirish, xotirasini yaxshilash, takrorlash natijalariga erishiladi. Savol – javob natijasida o'sha so'zlarning xotirada takrorlanishi hamda nutqda qo'llay bilish ko'nikmalari shakllanadi.

Bundan tashqari dars jarayonlarida turli xil o'yinlardan hamda metodlardan foydalanib, o'quvchilarni til o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttirib, til o'rganish sur'atini oshirish mumkin.

1) Muammoli vaziyat yechimi – bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi. Qanday yakun topishi o'quvchilar hukmiga havola qilinadi;

2) Quvnoq topishmoqlar – o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish chet tillarini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar;

3) Tezkor javob – o'tilgan dars samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega;

4) Pantomima – bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, o'quvchilar charchagan paytda foydalansa bo'ladi;

5) Hikoya zanjiri – usuli o'quvchilarning o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishga yordam beradi. Mazkur usulda o'quvchilar hikoyalarni hind tilida galma-galdan aytib hikoyani davom ettiradilar;

6) Allomalar yig'ini – mazkur metodda allomalar aytib ketgan hikmatli so'zlardan foydalanilgan holda dars o'tiladi. Bu ham o'quvchilarning hind tilini o'rganishida asosiy rol o'ynaydi;

7) Rasmlar so'zlaganda – usuli ancha qulay bo'lib, hind tilini o'rgatishda, o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim.

Hind tili darslarining o'qitilishida turli rolli, harakatli o'yinlardan foydalanish ham darsga ham til o'rganishga bo'lgan qiziqishni ortishiga sabab bo'ladi. O'quvchilarning juft yoki kichik guruhlarda ishlashlari orqali esa o'quvchilarning boshqalar bilan kommunikativ aloqa qilishlari uchun yordam beradi.

Hind tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'qitish va o'rganish ham eng samarador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan;

-kompyuterdan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni, kin ova multfilmlarni ham ko'rishi va eshitishi mumkin;

- chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniya dasturlarini eshitish va tomosha qilish mumkin;
- ancha an'anaviy usul bo'lgan magnitofon va kassetalardan foydalanish.
- CD playerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning hind tilini o'rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi.

Ko'rib chiqqanimizdek, har bir innovatsion texnologiya o'ziga xos afzallik jihatlarga ega. Bu usullarning barchasida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik, o'quvchining ta'lim jarayonidagi faol harakati ko'zda tutiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, chet tili darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar o'quvchida bilim olishga bo'lgan ishtiyoqni uyg'otadi va rivojlantiradi. O'quvchi darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi. Bu esa o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol sub'ektiga aylantiradi.

REFERENCES

1. Отабекова М.Р. Молодой учёный. Номер 4 (138) Январь 2017
2. Муминова Ф.М. Молодой учёный. Номер 18 (308) Май 2020
3. Zaripova F, O'rinova S. Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish. Marifatyogdusi.uz. 19.05.2021
4. J.Jalolov. Chet tilini o'qitish metodikasi. Toshkent 2012-yil.

UBAYDULLAXON-YASSAVIYNING MUNOSIB IZDOSHI

Barnoxon Murodova
Mustaqil izlanuvchi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Shayboniylarning yirik vakili Ubaydiy taxallusi bilan she'rlar yozgan Ubaydullaxonning Ahmad Yassaviy boshlab bergan hikmatnavislik an'anasining munosib davomchisi ekanligi, mohit xattot, zullisonayn shoirligi ochib berilgan. Shuningdek, Ubaydiy "Hikmatlar"ining ikki qo'lyozmasi haqida ham ma'lumotlar mavjud.

Kalit so'zlar: hikmat, Yassaviy, qo'lyozma, Shayboniylar, zullisonayn, xattot, nasx, "Kulliyot", Ubaydiy.

ABSTRACT

In this article it is revealed that the great representative of the Shaybanites, Ubaidulah Khan, who wrote poems under the pseudonym Ubaydi is a worthy follower of the wisdom tradition started by Akhmad Yassavi, a skilled calligrapher and brilliant poet. There is also information about two manuscripts of Ubaid's wisdom.

Keywords: wisdom, Yassavi, manuscript, Shayboni, nasx, bilingual, calligrapher, nasx, Kulliyot, Ubaydi.

KIRISH

Sharq she'riyatidagi eng qadimiy janrlardan biri hikmat deb atalgan. Lug'atlarda yozilishicha, hikmat deb fikrlash malakasining o'rta holda bo'lishi; tadbiiq ila amalga oshuvchi, tajriba bilan erishiladigan to'g'ri bilim; hamma narsaning eng mukammali; hikmat-falsafa, sirli va maxfiy kalima, aql-u haqiqatga to'g'i kelgan nozik ma'noli qisqa so'z, masal; bilimdonlik, donishmandlik; aql, so'z va harakatdagi uyg'unlik; insonning mavjudot haqiqatlarini fahmlab, xayrli ishlarni qilish sifati, ashyoning ahvolidan, tashqi va ichki kayfiyatlaridan so'z yuritish kabi ma'nolarini aks ettiradi». [1. B. 10-11]

Hikmat so'zi Qur'onda turli ma'nolarda ifodalangan. Masalan, ba'zi oyatlarda pand-nasihat, Qur'on sirlaridan xabardor bo'lish kabi ma'nolarni bildirsa, boshqa oyatlarda ilm-u farosat, nozik

fahmlash va nubuvvat salohiyati singari ma'nolarda o'z ifodasini topgan. [2. B. 2-11]

Mashoyihlarning aytishicha, hikmat sharafli odamning sharafini orttiradi, chunki qimmatbaho toshlardan afzal bo'lgan va o'lchov, mezonga sig'maydigan hikmat eshigi qalbda mujohada, muroqaba, teran tafakkur, huzur, xilvatda zikr va mosivoni tark ila Haqqa tavajjuli orqali ochiladi. Zotan, kashfning manbayi, ilhomning kaliti ham hikmatdir.[3. B. 67-68]

Shularga asoslanib hikmatlar zamirida katta yashirin ma'no jamlagan, o'ta donishmandlik bilan bitilgan va nazmiy tartibga solingan, ifodasi hamda o'qilish ohangi bilan xalq og'zaki ijodiga yaqin turadigan she'riy asar deyish mumkin.

Turkiyada esa bu kabi she'rlarni "ilohiy"deb yuritiladi. Xoji Bektosh Valiy esa "nafas" deya atagan. Mana shunday chuqur falsafiy mazmunga ega to'rtliklarga "ma'niy" ham deyilgan. "Ma'niy" ma'noga ega degan ma'noni bildiradigan janr bo'lib Qozi Burhoniddin uni "tuyuq" deydi. Hikmat esa mantiqqa, e'tiqodga, ilm-u irfonga muvofiq so'z bo'lib, u kishidan ulkan iste'dodni talab qiladi. Qur'oni Karimda ham "Bir insonga hikmat (aytish qobiliyati) berilgan bo'lsa, unga juda ulug' xayr-ezgulik berilibdi demakdir" (Baqara, 269) deyiladi.[2. B. 36]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Hikmat aytish Allohning buyuk mukofotidir. Mana shunday hikmatomuz haqiqatlarni aytgan mutasavvuflardan biri Ahmad Yassaviydir. Hikmatnavislikda Yassaviy an'alarini davom ettirgan mutasavvuf ijodkorlar ko'p bo'lgan. Xoja Ahmad Yassaviydan keyin turkiy she'riyatdagi yangi yo'nalish-hikmatnavislikka asos solindi. Bu an'ana tasavvufiy yo'nalishda bo'lib, bu ishning boshida turgan va uning dastlabki tashabbuskorlaridan biri

Sulaymon Boqirg'oniidir.

Xususan, yassaviyshunos shoirlar haqida maqolalar tayyorlagan olim Maryam Eshmuhamedova Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyida 178-raqam ostida saqlanayotgan qo'lyozmada Yassaviy hikmatlari bilan bir qatorda uning maktabi shoirlari: G'arib Adham, Shams, Qul Sharif, Qul Sulaymon, Xolis, Miskin Qosim, Qul Temuriy, Bahouddin, Ne'matulloh, Qul Ubaydiy, Qul Zohid, Sohib Nazar, Zangi Qul, Tolib, G'izoliy, Jabbor, Sayyidiy, Shayx Jamoliy, Faqiriy, Muhammad Darvesh, Shayx Naziriy va mumtoz adabiyotimiz vakillarining turkiy va forsiydagi she'rlari o'rin olganligini ta'kidlaydi.[4]

Shayboniyxonning Movarounnahrga kirib kelishi va badiiy ijod bilan shug'ullanishlari tufayli Yassaviy shaxsiyatiga va ijodiyotiga qiziqish jonlanibgina qolmasdan, uning hikmatnavislik an'alarini davom toptirish tamoyili ham boshlanib ketdi. Bu harakatning boshida Muhammad Shayboniyxonning o'zi turardi. Uning devonidagi hikmatlar, ayniqsa, Yassaviy shaxsiyati madh etilgan she'rlari ushbu fikrni tasdiqlashga qodirdir. Shayboniyning hikmatlari son jihatidan unchalik ko'p emas, ammo ular Yassaviy va uning hikmatnavislik yo'liga e'tiborini jalb etish nuqtayi nazaridan, albatta, xarakterli. Uning munosib shogirdi bo'lgan Ubaydiy ham hikmat yozishga jiddiyroq kirishib, yanada yaxshi ijodiy yutuqlarga erishdi.

U hikmatlarining tarkibida bo'lgan madhiyasida A.Yassaviy haqida shunday deydi:

*Barcha mashoyix sarvari Xoja Ahmad Yassaviy,
Sonsiz muridlar rahbari Xoja Ahmad Yassaviy,
Xizr otaning hamrahi, ogohlarning ogahi,
Doim, «ilohe», - «ilohe» Xoja Ahmad Yassaviy,*

Ubaydullaxon عبيدي taxallusi bilan uch tilda ijod qilgan zullisonayn shoir. Uning ديوان عبيدالله asari zamonasining mashhur xattotlari tomonidan ko'chirilgan. A.Fitrat «Qul Ubaydiy», «Ubaydiy», «Ubaydullo» taxalluslari bilan hikmatlar yozg'on bu odam bizning fikrimizcha, mashhur o'zbek xoni Ubaydulloxondan boshqa kishi emas», deydi. Darhaqiqat, A.Fitrat taxminda yanglishmagan va keyinchalik Ubaydullaxonning Buxorodan topilgan devoni uning fikrlari to'g'riligini to'la tasdiqlagan edi.

Ubaydiyning hayoti va ijodi, adabiy faoliyati bilan qiziqish uning hayotlik chog'laridanoq boshlangan. Fazlulloh ibn Ro'zbekxonning "Mehmonnomai Buxoro", Zayniddin Vosifiyning "Badoye u-vaqoye", Mirzo Haydarning "Tarixi Rashidiy", Mahmud ibn Valining "Bahr ul-asror", Sayyid Roqimning "Tarixi Roqimiy", Kamoliddin Binoiyning "Shayboniyнома", Hasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkir ul-ahbob", Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma", Faxri Hirotiyning "Ravzat us-salotin", Mutribiyning "Tazkirat-ush shuaro", Muhammad Yusuf Munshiyning "Tarixi Muqimxoniy", Sharofiddin Roqimning "Tarixi tomm", Mahdumi A'zamning "Tanbiyat us-salotin" kabi asarlari va tazkiralarda Ubaydiyning hayoti, ijtimoiy-siyosiy va adabiy faoliyatiga doir fikr-mulohazalar va ma'lumotlar qoldirilgan. Shuningdek, uning she'rlariga Asomiddin Ibrohim va Maxdumi A'zamlar tomonidan sharhlar bitilgan.

XX asr 20-yillariga kelib esa Ubaydiyning tarjimai holi va she'riyati bilan qiziqish boshlangan va keyinchalik

qisman davom etgan. Bu o'rinda professor Abdurauf Fitrat, Olim Sharofuddinov, A.Ibrohimov, Suyima G'aniyevalarning ayrim qaydlari va matnshunoslik ishlarini eslash mumkin.[5. B. 117]

Abdurauf Fitrat "Ahmad Yassaviy maktabi shoirlari to'g'risida tekshirishlar", "XVI asrdan so'ng o'zbek adabiyotiga bir qarash" maqolalarida Ubaydiy xususida fikr yuritadi. Olim Sharofiddinov "O'zbek adabiyoti" tadqiqotida XVI asr so'z san'ati to'g'risida to'xtalib sovet mafkurasi talablaridan kelib chiqqan holda o'sha davrda Ubaydullaxon, Abdulazizxon kabi xonlar ijodiga nisbatan ikkinchi darajali shoirlar sifatida baholaydi.

Ubaydiyning xattotlikdan ham xabari bo'lib, ayniqsa, nasxda hammadan yaxshi yozardi. "Kalomulloh" dan bir nusxa ko'chirib Makkayu Madinaga ham jo'natgan. Hasanxo'ja Nisoriy Ubaydiy shaxsiyatiga baho berib "Fazilatlarining eng yaxshi ko'rsatkichlaridan biri-Qur'on mutolaa va qiroatini osonlashtirish uchun turkiy tilde yozgan tafsirikim, dalillari suyaniladigan asosda bitilgan".[6. B. 34-35]

Tadqiqotim uchun ma'lumotlar izlayotganimda "Buxoro xattotlari" telegram kanalida "Nosfurushtan olingan kitob" sarlavhali xabarga ko'zim tushdi. Unda 1947 yilning bahor oylarida Buxoro bozorida yurgan yosh tadqiqotchi Saidjon Aliyev nos sotayotgan odanning oldida ikki-uch kitob taxloliq turganini ko'rib qoladi. Nosfurushtan chaqqonlik bilan o'sha kitoblardan varaq yirtib nos o'rab xaridorga uzatardi. Tadqiqotchi ijizat so'rab kitoblarni varaqlab ko'radi. Muqovasi qalin, zarhal harflar bilan bitilgan kitob 1583 yilda Mir Husayn al-Husayniy tomonidan ko'chirilgan Buxoro amiri Ubaydiy qalamiga mansub "Kulliyot" edi. Saidjon Aliyev nosfurushtan so'ragan pulni unga berib kitobni olganicha uyga yuguradi...shu bilan adabiyotimiz xazinasi yana bir nodir asar mavjudligidab bahramand bo'ladi. Ubaydiy devonini o'rganish shundan keyin boshlandi. Ilk marta 1978 yil qo'lyozmaga tavsif beriladi. Qo'lyozmani ko'chirgan xattotni ayrim manbalarda Mir Ubayd Buxoriy deb hisoblanadi. *امير عبيد بحاري* taxallusidanko'rinib turganidek, Buxoroda tavallud topadi. Amir Ubaydullaxon saroyida bosh munshiy(1533-1539) vazifasida ishlaydi. O'sha davr talablariga ko'ra bunday lavozimdagi kishi arab, fors, turkiy tilni mukammal bilishi, mumtoz shoirlarning asarlaridan xabardor bo'lishi talab etilardi. Yana Qur'on ilmi, hadis, fiqh kabilarni bilishi ham shart edi. Amir Ubaydullaxon o'zi ham shoir bo'lgani uchun Ubayd Buxoriyga o'z she'riy devonini ko'chirishni topshiradi. Mana shu qo'lyozma Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanadi. Amir Ubaydulaxon Mir

Ubayd Buxoriyga xizmatlari evaziga dur-u javohirlar in'om etgani uchun "Lu'lu, la'ning ko'pligi" nomi berilgan. Mir Ubayd Buxoriy mashhur xattot Muhammadamin Xalvoiyning shogirdlaridan bo'lgan. Mir Ubayd nasx xatining uslubini o'zgartirib undan yirikroq, suls va rayhoniylar xatlaridan kichikroq xat uslubini yaratadi. Bu xat keyinchalik "Nasxi Mir Ubaydiy" yoki "Nasxi Buxoriy" deb atala boshlanadi. Mir Ubaydning o'zi ko'chirgan Qur'oni karim osha davrda Buxoroda qirq ming tanga turgan. [7. B.] Biroq O'z FA SHI dagi qo'lyozmani ko'zdan kechirganda, har bir hikmatning boshlanish qismida "jumlayi duoiya"lar beriladi. Unda "yana bir hikmat", "qabri munavvar bo'lsin" qabilidagi so'zlarni uchratamiz. Demak, Mir Ubayd Buxoriy Ubaydiy davrida ijod qilgan xattot bo'lib u ko'chirgan nusxa bizgacha yetib kelmagan yoxud topilmagan. SHI Qo'lyozmalar fondidagi Ubaydiy "Kulliyoti" esa Ubaydullaxon vafotidan keyin Abdullaxon davrida Mir Husayn al-Husayniy tomonidan ko'chirilgan deyishimiz mumkin.

Ahmad Zakiy Validiy To'g'onning "Xotiralar" kitobida hikoya qilinishicha, u Buxoro atrofidagi Qirg'oq yaylovlarida yurganida Umar xoji degan boyning uyida mehmon bo'ladi. Boyning uyida bir qancha mo'tabar qo'lyozma kitoblarni ko'radi. "Bu kitoblar orasida XVI asrning birinchi yarmida yashagan o'zbek hukmdori Ubaydullaxonning turkcha, forscha, arabcha she'rlar to'plami, o'g'liga atab "Ey, bolam" deb atalgan vasiyati ham bor. Muzeida saqlanishi zarur bo'lgan bu nusxa Ubaydullaxonning o'z davrida yozilib, Umar xojining tarixiy kitoblarida ham nomi esga olingan bobosiga xon tarafidan sovg'a sifatida yozib berilgandi. Kitobda o'sha yozuv ham saqlangan. Ushbu ma'lumot asosida fikr yuritadigan bo'lsak, Ubaydiyning bu "Kulliyoti" bizga yetib kelmagan. Chunki undagi "Ey, bolam" vasiyati ham, Umar Xojining bobosiga xon tomonidan sovg'a mazmunidagi yozuv ham yo'q. Bu qo'lyozmani esa zamonasining mashhur xattoti Sultonali Mashhadiy سلطان على مشهدي (1432-1520) ko'chirgan edi. U Mirali Tabriziy izdoshlaridan bo'lib, xattolik san'atida maktab yaratgan, nasta'liq xatining mislsiz ustasi bo'lgan. Sultonali Mashhadiy "Qiblat ul-quttab", "Zubdat ul-quttab", "sulton ul-xattotin", "Kotib us-sultoniy" laqablari bilan mashhur bo'lgan. U ko'chirgan nodir qo'lyozmalar Husayn Boyqaro va Navoiy tomonidan boshqa o'lkalarga tabarruk tuhfarlar sifatida yuborilgan

Ubaydiyning 136 g'azal, muxammas, tarjeband va 37 ruboiysini o'z ichiga olgan "Devoni Ubaydullaxon" to'plami va shu nom bilan 51 g'azal 1 ruboiy, 6 farddan iborat kitobi Turkiyada saqlanmoqda. Istanbuldagi "Nuri Usmoniy" kutubxonasida esa "Jome ul maoniy" nomli majmuadan Ubaydiyning diniy-tasavvufiy mazmunli g'azallari, ruboiy, tarjeband, masnaviy, tahorat, namoz, ro'za haqidagi

masnaviysi...o'rin olgan. Shuningdek, Ubaydiyning "Masoil us-salot", ruboiy, hikmat, munojot, tavhid, g'azallar, bir hadis tarjimai, tarjiband, yassaviyga bag'ishlangan madhiyadan tashkil topgan terma bayoz Ko'nyodagi Izzat Qyun o'g'lining shaxsiy kutubxonasida saqlanadi.[6. B.]

1993-yil Ubaydiyning tiriklik vaqtlarida mashhur xattot Sultonali Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan qo'lyozma topiladi. AQSH ning Blumington shahridagi Indiana universitetida bir necha oy ma'ruza o'qib qaytgan tilshunos olim Ergash Umarov Britaniya muzeyida saqlanayotgan 7907 raqam ostida saqlanadigan Ubaydiy turkiy devonining ksereks nusxasini yurtimizga olib keladi ("Funun ul-balog'a" asarini ham).A. Hayitmetovning xulosalariga ko'ra esa bu devondagi she'rlar miqdori "Kulliyot"ga nisbatan kam bo'lsa ham, lekin unga kirmagan bir qancha she'rlar bor edi..

Hozircha fanga hikmatlarning ikki qo'lyozmasi ma'lum. Biri Ubaydiy hikmatlari qo'lyozmasining O'zR FA SHI fondidagi 8931 va ikkinchisi Turkiyaning Nuri Usmoniya kutubxonasidagi 4904-raqamli nusxalar.

O'zR FA SHI fondidagi 8931-raqamli qo'lyozma.

Qo'lyozma kitob charm muqovali, jigarrang tusda, Samarqand qog'ozida, 17*27 formatda. Majmua 991/1583 yilda Mir Husayn al-Husayniy tomonidan chiroyli nasta'liq xatida bitilgan. Qo'lyozmani tavsif qilgan xodim ustiga 13/XII/1978 deb yozib qo'ygan. Kitobning qismlarini quyidagicha taqsimlagan:

1. Ubaydiy devoni
2. Ruboiyot
3. Matlaiho
4. Maqoloti
5. Muqaddimat us-salot
6. Hikmathoyi Ubaydiy
7. Devoni Ubaydiy
8. Matlai fardiho
9. Shavqnoma, sabrnoma, g'ayratnoma, masnaviy

Birinchi betida "qimmat 5" deb yozib qo'yilgan, uchinchi betda tillo suvi bilan "Devoni hazrati Ubaydulloxon" degan yozuv bor. Qo'lyozma 695 sahifadan iborat bo'lib kulliyotning dastlabki qismini forsiy devoni (4-200), undan so'ngi qismini arabiy she'r majmuasi (201-210), nihoyat, uchinchi qismini turkiy devoni (211-695 bet) tashkil etadi. Turkiy devon an'anaga ko'ra (211-bet) hamd-u na't bilan boshlangan. Undan bir manoqib (212-bet), "Muqaddimat us-salot" (213-230-bet), hikmatlari (231-402), hikmatlar tarkibida Hazrat sulton Xoja Ahmad Yassaviyning madhi keltiriladi (11

bayt), ikki ruboiy, to'rt fard-tarjiband, salavot, ikki baytli hadis tarjimasini (402-408) ham o'rin olgan. Keyingi sahifalarda esa shoirning g'azaliyoti, qit'a, tuyuq, ruboiy, masnaviyolari, shuningdek, diniy-tasavvufiy, axloqiy-didaktik mavzular talqiniga bag'ishlangan "Omonatnoma", "Shavqnomasi", "G'ayratnoma", "Sabrnoma" deb atalgan manzumalari o'rin olgan. Bizning ishimizni asosi hisoblangan hikmatlar qismi "Kulliyot"ning 231-sahifasidan boshlanadi, biroq hikmatlarning boshlanish betlari mavjud emas. Bunga yuqoridagi voqea sabab bo'lgan bo'lsa kerak.

Hikmatlar qismining boshlanishi:

الف الكتاب و الحديث
بيان للناس ايميش بيلالينكا

Tabdili:

Alif "Al-kitabu val-hadis",
Bo "Bayonun lil nasi" emish bilolingo.

Oxiri: ايكي الامدا ايتار بولسانكيز اوميدي نجات
ايتينكيز سيد كونايينكا هر دم ثلاث

Tabdili: Ikki olamda etar bo'lsangiz umidi najot,
Aytingiz Sayyidi kavnaynga har dam salavot.[7.]

Turkiyaning Nuri Usmoniya kutubxonasidagi 4904-raqamli qo'lyozma Qo'lyozma juda yaxshi saqlangan. O'z davrining mashhur xattoti Mir Ali kotib tomonidan chiroyli va bejirim nasta'liq xatida bitilgan.

Boshlanishi:

الحمد لمن ادخل في رحمته
و الشكر لمن انعم من نعمته

Alhamdu liman adxala fiy rahmatih,
Vash-shukru liman an'ama min ne'matih.
Tarjimasini: Rahmatiga doxil qilganga hamd bo'lsin.

Ne'matidan in'om etganga shukr bo'lsin
Oxiri: قول عبيدي اونوتا كورما اوزونك ني زينهار
تينكري هم اونوتار اوزيني اونوتقان كيشيني

Tabdili: Qul Ubaydiy, unuta ko'rma o'zungni zinhor,
Tengri ham unuttur o'zini unutmagan kishini.

Ushbu qo'lyozmada yaqqol ko'zga tashlanadigan holat shuki, unda O'zR FA SHI fondidagi 8931-raqamli qo'lyozmada mavjud bo'lmagan arabcha hikmatlar bor.

Mazkur ikki qo'lyozma, nafaqat, son jihatdan, balki xusnixati, hikmatlarning joylashish tartibi bilan farq qiladi. Masalan, A nusxadagi 3-hikmat B nusxadagi 12-o'rinda, 4-hikmat 13-o'rinda ...keladi

XULOSA

Yuqoridagi misollardan shuni anglash mumkinki, Ubaydiy hikmat janrida ijod qilarkan, birinchi galda, albatta, Ahmad Yassaviy tajribalariga suyanan va ularni ma'lum darajada rivojlantirishga uringan. Shuning uchun Ubaydiy hikmatlari orasida bevosita Yassaviy ta'sirida yozilgan yoki ma'no va ohang jihatidan ularga o'xshash she'rlar ham tez-tez uchraydi. Bunday she'rlar g'oyaviy-badiiy ahamiyatidan tashqari, o'ziga xos tarixiy qimmatga ham ega desak xato bo'lmaydi. Chunki Ubaydiy Yassaviy hikmatlarini asl shaklida o'qigan va ulardan ta'sirlangan deyishga yetarli asos va dalillar mavjuddir. Ubaydiy hikmatlari tasavvufiy, irfoniy ruhda yozilgan bo'lib, juda ko'p o'rinlarda Qur'on oyatlari va qissalariga ishoralar bor. Zotan tariqat vakillari birinchi galda shariat ilmini, arab tili va Qur'onni chuqur bilishi lozimdir. Ubaydiy har uchovini chuqur bilgani holda hikmatlarini Qur'on oyatlari, Payg'ambarimiz hadislari, muborak duolar bilan bezadi. Arab tilini mukammal bilgani uchun ba'zi hikmatlarni arab tilida yozdi (Yo rabbama, inna mujrimuna fid-dunya... deb boshlanadigan hikmat).

Ubaydiyning yurtimizda va jahon xazinalarida saqlanayotgan o'nlab qo'lyozmalari bordir. Yaqinda Hindistonning Rizo Rampur kutubxonasi, Indiana shtatida, Britaniya muzeylarida Ubaydiy asarlari qo'lyozma nusxalari borligi aniqlandi. Biroq ularning tarkibi hali ma'lum emas. Biz esa hozircha shu ikki qo'lyozmaning tahlili bilan cheklanamiz.

REFERENCES

1. Xojiyeva M. Xoja Ahmad Yassaviyning ma'naviy-tarbiyaviy qarashlari. N.D. Toshkent , 2004.
2. Hikmat haqida Qur'ondan qarang: Baqara 129,151 oyat, Oli imron 48,81...
3. Haqqulov I. O'zbek tasavvuf she'riyatining shakllanishi va taraqqiyoti (g'oyaviylik, izdoshlik, obrazlar olami). N.D. –Toshkent, 1995.-282 b.
4. Eshmuhamedova M. Yassaviy maktabi shoirlari. www.journal.fledu.uz
5. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар: IV жилд. Дарелик ва ўқув қўлланмалар, илмий мақолалар ва тадқиқотлар. Нашрга тайёрловчи ва изоҳ муаллифи Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: Маънавият, 2006.
6. М. Abdullayev. Ubaydiy hayoti va adabiy faoliyati. Nomzodlik disser. Toshkent, 2000.
7. Devoni Ubaydiy. Qo'lyozma. № 8931



ИНДИВИДУАЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АДАПТАЦИИ ЮНЫХ СПОРТСМЕНОВ К ФИЗИЧЕСКИМ НАГРУЗКАМ В СКОРОСТНО-СИЛОВЫХ ВИДАХ ЛЕГКОЙ АТЛЕТИКИ

Норпулат Широнович Бобомуродов

norpulatbobomurodov06@gmail.com

Phd, Узбекский государственный университет физической культуры и спорта

Мирзонаби Рамазанович Ташев

mirsportmir7131@gmail.com

Преподаватель Узбекский государственный университет физической культуры и спорта

АННОТАЦИЯ

Спортсмены с нормотонией сохраняют оптимальные реакции адаптации и мышечной деятельности независимо от периода спортивной подготовки. В связи с этим целью нашего исследования является выявление индивидуально-типологических особенностей адаптационных свойств при сравнении показателей мышечной активности в процессе тренировки скоростно-силовых качеств у юных спортсменов на различных спортивных занятиях. Это вызывает интерес к формированию оптимальных планов физических упражнений для повышения эффективности тренировочного процесса.

Ключевые слова: легкоатлеты, типы вегетативной регуляции, адаптационные реакции периферической крови, мощность мышечной работы, работоспособность, закономерности адаптации организма к физической нагрузке.

INDIVIDUAL-TYOLOGICAL FEATURES OF ADAPTATION OF JUNIOR ATHLETES TO PHYSICAL LOADS IN SPEED-POWER KINDS OF ATHLETIC

ABSTRACT

Athletes with normotonia maintain optimal responses of adaptation and muscle activity regardless of the period of sports training. In this regard, the purpose of our study is to identify individual and typological features of adaptive properties when comparing indicators of

muscle activity in the process of training speed and strength qualities in young athletes at various sports classes. This causes interest in the formation of optimal exercise plans to increase the effectiveness of the training process.

Keywords: athletes, types of vegetative regulation, adaptive reactions of peripheral blood, power of muscular work, exercise performance, rules of body adaptation to physical load.

ВВЕДЕНИЕ

Проблема адаптации к физической работе особенно актуальна в современном спорте, для которого характерны большие тренировочные нагрузки, эмоциональные стрессы [6]. Адаптация спортсменов к возрастающей физической нагрузке подразумевает ускорение восстановления физиологических параметров организма после интенсивных тренировки непосредственное повышение физической работоспособности. Формирование нового уровня адаптированности под влиянием физических нагрузок происходит в результате напряжения регуляторных систем и гомеостатической перестройки, что может привести к истощению резервных возможностей организма, к срыву адаптации с потерей здоровья [4, 5]. В последние годы в практике широко используются представления о типах вегетативной регуляции организма человека [3, 7], получены данные о взаимосвязи механизмов регуляции вегетативного гомеостаза и системной организации функциональных систем организма [7], однако отсутствуют данные о типологических закономерностях, лежащих в основе адаптационных реакций неспецифической защиты при однотипных физических нагрузках юных спортсменов в скоростно-силовых видах лёгкой атлетики в разные периоды спортивной подготовки. В связи с этим актуальными представляются контроль адаптационных реакций и изучение их характеристик в взаимосвязи с показателями мышечной деятельности с целью оптимизации тренировочного процесса для достижения высоких спортивных результатов. С учетом этого цель нашего исследования заключается в определении индивидуальнотипологических особенностей адаптационных акций в сопоставлении с показателями мышечной деятельности в процессе тренировок скоростносиловых качеств у юных легкоатлетов в различные периоды спортивной подготовки. Это представляет интерес для формирования оптимальных планов физических нагрузок с целью повышения эффективности тренировочного процесса.

МЕТОДЫ И ОРГАНИЗАЦИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

dunyasini boyitishda, ularni yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir. Shunday ekan, bugun Qurolli Kuchlarimiz saflarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarimiz ajdodlarimizning mana shunday boy ma'naviy merosidan oziqlanishsa, o'zlarining ma'naviy, axloqiy va intellektual sifatlarini shakllantirishsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi PQ-3898-son qarori.
2. Harbiy xizmat axloqi. 2005 y. Toshkent.
3. "Axloqshunoslik" fanidan mustaqil ta'lim uchun uslubiy qullanma, 1995 yil, Pulatova D.A.
4. Vatanparvar gazetasi maqolalari.
5. O'zbekiston Respublikasining "Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonuni. Toshkent 2003 y.
6. O'zbekiston Respublikasi QK «Umumharbiy nizomlari» Toshkent 1996 yil.
7. Estetika "Nafosatshunoslik" Toshkent 1995 yil, E.Umarov.
8. Мадаминов, З. Х., Салиджанов, С. О., & Сабиров, Т. С. (2019). ТЕРРИТОРИАЛЬНЫЕ УСТРОЙСТВА ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ТОВАРОВ НАРОДНОГО ПОТРЕБЛЕНИЯ В СИСТЕМЕ ПРИРОДА-НАСЕЛЕНИЕ-ХОЗЯЙСТВО (НА ПРИМЕРЕ КОМПЛЕКСНОЙ АГРОПРОМЫШЛЕННОСТИ). *Экономика и социум*, (10), 481-484.
9. Мадаминов, З. Х. (2019). ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОТРЕБЛЕНИЯ НАСЕЛЕНИИ. *Экономика и социум*, (10), 485-488.

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ИЧКИ ИШЛАР ХОДИМЛАРИНИ ИККИНЧИ ЖАХОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА ФАШИСТЛАР ГЕРМАНИЯСИ УСТИДАН ҚОЗОНИЛГАН ҒАЛАБАГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ

Тоҳиржон Хамитович Норметов

Чирчиқ ОТҚМБЮ Гуманитар фанлар кафедраси катта ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада ички ишлар органлари ходимлари фашистларга қарши жангларда юксак қаҳрамонлик ва жасурлик тимсолини намоён этганликлари, кўп фронтларда иштирок этиб, катта матонат ва мардлик намуналарини кўрсатганликлари баён этилган.

Калит сўзлар: Фронт, уруш, ғалаба, матонат, жасорат, мардлик, фидойилик, бирдамлик.

ABSTRACT

In this article, it is stated that the employees of the internal affairs bodies showed great heroism and bravery in the battles against the Nazis, participated in many fronts, and showed great courage and bravery.

Keywords: Front, war, victory, fortitude, courage, bravery, sacrifice, solidarity.

КИРИШ

Фашистларга қарши жангларда ички ишлар органлари ходимлари юксак қаҳрамонлик ва жасурлик тимсолини намоён этди. Улар Украина, Белоруссия, Ленинград, Харьков, Курск ёйи, Шимолий ва Ғарбий ҳамда бошқа фронтларда иштирок этиб, катта матонат ва мардлик намуналарини кўрсатдилар.

Ана шундай ватанпарвар республика ички ишлар органлари ходимларидан Мўйдин Хасанов, Ғани Валиев, Тожибой Ражапов, Олимбой Омонбоев, Уммат Убайдуллаев, Дина Люжаровская, Нина Красикова, Ғани Усмонов, Раҳмон Абдуллаев, Набижон Акбаров, Парда Омонтурдиев, Нурхон Абдуллаев, Василий Асачьев, Жума Бекбоев, Шермурот Бебитов, Менгли Эргашев, Петр Звездин, Йўлдош Исмоилов, Владимир Ким, Бобокул Муротов, Ғофур Менглибоев, Юсуф Маматкулов, Хуррам Муртозоев, Ҳайдар Маҳмудов, Холиқ Мардонакулов, Эрон Наврўзов, Эшмўмин Нукаров, Нурмамат Норматов, Инсаф Нуриев, Дадақўзи Атақўзиев, Асил Расулов, Темур Равшанов, Ражабали Сатторов, Жума Суюндуков, Ғофур Тўракулов, Мусурмонкул Тўраев, Эгамберди Хўжанов, Жума Холлиев, Рўзи Шахаев, Роман Якимов [6], Хамид Аҳмедов, Тожибой Режапов,

Маматкул Сураев, Саидахмад Исаев, Акмал Ғозиев, Кимсан Қамбаров, Владимир Бистревский, Евгений Шанин, Каримжон Нажиев [7], Хидир Давиров [8] ва бошқаларнинг номини келтириш мумкин.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Иккинчи жаҳон уруши жаҳон мамлакатлари халқлари қатори Ўзбекистон халқи бошига ҳам мислсиз айрилиқлар ва талофатларни солди. Жонажон Ватанимиз тарихида уларнинг жасорати биз учун мардлик мактаби, ғурур-ифтихор манбаси бўлиб келмоқда. Мухтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёев таъкидлаганларидек, “Бу – ҳеч қачон унутилмайдиган, ... буюк тарих, қудратли маънавий бойлигимиз” [1, 143.].

2020 йил Ғалабанинг 75 йиллиги муносабати билан Ўзбекистонда кенг кўламли ишлар амалга оширилди. Олмазор туманида улкан майдонда қисқа муддатда катта ҳажмда ишлар амалга оширилиб, Ғалаба боғи, “Шон-шараф” музейи, “Мангу жасорат”, “Матонат мадҳияси” монументлари бунёд этилди.

Халқимизнинг қонли жанглардаги мардлигини, фронт ортидаги машаққатли меҳнати ва фидойилигини акс эттиришга бағишланган кенг кўламли тарихий-бадий экспозициялар яратилди [2, 424.].

Таъкидлаш жоизки, Ўзбекистон халқи уруш бошлангандан ўзининг бутун иқтисодиёти ва ишлаб чиқаришини урушга, ҳарбий саноатга йўналтирди. Ўзбекистон ҳақли равишда, фронтнинг мустаҳкам таъминот базасига айланди, саноат корхоналари ҳарбий соҳага мослаштирилиб, барча кучлар ғалабага сафарбар этилди.

Уруш йилларида юртимизга эвакуация қилинган юздан зиёд завод ва фабрикалар ишга туширишда ишчи ва муҳандислар билан бирга аёллар ва кексалар, ҳамда милиция ходимлари ҳам мардлик ва матонат билан меҳнат қилдилар [3, 319.].

Ўзбекистон аҳолиси совет ҳокимияти ёки тузумини эмас, балки фашизмнинг инсоният бошига қандай талафотлар етказётганлигини, унинг инсоният учун қушанда эканлигини англаб етганлиги туфайли фашизмга қарши курашга отланди. Уша машаққатли уруш йилларини ўз кўзлари билан кўрган кишиларнинг гувоҳлик беришларича, одамлар коммунистик режимни ҳимоя қилиш ҳақида эмас, фашизмнинг тугатилиши ҳақида, унинг инсоният бошига бало эканлиги ҳақида гапирар эдилар.

Шу сабабли уруш бошланган куннинг эртасигаёқ, яъни 1941 йилнинг 22-24 июнь кунлари Тошкент, Самарқанд, Бухоро, Андижон, Наманган, Фарғона, Нукус ва



республиканинг бошқа шаҳарларида кўп минглаб кишилар иштирок этган митинглар бўлиб ўтди. Митингларда сўзга чиққан кишилар нутқлари фронтда ва фронт орқасида фашист босқинчилари устидан ғалаба қозониш учун ҳамма нарсага тайёрлик руҳи билан суғорилган эди.

Дастлабки кунларда ҳарбий комиссариатларга фронтга жўнатиш ҳақида сўраб ёзилган аризалар ёғилиб кетди. Бу аризалар турли касбдаги, турли миллатга мансуб бўлган эркаклар ва аёллар, ёшлар ва кексалар томонидан ёзилган эди.

Ўлка аҳолисининг ватанпарварлик анъаналарининг ёрқин намунаси фронтга кўрсатилаётган умумхалқ ёрдами бўлди. Масалан, уруш йилларида ташкил этилган мудофаа жамғармасига 55,7 қимматбаҳо металл ўтказдилар.

Ўзбекистонда ҳарбий техника қуриш, хусусан танк колонналари ва жанговар самолётлар эскадрилиялари учун маблағлар йиғиш ҳаракати кенг қулоч ёйди. Мисол тариқасида шуни кўрсатиш мумкинки, биргина “Ўзбекистон колхозчиси” номли танк колоннасининг яратилиши учун республика колхозчилари 1942 йил декабрда ўзларининг шахсий жамғармаларидан 260 млн. сўм пул тўплаб бердилар. Самарканд вилояти меҳнаткашлари қисқа вақт ичида 100 млн. сўмга яқин маблағ тўпладилар.

Аскарлар учун иссиқ кийимлар тўплаш ва жўнатиш ҳам Ватан ҳимоячиларига кўрсатилган оталарча ғамхўрликнинг ёрқин намунаси эди.

Фақат урушнинг дастлабки олти ойи давомидагина республика аҳолиси фронтга пахтали кийимлар, пўстинлар, этиклар, кўлқоплар, жун пайпоқлар ва бошқа иссиқ кийимлар юбордилар. Республикадаги 75 та корхона фронтга иссиқ кийимлар тайёрлаш билан банд бўлган [3].

Ўзбекистон милицияси, шу жумладан Тошкент милиция мактаби ҳам кўплаб мард Ватан ҳимоячиларини тарбиялаб етиштирдилар. Улар фронтларда қахрамонона жанг қилиб, босқинчиларни аёвсиз қирдилар.

Тошкент милиция мактаби оператив ходимлар тайёрловчи асосий базалардан бири бўлиб қолди. Кадрлар етишмаслиги туфайли ўқиш муддати тўққиз ой бўлган асосий бўлимдан ташқари, 3 ой, 20 кунлик курслар ташкил этилди.

Уруш шароитидан келиб чиққан ҳолда, давлат ташкилотларининг структураси, уларга юклатилган вазифа ва ваколатларда бир қатор ўзгаришлар амалга оширилди. 1941 йил февраль ойида СССР Ички ишлар халқ комиссарлиги ва унинг жойлардаги бўлимлари 2 га, яъни Ички ишлар халқ комиссарлиги ва ДХКларига бўлинди.

Уруш шароитида шахсий таркибнинг қисқартирилиши жиддий қийинчилик туғдирарди, бу қийинчиликларни енгиш учун милиция органларини тўлдириш юзасидан шошилиш чоралар кўриш лозим эди. Кўп ҳолларда милиция сафлари ҳарбий комиссарликлар орқали ярадор бўлиб фронтдан қайтиб келган кишилар, соғлиғи ва ёши туфайли армияда хизмат қилиши чекланган шахслар ва аёллар ҳисобига тўлдирилди. Масалан, 1942 йилдан 1945 йилгача Тошкент милиция мактабининг курсантлари таркиби маълум даражада хотин-қизлар ҳисобига тўлдириб борилди. Бу даврда хотин-қизлар салмоғи мактаб курсантлари умумий сонининг 30-60 фоизини ташкил қиларди.

1941 йил 20 июлда СССР Олий Кенгаши президиумининг СССР Давлат Хавфсизлиги Комиссарлиги ва СССР Ички Ишлар Халқ Комиссарликларини битта Ички ишлар халқ комиссарлигига бирлаштириш тўғрисидаги фармони эълон қилинди.

1943 йил апрелда эса Ички ишлар халқ комиссарлиги яна 2 та мустақил мустақил комиссарликка ажратилади. Бундан кўзланган асосий мақсад “Мамлакатда жамият ва давлат хавфсизлигини таъминлаш, чет эл агентураси фаолияти ва жинойтчиликни олдини олишдаги ишларни такомиллаштиришдан иборат” деб кўрсатилди.

Урушнинг дастлабки кунлариданоқ республика милициясининг кўплаб ходимлари кўнгилли равишда ҳаракатдаги Армия сафига кўшилдилар.

Хусусан, уруш бошланган илк ойларда Ўзбекистон ССР Ички ишлар халқ комиссарлигининг буйруғи асосида республика бўйича раҳбарлик лавозимларида фаолият юритаётган ходимлардан 57 нафари тезкор равишда Қизил Армия сафларига юборилди. Улардан ташқари Тошкент милиция мактаби тингловчиларининг 60 фоизи, командир-ўқитувчиларининг 30 фоизи, Самарқанд милиция органлари ходимларидан 1489 киши, Тошкент Темир йўли милицияси бўлимининг 204 нафар энг яхши ходимлари ўзбек миллий дивизицияси, шунингдек, генерал Панфилов дивизицияси сафида жангга кирдилар [4].

Милиция ходимларининг урушга сафарбар этилиши натижасида ички ишлар органларининг шахсий таркибида кадрларга эҳтиёж юзага келди. Бу масалани ҳал этиш мақсадида Ўзбекистон ССР Ички ишлар халқ комиссарлиги томонидан 1941 йил 27 июнда махсус буйруқ чиқарилиб, унга асосан Тошкент милиция мактабининг иккинчи курс талабалари июнь ойида (68 нафар) [5], 4 октябрда эса

биринчи курс талабалари муддатидан олдин ўқишни тугатиб, милиция органларида хизмат қилиш учун йўлланма олдилар.

Уруш шароитида шахсий таркибнинг қисқартирилиши жиддий қийинчилик туғдирарди, бу қийинчиликларни енгиш учун милиция идораларини тўлдириш юзасидан шошилишч кўриш лозим эди.

Кўп ҳолларда милиция сафлари ҳарбий комиссарликлар орқали, ярадор бўлиб фронтдан қайтиб келган кишилар, соғлиғи ва ёши туфайли армияда хизмат қилиши чекланган шахслар ҳисобига тўлдирилар эди.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Хулоса қилиб шуни айтишим мумкинки, Иккинчи жаҳон уруши йилларида ички ишлар органларининг фаолияти кўплаб қийинчиликлар билан кечишига қарамасдан ўз матонатларини намоён қилиб беришди. Сабаби уруш ҳолати эълон қилингандан кейин, республика ички ишлар органлари малакали ходимларининг катта қисми фронтга ва бошқа жойларга сафарбар қилинган эди. Шунингдек, республика ички ишлар органлари малакали ходимларининг катта қисми фашистларга қарши жангларда юксак қаҳрамонлик ва жасурлик тимсолини намоён этди.

REFERENCES

1. Мирзиёев Ш. М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2019. – 400 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2020. – 454 б.
3. Мирзиёев Ш. М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2019. – 508 б.
4. Халқ хизматида 75 йил. Масъул муҳаррир Ғ.Раҳимов. - Тошкент: Ўзбекистон, 1992. - Б.54.
5. Алимов Х. Административная деятельность милиции Узбекской ССР в годы ВОВ (1941-1945 гг). Диссертация на соис. уч. степ. канд. юрид. наук. - Ташкент, 1972. - С.42.
6. Бобоев М., Соатов А. Сурхондарё милицияси. - Самарқанд; Суғдиён, 1998. - Б.66.
7. Андижон милицияси: кеча ва бугун. - Андижон, 2008. - Б.11.
8. Раҳмонов Т. Сирдарё милицияси халқ хизматида. - Тошкент: Muharrir, 2012. - Б.66.
9. Азимов Ҳ.И. Иккинчи жаҳон урушида Ўзбекистон ҳарбийлари иштироки ва мавқеи. (1941-1945 йиллар). Тарих фан. номз. дисс... – Т. 2004 Б.104-109.



ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОН МИЛИЦИЯ ХОДИМЛАРИ ЖИНОЯТЧИЛИККА ҚАРШИ КУРАШДАГИ МАТОНАТИ

Тоҳиржон Хамитович Норметов

Чирчиқ ОТҚМБЮ Гуманитар фанлар кафедраси катта ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада 1941-1945 йиллар Иккинчи жаҳон урушида жангоҳ ва жангоҳ ортидаги ўзбек милиция ходимларининг матонати ва қаҳрамонлиги ёритилган.

Калит сўзлар: жангоҳ, диктатура, шовинизм, расовая политика, милитаризм, антидемократизм.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассказывается о мужестве и героизме узбекских милиционеров, сражавшихся и стоящих за боевыми действиями в годы второй мировой войны 1941-1945 гг. в данной статье рассказывается о мужестве и героизме узбекских милиционеров, сражавшихся и стоящих за боевыми действиями в годы второй мировой войны 1941-1945 гг.

Ключевые слова: война, диктатура, шовинизм, авторитарная политика, милитаризм, антидемократия.

ABSTRACT

This article describes the resilience and heroism of Uzbek police officers during and after World War II in 1941-1945.

Keywords: war, dictatorship, chauvinism, racial politics, militarism, anti-democracy.

КИРИШ

Иккинчи жаҳон уруши бутун инсоният бошига оғир кулфатларни олиб келди. 1939 йил 23 августда СССР билан Германия ўртасида 10 йил муддатга хужум қилмаслик тўғрисидаги шартнома имзоланишига қарамай, 1941 йил 22 июнь куни фашистлар Германияси СССРга хиёнаткорона хужум ҳаракатларини бошлаб юборди. Фашистлар ва уларнинг иттифоқчилари Италия, Финландия, Венгрия, Руминия ҳамда Болгария томонидан калта ўйлаб тузилган режа асосида СССРни босиб олиш, бойлигини талон-тарож қилиш, миллионлаб кишиларни қириш ва кул

қилиш мақсадида жуда катта миқдорда ҳарбий техника ва шахсий таркиб билан ҳужум қилди.

СССР таркибида бўлган бошқа халқлар қатори Ўзбекистон халқи ҳам ўзининг азалий анъаналарига содиқ қолиб, барча тинчликсевар халқлар каби душманга қарши курашга отланиб, немис фашизмини яқсон этишга бел боғлади. Урушнинг дастлабки кунларидаёқ кўнгилли милиция отрядлари ташкил этилиб жангоҳ ва жангоҳ ортида немис босқинчиларига қарши ўзининг ватанпарварлик фазилатларини намоён этишган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги ПҚ-4495-сонли “Иккинчи жаҳон урушида қозонилган ғалабанинг 75 йиллигини муносиб нишонлаш тўғрисида”ги Қарори ҳамда 2020 йил 9 майда пойтахтимиз Тошкент шаҳрининг Олмазор туманидаги янги қуриб битказилган “Ғалаба боғи”да Иккинчи жаҳон урушида қозонилган ғалабанинг 75 йиллигига бағишланган тадбирдаги нутқида Иккинчи жаҳон урушида қозонилган ғалабанинг 75 йиллиги билан бутун ўзбек халқини табриклар экан: “Келгусида иккинчи жаҳон урушида қатнашган ватандошларимиз, ўзбек ўғлонларини хотирасини янада шод этиш, уларни қахрамонликларини кўпроқ ёритиш ва албатта ўсиб келаётган ёш авлодни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда наъмуна сифатида кўрсатиш лозим”, [А-Б] деб таъкидлаб ўтдилар.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Урушнинг илк кунларидан бошлаб Қизил Армия сафларига раҳбар ҳодимлар кескин етишмаётганлигини инобатга олиб Ўзбекистон ССР Ички ишлар халқ комиссарлигининг буйруқ ва кўрсатмалари асосида республикамизнинг бир қатор шаҳар ҳамда вилоятларда фаолият олиб бораётган корхона ва ташкилотларининг раҳбар ҳодимларидан иборат бўлган олтмишга яқин, шунингдек Самарқанд ички ишлар ходимлари, ҳамда Тошкент Темир йўл милицияси бўлинмалардаги тартибли, интизомли, виждонли, ватанпарвар ходимлари тезкорлик билан жангоҳга жалб этилди. Бу ходимлар ўзбек миллий дивизияси, шунингдек генерал Панфилов дивизияси сафида фашизм босқинчиларига қарши мардона жанг олиб бордилар[1].

1941-1945 йилларда барча давлат органлари, корхона, муассаса ва ташкилотлар қаторида ички ишлар идоралари ходимлари она ватанни тиш тирноғига қуролланган немис босқинчилар чангалидан қутқаришга сафарбар қилинди.

Республикамиз ҳудудида фаолият олиб бораётган барча ички ишлар идоралари, шу жумладан СССР ички ишлар

вазирлиги таркибидаги Тошкент милиция мактаби тингловчилари, профессор-ўқитувчилар ҳам фашизм босқинчилик ҳаракатини бартараф этишга кўнгилли равишда армия сафига жалб этилди. Мард ва кўркмас ватандошларимиз сингари милиция ходимлари ҳам жангоҳда қаҳрамонан жанг қилиб, фашизм босқинчиларини аёвсиз қирдилар.

Милиция ходимларини немис босқинчиларига қарши курашишга сафарбар этилиши натижасида давлат мулкига, ўзгалар мулкани талон-торож қилиш билан боғлиқ, шахсга, иқтисодий соҳаларда жиноятчиликни кун сайин ўсиб бориши жангоҳ ортида тинчлик ва хавфсизлик таъминлаш борасида кадрлар муаммосига эҳтиёж юзага келди. [2]

Уруш жараёнида бу масалани ижобий ҳал этиш жуда мушкул вазифа эканлигини инобатга олган ҳолда Ички ишлар халқ комиссарининг махсус буйруғига асосан Тошкент милиция мактаби курсантларининг таълим олиш муддати қисқартирилди ҳамда таркиб маълум даражада хотин-қизлар ҳисобига тўлдириб борилди, бўш милиция сафлари ҳарбий комиссарликлар орқали, ярадор бўлиб фронтдан қайтиб келган кишилар, соғлиғи ва ёши туфайли армияда хизмат қилиши чекланганлиги учун шахслар ҳисобига тўлдирилди. Масалан, 1942 йилдан 1945 йилгача Тошкент милиция мактабининг курсантлари таркиби маълум даражада хотин-қизлар ҳисобига тўлдириб борилди. Ушбу даврда хотин-қизлар салмоғи мактаб курсантлари умумий сонининг 30-60 фоизини ташкил қиларди.

Иттифоқ миқёсида халқ хўжалигини ҳарбий изга ўтказилиши жараёнида Ўзбекистон ССР Ички ишлар халқ комиссарлиги томонидан 1941 йил 30 июнда “Ички ишлар шахсий таркиби ходимларига таътил беришни бекор қилиш ва таътилдаги ходимларни хизматга чақириб олиш тўғрисида” буйруқ эълон қилинди. Ушбу буйруқ асосида 1 июль куни Ўзбекистон ССР Ички ишлар халқ комиссарлиги томонидан барча вилоятларга тартиб-интизом ва хавфсизликни мустаҳкамлаш, жиноят қидирув борасида олиб борилаётган тезкор тадбирларни янада кучайтириш ҳамда милиция органларида раҳбарларнинг суткалик навбатчилигини ташкил этиш, жиноят содир этилган жойларда ҳудудий раҳбарларнинг бевосита иштирокини таъминлаш тўғрисида кўрсатмалар тарқатилди[3]. Натижада ички ишлар ходимларига юклатилган вазифа ва ваколатлар доираси янада кенгайтирилди.

Уруш йилларида барча давлат органларига юклатилган вазифалар ҳажми доимий равишда орттириб борилган, жумладан, Ўзбекистон милициясига ҳам янги махсус топшириқлар берилди. Улар, халқ хўжалиги объектларини қўриқлаш, меҳнат fronti ва

меҳнат фаолияти сафарбарлигидан бош тортиш ҳолатларига қарши курашиш, турли ҳудудлардан эвакуация қилинган инсонларни назорат қилиш (улар томонидан тарқатилиши мумкин бўлган нотўғри ахборотларнинг ёйилишининг олдини олиш), ҳарбий юкларни талон-тароҳ қилишнинг олдини олиш, озиқ-овқат ва саноат маҳсулотлари ҳамда озиқ-овқат карточкалари олди-сотдисини назорат қилиш, болаларнинг қаровсизлиги ва назоратсизлигига қарши кураш олиб бориш, яқинлари билан алоқа узилган инсонларга уларни топишда амалий ёрдам кўрсатишган.

1941 йил 20 июлда СССР Олий Кенгаши президиумининг СССР Давлат Хавфсизлиги Комиссарлиги ва СССР Ички Ишлар Халқ Комиссарликларини битта Ички ишлар халқ комиссарлигига бирлаштириш тўғрисидаги фармони эълон қилинди. 1943 йил апрелда эса Ички ишлар халқ комиссарлиги яна 2 та мустақил мустақил комиссарликка ажратилади. Бундан кўзланган асосий мақсад “мамлакатда жамият ва давлат хавфсизлигини таъминлаш, чет эл агентураси фаолияти ва жиноятчиликни олдини олишдаги ишларни такомиллаштиришдан иборат” деб кўрсатилди.

1942 йил 23 январда СССР ХКСнинг “Ота-онасиз қолган болаларни тегишли муассасаларга жойлаштириш тўғрисида”ги қарори асосида маҳаллий ижроия кўмиталарида махсус комиссиялар ташкил этилди. Бу комиссиялар ички ишлар органлари билан биргаликда фаолият юритиб, улар ота-онасиз қолган болаларни тарбиялаш ва тегишли муассасаларга жойлаштириш, уларни иш билан таъминлаш баробарида, вояга етмаганларнинг ҳақ-ҳуқуқини ҳимоя қилиш ва уларни назоратсиз қолишининг олдини олиш билан шуғулланиши жараёнида милиция ҳузуридаги болаларни қабул қилиш ва тақсимлаш хоналарининг сони кўпайди. Милиция ходимлари эвакуация қилинган болаларни қабул қилиб олиш, ота-онасиз қолган болаларни топиш ва жойлаштиришда самарали фаолият юритишди.

Тошкент темир йўлида болалар инспекторлари ва транспорт милициясининг ходимлари томонидан 1944 йилда поезд ва бекатларда 20690 бола, шу жумладан Тошкент шоҳ бекатида – 6546, Туркистон шоҳ бекатида – 1629, Андижон шоҳ бекатида – 2955, Урсатьевск шоҳ бекатида – 3695 бола тутиб олинди. Ички ишлар органларида эвакуация қилинган болаларни жойлаштириш ишларини такомиллаштириш мақсадида, 1941 йил ташкил этилган Милиция бош бошқармаси паспорт бўлими марказий маълумот бюроси уларнинг доимий яшаш жойларини ҳам рўйхатга олиб борган. Уруш йилларида Иттифоқ миқёсида мазкур бюрога қариндошларининг турар жойларини сўраб, 3,5 миллион хат

орқали мурожаатлар тушган бўлиб, милиция ходимлари 2 861 000 нафар инсонларни янги манзилларини хабар қилган. Ундан ташқари 20 000 нафар болалар топилиб, ота-оналари бағрига қайтарилган. Маълумотларда берилганича, урушнинг илк кунларидан 1943 йил май ойигача Иттифок миқёсида 190 000 нафар бола ота-онаси билан алоқани йўқотган. Бундай ота-оналар ва болаларга ёрдам кўрсатиш ҳар бир ички ишлар ходимидан катта масъулият талаб қилган. Сурхондарё вилояти милиция ходимлари ҳам бундай тадбирларда фаол иштирок этиб, 1944 йил ва 1945 йилнинг биринчи чорагида 1422 нафар қаровсиз қолган болаларни ўз уйлари ва бошқа тегишли тарбия масканларига жойлаштирдилар.

Умуман олганда уруш йилларида турли ҳудудларда тузилган махсус комиссиялар томонидан ёш болаларнинг қаровсизлиги ва назоратсизлигини тугатишга қаратилган кўплаб тадбирлар ўтказилиб, йирик аҳоли яшаш пунктлари, темир йўл ва бошқа жойларда милиция ҳузуридаги болаларни қабул қилиш ва тақсимлаш хоналарининг сони кўпайтирилди. Бу хоналарнинг асосий вазифалари қаровсиз қолган болаларни топиш, тарбиялаш, бундай ҳолатларнинг сабабини ўрганиш, таҳлил қилиш, айбдор шахсларни прокуратура ва милиция ходимлари ёрдамида жавобгарликка тортиш, қаровсиз болаларни ота-онаси ёки яқинларини топиш, улар билан алоқа ўрнатиш ва етказиб бериш ҳамда бошқалар ҳисобланган. Бу даврда қаровсиз болаларнинг сони жуда ошиб кетди. Қаровсиз ва назоратсиз қолган болаларни топиш ва улар орасида кучайиб кетган жиноятчиликни камайтиришда ички ишлар органлари самарали фаолият юритди.

Ички ишлар органлари ҳузуридаги болаларни қабул қилиш ва тақсимлаш пунктлари Ўзбекистондаги бир қатор йирик шаҳарлар, жумладан, Тошкент, Самарқанд, Андижон, Фарғона ва бошқа шаҳарлардаги темир йўл вокзаллари ҳамда аҳоли кўп йиғиладиган жойларда ташкил этилиб, улар доимий равишда фаолият юритди. Олиб борилган тадбирлар натижасида уруш йилларида ёш болалар орасидаги жиноятчилик анча камайди.

Уруш шароитида юзага келган иқтисодий қийинчиликлар оқибатида ижтимоий муаммолар кескинлашиб, аҳолининг бир қатор маҳсулотларга бўлган эҳтиёжи ошиб кетди. 1941 йил 18 июлда СССР ХКС томонидан айрим озик-овқат ва аҳоли учун зарур бўлган саноат маҳсулотларини муайян нормада карточка орқали тарқатиш (сотиш) ҳақидаги қарори қабул қилингандан сўнг, аҳоли орасида ноқонуний савдо муносабатларининг кучайиши, озик-овқат ва карточкаларни олиб келиш ҳамда

босмахонада босиш вақтида уларни ўғирлаш ҳолатлари кузатилди.

Карточка тизими жорий этилгандан сўнг жиноятчиликнинг янги турлари ривожлана бошлади. Уни бартараф этиш мақсадида, 1942 йил 20 мартда “Аҳолидан озиқ-овқат маҳсулотларини ўғирлаш ва шу турдаги жиноятларга қарши курашиш тўғрисида” СССР Ички ишлар халқ комиссарлиги Милиция бош бошқармасининг буйруғи чиқарилди. Унга асосан умумий фойдаланиш жойлари ва транспортларда, магазин ва бозорларда озиқ-овқат ва саноат карточкаларини ўғирлаш ва тақсимлашдаги суистеъмолликлар ҳамда қалбаки карточкалар тайёрлашга қарши кураш борасида амалий чоралар кўрилди. Масалан, Тожикистон милиция органлари билан биргаликда, озиқ-овқат карточкаларини босма усулда тайёрлаш билан шуғулланган бир гуруҳ жиноятчилар фoш қилинди. Жиноятчилардан кўп миқдордаги сохта талонлар ва пул тортиб олинди. Тергов ва суриштирув ишлари давомида Душанбе ва Тошкент шаҳарларидан босма станоклар топилди. Шунингдек, бу жиноятчилар гуруҳи томонидан қисқа вақт ичида 500 тоннадан ортиқ нон ўғирланганлиги маълум бўлди. Бундай жиноятлар орасида Ўзбекистон ҳудудида содир этилган йирик жиноятлардан бири Тошкент шаҳар милиция ходимлари томонидан 1944 йил 29 декабрда фoш этилди. Жиноят қидирув бўлими инспекторларининг тезкор тадбирлари натижасида 400 тонна нон маҳсулотларини олишга мўлжалланган қалбаки карточкаларни ишлаб чиқарган ва улардан фойдаланган жинoий гуруҳ ушланди. Тергов ишлари жараёнида ўтказилган тинтувлар натижасида улардан 12 миллион рубль нақд пул, 2100 та олтин танга ва бошқа қимматбаҳо буюмлар тортиб олинди. Улар томонидан содир этилган жиноятлар исботланиб, жинoий гуруҳнинг барча аъзолари олий жазога ҳукм қилинди.

Ўзбекистон Коммунистик партияси Марказий Комитети ва ЎзССР Халқ Комиссарлари Совети томонидан “Барча турдаги дон маҳсулотларини етказиб бериш режасини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” қарор қабул қилингандан кейин (1943 йил 18-20 ноябрь), ички ишлар органларига жойларда дон маҳсулотларини талон-тарож қилинишининг олдини олиш, уларни қабул қилиш ва топшириш пунктларида назорат ўрнатиш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сақлаш жойларини кўриклаш, дон ва бошқа қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини экиш ва йиғиштириб олишда иштирок этиш вазифалари юклатилди.

1942 йилда Ўрта Осиёнинг бир қатор шаҳарлари – Тошкент, Олмаота, Фрунзе, Чимкентда уюшган жиноятчилик кучайиб, улар томонидан қасдан одам ўлдириш, босқинчилик, тунаш сингари хавфли жиноятлар содир этилган. Бундай ҳолатни



бартираф этиш мақсадида, СССР Ички ишлар халқ комиссарлиги кўрсатмасига биноан, Милиция бош бошқармаси томонидан Тошкент шаҳар жиноят қидирув бўлимига махсус тайёрланган ходимлар юборилди. Уларнинг маҳаллий ходимлар билан биргаликда олиб борган тезкор тадбирлари натижасида қисқа муддатда Тошкент шаҳри ва унинг атрофидаги ҳудудлардан 102 та қуроли жиноятчилар қўлга олинди, улар орасидан айримлари (жамият учун хавfli деб топилганлари) олий жазога ҳукм қилинди. Натижада Тошкент шаҳрида оғир жиноятлар содир этилиши ҳолатлари бирмунча камайтирилди, уюштирилиши мумкин бўлган жиноятларнинг олди олинди.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Умумлаштириб айтганда, кинчи жаҳон уруши йилларида ички ишлар органларининг фаолияти кўплаб қийинчиликлар билан кечди. Сабаби уруш ҳолати эълон қилингандан кейин, республика ички ишлар органлари малакали ходимларининг катта қисми фашистларга қарши жангларда юксак қаҳрамонлик ва жасурлик тимсолини намоён этди.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикасиз Президенти Шовкат Мирзиёевнинг 2019 йил 23 октябрдаги ПҚ-4495-сонли “Иккинчи жаҳон урушида қозонилган ғалабанинг 75 йиллигини муносиб нишонлаш тўғрисида”ги Қарори.
2. ССР в годы ВОВ (1941-1945 гг). Диссертация на соис. уч. степ.канд. юрид. наук. - Ташкент, 1972. - С.42.
3. Алимов Х. Административная деятельность милиции Узбекской ССР в годы Великой Отечественной войны (1941–1945 гг.): Дис. ... канд. юрид. наук. – Т., 1972;
4. Самарқанд вилояти ИИБ Ахборот марказининг махсус фонди, Обшие приказы, 44-варак.



АҲОЛИ МИГРАЦИЯСИНИНГ ЁШЛАР МАЪНАВИЯТИГА ТАЪСИРИ

Азиз Хамидуллоевич Абдуллаев

Ўзбекистон Миллий университети 2-босқич магистранти

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада аҳоли миграциясининг Ўзбекистон Республикасидаги ёшлар маънавиятига таъсири, Янги Ўзбекистонда миграция соҳасидаги ислохотларнинг моҳияти, миграциянинг жамиятимизда қарор топган миллий маънавий қадриятлар тизимининг трансформациясига сабаб бўлаётганлиги, ушбу соҳада мавжуд муаммолар ва уларни ечиш учун лозим бўлган вазифалар, истиқболда юртимизда маънавий муҳит ва аҳоли миграциясининг ўзаро таъсирлашувини тадқиқ этиш билан боғлиқ муаммолар ҳақида сўз юритилган. Хусусан, сўнгги йилларда юртимизда миграцион сиёсатда амалга оширилаётган ислохотлар, хориждаги ўзбек диаспоралари билан икки томонлама фойдали ҳамкорлик алоқаларининг ўрнатилаётганлиги, меҳнат муҳожирларининг миграциягача махсус тайёрлов курсларида ўқитиш тизими ташкил этилганлиги, хавфсиз, тартибли ва қонуний меҳнат миграцияси концепциясининг яратилганлиги таҳлил этилган.

Калит сўзлар: миграция, ёшлар маънавияти, маънавий муҳит, меҳнат муҳожирлари, меҳнат миграцияси.

ABSTRACT

In this article, the influence of population migration on the spirituality of young people in the Republic of Uzbekistan, the nature of reforms in the field of migration in New Uzbekistan, the fact that migration is the cause of the transformation of the national moral value system established in our society, the existing problems in this area and the tasks necessary to solve them, the interaction of the spiritual environment and population migration in our country in the future Research problems are discussed. In particular, the reforms implemented in the migration policy in our country in recent years, the establishment of mutually beneficial cooperation relations with Uzbek diasporas abroad, the establishment of a training system for labor migrants in special training courses before migration, and the creation of the concept of safe, orderly and legal labor migration were analyzed.

Keywords: migration, youth spirituality, spiritual environment, labor migrants, labor migration.

КИРИШ

Миграция ходисаси XXI асрга келиб дунё сиёсий ландшафтнинг ўзгариб кетишига сабаб бўлаётган энг йирик глобал муаммолар каторидан ўрин эгаллади. Зеро, миграцияга сабаб бўлувчи манбалар орасида сиёсий омилнинг мавқеи мисли кўрилмаган даражада ортиб бормоқда. Айни пайтда глобаллашувнинг салбий таъсири ва оқибатлари туфайли миграция жараёнлари мохиятан мураккаблашиб, ўта зиддиятли тус олмоқда. Сўнгги йилларда ривожланган давлатларда миграция муаммосини хал қилиш учун иқтисодий ва сиёсий чора-тадбирлар кўраётганлиги ҳақидаги далиллар миграция борасидаги замонавий ёндашувлар, концепцияларни қиёсий таҳлил этиш, глобаллашув турли таъсирларини кучайиши шароитида рўй бераётган миграция ходисасидаги етакчи тенденцияларни асослашга алоҳида катта эътибор қаратиш зарурати мавжудлигидан далолат беради.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Ўзбекистонлик олимлардан Э.М.Муҳиддинов, С.А.Ишанходжаев, Л.Х.Исоқов, Ш.Т.Тилибаева каби тадқиқотчилар миграциянинг мамлакатимизга таъсири, ушбу феноменнинг ижтимоий, ҳуқуқий, сиёсий оқибатлари каби жиҳатларини ўрганишган. Ф.Я.Пармоновнинг илмий изланишларида миграция жараёнлари трансформациясига таъсир кўрсатувчи ижтимоий омилларни тадқиқ этилиб, соҳа бўйича мутасадди ташкилотларнинг миграцияга оид фаолияти самарадорлигини оширишга эътибор қаратилган. Д.А.Маджидова, Д.Ғ.Хусанова, А.А.Базаров, Б.А.Акбаров, Н.Х.Зохитова, М.Ш.Яхьяева, Н.М.Сайдалиева, Д.Муйдинов, С.Алимовлар томонидан меҳнат мигрантларини ижтимоий қўллаб-қувватлаш ва реинтеграция қилишнинг ижтимоий-психологик жиҳатлари ўрганилиб, илмий-амалий тавсиялар тақдим этилган.

Тадқиқотда билишнинг анализ ва синтез, умумлаштириш, ижтимоий сўров, қиёсий таҳлил усулларида, шунингдек, тарихийлик, ўзаро алоқадорлик, тизимлилик тамойилларидан фойдаланилган.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Дарҳақиқат, бугунги кунда халқаро миқёсдаги асосий мавзулардан бири халқдро миграция масаласидир. Халқаро миграция борасидаги тадқиқотлар икки парадигмадан келиб чиқмоқда. Биринчи ва асосий парадигма бу миграциянинг келиб чиқиш сабабларини ўрганувчи йўналиш, иккинчи парадигма эса миграциянинг таъсирини ўрганувчи йўналиш ҳисобланади.

Бундай икки хил ёндашувни асослайдиган бўлсак, бугунги кунда миграция глобал миқёсда ошиб бораётганлиги, ҳар бир минтақа ва давлатда хорижликларни учратиш одатий

холга айланаётганлиги, бу нафақат иш ёки таълим олиш мақсадларида балки, туризм, соғликни сақлаш ёки умуман яшаш каби бир канча мақсадларда ривожланиб, кенгайиб бораётганлиги ва бу бир имкониятлар эшиги сифатида кўз олдимизда гавдаланишини таъкидлашимиз мумкин. Шу билан биргаликда, халқаро миграциянинг чегара билмай ўсиб бориши, кўплаб муаммоларни хусусан, террорчилик хавфларининг ошиб бориши, ноқонуний миграция ва одам савдоси каби жиноятларнинг содир этилиши, миллий анъана ва кадриятларга путур етказадиган кўп маданиятли жамиятларнинг пайдо бўлиши ва бунга қарши баъзи давлатларда ксенофобия, иркчилик каби социал-психологик муаммоларнинг ҳам манбасига айланаётганлигини таъкидлашимиз мумкин.

Замонавий дунёда глобаллашув тенденциялари Ер сайёрасида яшаётган ҳар бир инсон ҳаёти, турмуш тарзига ўз таъсирини кўрсатмоқда. Жумладан, постиндустриал жамиятда аҳоли миграцияси ҳам глобаллашиб, дунёнинг деярли барча минтақалари, мамлакатлари, жамиятларини ўз домига тортмоқда. Мамлакатлар ё мигрантларни қабул қилувчи реципиент давлатга ёки уларни халқаро майдонга тақдим этувчи донор мамлакатга ёхуд бир вақтнинг ўзида ҳам реципиент, ҳам донор давлатга айланмоқда, бу жараёндан ҳеч қайси давлат четда қолгани йўқ. Хусусан, бугунги глобал миграция жараёнлари Ўзбекистон Республикасида ҳам давлат ва жамиятнинг иқтисодий, ижтимоий, маънавий, маданий, сиёсий фаолиятига ҳам бевосита, ҳам билвосита ўз таъсирини ўтказмоқда.

Мустақилликнинг дастлабки йилларидаги ишсизлик, иқтисодий қийинчиликлар, ижтимоий ҳимоя тизимидаги камчиликлар каби муаммолар сабабли Марказий Осиё республикаларида, шу жумладан, Ўзбекистон Республикасида ҳам меҳнат миграцияси иқтисодий ва ижтимоий муаммоларнинг ечимларидан бири сифатида қабул қилинган. Бугунги кунга келиб эса Ўзбекистон халқаро миқёсда асосан эмигрант яъни мигрантларни тақдим этувчи мамлакатга айланди. Статистик маълумотларга кўра, 2022 йил 1 октябрь ҳолатида Ўзбекистон Республикасининг доимий аҳолиси сони 35,8 миллион нафардан ортиқ. Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги ҳузуридаги Ташқи меҳнат миграцияси агентлигининг маълумотига кўра, 2021 йил январь ойи ҳолатида 1,7 млн нафар юртдошларимиз меҳнат муҳожирлиги сифатида чет элда меҳнат қилмоқда. Демак, расмий маълумотларга асосланиб, Ўзбекистоннинг меҳнатга лаёқатли ёшдаги умумий аҳолисининг деярли 8,5 фоизи, доимий ўртача аҳолининг эса деярли 5,0 фоизини ишлаш мақсадида мамлакатни қонуний тарзда тарк этган деб ҳисоблашимиз мумкин. Қолаверса, таълим, даволаниш каби мақсадларда чет элга кетган, бошқа давлатда қамада уч ой истиқомат қилган инсонлар ҳам мигрант сифатида тасниф

қилинади. Баъзида эса ўзбекистонлик мигрантлар иммиграцион тартибларга ҳилоф равишда (иллегал миграция) ёки миграция мақсадини ўзгартирган ҳолатда кўрсатиб (масалан, туризм, шахсий мақсадлар каби) мамлакатни тарк этишади. Афсуски, мамлакатимизда ҳозирча ташқи мигрантларнинг аниқ миқдорини таҳлил қилган маълумотлар базаси ёки статистик ҳисоботлар мавжуд эмас. Қандай асос билан бошқа мамлакатга кетилишидан қатъий назар, ташқи миграция маълум даражада жамиятимиздаги маънавий муҳитга таъсир этмоқда. Инсонларнинг бошқа давлатлар, ижтимоий ва маънавий муҳит, қадриятлар тизими билан алоқага киришиши фақатгина ўзларининг тақдирига эмас, давлат ва жамиятнинг келажасига, хусусан, мамлакатдаги маънавий муҳитнинг тараққиётига ҳам ўз таъсирини кўрсатади. Шу сабабли ҳам, Ўзбекистон Республикасида давлат миграция жараёнини, фуқароларнинг ишлаш, таълим олиш мақсадида чет элга кетишларини, хорижда истиқомат қилишларини ҳамда қайтиб келишларини тартибга солишнинг маълум тизими шакллантирилган. Давлатнинг миграцион сиёсати умуминсоний ва миллий ахлоқий қадриятлар, инсонпарварлик, миллатпарварлик, ватанпарварлик, халқлараро ҳамжиҳатлик, бағрикенглик каби ахлоқ тамойилларига асосланади. Хусусан, мамлакатимизнинг миграция билан боғлиқ қонунчилик тизими ҳам гуманизм, миллатпарварлик, ватанпарварлик каби ахлоқий тамойиллар асосида шакллантирилган.

Ўзбекистонда мигрант ота-онанинг фарзандлари кўпинча васийлар вазифасини бажаруви қариндош-уруғлар, оила аъзоларининг қарамоғида қоладилар. Бундай болалар ривожланиш нуқсонлари, психосоциал ва ҳиссий муаммоларга дуч келиши мумкин бўлиб, бунда ота-оналарнинг сафардалиги болага ғамхўрлик қилишда муаммолар туғдиради. Ота-оналарнинг миграцияси, хусусан, боланинг таълимига, соғлиғига ва ижтимоий ҳолатига салбий таъсир кўрсатиши кузатилмоқда. Ота-оналарнинг сафарда бўлиши боланинг овқатланиши, таълим олиш даражасига салбий таъсир қилиши ҳамда депрессия ҳолатини келтириб чиқариши мумкин бўлган уй юмушлари ва унинг зиммасига юклатилган масъулият боланинг эрта улғайишига сабаб бўлади.

Ота-оналарнинг миграцияси болаларнинг ижтимоий ҳимоя қилиш, сифатли таълим олиш, ота-она тарбиясини олиш ва жамиятда иштирок этиш ҳуқуқларини амалга ошириш имконини бермайди. Миграциянинг ижтимоий оқибатларини тан олиш, васийлар қарамоғида қолган болаларга ота-она миграциясининг салбий таъсирини камайтиришга қаратилган далилларга асосланган сиёсат ва дастурларни қабул қилишдаги муҳим қадамдир. Шу маънода, миграция болаларнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенциясида кўзда тутилган ҳимоя қилиниш, таълим олиш, жамиятдаги иштироки ва мустақил қарорлар

қабул қилиш ҳуқуқларини кафолатлай олмайди (UN-CRC, 1989).

Умуман олганда, кўп сонли оилаларнинг фикрига кўра, миграциянинг ижобий таъсири салбий таъсиридан кўра салмоқлидир. Чет элда ишлайдиган оила аъзолари томонидан юборилган пул жўнатмалари оилаларнинг иқтисодий заифлигини камайтириши мумкин. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, ўтказилаётган молиявий маблағлар эвазига оилалар ўз турмуш шароитларини яхшилашлари, ўқув материалларини сотиб олиш, соғлиқни сақлаш хизматларидан ва бошқа шу каби имкониятлардан фойдаланишлари мумкин.

Аммо, пул ўтказмалари оилаларнинг эҳтиёжларини, хусусан болаларнинг психологик фаровонлигини тўлиқ қондириш учун етарлими ёки йўқми ҳануз тасдиқланмаган. Ота-оналарнинг миграцияси сабабли, назоратсиз қолган болалар оиланинг бузилиши оқибатларидан жабр чекишлари, етарлича ғамхўрлик кўрмасликлари ва институтилизация хавфига дуч келишлари мумкин. Бу, айниқса, болаларнинг психологик ва ҳиссий саломатлигига таъсир қилиши мумкин.

Баъзи ҳолларда, болалар одатда ака-ука ва опа-сингилларга ғамхўрлик қилиш, уй юмушларини бажариш ва қишлоқ хўжалиги ишлари каби катталар томонидан бажариладиган ишларга жалб қилиниб, бу уларнинг таълим олиши ва бўш вақтларини ўтказишларига халақит бериши мумкин.

Хусусан, тадқиқотлар давомида болалар учраши мумкин бўлган учта асосий потенциал салбий таъсир аниқланди:

1. Болага ғамхўрлик қилиш. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, ўзбекистонлик меҳнат муҳожирларининг аксариятининг фарзандлари бўлишига қарамай, улар ёлғиз ўзлари миграция қилишни афзал кўрадилар ва кўп ҳолларда болаларни ота-онанинг бири ёки биронта қариндошнинг назорати остида қолдирадилар ёки баъзи ҳолларда уларни интернат шаклидаги муассасаларга жойлаштирадилар.

Оталар миграция қилганида, оналар одатда болаларнинг асосий ҳомийси ҳисобланади. Ота- она миграция қилган ҳолларда қариндошларнинг васий сифатида жалб қилиниши энг кенг тарқалганлигини кузатиш мумкин. Кўп ҳолларда, қариндошлар томонидан кўрсатиладиган ғамхўрлик болалар учун энг хавфсиз ва барқарор муҳит саналади. Бироқ, бундай васийлик расмий равишда расмийлаштирилмайди ёки тегишли органларда рўйхатдан ўтказилмайди ва васийлар иқтисодий муаммоларга дуч келган ҳолатларда, болалар бепарволик, эксплуатация ва таҳқирлаш хавфи остида қоладилар.

2. Болаларнинг психологик ҳолатига таъсири. Оиладаги вазиятдан қатъи назар, болаларнинг аксарияти миграция пайтида ота-оналарини соғинадилар. Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, ота-оналарнинг миграцияси болаларнинг эмоционал фаровонлигига

энг жиддий таъсир кўрсатади.

Тадқиқот шуни кўрсатдики, оталар миграцияси болаларнинг эмоционал фаровонлигини энг паст кўрсаткичга олиб тушади: отасиз яшаган болаларнинг аксарияти кайфиятнинг тушиши ва ғамгинлик ҳисси вужудга келишини қайд этишди. Бундан ташқари, кам таъминланган оилаларда ота-оналарнинг сафарда узоқ вақт бўлишлари ҳам болаларнинг ҳиссий ҳолаига салбий таъсир кўрсатади. Болалар ота-оналарини кўмсаган ҳолларда, улар стресс ҳолатига тушиб, бу ўз навбатида уларнинг кайфиятлари ва фъел-атворларидаги ўзгаришларга сабаб бўлади ва болаларнинг психологик фаровонлигининг бошқа жиҳатларига салбий таъсир кўрсатади.

3. Болаларнинг ҳимояси ва фаровонлигига таъсири. Ота-оналар миграция қилиб, ўз фарзандларини ташлаб кетишга мажбур бўлганларида, уларнинг фаровонлиги ва ҳимоясига жиддий зиён етади.

Таҳлиллар шуни кўрсатадики, васийлар одатда болаларни тарбиялаш ва назорат қилишнинг турли усулларида фойдаланадилар. Болаларнинг 7 фоизга яқини жисмоний жазолалардан, уч фоизи оиладаги зўравонликлардан ва 6 фоизи мактабдаги таҳқирлашлардан азият чекади.

Болаларнинг учдан бир қисми ота-оналарининг миграциясидан сўнг ўз зиммаларига уй юмушлар, болаларни парвариш қилиш ва ака-ука ва опа-сингилларга ғамхўрлик қилиш билан боғлиқ бўлган қўшимча мажбуриятларни оладилар. Болаларнинг ўзлари қўшимчаюмушларни ўқиш ёки ҳаётнинг бошқа соҳаларига ҳалақит берадиган омиллар қаторига қўшмайдилар. Шунга қарамай, таҳлил шуни кўрсатадики, уй юмушлари кўламнинг кенгайиши болаларнинг кайфиятига салбий таъсир кўрсатади.

ХУЛОСА

1. Мигрант оилалардаги болаларни қариндошлари томонидан васийликка олинишини таъминлаш зарур. Аҳолига ушбу жараёни амалга оширишида қуйидаги чора-тадбирлар қўл келиши мумкин:

- Расмий васийлик ва уни расмийлаштирмасликнинг салбий оқибатлари тўғрисида оилалар ва жамоалар ўртасида тарғибот-тушунтириш ишларини ташкил этиш.
- Рўйхатга олиш ва ҳужжатларни тўплаш жараёнида васийларга ёрдам бериш
- Васийликни расмийлаштириш жараёнини оддийлаштириш
- Ҳуқуқий кўмак ва маслаҳатлар таклиф қилиш

2. Болалар ва уларнинг оилалари учун меҳнат миграциясининг даражаси ва унинг оқибатларини тушуниш

учун Ўзбекистон ҳукуматидан кўпроқ миллий тадқиқотлар ўтказилиши талаб этилади. Масалан, интернат шаклидаги муассасаларга жойлаштирилган миграция таъсирига учраган болалар ҳамда зўравонлик ва камситиш қурбонлари бўлган болаларга алоҳида эътибор қаратилиши шарт.

3. Кам таъминланган оилаларни қўллаб-қувватлаш учун этарли ресурсларни ажратиш ва бундай дастурларнинг таъсирини кузатувчи мониторинг механизмларини такомиллаштириш орқали Ўзбекистонда ижтимоий ҳимоя тизимини миллий ва минтақавий даражада такомиллаштириш.

4. Одамларнинг бошқа мамлакатга ёки минтақага миграция қилишга қарор қилишларидан аввал, уларни миллий меҳнат бозорида мавжуд бўлган имкониятлар ҳақида хабардор қилиш. Маҳаллий фабрикалар, фермерлик хўжаликлари ва бошқа соҳага ихтисослашган корхоналар сони ошиб, мамлакатда иш кучига бўлган талаб ўсиб бораётган бир даврда, аҳолига доимо ҳам мавжуд имкониятлар тўғрисида маълумот берилмайди ёки улар этарли кўникмаларга эга эмас. Мавжуд иш жойлари ҳақида кенгроқ маълумот тарқатилиб, миграция қилишни ўйлаётган шахслар, айниқса фарзандли аёллар учун касбий тайёргарлик курслари ташкил этилиши мумкин.

5. Тиббий хизматлардан бутун Ўзбекистон бўйлаб фойдаланиш имкониятларини яхшилаш, бунда олис ҳудудларда жойлашган оилаларни самаралироқ қамраб олишни таъминлаш. Ҳар бир вилоятда мобил тиббий пунктларини ташкил қилиш ва жамоа аъзоларининг билимларини ошириш ечим бўлиши мумкин. Мажбурий эмлашлар жадвалига А гепатитига қарши вакциналарни киритиш ва у билан барча болаларни бепул таъминлаш (батафсил маълумот олиш учун кенг миқёсда эмлаш бўйича тадқиқотлар ўтказинг).

6. Вилоятлар даражасида 0 дан 6 ёшгача бўлган болалар учун мактабгача **таълим хизматларини яхшилаш**. Кичик ёшдаги болаларни мактабгача тарбия муассасалари хизматлари билан қамраш оналарга ишга жойлашиш имкониятларини кенгайтиради. Кам таъминланган оилаларга хусусий хизматлардан фойдаланиш ва зарур вакциналарни олиш учун субсидиялар ажратиш.

7. Ўзбекистон бўйлаб **норасмий таълим дастурларининг** хилма-хиллиги, оммавийлиги ва улардан фойдаланиш имкониятини юқори малакали мутахассислар ва мактаблар билан доимий алоқалар асосида таъминлаш тавсия этилади. Ушбу кўмак ота-оналар миграциясининг таъсирига энг кўп учрайдиган кичик ёшдаги болаларнинг ёши ва эҳтиёжларини ҳисобга олиши керак.

8. Мигрант оилалари болаларнинг зиммасига уларни норасмий таълим жараёнига жалб қилинишига тўсқинлик қилиши мумкин бўлган ортиқча уй юмушлари тушмаслиги

учун кундалик уй ишларини бажаришда **қўшимча ёрдам ва кўрсатмалар** билан таъминланишлари зарур.

9. Мактаблар ва маҳаллаларда (шу жумладан, муҳожир оилалардаги болалар билан бирга) хавф остида бўлган болаларни аниқлаш, баҳолаш ва ижтимоий хизматларга йўналтиришнинг **аниқ тизимини ишлаб** чиқиш жуда муҳимдир. Маҳаллаларда болаларни ижобий тарбиялаш мавзусида умумий таълим кампаниялари уюштирилиши зарур (мисол учун, зўравонликсиз самарали тарбиялаш усуллари, рағбатлантириш ва самарали мулоқот қилиш кўникмалари).

Миграция болаларнинг эмоционал фаровонлигига энг жиддий зарар келтирганлиги сабабли, мактабларда, коллежларда ва маҳаллий жамоаларда миграция таъсирига учраган болаларга профессионал психо-социал ёрдам хизматларини ривожлантириш ва кенгайтириш жуда муҳимдир. Ушбу ёрдам ёшга қараб мослаштирилиши ва ота-она миграцияси таъсиридан энг кўп азият чекган ёш болаларга қаратилиши лозим. Мактабларда ишлайдиган психологларга маълум бир мақсадли гуруҳ, хусусан, муҳожирларнинг болалари билан ишлаш бўйича қўшимча ўқув машғулоти ташкиллаштирилиши шарт. Мактабларда таҳқирлашларга қарши курашиш ва хавфсиз ўқув муҳитини таъминлаш бўйича комплекс дастурлар ва стратегиялар ишлаб чиқиш шарт.

REFERENCES

1. <https://parliament.gov.uz/uz/events/committee/34644/>
2. Алимов Сардор Комил ўғли. Аҳоли миграцияси ижтимоий-ахлоқий муҳит трансформацияси омили сифатида. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. 2022. <http://library.ziyonet.uz/uz/book/123332>
3. «Ўзбекистонда болалар ва ёшларини ижтимоий ҳимоя қилиш миллий тизимини яратиш». ЮНИСЕФ ҳисоботи (2020) <https://www.unicef.org/uzbekistan/en/reports/building-national-social-protection-system-fit-uzbekistans-children-and-youth>

ЗАМОНАВИЙ АХЛОҚИЙ НАЗАРИЯДАГИ ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ: МУАММОЛАР ВА ЕЧИМЛАР

С. Ҳ. Султанов

Ташкент давлат транспорт университети “Ижтимоий фанлар” кафедраси
доценти

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақола замонавий ахлоқий назариядаги ижтимоий адолатнинг намоён бўлиш хусусиятлари, унинг жамият олдида турган муаммолари батафсил илмий жихатдан ёритилган. Ижтимоий адолатнинг дистрибутив тамойил (парадигма)ларини ғарб файласуфларининг илмий қарашлари орқали таҳлил ва хулосалар бериш назарда тутилган. Бундан ташқари замонавий ахлоқий назариядаги ижтимоий адолатнинг қарор топишида илмий асосланган ечимлар таклиф этилган.

Калит сўзлар: Ижтимоий тузум, дистрибутив тамойил, Меритократия, утилитар тамойил, либертар деонтология, Натуралистик модел, Парето принципи.

КИРИШ

XX асрнинг сўнгги учдан бирида адолатли ижтимоий тузум масалаларида Ғарбнинг ахлоқий назариясига қизиқишнинг сезиларли даражада ошишига олиб келди, адолат назариясининг муаммоли соҳаси қуйидаги контурларни олди. Демократик ижтимоий тузумни, расмий фуқаролик тенглигини ва бир қатор асосий шахсий эркинликларни таъминлашни талаб қиладиган ҳуқуқий ёки сиёсий адолат масалалари бўйича тахминий консенсус фонида адолатли ижтимоий-иқтисодий тақсимлаш масаласи жуда мунозарали бўлиб чиқди. Айнан шу мавзу анъанавий равишда «ижтимоий адолат» деб номланади. Адолат назариясининг концептуал ривожланиши турли хил тақсимловчи парадигмаларни аниқлаштириш ва улардан бирон бирига устунлик беришга имкон берадиган оқилона асосларни излаш билан боғлиқ бўлиб чиқди. Бунда, тушунчаларнинг кенг доирасига қарамасдан, уларнинг умумий тенденцияси бугунги кунгача сақланиб қолган, буни меъёрий ва эпистемологик бирлашиш тенденцияси деб аташ мумкин. Бироқ, шу пайтгача маълум асослаш мантиқлари ва дистрибутив парадигмалар ўртасида аниқ боғлиқлик ҳали шаклланмаган. ундан ягона дистрибутив тамойил (парадигма) келиб чиқиши керак.



АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

а) дистрибутив парадигмаларнинг анъанавий тўплами

Ижтимоий-иқтисодий тақсимот соҳасида учта асосий тақсимловчи парадигмани ажратиб кўрсатиш мумкин, улар ушбу имтиёзларни тақсимлашнинг турли мезонларини белгилайдилар, уларнинг эгаллиги маълум бир ижтимоий тизим доирасида шахснинг нисбий фаровонлиги ҳақида гапиришга имкон беради. Биринчидан, бу эгалитар парадигма бўлиб, бунда инсон эҳтиёжларининг тахминий тенглиги мезон ҳисобланади. Қуйидагиларни бундай тенгликнинг қонуний тимсоли деб ҳисоблаш мумкин: а) тенг якка тартибдаги мулк, асосан меҳнат;

б) истеъмолчиларнинг жамоа (жамоат) мулкига тенг кириш ҳуқуқи, ва ниҳоят;
в) ушбу мулкка эга бўлган шахсларнинг фаолияти натижаларини қисман тенглаштирувчи тузатиш. ижтимоий институтлар ва истеъмолда тенгсизликни келтириб чиқарадиган табиий жараёнлар.

Биринчиси, замонавий шароитда Руссо идеали мутлақо архаикдир.

Иккинчи дистрибутив парадигма муносиб тақсимланишни назарда тутди. У кўпинча меритократик тушунча деб аталади. Меритократик контекстда, тенгликдан фарқли ўлароқ, одамларга тенг муносабатда бўлиш ғояси пропорционал тенглик призмаси орқали талқин қилинади («Тенг бўлмаганлар учун тенглик тенг бўлмайди» деган машҳур Платон баёноти руҳида). Ушбу концепциянинг биринчи тезиси шундан иборатки, нуфузли ижтимоий лавозимларга кириш фақат ижтимоий муҳим функцияларни бажаришга қодир бўлган шахслар учун очиқ бўлиши керак ва улар буни амалга оширишга қодир бўлган даражада бўлиши керак. Адолатни меритократик тушунишнинг парадигматик асоси - бу Аристотелнинг ғояси. Шу сабабли, хизмат тушунчаси ирсий-аристократик кадр-қимматдан қатъий чегараланган ва шахснинг ижтимоий-тарихий илдизларидан ташқарида олинган кадр-қимматини тавсифлайди. Меритократик концепциянинг иккинчи тезиси - бу хизмат нафақат функционал ижтимоий мавқеларга эга бўлишни, балки улар билан боғлиқ ижтимоий мақомнинг тўлиқлигини ҳам аниқлаши керак, деган ишонч. Ижтимоий аҳамиятга эга функцияларни амалга ошириш хурмат белгиларига, шунингдек, истеъмол товарларига тегишли мутаносиб равишда тенг бўлмаган ҳақ тўлаш билан боғлиқ бўлиши керак. Ушбу дистрибутив парадигма доирасида радикал ва мўътадил ўзгаришлар аниқ ажралиб туради. Радикал версия гўёки нолайик тенгсизликларни келтириб чиқарадиган институтларни (оила, ҳадя ва мерос ҳуқуқига эга бўлган шахсий мулк ва бошқалар) йўқ қилишни, шахсларни

уларнинг қобилиятларига (биринчи, потенциал) мувофиқ қатъий расмий рейтингини талаб қилади. Кейин, муайян фаолият соҳасида синовдан ўтказилади. Бироқ, меритократиянинг радикал версияси, аввалги радикал эгалитаризм каби, ўз моҳиятига кўра, инсон табиатини енгиш лойиҳаси бўлиб, уни адолат тушунчаси чекловлари нуктаи назаридан обрўсизлантиради. Ўртача меритократик лойиҳа бошқача кўринади.

Учинчи тақсимловчи парадигма тарафдорлари учун адолат мулкка қонуний эгалик қилиш ва шу билан боғлиқ барча ижтимоий афзалликлардан фойдаланишдан иборат. Ушбу парадигма замонавий ижтимоий ахлоқдаги либертар анъанага мос келади. Унинг асосий тезиси марказлашган бошқарув аппарати томонидан ресурсларни адолатли тақсимлашнинг ҳар қандай схематик схемаларини рад этишдир. Шу муносабат билан «адолат» ёки, ҳеч бўлмаганда, «ижтимоий адолат» тушунчаси жиддий шубҳа остида қолади. Агар маълум бир мулк жисмоний шахс томонидан меҳнат ёки тадбиркорлик фаолияти асосида олинган ёки фирибгарлик ва зўравонлик содир бўлмаган ҳолатларда унга бошқа шахслар томонидан берилган бўлса, у қонуний равишда уларга эгалик қилади ва ҳеч ким бундай эгалик қилишни адолатсиз деб эътироз билдира олмайди.

Ижтимоий-ахлоқий назария сифатида либертар ёндашувнинг асосий қийинчиликлари орасида унинг асосий тенглик ахлоқий ғояларидан, ўз қўшнисининг фаровонлиги учун ғамхўрлик қилиш императивидан ва ахлоқнинг бошқа аксиомаларидан яққол ажралиб туришидир. Ижтимоий ва иқтисодий либертаризм, жиддий чекловлардан ташқари, ахлоқий позиция сифатида эмас, балки эгасининг худбинлигининг оддий мафкуравий акси сифатида қарайди.

б) ижтимоий адолатни назарий асослашнинг парадокслари

Адолатни оқлашнинг турли мантиқларига келсак, улар қуйидаги асосий моделлар билан ифодаланади: интуитивистик, утилитар, натуралистик, контракт.

Дистрибуторлик сиёсатини асослашнинг биринчи усули - бу бизни у ёки бу тарқатиш вариантини энг адолатли деб танлашга мажбур қиладиган оқилона аниқ бошланғич нукталарга мурожаат қилишдир. Ҳар қандай ижтимоий тизим доирасида таъминланиши шарт бўлган, ажралмас шахс ҳуқуқ ва эркинликлари асосида қурилган адолат тушунчаси бунга мисолдир. Улар тўғридан-тўғри барча одамларнинг бир-бири учун ҳақиқий аҳамиятидан қатъи назар, тенг қадрият ғоясини ифодалайди. Шундай қилиб, тақсимловчи адолат муаммосига нисбатан

қўлланиладиган ажралмас ҳуқуқлар деонтологияси, биринчи навбатда, меритократик парадигмага қарши кучли тенглик юклайди. Бироқ, тенг ҳуқуқли хулосалар унинг учун олдиндан айтиб бўлмайдиган хулоса эмас. Шахсий ҳуқуқлар бир ҳил яхлитликни ташкил этмайди. Улар салбий (ёки «биринчи авлод» ҳуқуқлари) бўлинади, улар ҳуқумат ва бошқа одамлар автоном шахнинг ҳаётига аралашидан сақлайдилар ва ижобий (ёки иккинчи авлод ҳуқуқлари) ҳар бир шахс кафолатланади. фаровонликнинг маълум даражаси. Турли ҳуқуқларнинг устуворлиги ва амалга оширилиши жуда бошқача норматив тавсияларни талаб қилади.

Биринчи авлод ҳуқуқларининг муҳимлигини таъкидлаган ҳолда, ҳар қандай қайта тақсимлашни жамиятнинг энг муваффақиятли аъзоларидан фойдаланиш, уларни мустақил шахс сифатида «бекор қилиш» ва шу билан уларнинг инсоний қадр-қимматини жиддий камситиш деб ҳисоблайдиган либертар деонтология шаклланади (Р. Нозик). Бироқ, агар биринчи авлод (фуқаролик ҳуқуқи устунлик қиладиган) ҳуқуқларини амалга ошириш бевосита ижтимоий-иқтисодий ҳуқуқларга риоя қилишга боғлиқ бўлса, адолатни оқлашнинг интуитив мантиғи доирасида бошқача талқин устунлик қилади. истеъмол даражасини тенглаштириш ҳисобланади.

Адолатли тақсимотни асослашнинг иккинчи модели утилитардир. Утилитар тафаккурда фундаментал ахлоқий тенглик асоси юқорида қайд этилган, Ж. Бентамга тегишли формула билан ифодаланади. Бироқ, утилитар тақсимот тушунчаларининг ҳақиқий эгалитаризм даражаси ресурсларни тақсимлашнинг у ёки бу варианты томонидан яратилган умумий фойдалиликни ўзгартирадиган бир қатор шартларга боғлиқ. Мисол учун, агар киши фойдалиликни шахсларо таққослашнинг ўта қийинлиги ёки имконсизлиги ҳақидаги тезисга амал қилса, у ҳолда ресурсларни тақсимлаш принципи Парето принципи бўлади. Бундай ҳолда, фойдалиликни максималлаштириш мантиғи ҳар қандай тенг бўлмаган тақсимотни тасдиқлашга олиб келади, агар қайта тақсимлаш ҳар қандай шахснинг статус-кво билан солиштирганда мавқеини ёмонлашишига олиб келадиган бўлса. Бироқ, агар эркин бозор алмашинуви тизими Парето-оптимал тартиб сифатида қабул қилинса, у ҳолда фойдалиликни максимал даражада ошириш истаги бизни ўртача либертар позицияга олиб келади. Бироқ, агар шахсларо таққослашлар имкони борича эътироф этилса ва камбағалларнинг маълум миқдордаги товарларни олиши умумий фойданинг ошишига олиб келади деган тахминга асосланиб, «пасайтирувчи маржинал фойдалилик» тушунчаси қўлланилса, ҳаддан ташқари таъминланган томонидан бир

хил миқдордаги товарларни йўқотишдан кўра, утилитаризм ижтимоий адолатнинг тенглик тушунчасига айланади. Аммо утилитаризмнинг меъёрий хулосаларининг мумкин бўлган ўзгаришлари ҳам шу билан тугамайди. «Маржинал фойдалилик»ни камайтириш қонунини қабул қилгандан кейин ҳам утилитар позицияни меритократик ёки либертар парадигма фойдасига ўзгартириш мумкин. Бунинг сабаби шундаки, хизматни тақсимлаш ёки қонуний эгалликни ҳимоя қилиш жамиятнинг иқтисодий самарадорлиги ёки ижтимоий-сиёсий барқарорлигининг зарурий шарти сифатида қаралиши мумкин.

Замонавий ижтимоий ахлоқда ҳуқуқларнинг интуитивист деонтологияси ва утилитаризмнинг энг кенг тарқалган алтернативаларидан бири бу адолатли тақсимотнинг натуралистик асослаш моделидир. Натуралистик модел тарафдорлари сиёсий ва ахлоқий фалсафанинг классик, замонавийгача бўлган моделларига қайтишни таъкидлайдилар. Уларнинг асосий тезиси - инсоннинг табиий хусусиятларини ва шу хусусиятлардан келиб чиққан ҳолда, инсон тақдирининг маълум бир қиёфасини тузатиш мумкинлиги ҳақидаги даъводир. Кейин ресурсларни тақсимлашни назорат қилувчи ижтимоий механизмларнинг самарадорлиги ажралмас ҳуқуқлар кафолатлари ёки имтиёزلарни максимал даражада ошириш нуқтаи назаридан эмас, балки инсоннинг муҳим эҳтиёжларини рўёбга чиқариш ва мукамалликка эришиш учун шарт-шароитларни яратиш нуқтаи назаридан белгиланади.

ХУЛОСА

Шундай қилиб, санаб ўтилган асослаш моделлари потентсал чексиз мунозарада иштирок этади ва уларнинг ҳеч бири фақат битта дистрибутив парадигма фойдасига ишлайдиган далилларни келтирмайди. Ушбу нохуш ҳолат ижтимоий адолатни шартномавий тушунишда ҳисобга олинганга ўхшайди, бу эрда фаразий танлов учун адолатли шартларни танлаш оқилона қабул қилиб бўлмайдиган асослаш назарияларини йўқ қилишга ва дистрибутив парадигмаларнинг идеал мувозанатини аниқлашга имкон беради. Масалан, Ж.Роулс фикрича, ҳалол келишув шартлари фонид асослашнинг утилитар ва натуралистик моделлари уларнинг номувофиқлигини очиб беради, ҳуқуқларга оид сезгилар эса аниқ ва бир маъноли шаклга эга бўлади.

Бироқ, Ж.Ролснинг фаразий шартномаси назарияси томонидан таклиф қилинган хулосаларнинг бир маънолилиги ҳам жиддий савол остида. «Дастлабки позиция»даги иштирокчиларнинг фикрлаш мантиғи ва унинг натижалари турли назарийётчилар томонидан турли йўллар билан тақдим этилади. Шундай

қилиб, Ж.Харсаний рационаллик ва асосли таваккалчилик нисбатининг Ж.Роулсникидан бир оз бошқача талқинига таяниб, хаёлий шартнома иштирокчилари, гарчи улар ноутилитарликдан фойдаланган бўлсалар-да, барибир тақсимлашнинг утилитар тамойилини танлашларини таклиф қилди. танлаш пайтидаги тахминлар ҳисобланади. Ж.П.Стерба уларнинг танлови «юқори, аммо барча мумкин бўлган ижтимоий минимумларнинг энг юқориси эмас» деб айтишни таклиф қилади. Шу билан бирга, Д. Белл ноэгалитар тақсимот усулларини асослаш учун шартномавий методологиядан анча муваффақиятли фойдаланган.

REFERENCES

1. Kadamovich, Y. J., Muzaffarova, I. G., Maxmudovich, Y. B., Vохtiyarova, S. S., & Xabibullayevich, S. S. (2020). Social justice as a condition of socio-spiritual stability in society. *Journal of Critical Reviews*, 7(5), 816-818.
2. Раматов, Ж. С., Баратов, Р. Ў., Султанов, С. Ҳ., Кушаков, Ф. А., Валиев, Л. А., & Хасанов, М. Н. (2022). ҲОЗИРГИ ДАВРДА ИЖТМОИЙ АДОЛАТ ҲАҚИДАГИ ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЛҚИНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(9), 647-656.
3. Ramatov, J.S., & Khasanov, M.N. (2022). HISTORY OF RAILWAY CONSTRUCTION IN UZBEKISTAN: YESTERDAY AND TODAY. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (6), 925-930.
4. Раматов, Ж. С., Хасанов, М., & Назарова, Н. Ж. (2022). МЕДИАМАДАНИЯТ ВА АХБОРОТДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. *Academic research in educational sciences*, 3(6), 984-988.
5. Раматов, Ж. С., Хасанов, М., & Валиев, Л. А. АУРОБИНДО ГҲОШ ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ ФАЛСАФИЙ МЕЪРОСИ.
6. Раматов, Ж. С., Хасанов, М., & Валиев, Л. А. (2022). ИНСОН ДУНЁҚАРАШИНИНГНИНГ ДИНИЙ ВА ДУНЁВИЙ ТАЛҚИНИ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2 (7), 78-82.
7. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Jurabayev, N., & Artikova, B. (2022, June). Constructive and optimal solutions for the formation of a stable ecological situation in the Aral Sea region of Uzbekistan. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 030113). AIP Publishing LLC.



8. Rashid Usarovich Baratov, & Nilufar Jo,,Rayevna Nazarova (2022). YOSHLAR HAYOTIY STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA TAʼLIMNING OʻRNI. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 830-833.
9. Бобошев, З. Н., Ҳасанов, М. Н., & Нуруллаев, Э. А. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ПЕДАГОГИКА ФАНИНИНГ АСОСЧИСИ СИФАТИДА.
10. Журабоев, Носир Юсупович, & Ҳасанов, Миршод Нўъмонович (2022). ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ СОҲА РИВОЖИ: ИСЛОҲОТ ВА ИСТИҚБОЛ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (6), 1274-1283.
11. Ж. С. Раматов, & М. Ҳасанов (2022). МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР – ЖАМИЯТИМИЗ БАРҚАРОРЛИГИ ВА ЁШ АВЛОД ТАРБИЯСИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ. Academic research in educational sciences, 3 (6), 973-979.
12. J. S. Ramatov, M. Hasanov МАФКУРАВИЙ АХЛОҚ ТАРБИЯСИНИНГ АНАМИЯТИ // Pedagogik fanlar boyicha akademik tadqiqotlar. 2022 yil. 6-son. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mafkuraviy-ta-didlarni-oldini-olishda-ahlo-iy-tarbiyaning-a-amiyati> (kirish sanasi: 04.10.2022).



ЭЛЕКТРЛАШГАН ТЕМИР ЙЎЛЛАР КОНТАКТ ТАРМОҒИ ДИНАМИКАСИНИ ЎЗГАРИШИДА ТЎҒРИ МАТЕМАТИК МОДЕЛЛАШТИРИШ УСУЛИНИ ҚЎЛЛАШ

Азим ўғли Ислон Каримов

Тошкент давлат транспорт университети, «Электр таъминоти» кафедраси
ассистенти
nauka.islom@gmail.com

Иномжон Ўролов

Тошкент давлат транспорт университети, ЕТ-758 гуруҳ талабаси

АННОТАЦИЯ

Ток олишнинг тадқиқот усуллари такомиллаштиришнинг истиқболли йўналишлари (ОЭУ) тамойилидан фойдаланиш, тўғри математик моделлаштириш (ТММ) усули асосида янги сонли алгоритмларни ишлаб чиқариш лозимдир. ТММ да ўтказилган ҳисоблар - дифференциал тенгламалар тузмасдан туриб тўғридан тўғри оддий ҳисоблаш нисбатларини олиш имконини берувчи кучли воситадир. Контакт тармоғининг динамик масалаларни ечиш учун ТММ қўллаш, кўп муҳандисларга контакт осмаси элементлари: контакт сими; ушлаб турувчи трос; торлар ва фиксаторларни ҳақиқий хусусиятларни инобатга олган ҳолда математик моделларни яратиш контакт тармоғини бир нечта ток қабул қилгич билан ўзаро таъсири хусусиятлари ўрганиш имконини беради.

Фазовий ромбсимон контакт тармоғи (ФРКТ) да қўлланилувчи ток қабул қилгич билан контакт осмаси ўзаро таъсири учун ТММ методикасини қўллаш хусусиятларни кўриб чиқамиз. Контакт симини қотириш нуқталарига осилган мутлақо эгилувчан иш сифатида тасаввур қилинган. Қотириш нуқталари бир хил баландлик даражасида бўлсин ва қотирилишлар орасидаги масофа L , ипнинг чизиқли зичлиги ρ ва тортилиши K билан тавсифланади. ТММ усулининг умумий алгоритмига мувофиқ, тола n та таркибий элементга бўлади. Бунда иккала элемент ва бўлимларга тартиб рақамлари берилади.

Таркибий элемент шартли равишда уч қисмга бўлинади: ички, бу элементнинг эластик инерциял хусусиятига боғлиқ ва иккита инерциясиз чегарали ҳудудларга бўлинади.

Калит сўзлар: контакт тармоғи, ток қабул қилгич, тўғри математик моделлаштириш, охириги элементлар усули, эластиклик, тебраниш.

ABSTRACT

The highest level of detail of the contact suspension is achieved in the finite element (FEM) models. Calculation of DMM is a powerful tool that allows to obtain simple calculation relations directly, without making differential equations. Application of DMM to solve the problems of the dynamics of the contact network, gives a wide range of engineers the opportunity to create mathematical models taking into account the real characteristics of the elements of the contact suspension: a contact wire, a bearing cable, Strings and fixtures; study the interaction of contact suspension with several current collectors.

Let's consider the features of application of the DMM method to the problems of interaction of contact suspension with current collectors on the example of spatially rhomboid autocompensated contact line SRACL. Imagine a contact wire with a completely flexible thread suspended on supports. Let the suspension points be at the same height level and the distance between the supports is L . The strand is characterized by linear density ρ and tension K . According to the general DMM algorithm, the strand is divided by sections into n structural elements. Both elements and sections are assigned serial numbers.

The structural element is conventionally divided into three parts: the inner, which is attributed the elastic-inertial properties of the element, and the two non-interferential boundary regions.

Keywords: contact line, pantograf, direct mathematical modeling, finite element method, elasticity, disturbances.

КИРИШ

Ҳозирги вақтда электрлашган темир йўллар контакт тармоғида ток қабул қилгич билан контакт осмасини ўзаро таъсирини ўрганишнинг асосий усули математик моделлаштиришдир. Бу ҳолат тавсилотларнинг энг юқори даражасига контакт осмаларини моделларда охириги элемент усули (ОЭУ) ёрдамида эришилади [1,2]. Бу ерда контакт осма ўзининг таркибий элементлари орасидаги боғланишлар тўплами намоён бўлади, ҳамда ҳар бир элементнинг ҳаракати оддий дифференциал тенгламалар билан тавсифланади. Контакт осмасини алоҳида элементларга ажратиш, ҳисоблашлар хусусий ҳосилаларда дифференциал тенгламаларни ечиш орқали осонлаштирилади. Шу билан бирга, ҳар қандай контакт осмасини берилган массаси каби шартли параметрларидан фойдаланиш керак эмас. Баъзи ҳолларда мураккаб дифференциал тенгламаларни оддий дифференциал тенгламалар системасига келтириш учун охириги элементлар усули (ОЭУ) қўлланилади [3-4].

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ


Ушбу соҳада рус олимлари: Демченко А.Т., Туркин В.В. лар изланишлар олиб борган ва илмий ишларида таҳлиллар олиб бориш натижасида куйдаги усуллардан фойдаланишган. Ток олишнинг тадқиқот усулларини такомиллаштиришнинг истиқболли йўналишлари (ОЭУ) тамойилидан фойдаланиш, тўғри математик моделлаштириш (ТММ) усули асосида янги сонли алгоритмларни ишлаб чиқариш лозимдир.

ТММ да ўтказилган ҳисоблар - дифференциал тенгламалар тузмасдан туриб тўғридан тўғри оддий ҳисоблаш нисбатларини олиш имконини берувчи кучли воситадир. Контакт тармоғининг динамик масалаларни ечиш учун ТММ қўллаш, қўп муҳандисларга контакт осмаси элементлари: контакт сими; ушлаб турувчи трос; торлар ва фиксаторларни ҳақиқий хусусиятларни инобатга олган ҳолда математик моделларни яратиш контакт тармоғини бир нечта ток қабул қилгич билан ўзаро таъсири хусусиятлари ўрганиш имконини беради.


МУҲОКАМА

Фазовий ромбсимон контакт тармоғи (ФРКТ) да қўлланилувчи ток қабул қилгич билан контакт осмаси ўзаро таъсири учун ТММ методикасини қўллаш хусусиятларни кўриб чиқамиз (1-расм). ФРКТ юзавий схема билан алмашлашда сезиларли содалашган ҳисобларга эришилади, ўзаро эластиклик элемент билан боғланган контакт сими ва ушлаб турувчи тросдан ташкил топган (2-расм). Схепада контакт осма симлари: ушлаб турувчи трос ва контакт симларининг тортилиши T ва K , ушлаб турувчи трос ва контакт симлари икки баробар тортилиш кучига эга. Эластиклик элемент C қаттиқлик билан характерланади ҳамда тортиш, куч катталигига боғлиқ эмас, фиксаторга мос бириктирилганлиги тажриба натижаларидан намоён бўлмоқда [6].

Ҳар бир симнинг тортилишини доимий деб ҳисоблаймиз, ток қабул қилгичнинг кўтаришига боғлиқ эмас, контакт симларини оғирлик юкламалари қотириш оралиқлари бўйича тенг тақсимланган. Биз контакт симига таъсир қилувчи барча кучларни маълум деган тахмин қилиб чиқамиз. Бундай ҳолатда, муаммо бир нечта ташқи кучлар таъсирида контакт симининг тебраниш қонуниятини ўрнатиш учун камаяди. Бундай муаммонинг ечими [5] да келтирилган, аммо бу ерда биз ТММ усулининг ҳисобланадиган муносабатларда олиб келадиган бошланғич нуқталари ва асосий тамойилларини қисқача кўриб чиқамиз.



1-расм. Қотириш ораллиқларида ФРКТ элементлари жойлашуви



2-расм. (Бир қотириш ораллиғида) ФРКТ юзали алмашлаш схемаси


Контакт симини қотириш нуқталарига осилган мутлақо эгилувчан ип сифатида тасаввур қилинган (3 расм). Қотириш нуқталари бир хил баландлик даражасида бўлсин ва қотирилишлар орасидаги масофа L , ипнинг чизиқли зичлиги ρ ва тортилиши K билан тавсифланади. ТММ усулининг умумий алгоритмига мувофиқ, тола n та таркибий элементга бўлади. Бунда иккала элемент ва бўлимларга тартиб рақамлари берилади. Бундай ҳолатда, j чап қисмининг рақами элементлар тартиб рақамига мос келиши керак. Хусусан, биринчи қисми ($j=1$) толанинг чап қисми билан мос келиши керак, унинг охириги қисми ($j=n+1$) билан (4 расм, a).

Таркибий элемент шартли равишда уч қисмга бўлинади: ички, бу элементнинг эластик инерциял хусусиятига боғлиқ ва иккита инерциясиз чегарали ҳудудларга бўлинади. Моделлаштиришнинг ҳар қадами Δt охириги вақт ораллиғига мос келади, унинг давомийлиги куйидаги ифода билан аниқланади:

$$\Delta t = \frac{\Delta x}{c}.$$

Бу ерда $\Delta x = \frac{L}{n}$ - таркибий элементнинг чизиқли ўлчами; c тўлқиннинг кўндаланг тарқалиш тезлиги. Бошланишида босқичнинг ҳар бир вақтда таркибий элементи

бир хил ҳолатда бўлади, бунда кўндаланг кучлар Q_0 ва кўндаланг тезлик v_0 билан характерланади (4 расм, б). Бу вақтда чегаралар томонидан кўндаланг Q кучлар ва v тезлик кўзғалиш элементнинг чуқур қисмига қараб тарқала бошлайди.



3-расм. Ўзгарган ҳолатдаги эгулувчан ип

$0,5\Delta t$ вақтда фронтал томонлар элементининг ўртасида учрашади ва $t > 0,5\Delta t$ бўлганда бир жинсли ҳолат ўрнатилади, жорий босқичнинг охирига келиб бутун элементга тарқалади. Бу бир жинсли ҳолатда кўндаланг тезлик v ва кўндаланг кучлар Q қуйидагича тавсифланади.

$$v = v^+ + v^- - v_0 = v_0 + \Delta v^+ + \Delta v^-; \quad (1)$$

$$Q = Q^+ + Q^- - Q_0 = Q_0 + \Delta Q^+ + \Delta Q^-. \quad (2)$$

Тортилишининг кўндаланг ташкил этувчилари ўсиши маълум тортилиш ва φ бурчак тангенсини ошириш бўйича аниқланади. φ кичик бурчак бўлганда қуйидагича аниқланади.

$$Q^\pm - Q_0 = \pm K(\varphi^\pm - \varphi_0). \quad (3)$$

Таркибий элементлардаги кўзғалишлар фронт томонга тарқалса, импульснинг сақланиш қонуниятини бажариш керак

$$Q^\pm - Q_0 = \pm \rho c(v^\pm - v_0). \quad (4)$$


шунингдек мустаҳкамликни сақланиш шарт.

$$v^\pm - v_0 = \pm c(\varphi^\pm - \varphi_0). \quad (5)$$

(3) ва (5) ифодадан қуйидагини оламиз:

$$c = \sqrt{\frac{K}{\rho}}. \quad (6)$$

(6) ифодадан маълум бўладики, эгулувчан ипда кўндаланг тўлқин тарқалиш тезлиги учун классик тенгламадир.



4- расм. Дастлабки деформацияланмаган ҳолатдаги якуний таркибий элемент (а), тебранишларнинг жорий босқич бошида тарқалишида (б), тебранишларнинг маълум вақт босқичида тарқалишида (в)

(1), (2), (4) ифодалар, шунингдек таркибий элементнинг ташқи чегараларида кўндаланг куч ва тезлик тенглиги шартлари, эгилувчан ип учун ТММ усули ёрдамида кетма-кет боғланишларни олишимиз мумкин:

$$v_j = \frac{v_{j+10} + v_{j-10} + \frac{1}{\rho c} [Q_{j+10} - Q_{j-10} + P_{j*0}^+ + P_{j*0}^-]}{2}; \quad t_4 \quad (7)$$

$$Q_j = \frac{\rho c [v_{j+10} - v_{j-10}] + Q_{j+10} + Q_{j-10} + P_{j*0}^+ - P_{j*0}^-}{2}. \quad (8)$$

Бу ерда P_{j*0}^\pm - куч, j - элемент ташқи чегарасига бириктирилган (4-расм).

$j = 1$ ва $j = n + 1$ ($v_1^- = 0, v_n^+ = 0$) бўлимларга чегаравий элементларнинг кўндаланг тезликлари ва кучларни ҳисоблаган ҳолда аниқлаш кейинги ифодада келтирилган:



$$v_1 = \frac{v_{20} - v_{10} + \frac{1}{\rho c} [Q_{20} - Q_{10} + P_{1*0}^+]}{2}; \quad (9)$$

$$v_n = \frac{v_{n-10} + v_{n0} - \frac{1}{\rho c} [(Q_{n-10} - Q_{n0}) - P_{n*0}^-]}{2}; \quad (10)$$

$$Q_1 = \frac{\rho c [v_{20} + v_{10}] + Q_{20} + Q_{10} + P_{10}^+}{2}; \quad (11)$$

$$Q_n = \frac{\rho c [v_{n-10} + v_{n0}] - (Q_{n-1} + Q_{n0}) + P_{n0}^-}{2}. \quad (12)$$

Эгилувчан ип учун ТММ усули кетма кет боғланишлар натижасида (7)-(12) ифодаларда яхлит системани ташкил қилади. Моделлаштириш маълум ташқи кучлар (7)-(12)ларда алмаштириш орқали босқичнинг ҳозирги вақтда кўндаланг куч ва тезликларни аниқлаган камаяди, шунингдек v_0 ва Q_0 параметрлари ўтган босқичларида ҳар бир элементнинг ҳолати аниқланган эди.

НАТИЖАЛАР

5 расмда контакт симининг профили кўрсатилган ва компьютер модели ёрдамида чизилган. Бу ерда контакт осмасига 120 Н катталиқдаги тўпланган вертикал куч, 250 км/с (69.44 м/сек) тезликли 9 метр оралиқ узунликга силжийди. Контакт симини тортилиши 15 кН, чизиқли зичлиги 1,068 кг/м. $t_1 - t_4$ эгри чизиқлар контакт осмаси 0,0331 сек; 0,0648 сек; 0,0864 сек; 0,1166 сек даги ҳолатини мос вақтидаги чизиқларни кўрсатади [7]. Ўнг чегарагача фронт шакли тўғри чизиққа яқин. Бу чизиқ оғишининг X ўқидаги бурчаги ток қабул қилгич ва таъсирларнинг тарқалиш тезлиги билан аниқланади. Масалан, у тезликлар тенг бўлган ҳолда тўлқин fronti X ўқиға перпендикуляр бўлган тўғри чизиқ бўлар эди.

Эгилувчан ипнинг тебранишларининг моделлаштириб олинган натижаларига кўра: ток қабул қилгичнинг ҳаракати ошиши билан контакт симини тепага кўтаришнинг максимал қиймати ҳаракатланиш йўналиши бўйича силжийди. Ўнг чегарадан (t_1 ва t_4 эгри чизиқлар) акс эттирилган тўлқиннинг фронтал томони билан учрашувга қадар контакт нуқтасининг траекторияси тўғри чизиққа яқин эканлигини кўриш осон. Бу вақтда контакт осмаси тезда пастга тушади, кескин тушиши кузатилади. Шу сабабли ҳаракатланиш тезлиги ошганда ток қабул қилгич аксланган тўлқин билан учрашувга нисбатан узоқроқ силжийди. Шу билан бирга чегара энг катта тепага кўтарилиши кузатилади.

Умумий ҳолда P_{j*0}^{\pm} катталиқ элементларнинг ташқи чегараларга Y ўқиға келтирилган кучлар проэкцияси йигиндисига тенг. Юқоридаги мисол P_{j*0}^{\pm} контакт симидаги

боғланиш катталигини аниқлайди. Маълумки контакт осмаларининг ток қабул қилгич билан ўзаро босилиш кучи ўзгарувчан бўлади ва тенг оралиқларда ўзгариши мумкин. Агар Δt вақт оралиғидаги контакт сими ва ток қабул қилгич орасида тирқич ($\delta > 0$) бўлса, бу вақтдаги сиқилиш нолга тенг бўлади ва осма эркин тебранади. Ток қабул қилувчининг полози контакт сими бўйлаб сирпанишида ($\delta = 0$), османинг тебранишларини мажбурий ток қабул қилгичнинг куч билан босилиши тушунтирилади. Бу кучни аниқлаш учун сирпанчиқнинг ток қабул қилгич томондан вертикал куч F_T таъсир этгандаги оғирлиги m деб қабул қиламиз. Бунда ток қабул қилгич қандайдир вақт доирасида t оғирлиги, сим йўналишига юқорига вертикал қаратилган v_{m0} тезлик билан йўналтирилган.

ХУЛОСА

Хулоса сифатида кейинги вақтлар давомида массаси билан контактда бўлишлиги эътиборга олган ҳолда шу оралиқдаги формуласини ўрта тезликни қуйидагича аниқлашимиз мумкин:

$$v_{m\dot{p}} = v_{m0} + 0,5\Delta v_m = v_j^- = v_{j-1}^+, \quad (13)$$

бу ерда Δv_m -оралиқ давомида тўла тезлигини ўзгариши.

Шундай қилиб m сим билан контакт бўлганда ҳаракатланганлиги сабабли, босқичдаги ўртача тезлик $v_{m\dot{p}}$ контакт нуқтасидаги элементларнинг чегаралари тезлигига тенг бўлиши керак.

$$v_{m\dot{p}} = v_j^- = v_{j-1}^+.$$

Импульснинг сақланиш қонунига мувофиқ:

$$\Delta v_{m\dot{p}} = F \frac{\Delta t}{m}, \quad (14)$$

бу ерда $F = F_H + F_T - m$ оғирлигига қўлланиладиган ташқи кучларнинг Y ўқи бўйича проэкцияси; $F_H = Q_j^- - Q_{j-1}^+$ - сим томонидан m оғирлигига таъсир қилувчи кучнинг Y ўқи бўйича проэкцияси. F_H кучи мутлоқ қийматга эга қийматга тенг ва контакт босиш кучига қарама-қаршидир.


$$(4) \quad \text{ифодадан фойдаланиб} \quad Q_j^- - Q_{j-1}^+ = Q_{j0} - Q_{j-10} - \rho c [2v_j^- - (v_{j0} + v_{j-10})].$$

(13) ва (14) ни ҳисобга олиб, қуйидаги ифодани келтириб чиқарамиз

$$F_j = \frac{Q_{j0} - Q_{j-10} - \rho c [2v_{m0} - (v_{j0} + v_{j-10})] - F_T \frac{m_j}{m}}{1 + \frac{m_j}{m}}; \quad (15)$$

бу ерда $m_j = \rho c \Delta t$.


(7)-(12), (15) ифодалар полз ва контакт симининг биргаликдаги ҳаракати қонунини белгилайди. Агар бирор бир босқичда узилиш қайд этилса, босиш катталиги нолга тенг деб қабул қилинади. Шу вақтдан бошлаб ток қабул қилгичнинг тебранишлари мустақил равишда моделлаштирилади. Контакт симини ток қабул қилгич полози билан теккизиш бўшлиғининг ўлчами δ билан белгиланган. Қоида тариқасида, контакт сими билан ток қабул қилгич контактга киришиш билан бирга юзага келади, бу салбий бўшлиқ $\delta < 0$ билан тафсифланади. Контакт нуктада компенсацияни амалга ошириш учун қўшимча “итариш” кучи бўлиши керак босқич охирида тирқич нолга тенглашган шароитда аниқлаймиз.



5-

расм. Тортувчи юклама остида эгиловчан ип ҳолати графиги

6-расмда контакт симини ток қабул қилиш билан ўзаро таъсири профили кўрсатилган. Ток қабул қилгич икки эркинлик даражасига эга анъанавий тизим билан ифодаланади. Оғирлиги 16,7 кг, қўзгатувчи тизими оғирлиги 15 кг, юқори шарнирларга берилган юқори нукта қаттиқлиги 6,0 кН/м, статик босиш 120 Н. $t = 0$ вақтда ток қабул қилган чап таянч нуктаси жойлашган эди ($x = 0$) ва бошланғич тезлиги 250 км/м эди, бу моделлаштириш жараёнида доимий бўлиб қолди. Шубҳасиз, ҳисоблашлар натижасида ток қабул қилган моделидан фойдаланиш, олдин кўриб чиқилган ҳолларга нисбатан натижаларнинг сезиларли ўзгаришга олиб келади (5- расмга қаранг).



6 расм. Ток қабул қилгич таъсири натижасида содир бўладиган контакт симини тебранишини тақсимланиши

Мисол учун ток қабул қилгичнинг оғирлиги фронт шаклига сезиларли таъсир кўрсатади ва контакт босимининг статик босимдан оғисги контакт симининг максимал тепага кўтариш қимматига таъсир қилади.

REFERENCES

1. Демченко А.Т. Туркин В.В. Применение метода прямого математического моделирования к исследованию динамики контактных подвесок // наука и техника транспорта, 2004. - №3.
2. Фишер В. Цепная контактная подвеска и токоприемник при высоких скоростях движения// Железные дороги мира, 1978. — № 7.
3. Petri K., Wallachek J. Modelling the Dynamic Behaviour of Catenary Pantograph Systems for High Speed Trains// Proceedings of Cable Dynamics, 1995.
4. Petri K., Wallachek J. Analytical Models for the Dynamics of Catenary Pantograph Systems// Proceedings of ICIAM 95, issue 4: Applied Sciences, Especially Mechanics. Nov. 1996.
5. Шорр Б.Ф., Мельникова Г.В. Расчет конструкций методом прямого математического моделирования. — М.: Машиностроение, 1988. — 159 с.

6. Демченко А.Т. Пространственные контактные подвески. — М.: Транспорт, 1991. — 175 с.
7. Bayanov, I., Badretdinov, T., Muminov, S., Karimov, I., Saydivaliev, S., & Saliyev, E. (2021). The electric field of the sliding contact during the interaction of the pantograph and the contact wire. In E3S web of conferences (Vol. 264, p. 04029). EDP Sciences.
8. Yakubov, Mirjalil, et al. "Improvement of the information-measuring complex for diagnostics of traction power supply objects at high-speed traffic." E3S Web of Conferences. Vol. 304. EDP Sciences, 2021.



MAQSUD SHAYXZODA. IKKI XALQ DILBANDI

Moxinur Valijon qizi Abdujalilova

TDTU talabasi

Ilmiy rahbar: t.f.f.d. PhD Axmatjanov Ravshanjon Nematjonovich

ANOTATSIYA

Mashhur shoir umrini juda mazmunli o`tkazgan. U umrining so`ngi yillarida yani 1965-yil 57 yoshga to`lgan chog`larida umrining o`tkizgan yillarini “ umrim bir hiyobon” deya tasvirlagan edi. U boshidan kechirganlarini hiyobonning ikki chetidagi daraxtlar misolida tasvirlaydi.

Kalit so`zlar: Shoir, yozuvchi, dramaturg, olim, Navoiy haqida, adiblar fikri, tarjima kitoblari, filologiya soxasi, hayot kechinmalari.

Do`stlar, yaxshilarni avaylab saqlang! «Salom» degan so`zning salmog`in oqlang. O`lganda yuz soat yig`lab turgandan, — Uni tirigida bir soat yo`qlang!

O`zbek va ozarbayjon adabiyotining atoqli namoyandalarida bo`lgan mashhur shoir, zabardast dramaturg, tarjimon va adabiyotshunos olim Maqsud Shayxzoda 1908-yil 25-oktyabrda Ozarbayjonning Oqtosh shahrida ziyoli oilada tavallud topgan. Boshlang`ich va o`rta ma`lumotni Oqtoshda oldi va keyinchalik Boku Oliy pedagogika institutida sirtqi ta`lim turida o`qiy boshladi. 1925-yildan boshlab Darband shahrida muallimlik bilan shug`ullanishni boshlagan.

Shayxzoda 1928-yilda Toshkentga kelgan va turli gazeta va jurnallar tahririyatlarida ishlagan . 1935–1938-yillarda esa Fanlar Qo`mitasi qoshidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo`lib ishlagan va shu yillarda juda ko`p ijodlar qilgan. 1938-yildan to umrining oxiriga qadar Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika institutida faoliyat olib borgan.

Maqsud Shayxzodaning adabiy faoliyati asosan 1929-yildan boshlanadi va “O`n she`r” (1932), “Undoshlarim” (1933), “Uchinchi kitob” (1934), “Jumhuriyat” (1935) to`plamlarining nashr etilishi o`zbek adabiyotida uning katta o`rin egallashiga sabab bo`ladi.

Hammamizga ma`lum Maqsud Shayxzodaning aynan bolalik davrlari 1-jahon urushi paytlariga to`g`ri kelgan va urush qiyinchiliklarini ko`rgan shoir hisoblanadi. Uning eng gullagan ijod davri ham ikkinchi jaxon urishi paytlariga to`g`ri kelgan. Shuning uchun ham u urushining birinchi kunlaridanoq jang qahramonlarini ulug`lovchi, front

orqasidagi kishilarning fidokorona mehnatini ifodalovchi “Kurash nechun” (1941), “Jang va qo‘shiq” (1942), “Kapitan Gastello” (1941), “Ko‘ngil deydiki...” kabi she‘riy to‘plamlar yaratadi. Shayxzoda ko‘pqirrali iste‘dod sohibi edi. U she‘rlar va dostonlar bilan birga, juda yuksak badiiy quvvatga ega bo‘lgan dramalar ham yaratdi. Shayxzoda umrining so‘ngida yozishga kirishgan, lekin tugatib ulgurmagan “Beruniy” dramasini hisobga olmaganda ham, uning “Jaloliddin Manguberdi” va “Mirzo Ulug‘bek” dramalari allaqachon xalqimizning badiiy mulkiga aylanib qoldi.

U “Jaloliddin Manguberdi” (1944) nomli tarixiy dramasini yozadi. Shayxzoda Jaloliddin Manguberdi“ tragediyasida o‘z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mo‘g‘ul istilochilariga qarshi kurashgan so‘nggi Xorazm shohining jangovar jasoratini tarixan aniq va haqqoniy tasvirlagan.

1925- yil Shayxzoda o‘qishni tamomlagach Darband shahriga ishga yuborilgan paytlarida shu yillardagi qatog‘on davrning shamollari uni ham chetlab o‘tmadi. Shayxzoda Birlashgan davlat qoshidagi maxsus kengashning qarori bilan 1927-yil 30-iyul kuni qamoqqa olindi.

Maxsus kengash 1928-yilning 17 fevralida Maxajqal‘a vahtasi maxbusi bo‘lgan shoir Shayxzodani Qirim va Kavkazda 3 yil muddatga shu hududda yashash huquqidan maxrum etgan holda ozod qildi.

Urushdan keyingi tinch qurilish yillarida esa “O‘n besh yilning daftari”, “Olqishlarim”, “Zamon torlari”, “Shu‘la”, “Chorak asr devoni” kabi she‘riy to‘plamlari e‘lon qilindi.

Maqsud Shayxzoda Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika institutida ishlab yurgan paytlarida yani 1958-yili o‘tmishdagi madaniyat va xalqaro aloqalarini tasvirlovchi “Toshkentnoma” lirik dostonini yaratadi.

Iste‘dodli dramaturg 1960-yilda yozgan “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida buyuk munajjim va ma‘rifatparvar davlat arbobi obrazini yaratdi. Shayxzoda bosh qahramon obrazini Amir Temur va temuriylar davrida o‘zbek xalqi hayotida ro‘y bergan Uyg‘onishning yorqin timsoli sifatida aks ettirgan. Shekspirona uslubda yozilgan bu asarda Shayxzoda Ulug‘bek hayotining so‘nggi 2 yilini tasvirlash orqali uning jahon fani tarixidan munosib o‘rin egallagan mashhur olim, adolatparvar va haqiqatparvar davlat arbobi va ayni paytda saltanatning mutaassib kuchlari oldida ojiz bir inson bo‘lganini ham haqqoniy ko‘rsatgan. Shekspirona ko‘lam va harorat bilan yozilgan „Mirzo Ulug‘bek“ tragediyasining maydonga kelishi o‘zbek dramaturgiyasi va teatri tarixida katta voqea bo‘ldi. Shayxzoda ssenariysi asosida rejissor L. Fayziyev tomonidan yaratilgan „Ulug‘bek yulduzi“ (1964) filmi esa keng xalq ommasiga ulug‘ o‘zbek olimi va uning fojiali taqdiri bilan yaqindan tanishish imkonini berdi.

Jamiyatning adabiy bilim doirasining kengayishi, ijodining mumtoz jahon yozuvchilari badiiy tajribasi bilan boyishida tarjima muxim rol o'ynadi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Maqsud Shayxzoda bir necha chet el ijodkorlarining asarlarini ham tarjima qilgan. Bulardan Rustavelining „Yo'lbars terisini yopingan paxlavon“ eposi, A.S. Pushkinning she'rlari, „Mis chavandoz“ dostoni, Motsart va Salyeri“ tragediyasi, V. Mayakovskiyning „Juda soz“ dostonlari va ko'plab she'rlarini, Shekspirning „Hamlet“, „Romeo va Julyetta“ tragediyalari va sonetlarini, Nozim Hikmatning she'rlarini va ozarbayjon shoirlari asarlarini o'zbek tiliga kata mahorat bilan tarjima qilgan.

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Shayxzodaning o'zbek adabiyoti tarixi, o'zbek xalq og'zaki ijodiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish borasida yaratgan ilmiy ishlari ham tahsinga sazovordir.

Shayxzoda she'riy ijodida, asosan, zamonaviy mavzularda qalam tebratgan, dramaturgiyasida esa, tarixiy o'tmishga teran nazar tashlab, undagi zamonaviy muammolarni yoritishga yordam beruvchi siymolar va voqealarga yangi badiiy hayot bag'ishlagan.

Shayxzoda, badiiy ijodning barcha tur va janrlarida asarlar yozgan bo'lib adabiyotshunos va tanqidchi sifatida ham samarali ijod qilgan. 1941-yildayoq „Genial shoir“ monografiyasini e'lon qilgan Shayxzoda umrining so'nggi kunlariga qadar Navoiy hayoti va ijodi bilan muttasil shug'ullanib keldi. U Navoiyning 500 yilligi munosabati bilan yozgan „Navoiyning lirik qahramoni haqida“ (1948) maqolasidan keyin „Navoiy lirikasining ba'zi bir poetik usullari haqida“ (1959), „Ustodning san'atxonasida“ nomli 3qisimli maqolasida (1965—1966), „G'azal mulkining sultoni“ (1966), „Tazkirachilik tarixidan“ (1968) singari yirik ilmiy tadqiqotlar yaratib, navoiyshunoslik fanini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqdi.

Shayxzoda adabiyotshunos va tanqidchi sifatida ham samarali qalam tebratib, o'zbek xalq og'zaki ijodining Fozil shoir singari namoyandalari, „Alpomish“, „Shirin bilan Shakar“ kabi asarlari, o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining Bobur, Muqimiy, Furqat, Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, jahon adabiyotining Nizomiy Ganjaviy, Sh. Rustaveli, A.S. Pushkin, N.A. Nekrasov, A.N. Ostrovskiy, T.G. Shevchenko, A.P. Chexov singari namoyandalariga bag'ishlangan ko'plab asarlar yozdi. Pedagog olim va shoir sifatida esa talaygina shoir va adabiyotshunos avlodlarning yetishib chiqishiga kata hissa qo'shdi.

Shayxzoda ikkinchi marta 1952-yilda ENKVD xodimlari tomonidan hibsga olinib, 25 yillik qamoq jazosiga hukm qilingan va 1954-yilda ozod etilgan.

Iste'dodli ijodkor 1967-yil 19-fevralda vafot etdi va Toshkentning Forobiy qabristonida dafn etilgan.

Maqsud Shayxzoda 2001-yilda "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi.

REFERENCES

1. Zokirov M., Maqsud Shayxzoda. Adabiytanqidiy ocherk, T., 1969;
2. Yusuf Shomansur, Shayxzoda — bunyodkor shoir, T., 1972; 179 ;
3. G'afurov I., O'rtoq shoir. Maksud Shayxzoda ijodiyoti, T., 1975; 215;
4. Maksud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983;
XX asr o'zbek adabiyoti tarixi, T., 1999. 25;
5. Shayxzoda Maksud. Atokli xalg shoiri. „Lenin uchkuni“, 1956, 18 may (o'zbekcha)
6. Shayxzoda Maksud. Shoir kalbi duneni tinglar (Tanlangan asarlar) // Toshkent, „Nihol“, 2008. 28 b. (o'zbekcha)
7. Раматов, Ж. С. (2021). ФИЛОСОФСКОЕ МИРОВОЗЗРЕНИЕ И ЕГО РОЛЬ В ВОСПИТАНИИ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЕЖИ. *Проблемы педагогики*, (1 (52)), 16-17.
8. Раматов, Ж. С., & Баратов, Р. У. (2018). НОВЫЙ ПОДХОД ПОДГОТОВКИ КАДРОВ С ВЫСШИМ ОБРАЗОВАНИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПЕРСПЕКТИВА И ИННОВАЦИИ. *Theoretical & Applied Science*, (4), 89-91.



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ – КОНСТИТУЦИЯВИЙ ИСЛОҲОТЛАР ДАВР ТАЛАБИ

Ақида Абдужаббаровна Дадашева

Тошкент давлат транспорт университети “Халқаро оммавий ҳуқуқ” кафедраси
мудири, ю.ф.д., профессор в.б.

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Ўзбекистонда олиб борилаётган Конституциявий ислоҳотлар ва уларнинг инсон кадрлари учун ҳуқуқий кафолат шакллантиришда, сиёсий-ҳуқуқий, ижтимоий, иқтисодий ва халқаро ҳамжамиятдаги ўрни ва нуфузидан тубдан ўзгартириб, ўз олдига қўйилган мақсадларини қадриятлари асносида келажак авлодига етказиш ҳамда инсон манфаати муҳимлиги эътиборга олинганлиги таъкидланган.

Калит сўзлар: конституциявий ислоҳот, модернизация, фуқаролик жамияти, халқаро ҳамжамияти, қадриятлар, халқчил қомус, тажриба, сиёсий-ҳуқуқий, кафолатлар.

КИРИШ

1992 йил 8 декабрда қабул қилинган илк суверен Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси 30 йил мобайнида амалиётда ўз кучини, моҳиятини, роли ва вазифаларини акс этирди – бу тарих. Бу даврни ўрганиш, хатолар устидан ишлаш, камчиликларни бартараф этиш, фуқаролик жамиятини ривожлантириш, Жаҳон Конституция лойиҳаларини ўрганиб чиқиш ва ижобий тажрибаларни, қадриятларга асосланиб татбиқ этиш “халқчил қомус” тамойилига асосланиб, ҳолат юзасидан янги мустақил жамиятнинг ишончли ҳуқуқий кафолатларини шакллантиришда келажакда сиёсий-ҳуқуқий, ижтимоий, иқтисодий ва халқаро ҳамжамиятдаги ўрни ва нуфузидан тубдан ўзгартириб, мамлакатимизни ислоҳ этиш ва модернизация қилишнинг энг муҳим мақсадларини белгилаб олиш даркор. Бу давр талаби – цивилизация ривожланган сари қонун ҳам талабга мост бўлиши керак.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Ҳозирги кунда халқ муҳокамасига қўйилган ва Конституцияимизнинг бир неча моддаларига қўшимча ўзгартириш киритиши кутилаётган, инсоннинг кадр-қиммати аввало унинг табиий яшаш ҳуқуқида намоён бўлиши ва уни бош қомусимизда акс

этирилиши – энг улуғ ва муқаддас қадриятларимиздан биридир.

Ушбу ислохотларда ҳорижда яшаётган ва ишлаётган Ўзбекистон фуқароларимиз билан мунтазам алоқаларни сақлаб қолиш, давлатимиз томонидан ғамхўрлик қилишга оид алоҳида норма киритилиниши, Ўзбекистонда фуқароларнинг мулк ҳуқуқлари ҳимоя қилиш, унинг дахлсизлигини кафолатлаш, мажбурий меҳнатга чек қўйиш, аҳолини ижтимоий қўллаб-қувватлаш ва фуқаролик жамияти барпо этишга қаратилган ва бунинг асносида “Инсон қадр” тушунчаси ва уни асосий Қонунга муҳрлашга устувор аҳамият берилмоқда.

Халқ муҳокамасига тақдим этилган Конституция лойиҳасининг асосий матнидага 70-75-моддаларига халқ томонидан эътироз билдирилиши ва Президентимиз томонидан бу эътирозлар қабул қилиниб муҳокамадан олиб ташланиши ҳам “Инсон қадр” учун қонунни қайта кўриб чиқилиши ва ушбу моддаларга қўшимча ва ўзгартиришларга қўйилмаслиги ҳам ҳукуматнинг халқнинг фикрини инобатга олиниши ижобийдир. Ушбу ислохотларнинг асосий мақсади фуқароларнинг шаъни ва кадр-қиммати, халқ манфаати ҳар қандай тажовузлардан ҳимоя қилишни таъминлашдан иборатлигидандир. Жамиятнинг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, ҳарбий-техник ва бошқа бир қатор ҳаётий ҳолатларини ҳисобга олган ҳолда амалга оширилади.

Бош қомус Конституция оддий ҳужжат эмас, аксинча, у давлатнинг энг олий ҳуқуқий қонунни бўлиб, жамият тараққиёти билан ислохотлари билан унга қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш зарурати юзага келади. Ижтимоий соҳанинг барча босқичларига татбиқ этилаётган янгиликлар ва сезиларли ўзгаришлар глобаллашувнинг замонавий муаммолари шароитида миллий ривожлантиришнинг янги дастур ва уларни дунёвийлаштириш стратегиялари асносида татбиқ этилиши изланмоқда. Ушбу интилишлар, истаклар ва умидлар акс эттирувчи ҳужжатдир. Кенг жамоатчилик томонидан таклиф этилган минглаб фикр ва мулоҳазалар Конституциявий комиссия томонидан ўрганиб чиқилиб асосилари инобатга олиниши, ўзгартиришларда барча ҳуқуқ ва эркинликларни, жумладан, муносиб ҳаёт, турмуш фаровонлигини оширишга эътибор берилиши асослидир.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Шунингдек, аксарияти мазмун-моҳиятига кўра, “инсон-жамият-давлат” томоиларини конституциявий қоида сифатида муҳрлашга, халқпарвар давлат барпо этишга, инсон ҳуқуқларининг ҳимояси ва ижтимоий муҳофазасини кучайтиришга,



ёшларнинг ҳуқуқи, аёллар ҳуқуқи ва манфаатларини тўла таъминлашга қаратилган.

Энг муҳими, қонун лойиҳаси давлат ҳокимияти ва бошқарув тизимини такомиллаштириш, жумладан, парламент ваколатларини кенгайтириш, Президент институтини такомиллаштириш, жойлардаги вакиллик ва ижро ҳокимияти органларини ажратиш ўз ичига олади.

Жамият ислоҳотлар ташаббускори деган эзгу ғояга асосланган ҳолда олиб борилиши, “Халқ давлат ҳокимиятининг бирдан бир манбаидир” деган олтин қонуннинг ҳаётийлигини исботламоқда. Ушбу жараёнларни амалга оширишда қўйилган асосий мақсад ва вазифалар ва ушбу ислоҳотларнинг халқимиз ва давлатимиз тараққиёти учун бекиёс аҳамияти жиҳатлари:

Биринчидан, “Инсон қадри” деган тамойилнинг ҳаётда ўз ишотини топишга;

Иккинчидан, давлат ва жамият ишларини бошқаришда халқнинг хоҳиш-иродасини батамом қарор топтириш борасидаги демократик ислоҳотларнинг ижобий жиҳатлари асносида охирига етказишини таъминлаш;

Учинчидан, жамоатчилик назорати фаолиятини ҳукумат томонидан фуқароларнинг эътироз, таклиф, тавсияларини эшитиш ва адолатли қарор чиқарилган ҳолда ижобий натижага эришиш;

Тўртинчидан, адолатли ва одил судловни таъминлаш, замонавий ижтимоий-иқтисодий муносабатларнинг конституциявий-ҳуқуқий мақомини белгиланишга;

Бешинчидан, дунё ҳамжамиятидаги янги Ўзбекистоннинг ўрни ва нуфузи янада ортиб, давлатимизнинг янада юксалишига хизмат қилиши шубҳасиздир.

ХУЛОСА

Хулоса ўрнида, бугунги даврда жадал ислоҳотлар даврида ҳар бир қонунни тўғридан-тўғри ишлайдиган қилиб яратишни, барча соҳанинг ҳуқуқий асосини ана шундай талабчанлик мезонлари асосида мустаҳкамлаш жамият олдида турган энг муҳим вазифаларимиздан биридир. Ҳуқуқий давлатда мамлакатнинг қуйидагиларга: халқ суверенитетига; шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларининг бузилмаслигига ва қафолатланганлигига; қонун устуворлигига; ҳокимиятнинг бўлиниш тамойилига асосланганлигига; суд ҳокимиятининг мустақиллигига ҳамда энг муҳими фуқароларнинг ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданияти ривожланишига, билим ва кўникмаларини сифатли етказишга эътибор қилиш ва

юқоридаги харакатларни амалда бажарилиши шарт ҳисобланади.

REFERENCES

1. ДАДАШЕВА, А. (2021). Взаимодействие органов представительной власти на местах и самоуправления граждан в осуществлении действенного общественного контроля. *Fuqarolik jamiyati. Гражданское общество*, 22(2), 70-74.
2. Dadasheva, A. A. (2022). PUBLIC OPINION AND GOVERNMENT EVALUATION IN NEW UZBEKISTAN. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research*, 4(01), 16-19.
3. Дадашева, А. А. (2020). МАҲАЛЛИЙ ИЖРО ҲОКИМИЯТИ ФАОЛИЯТИ УСТИДАН ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИНИ НАТИЖАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁЧИМЛАРИ. *ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ*, (SPECIAL 2-2).
1. Ақида Абдужаббаровна Дадашева (2022). ДАВЛАТ ХИЗМАТИНИ ИСЛОҲ ҚИЛИШ ШАРОИТИДА ҲОКИМЛАР ФАОЛИЯТИ УСТИДАН ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 1), 117-122.

МАДАНИЯТЛАРАРО КОММУНИКАЦИЯ ВА МИЛЛИЙ ЎЗ-ЎЗИНИ АНГЛАШ ФЕНОМЕНИ

З. Н. Бобошев

Тошкент давлат транспорт университети ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Мақолада Маданиятлараро коммуникация феномени сифатида этномаданий туризм дунёни билиш усули бўлиб, унинг асосий мақсади муайян ҳудудда яшаб ўтган ёки ҳозир яшаётган у ёки бу халқ (этнос) ҳаётидагимаданият, архитектура, этномаданий объектни ўрганиш, ўзлаштиришда намоён бўлади. Этномаданий туризм минтақанинг маданий меросини билиш шаклидир.

Калит сўзлар Этномаданий, архитектура, таълим ва тарбия, ёш авлод, баркамоллик, феномен. этник

КИРИШ

Маданиятлараро коммуникация феномени сифатида этномаданий туризм дунёни билиш усули бўлиб, унинг асосий мақсади муайян ҳудудда яшаб ўтган ёки ҳозир яшаётган у ёки бу халқ (этнос) ҳаётидагимаданият, архитектура, этномаданий объектни ўрганиш, ўзлаштиришда намоён бўлади. Этномаданий туризм минтақанинг маданий меросини билиш шаклидир.

Туризм мамлакат иқтисодиётининг устувор тармоқларидан бири сифатида тан олинган ва у Ўзбекистоннинг туристик анъаналари; минтақа тарихи; минтақа аҳолисининг полиэтниклиги; этномаданий объектларнинг мавжудлиги мамлакатимизда этномаданий туризмни маданиятлараро коммуникация воситаси сифатида ривожлантириш омили эканлигидан далолат беради. Бизнинг фикримизча, коммуникация феномени сифатида этномаданий туризмни ташкил қилишнинг асосий шarti – туристик хизматларни ишлаб чиқариш учун фойдаланиладиган ва экскурсия туризмига бўлган эҳтиёжни қондириш, ижтимоий-маданий бойликларнинг бир қисми бўлган этномаданий объектларни ҳимоя қилишдир.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Этномаданий туризмнинг объекти анъанавий кундалик маданият, одамларнинг турмуш тарзини ҳам намоён этади. Моддий этномаданий объектлар кўпинча тарих ва



архитектура ёдгорликлари бўлиб, улардан туристик ресурслар сифатида фойдаланиш ва объектнинг таъсирчанлик нормаларига риоя қилиш муҳим аҳамият касб этади. Шу нуқтаи назардан, этномаданий туризм замонавий фаннинг тадқиқот объекти бўла олади. Айниқса, бугунги кунда этномаданий сайтлардаги маълумотларни кузатиб бориш, чунки диний догмаларга мойиллик ёки миллатчилик ғояларини тарғиб қилишдан сақланиш учун сайёҳларга бериладиган маълумотлар фақат илмий тасдиқланган далилларга асосланган бўлиши керак.

Бизнинг фикримизча, туризмнинг ушбу йўналишини ривожлантириш Ўзбекистон аҳолиси учун бир қатор таълим хизматларини тақдим этади. Бунда туристлар Ўзбекистонда истиқомат қилаётган этник гуруҳларнинг маданияти ва урф-одатлари билан танишиш, уларнинг ҳаракатлари тўғрисида тушунчага эга бўлиши, миллий менталитетни чуқурроқ билиб олиш имкониятидир. Бу турдаги хизматларнинг индивидуал истеъмолчилари ёшлар бўлиб, уларнинг болалигидаёқ маданий макондаги мулоқоти ташкил этилади.

Этномаданий туризм туризмнинг элита тури бўлиб, у “турист маданияти” шакллантиришни тақозо этади, бу миллий маданиятнинг тикланиши ва ривожланишининг омили сифатида намоён бўлади. Зеро, бу жараёнда бир томондан унутилган анъанавий қадриятлар, хунармандчилик мактаби қайта яратилса, иккинчи томондан, тил, маросимлар оммалаштирилмоқда. Шундай қилиб, этномаданий туризм ўтмишдаги тарихий ва маданий меросни сақлаш, кўпайтириш ва келажак авлодларга етказиш ғоясига ҳам асосланади.

Ҳозирги даврда этномаданий туризмни ривожлантириш давлат сиёсатининг устувор йўналиши бўлиб, туристик фаолиятни бошқариш тизимини такомиллаштиришни талаб қилмоқда. Чунки амалий ҳаёт хусусий сектор реклама фаолиятини самарали мувофиқлаштирмаганлиги, миллий этномаданий туризм маҳсулотига халқаро бозорда рақобатлашишда ёрдам бера олмаслигидан далолат бермоқда. Шунингдек, бу минтақанинг этномаданий туризм учун қулай образини ҳам шакллантира олмайди. Этномаданий туризм ҳар хил шаклларда намоён бўлади, унинг ҳудуд, моддий ёки маънавий объектлар, этномаданий туризмни ташкил этиш билан шуғулланадиган хўжалик юритувчи субъектлар фаолияти муҳим аҳамиятга эга. Бунга эришиш учун Ўзбекистонда халқаро тажрибани ўрганиш лозим. Масалан, ҳозирги даврда дунё шаҳарларида энг кенг тарқалган шаклларида бири музейлардир. Демак этномаданий музейлар, очик осмон остидаги музейлар, этномаданий пунктларни ривожлантириш тақозо этилади.

Этномаданий музейлар - бу айрим этник гуруҳлар



маданияти, ижтимоий тузилиши, эътиқоди, урф-одатлари, анъанавий санъатини намоёниш этишни кўзда тутди. Бунда очиқ осмон остидаги музейлар алоҳида ўрин тутди. ЮНЕСКО Халқаро Кенгашининг таърифига кўра, “саноатгача бўлган давр намуналаридан ташкил топган, ҳар доим тегишли давр мебеллари ва буюмлари билан жиҳозланган, халқ ижодиёти жамоаларининг кириши учун очиқ майдон, ресторан олишингиз мумкин бўлган умумий кузатув учун очиқ бинолар, миллий овқатлар ва бошқалар тўпламидир”. Шу боис, XX аср бошларида хориж мамлакатларида очиқ осмон остидаги музейларга алоҳида эътибор қаратила бошланди. Ҳозирги даврда эса, дунё бўйича очиқ осмон остидаги музейлар кенг ривожланмоқда, чунки бу музейлар янги 3D технологияларига асосланган. Афинада биргина археология музейи, Нурсултондаги миллий музей, Санкт-Петербургдаги Эрмитаж музейи ҳудуди 5 минг квадрат метрниташкил этади. Афина музейидаги археология музейи экспонатлари энг майда тошларда йирик ҳайкалларнинг асл кўринишида сақланган, Санкт Питербург музейи инсон тафаккуридаги жозибдорликни намоён қилади. 26 км ҳудудда жойлашган Хивадаги Ичан Қаъла, Туркиядаги Кападоки шаҳри, Озарбойжон давлати Боку шаҳридаги Эски шаҳар эса очиқ осмон остидаги мезейнинг ўзига хос хусусияти ерли аҳолининг унда яшаётгани ва бу музейларда маҳаллий халқнинг табиий кундалик ҳаётидан далолат беради. Масалан, Артур Хатселусга филология факультетида швед тили шеваларини ўрганиб, мамлакат бўйлаб саёҳат қилган. Дастлаб у Марказий Швеция қишлоқлари - Диларн ва Дания ҳудудларига саёҳат қилган, халқ меъморчилигини ўрганган. У миллий руҳни ифодаловчи материалларни миллий музейда намоёниш этмасдан, барча экспонатларни Дюарден оролидаги баландликда очиқ осмон остида жойлаштиришга қарор қилган. Демак, 1891 йил очиқ осмон остидаги музейлар пайдо бўлган йил сифатида тан олинган. XVII асрда бу баландликда ҳимоя истехкомлар бўлган ва кейинчалик улар йўқ қилинган, шунинг учун у қадимдан “скансен” (швед капкепидаги хандак) деб номланган. Ҳозирги даврда Артур Хатселус ташкил этган очиқ осмон остидаги музейушбу турдаги бошқа музейлар учун дастлабки тажриба бўлди.

Европа давлатларидаги очиқ осмон остидаги музейлар МДХ мамлакатларидан анча фарқ қилади ва сон жиҳатдан ҳам кўпчиликни ташкил этади. Масалан, Россияда (Европа) 14 та очиқ музей, Украинада – 28 та, Эстонияда – 4 та, Латвияда - 8 та бўлса, Финляндияда – 229 та, Норвегияда – 395 та, Швецияда – 1162 тадан иборат. Бунинг сабаби шундаки, ҳозирги кунда очиқ осмон остидаги музейлар туризм саноатининг ажралмас қисми ҳисобланади. Бундай

музейларга ташриф буюрувчиларнинг аксарияти, уларни кўнгил очиш соҳасига тегишли деб билади. Очiq осмон остидаги музейларда кўпроқ анъанавий музейларга хос бўлмаган мулоқот қилиш имкониятлари мавжуд. Ўтмишдаги ютуқлар ҳақида гапирганда, улар жамиятнинг ҳозирги ҳолатини яхшироқ тушунишга, тафаккурнинг яхшиланишига ва келажак учун янада аниқ истиқболларни белгилашга имкон беради. Очiq осмон остидаги музейлар тез ўзгариб бормоқда.

Бизнинг фикримизча, туризмни ривожлантиришга йўналтирилган анъанавий вазифаларнинг аҳамиятини англаган ҳолда ва уларнинг ечимидан воз кечмаслик билан бирга, уларнинг аксарияти ўзларининг олдиларига янги мақсад қўймоқда ва бизнинг давримиз эҳтиёжлари ва манфаатларига яхшироқ жавоб берадиган ноанъанавий шаклда тикланишда намоён бўлади.

Этномаданий туризмнинг ривожланиш жараёни турли даврларда даврнинг руҳи таъсирида янгиланиб боради, лекин анъаналари сақланиб қолади. Этномаданий туризмнинг кўринишлари турлича бўлиб, уларнинг айримларини таҳлил этамиз:

1.Маҳаллий мумтоз туризм сўнгги ўн йилликларда Шимолий Америкадаги ҳиндулар, Австралиядаги маҳаллий австралияликлар, Океанияда полинезияликлар ва меланезияликлар, Шимолий Европада Сами жамоаларида қайта тикланмоқда. Масалан, ҳозирги давр адабиётларида Америка тарихи 1492 йилда Христофор Колумбнинг биринчи марта Таиго оролларига саёҳати билан бошланган, деган маълумотлар мавжуд. Дастлаб, Испания ва кейин Англия мустамлақаси даврида ерли аҳоли қириб ташланганлиги ва ҳозирги даврда ҳиндулар йўқлиги ҳақидаги маълумотлар ҳам бисёр, лекин энг янги Америка тарихида ҳиндулар борлиги ва улар ўзларини Таиго қабиласи вакиллари экани билан ғурурланишини таъкидлайди ва шу боис, улар ўз аجدодлари урф-одатларини қайта тиклаб, бу орқали этномаданий туризмни ривожлантирмоқдалар. Бу эса этномаданий туризмнинг мумтознамунасиридир.

2.Антропологик туризм этномаданий туризмнинг йўналишларидан бири сифатида йўқолиб кетган этник жамоаларнинг маданиятини ўрганишни, замонавий маданият билан танишиш мақсадида аввалги яшаш жойларида бўлган мамлакатларга ташриф буюришни, шунингдек, йўқолиб кетиш хавфи остида бўлган халқлар ва кичик халқларнинг ихчам яшаш жойларини зиёрат қилишни ўз ичига олади. Йўқолган жамоаларни ўрганишнинг ёрқин намуналари Перлар, Инклар маданияти, Скифлар маданияти билан танишиш учун экскурсиялар бўлиши мумкин. Йўқолиб кетиш хавфи остида бўлган қарайтларга машхур

экскурсияларни шу жумлага киритиш мумкин.

3. Генеалогик туризм қариндошларини топишга мўлжалланган. Масалан, 1992 йилда Биринчи Президент И.Каримовнинг ташаббуси билан Захириддин Муҳаммад Бобур изидан номли ташкил этилган илмий экспедиция Ўзбекистондаги генеалогик туризмни ривожлантириш йўлидаги дастлабки қадамдир. 2021 йилда эса, Ўзбекистонга Имом Бухорий авлодларининг ташрифи режалаштирилган. 2008 йилда Россияга Николай подшонинг авлодлари Романовлар сулоласининг ташрифи ҳам шулар жумласидандир. Бу давлат сиёсати даражасида ривожлантиришнинг аҳамиятидан далолат беради.

4. Цивилизация элементлари етиб бормаган дунёнинг чекка бурчакларигача саёҳат жаилоо туризмидир. 1990-йилларнинг охирларида Қирғизистонда бошланган бу туризм шаклида баланд тоғларда яшовчи чўпоннинг уйида яшаш ва уларнинг турмуш тарзини ўрганиш назарда тутилади. Ҳозирги кунда ҳам жаилоотуризм Қирғизистонда туризмнинг муҳим соҳаларидан биридир. Иссиқ кўл қирғоғида энг машҳур сайёҳлик маршрутлари эса, сайёҳларни кўчманчи халқ маданияти, миллий ўйинлари билан таништиради, от миниш, алакиизм ва ширдаклар - миллий қирғиз гиламларини тўқишни ўргатади. Швейцария, Германия, Буюк Британия ва Россия сайёҳлари жаилоо туризмга қизиқади. Таълим, экстремал, экологик туризм ҳам этномаданий туризмнинг шаклларида биридир. Ҳозирги вақтда унинг ривожланиши жуда тез суръатларда давом этмоқда. Шу муносабат билан этномаданий туризмнинг янгидан янги турларининг пайдо бўлиши мумкин.

Бизнинг фикримизча, этномаданий туризмурбанизация ва технологик тараққиёт таъсирида бўлган деярли барча мамлакатларда кенг тарқалган. Бу туризмда миллий менталитетга, унинг аждодлари қандай яшаганлигини билиш истаги устуворлик қилади. Туроператорлар этник туризмда сайёҳлар учун қизиқарли ҳудудларга таклиф этиш билан бирга унинг тарихини сайёҳларга юқори малакали гидлар ҳамроҳлик қилишини таъминлашга ҳаракат қилади. Кўпгина давлатларда ўтган йиллар ва асрлардаги қишлоқ ва шаҳар муҳити максимал реализм билан қайта тикланадиган очиқ осмон остидаги музейлар мавжуд. Масалан, Германиянинг Мозель шаҳрида тоғнинг баланд чўққисида қурилган қасрда ҳозирги кунда ҳам уларнинг авлодлари яшашда давом этмоқда. Улар қасрнинг бир қисмини очиқ осмон остидаги хусусий музейга айлантириб, бир томондан даромад олмақда, иккинчи томондан аждодлари ҳақида дунё сайёҳларига маълумот етказмоқда.

Бизнинг фикримизча, инсониятнинг узок тарихи давомида диний, сиёсий, ҳарбий, иқтисодий ва бошқа

сабаблар туфайли аҳоли бир ҳудуддан иккинчи ҳудудга кўчган. Айниқса, XIX асрда Ирландия, Буюк Британия, Германия аҳолисининг АҚШга, Норвегия аҳолисининг Исландияга кўчиши, фуқаролар уруши оқибатида Россия ва Украинага, Хитой аҳолисининг АҚШга иммиграцияси эътиборга молик. Ҳар йили миллионлаб этник сайёҳлар бу ва бошқа мамлакатларга ўз илдизларини излаш учун ташриф буюради. Ўтмишда иммигрантлар оқими кўп келган мамлакатлар - АҚШ, Канада, Австралия, Исроил, қисман Лотин Америкаси давлатлари сайёҳлик транспортининг етакчи донорлари ҳисобланади. Замонавий этномаданий туризмда халқларнинг урф-одатлари ва турмуш тарзини сақлайдиган мавжуд аҳоли пунктлари жойларига экскурсияларни киритиш мумкин.

XX аср бошидаги инқилоб Россия зиёлиларининг Европага иммиграцияси таъсир этган. XXI асрда уларнинг авлодлари генеалогик туризм йўли билан бу мамлакатларга бормоқда. Шунингдек, ҳозирги кунда Мисрда бадавийлар қишлоғига саёҳат қилиш жуда машҳур. Ушбу экскурсия чўл бўйлаб саёҳат қилиш билан бошланади. Бундан ташқари, йўриқнома туристларни бадавий ҳаётининг ўзига хос хусусиятлари билан таништиради. Сайёҳлар қамиш кулбаларда турмуш тарзини ўрганадилар, чўл ҳаётига мослашишга ҳаракат қиладилар.

Бизнинг фикримизча, сўнгги бир неча асрлар давомида бу одамларнинг турмуш тарзи умуман ўзгармаган. Сайёҳлар бадавийларнинг кичик ҳайвонот боғи, ошхонаси ва маросимлари билан танишишлари мумкин. Кечкурун сайёҳлар учун рақслар, тўй маросимлари ва ёнғин намоиши билан махсус шоу ташкил этилади. Бундай экскурсия сайёҳлар учун ўлжа сифатида ихтиро қилинган, аммо ҳар доим дам олувчиларга завқ бағишлайди. Шунингдек, Африка этник гуруҳларнинг уйи ҳисоблангани учун ҳар доим сайёҳларнинг диққат марказида бўлган. Намибия, Замбиянинг қабилалари ўз маданиятини бутун дунёга намоиш этиш учун замонавий жамият учун ўз эшикларини очган ва ҳатто сайёҳларни ўзларининг кундалик ҳаётларида иштирок этишга таклиф қилган. Яшаш учун дам олувчиларга барча қулайликларга эга шинам меҳмонхоналар эмас, балки маҳаллий аҳолининг кулбалари таклиф этилади. Шундай қилиб, сайёҳлар бир неча кун давомида ибтидоий шароитда яшашга мослашиши мумкин. Шубҳасиз, бу яшаш шароитлари ва қабила ичида ҳукмронлик қилаётган атмосфера инсонга ҳеч қачон бўлмаганидек, қадимийлик билан, ўтмиш билан яқин алоқада бўлишига ёрдам беради.

Лотин Америкасининг Перу мамлакатига маҳаллий аҳолиси - ҳиндулар ҳаёти билан танишиш учун ташриф

буюраётган сайёҳлар ҳаёти яна бир ёрқин мисолдир. Бу экскурсия бир пайтнинг ўзида экологик туризмнинг ривожланишига ҳам таъсир этади. Мачу Писчу харобалари ва Инкнинг қадимий пойтахти Кускога ташкил этиладиган экскурсиялар бутун сайёрадаги қадимги цивилизациялар билан танишиш имконини беради. Ушбу цивилизациянинг вужудга келиши ва ривожланиш босқичлари борасидаги тадқиқотлар ҳам уларнинг улуғворлиги ҳақида маълумотлар беради. Бу каби этномаданий туризмнинг намуналари Европада ҳам кузатиш мумкин. Финляндияда финларнинг бэлме давридаги ҳаёти, таомлари, қиёфаси ва уйларидаги маиший ҳаётини, оддий ишчи ёки деҳқоннинг турмуш тарзи қандай эканини билишни истаган сайёҳлар ташриф буюради. Юнон оролларида халқнинг ҳаёти ва урф-одатлари ҳақида ҳикоя қилувчи жуда машҳур экскурсиялар мавжуд. Масалан, Крит оролида денгиз сатҳидан 740 метр баландликда Ида тоғлари ёнбағирда жойлашган Аноиа қишлоғи аҳолиси ханузгача қадимий юнон шеvasида гаплашадилар ва бу қадимги юнон маданиятини билиш имкониятидир. Қишлоқ аҳолиси тайёрлайдиган таомлар қадимги рецептларга асосланади. Сайёҳлар эчки соғиш, қўйларни қирқишга таклиф этиладилар. Куннинг охирида дам олиш билан кечки овқат Крит меҳмонларининг энг яхши анъаналарида миллий қўшиқлар ва рақслар билан тақдим этилади. Бугунги кунда сайёҳлар учун ўхшаш ўйин-кулгилар Европанинг кўплаб қишлоқ аҳоли пунктларида мавжуд. Уларда сайёҳлар ҳар куни машҳур туристик жойларда ўтказиладиган ёрқин, ранг-баранг театрлаштирилган шоуларнинг иштирокчиларига айланади.

Шубҳасиз, ҳар бир сайёҳ маҳаллий ёдгорликларни, масалан каштачилик, ҳунармандчилик, маҳаллий ошхона ва бошқалар анжомларни сотиб олади, бу эса, қўшимча даромад манбаи ҳисобланади. Аммо, маданий алмашинув бу жараённинг муҳим хусусияти бўлиб, унда ўтмиш маданияти замонавий маданиятга уйғунлашади.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Бизнинг фикримизча, этномаданий туризмнинг бу шакллари таълим саёҳатига ҳам таъсир этади. Унда таълим субъекти - ушбу ҳудудда яшаган одамлар, этносларнинг моддий ва маънавий мероси, хусусан меъморчилиги, маданияти, анъаналари ва урф-одати билан танишиш учун объектга ташриф буюришдан иборат. Бу анъанавий маданиятларнинг хусусиятларини сақлаб қолган уюшган этник аҳоли пунктларига ташриф буюришни, шунингдек, халқ ҳаёти музейлари билан танишади. Зеро, дунёни билиш инсоннинг ўзини ўзи англаши, ўзининг этник

илдизларини излаш ва ўрганиш истагини қондиради. Бундай билимларнинг натижалари ўзига хос маданий анъаналарига эга бўлган бутун тарихий даврга дахлдорлигини ҳис қилишга имкон беради. Бошқа халқларнинг маданияти ва уларнинг этник хусусиятлари билан танишиш яхлит кўп қиррали дунёнинг ўзига хослигини билиш ва унинг баъзи элементларини ўзлаштиришни тақозо қилади. Бизнинг фикримизча, этник туризм турли халқлар вакиллари ўртасида яқин алоқалар ва алмашинувини ривожлантиришга, ўз маданиятини жаҳон меросига киритишга ёрдам беради.

Бизнинг фикримизча, этномаданий туризмнинг мустақил ва яхлит коммуникация воситаси сифатидаги аҳамияти туристик ресурсларнинг ўзига хослиги, иштирокчиларининг мотивацияси, ходимлар ва менежментга қўйиладиган малака талаблари тан олиш билан тасдиқланади. Этномаданий туризм этник маданият намоён бўлишининг минтақавий ва маҳаллий жиҳатларини ўрганиш узок тарихга эга бўлган этник гуруҳларнинг урф-одатларига таъсир қилиш ва ҳаёт тажрибасидан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятларини аниқлаш ва оммалаштириш, маданий маргинал гуруҳларнинг дунёқараши учун кенг имкониятлар яратади.

Бизнинг фикримизча, этник маданий ҳодисаларнинг маълум бир тўплами мазмунини тўлиқ ва аниқ очиб берадиган стандарт таърифларни ишлаб чиқиш ва муомалага киритишга ҳам профессионал ташкилотчилар эҳтиёжлари учун, ҳам тегишли фирмалар мижозлари учун катта эътибор берилиши керак. Этномаданий туризм - тижорат саёҳатининг ривожланишига таъсир этади ва айни пайтда этномаданий туризм тез ривожланишни талаб қилади ҳамда туристик ташкилотчиларнинг касбий фаолияти назарияси ва амалиёти бўйича аниқроқ илмий тадқиқотларни амалга ошириш зарурати ортади. Бу жараёндаги суствашилик миллий этномаданий туризмнинг саноати имиджига салбий таъсир қилади. Потенциал мижозларга хизмат кўрсатиш учун этномаданий туризм ташкилотчиларининг ижтимоий масъулиятини оширилиши туризм саноатининг иқтисодий барқарорлиги омили бўлади.

ХУЛОСА

Хулоса сифатида шуни таъкидлаш лозимки, Ўзбекистонда этномаданий туризмни ташкил қилиш учун энг аввало асосий минтақаларни аниқлаш, этник гуруҳларнинг ихчам яшаш жойларини жиҳозлаш, этномаданий объектлар жойлашган ҳудудларда турли фестиваллар ташкил қилиш мақсадга мувофиқ. Масалан, Бухорода этномаданий туризмни ривожлантириш ҳудуди сифатида жуда қулай, унда



миллатлараро ҳурматни шакллантириш, ватанпарварлик, она юртга муҳаббат, ўтмишга ҳурмат билан қарашларни тарбиялаш, аҳолининг интеллектуал савиясини ошириш, миллий маданиятлар, миллий кўникмалар, исм, урф-одатлар, маросимларни тиклашга ёрдам бериш, ҳар қандай этник гуруҳ учун хос бўлган анъанавий меъморчилик ёдгорликларини бузилмаган шаклда сақлаш, анъанавий туризм фаолиятини кенгайтириш, кўшимча иш ўринларини яратиш, минтақадаги мавсумий ҳодисаларни юмшатишга алоҳида эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ.

REFERENCES

1. Ш.Мирзиёев. Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг йигирма
2. тўққиз йиллигига бағишланган нутқи. //Халқ сўзи №186 сон.2020.
3. Ўзбекистон Президенти Ш.Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 75-сессиясидаги нутқи // <https://president.uz/uz/lists/view/3851>.
4. Ўзбекистон Республикаси Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.2020 йил 29 декабрь <https://www.youtube.com>
5. Заседание Международного Совета Юнеско, 2015. - <http://www.unesco.org/new/ru/unesco/resources/publica>.
6. Раматов, Ж. С., Баратов, Р. Ў., Кушаков, Ф. А., Валиев, Л. А., & Хасанов, М. Н. (2022). ЖАМИЯТДА СИЁСИЙ ВА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *PEDAGOGS jurnali*, 19(1), 13-18.
7. Бобошев, З. Н., Ҳасанов, М. Н., & Нуруллаев, Э. А. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ПЕДАГОГИКА ФАНИНИНГ АСОСЧИСИ СИФАТИДА.
8. Раматов, Ж. (1991). Гипотеза и прогноз в социальном познании (философско-методологический анализ). *Ташкент: Ўзбекистон*.
9. Раматов, Ж. С., Ҳасанов, М. Н., & Шукуов, Ж. Қ. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙ НИГОҲИДА ИНСОН ҚАДР-ҚИММАТИ ВА ҲУҚУҚЛАРИ МАСАЛАСИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 1), 976-979.
10. Ramatov, J., Inoqov, K., Ismailova, S., & Khudoykulov, S. (2021). Requirements of Education of Young People with Active Citizenship. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(05), 1-3.
11. Ramatov, J., Rakhmanova, S., & Yunusova, N. S. (2020). Philosophical analysis of socio-economic forecasting of the future. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(S1), 991-999.



12. Раматов, Ж. С. (2022). ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИ ЮКСАЛИШ ПАЛЛАСИДА. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 1), 12-17.
13. Раматов, Ж. С., Ҳасанов, М., & Назарова, Н. Ж. (2022). МЕДИАМАДАНИЯТ ВА АХБОРОТДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. *Academic research in educational sciences*, 3(6), 984-988.
14. Раматов, Ж. С., & Узаков, Б. (2022). ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ВА МИЛЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 1), 834-839.
15. Ramatov, J., & Umarova, R. (2021). Central Asia in IX-XII Centuries: Socio-political Situation, Spiritual and Cultural Development. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(04), 148-151.
16. Ramatov, J. S., & Khasanov, M. N. (2022). SOCIAL ASPECTS OF PROFESSIONAL QUALITY IMPROVEMENT (ON THE EXAMPLE OF THE RAILWAY SECTOR). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 969-976.



ЎЗБЕКИСТОН КЕЛАЖАГИНИ ЁШ АВЛОД БИЛАН БИРГА ЯНГИ БОСҚИЧГА ОЛИБ ЧИҚИШ

З. Н. Бобошев

Тошкент давлат транспорт университети ўқитувчиси

У. З. Искандаров М. У. Қобилов

Тошкент давлат транспорт университети талабасилари

АННОТАЦИЯ

Мақолада янги Ўзбекистон келажагини ёш авлод билан бирга янги босқичга олиб чиқиш, инсон маънавий камолотига таъсири таҳлил қилинган ҳамда Ўзбекистонни янги босқичга олиб чиқиш омилларига бўлган эҳтиёжнинг ортиши билан боғлиқ масалалар илмий муҳокама қилинлиги. Рақобатбардош миллий кадрларнинг янги авлодини тайёрлаш мақсадида Тошкент шаҳрида янги замонавий университет ташкил этилади. Мазкур университетда хорижлик етакчи олимлар ва профессор-ўқитувчилар жалб қилиниб, ёшларга энг замонавий дастурлар асосида таълим-тарбия берилиши ҳақида фикр юритилган.

Калит сўзлар: Янги Ўзбекистонни, инсон маънавий камолоти, таълим ва тарбия, ёш авлод, баркамоллик, Учинчи Ренессанс.

ABSTRACT

The article analyzes the ongoing reforms in Uzbekistan and its socio-philosophical significance, social significance and impact on the spiritual development of man, as well as the growing need for factors to bring Uzbekistan to a new level.

Keywords: New stage of Uzbekistan, factors, education and upbringing, young generation, perfection, the Third Renaissance.

КИРИШ

Бугун жаҳон миқёсида юртимиз ҳақида сўз кетганда «Янги Ўзбекистон» ибораси такрор-такрор тилга олинмоқда. Бу кейинги йилларда тараққиётнинг мутлақо янги босқичига қадам қўйганимиз, эришаётган залворли ютуқларимизнинг эътирофи, жаҳон ҳамжамиятининг юртимизга жиддий эътиборидир. Чунки бизга мустақиллик ғояси, истиқлол руҳи тоғдек таянч бўлмоқда. Бизни илғор

ниятлар, буюк мақсадлар, улкан марралар йўлида адашмасликка ундамоқда, танлаган йўлимиз тўғрилигига инонтирмоқда. Қайси соҳани олмайлик, қайси жабҳага назар солмайлик, илгари сурилаётган халқ ташаббуси албатта қўллаб-қувватланмоқда, шароит яратилмоқда, инвестиция киритилмоқда, рағбатлантирилмоқда, бир сўз билан айтганда, халқнинг розилиги йўлида тинмай изланмоқда. Зеро, иқтисодиётни сиёсатдан, маънавиятни таълим-тарбиядан айро кўриб бўлмаганидек, «халқимизнинг улуғвор кудрати жўш урган ҳозирги замонда Ўзбекистонда янги бир уйғониш – Учинчи Ренессанс даврига пойдевор яратилмоқда, десак, айти ҳақиқат бўлади. Чунки бугунги Ўзбекистон – кечаги Ўзбекистон эмас. Бугунги халқимиз ҳам кечаги халқ эмас», дейди давлат раҳбари.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг ҳар бир чиқишлари, маърузалари ва нутқларини биз зиёлилар доимо интиқлик билан кутамиз. Бунинг сабаби нимада? Энг аввало бу чиқишларда янги фикрлар, янги ғоялар, тараққиётимизни белгилайдиган устувор йўналишлар, Ўзбекистонни янги босқичга олиб чиқиш омиллари, шу билан бир қаторда ривожланишимизга ғов бўлаётган ҳолатлар, мавжуд муаммоларни ҳал қилишнинг ностандарт ечимлари аниқ, раво, содда тилда ифодалаб берилди. Мисол сифатида мустақиллигимизнинг 29 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги[1], БМТ Бош ассамблеясининг 75-сессиясидаги[2], Конституциямизнинг 28 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги, Ўзбекистон Ёшлари форумидаги нутқлари ва ниҳоят Олий мажлисга қилган Мурожаатномани келтириш мумкин[3]. Энг муҳими - барча маърузалардаги марказий масала бу - халқимизнинг турмуш даражаси, фаровонлигини ошириш, Ўзбекистон халқига муносиб турмуш шароитини яратиш. Собиқ Иттифоқ даврида шундай шиор бўларди: "Биздан кейинги авлод албатта коммунизмда яшайди", яъни, бахтли ҳаёт фақат келажакда бўлади, дегани. Муҳтарам Президентимиз эса халқимиз эртага, индинга, келажакда эмас, бугун бахтли ҳаёт кечиршига муносиб, деган ғояни доимо илгари сурадилар. Шу ўринда машҳур донишманд Конфуцийнинг қуйидаги хикматини келтирмоқчиман: "Ҳукмдор халқни ўз фарзандидек севиши, фуқаролар эса ҳукмдорни ўз отасидек ҳурмат қилиб, эъзозлаши лозим".

Мурожаатномада устувор йўналиш сифатида таълим-тарбия соҳасига алоҳида урғу берилди. Чунки ҳар қандай жамият тараққиётида унинг келажagini таъминлайдиган ёш

авлоднинг соғлом ва баркамол бўлиб вояга етиши ҳал қилувчи ўрин тутди. Шу мақсадда “Янги Ўзбекистон – мактаб остонасидан, таълим-тарбия тизимидан бошланади” [3], деган ғоя асосида кенг кўламли ислохотлар амалга оширилмоқда.

Шу ўринда бир нарсага эътиборингизни қаратмоқчи эдим. Биз қачонки таълим тўғрисида гапирсак, албатта тарбияни ҳам қўшиб айтаемиз. Сабаби таълим ва тарбия ягона, узвий жараён. Таълим бор жойда, албатта тарбия ҳам бўлади. Лекин бу масалада бошқача қарашлар ҳам бор. Яъни тарбия оилада берилади, таълим муассасаларида эса фақат таълим бериш керак, деган. Менинг фикримча, мактаб, лицей, техникум, университет ўқитувчисими, шу билан бирга у ҳам тарбиячидир. Нафақат таълим даргоҳида, балки маҳаллада ҳам, оилада ҳам. Чунки азал-азалдан қишлоқда ҳам, маҳаллада ҳам ўқитувчига муносабат, эътибор бошқача бўлган. Зиёли инсон сифатида унинг фикрларига қулоқ солишган.

Давлатимиз раҳбари “Ўқитувчи ва мураббийлар куни”да сўзлаган нутқларида шундай таъкидладилар: “Биз Учинчи Ренессанс масаласини стратегик вазифа сифатида олдимизга қўйиб, уни миллий ғоя даражасига кўтармоқдамиз. Биз мактабгача таълим ва мактаб таълими, олий ва ўрта махсус таълим тизими ҳамда илмий-маданий муассасаларни бўлғуси Ренессанснинг тўрт узвий ҳалқаси, деб билаемиз. Боғча тарбиячиси, мактаб муаллими, профессор-ўқитувчилар ва илмий-ижодий зиёлиларимизни эса янги Уйғониш даврининг тўрт таянч устуни, деб ҳисоблаймиз. Мен ишонаман – ҳурматли ота-оналар бу ташаббусни албатта қўллаб-қувватлаб, янги Ренессанснинг бешинчи ҳалқаси, бешинчи устуни бўладилар”.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Ўзбекистон Президенти томонидан Мурожаатномада келтирилган қуйидаги вазифалар профессор-ўқитувчилар жамоаси учун таълим-тарбия соҳасида туб ўзгаришларни амалга оширишдек улкан масъулият юклайди: “Биз ўз олдимизга мамлакатимизда Учинчи Ренессанс пойдеворини барпо этишдек улғу мақсадни қўйган эканмиз, бунинг учун янги Хоразмийлар, Берунийлар, Ибн Синолар, Улуғбеклар, Навоий ва Бобурларни тарбиялаб берадиган муҳит ва шароитларни яратишимиз керак. Бунинг учун энг аввало ёш авлодга боғча, мактаб ва олийгоҳда сифатли таълим-тарбия беришни йўлга қўямиз” [3].

Мурожаатномада бола туғилганидан то 30 ёшгача бўлган даврда уни ҳар томонлама қўллаб-қувватлайдиган, ҳаётда муносиб ўрин топиши учун кўмак берадиган, яхлит ва



узлуксиз тизим яратилиши зарурлиги таъкидланади. Чунки дунё тажрибасидан маълумки, ёш авлодни ҳар томонлама баркамол этиб вояга етказиш учун сарфланган сармоя жамиятга ўн, юз баробар кўп фойда келтиради[3].

Сўнги йилларда миллий таълим тизимида сезиларли ислохотлар амалга оширилмоқда. Бу ўзгаришларни куйидагиларда кўриш мумкин.

1. Мактабгача таълим тизими тубдан ўзгармоқда. Алоҳида вазирлик ташкил қилинди. Илгари мактабгача таълим муассасалари Халқ таълими вазирлиги тасавурида эди. Ушбу вазирлик республикамиздаги энг катта вазирлик ҳисобланарди. Болалар боғчалари, 10 мингга яқин мактаб, пединститутлар, педколлежлар ва х.з. Мактабгача таълим қамрови тахминан 17-18 фоизни ташкил қиларди. 2021 йил якуни билан мактабгача таълим қамрови 65 фоизга, 2023 йил охирида эса 75 фоизга етказилиши, кўшимча 2 мингга нодавлат боғча ташкил этилиб, хусусий сектор улуши 25 фоизга етказилиши кутилмоқда.

2. Мактаб таълимини тубдан яхшилаш учун 2021 йили 30 та янги мактаб қурилиши, 320 та мактабни таъмирлаш ва моддий-техник базасини яхшилаш мақсадида бюджетдан 2 триллион сўм ажратилиши режа қилинган. Таълим сифатини тубдан яхшилаш мақсадида, аввало, ўқув дастурлари, ўқитувчи ва домлалар учун услубий қўлланмаларни илғор халқаро мезонларга мослаштириш ишлари бажарилади.

Мурожаатномада болаларнинг таҳлилий ва креатив фикрлаш қобилиятини ривожлантириш учун уларга сермазмун ва тушунарли дарсликлар яратиш зарурлигига алоҳида эътибор қаратилган. Бу борада келгуси ўқув йилида бошланғич синфларда давлат таълим стандарти ўрнига, илғор хорижий тажриба асосида, болага ортиқча юклама бермайдиган “Миллий ўқув дастури” жорий этилади. Умумтаълим мактабларидаги таълим сифати пойтахтда ҳам, олис қишлоқларда ҳам юқори бўлиши таъминланади. Бошқа тумандаги олис мактабга бориб, дарс берадиган ўқитувчилар ойлигига 50 фоиз, бошқа вилоятга бориб ишласа – 100 фоиз устама ҳақ тўланаши кўзда тутилган. 2021 йилда 10 та Президент мактаби, кимё-биология, математика, ахборот технологияларига ихтисослашган 197 та мактаб ўз фаолиятини бошлайди[3].

Рақобатбардош миллий кадрларнинг янги авлодини тайёрлаш мақсадида Тошкент шаҳрида янги замонавий университет ташкил этилади. Мазкур университетда хорижлик етакчи олимлар ва профессор-ўқитувчилар жалб қилиниб, ёшларга энг замонавий дастурлар асосида таълим-тарбия берилди.

3. Олий таълимнинг қамрови ва сифатини оширишга алоҳида эътибор қаратилади. 2021 йилдан бошлаб олий таълимга ажратиладиган давлат грантлари сони камида 25 фоизга оширилади. ОТМга қабул қилишда эҳтиёжманд оилалар қизлари учун грантлар сонини 2 баробарга кўпайтириб, 2 мингтага етказамиз. Кириш тестларида энг юқори балл тўплаган 200 нафар талабага 4 йил мобайнида Президент стипендияси берилади[3].

ХУЛОСА

Бозор муносабатлари қонуниятларига кўра, маҳсулотнинг сифатига ижобий таъсир кўрсатадиган асосий омиллардан бири бу рақобатдир. Мамлакатимизда турли соҳаларда, жумладан, қишлоқ хўжалиги, қурилиш, саноат, тиббиёт, фармацевтика ва хоказо соҳаларда давлат-хусусий шерикчилиги жорий қилинган ҳолда таълим тизимида мавжуд эмас эди. Энди эса мактабгача таълим, ўрта таълим, олий таълимда ҳам соғлом рақобат муҳити яратилмоқда. Хусусий боғча, мактаб, университетлар ташкил қилинмоқда. Давлат-хусусий шерикчилик асосида Қўқон нодавлат университети, “Tashkent International University” халқаро университети, Британия менежмент университети, ТЕАМ университети, Акфа университети каби нодавлат олий таълим муассасалари ташкил этилди [4, 5, 6, 7, 8, 9, 10].

Натижада ёшларимизда танлаш имконияти пайдо бўлди. Бу эса табиий равишда таълим муассасалари ўртасида соғлом рақобат муҳитини шакллантиради. ОТМ молиявий томондан мустақил бўлаётганини эътиборга олсак, энди улар ўртасида кўпроқ ёшларни жалб қилиш учун амалий ҳаракатлар олиб борилади.

REFERENCES

1. Ш.Мирзиёев. Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг йигирма тўққиз йиллигига бағишланган нутқи. //Халқ сўзи №186 сон.2020.
2. Ўзбекистон Президенти Ш.Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 75-сессиясидаги нутқи // <https://president.uz/uz/lists/view/3851>.
3. Ўзбекистон Республикаси Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.2020 йил 29 декабрь <https://www.youtube.com>
4. Бобошев, З. Н., Ҳасанов, М. Н., & Нуруллаев, Э. А. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ПЕДАГОГИКА ФАНИНИНГ АСОСЧИСИ СИФАТИДА.
5. Раматов, Ж. (1991). Гипотеза и прогноз в социальном познании (философско-методологический анализ). *Ташкент: Узбекистон*.

6. М. Н. Ҳасанов, С. У. Бошмонов, & Т. О. Жонибеков (2022). АБУ НАСР ФОРОВИЙНИНГ ИЛМ-ФАНЛАР ТАСНИФИДА АҲЛОҚИЙ ВА ДИНИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ТАҲЛИЛИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 1), 608-613.
7. Rashid Usarovich Baratov, & Nilufar Jo.,Rayevna Nazarova (2022). YOSHLAR НАҲОТИҲ СТРАТЕГИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ТА’ЛИМНИНГ О’РНИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 1), 830-833.
8. Жуманиёз Султанович Раматов (2021). БАҲКАМОЛ ВА СОҒЛОМ АВЛОД – ЎЗБЕКИСТОН КЕЛАЖАГИНИНГ ПОЙДЕВОРИ. *Academic research in educational sciences*, 2 (2), 225-229. doi: 10.24411/2181-1385-2021-00187
9. М.Н.Ҳасанов, Б.Ж.Бекмуратов, Б.Ш.Турғунов, & У.С.Маматқулов. (2022). ФОРОВИЙНИНГ ТА’ЛИМОТИДА ЁШЛАР ВА ИНСОН ТАЛИМ-ТАРБИЯСИ МАСАЛАЛАРИ ТАҲЛИЛИ . *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 4(3), 124–129. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/625>
10. Ж. С. Раматов, & М. Н. Ҳасанов (2022). АБУ НАСР ФОРОВИЙНИНГ ЖАҲОН ИЛМ-ФАН ТАРАҚҚИЁТИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ ВА УНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ АҲАМИЯТИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 1), 648-653.
11. Abdurakhmanova, X. K., Nalibayeva, Z. O., & Nazarova, N. J. R. (2022). ИТМОИҲ ТАРАҚҚИЙОТГА ЁРИШИШДА ТА’ЛИМ МАЗМУНИНИ ТАКОМИЛЛАСHTIRISH. *Academic research in educational sciences*, 3(5), 1364-1370.
12. Раматов, Ж. (1991). Гипотеза и прогноз в социальном познании (философско-методологический анализ). *Ташкент: Узбекистон*.
13. Раматов, Ж. С., Ҳасанов, М. Н., & Шукулов, Ж. Қ. (2022). АБУ НАСР ФОРОВИЙ НИГОҲИДА ИНСОН ҚАДР-ҚИММАТИ ВА ҲУҚУҚЛАРИ МАСАЛАСИ. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 1), 976-979.
14. Ramatov, J., Inoqov, K., Ismailova, S., & Khudoykulov, S. (2021). Requirements of Education of Young People with Active Citizenship. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(05), 1-3.
15. Ramatov, J., Rakhmanova, S., & Yunusova, N. S. (2020). Philosophical analysis of socio-economic forecasting of the future. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(S1), 991-999.

ЖАМИЯТДА ИЖТИМОЙ АДОЛАТ ВА ҚАДРИЯТЛАР ТАЛҚИНИ

М. М. Курбанова

Тошкент давлат транспорт университети “Чет тиллар” кафедраси
ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақола ижтимоий адолатнинг ахлоқ, маънавият, ахлоқ соҳалари билан боғлиқ бўлган ноаниқ ва кўп қиррали илмий категория сифатида жамиятга жуда хилма-хил адолат ғояларини тақдим этилишини илмий жихатдан таҳлил қилинган. Замонавий илм-фан адолатни ҳодиса сифатида ўрганиш зиддиятли деб ҳисоблайди, бу унинг ривожланишининг ҳозирги босқичида жамиятда моделлаштиришнинг муаммоли-лойиҳавий табиати билан изоҳланади.

Калит сўзлар: Цивилизация, категория, ҳақиқат, адолат ғоя, адолат модели, Сократ, Платон, Аристотел, классик либерализм, Маърифатпарварлар.

КИРИШ

Адолат ғояси жамиятда дунё вужудга келган пайдан бошлаб вужудга келган, айниқса жамиятнинг маънавий, диний ва ахлоқий соҳаларида яққол намоён бўлган. Цивилизациянинг асосий муаммоларидан бири ҳар доим адолат тўғрисидаги долзарб масала бўлиб келган: жамиятнинг ижтимоий тузилишида, шахснинг шахсий ҳаётида адолат ва муносабатлардаги қадрият тамойиллари ҳар доим ўринни эгаллаб келган.

Адолат ҳодисаси фалсафий тафаккур пайдо бўлганидан бери илмий асосга эга бўлди, фан, фалсафа бир вақтнинг ўзида ахлоқ, маънавият, ахлоқ соҳалари билан боғлиқ бўлган ноаниқ ва кўп қиррали илмий категория сифатида жамиятга жуда хилма-хил адолат ғояларини тақдим этди. Замонавий илм-фан адолатни ҳодиса сифатида ўрганиш зиддиятли деб ҳисоблайди, бу унинг ривожланишининг ҳозирги босқичида жамиятда моделлаштиришнинг муаммоли-лойиҳавий табиати билан изоҳланади. Агар адолат ғояси ривожланишининг тарихий-фалсафий томонига мурожаат қилсак, бу ғоя, шубҳасиз, самарали бўлади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Цивилизация тарихи адолат муаммосини ижтимоий ва шахсий муносабатлар соҳасидаги ахлоқий қадриятлар ҳолати

сифатида тавсифлайди, шунинг учун адолат феноменини ўрганиш адолат ғоясининг генезисини таҳлил қилишга уринишдир. Маънавий, ахлоқ ва маданият училигининг мужассамлашган ифодасига асосланган ижтимоий мазмун ва маънога эга мавжуд кадрятлар тизимини ташкил этади. Ғарб анъаналарининг баъзи бир кадр-қимматини тан олган ҳолда, Ўзбекистон учун замонавий шароитда ижтимоий адолат ғояси ушбу ҳодисанинг маънавий ҳаётнинг ижтимоий қонунлари доирасида, фалсафий ва диний ғоялар доирасидаги тарихий ривожланиш тажрибасини ифодалайди, чунки улар мавжуд эди. Мамлакатимиз ижтимоий-маданий тузилмасида замон ва маконда барқарор позицияни эгаллади. Бироқ, сиёсий сабабларга кўра, мамлакат ҳокимияти ва ҳукумати меросга эътибор бермаяпти, адолат кадрятларини маълум сиёсий элитанинг ўрнатилган манфаатлари фойдасига ўзгартирмакда.

Бизнингча, адолат ҳодиса сифатида ижтимоий-маданий илдишларга эга. Адолатни сўзнинг этимологияси нуқтаи назаридан кўриб чиқсак, унинг асосини «ҳақиқат» сўзи, ахлоқий-ахлоқий категория («ҳақиқат изловчи», «солиҳ», «тўғри» деган сўзлардан иборат эканлигини кўрамиз) тоифаси, шунинг учун рус тилида «адолат» ва «ҳақиқат» синонимлар сифатида кўриб чиқилади, бу эса адолатни ҳодиса сифатида «ижтимоий адолат» тушунчасига нисбатан прогенетик, прекоцептуал деб тахмин қилиш ҳуқуқини беради. Концепциянинг ўзидан фарқли ўлароқ, бу ҳодиса тарихий жиҳатдан таклиф қилади, аксиологик (қиймат) ўлчовда у жамиятдаги адолатнинг ҳақиқий кучини тавсифлайди. Шундай қилиб, адолат инсон томонидан амалга оширилади, ўйланади ва бошдан кечирилади. Унинг лексемаси этимологияни, тарихий ғояларни ва ижтимоий адолатнинг замонавий модификацияларини акс эттиради.

Социализм мафкураси доирасида вужудга келган совет адолат модели 1917 йилдан 1993 йилгача давом этди. 2019 йил феврал ойида Левада маркази директори Лев Гудков сўнгги икки йил ичида Иосиф Сталиннинг рекорд даражадаги машҳурлиги ҳақида маълум қилди. Гудков Сталинга бўлган ишончнинг ўсиши ва Совет Иттифоқининг идеализация қилинишини халқнинг охир-оқибат адолат топиш истаги билан изоҳлайди. Руслар сиёсий жиҳатдан пассив бўлиб қолмоқда, айниқса Москвада, норозилик марказдан узокроқ ҳудудларга кўчди. Совет даврида адолат ғояси меҳнатга сиғиниш, ишчилар синфининг расмий тенглиги, яъни унинг учта таркибий қисми: зиёлилар, ишчилар ва деҳқонлар (совет халқи) тақсимоли соҳасида тушунилган. социалистик кадрятларга асосланган имтиёзлар, ўша пайтда жамиятнинг аксарият қисмига яқин.

Ўша даврда адолатнинг ривожланиши ғоявий-фалсафий асосга эга эди, аммо амалиёт жамият менталитетининг ажралмас қисми сифатида совет адолат модели ғояларини амалда бекор қилди. Аста-секин, социалистик жамиятнинг асосий тамойили ҳам бузилди: «Ҳар кимдан қобилиятига қараб, ҳар ким ўз ишига кўра», шунинг учун адолатнинг ахлоқий кадриятлари тизими охиروقибат бутунлай йўқ қилинди ва адолатсиз унутилди.

Совет адолат моделининг бир қатор ғояларини янги Россиянинг маънавий ҳаётига яшовчанлигини исботлаган бир қатор ғояларнинг интеграцияси, эҳтимол, бу ҳодиса жуда самарали бўлиши мумкин, чунки Совет модели узоқ муддатли фаолият кўрсатган. адолат - объектив воқелик факти бўлиб, у ижтимоий тараққиётнинг ўзи асосидир. Совет лойиҳаси: «Инсонни инсон томонидан эксплуатация қилинмагунча, ижтимоий адолат бўлиши мумкин эмас» деган тамойилга асосланади. Эксплуатацияни енгган жамият ижтимоий адолатли бўлиши керак! Адолатнинг бундай ифодаси рус православ анъаналарида ва популизмда учрайди.

Совет адолати модели ханузгача ижтимоий қўллаб-қувватланиб, замонавий дунёда ҳақиқатан ҳам мавжуд бўлган анъана бўлиб қолмоқда ва дунёнинг кўплаб мамлакатларида ўзининг узоқ вақтдан бери мавжудлигини исботлади. Замонавий Россияда унинг кейинги ривожланиши, биринчи навбатда, мафкуравий сабабларга кўра, ҳеч қандай истиқболга эга эмас, чунки Совет кадриятларига қайтиш даргумон. Юқорида айтилганларнинг барчаси, асосан, замонавий Россияда адолат феномени, маданий коднинг элементи сифатида, эндигина шаклланаётганлигини тушунтиради.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Адолат, ахлоқий кадрият сифатида, тегишли жиҳатларда тартибга солувчи тамойил сифатида фаол равишда амалга оширилиши керак. Адолат инсоннинг жамият ва давлатга бўлган ишончи шаклини олади, бу одамларга яқин ва тушунарли ахлоқий кадриятлар тизимига асосланади. «Эски»ни «янги» адолат тушунчалари билан алмаштириб, уларнинг кадрият мазмуни ижтимоий-маданий вазият ўзгарганидек ўзгарди. Замонавий Ўзбекистон учун бу жамиятнинг маданий кодекси ўзида Ғарб ва Шарқ цивилизацияси томонидан тўпланган адолат кадриятларининг барча бойлигини тўплаши кераклигини англатади. Ижтимоий адолат жамият ҳаёти ва ривожланишининг иқтисодий, сиёсий, ҳуқуқий, ахлоқий шароитлари ихчам шаклда акс этирилган ҳодисалардан биридир. Тарихий ҳаракат субъектлари айнан ижтимоий адолат призмаси орқали

ўзларининг мавжуд бўлишларининг реал шароитларини, ушбу жамиятда шаклланган шахслараро муносабатлар тизимини, ўзларининг ижтимоий мавқеини, ижтимоий бўлиниш тизимидаги ўрнини баҳолайдилар.

Шундай қилиб, ижтимоий адолат ғояси ижтимоий тараққиётнинг ўзига хос двигателига айланиши мумкин. У энг хилма-хил кучларни сафарбар этишга ва уларни мавжуд ижтимоий муносабатлар тизимини ўзгартиришга, жамият иқтисодий ва ижтимоий-сиёсий тузилишининг бошқа моделларини излашга ҳаракат қилишга қодир. Сиз хоҳлаганча ва баланд овозда гапиришингиз мумкин, чунки одамлар яхши яшай бошладилар, аммо фактлар ўжар нарсалар: маълум, энг катта эмас, балки ўзбек жамиятининг энг нуфузли гуруҳи яхшироқ яшай бошлади. Демак, азалий саволлар туғилиши муқаррар: «Бугунги кунда ижтимоий адолат деганда нима тушунилади? Ҳозирги вақтда оммавий онгда ижтимоий адолатнинг тарихий турларидан қайси бири устунлик қилади? Ижтимоий адолат замонавий жамиятимизнинг асосий ижтимоий қадриятларидан бири деб айтиш мумкинми ёки йўқми? У ёки бу ижтимоий адолат ғоясининг шаклланишига қандай омиллар таъсир қилади? Турли ижтимоий муҳитларда ижтимоий адолат ҳақидаги ғоялар қандай фарқланади? Бу саволларга жавоб беришга уринишда, менинг фикримча, мунозара давом этиши керак.

Сократ, Платон ва Аристотел шу ва бошқа саволларга жавоб беришга ҳаракат қилишди. Суқрот жамоат ҳаётида одамлар нафақат мавжуд қонунларга риоя қилишлари ва худолар амрларига бўйсунушлари, балки ҳақиқат ва адолатга ҳам риоя қилишлари кераклигини таъкидлади. Аристотелнинг таъкидлашича, адолат шахсга муносабатнинг маълум бир усули ва давлат барқарорлигининг энг муҳим шартидир. Қонунлар шахсий масалаларда ҳамма учун тенг адолатни кафолатлаши керак, - деб таъкидлайди Перикл ва индивидуалликни эгоизм билан эмас, балки унинг қарама-қарши томони - алтруизм билан боғлаш кераклигини таъкидлайди. Шу билан бирга, қадимги юнонча адолат тушунчаси анча индивидуалдир. Платон эса адолат ҳақидаги коллективистик тушунчани ҳимоя қилади: давлат манфаатларини илгари сурадиган ҳамма нарса адолатлидир. Бу яхшилик, эзгулик ва адолатдир. Давлат манфаатларига таҳдид соладиган ҳамма нарса ёвузлик, иллат ва адолатсизликдир. Афлотун адолатни нафақат ҳар бир фуқаро эга бўлиши керак бўлган, балки ҳар қандай сиёсатнинг ҳаёти ҳам шунга мувофиқ ташкил этилиши керак бўлган энг олий фазилат деб ҳисоблади. индивидуализмни эгоизм билан эмас, балки унинг қарама-қарши томони, алтруизм билан боғлаш керак. Шу билан

бирга, қадимги юнонча адолат тушунчаси анча индивидуалдир. Платон эса адолат ҳақидаги коллективистик тушунчани ҳимоя қилади: давлат манфаатларини илгари сурадиган ҳамма нарса адолатлидир. Бу яхшилик, эзгулик ва адолатдир. Давлат манфаатларига таҳдид соладиган ҳамма нарса ёвузлик, иллат ва адолатсизликдир.

Ижтимоий адолат ғоясининг ривожланишига классик либерализм асосчилари ҳисобланганлар (Т.Гоббс, Ж.Локк, С.Милл ва бошқалар) салмоқли ҳисса қўшдилар. Улар ижтимоий адолат муаммосини инсоннинг табиий ҳуқуқлари доирасида кўриб чиқдилар. Жамият адолатли деб тан олинди, унда ҳар бир киши ўзининг шахсий бойлигининг қайси улушига ва ишлаб чиқариш фаолияти учун қанчалик фойдали эканлигига қараб ижтимоий тузилмада маълум ўринни эгаллайди. Адолатли жамият - бу жамият ҳаётининг барча жабҳалари қонун билан тартибга солинадиган, муайян хатти-ҳаракатлар учун жазо муайян жамиятда мавжуд бўлган ҳуқуқий нормаларга мос келадиган, протестант ахлоқи амал қиладиган ва адолат, биринчи навбатда, ҳалоллик бўлган жамиятдир (Б. Франклин).

Маърифатпарварлар - Ф.-М. Волтер, Ж.-Ж. Руссо, К.Монтеске, Д.Дидро ва бошқалар адолат ҳақида гапирар эканлар, сўз, виждон, йиғилиш эркинлиги каби ҳуқуқларга эътибор қаратдилар. «Табиат ҳолатида одамлар тенг туғилдилар, лекин улар бу тенгликни сақлай олмайдилар: жамият уни улардан тортиб олади ва қонунлар туфайли улар яна тенглашадилар (Монтеске «Қонун руҳи ҳақида»). Ижтимоий адолат мавзуси немис классик фалсафаси вакиллари томонидан батафсил кўриб чиқилди. И. Кантнинг «Соф ақл танқиди ҳақида» асари унинг моҳиятини ёритишга бағишланган. Унинг учун адолат жамиятни ташкил этишнинг асосий вазифаси бўлиб, у давлат ҳокимиятининг барча ҳаракатларида биринчи ўринга чиқиши керак. «Адолат – виждон ҳуқуқидир» ва бошқа барча вазифалар унга бўйсунди. Утопикларнинг асарларидаги ижтимоий адолат мавзусини алоҳида кўриб чиқиш керак, чунки айнан шу нарса уларнинг келажакдаги жамиятни тартибга солиш ҳақидаги барча назарий далилларида бошланиш нуқтаси бўлган. Бундан ташқари, амалий амалга оширишда у жисмоний ва ақлий меҳнатдаги одамларнинг тенглигини (Г. Бабеуф) ва ижтимоий тенгликнинг иқтисодий шартларини (Р. Оуен) қўллаб-қувватловчи қатъий текислаш (Т. Кампанелла, Ж. Мел) вариантларига айлантирилди. «Ҳуқуқ тенг бўлиш ўрнига тенгсиз бўлиши керак» деган машҳур ибора (К.Маркс «Гота дастурининг танқиди») ижтимоий адолатни марксистик тушунишнинг калитидир. Охир оқибат, улар Маркс томонидан «ҳақиқий инсонпарварлик» деб

таърифланган коммунизмни ижтимоий адолат тамойилига мувофиқ қурилган жамият деб ҳисобладилар. Худди шу нуқтаи назардан у ижтимоий адолат муаммосини кўриб чиқди ва В.И. Ленин кенг халқ оммасининг ижтимоий қайта қуриш учун курашида адолат ғояларининг ролига алоҳида эътибор қаратди.

ХУЛОСА

Йигирманчи асрда Ижтимоий адолат муаммоси билан кўплаб хорижий тадқиқотчилар (П.Сорокин, Т.Парсонс, Ж.Ролс ва бошқалар) ҳар томонлама ва ҳар томонлама шуғулланган. Ижтимоий адолат масаласини ҳал қилиш аста-секин ахлоқий текисликка ўтмоқда. Шунини таъкидлаш керакки, ижтимоий адолат мавзуси назарий муаммо сифатида маҳаллий илмий адабиётларда 70-80-йиллар охирида фаол муҳокама қилина бошлади. XX аср. Ижтимоий адолат муаммосини ҳал қилиш меҳнатга кўра тақсимлаш муносабатлари билан боғлиқ ва ўлчов сифатида кўриб чиқиладиган сезиларли миқдордаги асарлар пайдо бўлади (А.П. Бутенко, ТИ Заславская, Л.Н.Коган, З.А.Бербешкина ва бошқалар). мувофиқлик меҳнат ҳиссаси ва ҳақ тўлаш, бўлиш тамойили ва ахлоқий баҳолаш мезони сифатида, айирбошлаш ва тақсимлаш жараёнларини бошқариш механизми сифатида намоён бўлади.

Назарий жиҳатдан, ижтимоий адолат муаммосининг турли жиҳатлари машҳур совет файласуфларининг асарларида кўриб чиқилган ва бу рўйхат жуда таъсирли: Л.М. Архангелский, Н.А. Головкин, Б.Т. Григорян, В.Г. ва бошқалар келтириб ўтиш жоиз.

Ижтимоий адолат муаммосига мурожаат қилиш нафақат илмий қизиқиш, балки бу даврда совет жамияти ривожланишининг воқеликлари билан ҳам қўзғатилди ва бошланди. Ривожланган социализмнинг охириги босқичидаги ижтимоий муносабатларда, одамларнинг оммавий онгини шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятларида кузатилиши мумкин бўлган қарама-қаршилиқларнинг бутун чигаллиги ижтимоий адолат каби нозик мавзуга мурожаат қилганда тўлиқ намоён бўлди.

REFERENCES

1. Kurbanova, M. M., & Ataeva, G. B. (2020). Problems facing efl teachers in mixed ability classes and strategies used to overcome them. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 01 (81), 721-725.
2. Курбанова, М. М. (2021, December). ГЕКЛЬБЕРРИ ОБРАЗИ ВА БАДИИЙ МАКОН МАСАЛАСИ. In *International*

- journal of conference series on education and social sciences (Online) (Vol. 1, No. 2).
3. Kadamovich, Y. J., Muzaffarovna, I. G., Maxmudovich, Y. B., Boxtiyarovna, S. S., & Xabibullayevich, S. S. (2020). Social justice as a condition of socio-spiritual stability in society. *Journal of Critical Reviews*, 7(5), 816-818.
 4. Ramatov, J.S., & Khasanov, M.N. (2022). HISTORY OF RAILWAY CONSTRUCTION IN UZBEKISTAN: YESTERDAY AND TODAY. *Orientalrenaissance: Innovative, educational, naturalandsocialsciences*, 2 (6), 925-930.
 5. Раматов, Ж. С., Ҳасанов, М., & Назарова, Н. Ж. (2022). МЕДИАМАДАНИЯТ ВА АХБОРОТДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. *Academic research in educational sciences*, 3(6), 984-988.
 6. Раматов, Ж. С., Ҳасанов, М., & Валиев, Л. А. АУРОБИНДО ГҲОШ ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ ФАЛСАФИЙ МЕЪРОСИ.
 7. Раматов, Ж. С., Ҳасанов, М., & Валиев, Л. А. (2022). ИНСОН ДУНЁҚАРАШИНИНГНИНГ ДИНИЙ ВА ДУНЁВИЙ ТАЛҚИНИ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2 (7), 78-82.



**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИНГ ТАРАҚҚИЁТ СТРАТЕГИЯДА ҚОНУН
УСТУВОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ВА МАҲАЛЛА ИНСТИТУТИ
ФАОЛИЯТИНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ
ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ (ТАҲЛИЛИЙ-СТАТИСТИК
МАЪЛУМОТЛАР АСОСИДА)**

М. М. Инагамова

Тошкент давлат транспорт университети доценти, юридик фанлар бўйича
фалсафа доктори (PhD)

АННОТАЦИЯ

Мақолада мамлакатимизда қонун устуворлиги принципини янада ривожлантиришда маҳалланинг «фаол» моделини жорий этиш, унда аҳоли муаммоларини бевосита ҳал қилиш ҳамда худудни ривожлантириш учун зарур ресурс ва имкониятлар билан таъминлашнинг ташкилий-ҳуқуқий масалалари ёритилган.

Таянч сўзлар: қонун устуворлиги, ҳуқуқий маданият, давлат органлари, аҳоли муаммолари, ижтимоий ҳимоя.

ABSTRACT

The article discusses the organizational and legal issues of introducing an "active" mahalla model in the further development of the rule of law in our country, providing it with the necessary resources and opportunities for directly solving the problems of the population

Keywords: rule of law, legal culture, government agencies, population problems, social security.

КИРИШ

Қонуннинг устуворлиги ҳар қандай давлат ва жамият ҳаётининг муқаддас тамойилларидан бири бўлиб, барча демократик институтлар, инсон ҳуқуқи ва эркинликлари қонун устуворлиги таъминланиши асосида жорий этилади. Қонунда халқнинг иродаси, хоҳиш ва истаклари, манфаат ва интилишлари ўзининг ифодасини топади.

Шу ўринда таъкидлаш жоизки, демократик ҳуқуқий давлат ва эркин фуқаролик жамиятини барпо этиш – Ўзбекистоннинг пировард мақсадидир. Бу жараёнда, қонун устуворлигини таъминлаш, шахс, оила, жамият ва давлатнинг ҳуқуқ ва

манфаатлари муҳофазасини кучайтириш, аҳолининг ҳуқуқий маданияти ва ҳуқуқий онгини ошириш, фуқароларни қонунга бўйсунтириш ва ҳурмат руҳида тарбиялаш – бу ривожланган бозор иқтисодиётига асосланган чинакам демократик, ҳуқуқий давлат ва эркин фуқаролик жамияти қуришнинг нафақат мақсади, балки унинг воситаси, энг муҳим шарт ҳисобланади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Президентимиз таъбири билан айтганда «Конституция ва қонун устуворлиги – фаровон ҳаёт гарови» деган тушунча фуқароларимизнинг онги ва қалбида чуқур ўрин эгаллаши ҳамда ижтимоий эҳтиёжга айланиши учун қуйидаги масалаларга алоҳида эътибор қаратиш лозим:

Биринчидан, қонунлар ижросини самарали ташкил этиш, тизимли муаммоларни олдиндан кўра билиш, қонун бузилишининг салбий оқибатларига қарши курашиш билан бирга бундай ҳолатни барвақт бартараф этишга қаратилган тизимни шакллантириш;

иккинчидан, Конституция ва қонун устуворлигига эришишда жамоатчилик назоратини кучайтириш;

учинчидан, оммавий ахборот воситалари қонунийликни қарор топтиришда чинакам «жамият кўзгуси»га айланиши керак.

тўртинчидан, қабул қилинаётган қонунлар олиб бораётган ислохотларимиз билан уйғун бўлган тақдирдагина ишлайди.

бешинчидан, биз қанчалик мукамал қонунлар яратмайлик, қандай ислохотлар ўтказмайлик, агар фуқароларимизнинг ҳуқуқий билими, онги ва маданияти етарли бўлмаса, кутилган натижаларга эришиш мушкул бўлади.

Демак, ҳуқуқий маданиятни ривожлантириш, жамиятда ҳуқуқий маданиятни шакллантириш, аҳолининг ҳуқуқий билимини ошириш ва ўз ҳуқуқларини билишга кўмаклашиш – демократик ҳуқуқий давлат қуришнинг зарурий шарт ва гаровидир. Қонун ва амалдаги меъёрлардан яхши хабардор ва уни ҳурмат қиладиган фуқарога ўз ҳуқуқларидан тўлиқ фойдаланиши мумкин.

Мамлакатимизни 2017 – 2021 йилларда ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси доирасида ўтган давр мобайнида давлат ва жамият ҳаётининг барча соҳаларини тубдан ислох этишга қаратилган 300 га яқин қонун, 4 мингдан зиёд Ўзбекистон Республикаси Президенти қарорлари қабул қилинди. Шунингдек, инсон ҳуқуқларини таъминлаш, давлат органларининг ҳисобдорлиги ва очиклигини кучайтириш ҳамда фуқаролик

жамияти институтлари, оммавий ахборот воситаларининг роли, аҳоли ва жамоат бирлашмаларининг сиёсий фаоллигини ошириш бўйича тизимли ишлар амалга оширилди.

«Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида Фармонида қонун устуворлиги ва конституциявий қонунийликни таъминлаш ҳамда инсон қадрлари ва ҳуқуқларини ҳимоя қилиш бош мезони сифатида белгиланди.

Шунингдек, инсон қадрини улуғлаш, юртимизда яшаётган ҳар бир фуқаронинг ҳуқуқ ва эркинликлари, қонуний манфаатларини таъминлашда жамиятимиз асоси бўлган маҳалла ҳал қилувчи ўрин тутишини инбатга олиб, маҳалланинг «фаол» моделини жорий этиш, унда аҳоли муаммоларини бевосита ҳал қилиш ҳамда ҳудудни ривожлантириш учун зарур ресурс ва имкониятлар билан таъминлаш мақсадида 2022 йилда қуйидаги устивор вазифаларни амалга ошириш белгиланиб, ижроси таъминланди.

Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 16 августдаги «Маҳалла институтининг жамият ҳаётидаги ролини мустаҳкамлаш ва молиявий имкониятини янада кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 353-сонли Қарори қабул қилинди. Қарорга асосан маҳалланинг ижтимоий-иқтисодий муаммоларини ҳал этиш жамғармаси ташкил этилиб, унинг молиялаштирилган йўналишлари сифатида қуйидагилар белгиланди:

биринчидан, ҳудуддаги ички йўллар, электр энергияси ва табиий газ тармоқлари, ичимлик ва оқова сув тизимини таъмирлаш ва тиклаш;

иккинчидан, маҳалла биноси, маҳалла ҳудудида жойлашган спорт майдони, нуронийлар чойхонаси, ёшлар маркази, болалар майдончаси, кутубхона, маданият марказини қуриш, мукамал ва жорий таъмирлаш ҳамда уларни инвентар, мебель, компьютер техникаси ва бошқа ускуналар билан жиҳозлаш;

учинчидан, ҳудудда инфратузилмани ривожлантириш, «Яшил макон» умуммиллий лойиҳаси доирасида ободонлаштириш ва кўкаламзорлаштириш ишларини амалга ошириш;

тўртинчидан, ижтимоий ҳимояга муҳтож ва кам таъминланган оилаларга моддий кўмаклашиш ҳамда уларнинг турар жойларини таъмирлаш ва жиҳозлаш.

Бундан ташқари, маҳаллаларнинг жамоатчилик билан алоқаларини кучайтириш чораларини кўриш Дастур ижроси

юзасидан, 2022 йил 6 июнь куни Маҳалла ва нуронийларни қўллаб-қувватлаш вазирилиги ҳамда Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги билан ҳамкорликда, комплекс чора-тадбирлар режаси ишлаб чиқилиб, тасдиқланди.

Шунингдек, Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 15 апрелда 173-F-сон Фармойиши билан Вазирликда соҳа тарғиботини олиб бориш ҳамда танқидий материалларга доимий муносабат бериб бориш мақсадида, Медиа-марказ курилиб фойдаланишга топширилди.

Инсон қадрини юксалтириш ва эркин фуқаролик жамиятини янада ривожлантириш орқали халқпарвар давлат барпо этиш деб номланган бўлимнинг 6-банди ижросини таъминлаш мақсадида, маҳалла раиси ҳамда ҳоким ёрдамчилар томонидан йил давомида маҳаллаларни ўрганиш ва таҳлил қилиш натижасида 9349 та маҳаллани иқтисодий ривожлантириш бўйича 2022 йил учун мўлжалланган «Йўл харита»лари ҳудудий ҳокимликлар томонидан тасдиқланди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йилнинг 25 июлида «Маҳаллаларда саноат, хунармандчилик, касаначилик ва чорвачилик микромарказларини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-331-сонли Қарори қабул қилинди.

2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясининг «Инсон қадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили»да амалга оширишга оид давлат дастурининг 244-бандида белгиланган вазифалар бўйича қуйидаги ишлар амалга оширилди:

биринчидан, имконияти чекланган ва ногиронлиги бўлган 12 минг нафар шахсларнинг бандлигини таъминлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 20 апрелдаги «Ногиронлиги бўлган шахсларнинг бандлигига кўмаклашишни рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 203-сон қарори қабул қилинди.

Қарорга мувофиқ 12 146 нафар ногиронлиги бўлган шахсларнинг бандлигига кўмаклашиш мақсадида, 3 759 нафар ногиронлиги бўлган шахслар ташкилотлардаги мавжуд бўш ҳамда захираланган иш ўринларига ишга жойлаштириш, 2 993 нафари касб-хунарга ҳамда тадбиркорлик кўникмалари ва молиявий саводхонликка ўқитиш, 2 384 нафари ногиронлиги бўлган шахсларни ишга қабул қилган иш берувчиларга субсидия ажратиш ҳамда 3 010 нафари ҳақ тўланадиган жамоат ишларига жалб қилиш назарда тутилди.

Шунингдек, тиббий-меҳнат эксперт комиссиялари томонидан ҳар бир ногиронлиги бўлган шахсларни ишлаши

мумкин бўлган касблари тўғрисидаги маълумотлар «Бандлик хизмати» ахборот тизимига интеграция қилинди.

иккинчидан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 29 апрелдаги «Ижтимоий ҳимояга ва ёрдамга муҳтож аҳоли қатламларини моддий қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-230-сон қарори қабул қилинди.

Мазкур қарорнинг 3-банди «в» кичик бандига мувофиқ 2022 йил 1 июндан бошлаб «Ишга марҳамат» мономарказларида инклюзив таълим асосида касб-ҳунарга ўқитилаётган ногиронлиги бўлган шахсларга ногиронлик нафақаси билан бир вақтда, Бандликка кўмаклашиш давлат жамғармаси маблағлари ҳисобидан базавий ҳисоблаш миқдорининг 2 баравари миқдорида ҳар ойлик стипендия тўлаб берилиши белгиланди.

Государственная комиссия по науке и технологиям; Агентство по науке и технологиям Узбекистана, созданное на базе Комитета по координации развития науки и технологий при Кабинете Министров, и являющееся рабочим органом Государственной комиссии и единым заказчиком государственных научно-технических программ и проектов, реализуемых научно-исследовательскими, образовательными и другими учреждениями Узбекистана; Фонд поддержки и развития научно-технической деятельности, созданный в целях создания условий для организации исследований, направленных на обеспечение развития науки и технологий в стране, освоение выпуска конкурентоспособной наукоемкой продукции при Государственной комиссии; Фонд поддержки инновационного развития и новаторских идей.

Одним из основных направлений инновационного развития Республики Узбекистан является создание эффективных механизмов продвижения и внедрения перспективных достижений научно-исследовательской и инновационной деятельности, включая организацию и укрепление материально-технической базы научно-экспериментальных специализированных лабораторий, центров высоких технологий, технопарков и других инновационно ориентированных структур, в том числе с участием иностранных инвесторов.

В 2017 г. была разработана Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан на 2017-2021 гг., утвержденная Указом Президента Республики Узбекистан от 07.02.2017 г. № УП-4947. В Стратегии особое внимание уделено стимулированию научно-исследовательской и инновационной деятельности, созданию эффективных механизмов внедрения научных и инновационных достижений в практику, образованию при высших образовательных учреждениях и научно-исследовательских институтах научно-экспериментальных специализированных лабораторий, центров высоких технологий и технопарков.

В целях дальнейшего развития в Узбекистане производства программного обеспечения для информационно-коммуникационных технологий, поддержки национальных разработчиков в расширении производства программных продуктов, увеличения экспорта продукции ИКТ, стимулирования привлечения в сферу ИКТ инвестиций, в соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан от 30.06.2017 г. № УП-5099 «О мерах по коренному улучшению условий для развития отрасли информационных технологий в Узбекистане» и Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 15.08.2017 г. № 631 «О мерах по



организации деятельности Инновационного центра по поддержке разработки и внедрения информационных технологий «MirzoUlugbekInnovationCenter» создан инновационного центра Mirzo UlugbekInnovationCenter.

Центр действует на основе принципа экстерриториальности в пределах территории Узбекистана. В настоящее время резидентами центра являются более 200 компаний из Узбекистана. Активно проявляют заинтересованность международные компании - потенциальные резиденты и инвесторы (AmazonWebServices, Cisco, GoogleLaunchpad, IBM, Microsoft, HP TechVentures, PlugandPlay и School 42). Также, подписаны меморандумы о взаимопонимании с южнокорейской KAIST GCC, которые предполагают совместную работу в сфере трансфера технологий, а также соглашения с университетом «Иннополис» и «ИТ-парком». Высшим органом управления Центра является Координационный совет, персональный состав которого утверждается Президентом Узбекистана.

Основным направлением деятельности Центра является создание организационно-технических и финансово-экономических условий для расширения взаимодействия хозяйствующих субъектов и вузов в производстве и реализации продукции информационных технологий на внутреннем и внешнем рынках.

Одним из важных механизмов внедрения, а также коммерциализации результатов прикладных исследований, обеспечения более тесной связи науки и производства, производителей инновационной продукции и ее потребителей стали ежегодные республиканские ярмарки инновационных идей, технологий и проектов, проводимые в Узбекистане начиная с 2008 года.

На данной Ярмарке представляются инновационные идеи и проекты по таким направлениям, как «промышленность», «сельское хозяйство», «здравоохранение и фармацевтика», «информационные технологии», «наука и образование», а также «внедрённые инновационные разработки».

По итогам Ярмарки, потребителями инновационных разработок учреждений высшего образования и научно-исследовательских институтов заключают договора.

ВЫВОДЫ

В заключении надо отметить, что необходимы не взаимодополняющие, а интегрированные структуры, в которых совместными усилиями ученых, преподавателей, студентов и аспирантов совместно с бизнесменами будут производиться инновации.

Достичь этого можно через новую образовательную модель подготовки специалиста «Университет – инновационное предприятие (бизнес- инкубатор, технопарк)». Такая модель предполагает сочетание науки и производства через образовательное пространство. Развивая исследовательскую деятельность, университет переходит в статус исследовательского ВУЗа. Мировая практика показывает ключевую роль университетов в развитии инновационного потенциала территорий. В качестве ведущего принципа трансформации выступает инновационное образование, под которым понимается процесс комплексной подготовки специалистов в области техники и технологии и инновационной деятельности за счет модернизации содержания инженерного образования и применения адекватных форм и методов обучения.

REFERENCES

1. Arislanovna, Y., &Bakhtiyorovich, G. B. (2021). Marketing And Information Support In Public Sector. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 8(1), 940-947.
2. Arislanovna, Y. S., &Bakhtiyorovich, G. B. (2021). Using The Experience Of Developed Countries In Developing A Consortium Between Higher Education Institutions And Production. *EuropeanJournalofMolecularandClinicalMedicine*, 8(1), 819-826.
3. G‘Iyosidinov, B. B. O. G. (2022). SHAHARLARDA YO ‘LOVCHILARNI JAMOAT TRANSPORTI XIZMATIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 177-188.
4. Ogli, G. B. B., &Buribayevich, E. O. (2022). Development of Logistics Processes in Transport Enterprises. *Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences*, 1(3), 138-142.
5. Юлдашева, С. А., &Бўриходжаева, М. С. (2022, September). ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ТАМОЖЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАЗВИТИИ МЕЖДУНАРОДНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"* (Vol. 1, No. 1, pp. 87-91).
6. Abdurakhmanov, O., Khashimova, N., &Yuldasheva, S. (2022, June). Improvement of mechanisms for generation of investment potential in order to ensure sustainable economic growth in Uzbekistan. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2432, No. 1, p. 030006). AIP Publishing LLC.



7. Yuldasheva, S. A., & Malenkikh, D. A. (2018). Unctad methodology in globalization of the direct investment market. *Актуальные проблемы экономики и управления на предприятиях машиностроения, нефтяной и газовой промышленности в условиях инновационно-ориентированной экономики, 1*, 149-154.
8. Arislanovna, Y. S., & Nematjanovna, K. M. (2021). Specifics Of Corporate Governance In Road Transport. *Psychology and Education Journal*, 58(2), 8027-8030.
9. Mukhitdinova, K., & Yuldasheva, S. DEVELOPMENT OF TRANSPORT AND LOGISTICS SERVICES MARKET.



ЁШЛАР ТАРБИЯСИ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ

С. В. Темирова

Ташкент давлат транспорт университети катта ўқитувчи

Хусниёр Хайрулла ўғли Шарифбаев

Тошкент давлат Транспорт Университети Иқтисодиёт факультети СШ-1
талабаси

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақола мамлакатлар ва минтақалар ўртасида интеграция жараёнлари кучайиб бораётган шароитда маданиятлараро мулоқотга имконият кенгайтириши ва бугунги кунда инсон фаолиятининг барча жабҳаларида таркибий ўзгаришлар юз бераётган, аҳолининг интеллектуал тайёргарлик даражаси мамлакат суверенитетининг ҳокимият, ҳудуд, табиий ресурслар, қуроли кучларнинг мавжудлиги каби муҳим омилига айланаётган шароитда ёшларнинг маданий қиёфасига эътибор қаратиш ҳақидаги илмий фикр ва хулосалар батафсил маълумот берилган.

Калит сўзлар: Ёшлар, маданият, маданий қиёфа, умуминсоний қадриятлар, ахлоқ, тарбия, ижтимоийлашув.

КИРИШ

Глобаллашув шароитида ёшларнинг замонавий маданий қиёфаси ўрганилиши жамият ҳаётининг барча соҳалари билан боғлиқ ҳолда амалга оширилмоқда. Ёшларнинг замонавий маданий қиёфасини шакллантиришда умуминсоний қадриятларнинг ўрни, бугунги кундаги жамият тараққиётидаги роли бевосита аҳамиятлидир. Ёшларнинг умуминсоний қадриятларга бўлган муносабатида толерантликнинг намоён бўлиши ёшлар маънавий қиёфаси билан боғлиқдир. Шунга асосланиб, вақт ўтиши билан қадриятлар тизими жамиятда муҳим роль ўйнашини ёшларнинг маънавий дунёсига таъсир этишида кўришимиз мумкин. Ёш авлоднинг ҳар бир вакили ўз мамлакатини ривожлантириш ва инсониятга фойда келтиришни мақсад сифатида белгилаб, фаолиятини ташкил этиши керак. Ҳар бир миллатнинг келажаги халқнинг интеллектуал салоҳияти мамлакатнинг қайси йўлдан ривожланишига кўп жиҳатдан боғлиқдир. Шахснинг

ижтимоий фаоллик даражаси, маданий юксалишини таъминловчи муҳим омил таълим ва тарбия ҳисобланади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Мамлакатлар ва минтақалар ўртасида интеграция жараёнлари кучайиб бораётган шароитда маданиятлараро мулоқотга имконият кенгаймоқда. Бугунги кунда инсон фаолиятининг барча жабҳаларида таркибий ўзгаришлар юз бераётган, аҳолининг интеллектуал тайёргарлик даражаси мамлакат суверенитетининг ҳокимият, ҳудуд, табиий ресурслар, қуролли кучларнинг мавжудлиги каби муҳим омилига айланаётган шароитда ёшларнинг маданий қиёфасига эътибор қаратиш, унинг даражасини ошириш миллатнинг халқаро обрўси, унинг маънавий нуфузи ва инсон салоҳияти сифатининг ошишига элтувчи муҳим омилга айланмоқда.

Ёшларнинг этномаданий жиҳатдан ўз-ўзини англаш даражаси, этномаданий компетентликка эришиш, ёшлар дунёқарашида миллий қадриятлар ва умуминсоний қадриятларга бўлган муносабатни шакллантиришга ёрдам беради.

«Маданият» – кенг қамровли тушунча бўлиб, у категория сифатида барча гуманитар фанларнинг фаол предметидир. Маданият шахсни жамиятнинг ахлоқий талабларини бажариши нуқтаи назаридан таърифловчи фалсафий категория сифатида кўп қўлланади.

«Этномаданий компетентлик – юқори билимлилик, шахслараро муносабатларда зийраклик, мамлакат ичкарисида ва ташқарисида содир бўлаётган янгиликлардан хабардорлик, муносабатларда нозиклик, мулоқот ҳамкорининг маданияти, тили, анъаналарини ҳурмат қилишни билдиради ҳамда ижтимоий муносабатларнинг барча жараёнларида иштирок этиш имкониятини беради».

Этномаданий компетентлик натижасида ижтимоий муносабатлар, маданий мулоқотга интилишга нисбатан ёшларда дадил қадамлар пайдо бўлади ва маданий қиёфаси умуминсоний қадриятлар билан ҳамоҳангликда шаклланади.

Қадриятлар ҳақида сўз борганда, антик давр файласуфлари Афлотун, Арасту, Демокрит, Сукрот, Диеосфен кабиларнинг таълимотлари қадриятлар тўғрисидаги тушунчалар ва қарашларнинг ривожланишига асос солди. Уларнинг фикрича, бойлик ва қашшоқлик ўртасидаги ўзаро қурашда инсон қадр асосий ўринга чиқади.

Шунинг учун ҳам давлат жамиятда ижтимоий адолатни ўрнатишга маъсуллиги янада ортиши таъкидланади.

Мамлакат ва миллат ор-номусини, фахру-ифтихорини, истиқболи ва келажагини ёшлар, уларнинг фаолиятсиз тасаввур қилиш мушкул. Шу боисдан мамлакатимиз аҳолисининг 60% ташкил этган ёшлар ватанимизнинг стратегик мақсадларини амалга оширишда катта куч эканлигини ҳисобга олган ҳолда, уларга бўлган муносабат, ҳаётга, фаолиятга бўлган қизиқиш ва ёшларнинг маданий қиёфасини шакллантириш долзарб муаммо бўлиб қолмоқда.

Маданий қиёфа тушунчаси моҳияти нуқтаи назаридан соф ижобий ҳодисадир. Маълумки, (ижтимоий функцияга кўра) маданий қиёфа тушунчаси фалсафий-социологик категория ҳисобланиб, шахс ва жамият, жамоа ўртасидаги муносабатларни объектив тарзда бевосита муносабатларини амалга оширишни ифода этади. Шунингдек, масъулият деганда ижтимоий аҳамиятли бурч ва вазифаларнинг бажарилиши натижасида хатти-ҳаракат негизига етган ахлоқий тамойиллар ҳам тушунилади. Таъкидлаш жоизки, ижтимоий масъулиятнинг хусусиятлари, мазмун-моҳияти, унинг таркибий тузилмалари орқали ифодаланади. Шу жиҳатдан, ижтимоий жавобгарлик – объектлар (инсон, жамоа, жамият) характерли ташаббуслардан ташкил топган. Ижтимоий мақсадларга ижтимоий ҳақиқатга етишиш, ижобий меҳнат кўникмасини ташкил этиш, шахс шаклланиши учун қулай шароитлар яратиш киради.

Бугунги глобаллашув жараёнида ёшлар ўртасида маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини янада юксалтириш, мафкуравий иммунитетни оқилона шакллантириш, оммавий маданият кўринишларидан, бузғунчи ва ёт ғоялар таъсирига тушиб қолмаслик чора-тадбирларидан огоҳлантириш, уларнинг ижтимоий масъулиятларини тўғри шакллантириш орқали амалга ошади.

Президент Ш.Мирзиёев 2016 йилнинг 18 ноябрида Жиззах вилояти сайловчилари билан учрашувдаги нутқида: «Ҳаммамиз кўриб, кузатиб турибмиз – бугунги шиддат билан ўзгараётган дунё инсоният олдида, ёшлар олдида янги-янги уфқ ва имкониятлар очиш билан бирга, уларни илгари кўрилмаган турли ёвуз хавф-хатарларга ҳам дучор этмоқда. Диний экстремизм, терроризм, гиёҳвандлик, одам савдоси, ноқонуний миграция, «оммавий маданият» каби таҳдидлар қанча-қанча оилалар, мамлакатлар бошига оғир кулфат ва кўргиликлар олиб келмоқда. Бунга барчамиз гувоҳ бўлмоқдамиз. Ғаразли кучлар ҳали онги тўлиқ шаклланиб улгурмаган болаларни ўз ота-онасига, ўз ватанига қарши қайраб, уларнинг ҳаётига, умрига зомин бўлмоқда» деб таъкидлар

экан, ёшларни турли мафкуравий, ғоявий хуружлардан асрашга алоҳида эътибор қаратиш лозимлигини қайд этган эди.

Аслида ижтимоий тараққиёт тадрижийлигининг авлодлар ворисийлигидаги воқеалар занжирини кузатганимизда бутун тарихнинг, ҳаётнинг ўзи масъулият асосига қурилганлигини кўрамиз. Зеро, маданият орқали жамиятда тартиблилик, мутаносиблик, белгиланган режа ва вазифаларни адо этишдаги собитқадамлилик ҳиссиёти пайдо бўлади. Аммо, бугунги кунда ёшлар ўртасидаги турли маданиятлар тарғиботи ва уларга эргашиш ҳолатлари кузатилмоқда. Бу жараён онгсиз ҳолатда бўлаётганлигини ҳам таъкидлаш зарур.

Ёшлар замонавий маданий қиёфасини шакллантириш учун маданий меросдан фойдаланиш омилларини атрофлича ёритиш орқали ижтимоий ҳаётда учрайдиган салбий ҳодисаларни ва уларнинг оқибатларини бартараф этиш йўллари аниқлаш шартдир.

Ёшлар маданий қиёфасининг генезиси ва шаклланиши жараёни бевосита шахс фаолиятининг, уни ҳаракатга келтирувчи унинг руҳиятидаги объективлик ва субъективлик, ички ва ташқи, эркинлик ва воқелик, тасодиф ва зарурият ҳодисаларини бир-бирига боғловчи омиллар билан ўзаро алоқада кечади. Зеро, инсон кўрган билган, эшитган воқеа-ҳодисаларни бирданига қабул қилиб ундан хулоса чиқара олмайди. Биринчи марта инсон онгига таъсир кўрсатган ҳар қандай янгилик унинг онги, ақл даражаси орқали ўтади.

Шахс маданиятидаги субъективлик унинг ўзини аниқлаши билан боғлиқ, ўзини аниқлаш бевосита объектив борлиқ билан тўқнаш келишидаги ҳолатга мос келади. Бу маслак охир-оқибатда ҳам субъектив омилга ва объектив жараёнларга ўз таъсирини ўтказади. Бунда инсоннинг фаолияти борлиққа нисбатан абстракт бўлмасдан амалий натижалар йиғиндиси билан изоҳланади ва шу орқали инсон борлигининг ижтимоий моҳияти ифодаланади. Инсон фаолияти жамиятдаги қадриятлар тизими ва умуминсоний қадриятларга муносабати ва урф-одатларнинг таъсирида ўзгаради.

Ҳар бир поғонада ўз ифодасини топган маданий қиёфа ва уни таснифловчи жиҳатлар инсон фаолияти, унинг турфа хусусиятлари билан бир бутунликда кечади. Шу жиҳатдан уч асосий жиҳатни ўзаро интеграл муҳим нуқта сифатида белгилаш ўринли:

Ёшларнинг маданий қиёфаси тадқиқи ривожланиш тарихи ҳам умуминсоний қадриятлар асосига қурилган ва шу асосида ривожланган. Умуминсоний қадриятлар инсонлар онги,

тафаккури ва жамиятда ижтимоий фикрини шакллантиришда бош омил ролини ўйнаган.

Бир сўз билан айтганда, умуминсоний кадриятлар ижтимоий фалсафанинг таркибий тузилмасининг элементларидан бирини ташкил ва шу асосида тараққий этади. Узоқ ўтмишдан бошлаб, инсоннинг ўзи ва атрофидаги ўзгаларга бўлган муносабати, қийин вазиятларда масъулиятни зиммасига олиши, қавм-қариндошлар ва жамият олдидаги вазифасини адо этиш ҳиси шаклланишига олиб келган. Ушбу воқеилик барча фалсафий таълимотлар марказидан жой олган. Умуминсоний кадриятларни давлат ва жамият ривожланишида тутга ўрни инсонларнинг дунёқарашининг ўзгариб бориши билан чамбарчас боғлиқдир.

«Тадқиқотчилардан бири А.В.Миронов энг олий ва абсалют кадрият сифатида инсонни тан олади, чунки, инсон ҳаётнинг ҳамда барча кадриятлар субъектидир».

Баъзи адабиётларга кўра, кадриятлар инсон ҳаётида учта турдаги тизимлардан ташкил топганлиги таъкидланади. Булар шахсий, барча учун умумий ва бутун инсониятга дахлдор бўлган ва барча давлатлар амал қилиши лозим бўлган кадриятлардир.

Марказий Осиё минтақасига Ислом динининг кириб келиши ва тарқалиши шу ҳудудларда яшовчи халқларга батамом янги қарашларни ҳамда таълимот олиб келди. Ислом дини моҳиятан инсонни улуғлаш, тўғри йўлга бошлаш, ёмон ишлардан сақлаш, ҳамиша яхшилик қилишга чорлаган. Натижада, Осиё мамлакатлар халқлари ҳаётида инсон олий мавжудод эканлиги, у бутун борлиқнинг «гултожи» эканлиги, Оллоҳ инсонни азиз ва муқаррам қилиб яратганлиги тўғрисидаги тушунчаларнинг шаклланиши ва исломий ахлоқий нормалар ҳамда кадриятлар тизимини вужудга келтирди.

Ўрта аср мутафаккирлари Абу Райхон Беруний, Ибн Сино, Абу Наср Фаробий, Ахмад Фарғоний ва бошқа кўплаб алломалар инсон борлиги, қадри, давлат ва жамият ривожланишига доир илмий мероси ўз кучини ҳанузгача йўқотгани йўқ. Инсоннинг борлиги, унинг шаъни, кадр-қиммати, ахлоқи, одоби, илми тўғрисида Алишер Навоий бобомиз асарларида марказий ўринни эгаллагани диққатга сазовордир.

Ғарб мамлакатларидан умуминсоний кадриятлар тўғрисидаги таълимотларни вужудга келиши ва ривожланишида Ф.Бекон, Т.Гоббс, Г.Спенсер, И.Кант, Ф.Нитше, А.Конт, Д.Шпенглер, М.Вебер ва бошқа мутафаккир олимларнинг ҳиссаси катта бўлган. Уларнинг таълимотларида инсон манфаатларини ҳимоя

қилиш ва эҳтиёжларини қондириш давлат ижтимоий сиёсатининг бош мезони бўлиш кераклиги айтилади. Умуминсоний қадриятлар тўғрисидаги назариялар инсонпарварлик ғоялари асосида вужудга келди. Кейинчалик Европада вужудга келган ижтимоий ҳаракатлар, клублар, жамоат бирлашмалари ушбу инсонпарварлик ғояларини ўзига шиор қилиб олган. Умуминсоний қадриятлар, ижтимоий адолат тўғрисидаги қарашлар, назариялар XVI – XX асрларда хронологик тарзда ривож топишини гувоҳи бўлишимиз мумкин.

XX-XXI асрларга келиб улкан муаммоларни фалсафий жиҳатдан англаш асосида башарият маданиятидаги ғоят муҳим қадриятлар тўғрисидаги масалалар ўртага қўйилди: миллий, диний ва умуминсоний масалалар; уруш ёки тинчлик; яратиш ёки вайрон қилиш; табиат устидан «хукмронлик қилиш» ёки одам билан табиат ўртасидаги ўзаро муносабатларни уйғунлаштириш мана шундай улкан муаммолардан ҳисобланади.

Бу жараёнда инсон маданий қиёфасини такомиллаштириш, меъёрлаштириш асосида, жамият фуқароси сифатида ўз хатти-ҳаракатларининг моҳиятини тушунган ҳолда, жамият олдидаги бурч ва мажбуриятларини тўлиқ англаб етиб, масъулиятни ҳис этган ҳолда ўз фаолияти устидан ўз назоратини ўрнатиш орқали маданий муҳит яратади. Инсоннинг маданий қиёфаси ижтимоий муносабатлар орқали шаклланади ва намоён бўлади. Чунки маданий муҳитни шакллантириш юксак ахлоқий фазилатни, миллий менталлик белгиларини тақозо этади. Маданий қиёфанинг шаклланиш босқичлари ҳам бевосита маданий муҳит билан боғлиқ. Маданий муҳит, ўз навбатида, тизимли таснифга эга умуминсоний аҳамият касб этувчи қадриятлар тизимидир.

Бизнинг фикримизча, кекса авлод вакиллари ёшларнинг тўғри ёки нотўғри йўналишини йўлга қўйиши керак. Мамлакатда рўй бераётган катта ўзгаришлар аҳолининг барча қатламлари, жумладан, ёшларнинг фаол иштирокини тақозо этмоқда. Шу билан бирга, давлатнинг ички сиёсати тартибга солувчи омил бўлиши керак.

Ёшларнинг ижтимоийлашуви замонавий жамиятда содир бўлаётган жараёнлардан ташқарига чиқа олмайди. Бу жараённи бирлаштириш учун ёшларга оид янги давлат сиёсатини чуқурлаштириш зарур. Бу ижтимоий ислохотлар шароитида ёш авлоднинг бозор муносабатларига барвақт мослашишига хизмат қилади. Шунинг учун жамиятдаги ёшлар муаммоси унинг давлати муаммоларидан ажралмасдир. Бинобарин, ёшлар сиёсати давлатнинг асосий йўналишлари ва устувор йўналишларидан биридир.

Бу борада ёшларнинг қизиқиш ва мойиллигини тўғри йўлга қўйиш, унинг юртимиз учун самарасини кўрсатиш,

ёшларни ватанпарвар, билимли этиб тарбиялаш жамият олдидаги асосий вазифалардан бири бўлиб қолади. Ёшларнинг таълим ва тарбияси уларнинг маънавий, миллий-ахлоқий фазилятлари даражасига боғлиқ.

Маънавий-ахлоқий тарбия инсон камолотининг энг муҳим омилларидан биридир. Жамият маданиятсиз, маънавий-ахлоқий қадриятларсиз яшай олмайди. Жамиятда муҳит соғлом бўлса, ёшларнинг истиқболдаги авлод ҳаёти, турмуш тарзи, хулқ-одоби баркамол, сермазмун бўлади. Ёшларни замон талаби даражасида маърифатли қилиш энг долзарб вазифадир. Абдулла Авлоний айтганидек, маърифат – шижоат, шижоат қалбнинг матонати, руҳнинг саломатлигидир.

Маърифат, маънавият юксак мақсад бунёдкор ғояларга асосланади. Биз демократик янгиланиш, тезкор ахборотлашиш даврида яшар эканмиз, ҳам маънавий, ҳам руҳий покланишни унутмаслигимиз лозим. Бу борада диний маданият, маънавий мерос ва маърифатдан ижобий фойдалансак, нур устига аъло нур бўлади. Чунки диний маданият ҳамда маънавий мерос муқаддас бойлиқдир. Буюк алломаларимиздан бири Имом Насафий «Комил инсон бўлиш учун мукаммалликка интилоқ лозим. Яъни, яхши ақл, яхши сўз, яхши ахлоқ, яхши билим ва яхши амалларни адо этмоқ лозим. Яъни, кишиларни иззат-хурмат қилмоқ, яхши ахлоқ билан ўрнак бўлмоқ, адолатли, қаноатли, ориятли, маърифатли, билимни чуқур эгаллаш, оламни бало-фитна ғийбатлардан сақлаш, кишилар мушқулини осон қилмоқ лозим», деган.

«Ўтмишда диндан аввал кенг тарқалган афсона ва ривоятларда яхшилик ва ёмонлик, ҳаёт ва ўлим, одиллик ва адолатсизлик, нур ва зулмат ғоялари асосий ўринни эгаллаган. Яхши фикр, сўз ва иш эзгуликларнинг асоси ҳисобланган». Бу қарашлар кейинчалик «Авесто»да яққол намоён бўлганлигини кўришимиз мумкин.

«Зардуштийлик динида илгари сурилган ахлоқий ижтимоий идеал кейинчалик ўрта аср фалсафасида ҳар қандай адолатсизлик, зулмат ва ҳуқуқсизликка қарши курашиб ҳаққоний, инсонпарвар ва эркин ҳаёт яратган яхши ва одил подшоҳлар ҳақидаги ўзининг маънавий ривожини топди».

Ислом динидаги мавжуд ахлоқий қадриятлардан ёшларни тарбиялашда, умуминсоний қадриятларга муносабатни шакллантиришда фойдаланиш муҳимдир. Юсуф Хос Хожиб фикрича, яхшилик, эзгулик, меҳр-мурувват фақат ақл-идрок эгаси бўлган доно, билимдон кишилардан чиқиши мумкин. Чунки дунёдаги барча яхшиликлар, эзгуликлар идрок туфайлидир. Идрок инсонни равшанликка, камолот ва саховатга элтади.

Аждодлар маънавий мероси ва ахлоқий қадриятларга

хурмат ёш авлодда болаликданоқ шаклланмоғи лозим. Бу аста-секин унинг қалбидан мустаҳкам ўрин олиб, маънавий-ахлоқий камолотиға замин яратувчи руҳий омилға айланади. Бунинг учун ёш авлоднинг ақл нури тиник, билимдонликда зукко, англаб олишда тафаккури теран бўлиши зарур.

Албатта, бу жиҳатлар тарбия жараёнида ривож топади. Маънавий маърифат билан ўз навбатида маданият билан диалектик алоқадорликка эгадир. Чунки соғлом авлоднинг камолоти учун маданий-маърифий, ташвиқот ишларининг янгича услубларидан кенг фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Лекин, афсуски, бошқа баъзи соҳаларда бўлгани каби маънавий-маърифий масканлар фаолияти бугунги кун талаби ва маънавий эҳтиёжга тўла жавоб бера олмаяпти. Маънавий-маърифий ишларни жонлантириш, ахлоқий кадриятларни тиклаш учун миллий маданий марказларнинг фаолиятида кўп ислохотларни амалга ошириш даркор.

«Умуминсоний ва миллий кадриятлар билан бирга жамият ривожиди шахсий кадриятлар ҳам ўзига хос аҳамият касб этади. Бироқ бу нафақат тор, балки шахснинг турмуш тарзи, идеали ва ҳаёт фаолияти давомида эҳтиёжга айланувчи кадриятлардир».

ХУЛОСА

Айнан шахсий кадриятлар таъсирида ёшларнинг маънавий қиёфасида умуминсоний кадриятларга тоқатсизлик шаклланиши ёки умуминсоний кадриятларга нисбатан ижобий муносабат шаклланиши мумкинлиги глобаллашув шароитидаги ғоявий, мафкуравий хилма-хиллик шароитида намоён бўлмоқда.

«Шахсий кадриятлар ёшларнинг маънавий- ахлоқий қиёфаси, нафосати, гўзаллиги, ижтимоий мавқеи, қобилияти, истеъдоди ва интеллектуал салоҳияти билан боғлиқ кадриятлардир. Умуман олганда, шахсий кадриятлар деганда шахснинг ижтимоий фаолиятида зарурий эҳтиёжга айланган, турмуш тарзини яхшилашга кўмак берадиган, амалий фаолияти учун кадрли бўлган нарсалар ҳодисалар мажмуи тушунилади».

Бир сўз билан айтганда, ёшларга юксак интеллектуал салоҳиятини янада ривожлантиришда замонавий маданий қиёфаси ва умуминсоний кадриятлар уйғунлигини таъминлашнинг мавжудлиги давлат ва нодавлат ёшлар ташкилотлари фаолиятини такомиллаштиришнинг замонавий механизмларини ишлаб чиқиш ва доимо ёшларнинг қизиқишлари ва манфаатлари инобатга олиниши катта самара беради.

REFERENCES

1. Саломова Г.Ш. Талаба-ёшларда этномаданий компетентликни шакллантиришнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари: Псих. фанлари бўйича фал. док. (PhD) ... дис. – Бухоро, 2020. – 14 б.
2. Фалсафа қомусий луғати. – Тошкент: Шарқ, 2004.
3. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 354 б.
4. Гоббс Т. Философские основания учения о гражданине. – М.: АСТ, Харвест. 2001. <https://www.livelib.ru/book/1000227952-filosofskie-osnovaniya-ucheniya-o-grazhdanine-tomas-gobbs>.
5. Muratova, D.A. va Abdazimov, S.X. (2019). TIVILIZATSIYADA INSON ONI TRANSFORMASINIYASINI ANIQLAYDIGAN TEXNOLOGIKOLOGEN TUZILMAY ELEMENTLAR VA FUNKSIONAL ALOQALAR. Iqtisodiyot va jamiyat, (11), 78-82.
6. Muratova, D.A. va Jumanioyozova, N.S. (2018). BERUNIY VA EVROPA. Zamonaviy fan nazariyasi va amaliyoti, (5), 24-26.
7. Журабоев, Носир Юсупович, Ҳасанов, Миршод Нўъмонович ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ СОҶА РИВОЖИ: ИСЛОҲОТ ВА ИСТИҚБОЛ // ORIENSS. 2022. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yangi-zbekistonda-izhtimoiy-i-tisodiy-so-a-rivozhi-islo-ot-va-isti-bol> (дата обращения: 10.10.2022).
8. Sultanov S.X., Yusubov J. K., Samanova S. B., Ikramova G. M., Yalgashev B. M. Social justice as a condition of socio-spiritual stability in society. Journal of Critical Reviews.-India-2020. Vol 7, Issue 5. P.816-818.
9. Ж. С. Раматов, М. Ҳасанов, & Л. А. Валиев (2022). ИНСОН ДУНЁҚАРАШИНИНГ ДИНИЙ ВА ДУНЁВИЙ ТАЛҚИНИ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (7), 78-82.
10. Ramatov, J.S., & Khasanov, M.N. (2022). HISTORY OF RAILWAY CONSTRUCTION IN UZBEKISTAN: YESTERDAY AND TODAY. Orientalrenaissance: Innovative, educational, naturalandsocialsciences, 2 (6), 925-930.
11. Раматов, Ж. С., Ҳасанов, М., & Назарова, Н. Ж. (2022). МЕДИАМАДАНИЯТ ВА АХБОРОТДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3(6), 984-988.
12. Ж. С. Раматов, & М. Ҳасанов (2022). МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР – ЖАМИЯТИМИЗ БАРҚАРОРЛИГИ ВА ЁШ



АВЛЮД ТАРБИЯСИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ. Academic research in educational sciences, 3 (6), 973-979.

13. Рамаатов, Ж. С., Ҳасанов, М., & Валиев, Л. А. (2022). ИНСОН ДУНЁҚАРАШИНИНГНИНГ ДИНИЙ ВА ДУНЁВИЙ ТАЛҚИНИ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (7), 78-82.

14. Ramatov, J., Umarova, R., Baratov, R., Jurabayev, N., & Artikova, B. (2022, June). Constructive and optimal solutions for the formation of a stable ecological situation in the Aral Sea region of Uzbekistan. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 030113). AIP Publishing LLC.

15. Рамаатов, Ж. С., Баратов, Р. Ў., Кушаков, Ф. А., Валиев, Л. А., & Хасанов, М. Н. (2022). ЖАМИЯТДА СИЁСИЙ ВА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. PEDAGOGS jurnali, 19(1), 13-18.

16. Рамаатов, Ж. С., Баратов, Р. Ў., Кушаков, Ф. А., Валиев, Л. А., & Хасанов, М. Н. (2022). ЖАМИЯТДА СИЁСИЙ ВА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. PEDAGOGS jurnali, 19(1), 13-18.



ТЕХНИКА ИНҚИЛОБИНИНГ ИНСОН ТАФАККУРИГА ТАЪСИРИ

Файзулла Абдуллаевич Кушаков

ТДТрУ «Ижтимоий фанлар» кафедраси катта ўқитувчи

kushakovfayzullo@gmail.com

Қымбат Қанагатовна Назарова

Транспорт университети 2-курс RQ-3гурух талабаси

nazarovaqimbat@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада XVII-XX аср ишлаб чиқариш саноат ва техника соҳасидаги кашфиётлар ва уларни инсон ҳаётидаги ўрни ҳақидаги мулоҳазалар юритилади. Европада саноат ва техникада вужудга келган “катта портлаш” оқибатида иқтисодий ва сиёсий муносабатларнинг янги турларини кашф қилиниши тўғрисида фикрлар баён қилинди. Ишлаб чиқариш машиналари, автоматлаштириш, ҳисоб-китоб каби соҳалардаги инқилобий ўзгаришларнинг динамик ўсиши ўрганилди.

Калит сўзлар: электр мотор(динамо), пўлат саноати, тўқимачилик, аграр, индустриал, двигател, механик йиғирув ғилдираги, паровозлар ва қайиқлар.

ABSTRACT

This article discusses discoveries in the field of production, industry and technology of the 17th-20th centuries and their role in human life. Opinions were expressed about the discovery of new types of economic and political relations as a result of the "big bang" in Europe in industry and technology. The dynamic growth of revolutionary changes in such areas as manufacturing machines, automation and computing is studied.

Keywords: electric motor (dynamo), steel industry, textile, agricultural, industrial, engine, mechanical spinning wheel, locomotives and boats.

КИРИШ

XVII-XX аср ишлаб чиқариш саноат ва техника соҳасидаги янгиликлар инсониятни онг даражасини янги юқори босқичга олиб чиқди. Аграр жамиятдан кейин индустриал жамиятнинг шаклланиши табақаниш турларини кўпайишига олиб келди.

XVII аср саноат инқилоби учун ҳал қилувчи давр эди. Бугнинг кучи кашф қилинди. Жеймс Ватнинг (1736 - 1819) буғ двигателидаги иши кўмир қонларидан сув қуйиш учун машинани яратишга имкон берди (бу аслида илк қатламларда ва ер ости сувлари баланд бўлганлиги сабабли Англия учун муҳим ходиса эди). Бу кашфиёт пўлат саноати, тўқимачилик ишлаб чиқариш ва халқ хўжалигининг бошқа тармоқларини жадал ривожланишига олиб келди. Англияда, 1810 йилга келиб, 5000 яқин машиналар мавжуд эди (таққослаш учун: Пруссияда биринчи буғ двигатели фақат 1830 йилда пайдо бўлган). Қисқа вақт ичида Англия технологик жиҳатдан энг ривожланган давлатга айланди, гарчи бу мамлакатда бир неча ўн йиллар ичида яна бир нечта машиналар яратилган. Худди шу XVIII-асрда механик йиғирув ғилдираги ихтиро қилинди, дастлаб саккизта шпинделни бирлаштириб, фақат битта ишчи хизмат кўрсатди; кейинчалик шпинделлар сони саксонга етди ва йирик машиналар - "айланувчи ғилдираклар" олти ва ҳатто саккиз ишчининг ишини бажарди. Англиянинг иқтисодий секторида меҳнат унумдорлигининг кескин ўсиши кузатилди. Бундай кашфиётлардан мақсад нафақат иқтисодий фойда, балки саноат соҳасидаги етакчилиكنи назорат қилиш ҳам эди. Шундай қилиб, буғ двигателидан кейин ғарбий Европада паровозлар ва қайиқлар яратилди. Бу инсонлар, шаҳарлар ва давлатлар ўртасидаги алоқа муносабатларини, маданий мулоқотни чуқурлаштиришда ҳақиқий инқилобни амалга оширди. Халқлар ўртасидаги ўзаро маданият алоқаларини ривожлантирди.

Ўша давр фанининг кашфиётлари янги машиналарни яратилишига ёрдам берди. Электр қувватини аниқлаш катта аҳамиятга эга эди. 1867 йилда универсал двигател - электр мотор (динамо) пайдо бўлди.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Демак, мануфактуранинг саноат ишлаб чиқаришига ўтиши ишлаб чиқаришга кенг жорий этилиши ва ишлаб чиқариш жараёнида машинасозлик технологиясидан фойдаланишга олиб келди. Бу, ўз навбатида, энди тасодифий қондириш мумкин бўлмаган муҳандислик фаолиятига бўлган талабни кескин оширди. Бу эса муҳандислик соҳасига инсоннинг қизиқиши ошиб бориши, мутахассислик билимларини эгаллашга бўлган қизиқишлари ва муҳандисларни илмий-методик, касбий тайёрлашга эҳтиёжни мавжудлигидан далолат берарди. Ушбу соҳадаги дастлабки қадамлар француз математики ва муҳандиси Гаспард Монж (1746 - 1818) томонидан 1794-йилда Париж политехника мактабининг ташкил этилиши билан қўйилган. Бу эса ўз навбатида ўқувчиларнинг илмий-назарий ва техник-

амалий тайёргарлигини уйғун равишда олиб бориладиган таълим турини кашф қилди. Айнан шу таълим тури орқали кенг кўламдаги профессионал муҳандисларни тайёрлаш бошланиб, уларнинг асосий мақсади машинасозлик технологиясини фаолияти юритиши ва ривожлаништириш эди.

Машиналарнинг ишлаб чиқаришга киритилиши нафақат инсон кучини ортиқча қилди, жараёнда кам ҳақ тўланадиган болалар ва аёллар меҳнатидан кенг фойдаланишга олиб келиб, меҳнат унумдорлигини ҳам анча оширади. Оқибатда юз минглаб ишчилар ишлаб чиқаришни тарк этишга мажбур бўлди ва кўчага ташланди. Машина ишчининг рақобатчисига айланади, шунинг учун ишчилар ўзларининг ғазаблари ва норозиликларини биринчи навбатда капиталистик эгаларига эмас, балки машиналарга қарши йўналтирдилар ва кейин ғарбий Европани машинага қарши ғалаёнлар тўлкини қамраб олди, бунинг оқибатида юзлаб дастгоҳлар бузилиб, ишдан чиқарилди. Бошқалари оммавий равишда ёқиб юборилган ёки бошқа йўл билан йўқ қилинган.

Ҳисоб-китоблар ва дизайн ҳажми кескин ошади, чунки муҳандис нафақат янги муҳандислик объектини ишлаб чиқиш билан, балки шунга ўхшаш ўзгартирилган маҳсулотни яратиш билан ҳам шуғулланади (масалан, бир хил синфдаги машина, лекин турли характеристикалар - турли куч, тезлик, ўлчамлар, оғирлик, дизайн ва бошқалар). Бошқача қилиб айтганда, муҳандис ҳозир ҳам янги муҳандислик объектларини яратиш, ҳам ихтиро қилинганларга ўхшаш (бир хил) муҳандислик объектларининг бутун синфини ишлаб чиқиш билан банд.

Автоматлаштириш ва компютерлаштириш ҳақида тўхталиб ўтиш лозим. Бу XX асрнинг иккинчи ярмида содир бўлган илмий ва технологик инқилобнинг энг муҳим жараёнларидан бири ҳисобланади.

Асрнинг бошларидаёқ саноатда конвейерлар пайдо бўлди. 1913 йилда Форд заводларида биринчи йиғиш линияси ишга туширилди, бу меҳнат унумдорлигини саккиз баравар оширди. Бироқ, йиғиш линияси ўз ишлаб чиқаришига эга эди. Бу эса инсон фаолиятини бир мунча чегаралаб қўйган эди. Бу меҳнат режимини ўзгартиришни ва керакли ҳосилдорликни таъминлаш учун бошқа чора-тадбирларни талаб қилди. Кейинчалик ривожланган саноат мамлакатларида конвейерда ишлаганларнинг бир қатор функцияларини машинага ўтказиш бўйича тадқиқотлар ҳам олиб борилди. Мақсад оптимал иш режимини сақлаб туриш, фикр-мулоҳазаларни ўрнатиш ва ишни тузатишга қодир бўлган махсус қурилмаларни ўз ичига оладиган автоматик машина ва бундай автоматларнинг тизимларини яратиш эди. Бундай автоматик машиналар яратилган эди.

Улар биринчи марта АҚШда пайдо бўлган. Асрнинг ўрталарида СССРда автомобил двигателлари учун пистонлар ишлаб чиқарадиган биринчи автоматик завод ишга туширилди.

Автоматлаштириш нафақат алоҳида завод ва тармоқларни, балки (келажакда) бутун саноатни қамраб олишга қодир. Автоматлаштириш, бир томондан, ишлаб чиқаришнинг кескин ўсишига, унинг таннархининг пасайишига, иккинчи томондан, ишчилар сонининг қисқаришига, ишсизликка олиб келади, бу эса ўз навбатида уларни собиқ ишчиларни ва ташкилотни қайта тайёрлаш натижасида моддий қўллаб-қувватлашни талаб қилади..

Муҳандислик фаолиятининг асосий турлари шаклланмоқда: муҳандислик ихтироси, лойиҳалаш, муҳандислик лойиҳаси.

Ихтирочилик фаолияти муҳандислик фаолиятининг тўлиқ циклидир: ихтирочи муҳандислик воқелигининг барча асосий таркибий қисмлари - муҳандислик қурилмасининг функциялари, табиий жараёнлар, табиий шароитлар, тузилмалар ўртасида алоқаларни ўрнатади (бу барча компонентлар топилган, тавсифланган, ҳисобланган).

Дизайн муҳандислик фаолиятининг тўлиқ бўлмаган циклидир: муҳандислик ҳақиқатининг асосий таркибий қисмлари ўртасидаги алоқалар ихтирочилик фаолиятида аллақачон ўрнатилган. Лойиҳалаш вазифаси бошқача - бу уланишларга таяниб, муҳандислик иншоотининг структуравий жойлашувини аниқлаш (шу жумладан ҳисоблаш) мумкин.

Муҳандислик дизайнида шунга ўхшаш вазифа (муҳандислик мосламасининг дизайнини аниқлаш) бошқача тарзда ҳал қилинади - лойиҳалаш усули: лойиҳада прототипларга мурожаат қилмасдан, муҳандислик мосламасининг ишлаши, тузилиши ва ишлаб чиқариш усули (машина, механизм, муҳандислик тузилиши) симуляция қилинади ва ўрнатилади. Муҳандислик қурилмаларини схематиклаштиришнинг босқичма-босқич жараёни содир бўлди, бунда бу объектлар алоҳида қисмларга бўлинди ва уларнинг ҳар бири "идеаллаштирилган тасвир" (схема, модел) билан алмаштирилди. Бир томондан идеаллаштирилган тасаввурлар математик билимларни муҳандислик объекти сифатида қарала бошланган бўлса, иккинчи томондан, табиий фанларга татбиқ этиш мақсадида киритилди. Муҳандислик объектини математик моделлар билан алмаштириш ўз-ўзидан ихтиро, лойиҳалаш ва ҳисоблашнинг зарур шарти сифатида ҳам, ушбу процедуралар учун зарур бўлган табиий фаннинг идеал объектларини қуриш босқичи сифатида ҳам зарур эди.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтганда, техника фанининг назариясини қуриш амалга оширилди. Ушбу назарий жараёнлар натижасида техника инсоннинг меҳнат потенциалини бошқа соҳаларга йўналтиришга мажбур қилди. Шу даврдан бошлаб техника инсонга иш ўринлари эгаллаш бўйича рақобатчига айланди. Натижада инсон ўз устида (меҳнатга бўлган муносабати) ишлай бошлади. Меҳнат тушунчасига бўлган муносабат тубдан ўзгариб, меҳнатни сифатли бажариш ва унга маъсулиятли ёндашиш тушунчалари бир неча баробарга ошди.

REFERENCES

1. Файзулла Абдуллаевич Кушаков (2022). ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОЙ ФИЛОСОФИИ ТЕХНИКИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 428-432.
2. Раматов, Ж. С., Баратов, Р. Ў., Кушаков, Ф. А., Валиев, Л. А., & Хасанов, М. Н. (2022). ЖАМИЯТДА СИЁСИЙ ВА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. PEDAGOGS jurnali, 19(1), 13-18.
3. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Ҳ., Кушаков, Файзулла Абдуллаевич., Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). ҲОЗИРГИ ДАВРДА ИЖТИМОЙ АДОЛАТ ҲАҚИДАГИ ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЛҚИНИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (9), 647-656.
4. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Кушаков, Файзулла Абдуллаевич, Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). ТРАНСПОРТ ТИЗИМИ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИ МИСОЛИДА). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (9), 606-612.
5. КУШАКОВ, Ф. ИЛМ–ИЖТИМОЙ ХОДИСА СИФАТИДА. <https://science.nuu.uz>.



ТЕХНИКАНИНГ ФАЛСАФИЙ МУАММОЛАРИ

Файзулла Абдуллаевич Кушаков

ТДТрУ «Ижтимоий фанлар» кафедраси катта ўқитувчи

kushakovfayzullo@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Мақолада техника тушунчасига фалсафий ёндашувларнинг турлари кўриб чиқилди. Технологияни замонавий талқини ва унинг жамият ҳаётидаги ўрни. Техниканинг тарихий вужудга келиши, бир қатор файласуфларнинг илк техника илми хусусидаги изланишлари таҳлил қилинди. Жамият ҳаётидаги жадаллашув жараёнининг асосий сабаби техник ютуқлар деб топилиб, инсон фаолиятини янги босқичга кўтарган. Техниканинг илмий янгиликлар фалсафий таҳлил қилиниб, ўрганилган.

Калит сўзлар: Техника, технология, теоцентризм, антропоцентризм, буғ қозонлари, йигирув машиналари, дастгоҳлар, пароходлар, буғ двигателлари, локомотивлар.

ABSTRACT

The article considers the types of philosophical approaches to the concept of technology. Modern interpretation of technology and its role in society. The historical emergence of technology, research by a number of philosophers on the first science of technology is analyzed. The main reason for the acceleration of processes in the life of society is considered to be technological progress, which has raised human activity to a new level. Scientific engineering innovations are analyzed.

Keywords: technique, technology, theocentrism, anthropocentrism, steam boilers, spinning machines, machine tools, steamboats, steam engines, locomotives.

КИРИШ

Технология фалсафаси - фалсафанинг замонавий талқиндаги йўналишларидан бирини ҳисобланади. Технология, муҳандислик-техник фаолият, дизайн фанларини ривожланишининг энг умумий қонуниятлари ўрганишга мўлжалланган фандир. Бундан ташқари, технология фалсафаси технологиянинг инсон фаолиятини бошқа турлари - фан, санъат, муҳандислик, дизайн, амалий фаолият билан қандай боғлиқлигини ўрганади; кўплаб файласуфлар таъкидлаганидек, технология бизнинг цивилизациямизга ҳақиқатан ҳам таҳдид соладими;

техниканинг инсон ва табиатга таъсири қандай; технологияни ривожлантириш ва ўзгартириш истиқболлари қандай.

Техника (юн. «течне» — санъат, маҳорат, қобилият) — инсон фаолияти ва жамиятнинг сунъий органлари тизими ҳисобланади. Техника - бу артефакт (сунъий шаклланиш) бўлиб, у инсон (уста, техник, муҳандис) томонидан махсус яратилган.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Техника - инсон воқеликни ўзгартириши натижасида вужудга келган меҳнат қуроллари бўлиб, эҳтиёжлари мослашиши оқибати доимий тарзда ўсиб боради. У шунингдек, муайян мақсадларга эришиш ва муайян муаммоларни ҳал қилишга қаратилган воситаларни фаоллаштиради. У ёки бу фаолиятни муваффақиятли амалга ошириш учун зарур бўлган кўникмалар, қобилиятлар, усуллар, усуллар, операцияларни умумлаштиради.

Технология маданиятнинг бир қисми бўлиши билан қаторда табиатга, санъат, тил, барча тирик мавжудотлар ва инсон таълуқли баъзи бир тушунчаларга қарши чиқади. Технологиянинг ривожланиши инсон борлиғини тушунтиришга қаратилган усуллардан бир бўлиб, унинг цивилизация уйғунлигини белгилайди. Турли тарихий даврларда "технология" атамаси турли мазмун билан киритилган. Антик даврда техника деганда инсоннинг меҳнат қобилияти, санъати, маҳорати тушуниладиган. Ҳунармандчилик ишлаб чиқариши шароитида авлоддан-авлодга ўтиб келаётган маҳорат катта аҳамиятга эга бўлган, аммо ишлаб чиқариш жараёнида меҳнат қуролларининг роли ҳам ортиб бормоқда. Техника – бу нафақат ишчининг санъати, балки унинг меҳнат воситалари ҳам тушунилади. XVII-асрдаги саноат инқилоби даврида ҳунармандчилик орқа фонга ўтиб, технология ишлаб чиқаришнинг моддий воситасига айланди. Ҳозирги вақтда технология деганда инсон фаолиятининг сунъий равишда яратилган воситалари сифатида кенгроқ тушунилади.

Технологиянинг тарихи қадимги даврда цивилизация пайдо бўлган вақтга бориб тақалади. Милоддан аввалги VI–V минг йилликлар милоддан аввалги II – I минг даври оралиғида улкан империя ва давлатлар – Қадимги Миср, Шумер ва Бобил, қадимги Ҳиндистон ва Хитой вужудга келади. Ушбу маданиятнинг ўзагида қадимги қиролликларда янги маданият марказлари шаклланди.

Бу даврга келиб, техник соҳадаги фаолият доирасидаги чизмалар ёрдамида ибодатхоналар, саройлар ва бошқа иншоотларни қуришилишида диаграммалар, ҳисоблаш алгоритмларидан фойдаланилган. Бироқ, рақамлар, чизмалар, ҳисоблаш

алгоритмлари ҳали техник билим сифатида қабул қилинмас эди, чунки, улар умуман билим сифатида қабул қилинмаганди. Бу рецептлар (алгоритмлар) котиб, руҳоний, қироллик хизматкорига тегишли бўлган муқаддас донолик сифатида қабул қилинган эди. Шунини таъкидлаш керакки, қадимдги даврда амалиёт сеҳрли ва муқаддас тушуниланган.

Антик даврда илм-фанда замонавий маънода муҳандислик амалиёти йўқ эди, лекин хунарманд ва қурувчи у ёки бу маҳсулотни қандай яратишини мантиқий, оқилона тушунтириш ва асослашга уриниш мавжуд эди. Моддий жисмларнинг яратилиши билим ва илм доирасида тушунтирилиши керак эди. Шунинг учун антик даврда нарсаларнинг яратилиши "бошланғич нуқта" ва "сабабият" ҳақидаги билимлар илмий қарашларга билан боғлиқ эди.

Архимед "илмий хунармандчилик"нинг асосчиси ҳисобланади. У механик сифатида статика ва гидравликани яратди. "Текислик мувозанати" асарида тенг масофадаги тенг оғирликлар бир-бирини мувозанатлаши таъкидлайди. Архимед ўлчовли ёки ўзгармас икки миқдор уларга мутаносиб масофаларда мувозанатни сақлашини исботлайди. Бу геометрик жисмларнинг оғирлик марказини қандай топишни белгилайди.

"Сузаётган жасадлар" асарида Архимед гидростатиканинг асосий қонунини кашф этди. У фанга Архимед қонуни сифатида кирди ва Ҳерон буғ машинасининг биринчи моделини яратди, аммо амалда ушбу кашфиёт узоққа бормади.

Бироқ, қадимги маданиятда кичик бир гуруҳ олимлар ва техниклар (Евдокс, Архитас, Гиппарх, Птолемей ва Архимед) бу илмни амалда ўзлаштирганларига қарамасдан бу ихтиролар соф санъат тури сифатида қаралар эди. Умуман олганда илм-фан ва технологияни бирлаштириш ғояси сифатсиз изланишлар деб топилиб, рад этилди.

Қадимги илм-фан асосида техник назариялар шаклланмоқда. Ушбу жараённинг асосий ўзагини қадимги математиканинг ўзида топиш мумкин. Масалан, Евклиднинг "Бошланишлар" асарида теоремаларнинг гуруҳланишини кўриш мумкин. Бу техник билимлар гуруҳига жуда ўхшайди (тебраниш даврларида-техник назариялар, бир хил идеал объектлар синфларини тасвирлаган кинематик схемалар, иссиқлик ва электр машиналари ва бошқалар). Евклид бир хил объектлар синфларини тавсифловчи математик билимларни алоҳида китобларга бирлаштиради.

Антик давр техника фани классик типдаги замонавий техника фанларидан нимаси билан фарқ қилади? Антик даврда техника фанининг ижтимоий тили, яъний техника

фанига хос схема ва тушунчалар мавжуд эмас эди. Турли тилларнинг боғламлари ёрдамида номукаммал бўлган чизмалар илмий-техник асосга эга соҳа даражасига кўтарилади. (XIX -аср охири - XX -аср бошларида бу ҳол яна такрорланган).

Шундай қилиб, рационал, илмий тафаккур қадимги техниканинг ривожланишига маълум даражада таъсир кўрсатди. Технологик тафаккурнинг асосий қонидаси сифатида фанда биринчи марта рационал қарашлар асосида вужудга келган антик фалсафа ва техника тараққиёти учун махсус онг шакллари шаклланади. Ўрта асрларда архаик (бутпарастлик) ва қадимий маданий-назарий меросни қайта кўриб чиқиш содир бўлади.

Инсоннинг амалий ҳаракати, шу жумладан техник ҳаракати, агар у Худо томонидан қўллаб-қувватланса, самарали ҳисобланади. Илоҳий ва инсоний ижоднинг яқинлиги ғояси. Масалан, черковлар, ибодатхоналар, пиктограммалар ва бошқа черков биноларини яратиш техникаси. Бу ҳолатларда ҳунармандчилик ва черков фаолияти ҳар доим ибодатлар ва рўзалардан олдин бўлган, улар ишлаб чиқариш жараёнига ҳамроҳ бўлган. Бундай барча тузилмаларнинг шакли ва тузилиши нафақат анъана, канон, рецепт ҳаракати асосида, балки бу тузилмаларнинг Илоҳий табиати (моҳияти) асосида ҳам аниқланган.

Уйғониш даврига келиб дунёқараш турлари орасида ўзаро ўрин алмашиш содир бўлди, теоцентризмнинг ўрнини антропоцентризм эгаллай бошлади. Оламнинг яратувчиси Худо эмас балки инсондир пантеизм туйғайли инсон Худо каби ҳамма нарсага қодир бўлади махмунидаги қарашлар ўртага чикди. Инсон яратувчи, яратувчи сифатида тасаввур қилиниб, унинг фаол ижодий ва амалий имкониятлари чексиздир деб баҳола бошланди.

Табиат ҳақидаги янги тушунча шаклланмоқда. Табиат қонунларига таъсир ўтказиш оқибатида унинг моҳияти ўрганила бошланди. Инсон фаолияти табиат қонунларини, табиат дастлабки кучлари ва энергиясидан фойдаланишга қаратилган билимлар тизими вужудга келди.

Шу даврдан бошлаб инсон табиат қонунларини илмий асослаб бериш шarti билан табиат ҳақидаги тушунчалардан материаллар, кучлар, энергиялар чексиз фойдаланиш имкониятига эга бўлди. Леонардо да Винчи (1452 - 1519) - буюк италян рассоми ва олими (анатом, математик, физик, табиатшунос) ўзининг илмий фаолиятида тажрибага асосланган билимларнинг амалиётни тўлиқ тиклади. Унинг фикрича амалиётни назария билан уйғунликдадир.

Айнан шу ёндашув Леонардо да Винчига ажойиб олим ва ажойиб ихтирочи бўлишга имкон берди. У гидротехника, жанг санъати, денгизчилик ва бошқа соҳаларда кўплаб техник лойиҳаларни ишлаб чиқди.

Галилео Галилей (1564 - 1642) - италян физиги, механики, астрономи, файласуфи ва математики, аслида Леонардо да Винчи илмий билимларида кўйилган йўлни давом эттирди.

Унинг ҳаёти давомида у Галилейни дунёни гелиоцентрик тўғрисидаги илмий қарашлари уни католик черкови билан жиддий зиддиятга олиб келган.

Методологик нуқтаи назардан Галилей италян натурфалсафасининг асосчиси - Бернардино Телесио (1508 - 1588) томонидан Аристотел табиат фалсафасининг (физика) аксиоматик усулидан фарқли равишда ишлаб чиқилган эмпирик усулни янада ривожлантиради. Тажриба Г. Галилей томонидан фақат механик тарзда тушунилган, чунки у охир-оқибат уни механик ҳаракатни математик муносабатларга қисқартирган.

Галилей биринчи бўлиб илмий-тажрибасини (табиат ҳодисаларини тўғридан-тўғри кузатиш) синов-тажрибага айлантиришга муваффақ бўлди. Бу ерда назария ва табиат ҳодисалари ўртасидаги мувофиқлик техник жиҳатдан (сунъий равишда) ўрнатилди. Бошқача қилиб айтганда, тажрибада табиат ҳар доим назария фарқ қилади, лекин синов ўтказилиши вақтида табиат назария талабларига жавоб берадиган ҳолатга келтирилади ва шунинг учун фанда назарий жиҳатдан очилган қонуниятларга мувофиқ ҳаракат қилади.

Г.Галилей ўзининг экспериментал усули туфайли нафақат экспериментал табиатшунослик билимларига асос қўйишга муваффақ бўлди, балки аслида муҳандислик учун пойдевор қўйди. Галилей қия текислик бўйлаб ҳаракатланувчи жисмларнинг траекториясини аниқ тасвирлаб берди, математик маятник назариясини ишлаб чиқди, жисмларнинг эркин тушиши назариясини яратди, нисбийликнинг классик принципини ташкил этувчи инерсия қонунларини ўрнатди ва мос келадиган трансформация гуруҳини чиқарди. Бошқа томондан бу амалий техник муаммоларни ҳал қилишда қатъий назарий ҳисоб-китобларни қўллаш анъаналарини янада ривожлантирди. У билимларнинг янги тури илмий-техник билимларни шакллантириш йўлида муҳим қадам ташлади.

Муҳандис учун ҳар қандай объект техник вазифаларни юзага келадиган жараён ҳисобланиб, бир томондан табиат қонунларга бўйсунадиган табиий ҳодиса сифатида юзага келса, иккинчи томондан сунъий равишда қурилиши керак бўлган механизм, машина ва жихозларнинг тузилма сифатида қаралган Муҳандислик

фаолиятида "табiiй" ва "сунъий" йўналишларнинг уйғунлиги муҳандисни табiiй жараёнларни юзага келтирувчи фанга таянишга мажбур қилиб, жисм ва тузилмаларга асосланган табiiй технологияга таянишга мажбур қилди.

XVIII-асрда Англияда, кейин Европа қитъасида ва АҚШда саноат ва ишлаб чиқариш инқилоби содир бўлиб, муҳандислик қурилмаларининг сон жихатдан кўпайтириб янги турдаги модификацияга зарурати туғилди. (буғ қозонлари ва йигирув машиналари, дастгоҳлар, пароходлар, буғ двигателлари, локомотивлар ва бошқалар). Ушбу жараёнларнинг натижасида алоҳида техника фанларини шакллантиришига олиб келди.

ХУЛОСА

Шундай қилиб, техниканинг ривожланиш зарурати инсон онги ва фаолиятини янги босқичга олиб чиқди. Техника - жамият ҳаётини жадаллаштирди, янги турдаги меҳнат куруллари кашф қилиниб, ишлаб чиқариш самарадорлигини бир неча баробарга оширилди.

REFERENCES

Калит сўзлар: ахборот, маданият, социология, тузилма, функция.

КИРИШ

«Тизим» сўзи юнонча «systema», яъни ҳар бири алоҳида элемент сифатида амал қилиши мумкин бўлган қисмлардан тузилган ҳамда бирга ҳаракатланувчи яхлитликни англатади. Шу боис тизим – бу бир-бири билан узвий муносабатда бўлган, ўзаро алоқадор элементларнинг бир бутун йиғиндисидир.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Тизимнинг моҳияти хусусида антик даврдан бошлаб, ҳозирги кунга қадар кўплаб қарашлар илгари суриб келинган. Илм-фанда тизимли ёндашув борасидаги кенг кўламли мунозаралар, XX асрнинг иккинчи чорагидан бошланган ёндашувлар, айниқса, эътиборга лойиқ. Хусусан, XX асрнинг 40-йилларида австриялик биолог ва файласуф Людвиг фон Барталанфининг (1901–1972й) «tizimli ҳаракат» назарияси шаклланди. Олим турли илмий қарашлари асосида «tizimlar умумий назарияси»ни яратишга интилди. Рус мутахассиси В.Дорофеев бу хусусда фикр билдириб: «XX асрнинг 40-йилларида таниқли биолог Людвиг фон Барталанфи тизимли ёндашувни инсонлар томонидан ташқи дунёни идрок қилиш жараёнини англашда энг қулай восита эканлигини исботлади. Зеро, Барталанфи томонидан асосланган тизимли ёндашув инсон

томонидан бутун атроф-муҳит, ташқи дунё билан узлуксиз алоқани ҳис қилишвоситаси сифатида намоён бўлди».

Воқеликка тизимли ёндашув усули нафақат табиий, балки ижтимоий фанларни, хусусан, социологияни ҳам қамраб олди. Зотан, социология–мустақил фан сифатида пайдо бўлгандан буёнжамят ва унда содир бўлаётган ижтимоий жараён ва ҳодисалар моҳиятини теран англашга интилувчи ижобий фандир. Шу боисдан ҳар бир жараён ёки воқелик ижобий моҳият изловчи социология учун ҳам тизимли ёндашув энгмақбул усулдир. Зеро, ҳаётдаги барча жараёнларни англаш, жамиятни яхлиторганизм сифатида тушуниш учун ҳам ўз-ўзини ривожлантирадиган, унинг аъзоларини ўзаро мувозанатда ва алоқадорликда сақлаб туриш салоҳиятига эга бир бутун тизим моҳиятини ифода этади. Бундай бир бутунлик эса айнан тизимли ёндашув сифатида майдонга келди.

Ташқи дунёни идрок қилиш жараёнида кишиларнинг ўзаро муносабати ёки муносабатсизлиги ахборот алмашинувида муҳим роль ўйнайди. Демак, тизимли ёндашувнинг асосида кишилараро социал коммуникациянинг бош элементи бўлган ўзаро ахборот алмашинуви жараёни ётади.

Француз социологи ва файласуфи Э.Дюркгейм тизимнинг ижтимоий моҳиятига аниқлик киритиш мақсадида социал хатти-ҳаракат ҳодисасига ва унинг сабабий эҳтиёжларига эътибор қаратган. Ушбу назариянинг янада ривожланишига замонавий назарий социология асосчиларидан Т.Парсонс ва америкалик социолог Н.Смелзерлар катта ҳисса қўшишган. Хусусан, Т.Парсонс Э.Дюркгейм концепциясини ривожлантириб, «Ижтимоий тизимларнинг тузилмалари дифференциацияси эволюцион хусусият касб этиши» ҳамда «ижтимоий тизимда хатти-ҳаракатлар координациясини»ни асослаб беради.

Т.Парсонснинг муҳим хизмати шундаки у социология фанига «ижтимоий тизим» тушунчасини киритиб, ўзининг 1937 йилда яратган «Социал хатти-ҳаракат структураси» китобида хатти-ҳаракатлар белгиси сифатида қўлланилди. Ўшандан буён ижтимоий тизимлар назарияси умумий социологиянинг янги тармоғи сифатида ривожланиб борди. Т.Парсонснинг фикрича, «Ҳар қандай мавжудлик тизимли фаолият асосида барқарор ижтимоий тузилмани ҳосил қилади». Олимнинг 1951 йилда яратилган «Ижтимоий тизимлар» асарида «тузилма» ва «тизим» бир-бирини тўлдирувчи ҳамда бири иккинчисисиз мавжуд бўла олмайдиган тушунчалар сифатида таърифланади. Бу тушунчалар инсон ва жамият ижтимоий ҳаётининг асосий икки устқурмаси,

яънимуайян шакл ва ўзгарувчан мазмун бирлигини ифода этади. Ўзгарувчан мазмун компонентларидан бири – ижтимоий тизим аъзолари ўртасидаги ўзаро коммуникациягаасосланган ахборот алмашинуви жараёнидир. Шу боис Т.Парсонснинг фикрича, тизим уни шакллантирувчи акторларнинг алоқалари доирасига айланиши ва мустақил ҳолда ривожланиб бориши мумкин.

Т.Парсонс жамиятнинг тараққиётини таъминлашда 4 та элементни: биологик организм, ижтимоий организм (тизим нуқтаи назаридан), шахс ва маданиятнинг ролини алоҳида ажратиб кўрсатади. Уларнинг бир-бири билан функционал боғлиқликда ҳаракатланиши эса, жамиятнинг мажудлигини таъминлайди. Ушбу тўрт элемент ичида шахс ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлиб, у ўз талаб ва эҳтиёжлари, қадриятли мўлжаллари боис, индивидуал хулқ-атворни намоён этади ва шу орқали тизимнинг тартибли ёки тартибсиз ҳаракатланишига сабаб бўлади. Тизимнинг афзаллиги шундаки, жамиятда содир бўлаётган жараёнлар социал воқеликни тартибга солиб туриши орқали барқарорликни таъминлаб, турли социал институтларнинг шаклланишига ҳам туртки беради. Шу тариқа, жамиятнинг ҳар бир элементи ижтимоий тизимнинг таркибий қисмига айланади.

Тизимли ёндашув –билиш жараёнининг универсал воситаси сифатида замонавий мураккаб динамик жараёнларни бир бутунликда англашда тенги йўқ методдир. 1972 йилдаёқ файласуфларнинг : «Ўрганилаётган объектларга тизимли ёндашув ҳозирги вақтда умумилмий тамойил мақомига эга бўлиб бормокда; барча махсус фанлар уларнинг ривожланганлик даражаси ва ички эҳтиёжларидан келиб чиққан ҳолда тизимли ёндашувдан фойдаланади»,– деб таъкидланганлиги ушбу ёндашувнинг илм-фан дунёсида оммалашаётганлигининг белгиси эди.

Тузилмали функционализмнинг европача мактаби вакиллари Г.Спенсер, Б.Малиновский, А.Радклифф-Браун ижтимоий тизимларнинг ўхшаш ва фарқли жиҳатлари, тизимнинг самарали функционаллигини таъминлашдаги муаммолар, тизимдоирасида содир бўлаётган ижтимоий ўзаро алоқа ва муносабатларнинг хусусиятлари каби муаммоларни алоҳида ўрганишган. Хусусан, Г.Спенсер жамиятни биологик организмгаўхшатар экан, унинг алоҳида қисмлари (таълим, давлат ва бошқалар)ни тирик организмнинг тана қисмлари (юрак, асаб тизими ва бошқалар) билан солиштиради ва уларнинг ҳар бири яхлит бир бутунликни ташкил этишини исботлайди. Спенсер биологик организмлар каби, жамиятнинг энг оддий шакллари ҳам мураккаб бўлақлардан иборат, деб эътироф этади.

Б.Малиновский ва А.Р.Радклифф-Браунлар «тузилма» ва «функция» тушунчаларининг контент асосларини яратадилар. Бунда муаллифлар «функция» бевосита динамикани англатиши, динамика эса ўз ўрнида тизим эканлиги уқтирилади. Зеро, жамият яхлит тизим сифатида, унинг таркибий қисмлари бир-бири билан яхлитликни ҳосил қилувчи алоқаларўрнатишини талаб этади. Шу боис, Радклифф-Браун ушбу назарияни турли жамиятлар таҳлилида қўллаган олимлардан бири бўлди.

Социология профессори Х.Абельс тизимнинг таркибий элементларини ўрганар экан, элементларни қуйидагича тавсифлайди:

- таркибий элементларнинг тузилмавий алоқаси;
- мақсадга йўналтирилгани;
- таркибий қисмларнинг яхлитликка бўйсундирилгани;
- узоқ муддатли барқарор ва мувозанатланган воқелик;
- атроф-муҳитдаги ўзгарувчанлик ва алоқадорлик каби хусусиятларнинг

йиғиндисидир, деб изоҳлайди. Дарҳақиқат, тизим ўзаро алоқадорликда бўлган бирликларнинг йиғиндиси сифатида уларнинг биргаликда амал қилишидаги мутаносиблигини таъминлайди.

Демак, ижтимоий тизимларга оид дискурслар ижтимоий-гуманитар фанларнинг фундаментал назарияларидан бўлиб, бир томондан, шахслар, кичик гуруҳлар, турли жамоалар ўртасидаги ахборот алмашинуви, алоқалар ва муносабатларни тартибга солиш воситаси сифатида қабул қилинса, иккинчи томондан, уларни илмий ўрганиш усули сифатида ҳам намоён бўлади. Демак, М. Леске, Г. Редлов, Г.Штилерлар таъбири билан айтаганда, «ижтимоий тизим – бу коммуникациялар мажмуаси»дир.

Кейинчалик ушбу назария Р.Мертон томонидан ҳам ривожлантирилиб, жамиятда юз берувчи турли динамик жараёнларнинг йиғиндиси ва кўп сонли элементларнинг тартибли мажмуидан иборат яхлит тизим эканлигига асосланади. Юқорида қайд этилган олимлар жамият ҳақидаги ҳар қандай маълумотни ижтимоий тизимнинг функционаллик ёки носозлиги нуқтаи назаридан талқин қилиш мумкинлиги масаласида яқдил эканлиги аниқланади. Натижада, мазкур яқдиллик XX асрнинг 50-йилларида социологиядаги йирик мактаблардан бири бўлган–тузилмали функционализм йўналишининг вужудга келишига асос бўлди.

Замонавий босқичда немис социологи Н.Луман «ижтимоий тизим» тушунчасига берилган таърифларни янада такомиллаштирди ва ижтимоий тизим умумий назарияси ва тизимли таҳлил методикаси модернизациясига ҳисса қўшди. Унинг асосий

назарий фикрлари «Ижтимоий тизимлар: умумий назария» (1984) ва «Жамиятнинг жамияти» (1997) каби асарларида ўз аксини топди.

Н.Луманнинг фикрига кўра, тизимни чексиз мураккаб ҳодисалар қамраб олиб, тизимларнинг мавжудлиги, элементларнинг ўзаро алоқадорлиги, бошқа тизимларнинг таъсири фаолиятнинг ўзгарувчанлигига асосий сабабдир. Луман тизимдаги тизим ости элементлар ўртасидаги алоқадорликни мураккаб механизм сифатида кўриб, алоқадорлик ҳақиқий танлов, шартли танлов, мажбурий танлов тарздаги механизм орқали амалга оширилиши мумкин дея қайд этади. Тизим мураккабликларини элементларни янгилаш орқали бартараф ёки камайтириш этиш мумкин, деб изоҳлайди. Тизим структурасининг ўзаро мантиқий боғлиқлиги маълум ҳодисанинг барча элементларга таъсири ва шу асосда юз берадиган жараёнлар тизим фаолиятининг асосий мазмунини ташкил қилади.

Шундай қилиб, социология фанида тизим категорияси таҳлилининг ривожланиши куйидаги 3 босқичда кечди:

биринчи босқичда жамият табиатшунослик нуқтаи назаридан бир хиллиги, ўхшашлиги ёки ҳатто биологик организмга тенг эканлиги билан ажралиб турган. Жамият тирик организм каби бир-бирига боғлиқ ва ўзаро алоқадор қисмлардан ташкил топганлигини эътиборга олиш зарур. Бунда социология фанининг вазифаси – ушбу ўзаро боғлиқликни ўрганишдан иборат. Ушбу босқичда социологлар тизим нафақат ёпиқ ва шунинг учун энтропик, яъни фарқларнинг йўқолишига мойил, балки очиқ, яъни заиф ихоталанган, деган хулосага келинган;

иккинчи босқичда «tizim» тушунчаси, асосан, бир-бири билан ўзаро боғлиқ қисмлардан ташкил топган мураккаб объектларнинг хатти-ҳаракатларини акс эттирувчи абстракция сифатида тавсифланди. Вазифалар қисмларнинг ўзаро боғлиқлигини таҳлил қилишдан, турли ва кичик тизимларнинг ўзаро таъсирини ҳисобга олган ҳолда ўзгартирилди. Шу билан бирга, тизимли ёндашувни такомиллаштириш тизим чегаралари ва фавқулодда хусусиятларга доир муаммоларнинг пайдо бўлишига олиб келди. Тизим нафақат элементлар ва улар ўртасидаги алоқалар тўплами, балки фавқулодда хусусиятларга эга элементлар ва улар ўртасидаги алоқалар фаол амал қилувчи ҳамда янгилашиб турувчи ички бирликка эга яхлитликдир;

учинчи босқичда эсареферент тизимлар назарияси шакллантирилди. Ушбу назарияга мувофиқ, тизим ташқи муҳитдан фарқланади ва у ўз чегараларини мустаҳкам тутди. Н.Луман фикрига кўра, жамият ўз-ўзини тикловчи ва ўзини ўзи англовчи

шундай тизимнинг намунасидир. У доимо ўзини ташқи муҳитдан ажратиб туради. Бу эса унганоеб «тизим»сифатида қаралишига асос бўлади. Бундай ижтимоий тизимнинг элементлари кишилар ва уларнинг хатти-ҳаракатларигина эмас, балки ўзига хос яхлитликка эга коммуникациядир. Дунёда содир бўладиган ҳар қандай коммуникация жамиятга тегишли бўлиб, жамият айнан шундай коммуникация орқали аниқланади: коммуникациядан ташқарида эса, жамият йўқ. Бундай жамиятни Н.Луман «бутун дунёга хос жамият», деб атайди.

Тизимнинг элементлари хатти-ҳаракатлар (ҳодисалар)га бўлинувчи коммуникациялар бўлгани учун, структура элементларнинг ўзаро муносабатлари бўлиши мумкин эмас. Ҳодисаларбир зумда содир бўлади: уларузоқ вақтга чўзилмайди. Шунинг учун ҳодисаларнинг бир-бирига муносабати тарзида намоён бўлган структура барқарор эмас. Ўзини ўзи яратувчи тизимнинг таркиби тизимдаги шартли равишда чекланган муносабатлардан иборат бўлади. Яъни структура тизим барқарорлиги омили эмас, балки унинг янгиланиши асосидаги мустаҳкамланиш омилига айланади. Тизимнинг элементлари доимо ўзгариб турадиган воқеалар қаторидан иборат бўлгани учун тизимнинг бўлиниши ҳам доимий ва узлуксиз жараён дир.

Н.Луман ижтимоий тизимнинг бундай таърифи социологияда воқеликни тизимли ёндашув асосида ривожлантириш учун барча тўсиқларни бартараф этиши ва шу билан социал оламни тавсифлаш учун мантиқан мақбул бўлган ёндашувни яратиши мумкин, деб ҳисоблайди.

Тизимлилик тамойили тизим вауни ташкил этувчи қисмларнинг ўзаро боғлиқ хатти-ҳаракатлари, муайян қонуниятлар асосида амал қилувчи объектив воқелик жараёнлари, интеграл хусусиятлар мустаҳкам ички бирлик ва бутунликни пайдо қилади. Тизимли таҳлил эса куйидаги босқичларда амалга оширилади:

- а) объектни униташкил этувчи элементларга ажратиш;
- б) боғлиқлик иерархиясини аниқлаш;
- в) асосий омилларни (сабаб, функция, меъёр) таснифлаш;
- г) объектни моделлаштириш.

Тизимли таҳлил тизимли ёндашувни шакллантириб, жамиятдаги катта, яъни кўплик омилини ҳисобга олишни такозо этади.

Тизимли ёндашув, айни вақтда, ҳар қандай тадқиқотнинг, хусусан, эмпирик социологик тадқиқотларнинг муҳим методологик тамойили бўлиб хизмат қилади. Тизимли таҳлилнинг мазмун-моҳияти, яъни мантиғи жараённинг ташқи, умумий, ички

ўзига хосликларини ажратиш орқали назариядан эмпирик амалиётга қараб боришда намоён бўлади.

Ҳозирги вақтда тизимли ёндашув муаммоларига эътибор катталигини ижтимоий амалиёт, катта тизимларни англаш ва ташкил этиш масалаларини ҳал қилувчи метод сифатида мос келиши билан тушунтириш мумкин. Бироқ фақат бу билангина эмас, тизимли ёндашув феномени, авваламбор, фан ривожланишидаги аниқ қонуниятни акс эттиради.

Фанда тизимли ёндашувнинг замонавий ролини аниқлаб беришнинг асосларидан бири маълумот миқдорининг жадал ўсиши – информацион портлаш эффектини юзага келтириши бўлди. Маълумот миқдорининг ўсиши ва уни ўзлаштириш имкониятларининг чегараланганлиги ўртасидаги зиддиятларни енги бўтишга билимнинг тизимли қайта ташкил этилиши ёрдамида эришиш мумкин.

Тизимли ёндашувнинг моҳияти ва бу методнинг самараси ҳақидарус файласуфи В.Сагатовский шундай ёзади: «Объектнинг ҳаммасидан кўра, сиғимли ва тежамли таърифи уни тизим сифатида фарз қилгандагина амалга ошади. Тизимли ёндашув асосида олинган маълумот 2 та тамойилга кўра муҳим хусусиятга эга: биринчидан, тадқиқотчига фақат зарур бўлган маълумот келиб тушади, иккинчидан, олдинга кўйилган муаммони ҳал қилиш учун етарли бўлган маълумотлар тўпланади. Тизимли ёндашувнинг ушбу хусусияти объектга нисбатан аниқ муносабатни, яъни объектга тизим сифатида қарашни тақозо этади».

Тизимли ёндашув икки жиҳатга эга: билишга йўналтирилган (тавсифий) ва конструктив (тизимларни яратишда фойдаланиладиган). Бужихатларнинг ҳар бири ўзининг амалга ошириш алгоритмига эга. Тавсифий ёндашувда тизимнинг ташқи хусусиятлари (унинг мақсадга мувофиқлиги шунингдек, мақсадга эришиш усули сифатидаги вазибалар) унинг ички тузилиши-таркиби ва структураси орқали тушунтирилади.

Демак, тизимли алоқалар тизимнинг элементлари бўлиб, тизимости тузилмалар миқдорига қараб, алоқалар миқдори ҳам ошиб боради. Бу борада илмий тадқиқотлар олиб борган С.Давидовнинг таърифлашича: «Тизимости – тизим доирасидаги алоқалар даражаси ва шаклидан қатъи назар элементларнинг ўзаро боғлиқ фаолиятининг натижасидир». Тизимости барча элементлар асосий тизим доирасида унга сўзсиз бўйсундирилган ҳолда мавжуд бўлади. Шу сабабли тизимости элементларнинг таркибий қисмларини ўрганиш бутун тизим фаолияти моҳиятини ва ривожланиш қонуниятларини очиб беришга кўмаклашади.

Натижада, тизимлар мавжудлигини таъминловчи тузилма тизимнинг таркибий қисмлари мантиқий кетма-кетлигини таъминлаб, бутунлик, яхлитликни ҳосил қилади. Ўз ўрнида, ижтимоий тизим ташкил этилган бутунлик сифатида таркибий қисмларнинг ёки тизимости элементларнинг узвий боғлиқлиги сифатида бир-бирини тўлдириб, уларнинг биридаги ўзгариш, сўзсиз, иккинчисига таъсир кўрсатади. Шу боис А.Хартман ижтимоий тизимларни «маълум чегараларга эга бўлган ўзаро алоқадор ва бир-бирига боғлиқ таркибий қисмлардан иборат бутунликдир»,– деб изоҳлайди.

ХУЛОСА

Бизнингча, ижтимоий тизимда элементларро алоқа ва муносабатларнинг усуллари социологик нуқтаи назардан индивиднинг ижтимоий тизим меъёрлари ва кадриятлари йиғиндисидан тутган ижтимоий мавқеи ва бажараётган ижтимоий роли йиғиндисидан ўз аксини топади. Бунда, ижтимоий тизимда элементларро алоқа қуйидагиларда намоён бўлади:

- жамият яхлит тузилмаси элементлари орасидаги муқим алоқалар;
- бу алоқаларнинг доимийлиги, такрорий хусусиятга эгаллиги;
- тузилма таркибига кирувчи элементлар иерархияси;
- жамоавий бирликни кучайтириш тенденцияси;
- элементларнинг тартибли фаолияти;
- инсон омили моҳиятини очишга йўналганлиги;
- инсоннинг ўз-ўзини ривожлантириш платформаси.

Ижтимоий тизимнинг таркиби, унинг дахлсизлигини таъминлайдиган қуйи тизимлар, таркибий қисмлар ва элементлар ўзаро боғланишининг бир усули ҳисобланади. Жамият ижтимоий тузилмасининг асосий элементлари: ижтимоий жамоалар, ижтимоий муассасалар, ижтимоий гуруҳлар ва ижтимоий ташкилотлардан иборат бўлган ижтимоий бирликлардир.

Шу асосда ижтимоий тизимга қуйидагича таъриф берамиз: ижтимоий тизим бу– барча алоҳида социал ва индивидуал элементларни ўзида намоён қилувчи, тартибга солинган бир бутунлик, яъни шахслар, гуруҳлар, ташкилотлар, муассасалар мажмуасидир.

REFERENCES

1. Людвиг фон Барталанфи. Общая теория систем — критический обзор // Исследования по общей теории систем: Сборник переводов / Общ. ред. и вст. ст. В. Н. Садовского и Э. Г. Юдина. — М.: Прогресс, 1969. — С.23–82.

2. Людвиг фон Бартаманфи. Системный подход. –М.:Прогресс Традиция, 2004.– С.154
3. Abdumannarovna, M. D., & Juraevna, N. N. (2022). The role of social institutions in the development of young people. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(6), 67-70.
- 4.Раматов, Ж. С., Баратов, Р. Ў., Кушаков, Ф. А., Валиев, Л. А., & Хасанов, М. Н. (2022). ЖАМИЯТДА СИЁСИЙ ВА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *PEDAGOGS jurnali*, 19(1), 13-18.
- 5.Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Ҳ., Кушаков, Файзулла Абдуллаевич., Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). ҲОЗИРГИ ДАВРДА ИЖТИМОЙ АДОЛАТ ҲАҚИДАГИ ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЛҚИНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (9), 647-656.
- 6.Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Кушаков, Файзулла Абдуллаевич, Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). ТРАНСПОРТ ТИЗИМИ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИ МИСОЛИДА). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (9), 606-612.
- 7.Ж. С. Раматов, & М. Н. Хасанов (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ЖАҲОН ИЛМ-ФАН ТАРАҚҚИЁТИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ ВА УНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ АҲАМИЯТИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 1), 648-653.
8. Журабоев, Носир Юсупович, & Хасанов, Миршод Нўъмонович (2022). ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ СОҲА РИВОЖИ: ИСЛОҲОТ ВА ИСТИҚБОЛ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (6), 1274-1283.
9. У.К.Эрнийёзов, М.Н. Хасанов, & Х.С.Машарипов. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ИЖТИМОЙ-АХЛОҚИЙ ТАЪЛИМОТИ ВА УНИНГ АНТРОПОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 4(3), 130–136.
- 10.Ж. С. Раматов, М. Хасанов, & Л. А. Валиев (2022). ИНСОН ДУНЁҚАРАШИНИНГНИНГ ДИНИЙ ВА ДУНЁВИЙ ТАЛҚИНИ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2 (7), 78-82.
11. J. S. Ramatov, M. Hasanov AL-FAROBİY SIYOSIY DAVRIDAGI SIYOSIY VA IJTIMOİY-MADANIY ANVOL // *Pedagogik fanlarda akademik tadqiqotlar*. 2022 yil. 6-son. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/al-farobiy-davridagi-siyosiy-vazihtimoiy-madaniy-vaziyat> (kirish sanasi: 17.10.2022).
12. Ж. С. Раматов, & М. Хасанов (2022). МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР – ЖАМИЯТИМИЗ БАРҚАРОРЛИГИ ВА ЁШ АВЛОД ТАРБИЯСИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (6), 973-979.
13. З. Н. Бобошев, М.Н.Хасанов, & Э.А.Нуруллаев. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ПЕДАГОГИКА ФАНИНИНГ АСОСЧИСИ СИФАТИДА. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 4(3), 108–115.



ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА СТРУКТУРАВИЙ- ФУНКЦИОНАЛ ЎЗГАРИШЛАР

Д. Муратова

Ташкент давлат транспорт университети “Ижтимоий фанлар” кафедраси
доценти

Д. Х. Юлдошева

Ташкент давлат транспорт университети магистранти

АННОТАЦИЯ

"Билим жамияти" атамаси ўн йил олдин луғатда пайдо бўлиши тасодиф эмас эди. Бу ишчиларнинг юқори малакали замонавий иқтисодиётини ривожлантириш учун муҳим аҳамиятга эга эканлигидан далолат беради, бунга юқори сифатли таълимсиз эришиб бўлмайди. Замонавий дунёда таълим сифати аллақачон иқтисодиёт рақобатдошлигининг муҳим омилларидан бирига айланди.

Калит сўзлар: олий таълим, структура, функционал ўзгаришлар, стратегия, университет.

КИРИШ

Айнан шунинг учун 2017 йил февраль ойида Ўзбекистонда ислохотларнинг янги босқичи бошида қабул қилинган "2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида" устувор йўналишлардан бири " умрбод таълим тизимини янада такомиллаштириш, сифатли таълим хизматларининг мавжудлигини ошириш, меҳнат бозорининг замонавий талабларига мувофиқ юқори малакали кадрлар тайёрлаш курсини давом эттириш кўрсатилган. Мамлакатимизда таълимнинг миллий ва халқаро меҳнат бозорларида рақобатбардошлигини оширишни ривожлантириш ҳам 2030 йилгача бўлган Ўзбекистон Республикасини комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш концепциясига киритилган.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Ислохотларнинг янги босқичи бошланишидан олдин, Ўзбекистонда мактабгача таълимга катта эътибор берилмади. Вазият 2017 йилда Мактабгача таълим вазирлиги (МТВ)

ташқил этилганда ўзгарди. Агар илгари болаларни ушбу таълим шакли билан қамраб олиш атиги 27 фоизни ташқил этган бўлса, 2019 йил охирига келиб у 44,5 фоизга ўсди. Ушбу даврда давлат мактабгача таълим муассасалари (ДМТМ) сони 1,5 бараварга (4940 дан 7500 гача), хусусий мактабгача таълим муассасалари сони 3 бараварга (269 дан 783 гача) ошди. Агар 2017 йилда мактабгача таълим тизимида 51 минг ўқитувчи ишлаган бўлса, унда 2019 йил охирига келиб 80 мингдан ортиқ.

Мактабгача таълим учун кадрлар тайёрлашга катта эътибор берилди. Мутахассисларни янада такомиллаштириш мақсадида 97 та педагогика коллежи тўлиқ МТВ (МДО) юрисдикциясига ўтди. Барча педагогик университетларда мактабгача таълим учун квоталар кўпайтирилди. 2019 йилда биринчи марта Тошкент давлат педагогика университетининг кечки таълим факультети очилди. Мактабгача таълим бўйича мутахассислар Тошкентдаги Пучон университети филиалида мактабгача таълим факультетида тайёрлана бошланди. МТВ (МДО) қошида мактабгача таълим муассасалари раҳбарлари ва мутахассисларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти очилди.

Таълимни марказсизлаштириш (децентрализация) жараёнларига ўтиш бошланди. Бу бошқарувдаги тузилмавий ўзгаришлар сифат жиҳатдан янги босқичга ўтишни таъминлади. Умумтаълим мактабларида олий маълумотли ўқитувчиларнинг улуши 80 фоиздан ошди, буни таълим сифатининг кўрсаткичи деб ҳисоблаш мумкин. Таълим ислоҳоти уч босқичда оширилган ва натижада ўртача 50% га ошган. Университетлардан узоқда жойлашган ва битирувчиларнинг университетларга кириш даражаси паст бўлган 54 та лицей босқичма-босқич касб-ҳунар коллежларига айлантилди. Шу билан бирга, дунёда илмий ва техник таълимнинг янги инновацион технологиялари тобора кўпроқ жорий этилмоқда. Ўзбекистонда бундай ўқитиш технология-ларига ўтиш учун зарур шарт-шароитлар яратилмоқда, бу 2030 йилгача Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини ривожлантириш концепциясида акс эттирилган.

Жаҳон стандартларига эътиборни қаратган ҳолда, таълим сифатини ислоҳ қилиш яна бир босқич, яъни коллежлар камида умумий ўрта маълумотга эга бўлган мутахассислар учун кундузги, кечки ва сиртқи таълим шаклида икки йилгача ўқитишни таъминлайди. Коллеж битирувчилари учун йирик потенциал иш берувчилар битирувчиларнинг иш билан таъминла-нишини кафолатлайдиган ишчиларнинг ҳозирги ва келажакдаги эҳтиёжлари асосида буюртмалар портфелини яратадилар. Таълим дастурларини муваффақиятли тугатган техник

мактабларнинг битирувчиларига шахсий суҳбат асосида кириш имтиҳонларисиз олий ўқув юртларида бакалаврият таълимнинг тегишли йўналишларининг 2-курсидан бошлаб ўқишни давом эттириш ҳуқуқи берилади. Шундай қилиб, машғулотларни давом эттириш ва уларнинг касбий билим ва кўникмаларини ошириш имконияти мавжуд.

Олий таълим сифат стандартлари 2017 йил 20 апрелда Президент фармони билан 2017-2021 йилларда олий таълим тизимини ҳар томонлама ривожлантириш дастури тасдиқланди, унда олий таълим даражасини тубдан яхшилаш ва сифат жиҳатидан яхшилаш бўйича чора-тадбирлар мавжуд. Олий ўқув юртларига қабул қилиш тартиби ўзгартирилди, имтиҳонлар 1-дан 15-августгача бўлиб ўтди ва натижалари эртаси куни нашр этила бошлади. Ижодий йўналишлардаги университетларга кириш учун тест синовлари бекор қилинди. 2017 йил сентябр ойидан бошлаб профессор-ўқитувчилар таркибидаги ўқув юки илмий-тадқиқот ишларини олиб бориш фойдасига камайди. Сиртки таълим шакли тикланди. Университет профессор-ўқитувчиларининг маошлари икки бараварга ошди.

Университетларнинг мустақиллиги ва ўз ички имкониятлари ва ресурсларидан оқилона фойдаланиш даражаси ошди. 2018/2019 ўқув йилидан бошлаб етакчи олий ўқув юртлари кадрлар истеъмолчиларининг талабини ҳисобга олган ҳолда таълимнинг тегишли йўналишлари ва мутахассис-ликлари бўйича мустақил равишда ўқув режалари ва дастурларини ишлаб чиқиш режимига ўтиб бормоқда, бу фақат миқдорий жиҳатларни эмас, балки сифатий ўзгаришларни ҳам билдиради. Университетларга юқори контракт ставкалари бўйича талабаларни қўшимча қабул қилишга рухсат берилиши мутахассисларга бўлган бўшлиқни тўлдиришга кўмаклашади.

Таълим соҳасидаги ислоҳотлар доирасида ўқитувчиларни тайёрлаш бўйича ўқув дастурлари қайта кўриб чиқилиб, халқаро стандартларга мувофиқлаштирилмоқда, PISA, TIMSS и PIRLS каби халқаро тизимлар билан ҳамкорликда талабаларни баҳолаш миллий тизими модернизация қилинди. Халқаро QS, THE рейтинг агентликлари билан ҳамкорликда мамлакат олий ўқув юртларининг миллий рейтингини аниқлаш учун таълим сифатини баҳолаш кўрсаткичлари ишлаб чиқилди ва уларнинг натижалари учинчи йил учун эълон қилинди. Таълим ҳужжатларини халқаро миқёсда тан олиш учун уларнинг Халқаро таълим стандарти тасниф (МСКО/ISCED 2011) талабларига мувофиқлиги бўйича ишлар бошланди. 2020 йилда Ўзбекистон кузатувчи сифатида Европа олий таълим сифатини таъминлаш ассоциациясига (ENQA- [англ. European](#)

Association for Quality Assurance in Higher Education, ENQA) (рус тилида-Европейская ассоциация гарантии качества в высшем образовании-) қўшилди. 2019 йил 8 октябрда Президентнинг "2030 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида" ги Фармони эълон қилинди, у илғор олий ўқув юртларини жорий этишга босқичма-босқич ўтишни назарда тутди. Таълим стандартлари, таълим жараёнини босқичма-босқич кредит-модулли тизимга ўтказиш, бу 2023 йилда олий ўқув юртларининг 16 фоизида, 2025 йилда 57 фоиз ва 2030 йилда 85 фоизида амалга оширилиши керак. Шу билан бирга, ушбу тизимга ўтиш аллақачон бошланган. Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети (ТАТУ) 2018/2019 ўқув йилидан бошлаб кредит таълими тизимига ўтишни босқичма-босқич амалга оширмоқда. Миллий университет, Юридик университет, Шарқшунослик университети ва Тошкент тиббиёт академияси худди шу йўналишда иш бошлади.

Мамлакатимизнинг бошқа минтақаларидан Тошкентда 80 мингга яқин талабалар таълим олишади ва улар транспорт хизматларида 50 фоиз чегирмаларга эга, бу эса талабаларнинг давлат томонидан қўллаб қувватланишидан далолатдир.

Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги томонидан олий таълим стандартлари бўйича онлайн-ресурслар шакллантирилди ва ўз-ўзини тарбиялаш учун материаллар жойлаштириладиган www.edu.uz. (EDUUZ) телеграм канали ишга туширилди. Шу билан бирга, "Инновацион Кутубхона" веб-сайтида турли фанларга оид 3500 дан ортиқ электрон дарсликларни шакллантириш жараёни давом этди. Олий таълим тизими онлайн ишлаш тизимига ўтиши муайян бир муаммоларни келтириб чиқарди. Қабул қилинган чора-тадбирлар олий таълим муассасаларини ёпиш билан боғлиқ учта асосий масалани ҳал қилишга имкон берди. Биринчиси, талабаларнинг ўз устида мустақил ишлашлари имкониятини оширди, иккинчиси - карантин пайтида моддий ёрдам, учинчиси - масофадан туриб таълим жараёнини давом эттириш.

Шу билан бирга, Ўзбекистон таълим соҳасида ҳал қилиниши керак бўлган муаммолар ҳалигача сақланиб қолмоқда. Пандемия олдидан мактабгача таълимнинг жадал ўсишига қарамай (аниқки, карантин чекловлари ушбу соҳа кўрсаткичларининг ўсишини секинлаштирди, бу йил охирида ўтган йилга нисбатан пастроқ бўлиб чиқиши мумкин), ҳали ҳам олий ўқув муассасаларининг мавжуд имкониятлари уларнинг эҳтиёжларидан камлигини кўрсатади. Уларнинг компьютер



хоналари, замонавий жиҳозлар, шу жумладан лабораториялар ва Интернетга уланиш юқори тезликда ишлаш билан таъминлаш зарур.

Шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, туризм учун таълимни йўлга қўйиш янги сифат босқичини таъминлашга кўмаклашади. Олий таълимга қизиқиш тобора ортиб бораётгани ва қабул квоталари кўпайганига қарамай, талабалар ёшидаги аҳолини олий таълим тизими билан қамраб олиш даражаси паст бўлиб қолмоқда, атиги 15%ни ташкил қилади, университетларнинг ўқув дастурлари ҳар доим ҳам замонавий талабларга жавоб беравермайди, шу билан бирга абитуриентларни тайёрлаш сифати ҳам халқаро андозалардан анча орқада қолмоқда. Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги мутахассисларининг фикрига кўра, энг паст натижаларни техник билимларни эгаллашни истаган, технологик интенсив шароитда ишлашга интилаётган абитуриентлар кўрсатганлиги жуда муҳимдир, университет дастури бўйича бу ерда мактабдаги бўшлиқларни тўлдириш мумкин эмас. Буни ЮНИСЕФ ваколатхонасининг Ўзбекистондаги таълим сифати тўғрисидаги маълумот-лари ҳам тасдиқлайди.

Ўзбекистонда масофавий таълимнинг ҳар хил турлари жадал ривожлана бошлаганига қарамай, бир қатор муҳим жиҳатлар ушбу жараёнга халақит бериши турли маммоларнинг сақланиб қолишга олиб келмоқда. Яъни фойдаланувчилар бир қатор умумий муаммоларга дуч келишмоқда - алоқа каналлари мавжудлигидаги фарқлар, ускуналар ва дастурий таъминотнинг етишмаслиги ва телекоммуникация хизматларининг сифатсизлиги каби муаммолар шулар жумласидандир. Ахборот технология-лари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлигининг 2020 йил март ойидаги маълумотларига кўра, Интернет тезлигининг умумий рейтингида 176 мамлакат орасида Ўзбекистон Республикаси 96-ўринни, мобиль Интернет тезлиги бўйича эса 133-ўринни эгаллаб турибди. Бундан ташқари, Datareportal ахборот порталининг маълумотларига кўра, 2020 йилда аҳолининг атиги 55 фоизи (18,34 миллион киши) Интернетдан фойдаланади. Бундан ташқари, ҳатто Интернетга эга бўлганлар ҳам ҳар доим ҳам унинг нархини тўлашга қодир эмаслар. Шундай қилиб, Picodi.com экспертларининг 2019 йил декабрь ойида ўтказган таҳлилларига кўра, Интернетнинг ўртача нархи сониясига 100 мегабит (м / с) бўйича Ўзбекистон 62 мамлакат орасида 11-ўринни эгаллади. Шундай қилиб, Ўзбекистонда 100 м / с нархи \$ 51, қўшни Қозоғистонда - \$ 11, Қирғизистонда - \$ 34. Пандемия даврида онлайн таълимнинг Ўзбекистонда кенг жорий этилиши ушбу соҳани ривожлантиришга жиддий туртки берди, аммо ҳанузгача тақдим этилаётган Интернет хизматлари сифатини ошириш бўйича қўшимча чора-

тадбирлар зарурлигини кўрсатмоқда.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, Ўзбекистоннинг барча таълим соҳаларида амалга оширилган ислоҳотларнинг янги босқичи тўрт йил ичида уларни замонавий халқаро талабларга жавоб берадиган сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш учун жиддий асослар яратилди. Аммо мавжуд муаммоларнинг аксарияти ҳалигача ҳал қилинмаган.

Таълим соҳаси кадрларни объектив равишда ўқитиши, келажакда одамларни ҳаётга ўргатиши сабабли минтақани ислоҳ қилиш нуқтаи назаридан анча "консерватив" ҳисобланади. Янги авлодни ҳаётга тайёрлаш учун йигирма йил керак бўлади ва бу муаммони уч-беш йил ичида ҳал қилиб бўлмайди. Университетларда юқори малакали мутахассисларни тайёрлаш учун ваколатли абитуриентлар талаб қилинади. Ўзбекистонда олиб борилаётган таълим соҳасидаги ислоҳотлар жараёнида асосий эътибор ёшлар орасида иқтидорларни аниқлаш ва ривожлантиришга қаратилди. Аммо илгари етарлича самарали бўлмаган мактаб ва мактабгача таълим тизими ўз ҳиссасини кўшмаган болалар боғчасидан ва мактабдан истеъдодларни ривожлантириш керак. Абитуриентларнинг тайёргарлиги пастлиги шундан далолат беради.

Шу нуқтаи назардан, таълим соҳасидаги ислоҳотлар интеграциялашган ёндашув ва ислоҳ этилаётган тармоқлар ва таълимнинг турли босқичларини уйғунлаштириш билан энг самарали ҳисобланади. Шу сабабли, олий ўқув юртлари ва илмий муассасалар ўртасида яқин ҳамкорликни таъминлайдиган ажралмас таълим тизимини шакллантириш зарурати ислоҳотларда биринчи ўринга чиқади.

REFERENCES

1. Kadamovich, Y. J., Muzaffarova, I. G., Maxmudovich, Y. B., Boxtiyarova, S. S., & Xabibullayevich, S. S. (2020). Social justice as a condition of socio-spiritual stability in society. *Journal of Critical Reviews*, 7(5), 816-818.
2. Раматов, Ж. С., Баратов, Р. Ў., Султанов, С. Ҳ., Кушаков, Ф. А., Валиев, Л. А., & Хасанов, М. Н. (2022). ҲОЗИРГИ ДАВРДА ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ ҲАҚИДАГИ ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЛҚИНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(9), 647-656.
3. Abdumannapova, M. D., & Juraeva, N. N. (2022). The role of social institutions in the development of young people. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(6), 67-70.



МАРКАЗИЙ ОСИЁ АҲОЛИСИНИНГ ДЕМОГРАФИК ВАЗИЯТИГА ТАБИЙ-ГЕОГРАФИК ОМИЛЛАРНИНГ ТАЪСИРИ

Абдуганиевич Ҳайитбой Абдувалиев

Фарғона давлат университети география кафедраси катта ўқитувчиси, г.ф.ф.д.,
(PhD).

h.a.abduvaliyev@gmail.com.

Абдусатторжон Абдумалик ўғли Абдулхамидов

Фарғона давлат университети, география мутахасислиги магистранти

АННОТАЦИЯ

Мақолада Марказий Осиё аҳолисининг кейинги йиллардаги ҳудудий ўзгаришлари таҳлил этилган бўлиб, бунда минтақа давлатлари аҳолисининг жойланишидаги тафовутлар ҳам очиб берилган. Минтақа аҳолисининг катта демографик юкига сабаб бўлган табиий-географик омилларнинг роли қисман баҳоланган. Муаллифлар мақолада минтақадаги ўзига хос демографик юкка эга бўлган Ўзбекистон мисолида демографик вазиятни оғирлигини очиб беришга ҳаракат қилган.

Калит сўзлар: тарихий географик жойлашув, Марказий Осиё минтақаси, шаҳарлар, қишлоқлар, демографик юк, табиий-географик минтақалар, қулай табиий-географик шароит.

КИРИШ

Дунёда аҳоли яшайдиган ҳудудларнинг табиий-географик шароитлари уларнинг ҳудудий ташкил этилишига таъсир кўрсатувчи энг дастлабки омил ҳисобланади. Инсоният фан ва техниканинг имкониятларидан фойдаланиб, ўзи яшайдиган масканларни тоборо кенгайтириб бораётганлиги, ҳудудларнинг табиий-географик имкониятларини тўлиқ ҳисобга олинмаслиги натижасида ижтимоий-экологик муаммоларни юзага келаётганлиги жуда кўп айтилмоқда. Хусусан, БМТнинг 2030 йилгача барқарор ривожланиш дастурининг 11-мақсадида ҳам «Шаҳарлар ва аҳоли пунктларининг очиклигини, хавфсизлигини, умри боқийлиги ва барқарорлигини таъминлаш» вазифаларини ечиш долзарблиги таъкидланди. Демографик жиҳатдан катта зичликка эга бўлган аммо табиий-географик шароити нисбатан қулай бўлган ҳудудларнинг келажагини тангликка етаклаётган

бундай ҳудудий ташкил этиш масалалари комплекс демогеографик тадқиқотларни талаб этади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Аҳолини ҳудудий ташкил этиш бу – унинг жойлашиш жараёнлари билан мавжуд ҳудудий таркибини оптималлаштириш мақсадида, жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишини жадаллаштиришни таъминлаш учун тадқиқотлар олиб борувчи илмий йўналишдир [Хорев, 1981; Ковалев, 1995; Симагин, 2011].

Марказий Осиё минтақаси аҳолисини хусусан, минтақада катта демографик юкка эга бўлиб келган Ўзбекистон аҳолиси билан боғлиқ ижтимоий, иқтисодий ва экологик масалаларни М.Қ.Қорахонов (1983), И.Р.Муллажонов (1983), Г.Р.Асанов (1994), Л.П.Максакова (2001), Қ.Х.Абдурахмонов (2010), А.А.Қаюмов (2000), А.С.Солиев (2005), М.Р.Бўриева (2005), О.Б.Ата-Мирзаев (2006), Э.А.Ахмедов (2006), Р.А.Убайдуллаева (2006), Б.Х.Умурзақов (2007), Н.Х.Рахимова (2007), Х.Х.Абдурахмонов (2010), З.Н.Тожиева (2010, 2017) каби тадқиқотчилар ишларида мамлакатимиз аҳолишунослиги, демографияси, шаҳарлар ва аҳоли географияси, меҳнат ресурсларидан фойдаланиш ва аҳоли бандлиги оид самарали ишлар амалга оширилган.

География фанининг ривожланишида турли хил йўналишлар, оқимлар, концепцияларни замон ва маконда мунтазам алмашилиб келишини тақозо этади. Натижада эса фанда аҳоли ва у билан боғлиқ турли жараёнларни ўрганишнинг маълум йўналишлари шаклланди. Биринчи йўналиш ҳақиқий географик йўналиш бўлиб, бунда аҳолининг ҳудудий тарқалиши, жойлашиши ва унга таъсир этувчи омилларга асосий эътибор берилди. С.А.Ковалев (1963), В.Г.Давидович (1964), Г.М.Лаппо (1969), Б.С.Хорев (1981), В.П.Покшишевский (1978), В.Ш.Джаошвилилар (1979) томонидан аҳоли жойлашуви ва аҳоли пунктлари шаклланишининг назарий-услубий асослари яратилган. Ўзбекистон ва МДХ давлатлари аҳоли жойлашувининг минтақавий муаммолари С.А.Ковалев (1980), Э.Тошбеков (1982), Р.Валиеваларнинг (1970) ишларида батафсил ёритилган. Айнан бундай тадқиқотлар МДХ давлатларида бу йўналишни географиянинг етакчи тармоқларидан бирига айлантirdи. Бу жараён Ўзбекистонда О.Ата-Мирзаев, А.Солиев, А.Қаюмовлар томонидан ривожлантирилди. Шубҳасиз, бу олиб борилган тадқиқотлар амалий ва назарий аҳамиятга эга бўлиб, аҳолини ҳудудий ташкил этишни такомиллаштиришга ўзларини салмоқли

хиссаларини қўшдилар. Бу йўналишда аҳоли географиясининг иккинчи тармоғи сифатида қишлоқлар географияси (георураристика) ривожлантирилди. Бу соҳанинг МДХ давлатларида жадал ривожланишига С.А.Ковалев (1980), И.А.Аликсеевларнинг (1990) хизматлари катта. Ўзбекистонда қишлоқлар географиясининг ривожланишида А.Солиев (1995), М.Назаровларнинг (1996) тадқиқотлари сезиларли ўрин тутди. Ҳозирги кунда ҳам бу йўналишда олиб борилаётган ишлар мамлакатимизда аҳолини ҳудудий ташкил этилишини такомиллаштиришга катта ёрдам бермоқда [1, 5, 6].

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Ўзбекистон Республикасининг аҳолиси ҳам Марказий Осиё минтақаси аҳолиси сонига нисбатан жуда тез ўсиб бораётганлиги барчага маълум. Минтақада бугунги кунда 78 млн кишидан ортиқ аҳоли истиқомат қилмоқда. Бу эса минтақа демографик юкининг катта эканлигидан далолат беради (1-жадвал).

1-жадвал

Марказий Осиё давлатлари аҳолиси ва майдони

№	Давлатлар	Аҳолиси (2022 й.)		Майдони	
		Сони (киши)	Улуши (фоиз ҳис.)	Майдони (минг км кв)	Улуши (фоиз ҳис.)
1.	Ўзбекистон	35821029	45,61	448,9	11,21
2.	Қозоғистон	19666840	25,04	2725,0	68,07
3.	Тожикистон	10051000	12,80	141,4	3,53
4.	Қирғизистон	6799321	8,66	199,9	4,99
5.	Туркманистон	6202384	7,90	488,1	12,19
	Жами:	78540574	100,00	4003,3	100,00

Минтақада аҳолининг катта қисми суғориш имконияти юқори ҳудудларда йеғилган. Чалачўл ва чўл, адир, тоғ олди ва тоғ минтақаларида аҳоли сийрак жойлашган бўлиб, катта ҳудудий тафовутларни юзага келтирган.

Марказий Осиё аҳолиси кейинги йилларда ҳар йили ўрта ҳисобда 1 млн кишидан ортиққа ўсиб бормоқда. БМТнинг сўнгги ҳисоб-китобларига кўра, Марказий Осиёнинг ҳозирги аҳолиси сони бўйича Осиё субминтақалари орасида 5-ўринни эгаллаб турибди. Марказий Осиё аҳолиси сони бутун Ер юзи аҳолисининг қарийб 1 фоизини ташкил этади. Бунда Ўзбекистон улуши қарийб 45 фоиз, Қозоғистон 25 фоиз, Тожикистон 13 фоиз, Қирғизистон 8,5 фоиз ва Туркманистон 8 фоизни ташкил этади.

Туғилиш коэффиценти ҳам юқоригини сақлаб келмоқда. Ижобий - репродуктив ёшдаги 1 аёлга тахминан 3



бола тўғри келади, бу эса аҳоли ўсишининг шу темпи ҳали узоқ вақт сақланиб қолишидан далолатдир.

Аҳолининг 48 фоизи шаҳарларда истиқомат қилади, бу эса Марказий Осиёни асосан қишлоқ аҳолиси улуши аста секинлик билан камайиб, шаҳарлар аҳолиси хиссаси ошиб бораётганлигини кўрсатади. Марказий Осиё энг ёш минтақалардан бири бўлиб қолмоқда, бу ердаги аҳолининг ўртача ёши 27,6 ёшни ташкил этади.

Табиатдан фойдаланишни ташкил қилиш ва бошқарув соҳасидаги қарорларининг қабул қилиниши кўпинча ижтимоий-иқтисодий омиллар шаклланган маъмурий чегаралар доирасида амалга оширилади. Худуднинг табиий (ландшафт) хусусиятлари эса назардан четда қолади. Минтақаларнинг қишлоқ хўжалигини ривожлантириш ва (ҳосилдорлик, ялпи маҳсулот олиш ва ҳоказо) юқори ҳосил олиш мақсадида экин майдонларининг тупроқ унумдорлиги, намлиги, қурғоқчиликлиги кўпинча эътиборга олинмайди. Марказий Осиё минтақаси давлатлари чегараларидаги ўзига хос торликлар, кечкин ўзгаришлар, бир табиий-географик муҳитнинг турли қисмларга бўлиб юборилганлиги туфайли унда жойлашган аҳолининг ҳам маълум чегаралар яқинида ўта зич ва маълум чегаралар яқинида ниҳоятда сийрак эканлиги кўринади. Бу эса қулай табиий географик муҳитли чегаралар яқинида катта аҳолининг йиғилишига ва табиий-географик муҳитнинг бардошлилигини пасайишига, табиий-географик муҳитнинг шу жой аҳолисини боқиши даражасининг тушиб кетишига сабаб бўлади [2, 3].

Тарихий даврларда инсон ва табиат муносабатларининг характери (хусусияти) кўпинча ижтимоий тузум билан боғлаб олиб борилган. Капиталистик муносабатлар негатив (салбий) нуқтаи-назаридан тасвирлаб кўрсатилган, яъни улар табиатга таъсирларнинг ортишига, унинг камбағаллашиб боришига, қатор экологик муаммоларга олиб келади деб ҳисобланган. Аммо жамиятнинг шаклланишида, унинг ҳаётида географик омил, табиий шароитлар муҳим аҳамият касб этишини унутмаслик лозим. Географик омил – инсон моддий ҳаётининг асосий шарт, у билвосита, моддий бойликларни ишлаб чиқариш усули орқали, ижтимоий тузумнинг характерига (хусусиятига) таъсир этади [4]. Шу сабабдан Марказий Осиё аҳолисининг катта демографик юқини ҳисобга олган ҳолда мамлакатлар ўртасида аҳоли жойлашувининг минтақавий муаммолари очиқланиши ҳамда узоқ йилларга муўлжалланган демоекологик дастур-мақсадлар ишлаб чиқилиши зарур бўлади [7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14].

ХУЛОСА

Бугунги фаол кечаётган демографик вазиятда аҳолининг жойланишидаги ўзгаришларни чуқур таҳлил этиб бориш талаб этилади. Янги аҳоли пунктларини ташкил этиш давлатлар миқёсида дастурли-мақсабли режалар асосида амалга оширилаётганлигига қарамасдан, аҳоли пунктларининг табиий-географик шароитни ўзгаришларига олиб келишининг кейинги 20-30 йиллардаги ҳолатлари баҳоланмаётганлиги катта муаммоларга сабаб бўлиши мумкин. Минтақа миқёсида аҳоли пунктларининг аксарияти яшаш ўта қулай ва қулай бўлган ҳудудларда ёки қулай табиий-географик шароитларда жойлашган. Аҳоли сонининг мунтазам кўпайиши аҳоли пунктлари сони ва майдонининг ортишига ҳамда қулай табиий-географик майдонларнинг қисқариб боришига сабаб бўлади. Бу ҳолат ландшафтларнинг деградациясига, экологик мувозанатига ва аҳолининг турмуш тарзига таъсирини ўтказди. Ҳар бир минтақани ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олиб, демографик юк миқдорини белгилаш, меъёрлаштириш, аҳоли пунктларини оқилона ҳудудий ташкил этишининг илмий асосларини такомиллаштириш талаб этилади.

REFERENCES

1. Абдувалиев Ҳ.А. Аҳоли зичлиги билан ижтимоий-экологик вазиятнинг ўзаро боғлиқлиги (Фарғона вилояти мисолида)// Ўзбекистон география жамияти ахбороти, 52-жилд. –Тошкент, 2018. Б.81-84
2. Джаошвили В.Ш. Особенности городского расселения горных стран. – Москва – Киев, 1979. – 15 с.
3. Караханов М.К. Некапиталистический путь развития и проблемы народонаселения. – Т.: 1983. С.236.;
4. Кашин А.А. Исследование ландшафтной организации территории Удмуртии как фактора хозяйственного освоения и расселения населения. Дисс. ... канд. геог.наук. –Ижевск, 2015. – 184 с. (<https://www.dissercat.com>)
5. Ковалев С.А. Избранные труды. – Смоленск: Ойкумена, 2003. – 438 с.
6. Массон М.Е.Поселение Джейтун: (Проблема становления производящей экономики) / АН СССР. ИА. — Л.: Наука, 1971—208 с.: ил. — (МИА; № 180)
7. Abduvaliev, H. A. (2020). Some issues of population dynamics in the Fergana Valley. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(9), 135-140.
8. Абдувалиев, А. Ҳ., & Парпиева, Г. М. (2022). ФАРҒОНА ВОДИЙСИДА АҲОЛИНИНГ ЕР БИЛАН ТАЪМИНЛАНГАНЛИК ДАРАЖАСИ ВА УНИНГ АҲОЛИ



- ЗИЧЛИГИГА ТАЪСИРИ. *Academic research in educational sciences*, 3(4), 1174-1183.
9. Abduvaliyev, H. A., Vahobjonov, A. A. O., & Rahimberdiyeva, K. D. Q. (2022). ENCLAVE AND EXCLAVE REGIONS OF CENTRAL ASIA. *Scientific progress*, 3(1), 87-89.
10. Abduvaliyev, H. A. A., Hamdamova, F. A. Q., & Eraliyev, Z. Z. Q. (2021). LANDSHAFT OMILI ASOSIDA AHOLI HUDUDIY TAKRIBINI TAKOMILLASHTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 1219-1223.
11. Абдувалиев, А. Х., & Абдулхамидов, А. А. Ў. (2021). ФАРҶОНА ВОДИЙСИДА АҲОЛИ ЖОЙЛАШУВИНИНГ ИЖТИМОЙИҚТИСОДИЙ ОМИЛЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 1127-1136.
12. Abduvaliyev, H. A., & Jarqinova, M. X. (2021). AHOLINING HUDUDIY TARKIBINI TABIIY-LANDSHAFT BIRLIKLARI BO 'YICHA TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Academic research in educational sciences*, 2(12), 33-38.
13. Abduganievich, A. H. (2020). Application Of The Landscape Approach To The Study Of The Population Distribution Of The Fergana Valley. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(07), 291-297.
14. Абдувалиев, Х. А. (2020). ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИЗУЧЕНИЯ ТЕРРИТОРИАЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ НАСЕЛЕНИЯ. *Научный вестник Наманганского государственного университета*, 2, 255-261.

ВЛИЯНИЕ КОЭФФИЦИЕНТА ОБТЕКАЕМОСТИ НА ТОПЛИВНУЮ ЭКОНОМИЧНОСТЬ

Т. А. Хайруллаев

З. М. Ахмедов

Ташкентский государственный транспортный университет.

Р. С. Хикматов

Научный руководитель, Ташкентский государственный транспортный университет, доцент

АННОТАЦИЯ

В статье рассмотрены зависимости относительного расхода топлива от скорости движения и общей массы автопоезда и способы снижения сопротивления коэффициента обтекаемости.

Ключевые слова: коэффициент обтекаемости, топливная экономичность.

ВВЕДЕНИЕ

Совершенствование аэродинамических свойств обеспечивает существенное улучшение таких важных показателей большегрузных магистральных автопоездов, как безопасность, топливная экономичность, экологичность, повышает их производительность. Поэтому все ведущие производители магистральных автопоездов ведут интенсивные исследования и конструкторские разработки, направленные на отработку их аэродинамических характеристик путём оптимизации характера обтекания кабины, кузова, а также поднищевой зоны как при осесимметричном, так и при кососимметричном натекании воздушного потока.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ

Топливная экономичность — одно из эксплуатационных свойств автопоезда. Она определяет расход топлива автопоездом при движении в заданных условиях.

Работа грузового автомобиля в составе автопоезда сопряжена с повышенным расходом топлива на единицу пробега вследствие возрастания сил сопротивления движению. Однако увеличение расхода топлива непропорционально

возрастанию указанных сил. Это связано с тем, что при буксировке прицепов и полуприцепов степень использования мощности двигателя автомобиля-тягача выше, чем при движении одиночного автомобиля, поэтому удельный эффективный расход топлива уменьшается. Кроме того, существенно снижается расход топлива на единицу выполненной транспортной работы или на единицу массы перевезенного груза, что снижает себестоимость перевозок.

На дорогах с асфальтобетонным покрытием, не имеющих крутых и затяжных подъемов, в случае использования прицепов экономия топлива при выполнении 1 т·км транспортной работы может достичь 15... 20 %.

Из топливно-экономической характеристики (рис. 26) видно, что с увеличением скорости движения путевой расход топлива при малых скоростях уменьшается, достигает минимального значения при некоторой оптимальной скорости движения, а затем существенно возрастает. Такая зависимость путевого расхода топлива от скорости движения объясняется тем, что с изменением скорости одновременно изменяются две величины, входящие в уравнение расхода топлива установившегося движения автомобиля, а именно удельный расход топлива и сила сопротивления воздуха.

При малых скоростях движения сила сопротивления воздуха невелика и почти не оказывает влияния на топливную экономичность. Основное влияние в этом случае оказывает изменение удельного расхода топлива, зависящего от изменения степени использования мощности двигателя U . При увеличении скорости движения степень использования мощности двигателя возрастает, в связи с чем, как видно из экономической характеристики двигателя удельный расход топлива уменьшается, а, следовательно, уменьшается также и путевой расход топлива.

Начиная с некоторой скорости движения сила сопротивления воздуха начинает оказывать существенное влияние на расход топлива, и уменьшение расхода замедляется. Начиная с той скорости движения, которая на топливно-экономической характеристике обозначена V_{aonT} , увеличение расхода топлива за счет возрастания силы сопротивления воздуха перекрывает уменьшение его за счет снижения удельного расхода топлива.


Увеличение веса груза, перевозимого автомобилем, всегда приводит к увеличению путевого расхода топлива. Однако удельный путевой расход топлива Q_n у, т. е. путевой расход, отнесенный к единице перевозимого груза, при этом может как увеличиваться, так и уменьшаться.

Теоретически можно показать, что при заданной лобовой площади автомобиля и заданной скорости его

движения мощность, затрачиваемая на преодоление сопротивления воздуха и соответствующий ей расход топлива, связаны с коэффициентом обтекаемости линейной зависимостью.

По результатам исследований моделей автобусов городского типа значения коэффициента обтекаемости $K_a=0,0198—0,0425$. Значения K_b , полученные опытным путем для большегрузных автомобилей и автопоездов, лежат в пределах 0,075-0,103, причем большие значения относятся к автомобилям (автопоездам) с кабиной над двигателем и седельным автопоездам.

На рис. 1, а приведена зависимость относительного расхода топлива от скорости движения и общей массы (без нагрузки и с полной нагрузкой) седельного автопоезда, полученная при $K_b=0,094$. При скорости 80 км/ч



относительный расход топлива на аэродинамическое сопротивление автопоезда составляет свыше 30% при массе 33 т и свыше 40% при массе 13 т, при это мощность $N=55,2$ кВт.

Рис. 1. Зависимость параметров Q_{SW} , N_w от v , m_a и K_b для автопоезда с дизелем.

Возникает вопрос, как изменятся эти показатели при других, в частности указанных выше, граничных значениях обтекаемости ($K_b = 0,075$ и $0,103$). На графике (рис. 1, б) представлена зависимость N_w и Q_s (Q_w) от коэффициента K_b . Видно, что при снижении значения коэффициента K_b с $0,094$ до $0,075$ N_w снижается с $55,2$ до $44,1$ кВт и расход топлива на 100 км с $15,6$ до $12,4$ л. Это свидетельствует об особой важности работ по улучшению обтекаемости автомобилей, особенно тех, которые эксплуатируются на магистральных дорогах.

Ҳуқуқшунос М.В.Пресняковнинг фикрига кўра, “Ҳоҳ адолатли ёки аксинча, адолатсиз бўлган ҳар қандай ижтимоий ҳодисага маънавий ахлоқий баҳо бериш уни муайян жамиятда муайян тарихий даврдаги қонуний бўлган кадриятлар тизимига таққослаш йўли билан амалга оширилади. Хусусий адолат (тамойил) бирмунча расмийлаштирилган, воситали хусусиятга эга ва муайян тарқатувчи дастурларни (тенглаштирувчи адолат ва тақсимловчи адолат) амалга ошириш йўли билан таъминланади. Мазкур ҳолатда гап жамиятнинг кадриятли тизимчаси тўғрисида эмас, балки сиёсий ва ҳуқуқий тизимчаси тўғрисида бормоқда. Уларнинг бошқарувчи функциялари ҳам турли тумандир: умумий адолат кадриятларнинг қабул қилинган тизимига таққослаш асосида ижтимоий тартиботнинг қонунийлигини таъминлайди. Хусусий адолат ижтимоий муносабатларни бошқаришнинг сиёсий ҳуқуқий тамойилларининг муайян мажмуидан иборатдир”. Бундай ёндошув кўп жиҳатдан неолиберал Хаейк Фридрих Август фоннинг қарашларига яқин бўлиб, у “Ҳуқуқ, қонунчилик ва эркинлик” (1976) китобида “қатъий қилиб айтганда фақат кишиларнинг хатти ҳаракатинигина адолатли ёки адолатсиз деб аташ мумкин”. Шу аснода муаммо сифатидаги ижтимоий адолат рамзий муваққат хусусиятига эмас, балки доимий ўзгармас хусусиятга эга эканлигини тушуниш муҳимдир. Адолат тўғрисидаги тасаввурлар унинг фойдалилиги тўғрисидаги лаҳзалик оқилона мазмунга асосланган бўлсада, унда доимо олий адолат идеаллари (кадриятлари) мавжуддир. Шу аснода, у ёки бу моделни танлаш турли омиллар ва шароитлар билан белгиланиши мумкин. Афтидан ўзига хос муносабатлар тизими сифатидаги ижтимоий адолатни йўлга солиш механизмидаги кадриятли функционал мезондаги тасаввур адолатнинг “ижтимоий адолат” универсал тушунчасида ўз ифодасини жамланган кўринишда топадиган адолатнинг муҳим аломатларини белгилаш учун муҳим фалсафий-услубий аҳамият касб этса керак. Масалан, социолог И.Б.Кузнецова ижтимоий адолат тушунчаси бир томондан, алмашувчи тақсимловчи турга эга бўлган ижтимоий муносабатларни, бошқа томондан эса, ижтимоий тажриба асосида ишлаб чиқилган мафкуравий кадриятларни акс эттиради деб фараз қилади. Шу билан биргаликда ижтимоий адолатни барибир инъом этиш муносабатларига киритиш заруратини таъкидлашимиз жоиз. Бу муносабатларда кишилар хатти ҳаракатларини баҳолаш

мезони сифатидаги жамият ёки индивид томонидан рухсат этилган муносабатлар ҳам акс этади. Фақат мазкур ҳолатда ижтимоий муносабатлар мажмуи тўғрисида эмас, балки тақсимлаш, инъом этиш ёки алмашув муносабатлари тизими тўғрисида сўз юритиш мумкин.

И.Б.Кузнецова адолатни ижтимоий ҳаёт соҳаларида намоён бўлиш хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда чегаралайди. Шу аснода бу муаммо ижтимоий адолатни жамиятни барча соҳаларида ўзаро фарқлаши масаласи очиб қолади. Чунки жамиятда ижтимоий адолатнинг турлича кўрсатмаларини (қоидаларини) тақозо этувчи турли кўринишдаги муносабатлар мавжуд бўлиши мумкин. Шу боис, М.В.Преснякованинг бундай вазиятда ижтимоий муносабатларнинг бир турли гуруҳларини ҳисобга олишга асосланган адолатни фарқлаш янада муносиброқ бўлиши борасидаги фикри асосли бўлиб кўринмоқда. Устига устак, бундай ёндошув гарчи мавҳум кўринишда бўлсада, Б.Н.Кашников кўрсатиб ўтганидек, Аристотелда ҳам мавжуд бўлган. Гап бу ерда бир томондан тенглаштирувчи ва тақсимловчи адолатни чеклаш, бошқа томондан эса, инъом этиш, алмашиш ва тақсимлаш соҳасидаги уларнинг турли кўринишларини чеклашда яққол намоён бўлади. Шундай қилиб, инъом этиш, алмашув ва тақсимлаш соҳасидаги муносабатлар тизими сифатидаги ижтимоий адолат ушбу оламда турли жиҳатларда мавжуддир, буларни фақат ижтимоий ҳаёт соҳалари сифатида эмас, балки ижтимоий муносабатларнинг у ёки бу бир турли гуруҳлари (тизимлари) сифатида хусусиятлаш мумкин. Ушбу универсал маънодаги ижтимоий адолатни тақсимлаш, инъом этиш ёки алмашувнинг ижтимоий муносабатлари бир турли гуруҳлари тизими сифатида тасаввур қилишга йўл қўйилади.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Адолатнинг олий таркибий қадриятларига мос келувчи барча асосий аломатларни ўз ичига олган ижтимоий ҳаётнинг асосий ижтимоий қадриятли бошқарувчиси – тақсимлаш, инъом этиш ёки алмашув ижтимоий муносабатларининг бир турли гуруҳлари тизими сифатидаги ижтимоий адолат тўғрисидаги якуний хулосалар тўғрилигини эътироф этиш адолатнинг мазмундор-талқинли асосида ҳам ифодаланадиган функционал ибтидосини кўриб чиқиш учун зарурий шартдир. “Адолат ғоясининг ўта чуқур асоси бу бир бирига нисбатан иерархик тартибда жойлашган қадриятлар-уларнинг доимий шаъни, такомиллашувининг ўсиб боровчи ва камайиб боровчи даражалари тўғрисидаги фикрдир. Ушбу

даражаларнинг тўғри нисбати адолатли муносабатнинг айнан ўзидир деб таъкидлайди Н.Н.Алексеев”.

Ижтимоий адолат жамиятда ҳукмрон бўлган эркинлик ва тенгликнинг энг кенг тарқалган ижтимоий идеаллардан бирidir. Ушбу ғоянинг мазмуни инсон тамаддуни тарихида ўзгариб борган. Эҳтимол ижтимоий онг тарихида адолат ғоясининг вужудга келиши ҳаётнинг ибтидоий тузилишидаги белгиланган тартибда риоя қилишнинг рад этилмаслиги ва заруратини эътироф этиш билан боғлиқ бўлса керак. Инсонларнинг неъматлар билан таъминланишини ўз ичига олувчи адолатнинг бирмунча мураккаб тушунчаси ижтимоий ҳаёт мураккаблашувига қараб, яъни айрим инсонларнинг ўз уруғларидан ажралиб чиқиши даврида вужудга келади. Дастлаб бу тушунча асосан ҳаёт воситалари ва ҳуқуқдан фойдаланишда барча кишиларнинг тенглигини англатган. Хусусий мулк ва ижтимоий нотенглик пайдо бўлиши билан адолат тенгликка, кишиларнинг шаънига мос равишдаги ҳолатдаги фарқларни киритган ҳолда тенгликдан фарқлана бошлади.

Ижтимоий адолат ижтимоий фалсафий тафаккурнинг, ахлоқий, ҳуқуқий ва сиёсий онгнинг ўта муҳим категорияси бўлиб, муносабатларнинг қандайдир умумлашган маънавий баҳосидан иборатдир. Бошқача сўзлар билан айтганда, З.А.Барбешкина кўрсатиб ўтганидек, адолат категориясини турли ижтимоий ҳодисалар ва ҳолатларни баҳолашга, жамиятга шахснинг муносабатини баҳолашга, шунингдек шахслараро муносабатлар соҳасига қўллаш мумкин. Ушбу олиманинг фикрига кўра, маънавий тушунча сифатидаги адолат ахлоқий баҳолаш мезони ролида, ҳиссиёт ролида, хатти ҳаракат мезони, турткиси ролида ва ниҳоят маънавий идеал ролида юзага чиқиши мумкин.

Фалсафий луғат нашрларидан бирида ижтимоий адолат тушунчаси унинг институционал мезонини кўрсатиш учун қўлланилиши кўрсатиб ўтилган. Ижтимоий адолатнинг идеали алоҳида-алоҳида ҳаракатларда эмас, балки ўз тузилмаси билан ижтимоий сиёсий ҳуқуқлар ва моддий неъматларнинг адолатли тақсимланишини доимий таъминлайдиган ижтимоий манфаатлар тизими бўлиши лозим. Ушбу тушунча таърифига ёндошувларнинг турли туманлиги кўпинча: 1) тенглик; 2) кўрсатилган хизматларга мутаносиблик ёхуд 3) нимагадир эга бўлишга ажралмас ҳуқуқлар кафолати сифатида тушунилиши мумкин бўлган адолат умумий концепциясининг устуворлиги билан белгиланади.

Социологияда ижтимоий адолат дейилганда, “шахслар хизматига яраша эришишлари лозимлигини кўрсатадиган умумий тамойил” тушунилади. Айни шу маънода, ижтимоий

адолатнинг ижтимоий психолог Ж.Мейерсом томонидан шакллантирилган таърифни келтириш ҳам ўринлидир. “Ижтимоий психология” асарига киритилган глоссарийда у “Адолат (equity)” – бу ўзаро муносабатларнинг ҳар бир иштирокчисининг “даромади” унинг “улушига” мутаносиб бўладиган ҳолатдир деган таъриф берилган. Ж.Мейерсом шунингдек, “Адолат” тушунчаси мазмунида Ғарб ва Шарқ тамаддунларида ҳали буюк географик кашфиётлар ва улар билан боғлиқ мустамлакачиликларга қадар “ижтимоий” тушунчаси тавсифига буткул фарқли маънолар шаклланганлигини кўрсатиб ўтади. Қадимий Юнонистон ва қадимги Римда хатти ҳаракатнинг индивидуалистик қараши шаклланган бўлиб, у шахсий манфаатларнинг муайян ижтимоий гуруҳ манфаатларидан устуворлигини ҳамда бунинг оқибати сифатида ўзини гуруҳга мансублик асосида эмас, балки шахсий тақсимлаш асосида ўзини намоён этишни келтириб чиқарган. Анъанавий шарқона тамаддунлар шахсий қадриятлар устидан устуворликка эга бўлган жамоавий қадриятларни афзалроқ кўради. Шу аснода шарқона инсон ўзини энг аввало муайян жамоага мансуб деб ҳисоблайди.

Сиёсий ҳуқуқий жиҳатдан масалан, либерализм учун адолатни тенг ҳуқуқлик ёки қонун (ҳуқуқ) олдида барчанинг тенглиги сифатида тушуниш ўта муҳимдир. Қонун бу ҳуқуқ устуворлиги ва демак олий мақсадга мувофиқлик ҳамда адолатдир. Мазкур ҳолатда барча инсонлар бир хил ҳуқуқ ва бурчларга (расмий тенгликка) эга. Бу ерда амалдаги нотенглик жиддий бўлмаган ҳолатдир. Адолатнинг бундай талқинига ўта муросасиз мухолифлар социалистик ва коммунистик мафкура тарафдорлари бўлиб, бу мафкурани қисқача тарзда - расмий тенглик, амалда нотенг кишиларни амалдаги нотенглигини келтириб чиқаради бу адолатсизликдир тарзида ифодалаш мумкин. Ушбу ёндошувлар таҳлили буларнинг ҳар бири кўп сонли тарафдорларга эга эканлигига қарамасдан буларнинг номукамаллигидан далолат бермоқда. Буларнинг ҳар бири мазкур ҳодисани чуқур ва ҳар томонлама тушунишга яқин. Аммо улар баён қилинган сиёсий ҳуқуқий кўрсатмаларни амалга ошириш имконсизлиги боис ушбу мақсадга эриша олмайдилар.

Юқоридагиларнинг барчаси адолатни “адолатсизлик”, “озодлик”, “эрксизлик”, “тенглик”, “нотенглик”, “тақсимлаш”, “инъом этиш” ва “алмашув” категориялари орқали талқин қиладилар. Масалан Б.Н.Калашников ижтимоий адолатни кўриб чиққан ҳолда унга “тақсимлашнинг холис муносабатларида тегишли тенглик ёки нотенгликни меъёрий асосланиши” сифатида таъриф беради. М.В.Пресняков

мамлакатдаги адолат тамойилининг конституцион концепциясини кўздан кечирган ҳолда: “Адолат конституцион аксиология нуқтаи назардан ўта кўламли. Бир маънога эга бўлмаган, кўпинча эса зиддиятли категориядир. Ҳуқуқий қадрият сифатидаги адолат амалда ҳеч қачон “ўзининг ичида” ўз мазмуни нуқтаи назаридан таҳлил қилинмайди. “Адолат” тушунчаси доимо бошқа қадриятлар: тенглик, эркинлик, ҳуқуқий давлат, инсонпарварлик ва ҳ.клар билан таққослашда “боғлиқликда” кўриб чиқилади.... Шу аснода, адолат тенглик ва эркинлик мезони сифатида кўриб чиқилади” деб фараз қилади.

“Ижтимоий адолат – бу жамиятни шахслараро, синфлараро, миллатлараро ва бошқа ижтимоий муносабатлар (яъни уларда инсоннинг миллий, ирқий, диний, синфий ва бошқа мансублигидан қатъий назар унинг ҳаёти ва шаънига ҳурмат қанчалик намоён бўлиши) нуқтаи назаридан, ҳар бир инсонга агар истаса қонун билан бошқариладиган рақобат шароитларида неъматларнинг ўзи энг кўп хоҳлаган миқдорини таъминлашга қодир бўлиши учун зарурий энг кичик имконият ва шартларни яратиш нуқтаи назаридан жамиятни хусусиятловчи ижтимоий фалсафий категориядир, ва ниҳоят ижтимоий адолат тушунчаси жамиятни шахснинг ўз ўзини намоён этиш эркинлиги, шахсий ва ижтимоий хавфсизлик кафолатлари нуқтаи назаридан хусусиятлайди”. Тушунчага бундай мураккаб тузилмани таъриф бериш адолат тўғрисидаги ғарбча либерал йўналтирилган таълимотларнинг айрим ғояларини бирлаштиришга муваффақиятли интилишдан иборатдир. Бу маънода маънавий қадриятларнинг ғарбий европача тизими кўламидаги фақат ғарбча тамаддуннинг ҳамда роман-герман ҳуқуқий тизими доираларидаги глобаллашув тўғрисида сўз юритиш эҳтимол ўринли бўлса керак. Муаллиф ҳуқуқ ва қонунни таққослашига қарамасдан у адолатнинг норасмий механизмлари мавжудлигини ҳисобга олмайди. Бу фикрни рад этиб бўлмайди.

Ижтимоий адолат – бу инсонлар эринлиги ва тенглиги мувозанатининг тарихан аниқ маданий-тамаддуни шакли устуворлигининг меъёрий ғояси бўлиб, у шартнома аънасида жипслик ва ўз ўзини бошқариш тамойиллари асосида ижтимоий давлат ва фуқаролик жамияти ўртасидаги шартномали муносабатларни институционаллаштиради. Кўриниб турганидек, ижтимоий адолат маънолари ва ғоялари айнан дунёқараш доираларида шаклланади. Эҳтимол, шу боис, социолог В.Н.Аргунованинг “Сиёсий мафқураларда “ижтимоий адолат” тушунчаси фаол қўлланилиши боис у “драматик тақдирга эга эканлиги” борасидаги фикрга қўшилиш зарурдир.

ХУЛОСА

Ижтимоий адолатнинг шакли ва мазмуни бошқарувда, жамиятнинг бир ҳолатдан бошқасига сифат жиҳатдан ўтишида иштирок этадиган у ёки бу кадриятларнинг меъерий аҳамиятига боғлиқдир. Кўплаб тадқиқотчилар ижтимоий адолатнинг замонавий кўринишлари маданий кўпқиёфалилик шароитларида амалга оширилиши ҳамда маданий-тамаддун муаммоларини ҳал қилишдан келиб чиқиши борасида асосли мулоҳаза юритмоқдалар.

Адолатнинг замонавий ижтимоий табиатини шакллантиришдаги этномаданий таркибий қисмнинг устувор ролини маданий эътироф этиш ҳамда концептуаллаштириш муаммоси – бу ижтимоий бошқарувнинг фундаментал масаласидир. Турли маданий анъаналар вакилларининг биргаликдаги ҳаётидаги замонавий ижтимоий тажрибалар ҳамда ғарбий европача гуманитар тафаккурда ушбу масалани ижтимоий фалсафий тафаккурдан ўтказишга дастлабки интилишлар юқоридаги хулосани тасдиқламоқда. Масалан, файласуф А.В.Прокофьев ахлоқий назария, ижтимоий этика, маънавий масъулият ва ижтимоий адолат масалаларини ўрганган ҳолда “маданиятлараро адолатнинг” россияча талқинини беришга анча муваффақиятли уриниб кўрган. У маънавий йўлга солиш масалаларини муҳокама қилиш қоидалари маданий-тарихий релятивизм ва универсализм ўртасида мувозанатни ўрнатиш асосидагина вужудга келиши мумкин деб ёзади. Мазкур ҳолатда маданиятлараро адолат ёндошуви энг муносиб пойдевор бўлиб унинг моҳияти “турли маданиятлар тарихий ҳолатларнинг кўплиги боис асосий ахлоқий кадриятлар (ёки неъматларнинг) аввал бошданок номукамал бўлган мажмуини вужудга келтиради. Бундай мулоҳаза бошқа институтлар ва тажрибаларга бардошли бўлишни асослаб беради, бошқа маданиятларга ижтимоий ҳодисаларни баҳолашда ўз мезонларини тўғридан тўғри ва ўйламасдан тикиштиришга имкон бермайди. Аммо айнан шу нарса маданий тарихий релятивизмни чеклаб қўяди”.

REFERENCES

1. Sutrina, John Joseph, "Literary criticism contained in the works of Mark Twain" (1951). Graduate Student Theses, Dissertations, & Professional Papers. 2854. <https://scholarworks.umt.edu/etd/2854>. - 21p.
2. Қуйирокда улардан бири, Томнинг Сахро Кабирга ҳаво шаҳридаги саёҳати ҳақида фикр юритилади.
3. Старцев А. Марк Твен и Америка./Твен, Марк. Собрание сочинений в восьми томах. Том 1. – Моксва: Правда, 1980. – 3-4 с.(401).



4. Марк Твен. Том Соьернинг янги саргузаштлари. - Тошкент: Ёш гвардия, 1980. www.ziyouz.com.kutubxonasi.
5. Kurbanova, M. M., & Ataeva, G. B. (2020). Problems facing efl teachers in mixed ability classes and strategies used to overcome them. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 01 (81), 721-725.
6. Курбанова, М. М. (2021, December). ГЕКЛЬБЕРРИ ОБРАЗИ ВА БАДИИЙ МАКОН МАСАЛАСИ. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online) (Vol. 1, No. 2)*.
7. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Х., Муратова, Д.А., Хасанов, М.Н., & Эрнийёзов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10), 376-386.
8. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Х., Кушаков, Файзулла Абдуллаевич., Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). ҲОЗИРГИ ДАВРДА ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ ҲАҚИДАГИ ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЛҚИНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (9), 647-656.
9. Исмоил Саифназаров, & Сирожбек Ҳабибуллаевич Султанов (2022). ИЖТИМОИЙ АДОЛАТНИ МУСТАҲКАМЛАШДА ИЖТИМОИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ УСТУВОР ЖИҲАТЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 1), 71-76.
11. Султанов, С. Х. (2013). МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ ПРОТИВ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ. *SCIENCE AND WORLD*, 67.

ИНГЛИЗ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР

Мухаббат Мамаджановна Курбанова

Тошкент давлат транспорт университети ўқитувчиси

Расул Мамадсолиев

Ойбек Ҳусанов

Шохрух Шомуродов

Ташкент давлат транспорт университети талабалари

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада инглиз тилини самарали ўргатишнинг бир неча усуллари ҳамда тил ва уни ўрганишда фойдаланиладиган замонавий таълим технологияларидан ҳам бир нечтаси ёритиб берилган.

Калит сўзлар: Тил, инглиз тили, тилни мустақил ўрганиш, таълим технологиялари, лойиҳа, қизиқиш, фаоллик, интерактив методлар.

КИРИШ

Бугунги кунда асосий эътибор ўқувчи, унинг шахсияти ва ўзига хос ички дунёсига қаратилган. Шунинг учун замонавий ўқитувчининг асосий мақсади ташкил этиш усуллари ва шакллари танлашдир ўқув фаолияти шахсий ривожланишнинг белгиланган мақсадига оптимал даражада мос келадиган талабалар. Сўнгги йилларда мактабларда янги ахборот технологияларидан фойдаланиш масаласи тобора кўпроқ кўтарилмоқда. Бу нафақат янги техник воситалар, балки ўқитишнинг янги шакллари ва усуллари, ўқув жараёнига янгича ёндошишдир. Чет тилларни ўқитишнинг асосий мақсади мактаб ўқувчиларининг коммуникатив маданиятини шакллантириш ва ривожлантириш, чет тилини амалий ўзлаштиришга ўргатишдир. Тадқиқот жараёнида инглиз тилини ўргатиш ва ўрганишнинг машҳур усулларидан, интернет манбаларидан фойдаланилди. Мақолани ёзиш давомида назарий-дедуктив хулоса чиқариш, анализ ва синтез, мантиқийлик тамойиллардан фойдаланилди.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Ўқитувчининг вазифаси ҳар бир талаба учун тилни амалий ўзлаштириш учун шароит яратиш, ҳар бир ўқувчига ўз фаоллигини, ижодкорлигини намоиш этишига имкон



берадиган шундай ўқитиш усуллари танлашдир. Ўқитувчининг вазифаси чет тилларини ўқитиш жараёнида талабанинг билиш фаолиятини фаоллаштиришдир. Ҳамкорликда ўрганиш, лойиҳа методикаси, янги ахборот технологияларидан фойдаланиш, Интернет-ресурслар каби замонавий педагогик технологиялар ўқув жараёнида шахсга ённалтирилган ёндашувни амалга оширишга ёрдам беради, болаларнинг қобилиятлари, уларнинг ўрганиш даражасини ҳисобга олган ҳолда ўқитишнинг индивидуализацияси ва фарқланишини таъминлайди. Чет тили дарсларида компьютерни ўқитиш дастурлари билан ишлаш шаклларига қуйидагилар киради: сўз бойлигини ўрганиш; талаффуз қилишни машқ қилиш; диалогик ва монологик нутқни ўргатиш; ёзишни ўргатиш; грамматик ҳодисаларни ишлаб чиқиш.

Интернет-ресурслардан фойдаланиш имкониятлари жуда катта. Глобал Интернет дунёнинг исталган нуқтасида жойлашган талабалар ва ўқитувчилар учун зарур бўлган ҳар қандай маълумотни олиш учун шароит яратади: минтақавий географик материаллар, ёшлар ҳаётидаги янгиликлар, газета ва журналлардан мақолалар ва бошқалар.

Дарсларда инглиз тилида Интернет ёрдамида бир қатор дидактик муаммоларни ҳал қилиш мумкин: глобал тармоқ материалларидан фойдаланиб ўқиш кўникма ва малакаларини шакллантириш; мактаб ўқувчиларининг ёзиш қобилиятини ошириш; талабаларнинг сўз бойлигини тўлдириш; талабаларнинг инглиз тилини ўрганиш мотивациясини шакллантириш. Бундан ташқари, бу иш мактаб ўқувчиларининг уфқини кенгайтириш, инглиз тилида сўзлашадиган мамлакатларда тенгдошлари билан ишбилармонлик муносабатлари ва алоқаларини ўрнатиш ва қўллаб-қувватлаш учун Интернет-технологиялар имкониятларини ўрганишга қаратилган. Талабалар Интернетда ўтказиладиган тестлар, викториналар, танловлар, олимпиадаларда иштирок этишлари, бошқа мамлакатлардаги тенгдошлари билан ёзишмалар, суҳбатлар, видеоконференциялар ва ҳ.к.ларда қатнашишлари мумкин.

Талабалар ҳозирда лойиҳада ишлаётган муаммо ҳақида маълумот олишлари мумкин. Оммавий компьютерлаштиришнинг мазмунли асослари замонавий компьютер ақлий меҳнат шароитларини, умуман, унинг ҳар қандай кўринишини оптималлаштиришнинг самарали воситаси эканлиги билан боғлиқ. Компьютернинг бир ўзига хос хусусияти бор, уни бошқаларга ўргатиш учун восита сифатида ва билимларни эгаллашда ёрдамчи сифатида ишлатишда аниқланади, бу унинг жонсизлиги. Машина фойдаланувчи билан "дўстона" алоқада бўлиши мумкин ва баъзи пайтларда уни "қўллаб-қувватлайди", аммо у ҳеч қачон ғазабланиш

аломатларини кўрсатмайди ва сизни зериккан деб ҳис қилишингизга имкон бермайди. Шу маънода, компьютерлардан фойдаланиш, эҳтимол ўқитишнинг айрим жиҳатларини индивидуализация қилишда энг фойдалидир. Мактабда чет тилини ўрганишнинг асосий мақсади коммуникатив компетенцияни шакллантиришдир, бошқа барча мақсадлар (тарбиялаш, ўқитиш, ривожлантириш) ушбу асосий мақсадни амалга ошириш жараёнида амалга оширилади. Коммуникатив ёндашув мулоқотни ўргатиш ва Интернет фаолиятининг асоси бўлган маданиятлараро таъсир ўтказиш қобилиятини шакллантиришни ўз ичига олади. Алоқа ташқарисида Интернетнинг маъноси ёъқ - бу халқаро кўп миллатли, маданиятлараро жамиятдир, унинг ҳаёти дунёдаги миллионлаб одамларнинг электрон алоқасига асосланган бўлиб, бир вақтнинг ўзида гаплашмоқда - бу содир бўлган иштирокчилар сони ва ҳажми бўйича энг катта суҳбат. Унга дарсда қатнашиш хорижий тил, биз ҳақиқий алоқа моделини яратамиз.

Ҳозирги вақтда алоқа, интерактивлик, мулоқотнинг ҳақиқийлиги, маданий шароитда тилни ўрганиш, таълимнинг автономлиги ва инсонпарварлиги масалаларига устувор аҳамият берилмоқда. Ушбу тамойиллар маданиятлараро компетенцияни коммуникатив қобилиятнинг таркибий қисми сифатида ривожлантиришга имкон беради. Чет тилларни ўқитишнинг якуний мақсади чет тилидаги муҳитда эркин ёъналишни ва турли вазиятларда этарли даражада жавоб бериш қобилиятини ўргатишдир, яъни. алоқа. Бугунги кунда Интернет ресурсларидан фойдаланган ҳолда янги усуллар анъанавий чет тилларини ўқитишга қарши. Чет тилида мулоқотни ўргатиш учун сиз материални ўрганишни рағбатлантирадиган ва этарли хулқ-атворни ривожлантирадиган ҳақиқий, ҳақиқий ҳаётий вазиятларни яратишингиз керак (яъни алоқа ҳақиқийлиги принципи деб аталади). Янги технологиялар, хусусан Интернет ушбу хатони тузатишга ҳаракат қилмоқда. Коммуникатив ёндашув - бу материални онгли равишда англашга ва у билан ишлаш усулларига, мулоқотга психологик ва лингвистик тайёргарликни яратишга қаратилган мулоқотни симуляция қилувчи стратегия. Фойдаланувчи учун Интернетда коммуникатив ёндашувни амалга ошириш айниқса қийин эмас. Коммуникатив вазифа талабаларга муаммо ёки саволни муҳокама қилиш учун таклиф қилиши керак, талабалар нафақат маълумот алмашадилар, балки уларни баҳолайдилар. Ушбу ёндашувни ўқув фаолиятининг бошқа турларидан ажратиб олишга имкон берадиган асосий мезон - талабалар ўз фикрларини шакллантириш учун мустақил равишда лисоний бирликларни танлашидир. Коммуникатив ёндашувда Интернетдан



фойдаланиш жуда яхши рағбатлантирилади: унинг мақсади ўқувчиларга билим ва тажрибаларини тўплаш ва кенгайтириш орқали чет тилини ўрганишга қизиқишдир.

Интернет-ресурслардан фойдаланган ҳолда чет тилларини ўргатишнинг асосий талабларидан бири бу дарсда ўзаро таъсирни яратишдир, бу одатда методикада интерактивлик деб номланади. Интерактивлик - бу "нутқ воситалари ёрдамида коммуникатив мақсад ва натижадаги саъй-ҳаракатларни бирлаштириш, мувофиқлаштириш ва тўлдириш". Ҳақиқий тилни ўргатиш орқали Интернет нутқ қобилиятлари ва кўникмаларини шакллантиришга ёрдам беради, шунингдек луғат ва грамматикани ўргатишда самимий қизиқиш ва шунинг учун самарадорликни таъминлайди. Интерактивлик нафақат ҳаётдан реал вазиятларни яратибгина қолмай, балки талабаларни чет тилида уларга муносиб жавоб беришга мажбур қилади.

Ўқувчиларга ёъналтирилган таълимни таъминлайдиган технологиялардан бири бу ижодкорлик, билим фаолияти ва мустақилликни ривожлантириш усули сифатида лойиҳа услубидир. Лойиҳаларнинг типологияси хилма-хил. Лойиҳаларни монопроектлар, жамоавий, оғзаки нутқ, аниқ, ёзма ва Интернет-лойиҳаларга бўлиниши мумкин. Ҳақиқий амалиётда кўпинча тадқиқот лойиҳалари, ижодий, амалиётга ёъналтирилган ва инфорацион белгилар мавжуд бўлган аралаш лойиҳалар билан шуғулланиш керак. Лойиҳа иши тилни ўрганишда кўп қиррали ёндашув бўлиб, ўқиш, тинглаш, гапириш ва грамматикани қамраб олади. Лойиҳа усули талабаларнинг фаол мустақил фикрлашини ривожлантиришга ёрдам беради ва уларни биргаликдаги тадқиқот ишларига ёъналтиради. Менинг фикримча, лойиҳа асосида ўқитиш болаларни ҳамкорлик қилишга ўргатиши, ҳамкорлик қилишни ўрганиш эса ўзаро ёрдам ва ҳамдардлик қобилияти каби ахлоқий қадриятларни тарбиялайди, ижодкорликни шакллантиради ва талабаларни фаоллаштиради. Умуман олганда, лойиҳани ўқитиш жараёнида ўқитиш ва тарбиянинг ажралмаслиги кузатилади.

Лойиҳа усули ўқувчиларнинг мулоқот қобилиятини, муомала маданиятини, фикрларни ихчам ва осон шакллантириш қобилиятини, алоқа шерикларининг фикрига тоқат қилишни, турли хил манбалардан маълумот олиш қобилиятини ривожлантиради, замонавий компьютер технологияларидан фойдаланган ҳолда қайта ишлайди, табиий эҳтиёж пайдо бўлишига ҳисса қўшадиган тил муҳитини яратади. чет тилидаги алоқада.

Ишнинг лойиҳа шакли талабаларга мавзу бўйича тўпланган билимларни қўллашга имкон берадиган энг долзарб технологиялардан биридир. Талабалар ўзларининг

уфқларини, тилни билиш чегараларини кенгайтирадилар, ундан амалий фойдаланиш тажрибаларини тўплайдилар, чет тилидаги нутқни тинглашни ва эшитишни ўрганадилар, лойиҳаларни ҳимоя қилишда бир-бирларини тушунадилар. Болалар маълумотномалар, луғатлар, компьютер билан ишлашади ва шу билан чинакам тил билан бевосита алоқа қилиш имкониятини яратадилар, бу эса синфда фақат дарслик ёрдамида тил ўрганишни таъминламайди.

Лойиҳада ишлаш - бу ижодий жараён. Талаба мустақил равишда ёки ўқитувчи раҳбарлиги остида муаммонинг эчимини излайди, бунинг учун нафақат тилни билиш, балки катта миқдордаги предметли билимларга эга бўлиш, ижодий, коммуникатив ва интеллектуал кўникмаларга эга бўлиш талаб этилади.

Хорижий тиллар жараёнида лойиҳа усули деярли ҳар қандай мавзу бўйича дастур материаллари доирасида ишлатилиши мумкин. Лойиҳалар устида ишлаш тасаввур, фантазия, ижодий фикрлаш, мустақиллик ва бошқа шахсий фазилатларни ривожлантиради.

ТО замонавий технологиялар ҳамкорлик технологияси ҳам амал қилади. Асосий ғоя турли хил ўқув шароитида талабаларнинг фаол қўшма фаолияти учун шароит яратишдир. Болалар 3-4 кишилик гуруҳларга бирлашадилар, уларга битта топшириқ берилади, шу билан бирга ҳар бирининг роли муҳокама қилинади. Ҳар бир талаба нафақат ўз ишининг натижаси учун, балки бутун гуруҳнинг натижаси учун ҳам жавобгардир. Шунинг учун кучсиз талабалар кучли бўлмаган нарсалардан тушунмаган нарсаларини аниқлашга ҳаракат қилишади ва кучли талабалар кучсизларга топшириқни пухта тушунишга интилишади. Ва бутун синф бундан фойда олади, чунки бўшлиқлар биргаликда ёпилади.

ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Ахборот технологияларини ўқитишга жорий этиш, ахборотни идрок этиш ва қайта ишлаш жараёнини анча диверсификация қилади. Компьютер, Интернет ва мультимедия туфайли ўқувчиларга кейинги таҳлил қилиш ва саралаш билан катта ҳажмдаги маълумотларни ўзлаштириш учун ноёб имконият яратилди. Таълим фаолиятининг мотивацион асослари ҳам сезиларли даражада кенгаймоқда. Мультимедиядан фойдаланиш шароитида талабалар газеталардан, телевизордан маълумот олишади, ўзлари интервьюлар ўтказадилар ва телеконференциялар ўтказадилар.

Тил портфели технологиясида чет тилини билиш даражасини баҳолашнинг асосий мезонлари синов ҳисобланади. Ушбу технологиянинг устувор ёъналиши таълим жараёнини ўқитувчидан ўқувчига ёъналтиришдир. Ўқувчи, ўз навбатида, унинг билим фаолияти натижалари учун онгли равишда жавобгардир. Юқоридаги технология талабаларнинг маълумотни мустақил равишда ўзлаштириш кўникмаларини босқичма-босқич шакллантиришга олиб келади. Умуман олганда, тил портфели кўп функционал бўлиб, кўп тиллиликнинг ривожланишига ҳисса қўшади.

REFERENCES

1. Жоҳнсон, К. Э. Тхе Сосиосултурал Турн анд Итс Чалленгес фор Сесонд Лангуаге Теачер Эдусатион. // ТЕСОЛ Қуартерлий., – Лондон., 2006.
2. Ҳармер Ж. Тхе Прастисэ оф Энглиш Лангуаге Теачинг. – Лондон., 2001.
3. Интернет манбалари.
4. Sutrina, John Joseph, "Literary criticism contained in the works of Mark Twain" (1951). Graduate Student Theses, Dissertations, & Professional Papers. 2854. <https://scholarworks.umt.edu/etd/2854>. - 21p.
5. Қуйирокда улардан бири, Томнинг Сахро Кабирга ҳаво шаҳридаги саёхати ҳақида фикр юритилади.
6. Старцев А. Марк Твен и Америка./Твен, Марк. Собрание сочинений в восьми томах. Том 1. – Моксва: Правда, 1980. – 3-4 с.(401).
7. Марк Твен. Том Соьернинг янги саргузаштлари. - Тошкент: Ёш гвардия, 1980. www.ziyouz.com.kutubxonasi.
8. Kurbanova, M. M., & Ataeva, G. B. (2020). Problems facing efl teachers in mixed ability classes and strategies used to overcome them. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 01 (81), 721-725.
9. Курбанова, М. М. (2021, December). ГЕКЛЬБЕРРИ ОБРАЗИ ВА БАДИИЙ МАКОН МАСАЛАСИ. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online) (Vol. 1, No. 2)*.
10. Ataeva, G. B., & Kurbanova, M. M. (2019). EFL (ESL) AND ESP AS A SUBJECT AT HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. In *НАУКА-ЭФФЕКТИВНЫЙ ИНСТРУМЕНТ ПОЗНАНИЯ МИРА* (pp. 6-8).
11. Ataeva, G. B., & Kurbanova, M. M. THE ROLE OF GRAMMAR TRANSLATION METHOD IN MODERN LANGUAGE TEACHING. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych.*, 73.
12. Mamadjanovna, K. M., & Nodirjon o'g'li, N. N. METHODS OF TEACHING RAILWAY TERMINOLOGY IN A FOREIGN LANGUAGE. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych.*, 189.

ЁШЛАРНИ ДУНЁҚАРАШИНИ ШАКЛЛАНИШИДА ҒОЯВИЙ ТАРБИЯНИНГ АҲАМИЯТИ

Муҳаббат Мамаджановна Курбанова

Тошкент давлат транспорт университети ўқитувчиси

Ҳ. Ғ. Халиллаев, Н. Н. Кукламов, Л. С. Эгамбердиев

Ташкент давлат транспорт университети талабалари

АННОТАЦИЯ

Мақолада Дунё цивилизациялари ривожда инсоннинг маънавий-ахлоқий камолоти, Ғоявий тарбия масаласи ҳар бир давр ва жамиятга хос бўлиб, бунда давлат ва жамият олдида маъсулиятни шакллантирадиган ва унга таъсир ўтказадиган барча омил ва мезонларни чуқур таҳлил қилиб, уларнинг бу борада қандай ўрин тутишини яхши англаб олиш мақсади ҳам ётади. Ҳар қайси халқ ёки миллатни унинг тарихи, ўзига хос урф-одатлари ва анъаналари, ҳаётий қадриятларидан айри ҳолда тасаввур этиб бўлмайди. Бу борада, табиийки, маънавий мерос, маданий бойликлар, кўхна тарихий ёдгорликлар энг муҳим омиллар сифатида хизмат қилади.

Таянч сўзлар: Инсон маънавий-ахлоқий камолоти, Ғоявий тарбия масаласи, Ислом дини, давлат ва жамият, оммавий маданият, халқимизнинг юксак маънавияти, адолатпарварлик, маърифатпарварлик.

КИРИШ

Ғоявий тарбия масаласи ҳар бир давр ва жамиятга хос бўлиб, бунда давлат ва жамият олдида маъсулиятни шакллантирадиган ва унга таъсир ўтказадиган барча омил ва мезонларни чуқур таҳлил қилиб, уларнинг бу борада қандай ўрин тутишини яхши англаб олиш мақсади ҳам ётади. Ҳар қайси халқ ёки миллатни унинг тарихи, ўзига хос урф-одатлари ва анъаналари, ҳаётий қадриятларидан айри ҳолда тасаввур этиб бўлмайди. Бу борада, табиийки, маънавий мерос, маданий бойликлар, кўхна тарихий ёдгорликлар энг муҳим омиллар сифатида хизмат қилади. Масалан, шу заминдан етишиб чиққан буюк зотлар, олиму уламолар, сиёсатчи ва саркардалар, умумбашарий цивилизация ва маданиятнинг узвий қисмига айланиб кетган дунёвий ва диний илмларнинг, айниқса, ислом дини билан боғлиқ билимларнинг тарихан энг юқори босқичга кўтарилишида она юртимизда туғилиб камолга етган улуғ алломаларнинг хизматлари катта. Бу



кўхна тупроқда милодгача бўлган даврда ва ундан кейин қурилган мураккаб иншоотлар, ҳали-ҳануз ўзининг кўрку тароватини сақлаб келаётган осори атиқаларимиз қадим-қадимдан ўлкамизда деҳқончилик ва ҳунармандчилик маданияти, меъморлик ва шаҳарсозлик санъати юксак даражада ривожланганидан далолат беради ва мамлакатимиз ҳудудида мавжуд бўлган тўрт мингдан зиёд моддий-мафкуравий обида умумжаҳон меросининг ноёб намунаси сифатида ЮНЕСКО рўйхатига киритилгани ҳам бу фикрни тасдиқлайди. Бундай ўлмас осори атиқалар бу кўхна ўлкада, бугун биз яшаб турган тупроқда қадимдан буюк маданият мавжуд бўлганидан гувоҳлик беради ва табиийки, инсоннинг ғоявий дунёсини шакллантиришда қандай кучли таъсирга эга бўлганига эътиборимизни жалб қилади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Ғоявий тарбияда халқ оғзаки ижоди муҳим ўрин тутиб, у миллатимизнинг ўзлигини намоён этадиган, уни авлодлардан авлодларга ўтказиб, тарих тўфонларидан, ҳаёт-мамот синовларидан омон чиқариб, ўзлигини доимо сақлаб келаётган эл-юртимизнинг бағрикенглик, матонат, олижаноблик, вафо ва садоқат каби эзгу фазилатларини ўзида ифода этади. Шу ўринда ғоявий тарбия мезонларидан бири бўлган муқаддас динимизнинг аҳамияти беқиёсдир. Дин азалдан инсон маънавиятининг таркибий қисми сифатида одамзоднинг юксак идеаллари, ҳақ ва ҳақиқат, инсоф ва адолат тўғрисидаги орзу-армонларини ўзида мужассам этган, уларни барқарор қоидалар шаклида мустаҳкамлаб келаётган ғоя ва қарашларнинг яхлит бир тизимидир.

Ҳар бир илмий янгилик, яратилган кашфиёт - бу янгича фикр ва дунёқарашга туртки беради, ғоявий тарбия мезонлари шаклланишига ўзига хос таъсир ўтказади. Шу нуқтаи назардан қараганда, заминимизда яшаб ўтган буюк алломаларимиз, мутафаккир боболаримизнинг ибратли ҳаёти ва фаолияти, бемисл илмий-ижодий кашфиётлари бугун ҳам жаҳон аҳлини ҳайратга солаётганини ғурур билан таъкидлаш лозим. Жамият эса ўз заминининг мутафаккирлари, дини ва кашфиётлари, маърифат, илму фан, маданият каби соҳаларидан буларнинг барчасини ўзида уйғунлаштирган халқимизнинг ғоявий олами нақадар бой ва ранг-баранг эканини исботлаб беришда, уни намуна қилиб кўрсатишда фойдаланади. Бундай ноёб ва бебаҳо бойликни ҳар томонлама чуқур ўрганиш, унинг маъно-мазмунини авлодларга етказиш масаласи барча, биринчи галда, зиёлилар, бутун жамоатчилик учун ҳам қарз, ҳам фарз ҳисобланади.

Ҳар қайси миллатнинг ўзига хос мафқурасини шакллантириш ва юксалтиришда, ҳеч шубҳасиз, **оиланинг ўрни ва таъсири** беқиёсдир. Чунки инсоннинг энг соф ва покиза туйғулари, илк ҳаётий тушунча ва тасаввурлари биринчи галда оила бағрида шаклланади. Боланинг характери, табиати ва дунёқарашини белгилайдиган мафқуравий мезон ва қарашлар — яхшилик ва эзгулик, олижаноблик ва меҳр-оқибат, ор-номус ва андиша каби муқаддас тушунчаларнинг пойдевори оила шароитида қарор топиши табиийдир. Шунинг учун ҳам айнан оила муҳитида пайдо бўладиган ота-онага ҳурмат, уларнинг олдидаги умрбод қарздорлик бурчини чуқур англаш ҳар қайси инсонга хос бўлган одамийлик фазилатлари ва оилавий муносабатларнинг негизини, оиланинг ғоявий асосини ташкил этади.

Ғоявий тарбия мезонлари ҳақида сўз кетганда, **маҳалланинг ўрни ва таъсири** хусусида тўхталиш зарур. Маълумки, ўзбек маҳаллалари азалдан чинакам миллий қадриятлар маскани бўлиб келади. Ўзаро меҳр-оқибат, аҳиллик ва тотувлик, эҳтиёжманд, ёрдамга муҳтож кимсалар ҳолидан хабар олиш, етим-есирларнинг бошини силаш, тўй-томоша, ҳашар ва маъракаларни кўпчилик б-н бамаслаҳат ўтказиш, яхши кунда ҳам, ёмон кунда ҳам бирга бўлиш каби халқимизга хос урф-о. ва анъаналар, авваламбор, маҳалла муҳитида шаклланган ва ривожланган. Халқимизга хос ўзини ўзи бошқарув тизимининг бу ноёб усули қадим-қадимдан одамларнинг нафақат тилида, балки дилида, бутун ҳаётида чуқур жой эгаллагани бежиз эмас. «Маҳалла — ҳам ота, ҳам она» деган ҳикматли нақл ана шу ҳаётий ҳақиқатнинг ифодаси сифатида қабул қилинади. Ҳар қайси хонадон, бутун эл-юртдаги мафқуравий иқлим ва вазиятни англамоқчи бўлган киши, бу борадаги ҳақиқий манзаранинг ёрқин ифодасини аввало маҳалла ҳаётида худди ойнадек яққол кўриш имконига эга бўлади.

Ғоявий тарбия мезонларидан яна бири **илму маърифат, таълим-тарбия** бўлиб, уларга инсон камолоти ва миллат равнақининг энг асосий шарти ва гарови сифатида қаралган. Келажак пойдевори билим даргоҳларида яратилади, бошқача айтганда, халқнинг эртанги куни қандай бўлиши фарзандларнинг бугун қандай таълим ва тарбия олишига боғлиқ. Бунинг учун ҳар қайси ота-она, устоз ва мураббий ҳар бир бола тимсолида, аввало, шахсни кўриши зарур. Ана шу оддий талабдан келиб чиққан ҳолда, фарзандларни мустақил ва кенг фикрлаш қобилиятига эга бўлган, онгли яшайдиган комил инсонлар этиб вояга етказиш иши таълим-тарбия соҳасининг асосий мақсади ва вазифаси бўлиб қолади. Бу эса таълим ва тарбия ишини уйғун ҳолда олиб боришни талаб этади.

Таълим муассасалари Ўзбекистоннинг мустақил тараққиёт стратегияси, ўзбек халқининг буюк давлат барпо этиш борасидаги мақсад-муддаолари, миллий истиқлол ғояларини ёшлар қалби ва онгига сингдиришнинг устувор йўналишларига хизмат қилади. Бу боарда жамият ҳаётининг барча соҳаларини қамраб олиш, таълим-тарбия, тарғибот-ташвиқотнинг самарали усул ва воситаларидан оқилона фойдаланиш тақозо этилади. Бунда Кадрлар тайёрлаш миллий дастури асосида ўқувчи-талабалар онгида миллий ғоя ва миллий истиқлол мафкурасини шакллантириш ишларини узлуксиз тарзда олиб бориш, таълим муассасаларида болалар ва талабаларнинг ёшига мос равишда миллий истиқлол мафкурасини сингдиришда дифференциал педагогик-психологик дастурлар яратиш, ўқув дастурлари, дарслик ва қўлланмаларда миллий истиқлол мафкураси ғояларини теран акс эттириш, мактаб, лицей, коллеж, институт ва университетларда мафкуравий тарбияни бугунги кун талаблари даражасига кўтариш, педагог кадрларнинг мафкура борасидаги билимларини чуқурлаштириш муҳим аҳамиятга эга йўналишлардир.

Таълим-тарбиянинг ҳар бир босқичи, ўз навбатида, миллий ғояларни ёшлар қалби ва онгига сингдиришнинг ўзига хос омилларини назарда тутати.

Мактабгача таълим муассасалари. Бу ўринда ҳар бир ота-онанинг ўз фарзандининг мактабгача тарбияси унинг кейинги тараққиёт даврида қанчалик аҳамият касб этиши, бу давр узлуксиз таълим ва тарбиянинг муҳим босқичи эканини англаб этишига эришиш зарур. Бунда оиланинг мактабгача таълим муассасалари тизимида изчил уйғунлашувига эришишни назарда тутиш керак. Бу даврдаги барча мактабгача таълим-тарбия муассасалари болалардаги умумий саводхонлик ва мактабдаги таълим-тарбияга тайёрлаш жараёнининг муҳим ва зарурий босқичи сифатида қаралиши лозим.

Бевосита **таълим берувчи муассасалар** (мактаблар, лицей, касб-ҳунар коллежлари, олий ўқув юртлари) мафкуравий тарбиянинг асосий ўчоқларидир. Уларнинг барчасида амалга ошириладиган мафкуравий таълим жараёнида, барча ўқув қўлланмалари ва дарсликлар, кўшимча адабиётларда қуйидаги омиллар устувор аҳамият касб этиши лозим. Шу билан бирга Ватанга садоқат туйғусини шакллантириш; она тилимизга муҳаббат уйғотиш, миллий кадриятларга ҳурмат қилиш ва эъзозлаш, эзгулик тимсоли бўлган аёлни улуғлаш, оиланинг ватанпарварлик ҳиссини тарбиялашдаги ролини кўрсатиш, маҳалланинг демократия дарсхонаси ва ўз-ўзини бошқариш мактаби эканини тушунтириш, муҳим аҳамият касб этади. Бундан ташқари, умуминсоний кадриятларнинг миллатлараро тотувлик, бағрикенглик, дунёвий илмларга интилиш ва илғор

маданиятни шакллантириш воситаси эканини уқтириш, дин ва дунёвий билимларнинг ўзаро қарама-қарши эмаслигини англашиш, маърифатнинг шахс интеллектуал салоҳиятини оширишдаги имкониятлари кенглигини исботловчи далиллар келтириш, сиёсий ва ҳуқуқий маданият соғлом дунёқарашнинг муҳим омили эканлиги тўғрисидаги маълумотларни кўпайтириш бу боардаги зарур билимларни ўзлаштиришга ёрдам беради.

ХУЛОСА

Таълимни тарбиядан, тарбияни эса таълимдан ажратиб бўлмайди. Шунинг учун ҳам мустақиллик йилларида бутун мамлакат миқёсида таълим ва тарбия, илм-фан, касб-хунар ўргатиш тизимларини тубдан ислоҳ қилишга ниҳоятда катта эътибор қаратилди. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури ишлаб чиқилди. Уни амалга ошириш жараёнида мактаб таълими, айниқса, умумтаълим мактабларининг моддий-техник базасини мустаҳкамлашга эътиборни кучайтириш кун тартибидаги энг муҳим ва жиддий масалага айланган эди. Ҳозирги кунда истиқлол даврида барпо этилган, барча шарт-шароитларга эга бўлган академик лицей ва касб-хунар коллежлари, олий ўқув юртларида таҳсил олаётган, замонавий касб-хунар ва илм-маърифат сирларини ўрганаётган, ҳозирда икки-уч тилда бемалол гаплаша оладиган минг-минглаб ўқувчилар, катта ҳаётга кириб келаётган, ўз истеъдоди ва салоҳиятини ёрқин намоён этаётган ёш кадрлар мисолида маъ-ятнинг юксалишини кузатиш мумкин ва табиийки, бундай шароитда ғоявий тарбия мезонлари ҳам даврга мувофиқлашиб боради.

REFERENCES

1. Sutrina, John Joseph, "Literary criticism contained in the works of Mark Twain" (1951). Graduate Student Theses, Dissertations, & Professional Papers. 2854. <https://scholarworks.umt.edu/etd/2854>. - 21p.
2. Қуйирокда улардан бири, Томнинг Сахро Кабирга ҳаво шахридаги саёхати ҳақида фикр юритилади.
3. Старцев А. Марк Твен и Америка./Твен, Марк. Собрание сочинений в восьми томах. Том 1. – Москва: Правда, 1980. – 3-4 с.(401).
4. Марк Твен. Том Соьернинг янги саргузаштлари. - Тошкент: Ёш гвардия, 1980. www.ziyouz.com.kutubxonasi.
5. Kurbanova, M. M., & Ataeva, G. B. (2020). Problems facing efl teachers in mixed ability classes and strategies used to overcome them. ISJ Theoretical & Applied Science, 01 (81), 721-725.



6. Курбанова, М. М. (2021, December). ГЕКЛЬБЕРРИ ОБРАЗИ ВА БАДИЙ МАКОН МАСАЛАСИ. In International journal of conference series on education and social sciences (Online) (Vol. 1, No. 2).
7. Kadamovich, Y. J., Muzaffarova, I. G., Mahmudovich, Y. B., Voxtiyarova, S. S., & Habibullayevich, S. S. (2020). Social justice as a condition of socio-spiritual stability in society. *Journal of Critical Reviews*, 7(5), 816-818.
8. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Х., Муратова, Д.А., Хасанов, М.Н., & Эрнйёзов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10), 376-386.
9. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Х., Кушаков, Файзулла Абдуллаевич., Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). ҲОЗИРГИ ДАВРДА ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ ҲАҚИДАГИ ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЛҚИНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (9), 647-656.
10. Ataeva, G. B., & Kurbanova, M. M. (2019). EFL (ESL) AND ESP AS A SUBJECT AT HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. In *НАУКА-ЭФФЕКТИВНЫЙ ИНСТРУМЕНТ ПОЗНАНИЯ МИРА* (pp. 6-8).
11. Ataeva, G. B., & Kurbanova, M. M. THE ROLE OF GRAMMAR TRANSLATION METHOD IN MODERN LANGUAGE TEACHING. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych.*, 73.
12. Mamadjanovna, K. M., & Nodirjon o'g'li, N. N. METHODS OF TEACHING RAILWAY TERMINOLOGY IN A FOREIGN LANGUAGE. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych.*, 189.

ЁШЛАРНИНГ МАЪНАВИЙ ВА МАДАНИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ УСТИВОР ВАЗИФАЛАРИ

Зебо Юлдошевна Абдурахмонова

Тошкент давлат транспорт университети ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада ёшларнинг маънавий ва маданиятини юксалтиришнинг устивор вазифалари унда давлат сиёсатининг роли кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: ёшлар, маънавият, стратегия, сиёсат, социология.

КИРИШ

Юртимиз келажаги ёш авлодлар қўлида экан, уларни ҳар томонлама етук, инсонпарвар, жамият ва табиат олдида масъулиятли шахслар этиб тарбиялаш энг устувор мақсадларимиздан биридир. Бугунги кунда мамлакатимизда амалга оширилаётган улкан ислохотларнинг замирида “Миллий тикланишдан миллий юксалиш сари” деган ҳаётий ғоя турибди. Миллий юксалиш фақатгина маънавий соҳада эмас, балки демократик жамият ва ҳуқуқий давлат, фаровон ва тинч-осуда ҳаёт, иқтисодий жихатдан барқарорлик каби ҳаётимизнинг барча соҳаларини тараққий эттиришни кўзда тутди. Бу жараёнлар давлатимиз раҳбари Ш.Мирзиёевнинг ташаббуси асосида илгари сурилган Ўзбекистонни янада ривожлантиришнинг 2017-2021 йилларга мўлжалланган ҳаракатлар стратегияси, узоқ муддатли 2030 йилга қадар мўлжалланган тараққиёт концепциясида ўз аксини топмоқда. Айниқса, “Рақамли иқтисодиёт-2030”, таълим тизимини тараққий эттиришнинг 2030 йилга қадар мўлжалланган концепцияси ва бошқалар бунинг яққол намоён этмоқда.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Ҳар бир жамият ва давлатнинг тараққиётини, уни амалга оширишга қаратилган стратегик дастур ёки концепциялар бўлмасин уларнинг барчасини амалга оширувчи куч бу инсон омилидир. Бунда бу омилнинг маънавий-руҳий, иқтисодий-ҳуқуқий, жисмоний жихатдан қўллаб-қувватланиши ва унинг имкониятлари ҳар томонлама кафолатланиши муҳим шарт ҳисобланади. Хусусан, шахс маънавий маданияти ўз ўрнида инсоннинг ҳам маънан, ҳам жисмонан ва моддий жихатдан юксалишини таъминловчи муҳим омил бўлиб хизмат қилади. Бу борада маънавий маданият жамиятнинг барча соҳалари ва тармоқларини

ривожлантиришга ҳисса қўшиш билан бирга улардан маънавий куч олади, ижобий маънода таъсирланади. Масалан, жамиятнинг бадиий соҳаси интеллектуал муаммоларни функционал равишда ҳал қиладиган маданиятнинг ихтисослашган соҳаларидан биридир. Санъат маданияти унинг муваффақиятли ишлашини таъминлайдиган барча жараёнларни ўз ичига олади. Дунёга эстетик муносабат жамият ҳаётининг ҳар қандай соҳасидаги бадиий фаолият учун зарур шартдир. Аслида, бадиий маданият ҳаёлий воқеликлар дунёсини лойиҳалаштиради, бунда одамлар эътиборини маънавий маданиятнинг ушбу мавзуда актуал бўлган ахлоқий, эстетик ва бошқа муаммоларга қаратадилар. Жамиятнинг маънавий ҳаётини таҳлил қилиш ҳозирги пайтда фалсафанинг энг муҳим муаммоларидан биридир. Бундан ташқари инсон биотизимини интеллектуал билиш, унинг ишлаши, ҳимояси ва сақланиши маънавий маданиятнинг турли шакллари орқали маънавий маданиятнинг тиббий соҳасидаги энг муҳим вазифалардир. Жисмоний ва маънавий маданиятнинг шакллари инсоннинг маданиятда қабул қилинган меъёрлар, кадриятлар ва талабларга эга бўлган қобилиятларини шакллантириш, ривожлантириш ва улардан фойдаланиш билан боғлиқ инсон фаолиятини тартибга солади. Шахс жисмоний маданиятининг маънавий кадриятларига ҳар томонлама жисмоний ривожланиш соҳасидаги махсус билимлар, жисмоний баркамоллик ғоялари, уларга қандай эришиш мумкинлиги ҳақидаги ғоялар, муайян спорт турларининг хусусиятлари, унинг тарихи, ривожланиш истиқболлари ва бошқалар киради. Жисмоний маданият - бу иқтисодиёт, экология, сиёсий бошқарув, тиббиёт, педагогика, санъат маданияти, фан билан чамбарчас боғлиқ бўлган ижтимоий ҳодисадир.

Социологлар томонидан анъанавий равишда жамиятни тўртта катта соҳага - иқтисодий, ижтимоий, сиёсий ва маънавий соҳаларга бўлиб тадқиқ қилинади. Ижтимоий соҳа одамларнинг этник жамоалари (уруғ, қабила, халқ, миллат ва бошқалар), турли табақалар - хизматчилар, деҳқонлар ва бошқа ижтимоий гуруҳлар билан ифодаланади. Сиёсий соҳа ҳокимият тузилмаларини (давлат, сиёсий партиялар, сиёсий ташкилотлар ва ҳаракатлар ва бошқалар) қамраб олади. Маънавий соҳага одамларнинг фалсафий, диний, бадиий, ҳуқуқий, сиёсий, ахлоқий ва бошқа қарашлари, шунингдек, уларнинг кайфияти, ҳиссиётлари, дунё ҳақидаги ғоялари, урф-одатлари ва бошқалар киради.

Ижтимоий ҳаётнинг тўртта катта соҳаси бир-бири билан механик эмас, балки диалектик алоқадорликка эга. Улар нафақат ўзаро боғлиқ, балки ўзаро шартли равишда бир-бирларисиз ривожланмайди. Иқтисодий соҳа одамлар - синф, гуруҳ ва



бошқа муносабатларнинг ташувчисиз мавжуд бўла олмайди. Аммо бу ўринда одамлар ижтимоий онг шаклларида ташувчиси эмасми, деган савол ҳам туғилади? Аммо кейин яна бир савол туғилади: қайси ҳолда, нима учун аниқловчи омилни излаш керак? Бу омилни биринчи навбатда излаш керак, чунки жамият одамларнинг аралашувисиз автоматик равишда ўзгарадиган ва ривожланадиган механик бирлашма эмас. Одамлар ўзларининг тарихларини яратадилар ва улар ҳаётида қайси соҳалар ҳал қилувчи эканлигини билишга ҳақлидирлар.

Бу борада Арасту “Ахлоқий кабр” асарида қуйидагича келтириб ўтган. “Ўртачадан узоқ турган нарса фазилатга энг кўп зид келади. Фазилат мўтадилликдир. Фазилат қарама-қарши хислат ва майлларнинг ўртасидаги ҳолатдир. Икки сабабга кўра, биз муътадилликка ё ортиқчаликни, ё камликни зид деб биламиз. Биринчи ҳолда, инсоннинг муайян руҳий ҳолати ёки феъл-атвори ўртачага (муътадилликка) яқинми ёки узоқми эканлигига қараб, ҳукм чиқарамиз. Иккинчи бир ҳолатда эса, инсон табиатида қайси нарса кўпроқ бўлса, фазилат ҳисобланувчи муътадилликнинг зидди ҳисобланади”[2].

Демак, «ахлоқ» ва «маънавият» ҳамда «фазилат» бир-бирига чамбарчас боғлиқ тушунчалардир. Шунинг учун ҳам инсоний фазилатлар юксак ахлоқ ва маънавият асоси ҳисобланади. Ахлоқ ва маънавият масалаларини ҳар тарафлама қамраб олиб, таҳлил қилиш борасида биринчи Президентимиз Ислом Каримовнинг «Юксак маънавият – энгилмас куч» асаридан келтирилган. Халқимизнинг турмуши ва тафаккур тарзидаги бошқаларга асло ўхшамайдиган, минг йиллар мобайнида шаклланган бир қатор ўзига хос жиҳатлар ҳақида тўхталар экан, муаллиф шундай ёзади: «Мисол учун, тилимиздаги меҳр-оқибат, меҳр-муҳаббат, меҳр-шафқат, қадр-қиммат деган, бир-бирини чуқур маъно-мазмун билан бойитадиган ва тўлдирадиган ибораларни олайлик. Қанчалик ғалати туюлмасин, бу ибораларни бошқа тилларга айнан таржима қилишнинг ўзи мушкул бир муаммо» [3] Шу парчанинг ўзида меҳр-оқибатлилик, меҳр-муҳаббат кўрсатиш, меҳр-шафқат қилиш, қадр-қимматни билиш каби инсоний фазилатлар ҳақида сўз боряпти. Жамият онги, давлат, ижтимоий соҳа ва бошқа иқтисодий бўлмаган омиллар мустақилликка эга, ўз ривожланиш қонуниятлари ва мантиғига ҳам эга. Шундай қилиб, маънавиятнинг ривожланиши ҳар қандай мамлакатнинг иқтисодий асосига тўғри келиши шарт эмас. Иқтисодий жиҳатдан орқада қолган мамлакатда маънавият, тарбия қабилар маънавий ҳаётнинг ўзига хос соҳаси сифатида ривожланиб бориши мумкин.

Ўзбекистонда давлатнинг барқарорлигини, тинчлиги, тараққиёти, ҳарбий қудрати, иқтисодий ўсиш кўрсаткичлари, миллий манфаатлари хавфсизлиги масалалари жамият ва давлатнинг асосий фаолияти манбалари, яъни инсон омилига боғлиқ эканлигини алоҳида таъкидлаб ўтиш лозим. Бу замонавийлашув жараёнида муҳим рол ўйнайди. Инсон омилининг онги, маданияти, фикрлаш даражаси шу давлат ва жамиятнинг манфаатлари, кадриятлари, тарихий ўтмишини ўзида мужассамлаштирган миллий ғоя ва мафкуралар, қарашлар сифатида аҳолига етказилади ва сингдирилади. Бу вазифа эса аввало ижтимоий институтлар, айниқса оила, кадриятлар, урф-одатлар орқали амалга оширилади. Шарқ халқлари, хусусан, Ўзбекистон мисолида бу ибора жамиятнинг асосий негизи сифатида ҳанузгача катта аҳамият касб этмоқда.

Умуман олганда, маънавий тараққиётни таъминлашнинг ижтимоий манбаларига қуйидагиларни киритиш мумкин: оилани, болалар боғчасини, мактабни, кутубхоналарни, музейларни, маданий марказларни, театр, кино, ОАВ, ижтимоий ташкилотларни (ижодий уюшмалар), ишлаб чиқариш корхоналарини, давлат органларини, халқаро институтлар ва бошқалар шулар жумласидандир. Уларнинг барчаси турли даражада ва турли томонлардан инсон дунёқарашининг ривожланиши ва маънавий камолотига таъсир кўрсатади. Шунинг учун ҳам Р.А.Умрзоқова “Тарбия шаклларида жамиятдаги турли махсус бўғинлар масъул бўлса-да, оила барча шакллардаги тарбия жараёнида тўлдирувчи, мустаҳкамловчи бўғин сифатида намоён бўлади. Ёшларга сингдирила бошланган янги ғоя ва қарашлар оила муҳитида мазмунан бойитилади”, деб таъкидлайди. Кутубхоналар ва музейлар маънавий кадриятларни амалга оширилишига йўналтирилган ижтимоий ташкилотлар сифатида ташкил қилинган. Улар бугунги кунда ҳам шу кадриятларни амалга оширилишига имкон яратиши мумкин, бироқ бу йўналтирилганликни доимий равишда янгилаб туриш зарур. Ҳозирги кунда анъанавий маънавий ташкилотларда кўнгилочар тижорат манфаатлари устун бўлиб, уларнинг ишида қолоқ, давр талабидан йироқ нарсалар жуда кўп. Шунингдек постмодернизм хавфи ҳам мавжуд, у руҳан тўлиқ шакланмаган одамларга синдирувчи таъсир кўрсатади. Постмодернизм фақатгина маъноларнинг ривожланган маънавий тизимларинигина мустаҳкамлаши мумкин. Инсонга жамият томонидан тақдим қилинадиган маънолар: ўз истакларини қондириш, истеъмолчилик, насл қолдириш, танланган касбида муваффақиятга эришиш ва ҳоказо.

Агар миллий тараққиётнинг ибтидоси таълим-тарбия, маънавий етуклик ва жамиятда янгича тафаккурнинг шаклланиши сиёсий ва ҳуқуқий маданиятнинг ўзгариши билан боғлиқ бўлса, унинг давомийлиги Ватан ва юрт манфаатининг устуворлиги ҳамда таъминланиши билан уйғунлашиб кетади. “Маданияти ҳозирадан маҳрум қолуб, саноеъ ва маориф салоҳи ила қуролланмаган миллат эса, дунёда роҳат ва саодат юзини кўролмас. “Муборизаи ҳаёт” майдонида мутлақо мағлуб бўлур, оёқлар остида эзилур, диний, иқтисодий ишларда ўзгаларнинг асири бўлуб, бора-бора миллият ва диёнатини ҳам қўлдан берур. Ана ушбу йўллар ила охири махв ва нобуд бўлуб кетар. Биноан алайх, ер юзидаги барча миллатлар ўз болаларини ибтидоий тарбиясиға ва мактабларнинг ҳар жиҳатдан интизом ва акмолиға аҳамият беруб болаларини миллий ва диний руҳда мукаммал суратда етушдурарлар. Шунинг учун Туркистон мусулмонлариға ибтидоий мактабларни кўпайтирмоқ лозимдур.” Шундай экан, ижтимоий тараққиёт жараёни кўпроқ ёшлар ва уларнинг маънавий, интеллектуал салоҳияти, сиёсий ва ҳуқуқий билим даражасига боғлиқдир. Бу омилларни тўғри англаган ҳолда мамлакатимизнинг ҳозирги тараққиёт босқичида 2018 йил 30 сентябрда ПҚ-3955 сонли “Мактабгача таълим тизимини бошқаришни такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида”ги Қарори, 2019 йил 8 майда “Мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси” қабул қилиниши, ёшларимизга болалиқданок она Ватанга муҳаббат ва садоқат руҳини шакллантиришдан иборатдир.

Дарҳақиқат, ҳар бир мамлакатда аҳолининг ижтимоий-сиёсий фаоллиги маънавий интеллектуал салоҳияти жамият тараққиётини белгиловчи муҳим омиллардан биридир. Давлат ва жамият бошқарувида фуқароларнинг айниқса, ёшларнинг иштироки уларнинг объектив воқеликка муносабатида тўла намоён бўлади. Бошқарув жараёнидаги бундай муносабат ҳар бир инсоннинг жамият сиёсий ҳаётида ўз ўрнига эга бўлиши, ижтимоий, сиёсий, иқтисодий мақсад ва манфаатларини қондириши ҳамда, уларни амалга ошириш йўлидаги ҳаракатлари асосида юз беради. Жамиятда янгича муносабатлар таркиб топаётган ҳозирги даврда ёшларнинг ижтимоий-сиёсий ҳаётда иштирок этиш имкониятлари кенгайган.

Бизга маълумки, ҳозирги кунда дунёдаги ҳар қандай давлатнинг обрўси ва нуфузи, куч-қудрати, унинг моддий бойликлари, иқтисодий тараққиёти, ҳарбий қуввати билан эмас, балки аввало, юксак маънавий салоҳияти билан ҳам белгиланади. Халқнинг, миллатнинг маънавий-маърифий бойлиги эса ҳар томонлама етук истеъдодли ва

қобилиятли, ахлоқли ва билимли ёшлар томонидан ривожлантирилади. Лекин шундай бўлсада масаланинг яна бир томони ҳозирги тез суръатлар билан дунё ҳамжамиятида ривожланиб бораётган давлатларнинг баркамол авлод тарбиясида уларга салбий таъсир қилиши мумкин бўлган омиллардан доимий равишда ҳимоялаш долзарб масаладир. Ўзбекистонда аҳолининг ўртача ёши 24 ёшни ташкил этади. Биз учун ҳеч қачон кун тартибидан тушмайдиган яна бир ўта муҳим масала борки, унга алоҳида тўхталиб ўтишни зарур. У ҳам бўлса, униб-ўсиб келаётган ёш авлодимиз, фарзандларимиз тарбияси билан боғлиқдир. Буюк бобомиз Абдулла Авлоний айтганидек, бу масала биз учун ҳақиқатдан ҳам ё нажот, ё ҳалокат, саодат, ё фалокат масаласидир ва ўз долзарблиги ва аҳамиятини ҳеч қачон йўқотмайдиган, таъбир жоиз бўлса, масалаларнинг масаласидир. Демак, мамлакатимизда ёшларнинг жамият тараққиётига нисбатан онгли муносабати, ундаги иштироки ва фаоллигисиз миллий тараққиётни тасаввур қилиш қийин. Ўзбекистон шароитида ёшларга ижтимоий тараққиётнинг муҳим «катализатори» сифатида қаралишининг энг асосий сабабларидан бири ҳам улар таркиби, онги ва дунёқараши билан боғлиқ. Негаки, ёшлар дунёқараши бугунги янгиланишлар жараёнида шаклланиб бормоқда. Шу сабаб ҳам давлат сиёсатида бу масалага алоҳида ёндашилмоқда.

Ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамияти шароитида сиёсий фаоллик кўпроқ ёшлар ташкилотлари, маънавият ва маърифатга дахлдор жамоат ташкилотлари, таълим муассасалари, маҳалла, оила каби фуқаролик жамияти институтлари ўртасида ўзаро мустаҳкам алоқа боғланишини талаб этади. Умуман бугунги демократик жараёнлар чуқурлашаётган, фуқаролик жамияти институтлари мавқеи кучаяётган шароитда ҳар қандай масаланинг ечимида давлат ва жамият ўртасида уйғунлик таъминланмас экан, ислохотларда керакли натижаларни қўлга киритиш мушкул. Демак, ислохотлар ва уларнинг самараси аввало аҳолига, Ўзбекистон шароитида эса ёшларга, уларнинг давлат ва жамият бошқарувидаги иштирокининг, яъни сиёсий фаоллигининг даражасига боғлиқдир. Жамият тараққиётида инсон омили хусусида дунё тажрибасидан мисол келтирсак, иккинчи жаҳон урушида ҳонавойран бўлган Германия ва Япония каби давлатлар бугунги кун тараққиётида инсон омилининг нақадар катта куч бўла олишини исботлади.

Инсон маънавий маданиятига салбий таъсир кўрсатадиган энг катта таҳдидлардан бири бу – коррупциядир. Бугун дунё тажрибаси шуни кўрсатадики, давлат доирасидаги йирик коррупцион жиноятлардан кўра маиший коррупция катта йўқотишларга олиб келади. Жумаладан, таълим тизимидаги оддийгина



сессиядаги “баҳо олиш” жараёни келгусида катта-катта ижтимоий ларзаларга сабаб бўлиши мумкин. Жанубий Африка Республикаси Стелленбосс университети пештоқида куйидаги ибора ёзиб қўйилган: «Ҳар қандай миллатни йўқ қилиш учун атом бомбаси ёки узоқ масофали ракета шарт эмас. Бунинг учун таълим сифатини тушириб, имтиҳонларга алдов аралаштиришнинг ўзи кифоядир. Бу тарзда таълим олган шифокорлар қўлидан беморлар ўлим топади, курувчилар қурган уй ва бинолар вайрон бўлади, иқтисодчи ва ҳисобчилар қўлида молиявий ресурслар совурилади, адолат ҳам шундай ҳуқуқшунос ва судьялар қўлида заволят топади». Таасуфки, олий таълим тизимида асосан талабалик сафига қабул қилиш, ўқиш жараёнида топшириладиган турли синовлар, талабаларнинг битирув малакавий иши ёки магистрлик диссертациясини тайёрлаш ва ҳимоя қилиш, магистратурага қабул, шунингдек, талабаларнинг ўқиш жойини кўчириш, ўқиш йўналишини ўзгартириш ҳамда ўқишга қайта тиклашда коррупция ҳолатлари кузатилмоқда.

Давлатимиз раҳбари бу каби муаммоларнинг олдини олиш борасида куйидаги мулоҳазани илгари сурган эди: “Коррупцияга қарши курашишда аҳолининг барча қатламлари, энг яхши мутахассислар жалб қилинмас экан, жамиятимизнинг барча аъзолари, таъбир жоиз бўлса, “ҳалоллик вакцинаси” билан эмланмас экан, ўз олдимизга қўйган юксак марраларга эриша олмаймиз. Биз коррупциянинг оқибатлари билан курашишдан унинг барвақт олдини олишга ўтишимиз керак”. Чунки, коррупция давлатни ичидан емирувчи ҳамда миллий хавфсизлигимизга таъсир ўтказадиган хатарли таҳдид ва унга қарши курашиш барчамизни олдимиздаги вазифадир.

Немис ва япон халқи урушдан кейинги оч-наҳорликларга, муҳтожликларга қарамай, барча топганларини ёшлар камолотига, уларнинг таълим ва тарбияси учун сарфлаган. Бунинг устига ғолиб давлатлар кўрган зарарларни ҳам ана шу халқлар тўлаши керак бўлди. Ана шундай оғир шароитда Японияда сиёсий, иқтисодий инқирозга учраган мамлакатни тушкунликдан олиб чиқишнинг бирдан-бир йўли сифатида халқ миллий руҳиятини тиклаш, таълим тизимини янги асосда йўлга қўйишга эътибор қаратилди. «Халқнинг қорнини тўйдириш учун, аввало унинг миясини тўйдириш керак» деган ўзига хос шиор ва ғоя илгари сурилди. Бу ғоя «мияси тўйган халқнинг қорни ўз-ўзидан тўяди» деган тамойил асосида амалга оширила бошланган. «Мияси тўйган» халқнинг эътиқоди, мамлакат истиқболига ишончи, ватанпарварлик ва миллатпарварлик туйғуси, илмий, маданий савияси, касбий маҳорати, мамлакат олдидаги бурч ва масъулиятини англаш туйғуси қанчалик

юқори ва мустаҳкам бўлишини немис ва япон халқларининг тарихий тажрибаси тасдиқламоқда. Демак, жамият тараққиётнинг қайси босқичида бўлмасин, унинг ривожини юксак даражадаги ижтимоий-сиёсий фаоллик ҳамда фуқароларнинг маънавий камолоти орқали амалга ошади.

ХУЛОСА

Дунё тажрибаси шуни кўрсатмоқдаки, қачонки демократик тамойиллар кўпроқ қуйидан юқorigа қараб такомиллашиб борса, у ўзига хос кадрият даражасига кўтарилади. Зеро жамият аъзолари кундалик ҳаётида акс этмайдиган демократия турмуш тарзимизнинг таркибий қисмига ҳам айлана олмайди. Бу эса узок муддатли жараён. Жамият сиёсий ҳаётини эркинлаштириш ва демократлаштириш шохма-шошарлик билан амалга ошириладиган жараён эмас. Агар ушбу ҳолат босқичма-босқич мунтазам амалга оширилмайдиган бўлса, турли хавфли, нохуш оқибатларни келтириб чиқариши мумкин. Ёшлар ижтимоий-сиёсий онгини ўстириш ва янгича дунёқарашини шакллантириш масалалари маънавий етукликка асосланган ҳамкорлик, ҳамжиҳатлилик, ҳамфикрлилик омиллари турли инқирозли ҳолатлар, тўқнашувларнинг олдини олиш жараёнида намоён бўлади. Бу эса тараққиётнинг тадрижийлиги ва самаралилигига олиб келади.

REFERENCES

1. Ш.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.35.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги ПФ-60-сонли Фармони Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон.
3. Абу Наср Форобий —«Фозил одамлар шахри». А. Қодирий номидаги халқ мероси
4. J. S. Ramatov, M. Hasanov MAFKURAVIY AXLOQ TARBIYASINING ANAMIYATI // Pedagogik fanlar boyicha akademik tadqiqotlar. 2022 yil. 6-son. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mafkuraviy-ta-didlarni-oldini-olishda-ahlo-iy-tarbiyaning-a-amiyati> (kirish sanasi: 04.10.2022).
5. Ж. С. Раматов, & М. Ҳасанов (2022). МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР – ЖАМИЯТИМИЗ БАРҚАРОРЛИГИ ВА ЁШ АВЛОД ТАРБИЯСИНING МУҲИМ ОМИЛИ. Academic research in educational sciences, 3 (6), 973-979.

6. Ramatov, J.S., & Khasanov, M.N. (2022). HISTORY OF RAILWAY CONSTRUCTION IN UZBEKISTAN: YESTERDAY AND TODAY. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (6), 925-930.
7. Ж. С. Раматов, & М. Н. Ҳасанов (2022). АБУ НАСР ФОРОВИЙНИНГ ЖАҲОН ИЛМ-ФАН ТАРАҚҚИЁТИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ ВА УНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ АҲАМИЯТИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 1), 648-653.
8. Журабоев, Носир Юсупович, & Ҳасанов, Миршод Нўъмонович (2022). ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ СОҲА РИВОЖИ: ИСЛОҲОТ ВА ИСТИҚБОЛ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (6), 1274-1283.
9. У.К.Эрниёзов, М.Н. Ҳасанов, & Х.С.Машарипов. (2022). АБУ НАСР ФОРОВИЙНИНГ ИЖТИМОИЙ-АХЛОҚИЙ ТАЪЛИМОТИ ВА УНИНГ АНТРОПОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 4(3), 130–136.
10. Ж. С. Раматов, М. Ҳасанов, & Л. А. Валиев (2022). ИНСОН ДУНЁҚАРАШИНИНГНИНГ ДИНИЙ ВА ДУНЁВИЙ ТАЛҚИНИ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2 (7), 78-82.
11. J. S. Ramatov, M. Hasanov AL-FAROBİY SIYOSIY DAVRDAGI SIYOSIY VA IJTIMOİY-MADANIY ANVOL // *Pedagogik fanlarda akademik tadqiqotlar*. 2022 yil. 6-son. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/al-farobiy-davridagi-siyosiy-va-izhtimoiy-madaniy-vaziyat> (kirish sanasi: 17.10.2022).
12. Ж. С. Раматов, & М. Ҳасанов (2022). МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР – ЖАМИЯТИМИЗ БАРҚАРОРЛИГИ ВА ЁШ АВЛОД ТАРБИЯСИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (6), 973-979.
13. З. Н. Бобошев, М.Н.Ҳасанов, & Э.А.Нуруллаев. (2022). АБУ НАСР ФОРОВИЙНИНГ ПЕДАГОГИКА ФАНИНИНГ АСОСЧИСИ СИФАТИДА. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 4(3), 108–115. Retrieved from
14. Файзулла Абдуллаевич Кушаков (2022). ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОЙ ФИЛОСОФИИ ТЕХНИКИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 1), 428-432.
15. Раматов, Ж. С., Баратов, Р. Ў., Кушаков, Ф. А., Валиев, Л. А., & Ҳасанов, М. Н. (2022). ЖАМИЯТДА СИЁСИЙ ВА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *PEDAGOGS jurnali*, 19(1), 13-18.

16. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Х., Кушаков, Файзулла Абдуллаевич., Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). ҲОЗИРГИ ДАВРДА ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ ҲАҚИДАГИ ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЛҚИНИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (9), 647-656.
17. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Кушаков, Файзулла Абдуллаевич, Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). ТРАНСПОРТ ТИЗИМИ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИ МИСОЛИДА). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (9), 606-612.



ЮК АВТОМОБИЛЛАРИНИНГ ЁНИЛҒИ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ МЕТОДЛАРИ, АНИҚЛАШ УСУЛЛАРИ ВА ИШЛАБ ЧИҚАРИШДАГИ АҲАМИЯТИ.

Зулкайнар Муродович Ахмедов
Гулнора Комил қизи Алматова

Тошкент давлат транспорт университети магистранти

Р. С. Хикматов

Илмий раҳбар, Тошкент давлат транспорт университети доценти

АННОТАЦИЯ

Ҳозирги вақтда жами ишлаб чиқарилаётган автомобилларнинг тури 3000 дан зиёдни ташкил этмоқда. Автомобилларнинг ёнилғи тежамкорлик хусусияти аҳамиятли сифат белгиси ҳисобланади. Турли эксплуатацион шароитларда хизмат қиладиган автомобилларнинг бу хусусиятини ҳалқаро меъёрланган ҳаракат цикллари воситасида аниқлаш қабул қилинган. Автомобилнинг ёнилғи тежамкорлигини таққосий белгилайдиган бундай услуб кенг ва турли эксплуатацион шароитларни қамраб олиши, албатта, нисбийдир. Рақобат бозорида умумий ҳаракат циклига асосланган ёнилғи тежамкорлик хусусияти курсаткичлари автомобилнинг такомиллашганлик даражасини ифодалашни кўникмаси шаклланган.

Калит сўзлар: автомобиль, ёнилғи, баҳолаш, техника.

КИРИШ

Шаҳарларда автомобиллар сони ошиб бориши, ҳаракат микдорининг ошиш темпи, шаҳарлардаги автомобиллар ўртача тезлигининг фарқланиши бу йуналишда тадқиқотларнинг давом этиши зарурлигини аниқлайди. Жумладан, конкрет шаҳар шароити учун ўзининг ҳаракатланиш меъёрий циклини яратиш ва унинг ёрдамида айнан шу шароит учун ёнилғи сарфини аниқлаш долзарб ҳисобланади.

Меъёрий ҳаракат цикли эксплуатация жараёнида автомобил ҳаракати юкланганлик даражасини ифодаловчи режимларининг (тўхтаб туриш, тезланиш, тормозланиш ва ўзгармас тезлик даврлари) ва вақт бўйича кетма-кетлигидир. Маълумки, Европа иттифоқи (ЕИ) ва МДҲ давлатларида автомобилга зарарли газлар буйича қўйиладиган ЕИ талаблар ва ёнилғи тежамкорлигини

баҳолаш 70 -йилларда ишлаб чиқилган Европа шаҳар ҳаракат цикли ЕСЕ ёрдамида аниқланади.

Ёнилғидан самарали фойдаланиш.

Ёнилғидан самарали фойдаланиш кўп жиҳатдан уни меъёрлаш даражасига боғлиқ. Автомобил транспортида автомобилда босиб ўтилган йўл ва транспорт ишини инобатга олувчи меъёрлашнинг ва ёнилғидан фойдаланишнинг прогрессив тизими ишлаб чиқилган.

Меъёрлашнинг мақсади ресурсларни тежаш, рационал тақсимлаш ва ундан самарали фойдаланишни ташкил этишдан иборат. Меъёрлашнинг асосий вазифаси–ёнилғи сарфининг техник ва иқтисодий асосланган прогрессив меъёрларини ўрнатишдир.

Ягона меъёрларни яратиш ёнилғини меъёрлашнинг дифференциаллашган принципига асосланган. Автомобил транспортида ёнилғи сарфи меъёрларини бажариш, яъни ёнилғи-энергетик ресурсларни тежашга стимул яратиш мажбурий шарт ҳисобланади. Соҳада ёнилғини тежаганлик учун моддий рағбатлантиришнинг самарали механизмини ишлаб чиқиш долзарб масала сифатида қаралмоқда.

Автомобил транспортида ёнилғи сарфи меъёрлари қуйидагича таснифланади:

- агрегатлаш даражаси бўйича (индивидуал ва гуруҳда);
- сарф таркиби бўйича (чизиқли, солиштирма ва умум ишлаб чиқариш);
- амал қилиш муддати ва йил фасли бўйича (вақтинча ва доимий, йиллик, мавсумий ва чоракли).

Ёнилғидан самарали фойдаланишнинг асосий кўрсаткичларига индивидуал ва гуруҳлаштирилган ёнилғи сарфининг меъёрлари киради.

Автомобил тури ва конкрет эксплуатация шароитига боғлиқ равишда бирлик транспорт ишини бажариш учун зарур ёнилғи миқдори-индивидуал меъёр ҳисобланади. Индивидуал меъёрлар назарий ҳисоблар ва автомобилнинг синов кўрсаткичлари асосида аниқланади. Индивидуал ёнилғи сарфининг меъёрлари конкрет функционал вазифаларни бажариш учун бир турдаги транспорт воситалари учун ишлаб чиқилади.

Индивидуал меъёрлар автомобилнинг конкрет турларининг энергия самарадорлигини комплекс баҳолаш учун хизмат қилиб, у гуруҳлаштирилган меъёрларни ҳисоблаш учун дастлабки параметр ҳисобланади. Бундан ташқари, индивидуал меъёрлардан бир хил транспорт ишини бажаришда энергия самарадорлигини таққосий таҳлил

этишда фойдаланилади.

Гурухлаштирилган ёнилғи сарфининг меъёри деб конкрет эксплуатация шароитида бир типдаги автомобилларнинг эксплуатация шароитини қамраб олувчи меъёрга айтилади. Транспорт-технологик операцияларнинг бир типли такрорланувчи номенклатурасини бажариш учун гурухлаштирилган меъёрни ўрнатиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Гурухлаштирилган ёнилғи сарфи меъёрлари чизиқли ёнилғи сарфи меъёри, транспорт ишининг характери, корхона структураси ва техник-эксплуатацион кўрсаткичлар асосида ҳаракатланувчи таркибдан самарали фойдаланиш мақсадида ишлаб чиқилади.

Автомобилнинг ЁТ амалдаги Давлат стандартига биноан қуйидаги кўрсаткичлар билан баҳоланади:

1. Назорат ёнилғи сарфи (НЁС).
2. Магистрал циклидаги ёнилғи сарфи.
3. Йўлда шаҳар циклидаги ёнилғи сарфи.
4. Стендда шаҳар циклидаги ёнилғи сарфи.
5. Барқарор ҳаракатланиш ёнилғи характеристикаси.
6. Магистрал-қир-адир йўлдаги ёнилғи-тезлик характеристикаси.

Бу баҳоловчи кўрсаткичларни меъёрий қийматлари мавжуд эмас, улардан автомобилларни ЁТ даражасини чет эл аналоглари билан таққосий баҳолашда ва техник ҳолатини бавосита баҳолашда фойдаланилади.

Ёнилғи сарфини ҳисоблаш.

Ёнилғи сарфи қуйидаги формулага асосан аниқланади:

$$Q_s = (g_e * (N_d + N_v + N_u)) / (36 * V_a * \rho_T * \eta_{TP}) = g_e * (P_d + P_v + P_u) / (36000 * \rho_T * \eta_{TP});$$

л/100 км (1)

бу ерда: g_e - солиштирма эффектив ёнилғи сарфи, г/(кВт·с);

$P_d + P_v + P_u$ - тегишли равишда йўлни, ҳаво ва инерцияни ҳаракатланишга қаршилик кучлари, Н;

ρ_T - ёнилғини зичлиги, кг/л (бензин учун 0,75 кг/л, дизель ёнилғиси учун 0,84 кг/л);

η_{TP} - трансмиссиянинг фойдали иш коэффиценти (0,92 енгил автомобиллар учун, 0,88 юк автомобиллар

ва автобуслар учун, 0,82 тўла юритмали автомобиллар учун).

Солиштирма эффе́ктив ё́нилғи сарфи қуйидаги формула орқали аниқланади:

$$g_e = g_N * K_\omega * K_I, \text{ г/(кВт}\cdot\text{соат)} \quad (2)$$

бу ерда: g_N - двигателнинг максимал қувватидаги солиштирма эффе́ктив ё́нилғи сарфи [одатда $g_N=300-340$ г/(кВт·соат) бензинли двигателлар учун, $g_N=220-260$ г/(кВт·соат) дизеллар учун];

K_ω - солиштирма эффе́ктив ё́нилғи сарфини двигатель тирсакли валининг бурчак тезлигига ($\omega_e = \omega_e/\omega_N$) боғлиқ равишда ўзгаришини ҳисобга олувчи коэффициент;

K_I - солиштирма эффе́ктив ё́нилғи сарфини двигатель қувватидан фойдаланиш даражасига (I) боғлиқ равишда ўзгаришини ҳисобга олувчи коэффициент.

$$K_\omega = a_\omega + b_\omega * \omega_e + c * \omega_e^2 \quad (3)$$

бу ерда: a_ω, b_ω, c – тегишли равишда, иккала турдаги двигателлар учун 1,23; -0,79; 0,56 га тенг;

$$\omega_e = \omega_e/\omega_N \quad K_I = a_I + b_I * I + c_I * I^2 \quad (4)$$

бу ерда: a_I, b_I, c_I – тегишли равишда 1,7; -2,63; 1,93 дизеллар учун ва 2,75; -4,61; 2,86 бензинли двигателлар учун;

I – двигатель қувватидан фойдаланиш даражаси $I = (P_d + P_b)/P_T$

ЁХ таърифидан келиб чиққан холда $P_u = 0$; $\psi = f$ деб қабул қилинади.

Ғилдирашга қаршилик коэффициенти:

$$f = f_0 + k * V_a^2, \quad (5)$$

бу ерда: $f_0=0,008$ – юк автомобиллар учун; $f_0= 0,012$ – енгил автомобиллар учун (бошқа маълумотлар бўлмаса);

$k=7*10^{-6}$ – юк автомобиллар учун, $k=14*10^{-6}$ – енгил автомобиллар учун (бошқа маълумотлар бўлмаса).

ХУЛОСА

Автомобилларнинг ё́нилғи самарадорлигини ошириш,

унинг камроқ ёнилғи сарфлаб кўпроқ иш бажаришини таъминлаш бизнинг асосий муаммомиздир. Бунда турли цикллар, иқлим ва шароитларни ҳисобга олган ҳолда амалга оширамиз. Бунда дунёдаги ҳаракат циклларидан фойдаланиб, уни ўрганган ҳолда ўз ҳаракат циклимизни ишлаб чиқиш ва ҳаётимизга татбиқ этмоғимиз лозим. Чунки ёнилғи тежаш атроф муҳитни ўзимизни сақлаш демакдир.

REFERENCES

1. Литвинов А.С., Фаробин Я.Е., Автомобиль: теория эксплуатационных свойств: М., 1989 - 240 с.
2. Гришкевич А.И. Автомобили: Теория: Минск, 1986 – 208 с.
3. Топливная экономичность автотранспортных средств, ГОСТ 20306-90. М., 1990.
4. Вахламов В.К. Техника автомобильного транспорта: подвижной состав и эксплуатационные свойства. М., 2004 – 528 с.
5. Кодиров С.М., Қодирхонов М.О. Двигател ва автомобил назарияси. Тошкент, 1981.



ЎЗБЕКИСТОН ВА ХИТОЙ ЎРТАСИДАГИ ҲАР ТОМОНЛАМА МУНОСАБАТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ АСОСЛАРИ

Сардор Бобоярович Нуриддинов
Бобомурод Курбонович Авазов
Каримберди Тавбаевич Қаршиев

Тошкент давлат транспорт университети ассистенти

Фозил Фарход ўғли Хасанов

Тошкент давлат транспорт университети к-а ўқитувчиси

mr.john.1991@list.ru

АННОТАЦИЯ

Ҳар томонлама ўзаро манфаатли муносабатлар. Ўзбекистон географик жойлашувига кўра Марказий Осиёнинг юраги ҳисобланади. Мамлакат аҳолиси Марказий Осиё умумий аҳолисининг тахминан 50% ни ташкил қилади. Ўзбекистон шимоли-ғарбида Орол денгизига яқин бўлиб, Қозоғистон, Афғонистон ва Туркманистон билан чегарадош. Ўзбекистон ғарбга олиб борадиган чорраҳасида жойлашган. Ўзбекистон қадимда маданият ва савдо чорраҳаси, Европа ва Осиё ўртасидаги асосий йўлак вазифасини бажариб келмоқда. Археологларнинг фикрича, Буюк Ипак йўли аввалига дипломатик алоқаларни ўрнатиш йўли, кейин эса савдо-сотикни ривожлантириш йўли сифатида юзага келган[1].

Калит сўзлар: дипломатия, Хитой, сиёсат, иқтисодиёт, Марказий Осиё.

КИРИШ

Хитой қадимги давлат бўлиб, ҳудуди бўйича Канада ва Россиядан кейин учинчи ўринда туради. Ўзбекистон учун Хитой Осиё-Тинч океани минтақасидаги муҳим ҳамкор ҳисобланади. Хитой аҳолиси бутун дунё аҳолисининг 25% ни ташкил қилади. БМТ маълумотларига кўра, XXI-асрнинг ўрталарига келиб Хитой дунёнинг етакчи иқтисодчиларидан бирига айланади[2]. 2018-йилда яқинда 30 ёшга тўладиган ислоҳот ва очиқлик сиёсати Хитой иқтисодиётини дунёда алоҳида ўринни эгаллаб ва уни дунёда иккинчи ўринга чиқиб олди. 2021-йилда Ўзбекистон ва Хитой ўртасидаги товар айирбошлаш ҳажми 8,4 миллиард АҚШ долларини ташкил этди, Хитой Ўзбекистон учун энг йирик инвестор ва 3 йил давомида қаторасига иккинчи савдо ҳамкори бўлди.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Ўзбекистон-Хитой муносабатларининг ривожланиши Ўзбекистоннинг ички ислохотларига ижобий таъсир кўрсатиши мумкин, буни қуйидаги реал объектив хулосалар билан аниқлаш мумкин[4,5]:

Биринчидан, жойлашувига кўра, Ўзбекистон денгизга чиқа олмайдиган давлатдир. Денгизга энг яқин йўл Хитой орқали ўтади.

Иккинчидан, Хитой нафақат аҳоли сони, балки иқтисодий ривожланиш тезлиги жиҳатидан ҳам Осиёдаги йирик давлатдир. Хитой Бош Ассамблея аъзоси ва БМТ Хавфсизлик Кенгаши аъзоси. Хитойнинг жаҳон миқёсидаги маъқеи аста-секин юксалиб бормоқда. Хитой билан муносабатларнинг мустақамланиши нисбатан ёш мустақил давлат бўлган, сиёсий ва иқтисодий соҳада алоҳида ўрин тутадиган Ўзбекистоннинг халқаро мақоми ва нуфузининг ижобий динамикасини оширишга ёрдам беради[3].

Учинчидан, иқтисодий жиҳатлардан келиб чиққан ҳолда, Ўзбекистон ва Хитой алоҳида геосиёсий устунликка эга. Хитой Ўзбекистон учун қўшни давлат. Уларнинг чегаралари орасидаги масофа атиги 150 км. Иккала давлатнинг иқтисодий ва геосиёсий устунлиги бир-бирини тўлдирувчи муносабатлардан келиб чиқади.

Тўртинчидан, Хитой дунё хавфсизлиги ва тинчлигини сақлашда фаол иштирок этаётган улкан давлатдир. Ўзбекистон мустақилликка эришгач, ўз навбатида ўз хавфсизлигини таъминлаши, минтақада сиёсат ва иқтисодиётнинг барқарор ривожланишини таъминлаши, Хитой билан ўзаро манфаатли ҳамкорлик алоқаларини ўрнатиши зарур. Бундан ташқари, ҳар икки давлат ҳудудида ўзбек миллати, Ўзбекистон халқлари билан келиб чиқиши муштарак, маданияти ва дини бир хил бўлган Хитойнинг ғарбий қисмида бошқа миллат вакиллари истиқомат қилади. Бинобарин, дўстона яхши қўшничилик муносабатларини сақлаб қолиш нафақат Хитойнинг ғарбий қисмининг ривожланишига, балки бутун Марказий Осиёнинг барқарор ривожланишига ҳам таъсир кўрсатади[6].

Бундан ташқари, Марказий Осиё Хитой учун энергия ресурсларини импорт қилишнинг муқобил йўлидир. Хитой Ўзбекистонни жадал ривожланаётган давлат деб билади ва тенг ҳуқуқли асосда узоқ муддатли ҳамкорликни ривожлантиришга тайёр. Айниқса, сўнгги пайтларда Хитойнинг Ғарбий қисми хавфсизлигини таъминлаш мақсадида Марказий Осиё мамлакатлари билан муносабатларни ривожлантиришга эътибор қаратилаётгани Хитойни

Ўзбекистон билан ҳар томонлама муносабатларни ривожлантиришга туртки бўлди.

Халқаро ташкилотлар доирасидаги икки томонлама муносабатларни ривожлантириш. Ўзбекистон-Хитой дипломатик муносабатлари давлатлараро муносабатлар ва расмий ташрифлар алмашинуви билан бир қаторда ШХТ каби халқаро ташкилотлар доирасида ҳам изчил ривожланиб бормоқда, бу эса узоқ муддатли алоқаларни қўллаб-қувватлаш ва ҳамкорликни яқиндан ривожлантириш учун икки томонлама ва кўп томонлама ҳамкорлик платформа яратади. Бу икки давлатга хавфсизликни таъминлаш имкониятини берувчи ташкилотдир. Ўзбекистон Хитойнинг хавфсизликни таъминлаш ва терроризмга қарши курашдаги асосий ҳамкоридир[4].

Ўзбекистон ва Хитойнинг ШХТ доирасидаги ҳамкорлиги 1998 йил апрел ойида ШХТ ташкил этилди. Унинг асл номи Шанхай бешлиги эди. Аъзо давлатлар қаторига Россия, Қозоғистон, Қирғизистон, Тожикистон ва Хитой каби собиқ социалистик республикалар кирди. 2000-йил июл ойида Тожикистон пойтахти Душанбе шаҳрида бўлиб ўтган Шанхай бешлиги саммитида Ўзбекистон кузатувчи давлат сифатида иштирок этди. 2001 йилда Шанхайда йиғилиш бўлиб ўтди. Кейин бешта иштирокчи давлат Ўзбекистонни ташкилотга қабул қилди ва бу ташкилотнинг Шанхай ҳамкорлик ташкилоти ёки “Шанхай олтилиги” деб ўзгартирилишига олиб келди. Шанхай ҳамкорлик ташкилотини тузиш тўғрисидаги декларация, терроризм, сепаратизм ва экстремизмга қарши кураш бўйича Шанхай конвенцияси, Ўзбекистонни “Шанхай бешлиги” механизмига улаш тўғрисидаги қўшма баёнот ШХТ томонидан қабул қилинган дастлабки ҳужжатлар ҳисобланади[7].

ШХТга аъзо бўлишнинг асосий сабаби 2000-йилда мамлакатда терроризм, экстремизм, сепаратизм таҳдиди пайдо бўлганлиги эди. Ўзбекистоннинг Биринчи Президенти И.Каримов минтақа хавфсизлигини таъминлаш, уч ёвуз кучга қарши курашиш мақсадида биринчи навбатда хавфсизлик нуқтаи назаридан ушбу ташкилотга қизиқиш билдирган эди. ШХТ доирасида 2002 йилда Минтақавий аксилтеррор тузилмаси ташкил этилди ва унинг штаб-квартираси ШХТга аъзо давлатлар қарори билан Тошкент шаҳрида жойлашган эди. ШХТ ҳамкорлиги доирасида Ўзбекистон-Хитой муносабатлари алоҳида ўрин тутади. Марказий Осиё худудида Афғонистонга географик жиҳатдан яқин бўлганлиги сабабли гиёҳванд моддаларнинг ноқонуний айланиши хавфи кучлилиги, шунингдек, қашшоқлик ва ишсизлик билан боғлиқ айрим муаммолар мавжуд бўлганлиги сабабли, бу “ёвузликнинг уч кучи”нинг

ривожланиши учун шароит яратади. Бу эса Марказий Осиё ривожига катта таъсир кўрсатиши мумкин. Бу масалалар юзасидан Ўзбекистон ва Хитой тез-тез фикр алмашади, муаммоларни ҳал этишнинг умумий йўллари излайдилар, шу боис ШХТ доирасида икки давлат “ёвузликнинг уч кучи”га қарши курашда муҳим ўрин тутди[8].

ХУЛОСА

Бундан ташқари, ШХТ доирасида Ўзбекистон ва Хитой иқтисодий ҳамкорликка алоҳида эътибор қаратмоқда. Айни пайтда ташкилот доирасида иқтисодий ҳамкорликнинг роли изчил ортиб бормоқда. Шу тариқа ШХТнинг ривожланиш йўли соғлом руҳда давом этмоқда. Сўнгги йилларда энергетика ва транспорт соҳасидаги ҳамкорлик тобора кучайиб бормоқда. Умуман олганда, ШХТ икки давлат ўртасидаги муносабатларни ривожлантиришда ажралмас рол ўйнади. Ташкилотнинг тўғри ишлаши туфайли иқтисодиёт соҳасида ривожланиш рағбатлантирилди, хавфсизлик, икки давлат ўртасида яқинроқ мулоқот ўрнатишда ўзаро ишонч ортди ва ҳоказо. [5]. Ўзбекистон-Хитой муносабатларининг ривожланиши, жумладан, ШХТ ривожига боғлиқ. Хитой Марказий Осиё давлатларининг ривожланишига хиссасини кўшмоқда. Бунда Хитой ШХТга таянади. Ўз хавфсизлигини таъминлаш ҳақида гапирганда, Ўзбекистон Хитой билан муносабатларни эътибордан четда қолдирмаслиги керак, чунки Хитой Марказий Осиёда минтақавий хавфсизликни таъминлашда катта рол ўйнайди. Хитой Ўзбекистон иқтисодиётига йирик сармоядор, Хитой сиёсий ва дипломатик ресурсларга эга, бу Ўзбекистонни ўзига тортади.

REFERENCES

1. Линь Мянъцинъ, Лю Цзян. Причина формирования Шанхайской Организации Сотрудничества. Журнал «Международная политика и наука», № 17 от 2009 год, С. 52
2. Дуань Сюфан, Хуань Си. Роль экономического сотрудничества Китая в пространстве ШОС. Журнал «Форум общественных наук Синьцзяня» № 4,, 2013 год, С. 24
3. Сардор Бобоярович Нуриддинов (2022). ТРАНСПОРТ СОҲАСИДА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИК МАСАЛАЛАРИ ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ТРАНСПОРТ КОРИДОРЛАРИ САЛОҲИЯТИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 710-716.
4. Бобоярович Сардор Нуриддинов, & Сардор Анвар Ўғли Жўраев (2022). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНING “БИР

МАКОН – БИР ЙЎЛ” ЛОЙИҲАСИДАГИ МАНФААТЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 232-238.

5. Boboyarovich N. S. PRIORITIES OF UZBEK-CHINESE COOPERATION IN “THE ONE BELT-ONE WAY” INITIATIVE. – 2020.

6. Нуриддинов, С. Б. (2020). PRIORITIES OF UZBEK-CHINESE COOPERATION IN “THE ONE BELT-ONE WAY” INITIATIVE. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ КОНСЕНСУС, 1(2).

7. НУРИДДИНОВ, С. THE “ONE BELT-ONE WAY” INITIATIVE IS A PRIME EXAMPLE OF COOPERATION BETWEEN STATES. UNIVERSITETI XAVARLARI, 2020,[1/5] ISSN 2181-7324.

8. Нуриддинов, С. Б. (2020). ПРИОРИТЕТЫ УЗБЕКСКО-КИТАЙСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ИНИЦИАТИВЕ" ОДИН ПОЯС-ОДИН ПУТЬ". Транспорт шелкового пути, (2), 10-13.



ВЛИЯНИЕ ПРОПИТКИ ИЗОЛЯЦИИ НА РАБОТУ ТЭМ

Сардор Бобоярович Нуриддинов

Ташкентский государственный транспортный университет,
ассистент

Бобомурод Курбонович Авазов

Ташкентский государственный транспортный университет,
ассистент

Фозил Фарход ўгли Хасанов

Ташкентский государственный транспортный университет,
ст. пред.

Каримберди Тавбаевич Қаршиев

Ташкентский государственный транспортный университет, ассистент
mr.john.1991@list.ru

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается влияние пропитки изоляции на работу ТЭМ и наблюдается возрастание потока отказов изоляции в первых (зимних) кварталах эксплуатации и минимальное количество в третьих (летних) кварталах.

Ключевые слова: ТЭМ, изоляция, техника, физика, конструкция.

Проанализированы результаты исследований сотрудников ТГТУ в которых принимал участие С.Б.Нуриддинов [1,2]. Исследовалось изменение надёжности регулярно пропитываемых изоляционных конструкций тяговых электродвигателей с 2000 по 2012 год, на всех видах ремонта включая текущий ремонт третьего объема (ТР-3). Результаты исследования приведены в виде графиков на (рисунке 1).




Рисунок 1 – Надёжность изоляции ТЭМ электровозов УЗБЖД, регулярно пропитываемой на текущих ремонтах третьего объема. Из рассмотрения графиков параметров потоков отказов ТЭМ всей дороги и локомотивного депо Узбекистан (где эксплуатировались недавно поступившие с завода изготовителя НЭВЗ электровозы ВЛ80). Можно отметить возрастание параметра потока отказов изоляции ТЭМ во времени как давно эксплуатируемых, так и недавно поступивших с завода. Наблюдается возрастание потока отказов изоляции в первых (зимних) кварталах эксплуатации и минимальное количество в третьих (летних) кварталах. При анализе были использованы полученные нами зависимости параметров потоков отказов якорей ТЭМ электровозов ВЛ80 локомотивного депо Узбекистан от среднемесячной температуры воздуха на участках эксплуатации в 2018 и 2020 годах, представленные на (рисунках 2 и 3).

Необходимо отметить, что при поступлении ТЭМ НБ-514 с классом нагревостойкости F руководством департамента локомотивного хозяйства АО «Узбекистон темир йуллари» было рекомендовано локомотивному депо Нижнеудинск не пропитывать изоляцию ТЭМ при проведении текущих ремонтов ТР-3. Из рассмотрения (рисунка 2) видно, что из-за исключения пропитки якорных обмоток ТЭД наблюдается рост отказов в летний период, что нехарактерно для пропитанных ТЭМ

смотри (рисунок 2) на которых в летний период эксплуатации наблюдалось существенное уменьшение отказов [2].




Рисунок 2. – Изменение параметров потока отказов якорной обмотки ТЭМ в период проведения ТР-3 без пропитки изоляции




Рисунок 3. – Динамика изменения параметра потока отказов якорной обмотки ТЭМ после введения пропитки изоляции при ТР-3 Экстренные меры, предпринятые руководством депо Узбекистан в 2020 году, позволили пропитать якоря ТЭМ НБ-514 электровозов ВЛ80. Уменьшить благодаря этому число отказов якорей в 1,6 – 2,0 (рисунок 3) раза в сравнении с предыдущим годом. При этом зависимость изменения параметра потока отказов якорей от температуры воздуха имеет характер, аналогичной зависимости, соответствующей пропитанным якорям ТЭМ представленной на (рисунок 1).

REFERENCES

1. Нуриддинов, С. Б. Статистика отказов и анализ повреждаемости электрических машин / С. Б. Нуриддинов, Б. К. Авазов, К. Т. Каршиев // Инновационные технологии в водном, коммунальном хозяйстве и водном транспорте [Электронный ресурс] : материалы II республиканской научно-технической конференции, 28-29 апреля 2022 г. / редкол.: С. В. Харитончик [и др.]. – Минск : БНТУ, 2022. – С. 446-452.
2. Kurbonovich, Avazov Bobomurod, Nuriddinov Sardor Babayarovich, and Qarshiyev Karimberdi Tavbayevich. "TRANSFORMATOR MOYINI GAZDAN TOZALASHDA KO'CHMA LABARATORIYA MASHINASIDAN FOYDALANISH." (2022): 73-77.
3. Нуриддинов, С. Б. (2020). Анализ отказов тяговых электрических машин НБ-514 локомотивный ремонт завод УП «Ўзтемирйўлмаштаъмир». In Актуальные вопросы экономики транспорта высоких скоростей (pp. 139-142).
4. Nuriddinov, S., Avazov, B., Hasanov, F., & Rakhmonova, Y. (2021). Analysis of the causes of traction electric failures of electric cargo cars operated on railways of the Republic of Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 264, p. 05041). EDP Sciences.
5. Исмаилов, Ш.К. Тепловое состояние тяговых и вспомогательных электрических машин электровозов постоянного и переменного тока [Текст] / Ш.К. Исмаилов. – Омск: ОмГУПС, 2001. – 76 с.

ТАРАҚҚИЁТ СТРАТЕГИЯСИ ВА КОНСТИТУЦИЯ ИСЛОҲОТИ

Ч. Насриддинов

Чирчиқ ОТҚМБЮ Гуманитар фанлар кафедраси доценти

АННОТАЦИЯ

Мақолада мамлакатимиз конституциясини ўзгартириш зарурати ҳақида фикр – мулоҳазалар баён этилган. Муаллиф шу орқали жамият ривожини таъминлаш мумкинлигига ишонч билдирган.

Калит сўзлар. Конституция, тараққиёт стратегияси, ислоҳот, демократик жамият, парламент, маъмурий ҳудуд.

ABSTRACT

In the article, different ideas about the need for the changes of the constitution of our republic are presented. The author believes in providing the development of society with these changes.

Keywords. Constitution, strategy of development, reformation, democratic society, parliament, administrative region.

КИРИШ

Мамлакатимиз Конституцияси қабул қилинган санага яқинда 30 йил тўлди. Агар бу вақтни инсон умрига қиёслайдиган бўлсак, қисқа давр эмас; шу давр ичида янги бир авлод вояга етиб, жамият, умуман дунёнинг ижтимоий – иқтисодий ҳамда сиёсий - мафкуравий манзараси таниб бўлмас даражада ўзгариб кетди. Айтмоқчиманки, шунча йиллар ўтиб, конституциямизга, унинг ижтимоий-сиёсий оқибатларига баҳо берсак бўлади, аниқроғи, шундай баҳони беришимиз зарур, токи кейинги ҳаётимиз яхшироқ, фаровонроқ бўлсин! Қолаверса, вақт ўтган сари ҳар қандай мукамал тизим ҳам заифлашиб, янги, ўзгарган шароитларга мос келмай қолади – уни такомиллаштириш зарурати пайдо бўлади. Эҳтимол, конституциямиз 30 йил аввалги шароит нуқтаи назаридан тўғри бўлгандир, бироқ бугунги кун назари билан қарасак, унда етишмайдиган ва ортиқча ўринлар борлиги кўзга ташланиб қолади. Яқинда Россия Федерацияси Конституциясига киритилган ўзгартишларни бунга мисол қилиб келтириш мумкин. “Агар дунё тажрибасига назар ташлайдиган бўлсак, - деган эди Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев - туб бурилиш даврида кўпгина давлатларда конституциявий ислоҳотлар амалга оширилганини кўрамиз. Шу сабабли,

...жаҳон конституциявий тажрибасини ўрганиб, пухта ўйлаган ҳолда бугунги ва келгуси тараққиётимизни белгилаб берадиган Асосий қонунимизни такомиллаштириш масаласини ҳам кўриб чиқишимиз керак”. Шу маънода, бир фуқаро, зиёли сифатида конституциямиз, уни ўзгартириш зарурати ҳақидаги ўзимнинг шахсий фикрларим билан ўртоқлашмоқчи эдим.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА НАТИЖАЛАР

Конституциямиздаги муҳим кемтикликлардан бири шуки, унда демократик жамият қуриш талабларидан бири бўлган импечмент, яъни Президентга ишончсизлик билдириш имконияти назарда тутилмаган. Бу нарса давлат ҳокимиятлари, айниқса, Президент ҳокимиятининг тийилиб туриш тамойилига амал қилишини имконсиз қилиб қўяди. Яна бир таклифим мамлакатимизни Президент Республикасидан Парламент Республикасига ўтказиш зарурати билан боғлиқ. Чунки бизда тарихан қарор топган шарт-шароит, миллий менталитет, миллий зеҳният нуқтаи назаридан сиёсий бошқарувнинг Президент Республикаси шакли ўзини оқламади. Жамиятимизда авж олган коррупция ва жиноятчилик, инсон ҳуқуқларининг поймол этилиши, неча юз минглаб юртдошларимизнинг мамлакатдан чиқиб кетаётганлиги бунинг исботи бўла олади. Агар мазкур ўзгаришни амалга оширсак, конституциямизнинг 10-моддасида ёзиб қўйилган: “Ўзбекистон халқи номидан фақат у сайлаган Республика Олий Мажлиси ва Президенти иш олиб бориши мумкин”, деган муҳим қонуннинг ижросини таъминлаган бўламиз. Шундагина Парламент чинакамига “халқ уйи”га айлана олади.

Учинчидан, мамлакатимизда вице-президентлик институтини, лавозимини қайта тиклаш зарур. Тўғри, ҳозирги ҳолатда Ўзбекистон Республикасининг амалдаги Президенти ўз вазифаларини бажара олмайдиган ҳолатларда унинг вазифа ва ваколатлари вақтинча Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати раисининг зиммасига юклатилиши 96-моддада кўрсатиб ўтилган. Лекин бунинг етарли эмаслигини ҳаёт кўрсатди. Агар вице-президентлик лавозими қайта тикланиб, у бир вақтнинг ўзида Сенатга раислик қилса, мақсадга мувофиқ бўлар эди. Шунда ҳар турли тушуниксиз ҳолатлар бўлмасди. Давлат бошқарувининг бу шакли дунёнинг энг демократик мамлакатларидан бири бўлган АҚШда яхши маънода ўз ифодасини топган.

Яна бир таклифим Конституциянинг ҳаётчанлигини таъминлаш билан боғлиқ. Гап шундаки, унда ёзиб қўйилган кўпгина талаблар ҳаётда ўз аксини топмаяпти. Масалан, 67-моддада цензурага йўл қўйилмаслиги кўрсатиб ўтилган бўлса-да, биз ҳаётда

бунинг аксини кўраимиз. Ёки, судларнинг мустақиллиги ҳақидаги қоидаларга ҳам шундай баҳо бериш мумкин. Улар мустақил эмаслигини барчамиз яхши биламиз. Гап судлар ҳақида борар экан, суд ҳокимиятининг олий шакли – конституциявий суд ҳақида тўхталишга тўғри келади. Чунки судлов институтининг бу шакли номигагина мавжуд – шу давр ичида бу идоранинг бирон бир қонун ёки қарорни Конституцияга мос келмаслиги вазидан бекор қилганлигини билмайман. Ҳозир ҳам давлат ҳокимиятининг турли тармоқлари томонидан Конституцияга зид юридик ҳужжатлар юзлаб, минглаб сонда қабул қилинмоқда, лекин бу судлов идораси томонидан бунга чек қўйиш учун ҳеч қандай чора-тадбир кўрилмаяпти. Шу маънода Конституциявий судни тугатиб, унинг ваколатларини Олий судга ўтказилса, мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Яна бир муаммо референдум ва сайловлар ўтказишнинг конституциявий талаблари ҳамда амалиёт ўртасидаги зиддият билан боғлиқ. Масалан, биринчи Президент умр бўйи шу лавозимда қолди. Ваҳолангки, у кўпи билан икки марта сайланиши лозим эди. Ўша даврда президентлик муддати ҳам референдум орқали 5 йилликдан 7 йилликка ўтказилди, аммо кейинчалик ими-жимиди, қайта референдум ўтказмасдан яна 5 йиллик муддатга қайтарилди.

Маҳаллий маъмурий ҳудудлар – вилоят, шаҳар ва туманлар ҳокимларининг маҳаллий кенгашларга раислик қилишлари ҳам демократик жамият талабларига зид эканлиги бугун бот – бот гапириляпти; бу масала ҳам Конституция даражасида ҳал этилиши зарур. Шунингдек, ҳокимларнинг тайинланиши билан боғлиқ амалиёт ҳам ўзгариши керак. Чунки ҳозирча ҳоким халқ олдида эмас, балки ўзидан юқоридаги амалдор олдида ҳисобдон ҳисобланади. Жамиятимиздаги ҳозирги ишсизлик кўлами ҳамда аҳолининг ижтимоий аҳволини ҳисобга олган ҳолда давлатнинг ҳар бир меҳнатга яроқли фуқарони иш билан таъминлаш мажбуриятини конституцияга ёзиб қўйиш зарур. Шунингдек, ҳар бир ишсиз инсон белгиланган ишсизлик нафақасини олиш имкониятига эга бўлсин! Тўғри, амалдаги конституциянинг 37-моддасида “Ҳар бир шахс меҳнат қилиш, қонунда кўрсатилган тартибда ишсизликдан ҳимояланиш ҳуқуқига эгадир” деб ёзиб қўйилган, аммо бу етарли бўлмаяпти.

Ҳар қандай мамлакатда ижтимоий соҳа, айниқса, таълим ва тиббий хизмат муҳим саналади. Ўзбекистонда ҳам асосий муаммолар илдизи аслида шу тармоқлар фаолияти, уларга нисбатан аниқ бир сиёсий ва ҳуқуқий ёндашувнинг йўқлиги билан боғлиқ. Қолаверса, мамлакатимиз истиқболи шу соҳалар фаолияти билан белгиланади. Шунинг учун ҳам тиббий хизмат ҳамда таълимнинг ҳар қандай даражаси ва шакли текин эканлиги ҳақидаги қоида Конституцияда ўз

аксини топиши мақсадга мувофиқ. Тўғри англадингиз – бу хизмат турлари мутлақо текин бўлиши зарур!

Конституцияда шунақа моддалар борки, улар фақатгина декоратив характерга эга, шунинг учун ҳам уларни матндан чиқариб ташлаш мақсадга мувофиқ, деб ўйлайман. Чунки моҳиятан конституцияда мавжуд бўлган ҳолатлар ҳаётда ўз аксини топиши лозим. Унинг конституциялиги ҳам шунда, аслида. Масалан, оила ҳақидаги бобни олиб кўрайлик. Унда оила давлат ҳимоясида эканлиги таъкидланади. Бироқ унинг қандай ҳуқуқий ёхуд ижтимоий механизм, воситалар билан ҳимояланиши кўрсатиб ўтилмаган. Қолаверса, биз қанчалик конституциямиздаги шу ва шунга ўхшаш ўзига хосликлар билан мақтанмайлик, бир нарсадан кўз юмиб бўлмайди: конституция қабул қилиниб, кучга киргач, мамлакатимизда оилавий ажримлар ва низолар сони мунтазам равишда ошиб борди. Энди биз бу кўрсаткич бўйича дунёнинг олд давлатларидан бирига айландик. Агарда асосий қонунимиздаги ушбу бобнинг жамият, халқ учун қандайдир ижобий таъсири бўлганида эди, бундай бўлмасди.

Шу маънода, бизда давлат идоралари, у Президент маҳкамаси, вазирликлар, Парламент, суд – прокуратура органлари ёки куч ишлатувчи тизимлар бўлсин, барчаси ёпиқ. Ахир улар халқнинг хизматкорлари бўлишлари керак эмасми!?

Шунингдек, ўтган аср 90 – йилларининг бошида колхозларнинг тугатилиши билан 70 йил давомида халқ меҳнати эвазига яратилган жуда катта моддий ва маънавий бойликлар талон – тарош қилинди. Колхозлар тугатилди-ю, аммо уларнинг ўрнига ҳеч бир бошқарув идораси яратилмади. Натижада қишлоқлар эгасиз қолди, мамлакатимиз иқтисодиётининг бош соҳаси бўлган қишлоқ хўжалиги хонавайрон бўлди, миллионлаб аҳоли ишсиз қолди. Колхоз бу – ҳокимлик ва фермер ўртасида боғловчи восита, у қишлоқ аҳолисини ва қишлоқ хўжалигини бошқаришнинг энг самарали шакли! Уни қайта тиклаш орқали биз иқтисоднигина эмас, балки ижтимоий муносабатларниям яхшилаёмиз. Тўғри, колхозлар советлар даврида ташкил этилди, аммо уларнинг бу тузум мафкурасига алоқаси йўқ, сабаби у бизнинг миллий зеҳниятимизга тўла – тўкис мос келади. Чунки бизга жамоавийлик психологияси хос. Шунинг учун ҳам конституцияга ижтимоий – иқтисодий инструмент сифатида колхоз ҳақидаги бобнинг киритилиши мақсадга мувофиқ. Уни колхоз, жамоа хўжалиги ёки бошқа ном билан аташнинг аҳамияти йўқ.

Ва ниҳоят, сўнгги таклиф шундан иборатки, агар дунёда Ўзбекистон деган мамлакат ягона эканлигини, ўзбек

миллатига мансуб инсонларнинг дунё бўйлаб сочилиб кетганлигини эътиборга оладиган бўлсак, Бош Қомусимизда “Ўзбекистон - барча ўзбеклар учун ватандир. Улар дунёнинг қайси мамлакатида яшашмасин, ўзларининг тарихий ватанларига эмин – эркин келиб – кетиш, агар шу ерда яшашни хошлашса, ҳеч бир монеликсиз фуқаролик олиш ҳуқуқига эгадирлар” деб ёзиб қўйилиши керак.

ХУЛОСА

Хулоса ўрнида шуни айтишим мумкинки, агар Бош Қомусимизга шу ўзгаришларни олиб кирадиган бўлсак, Конституция талабларини ҳаётимиз шарт-шароитларига мувофиқ келишини таъминлашдан ташқари, унинг 7-моддасида ёзиб қўйилганидек: “Халқ давлат ҳокимиятининг бирдан-бир манбаидир” деган талабни, шунингдек, Тараққиёт стратегиясида кўрсатилган вазифаларни муваффақиятли бажариш имкониятига эга бўламиз.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т.: “Ўзбекистон”, - 2018 й.
2. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси асосида демократик ислохотлар йўлини қатъий давом эттирамиз. “Янги Ўзбекистон” газетаси, 223-сон, 2021 йил, 7 ноябрь, 3-бет.



METHODS OF ETHNOECOLOGICAL CULTURE RESEARCH

Nargiza Urinovna Komilova
Fergana State University

ABSTRACT

In science, it will be possible to achieve a positive result only when any phenomenon or object is researched using various methods, and to create a complete, truthful database about them. Based on the essence of this research work, regionalization, comparative, statistical, cartographic, historical-ethnogeographical methods are used.

Keywords: ethno-ecological culture, natural-ecological character, historical approach, economic-cultural types, historical ethnographic regions.

INTRODUCTION

The method of regionalization is useful in studying the genesis of the origin of ethno-ecological culture. The advantages of this method are high in the study of the influence of the natural factor on the types of ethno-ecological culture formed in the same ethnos or the same historical-geographic regions.

LITERATURE ANALYSIS AND METHODOLOGY

Typology and zoning are carried out in the initially isolated territorial object. In using this method, skills used in geography are used. Ethno-geographical zoning, which allows simultaneous consideration of "landscape-population-economy" indicators, is carried out in the study of territorial aspects of ethno-ecological culture. Methods and criteria for such zoning have been carefully developed [1, 2, 3].

Territorial aspects of the ethno-ecological culture that is intended to be analyzed using the comparative method, that is, the limits of its distribution, are studied.

RESULTS AND THEIR DISCUSSION

In this work, 3 forms of ethnoecological culture in the selected ethnoecological regions are deeply analyzed. The culture of using natural resources (land and water), the toponymic and religious territorial aspects of ethno-ecological culture in the field of settlement and nature protection are studied within the regions.

At the first stage, the distribution of the land fund in the natural-historical type of the use of nature in the ethno-ecological regions according to the branches of the national economy is studied, and the changes in the indicators are observed within the regions. Attention is paid to the

change of the types of land performing the geographical function [5] in each district, for example, the percentage change of the areas occupied by "forest parks", reserves, gray lands, pastures is paid attention to.

In the second stage, the composition of agricultural land is analyzed, the amount of irrigated land, arable land, gardens, protected land is studied. Indicators can also be studied by ethnogeographic regions, districts, volosts. Land types in each region are allocated a place in the landscape area, the compatibility of the land type with this type of use is studied.

In the third stage, the structure of cultivated areas is studied, based on the conditions of the region, suitable crop types and trees were separately analyzed.

Historical, ethnogeographical, comparative methods were used simultaneously in the study of land use culture. Using the method of historical comparison, changes in the culture of land use, the introduction of new innovations are studied over a period of time. The reasons and environmental acceptability of the introduced changes were analyzed separately. The ethnogeographic nature of the introduced changes, the principles of land use and the reasons for the change in types were revealed.

The results of such analyzes within the regions provide an opportunity to determine the influence of the natural landscape factor on the ethno-ecological culture formed here, although the same ethnic groups live in the above regions.

Using the comparative geographical method, as a result of the conducted research, it will be possible to reveal the role of the ethno-environmental factor in the emergence of another type of ethno-ecological culture of vital importance for the region - the culture of water use. By analyzing the peculiarities of water use in the eastern and western, northern and southern parts of the valley, it is possible to pay attention to the extent to which this culture is influenced by the natural-landscape factor [6, 7, 8, 9]. The following aspects of the culture of water use in the region are studied:

- a) selection of irrigation methods;
- b) construction and maintenance of irrigation facilities;
- c) management of the irrigation system, irrigation system.
- g) management of irrigation in an ethnic and religious-legal way.

Диагностика ВГКН основана на выявлении мутаций и рекомбинации между двумя структурными генами фермента. Оба этих гена локализованы на коротком плече 6-й хромосомы[9,12]. Выявление конкретных мутаций гена помогают в постановке точного диагноза и в дифференцировке форм АГ, а также решает вопрос о необходимости начала терапии. Все вышеизложенное говорит о перспективах и достоверности проведения молекулярно-генетического анализа.

Целью настоящей работы является изучение наиболее часто встречающихся мутаций гена СУР21А2, приводящих к различным формам ВГКН у женщин в узбекском регионе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Исследование проводилось на базе Республиканского Специализированного Научно-Практического Медицинского Центра Эндокринологии МЗ РУз.

Материалом для исследования служила венозная кровь, взятая у женщин репродуктивного возраста с различными симптомами андрогенизации (гирсутизм, себорея, угревая сыпь, нарушение менструального цикла). Венозная кровь в

количестве 1мл отбиралась в 0,1мл раствора цитрата натрия (антикоагулянт) и хранилась при температуре -20°C .

Критерием для отбора являлись женщины в возрасте от 15 до 49 лет.

Выделение ДНК из цельной крови осуществлялось набором реагентов Diatomtm DNAPrep 200 (производство ООО «Лаборатория ИзоГен», Москва Россия) по стандартному протоколу.

Для проверки наличия ДНК в отобранном супернатанте проводили электрофорез в 0,5xTBE буфере в течении 30-60 мин при 120 В. Использовали 0,9% агарозный гель.

Полученный ПЦР продукт разбавляли в 30 раз и использовали для постановки ПЦР для специфической амплификации гена CYP21A2. Для этого использовали набор реагентов IsogeneGenPak®PCR-Core.

Для проверки наличия ПЦР продукта проводили электрофорез на 1,2% агарозном геле в 0,5xTBE буфере в течении 40 мин при 120 В.

Полученный таким образом ПЦР продукт далее использовали в качестве матрицы для обнаружения исследуемых мутаций методом аллель специфичной ПЦР в режиме реального времени. ПЦР в присутствии каждого из аллель-специфичных праймеров проводили в разных пробирках, содержащих кроме всего прочего одинаковые флуоресцентно-меченные зонды TaqMan.

В результате нами было отобрано 130 женщин репродуктивного возраста с признаками клинической гиперандрогемией. Всем обследованным женщинам проводился молекулярно-генетический анализ на наличие мутации гена CYP21A2 с целью выявления в гене наиболее часто встречаемых 4 (T999A, A/C655G, C1994T и T1380A) мутаций.

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

В результате проделанной работы было проведено генотипирование гена CYP21A2 по следующим 4 мутациям (T999A, A/C655G, C1994T и T1380A). Для этого был собран биологический материал (венозная кровь) у 120 женщин с симптомами клинической гиперандрогемии. Далее проводилось выделение ДНК и оценка его качества и количества. Проводился двухэтапный ПЦР анализ. На первом этапе был выполнен молекулярно-генетический анализ с помощью локус специфичных праймеров и проведена селективная амплификация гена. Это проводилось для того, чтобы отделить функциональный ген от псевдогена.

Праймеры для специфической амплификации гена CYP21A2:

FORWARD - 5' - GTCGGTGGGAGGGTACCTGAA -3'

REVERSE - 5' - AATTAAGCCTCAATCCTCTGCAGCG-3'

На втором этапе, после получения ПЦР продуктов, мы его разбавляли в 30 раз, это было необходимо для дальнейшей постановки аллель специфичного ПЦР анализа в реальном времени.

Молекулярно-генетический анализ гена CYP21A2 проведенный у 130 женщин выявил недостаточность 21-ГД в 16 случаях, что послужило основанием для дальнейшей постановки диагноза ВГКН.

По результатам проведенных исследований нами были получены следующие данные. Были выявлены 4 мутации из 4-х исследуемых в гене CYP21A2. Всего у всех отобранных для исследования женщин в 16 образцах были обнаружены мутации, что составляет 12,3% от общего числа обследованных. Здесь, сразу, хотелось бы отметить, что встречались случаи наличия нескольких мутаций у одного и того же пациента в гене.

Так, наиболее часто встречающейся мутацией явилась мутация C1994T, она встречалась у 11 исследуемых женщин, и это составляет 8,5% от общего числа, выявленные мутации все были гетерозиготами. На втором месте стоят сразу две мутации, это T999A и A/C655G эти мутации были выделены, каждая, в 2 исследованных образцах, что составляет каждая, по 1,53%. Мутация A/C655G также встречалась только в виде гетерозиготы, тогда как у мутации T999A наоборот оба выявленных случая гомозиготные. С мутацией T1380A был выявлен только один образец из числа исследованных женщин, что составляет 0,76% от общего числа исследованных женщин. Надо отметить, что выявленный образец был гетерозиготным.

Распределение мутаций среди общего количества исследованных женщин

Табл.№1

N	Мутация	Кол=во исследован образцов (n=)	гомозигота	гетерозигота	% от общего кол-ва
1	C1994T	130	-	11	8,5
2	T999A	130	2	-	1,53
3	A/C655G	130	-	2	1,53
4	T1380A	130	-	1	0,76

Несмотря на то, что полученные данные не являются полномасштабными, а только лишь предварительными, но по итогам проведенного исследования можно уверенно говорить



о необходимости использования молекулярно-генетических анализов и изучения точечных мутаций при изучении гена CYP21A2 и постановки диагноза ВГКН у женщин репродуктивного возраста.

ВЫВОДЫ

По итогам проделанной работы можно сделать следующие выводы:

Из 130 обследованных нами женщин на наличие 4 основных мутаций гена CYP21A2 были выявлены все 4 мутации, что составило 12,3%.

Также было выявлено, что наиболее часто встречающейся мутацией явилась мутация C1994T. Она представляет собой замену остатка цитозина на тимин в 8 экзоне, и это создает образование стоп -кодона в 318 положении полипептидной цепи и как следствие терминацию дальнейшего синтеза белка. Данная мутация приводит к полному прекращению ферментативной активности стероид 21-гидроксилазы.

Таким образом проведенное нами исследование показывает на его полезность и необходимость в постановке правильного диагноза, а также для назначения необходимого лечения и профилактики наследственной передачи различных форм гиперплазии надпочечников будущему поколению.

REFERENCES

1. Верещинский А.О. Надпочечно-половой синдром с точки зрения хирургической патологии и терапии. Вестн хир 1923; 4:3:207—219.
2. Далимова Д.А., Мирхайдарова М.Д., Миракбарова З.М., Турдикулова Ш.У. Молекулярно – генетический анализ мутаций в гене CYP21A2 цитохрома P54 человека, ассоциированных с врожденной гиперплазией коры надпочечников. / Инфекция, иммунитет и фармакология № 4, август 2017
3. Клиническая фармакология / под ред. А.Г. Гилманна. – М.: Практика, 2006. – С. 1269–1280.
4. Молекулярная эндокринология / под ред. Б.Д. Вайнтрауба. – М.: Медицина, 2003. – С. 440–458.
5. Каланходжаева Ш. Б., Хайдарова Ф.А. Репродуктивная функция при классической и неклассической формах врожденной гиперплазии коры надпочечников. Инфекция, иммунитет и фармакология. Ташкент, 2015 № 1 стр. 60-63.
6. Миракбарова З.М., Адилов Б.Р., Адылов Б.Ш., Далимова Д.А. Молекулярно-генетический анализ неклассической формы врожденной гиперплазии коры надпочечников среди

- женщин с симптомами гиперандрогении в Узбекистане. Стр. 339-340. Ёш олимлар илмий-амалий конференция - 22 декабрь. 2015 г.
7. Попова С.С. Неклассическая форма врожденной дисфункции коры надпочечников//Здоровья Украины.-2011.-№1.-С62-64.
8. Рахимкулова А.А., Ахметова В.Л., Малиевский О.А.,Хуснутдинова Э.К. Врожденная дисфункция коры надпочечников:поиск мутаций в гене CYP21A2//Вестник Башкирского университета.-2013.-Т.18,№4.-С.1039-1041.
9. Турдикулова Ш.У., Далимова Д.А., Давлетчурин Д.Х. Изучение роли цитохрома р450 в развитии ВГНК. Сборник тезисов международной научной конференции «Актуальные проблемы развития биоорганической химии» 15-16 ноября 2013г. С.156-157.
10. Шерешевский Н.А. Клиническая эндокринология. М 1946.
11. D. Dalimova D. Davletchurin , F. Khaidarova, S. Turdikulova , B. Adilov, Prevalence and spectrum of CYP21A2 gene mutations in women with symptoms of hyperandrogenism in Uzbekistan. European Journal of Human Genetics, May 2014. P.395.
12. D. Davletchurin, Haydarova F. Prevalence of Cytochrome P450c21 in Women with Symptoms of Hyperandrogenism in Uzbekistan. Rcent Trends In Physical &Biological Sciences Bangalore 2014, p. 60

KONVEYER TRANSPORTINI ELEKTR YURITMASINI TESKARI ALOQALI DATCHIKLARI VOSITASIDA BOSHQARISH

Oqiljon Abdurashit o'g'li Shodiyev

Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali assistenti:

shodiyevoqiljon2@mail.com

Elmurod Umaraliyevich Yuldashev

Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali assistenti:

yuldashevelmurodumaraliyevich@gmail.com

Mohinur Abduxakim qizi Yuldasheva

Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali assistenti:

yuldashevamohinur71@gmail.com

Ibrohimxon Saydijamol o'g'li Jalolov

Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali assistenti:

ibiroximjalolov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada konveyer transportini teskari aloqali datchik yordamida boshqarish va uni avtomatlashtirib optimal boshqarish modulini shakllantirish bo'yicha mazariy va laboratoriyadan olingan ma'lumotlar yetarli asoslari keltirilgan. Konveyer transportini avtomatik boshqarib elektr energiyasini iqtisod qilishga ham erishildi.

Kalit so'zlar: Konveyer transporti, asinxron elektr dvigateli, teskari aloqali datchik va chastota o'zgartirgichlar.

ABSTRACT

In this article, the sufficient basis of the information obtained from the laboratory and the laboratory on the control of conveyor transport with the help of a feedback sensor and the formation of an optimal control module by automating it are presented. Conveyor automatic driving has also been achieved to save electricity.

Keywords: conveyor, asynchronous electric motor, feedback sensor and frequency converters.

KIRISH

Energetika tizimida elektr energiyasini sifati va uning iqtisodiy sarfi bo'yicha keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda barcha borayotgan mamlakatimizda kundan kunga yangi loyihalar hayotga tadbiiq etilmoqda, ular orasida energiya resurslaridan tejamkorona foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlariga energiya tejamkor uskunalarni tadbiiq etish loyihalari katta ahamiyat kasb etgani holda, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda hamda ishlab chiqarish sifatinii oshirib, yangi bosqichga olib chiqishda katta ahamiyat kasb etadi. Energiya tejamkor uskunalardan foydalanish energiyani tejash bilan bir qatorda ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatinii oshirib uning tannarxining arzon bo'lishiga ham asos bo'lib hizmat qiladi. Energiya tejamkor uskunalarni tadbiiq etish loyahasini eng katta ishlab chiqarish tarmog'i hisoblangan sanoat korxonalariga tadbiiq etish hamda u yerda qo'llaniladigan katta quvvatli uskuna va mexanizmlarni energiya tejamkor elektr qurilmalari bilan jihozlash juda katta iqtisodiy samaradorlikka erishishga hizmat qiladi. Jumladan kon sanoat mashinalari ichida eng keng miqyosda qo'llaniladigan konveyer transporti elektr yuritmalarini energiya tejamkor qurilmalar bilan almashtirish va avtomatlashtirish orqali katta miqdordagi energiya tejamkorligiga hamda ishlash samaradorligini sezilarli oshirishga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mamlakatimizda energiya resurslaridan oqilona foydalanish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning qay darajada muhim iqtisodiy asosga ega ekanligini ushbu sohaga doir chiqarilgan prezident farmonlari orqali ham bilish mumkin. Jumladan O'zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan 2020-yil 19-iyunda imzolangan "Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida"gi O'RQ-628 sonli qarori bunga yorqin misol bo'la oladi. [1]


Hozirda kon sharoitida va ishlab chiqarish korxonalarida qo'llaniladigan konveyer transporti ko'p qismi elektromexanik o'zgartkichli tizimda ishlaydi, bu uning foydali ish ko'effitsenti past bo'lishiga hamda mexanik ishqalanish kuchliligi sababli mexanizmning ish muddati kam bo'lishiga va ta'mirlash harajatlarining oshishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari qurilma juda murakkab tuzilgan bo'lib uning ishlash tamoyili zamonaviy energiya resurslaridan foydalanish standartlariga mutlaqo mos kelmaydi. Konveyer transportini boshqarishda qo'shimcha qarshilik ulash orqali amalda qo'llaniladi. Bu holatda konveyer transportini foydali ish ko'effitsenti 60÷65 % dan yuqori bo'lmaydi. Bu ko'rsatgichlardan energiya samaradorligi past ekanligi ma'lum

bo'ladi. Konveyer transportini o'zgartirgichli tizimida tarmoqdan qabul qilinayotgan elektr energiyasi dastlab chastota o'zgartirgichga berilib avval $f=0$ bo'lgan o'zgarimas tokga aylantirib olinadi va $U/f=\text{const}$ shartiga asoslanib chastotasini kuchlanish bilan mutanosib ravishda o'zgartirib boriladi. Bu jarayonda ishtirok etayotgan yarim o'tkazgichli materiallari qizishi, diodlardagi isrof hamda qo'shimcha qarshiliklardagi energiya isroflarini inobatga oladigan bo'lsak, bu tizimning foydali ish koeffitsienti juda yuqori ko'rsatgich bo'lishini kuzatishimiz mumkin. Konveyer transportini elektr yuritma tizimini yangi turdagi tizimga almashtirish orqali quyidagi afzalliklarga erishish mumkin: yuqori foizli foydali ish 84% gacha, qulay boshqaruv, ta'mirlash qulayligi va soddalashtirilishi, tezlikni silliq va chiziqli o'zgartira olish imkoniyati. [145-166]

NATIJALAR


Konveyer transporti, yuk tashuvchi ko'p qo'llaniluvchi transport turiga kiradi. Konveyer transporti elektromexanik uskuna safiga kiruvchi og'ir ishga tushuvchi mexanizm tarkibiga kiradi. Konveyer transportini avtomatlashtirishda asosiy ish bajaruvchi qurilma bu teskari aloqali datchik hisoblanadi. Tiristorli o'zgartirgich tizimini va elektromexanik tizimdagi ko'rsatgichlarni o'zaro solishtiradigan bo'lsak, unda tiristorli qurilmada energiya samarador ko'rsatgichlar yuqori bo'lishini ko'rish mumkin. Konveyer transporti elektr yuritmasiga qarshilik ko'rsatuvchi momentlar mavjud. Bularga: ishchi mexanizm, ishqalanishda hosil bo'lgan qarshilik momenti va yuk ortilgandagi yukning massasiga bog'liq bo'lgan qarshilik momentlari ham inobatga olinadi. Konveyer transportini harakatiga dinamik moment eng katta qarshilik ko'rsatuvchi moment hisoblanadi.

Удеф, даН



1-rasm. Konveyer transportini kuchlanishni qarshilik momenti bog'liqlik grafigi $U=f(N/M)$

Konveyer transportini ishga tushirishini avtomatlashtirish orqali ishga tushirish tokini cheklash va chiziqli ishga tushirish imkonini beradi. Chiziqli ishga tushirish elektromexanik qurilmani ravon ishga tushirib unga berilayotgan kuchni ma'lum bir vaqt ichida yengib o'tish imkoniga ega bo'ladi.



2-rasm. Elektr yuritmani o'tkinchi jarayonidagi tok kuchini vaqtga bog'liqlik grafigi
Ishga tushirish toki bo'yicha uch xil usulda tajribalar o'tkazildi.

- 1-To'g'ridan to'g'ri
- 2-Qo'shimcha qarshilik ulash orqali
- 3-Teskari aloqali datchik orqali ishga tushirish

Energetik ko'rsatgichlar	Konveyer transportini boshqarish tizimlari	
	Qo'shimcha qarshilik ulash orqali boshqarish	Teskari aloqali datchik vositasida boshqarish
Umumiy foydali ish koeffitsenti mexanizmlar va yuritmalardagi %	65	84
Quvvat koeffitsenti , $\cos\phi$	0.86	0,9
Ishga tushirish toki koeffitsenti $K_{ish/t}$	2.3÷3	1.1÷1.3
Ishga tushish vaqti $t_{ish/v}$	2÷2.5	2.7÷3

MUHOKAMA

Konveyer transportining elektr yuritgichlarini ishga tushirish usullari uning qo'llanilayotgan sharoitdan kelib chiqqan holda tanlanadi. To'g'ridan to'g'ri ishga tushirish usuli qiya holatda o'rnatilgan konveyerlarda qo'llash uchun samarali hisoblanmaydi. Bu holatda yuritgichni qo'shimcha qarshiliklar ulash orqali ishga tushirish maqsadga

muvoq bo'radi. Ularni ishga tushirish usuli qanday bo'lishidan qattiq nazar ish jarayonida texnologik jarayonning o'zgarishini uzliksiz nazorat qilish va elektr yuritgich quvvatini shu asosda boshqarish katta unumdorlikka va energiya tejamkorligiga erishishga yordam beradi. Konveyer transportining yukli va yuksiz holatlarida elektr yuritgich tezligi va quvvatining nominalda bo'lishi ortiqcha energiya yo'qotilishiga olib keladi. Teskari aloqa datchiklari yordamida texnologik jarayonidagi o'zgarishlarni elektr yuritgich boshqaruv tizimi bilan bog'lash orqali elektr yuritgichni optimal parametrlarda ishlatishini ta'minlashimiz mumkin. Bu usul har tomonlama zamonaviy, iqtisodiy va energiya tejamkor usul hisoblanib, optimal parametrlarini saqlash orqali elektr yuritgich va texnologik qurilmalarni uzoq vaqt xizmat qilishiga zamin yaratadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayonlariga tadbiiq qilish orqali nafaqat katta samaradorlik va energiya tejamkorligiga balki ishlab chiqarish jarayonini to'la avtomatlashtirishga erishishimiz mumkin. Teskari aloqa datchiklari yordamida ishlab elektr yuritgichni boshqaruv tizimini qo'llash orqali konveyer elektr yuritgichini boshqarish orqali konveyer transportini texnologik jarayonining borishini to'la nazoratga olish, har qanday nonarmal o'zgarishlarni sezish va o'z vaqtida sozlash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Texnologik jarayonni avtomatlashtirish orqali ishchilarning mexnatini osonlashtirish, havfli va murakkab sharoitlarda qo'llaniladigan konveyer transportlarini boshqarishni soddalashtirish va xizmat muddatini oshirish mumkin.

REFERENCES

1. T Annakulov, D Mamatov, K Eshonqulov "Application of belt conveyors and determination of the main parameters of mobile complexes for the transportation of overburden rocks of the Angren coal mine" (2-3) <https://scholar.google.com/scholar?cluster=11261036861135727132&hl=en&oi=scholar>
2. А.М. Макаров, А. С. Сергеев Е. Г. Крылов, Ю. П. Сердобинцев (2016) "Системы управления автоматизированным электроприводом переменного тока" Волгоград (131-188)
3. Шубенко В.А. (1967) «Асинхронный электропривод с тиристорным управлением» Энергия -96 с. 3,4 (www.twirpx.com/file/169375)
4. A. Teshaboyev, S. Zaynobidinov , E. Musayev (2006) "Yarim o'tkazgichlar va yarimo'tkazgichli asboblarni texnologiyasi" Toshkent 5 (323-234)

YANGI O‘ZBEKISTONDA ILM-FAN SOHASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLOHOTLAR

Sevinch Rajabova

Shahrizoda Xaydarqulova

Toshkent davlat transport universiteti talabalari

Ilmiy rahbar: M.N Hasanov

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada uyg'onish davrini bevosita ta'lim sohasisiz tassavvur qilish mushkul bo'lgan davrda yoshlarning ta'lim tarbiyasini eng birlamchi masalalaridan biri qilib ilgari surgan holda, amalga oshirilayotgan keng ko'lamdagi islohotlarning yaqin yillarda o'zining kutilgan natijalarining ilmiy xulosalari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim-tarbiya, uchinchi Renessans, "Baytul hikma", "Ma'mun akademiyasi", "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiya"si.

KIRISH

Globalashuv davrida Yurtimizda yangilanish jarayonlari va islohotlar amalga oshirilayotgan bir davrda mamlakatizning ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy hayotida tub o'zgarishlarga erishish, va uning kelajagini ta'minlash uchun, avvalo, yosh avlodlarning dunyoqarashini shakllantirishda milliy qadryatlarimizga tayangan holda yangi O'zbekistonda yangicha dunyoqarashni shakllantirishga ehtiyoj sezilmoqda. Shu boisdan, yoshlarimizda vatanga muhabbat ruhini uyg'otishda, avvalambor, ta'lim-tarbiyaga alohida e'tibor qaratish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega. Bu esa Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash hamda O'zbekistonni rivojlantirishning asosiy shartlaridan biridir. Hozirgi paytda mamlakatimizning ishlab chiqarish sohalariga muttasil ravishda yuqori samaradorlikka asoslanib kelmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlangan davlatlar safidan o'rin olishga harakat qilayotgan O'zbekiston uchun bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonlarida asosiy diqqat-e'tibor yoshlarning ijtimoiy-siyosiy dunyo qarashlarini, fikrlashlarini Vatan manfaatlariga yo'naltirish dolzarb vazifalardan biridir. Bugun Yurtimizda yangilanish jarayonlari va islohotlarga dahldorligini chuqur his qiladigan, mamlakatimizning eng rivojlangan davlatlar qatoriga kirishidagi o'z o'rnini va ishtirokini teran anglaydigan, bu yo'lda faol fuqarolik pozitsiyasiga, kreativ va innovatsion tafakkurga va g'oyaga ega bo'lgan zamonaviy yoshlarni tarbiyalashda ta'limni rivojlantirishning konseptual asoslari va amaliy faoliyat mezonlari ishlab chiqilmoqda.

Kelajak poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida, avvalo shaxsni ko‘rishi lozim. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, komil insonlar etib voyaga yetkazish ishi ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lib qoladi. Bu esa ta’lim va tarbiya ishini uyg‘un holda olib borishni talab etadi. Talimni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham hozirgi sharoitda butun mamlakat miqyosida ta’lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o‘rgatish tizimlarini tubdan yangicha isloh qilishga nihoyatda katta e’tibor qaratilayotganligining boisi ham shunda. Ko‘plab mamlakatlar barqaror rivojlanishining yangi darajaga ko‘tarilishi va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlaydigan asos, bu ta’lim, fan hamda innovatsiyadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugun jahon miqyosida yurtimiz haqida so‘z ketganda “yangi O‘zbekiston” iborasi tilga olinmoqda. Bu keyingi yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo‘yganimiz, erishayotgan zalvarli yutuqlarimizning e’tirofidir. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29 yilligi munosabati bilan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tantanali tabrik nutqida taraqqiyotimizning maqsadi Uchinchi Renessans bo‘lishi lozimligini ta’kidladi. Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo‘ladi.

Haqiqatan tarixan olganda biz ikki Renessansni boshdan kechirdik:

1. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda Mo‘g‘ullar istilosigacha bo‘lgan davr, u al-Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi qomusiy olimlar, astranom al-Farg‘oniy, Buxoro tarixchisi Narshaxiy, Ibn Sino kabi qomusiy olimlar, astronom al-Farg‘oniy, Yusuf Xos Hojib kabi buyuk daholar, buyuk muhaddislar – Buxoriy, Termiziy, Mutakallimlar – Moturidiy va Abul Muin Nasafiy hamda boshqa atoqli dunyoviy va diniy allomalar shuuri olamni yoritishi bilan bog‘liq.

2. Ikkinchi Renessansi XIV asr oxirgi choragi – XVI asr birinchi choragi Sohibqiron Amir Temur va temuriylar sulolasi 1,5 mln.kv. kilometr territoriyada hukmronlik qilgan (XIV-XVI asrlar) davriga to‘g‘ri keladi. Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Jamshid al-Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy, Nizomiddin Mir Alisher Navoiy, Husayin Voiz Koshifiy, Kamoliddin Begzod kabi buyuk me’morlar, bastakorlar,

musavvirlar, tarixchilar chiqib, bugun ham dunyoni lol qoldirayotgan asarlar yaratdilar.

“Baytul hikma”da 40 dan ortiq tarjimonlar qadimgi yunon tilidan, 14 nafar tarjimon sanskrit tilidan, 4 nafar tarjimon Xitoy tilidan ilmiy, tibbiy va falsafiy asarlarni arabchaga o‘g‘irgan. “Baytul hikma”, Xorazm Ma‘mun Akademiyasi, umuman, islom olami olimlari faoliyati o‘sha davrdagi xalqaro ilmiy integratsiyaning eng yorqin namunalari biridir. Birinchi va ikkinchi renessanslarning ma‘naviy asoslarini va sabablarini hamda keyingi inqirozini chuqur o‘rganmasdan, biz Uchinchi Rennessansni muvaffaqiyatli amalga oshira olmaymiz. Bugun ham bizga goyaviy va ilmiy tolerantlik, ilmga, haqiqatga tashnalik, milliy mahdudlikni, g‘oyaviy mutassiblikni tamomila inkor etish xos bo‘lmog‘i lozim.

Har ikki Rennessans davrida biz dunyoning ilg‘or, mutaraqqiy xalqlari qatorida edik. Agar yana shunday darajaga erishmoqchi bo‘lsak, Uchinchi Rennessansni amalga oshirishimiz zarurdir.

Uchinchi Rennessans bizdan xalqaro hamjamiyatga ilm-fan, texnologiyalar, axborot, madaniyat va iqtisodiyot sohalari yanada chuqurroq integratsiya zarurligini taqozo etadi. Jamiyat taraqqiyotining pirovard maqsadi ham inson, uning farovon, erkin va xavfsiz turmush kechirishidir. Jamiyat talablariga to‘liq javob beradigan kishi turli davrlarda har xil atalgan. Yusuf Xos Hojib uni “tugal er”, Forobiy “fozil kishi”, tasavvuf namoyandalari “komil inson” deb ataganlar. “Har tomonlama rivojlangan shaxs”, “uyg‘un rivojlangan shaxs” atamalari ham qo‘llanilgan.

Abdulla Avloniy tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir deb takidlagani hozirgi kunda biz ayni chog‘da hayot-mamot masalasi – farzandlarimizning ta‘lim-tarbiyasini eng birlamchi masalalaridan biri qilib ilgari surilayotkani ham so‘zimizni isboti desak bo‘ladi. Bugungi kunda olib borilayotga siyosat ham yaqin yillarda o‘zining kutilgan natijasini beradi. Bizning tabarruk zaminimizdan butun dunyo Uyg‘onishga turtki bergan Ibn Sino, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi olim va ijodkorlar yana ko‘plab yetishib chiqishiga ishonamiz.

Nihoyatda jozibali mazkur strategik g‘oya o‘zining ulug‘vorligi, milliy yuksalish barcha sohalarda qanday umumiy maqsadni ko‘zlamog‘i zarurligini ko‘rsatadi. Amalda davlat rahbari taraqqiyotning hozirgi bosqichida O‘zbekiston milliy g‘oyasining yangi va aniqlashtirilgan mazmunini ifoda etadi.

Darhaqiqat, keyingi yillarda yosh avlod tarbiyasida hal qiluvchi o‘rin tutadigan bog‘chalar va maktablar tizimida maqtanishga arzigulik ulkan ishlar qilindi. Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari qurish hamda Zamonaviy maktab dasturini joriy etish borasidagi say-harakatlar ham izchillik bilan davom ettirilmoqda. Binobarin, O‘zbekiston respublikasi prezidentining “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni ushbu islohotlarni amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. “O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, - degan edi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev, - bunga faqat islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun yangi avlod o‘quv yurtigacha, ta’limning barcha bo‘g‘inida islohot qilishni boshladik. Ilm yo‘q joyda, qaloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi. Sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir. Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi milliy kadriyatlarimizga sodik bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi lozim.

2019-2021 yillarda mutlaqo yangi mazmun va shakldagi 14 ta Prezident maktabi, 9 ta Ijod maktabi ish boshladi. Oliy ta’limni rivojlantirish uchun 2022-yil xolatiga ko‘ra oliy o‘quv yurtlari soni 162 taga yetgan, jumladan, 30 ta nufuzli xorijiy universitetning filiallari xamda 25ta nodavlat oliy o‘quv yurtlari . Yetakchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda 141 ta qo‘shma ta’lim dasturi bo‘yicha kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Oliy ta’lim muassasalariga 2021-2022- o‘quv yilida jami 808,4 nafar talaba o‘qishga qabul qilindi.

Amalga oshirayotgan islohotlarimiz jahon hamjamiyati tomonidan munosib baholanmoqda. Xususan, dunyodagi nufuzli nashrlardan biri – “Economist” jurnali O‘zbekistonni 2019 yilda islohotlarni eng jadal amalga oshirgan davlat – “Yil mamlakati” deb e’tirof etdi. Buyuk Britaniyaning Times Higher Education agentligi tomonidan e’lon qilingan “World University Rankings – 2023” reyting natijalariga ko‘ra, bu yil respublikaning yana 18 ta oliy ta’lim muassasasi «reporter» maqomida qayd etildi. Bu bilan Top-1000 talik reytingdan joy olish uchun da’vogarlar o‘tgan yilgi 10 tadan 28 taga yetdi. Taraqqiyot strategiyasi loyihasiga ko‘ra, kelgusi 5 yilda maktabgacha ta’limdagi qamrov darajasini 62 foizdan 80 foizga yetkazish rejalashtirilmoqda. 2026-yilga kelib esa 6 yoshli bolalarni 100 foiz maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish kutilmoqda. Buning uchun esa 7 mingdan ortiq nodavlat muassasalarni qurish, 160 mingdan ko‘proq kadrlar malakasini oshirish maqsad qilingan.

Oliy ta'limda yoshlar uchun barcha qulayliklar joriy etilmoqda. Shuning uchun maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 2020 yilda 25 foizga va kelgusida 50-60 foizga yetkaziladi. So'nggi 4 yilda mamlakatimizda 43 ta yangi oliy ta'lim muassasasi tashkil etilib, ularning soni 121 taga yetdi. 2022-2023 yili oliy o'quv yurtlariga kirish uchun 1,2 millionga yaqin yoshlarimiz hujjat topshirdi (2020 yilda salkam 1,5 million). Davlat granti bo'yicha o'qiyotganlar 120 ming nafarni (jamiga nisbatan 14,8 foiz) tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkichlar 2020/2021-o'quv yiliga nisbatan taqqoslanganda davlat granti bo'yicha o'qiyotganlar soni 23 ming nafarga (23,5 foizga) ortgani kuzatiladi. Ma'lumot uchun, 2022/2023-o'quv yili uchun ham 190 mingdan ziyod abituriyent talabalikka tavsiya etildi..

Yurtimizda Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar masalalari bo'yicha idoralararo kengash tashkil etildi. Oliy Majlis palatalari Yoshlar parlamentlari, Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tuzildi. Hududlarda "Loyihalar fabrikasi" ish boshladi. "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi doirasida iqtidorli va tashabbuskor o'g'il-qizlarimizning 8 mingdan ziyod biznes loyihalariga qariyb 1,7 trillion so'm miqdorida imtiyozli kreditlar ajratildi. Hukumat qarori bilan, xotin-qizlarga tijorat banklari tomonidan foizsiz ta'lim krediti ajratish tartibi joriy qilingandi. Bunda, talaba va bank o'rtasida 14%li ta'lim krediti ajratish to'g'risida shartnoma imzolandi hamda kredit bo'yicha foiz stavkalari to'liq davlat byudjetidan qoplanadi. Ma'lumki, har qanday mustaqil davlat mustahkam ma'naviy poydevorga ega bo'lgandagina yuksak taraqqiyotga erisha oladi. Shu boisdan ham biz "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" doirasida umumta'lim maktablarida birinchi marta "Tarbiya" fanini joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida Vazirlar Mahkamasi karor qiladi:

Konsepsiyaning maqsadi — yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarini yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat.

Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

-birinchi bosqich — oilalarda (ikki davr asosida: birinchi davr — homila davri, ikkinchi davr — bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davr);

-ikkinchi bosqich — maktabgacha ta'lim 3 — 6 (7) yoshgacha bo'lgan davr;

-uchinchi bosqich — umumiy oʻrta taʼlim tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr — 7 (6) — 10 yosh boshlangʻich sinf, ikkinchi davr — 11 — 17 yosh oʻrta va yuqori sinflar);

-toʻrtinchi bosqich — ishlab chiqarishda faoliyat koʻrsatayotgan va band boʻlmagan yoshlar, shuningdek, oʻrta maxsus kasb-hunar va oliy taʼlim muassasalari tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr — oʻrta maxsus kasb-hunar va oliy taʼlim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat koʻrsatayotgan va band boʻlmagan yoshlar — 17 — 30 yosh, ikkinchi davr — oʻrta maxsus kasb-hunar, oliy taʼlim muassasalarining oʻquvchi-talabalari 15 — 22 (24) yosh).

Tarbiya va taʼlimni bir-biridan alohida ajratib boʻlmaydi, bu ikki jarayon oʻzaro uygʻun, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak maʼnaviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sogʻlom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi boʻlgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

Konsepsiyaning joriy qilinishi uzluksiz maʼnaviy tarbiya jarayonining tizimli tashkil etilishiga, tarbiya sohasining ilgʻor innovatsion texnologiyalar asosida takomillashuviga, yoshlarning Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, masʼuliyatlilik, bagʻri kenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi tayanch kompetensiyalar bilan mustaqil hayotga kirib borishlari uchun zarur shart-sharoitlar

Buning uchun ularning hayoti va faoliyatiga oid badiiy asarlar, kinofilmlar, teatr asarlari, hujjatli filmlar yaratish zarur. Ularning portretlari maktab, kollej, litsey, oliy taʼlim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalarini, madaniyat saroylari, kutubxonalar, kino va konsert zallari foyelarida, xatto metro bekatlarida boʻlsa, yosh avlodga oʻrnak olish, taqlid qilish, intilish uchun imkoniyatlar yaratgan boʻlar edik. Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov oʻz paytida ijod ahliga kino, televideniye va teatrlarimizda zamonamiz qahramonlari obrazlarini yaratish toʻgʻrisida nihoyatda zarur koʻrsatmalar bergan edi. Lekin, afsuski, bu vazifa koʻngildagidek bajarilmadi. Chunki farzandlarimiz oʻzimizning milliy qahramonlarimizni bilmasa, u holda, chetdan “qahramon” izlab topadi. U topgan “qahramon” banklardagi seyflarni ochib, pul oʻmaradigan oʻgʻrimi, odam oʻldirishdan tap tortmaydigan ashaddiy kallakesarmi, insonlarning mabdagʻlarini turli zamonaviy usullar bilan oʻzlashtiradigan firibgarmi, bunisi endi bizga nomaʼlum. Aytishadiku, agar biz oʻz farzandlarimizni oʻzimiz tarbiyalamasak, ularni “tarbiyalovchilar” bir zumda topiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ta'lim-tarbiya — kelajak, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Zero, mamlakatimiz aholisining 64% yoshlar tashkil etar ekan, ularni Yurtimizdagi yangilanish jarayonlari va islohotlar davrida yoshlarni millat, ona Vatanga muhabbat va ularning taqdiriga befarq bo'lmagan hamda o'z ajdodlariga munosib zamonaviy yoshlar etib ulg'aytirish maqsadida ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda, chekka hududlarda ham zamon talablariga mos maktablarning barpo etilishi, shuningdek, iste'dodli o'quvchilarni rag'batlantirish borasidagi keng ko'lamlı ishlar samarasi bugun erishilayotgan natijalar, yutuqlarda o'z ifodasini topmoqda. Darhaqiqat, yangilanayotgan O'zbekistonda kelajagi negizi bu yuksak marralarni ko'zlab katta yo'lga chiqqan, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etayotgan biz yoshlarmiz. Shunday ekan, hozirgi kundagi Prezidentimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar va islohotlardan foydalangan holda barchamiz yagona maqsad yo'lida vijdonan ishga kirishsak, albatta, zafar biz tomonda bo'ladi.

REFERENCES

1. Мирзиёев М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Т.: 2021. 294-295 б.
2. Ёш ота-она китоби. Узлуксиз маънавий тарбия трилогияси. 1-қисм: 3 ёшгача бўлган болаларни маънавий тарбиялаш бўйича қўлланма. -Т.:Muharrir nashriyoti, 2018. 7-бет.
3. Давронов З. Баркамолликка даъват мактублар. – Т.:, “Иқтисод-молия”, 2011. - 116-бет.
4. Saifnazarov, I., Muhtarov, A., Sultonov, T., Tolibov, A. (2020) Religious tolerance, unity of knowledge and faith issues highlighting in Imam Bukhari Hadiths. *International Journal of Advanced Science and Technology* 29 (5), pp. 1846-1853.
5. Kadamovich, Y. J., Muzaffarova, I. G., Maxmudovich, Y. B., Boxtiyarova, S. S., & Xabibullayevich, S. S. (2020). Social justice as a condition of socio-spiritual stability in society. *Journal of Critical Reviews*, 7(5), 816-818.
6. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Х., Муратова, Д.А., Хасанов, М.Н., & Эрнїезов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНІЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОЊИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10), 376-386.
7. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Х., Кушаков, Файзулла Абдуллаевич., Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). ҲОЗИРГИ ДАВРДА ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ



ҲАҚИДАГИ ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЛҚИНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (9), 647-656.

8. Исмоил Саифназаров, & Сирожбек Ҳабибуллаевич Султанов (2022). ИЖТИМОЙ АДОЛАТНИ МУСТАҲКАМЛАШДА ИЖТИМОЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ УСТУВОР ЖИҲАТЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 1), 71-76.

9. Султанов, С. Х. (2013). МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ ПРОТИВ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ. *SCIENCE AND WORLD*, 67.

10. 6. Умарова Р. Ш., Абдукаримова Г. Б., Тухтабоев Э. А. Вклад Абу Райхана Беруни в развитие философии Ближнего, Среднего Востока и мировой науки //Проблемы науки. – 2019. – №. 12 (48). – С. 65-66.

11. 7. Абдурахмонова, З. Ю. (2021). ЗАМОНАВИЙ ЎҚИТИШНИНГ МУАММО ВА ЕЧИМЛАРИДА САМАРАЛИ ЁНДОШУВ. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 1189-1193.

12. Arifov, N., Kamaletdinov, S., Tokhirov, N., & Abduraxmanova, Z. (2022). Simulation Modeling of Train Traffic Based on GIS Technologies. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 16, 73-82.

13. Ж. С. Раматов, Л. А. Валиев, & М. Н. Хасанов (2022). АУРОБИНДО ГҲОШ ТАЛҚИНИДА ИНСОН БОРЛИҒИНИНГ АНТРОПОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (6), 688-695.

14. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Ҳ., Муратова, Д.А., Хасанов, М.Н., & Эрниёзов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10), 376-386.

15. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Ҳ., Кушаков, Файзулла Абдуллаевич., Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). ҲОЗИРГИ ДАВРДА ИЖТИМОЙ АДОЛАТ ҲАҚИДАГИ ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЛҚИНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (9), 647-656.

16. Ж. С. Раматов, & М. Хасанов (2022). ШАХС ДИНИЙ ДУНЁҚАРАШИНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА ИЛМНИНГ АҲАМИЯТИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (7), 35-39.

17. Ш.Ф.Турабоев, З.Т.Тоиров, Ж.З.Абдуллаев, Ш.М.Ғуломов, & М.Н.Ҳасанов. (2022). ФОРОБИЙНИНГ ФАЛСАФИЙ АСАРЛАРИДА ИНСОННИНГ КЕЛИБ

ЧИҚИШИ . *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*,4(3),141–146.

18. Бобошев, З. Н., Ҳасанов, М. Н., & Нуруллаев, Э. А. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ПЕДАГОГИКА ФАНИНИНГ АСОСЧИСИ СИФАТИДА.

19. J. S. Ramatov, Mirshod Numonovich Hasanov, L. A. Valiyev Sharq uygʻonish, mutafakkirlar davri, siyosiy-huquqiy taʼlimotlar (Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniyung Siyosiyhukukiy Qarashida) // Taʼlim fanlaridagi akademik tadqiqotlar. 2022 yil. 6-son. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/shar-uy-onish-davri-mutafakilarinin-siyosiy-uu-iy-talimotlari-abu-nasr-forobiy-abu-ray-on-beruniyung-siyosiy-uu-iy-arashlari> (kirish sanasi: 27.10.2022).



YUQORI CHIZIQIY ZICHLIKDAGI XOM IPAKNI KOMPENSATSIYALASH DAVRINI TEZLIKGA BOG‘LIQLILIGI TADQIQOTI

San‘at Sunnatovich Haydarov

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti assistenti

Nigora Murtozayevna Islambekova

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti professori

ANNOTATSIYA

Maqolada xom ipakni chiziqiy zichligini rostdashda dastani pilla bilan to‘ldirish vaqti aniqlanib, kompensatsiyalash davrini tezlikga bog‘liqliligi tadqiqoti olib borilgan. Takomillashtirilgan mexanik dastgohida yuqori chiziqiy zichlikdagi xom ipak olish dastgohida 1 tazda 4 ta ilgich bo‘lib, bir chuvuvchi to‘rtta ilgichni nazorat qilishi, pilla tashlash imkoniyatidan kelib chiqib 70-90 m/min oralig‘ida 30 tekstdan 40 teksgacha bo‘lgan yuqori chiziqiy zichlikdagi xom ipakni ishlab chiqarish yo‘llari keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Pilla, xom ipak, yuqori chiziqiy zichlik, teks, kompensatsiyalash.

KIRISH

Respublikamizda sifatli pilla xom ashyosi yetishtirish, yetishtirilgan pilladan jahon standarti talablariga javob beradigan yuqori sifatli xom ipak chuvib olish, ipakli mahsulotlar sifatini yaxshilash va assortiment turlarini kengaytirish, tannarxini kamaytirish, mahsulot sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf qilishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ipakchilik tarmog‘ini rivojlanishi pillakorlarning daromad manbaini oshiribgina qolmay, balki yetishtirilgan pilla miqdorini ko‘payishiga, undan olinadigan xom ipak, ipakli mahsulotlarning miqdorini ortishiga, hamda xorijiy davlatlarga eksport qilishda mahsulotlar hajmini ko‘payishiga olib kelish bilan birga Respublikamiz iqtisodiyotining rivojlanishiga ham ta‘sir ko‘rsatadi [1-2].

Pilla va xom ipak sifatini yaxshilash esa ipak qurtini boqish va pilla o‘rash davridagi shart-sharoitlarga bog‘liq holda chuvib olinadigan xom ipakning assortimentiga ham bog‘liq bo‘ladi. Hozirgi kunga kelib xom ipak assortimentlari cheklangan miqdorda ishlab chiqarilmoqda. Lekin gilam va gilam mahsulotlari olishda ishlab chiqarilayotgan xom ipaklar asosan kichik chiziqiy zichlikdagi xom ipak bo‘lib undan

tayyorlanadigan xomashyo ko'p vaqt, texnologik jarayonlar ko'pligi bilan mashaqatli hisoblanadi. Tadqiqot ishida takomillashtirilgan mexanik pilla chuvish dastgohida yuqori chiziqiy zichlikdagi xom ipak olish bo'yicha tadqiqotlar olib borildi [3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqot ishida Navro'z-3 va Xitoy elita duragay pillalardan yuqori chiziqiy zichlikdagi xom ipakni mexanik pilla chuvish dastgohida ishlab chiqarish jarayonida ilgich ostini pilla bilan to'ldirish masalalarini ko'rish uchun umumiy uzunlik, uzluksiz uzunlik, pilla ipining chiziqiy-zichligi aniqlab olindi [4-5].

Pilla ipining umumiy va uzluksiz chuvaluvchan uzunligi

jadval-1


Pilla duragayi	Umumiy uzunligi, m	Uzluksiz chuvaluvchan uzunlik, m	Pilla ipining chiziqiy zichligi, teks
Navro'z-3	1275	987	0,34
Xitoy elita	1157	940	0,31

Olingan natijalar umumiy uzunlikka bog'liq holda uzluksiz chuvaluvchan uzunlikni ikkita duragayda o'zgartirib, 15 dan 40 teksgacha xom ipak olindi (1-2 rasmlar).

Pillarni saralab navlarga ajratilgandan keyin chuvish tezligini 60 dan 90 va 100 dan 120 m/min gacha o'zgartirib, 15 dan 40 teksgacha xom ipak olindi (1-2 rasmlar).


Kompensatsiyalash davrini tezlikga bog'liqligi shuni ko'rsatdiki, chiziqiy zichlik ortib borishi bilan kompensatsiyalash davrini kamayishi kuzatildi. Ya'ni 70 m/min tezlik va xom ipakni chiziqiy zichligi 20 teks bo'lganda, kompensatsiyalash davri 28 sekundni, 40 teks da 20 sekundni tashkil qildi. 80 m/min tezlik va xom ipakni chiziqiy zichligi 20 teks bo'lganda kompensatsiyalash davri 23 sekundni, 40 teks da 17 sekundni, 90 m/min tezlik va xom ipakni chiziqiy zichligi 20 teks bo'lganda, kompensatsiyalash davri 19 sekundni 40 teks da 17 sekundni, 100 m/min tezlik va xom ipakni chiziqiy zichligi 20 teks bo'lganda, kompensatsiyalash davri 8 sekundni 40 teks da 13 sekundni, 110 m/min va 20 teks bo'lganda, kompensatsiyalash davri 13 sekundni 40 teks da 9 sekundni, 120 m/min va 20 teks bo'lganda, kompensatsiyalash davri 11 sekundni 40 teks da 3 sekundni, tashkil qildi.

Kompensatsiyalash davrini tezlikga bog‘liqliligi (uzluksiz chuvaluvchan uzunlik 987 m bo‘lganda)



1-rasm. Chuvish tezliklari: 1) 60 m/min, 2) 70 m/min, 3) 80 m/min, 4) 90 m/min, 5) 100 m/min, 6) 110 m/min, 7) 120 m/min.

Kompensatsiyalash davrini tezlikga bog‘liqliligi (uzluksiz chuvaluvchan uzunlik 940 m bo‘lganda)



2-rasm. Chuvish tezliklari: 1) 60 m/min, 2) 70 m/min, 3) 80 m/min, 4) 90 m/min, 5) 100 m/min, 6) 110 m/min, 7) 120 m/min.

Kompensatsiyalash davrini tezlikga bog‘liqligi shuni ko‘rsatdiki, chiziqiy zichlik ortib borishi bilan kompensatsiyalash davrini kamayishi kuzatildi. 70 m/min tezlik va xom ipakni chiziqiy zichligi 20 teks bo‘lganda, kompensatsiyalash davri 28 sekundni, 40 teks da 19 sekundni tashkil qildi. 80 m/min tezlik va xom ipakni chiziqiy zichligi 20 teks bo‘lganda, kompensatsiyalash davri 18 sekundni, 40 teks da 15 sekundni, 90 m/min tezlik va xom ipakni chiziqiy zichligi 20 teks bo‘lganda, kompensatsiyalash davri 14 sekundni 40 teks da 11 sekundni, 100 m/min tezlik va xom ipakni chiziqiy zichligi 20 teks bo‘lganda, kompensatsiyalash davri 11 sekundni 40 teks da 8 sekundni, 110 m/min tezlik va xom ipakni chiziqiy zichligi 20 teks bo‘lganda kompensatsiyalash davri 8 sekundni 40 teks da 5 sekundni tashkil qildi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki uzluksiz chuvaluvchan uzunlik, pilla ipi chiziqiy zichligi, nominal chiziqiy zichligi tezlikka va kompensatsiyalash vaqtiga bog‘liq bo‘lib, yuqori chiziqiy zichlikdagi xom ipakni olishda shularga e‘tibor berish kerak bo‘ladi.

XULOSA

Xom ipakni chiziqiy zichligini rostdashda dastani pilla bilan to‘ldirish vaqti aniqlanib, chivilish yaxshilangan pillalardan yuqori chiziqiy zichlikdagi xom ipak olish va ipak gilamlari mahsulotlariga ishlatishga tavsiya berildi.

Takomillashtirilgan mexanik dastgohida yuqori chiziqiy zichlikdagi xom ipak olish dastgohida 1 tazda 4 ta ilgich bo‘lib, bir chuvuvchi to‘rtta ilgichni nazorat qilishi, pilla tashlash imkoniyatidan kelib chiqib 70-90 m/min oralig‘ida 20 tekstdan 40 teksgacha bo‘lgan chizikli zichlikdagi xom ipakni ishlab chiqarish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 avgustdagi “Respublikada pillachilik tarmog‘idagi mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3910-son qarori 1-5 b.
2. <https://www.uzbekipaksanoat.uz/uploads/pages/perzent-uz.pdf>
3. Sreenivasa, Reddy, A., Surkhi, S., Roy, S. Silk Twisting Industry - An insight into facts and figures. Man-Made Textiles in India. 2008. 51(5), P. 152-154.
4. S.S. Khaydarov, N. M. Islambekova, N.M.Muxiddinov, N.F.Rasulova (2020). Increasing the yield of raw silk based on the study of reducing the anisotropy of the cocoon shell. The American Journal of Engineering and Technology, 2(09), 91-97.
5. Хайдаров С.С., Исламбекова Н.М., Азаматов У.Н. Юкори чизикли зичликдаги ипакни эшиш орқали янги ассортиментдаги ипларини ишлаб чиқариш технологияси тадқиқи. «Тенденсии развития легкой промышленности Республики Узбекистан: проблемы, анализ и решения» Сборник материалов международной онлайн конференции № 281/11.1 от 30 июня 2020. 121-126 б.

ЁШЛАРДА МАФКУРАВИЙ-МАЪНАВИЙ ТАРБИЯНИНГ АҲАМИЯТИ

Ф. Н. Камолов

Тошкент давлат транспорт университети талабаси

Ўразбой Кукланович Эрнӣзов

Илмий раҳбар, Тошкент давлат транспорт университети “Ижтимоий фанлар”
кафедраси ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада маънавиятни шакллантириш мезонларидан бири илму маърифат, таълим-тарбия, уларга инсон камолоти ва миллат равнақининг энг асосий шартлари ва гарови сифатида қаралган. Ёшларнинг таълим-тарбиясини энг бирламчи масалаларидан бири қилиб илгари сурилган ҳолда, ушбу сиёсатнинг яқин йилларда ўзининг қўтилган натижаларининг илмий ҳулосалари келтириб ўтилган.

Калит сўзлар: Миллий ғоя, маънавият, таълим-тарбия, учинчи Ренессанс, “Байтул ҳикма”, Маъмун академияси, “Тарбия” фани.

КИРИШ

Бутун дунёда жамиятни ахборотлаштириш жараёнлари тез суръатлар билан кечаётган бугунги кунда моддий неъматлар ва энергия билан бир қаторда ахборот инсон диққат-эътиборининг марказий фаолиятининг асосий маҳсулига айланмоқда. Миллий ғоя тарғиботи ва маънавий-маърифий тадбирларни ташкил этишда ватанпарварлик тарбияси, халқимизнинг эзгу идеаллари ва олийжаноб мақсадларига садоқат ғоялари шиор даражасидагина қолиб, миллий ғоянинг жаҳон тажрибасидан ўтган умуминсоний қонуниятлари ва Ўзбекистонга ҳос замонавий тамойилларини амалиётга татбиқ этишнинг самарали механизмлари жорий этилмаган. Юртимиздаги янгиланиш жараёнлари ва ислохотларга даҳлдорлигини чуқур ҳис қиладиган, мамлакатимизнинг энг ривожланган давлатлар қаторига киришидаги ўз ўрни ва иштирокини теран англайдиган, бу йўлда фаол фуқаролик позициясига, креатив ва инновацион тафаккурга эга бўлган замонавий шахсларни тарбиялашнинг концептуал асослари ва амалий фаолият мезонлари ишлаб чиқилмаган. Бу эса соҳада жиддий бўшлиқ мавжудлигини яна бир мартаба исботламоқда.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Маънавият – моддий ҳаёт билан доимо ёнма-ён юрадиган, инсон, халқ ва жамият ҳаётининг ажралмас қисми бўлган ижтимоий ҳодиса. Маънавият тушунчасининг мазмуни бугунги кунда фақат “маъни”, “маъно” деган сўзлар доирасидан чегараланиб қолмайди. Нега деганда, инсонни инсон қиладиган, унинг онги ва руҳияти билан чамбарчас боғланган бу тушунча, ҳар қайси одам, жамият, миллат ва халқ ҳаётида ҳеч нарса билан ўлчаб бўлмайдиган даражада алоҳида аҳамият касб этади. Маънавият тушунчаси жамият ҳаётидаги ғоявий, мафкуравий, маърифий, маданий, диний ва ахлоқий қарашларни ўзида тўла мужассам этади. Инсон камолоти, янги Ўзбекистоннинг маънавий қиёфасининг такомиллашув даражаси, шахсий-ахлоқий хусусиятлар ва маърифий фазилатлар мажмуи. Жамиятнинг барча соҳалари билан ўзаро алоқадор маънавий талаблар ва тамойиллар ҳамда инсон ҳаёти ва фаолиятини белгиловчи мезонлар тизими. **Маънавиятни шакллантириш мезонларидан бири илму маърифат, таълим-тарбия бўлиб, уларга инсон камолоти ва миллат равнақининг энг асосий шarti ва гарови сифатида қаралган.** Келажак пойдевори билим даргоҳларида яратилади, бошқача айтганда, халқнинг эртанги куни қандай бўлиши фарзандларнинг бугун қандай таълим ва тарбия олишига боғлиқ. Бунинг учун ҳар қайси ота-она, устоз ва мураббий ҳар бир бола тимсолида, аввало шахсни кўриши лозим. Ана шу оддий талабдан келиб чиққан ҳолда, фарзандларни мустақил ва кенг фикрлаш қобилиятига эга бўлган, комил инсонлар этиб вояга етказиш иши таълим-тарбия соҳасининг асосий мақсади ва вазифаси бўлиб қолади. Бу эса таълим ва тарбия ишини уйғун ҳолда олиб боришни талаб этади. Талимни тарбиядан, тарбияни эса таълимдан ажратиб бўлмайди. Шунинг учун ҳам ҳозирги шароитда бутун мамлакат миқёсида таълим ва тарбия, илм-фан, касб-хунар ўргатиш тизимларини тубдан янгича ислоҳ қилишга ниҳоятда катта эътибор қаратилаётганлигининг боиси ҳам шунда. Кўплаб мамлакатлар барқарор ривожланишининг янги даражага кўтарилиши ва миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини таъминлайдиган асос, бу-таълим, фан ҳамда инновациядир.

Бугун жаҳон миқёсида юртимиз ҳақида сўз кетганда “янги Ўзбекистон” ибораси тилга олинмоқда. Бу кейинги йилларда тараққиётнинг мутлақо янги босқичига қадам қўйганимиз, эришаётган залварли ютуқларимизнинг эътирофидир. Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг 29 йиллиги муносабати билан Президентимиз Шавкат Мирзиёев тантанали табрик нутқида тараққиётимизнинг мақсади Учинчи Ренессанс бўлиши лозимлигини таъкидлади.

Халқимизнинг улуғвор қудрати жўш урган ҳозирги замонда Ўзбекистонда янги бир уйғониш – Учинчи Ренессанс даврига пойдевор яратилмоқда, десак, айти ҳақиқат бўлади. Чунки бугунги Ўзбекистон – кечаги Ўзбекистон эмас. Бугунги халқимиз ҳам кечаги халқ эмас.

Биз, айти чоғда ҳаёт-мамот масаласи – фарзандларимизнинг таълим-тарбиясини энг бирламчи масалаларидан бири қилиб илгари суряпмиз. Бундай сиёсат яқин йилларда ўзининг қутилган натижасини беради. Бизнинг табаррук заминимиздан бутун дунё Уйғонишга туртки берган Ибн Сино, Мусо ал-Хоразмий, Абу Райхон Беруний, Мирзо Улуғбек, Алишер Навоий, Заҳриддин Муҳаммад Бобур каби олим ва ижодкорлар яна кўплаб етишиб чиқишига ишонамиз.

Ниҳоятда жозибали мазкур стратегик ғоя ўзининг улуғворлиги, миллий юксалиш барча соҳаларда қандай умумий мақсадни кўзламоғи зарурлигини кўрсатади. Амалда давлат раҳбари тараққиётнинг ҳозирги босқичида Ўзбекистон миллий ғоясининг янги ва аниқлаштирилган мазмунини ифода этади.

Ренессанс (уйғониш) атама сифатида унинг мазмуни анча кенг: маданиятда, илм-фанда, санъатда, таълим-тарбияда, умуман, жамият ҳаётида узок муддатли турғунликдан кейин қайта жонланиб, тез ривожланишни, ижтимоий онг ва кадрятлар тизими янги сифат босқичига чиқишни билдиради. Шарқ ренессанси – Шарқ маънавий-маърифий, маданий ҳаётидаги Уйғониш, яъни Шарқ халқлари юксалиш даври.

Ҳақиқатан тарихан олганда биз икки Ренессансни бошдан кечирдик:

1. IX-XII асрларда Марказий Осиёда Мўғуллар истилосигача бўлган давр, у ал-Хоразмий, Форобий, Беруний, Ибн Сино каби қомусий олимлар, астраном ал-Фарғоний, Бухоро тарихчиси Наршахий, Ибн Сино каби қомусий олимлар, астроном ал-Фарғоний, Юсуф Хос Ҳожиб каби буюк даҳолар, буюк муҳаддислар – Бухорий, Термизий, Мутакаллимлар – Мотуридий ва Абул Муин Насафий ҳамда бошқа атоқли дунёвий ва диний алломалар шуури оламни ёритиши билан боғлиқ.

2. Иккинчи Ренессанси XIV аср охири чораги – XVI аср биринчи чораги Соҳибқирон Амир Темур ва темурийлар сулоласи 1,5 млн. кв. километр территорияда ҳукмронлик қилган (XIV-XVI асрлар) даврига тўғри келади. Мирзо Улуғбек, Ғиёсиддин Жамшид ал-Коший, Қозизода Румий, Али Қушчи, Абдурахмон Жомий, Лutfий, Низомиддин Мир Алишер Навоий, Ҳусайин Воиз Кошифий, Камолиддин Бегзод каби буюк меъморлар, бастакорлар, мусаввирлар, тарихчилар

чикиб, бугун ҳам дунёни лол қолдираётган асарлар яратдилар.

Ҳар икки Ренессанс даврида биз дунёнинг илғор, мутараққий халқлари қаторида эдик. Агар яна шундай даражага эришмоқчи бўлсак, Учинчи Ренессансни амалга оширишимиз зарурдир.

Истиклол йилларида босиб ўтган шонли йўлимизга назар ташлаб, эртанги кунимизга, ўз куч ва имкониятларимизга бўлган ишончимиз янада ортмоқда.

Биринчи ва иккинчи ренессансларнинг тарихий шароити ва даври талаблари, имкониятларини ҳаққоний баҳолаб, янги Ренессанснинг тарихий шароитлари ва талаблари мутлақо ўзгача эканини асослаш, далиллаш мақсадга мувофиқ. Аввалги иккала Ренессанс мустаҳкам маънавий-мафкуравий негизда, биринчи галда юксак ахлоқийлик, адолат, илмга ташналик ва бағрикенглик асосида юз берган. Ислом ҳалоллик ва тўғрилиқни, инсоф ва адолатни, илм ва амалий фаолликни ҳамма нарсадан устун қўйган. “Илм излаб Чинга бўлса-да, бор”, “Сендан ҳаракат-мендан баракат”, “Бир соатлик адолат барча инсу жинсларнинг қирқ кунлик ибодатидан устун” каби кўплаб шу каби Ҳадислар, нақллар ажодларимизнинг ижтимоий мўлжалига айланган эди.

“Байтул ҳикма”да 40 дан ортиқ таржимонлар қадимги юнон тилидан, 14 нафар таржимон санскрит тилидан, 4 нафар таржимон Хитой тилидан илмий, тиббий ва фалсафий асарларни арабчага ўгирган. Бундан ташқари, лотин, сурёний, иброний тиллардан таржимонлар бўлган. Илмий ҳақиқат диний мансубликдан устун қўйилган. Бу асар маъжусийларники, буниси кофирларники деб инкор қилинмаган. Аждодларимиз тил ўрганиб, илм ортидан дунёни кезган. Маҳдудлик қобиғига ўраниб қолмаган, турғунлик, маҳаллийчилик уларга ёт бўлган.

“Байтул ҳикма”, Хоразм Маъмун Академияси, умуман, ислом олами олимлари фаолияти ўша даврдаги халқаро илмий интеграциянинг энг ёрқин намуналаридан биридир. Биринчи ва иккинчи ренессансларнинг маънавий асосларини ва сабабларини ҳамда кейинги инқирозини чуқур ўрганмасдан, биз Учинчи Ренессансни муваффақиятли амалга ошира олмаймиз. Бугун ҳам бизга гоёвий ва илмий толерантлик, илмга, ҳақиқатга ташналик, миллий маҳдудликни, гоёвий мутассибликни тамомила инкор этиш хос бўлмоғи лозим.

Учинчи Ренессанс биздан халқаро ҳамжамиятга илм-фан, технологиялар, ахборот, маданият ва иқтисодиёт соҳаларида янада чуқурроқ интеграция зарурлигини тақозо этади. Жамият тараққиётининг пировард мақсади ҳам инсон, унинг фаровон, эркин ва хавфсиз турмуш кечиришидир. Жамият талабларига тўлиқ жавоб берадиган киши турли дврларда ҳар ҳил аталган. **Юсуф Хос Ҳожиб уни**

“тугал эр”, Форобий “фозил киши”, тасаввуф намояндалари “комил инсон” деб атаганлар. “Хар томонлама ривожланган шахс”, “уйғун ривожланган шахс” атамалари ҳам қўлланилган.

Мустақилликдан кейин биз шахсга нисбатан “комил инсон”, ёш авлодга нисбатан “баркамол авлод” атамаларини қўллай бошладик. Гап атамада эмас. Қандай сифатни қўллаймайлик, келажак инсонини тарбиялашда биз, аввало, жамият тараққиёти тенденцияларини ва айна пайтда миллий маънавиятимиз хусусиятларини ҳисобга олмоғимиз лозим. Бинобарин, сунъий интеллект ва юксак технологияларга таянадиган “тўртинчи саноат инқилоби” инсонга қўядиган талабларини олдиндан моделлаштиришимиз ва таълим-тарбия тизимини уларга мослаштиришимиз зарур.

Дарҳақиқат, кейинги йилларда ёш авлод тарбиясида ҳал қилувчи ўрин тутадиган боғчалар ва мактаблар тизимида мақтанишга арзигулик улкан ишлар қилинди. Президент мактаблари, ихтисослаштирилган ва ижод мактаблари қуриш ҳамда “Замонавий мактаб” дастурини жорий этиш борасидаги саъй-ҳаракатлар ҳам изчиллик билан давом эттирилмоқда. 2020 йили, яъни яқинда Олий Мажлис палаталари ҳузурида Ёшлар парламентлари ташкил этилдики, келгусида ушбу тузилма аъзолари орасидан соҳани теран англайдиган қонун ижодкорлари етишиб чиқиши аниқ.

2019 йилда мутлақо янги мазмун ва шаклдаги 4 та Президент мактаби, 3 та Ижод мактаби иш бошлади. Олий таълимни ривожлантириш учун 2019 йили 19 та янги олий ўқув юрти, жумладан, 9 та нуфузли хорижий университетнинг филиали очилди. Етакчи хорижий университетлар билан ҳамкорликда 141 та қўшма таълим дастури бўйича кадрлар тайёрлаш йўлга қўйилди. Олий таълим муассасаларига жами 146 минг 500 нафар ёки 2016 йилга нисбатан 2 баробар кўп талаба ўқишга қабул қилинди.

Амалга ошираётган ислохотларимиз жаҳон ҳамжамияти томонидан муносиб баҳоланмоқда. Хусусан, дунёдаги нуфузли нашрлардан бири – “Экономист” журнали Ўзбекистонни 2019 йилда ислохотларни энг жадал амалга оширган давлат – “Йил мамлакати” деб эътироф этди. “Ўзбекистонни ривожланган мамлакатга айлантиришни мақсад қилиб қўйган эканмиз, - деган эди Президентимиз Шавкат Мирзиёев, - бунга фақат ислохотлар, илм-маърифат ва инновация билан эриша оламиз. Бунинг учун янги авлод ўқув юртигача, таълимнинг барча бўғинида ислохот қилишни бошладик. Илм йўқ жойда, қалоқлик, жаҳолат ва албатта, тўғри йўлдан адашиш бўлади. Шарқ донишмандлари айтганидек, “Энг катта бойлик – бу ақл-заковат ва илм, энг катта мерос – бу яхши тарбия, энг

катта қашшоқлик – бу билимсизликдир. Шу сабабли ҳаммамиз учун замонавий билимларни ўзлаштириш, чинакам маърифат ва юксак маданият эгаси миллий кадриятларимизга содик бўлиш узлуксиз ҳаётий эҳтиёжга айланиши лозим.

Мактабгача таълимни ривожлантиришда бошлаган ислохотларимиз натижасида 2019 йили 5 минг 722 та давлат, хусусий, оилавий болалар боғчалари ташкил этилди. Шунинг ҳисобидан фарзандларимизни мактабгача таълим билан қамраб олиш даражаси бир йил давомида 38 фоиздан 52 фоизга кўтарилди.

Боғча ёшидаги болаларни мактабгача таълим билан қамраб олиш даражасини 2020 йилда 60 фоизга етказиш кўзда тутилди. Ушбу мақсадга 2020 йилнинг ўзида бюджетдан қарийб 1,8 триллион сўм маблағ ажратилди. 2020 йилдан бошлаб, тарихимизда илк бор 6 ёшли болаларни мактабга тайёрлаш тизими жорий қилинди. Бунга бюджетдан 130 миллиард сўм ажратилиб, бунда хусусий мактабгача таълим муассасалари ҳам иштирок этмоқда.

Олий таълим олувчи ёшлар учун барча қулайликлар жорий этилмоқда. Шунинг учун мактаб битирувчиларини олий таълим билан қамраб олиш даражасини 2020 йилда 25 фоизга ва келгусида 50-60 фоизга етказилади. Сўнгги 4 йилда мамлакатимизда 43 та янги олий таълим муассасаси ташкил этилиб, уларнинг сони 121 тага етди. 2020 йили олий ўқув юртларига кириш учун 1,5 миллионга яқин ёшларимиз ҳужжат топширди.

Бу рақам 2019 йилдагига нисбатан мотивацияси 40 фоиз кўп демакдир. Ёш авлод тарбиясида ҳал қилувчи ўрин тутадиган боғчалар ва мактаблар тизимида ҳам улкан ўзгаришлар амалга оширилмоқда. Шу ўқув йилидан яна бир янги тизим жорий этилди: кам таъминланган оилалар қизларининг билим олиш имкониятини кенгайтириш мақсадида олий таълим муассасаларига қабулда улар учун давлат гранти асосида 940 та қўшимча ўрин ажратилди. Бу истеъдодларнинг интилишларини рўёбга чиқариш, ижтимоий фаоллигини ошириш, ҳаётда муносиб ўрин эгаллашлари учун яратилган имкониятлардир. Президентимиз мактаблари, ихтисослашган ва ижод мактаблари барпо этиш, “Замонавий мактаб дастурларини жорий этиш борасида ишларимиз ҳам узлуксиз давом эттирилмоқда.

ХУЛОСА

Юртимизда Ёшлар ишлари агентлиги, Ёшлар масалалари бўйича идоралараро кенгаш ташкил этилди. Олий Мажлис палаталари Ёшлар парламентлари, Инновацион ривожланиш вазирлиги қошида Ёшлар академияси тузилди. Худудларда



“Лойиҳалар фабрикаси” иш бошлади. “Ёшлар – келажагимиз” Давлат дастури доирасида иқтидорли ва ташаббускор ўғил-қизларимизнинг 8 мингдан зиёд бизнес лойиҳаларига қарийб 1,7 триллион сўм миқдорида имтиёзли кредитлар ажратилди. Маълумки, ҳар қандай мустақил давлат мустаҳкам маънавий пойдеворга эга бўлгандагина юксак тараққиётга эриша олади. Шу боисдан ҳам биз “Узлуксиз маънавий тарбия концепцияси” доирасида умумтаълим мактабларида биринчи марта “Тарбия” фанини жорий этилди.

Бунинг учун уларнинг ҳаёти ва фаолиятига оид бадиий асарлар, кинофильмлар, театр асарлари, ҳужжатли фильмлар яратиш зарур. Уларнинг портретлари мактаб, коллеж, лицей, олий таълим муассасалари, ишлаб чиқариш корхоналари, маданият саройлари, кутубхоналар, кино ва концерт заллари фойеларида, хатто метро бекатларида бўлса, ёш авлодга ўрناк олиш, тақлид қилиш, интилиш учун имкониятлар яратган бўлар эдик. Мамлакатимизнинг Биринчи Президенти Ислон Каримов ўз пайтида ижод аҳлига кино, телевидение ва театрларимизда замонамиз қаҳрамонлари образларини яратиш тўғрисида ниҳоятда зарур кўрсатмалар берган эди. Лекин, афсуски, бу вазифа кўнгилдагидек бажарилмади. Чунки фарзандларимиз ўзимизнинг миллий қаҳрамонларимизни билмаса, у ҳолда, четдан “қаҳрамон” излаб топади. У топган “қаҳрамон” банклардаги сейфларни очиб, пул ўмарадиган ўғрими, одам ўлдиришдан тап тортмайдиган ашаддий каллакесарми, инсонларнинг мабдағларини турли замонавий усуллар билан ўзлаштирадиган фирибгарми, буниси энди бизга номаълум. Айтишадику, агар биз ўз фарзандларимизни ўзимиз тарбияламасак, уларни “тарбияловчилар” бир зумда топилади.

REFERENCES

1. Мирзиёев М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Т.: 2021. 294-295 б.
2. Ёш ота-она китоби. Узлуксиз маънавий тарбия трилогияси. 1-қисм: 3 ёшгача бўлган болаларни маънавий тарбиялаш бўйича қўлланма. -Т.:Muharrir nashriyoti, 2018. 7-бет.
3. Давронов З. Баркамолликка даъват мактублар. – Т.:, “Иқтисод-молия”, 2011. - 116-бет.
4. Saifnazarov, I., Muhtarov, A., Sulstonov, T., Tolibov, A. (2020) Religious tolerance, unity of knowledge and faith issues highlighting in Imam Bukhari Hadiths. International Journal of Advanced Science and Technology 29 (5), pp. 1846-1853.

1. Kadamovich, Y. J., Muzaffarova, I. G., Maxmudovich, Y. B., Boxtiyarova, S. S., & Xabibullayevich, S. S. (2020). Social justice as a condition of socio-spiritual stability in society. *Journal of Critical Reviews*, 7(5), 816-818.
2. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Х., Муратова, Д.А., Хасанов, М.Н., & Эрниёзов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОЊИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10), 376-386.
3. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Х., Кушаков, Файзулла Абдуллаевич., Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). ҲОЗИРГИ ДАВРДА ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ ҲАҚИДАГИ ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЛҚИНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (9), 647-656.
4. Исмоил Саифназаров, & Сирожбек Ҳабибуллаевич Султанов (2022). ИЖТИМОИЙ АДОЛАТНИ МУСТАҲКАМЛАШДА ИЖТИМОИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ УСТУВОР ЖИҲАТЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 1), 71-76.
5. Султанов, С. Х. (2013). МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ ПРОТИВ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ. *SCIENCE AND WORLD*, 67.
6. J. S. Ramatov, Mirshod Numonovich Hasanov, L. A. Valiyev *Sharq uyg'onish, mutafakkirlar davri, siyosiy-huquqiy ta'limotlar (Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniyung Siyosiyhukukiy Qarashida) // Ta'lim fanlaridagi akademik tadqiqotlar. 2022 yil. 6-son.* URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sharq-uyg-onish-davri-mutafakilarinin-siyosiy-uu-iy-talimotlari-abu-nasr-forobiy-abu-ray-on-beruniyung-siyosiy-uu-iy-arashlari> (kirish sanasi: 27.10.2022).
7. Abdurahmonova, Z. Yu. (2021). ЗАМОНАВИЙ ЎҚИТИШНИНГ МУАММО ВА ЕЧИМЛАРИДА САМАРАЛИ ЁНДОШУВ. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 1189-1193.
8. Aripov, N., Kamaletdinov, S., Tokhirov, N., & Abdurahmonova, Z. (2022). Simulation Modeling of Train Traffic Based on GIS Technologies. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 16, 73-82.
9. Ж. С. Раматов, Л. А. Валиев, & М. Н. Хасанов (2022). АУРОБИНДО ГҲОШ ТАЛҚИНИДА ИНСОН БОРЛИҒИНИНГ АНТРОПОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (6), 688-695.
9. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Х., Муратова, Д.А., Хасанов, М.Н., & Эрниёзов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА



УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10), 376-386.

10. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Х., Кушаков, Файзулла Абдуллаевич., Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). ҲОЗИРГИ ДАВРДА ИЖТИМОЙ АДОЛАТ ҲАҚИДАГИ ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЛҚИНИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (9), 647-656.

11. Ж. С. Раматов, & М. Хасанов (2022). ШАХС ДИНИЙ ДУНЁҚАРАШИНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА ИЛМНИНГ АҲАМИЯТИ. Academic research in educational sciences, 3 (7), 35-39.

12. Ш.Ф.Турабоев, З.Т.Тоиров, Ж.З.Абдуллаев, Ш.М.Фуломов, & М.Н.Хасанов. (2022). ФОРОБИЙНИНГ ФАЛСАФИЙ АСАРЛАРИДА ИНСОННИНГ КЕЛИБ ЧИКИШИ . JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS,4(3),141–146.

13. Бобошев, З. Н., Хасанов, М. Н., & Нуруллаев, Э. А. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ПЕДАГОГИКА ФАНИНИНГ АСОСЧИСИ СИФАТИДА.

ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ

Соня Махмудовна Султанова

Ташкентский государственный транспортный университет,
к.э.н., доцент
sofsul@mail.ru

Нилуфар Усманжановна Бабаханова

Ташкентский государственный транспортный университет,
соискатель

Камолиддин Равшанович Аликулов

Ташкентский государственный транспортный университет,
магистрант 2 курс

АННОТАЦИЯ

В статье проанализированы преимущества и недостатки перехода к электронному образованию, аргументирована необходимость научного обоснования его внедрения в образовательную сферу экономики.

Ключевые слова: современное образование, цифровые технологии, глобальная конкуренция, модель, цифровизация, преимуществ аи недостатки использования цифровых технологий.

ABSTRACT

The article analyzes the advantages and disadvantages of the transition to e-education, argues for the need for scientific justification of its introduction into the educational sphere of the economy.

Keywords: modern education, digital technologies, global competition, model, digitalization, advantages and disadvantages of using digital technologies.

ВВЕДЕНИЕ

Современные цифровые технологии предоставляют обширный спектр потенциальных возможностей для эффективного поступательного развития образовательной среды. Цифровые технологии, внедряемые в образовательную среду, формируют систему электронного образования вместе с новыми потенциальными возможностями и как правило новыми проблемами. Основные потенциальные возможности

включают: расширение доступности образования, возможностей выбора формы обучения, многообразия форм и методов передачи знаний.

В Республике Узбекистан развитию высшего образования в условиях формирования цифровой экономики уделяется пристальное внимание. Об этом свидетельствует принятие целого ряда правительственных документов, а именно «... без развития цифровой инфраструктуры и повышения уровня знаний в области цифровых технологий невозможно дальнейшее развитие страны» [10 с.41].

Благодаря цифровым технологиям и глобализации образовательной среды любой человек имеет доступ к огромному объёму информации, которая ранее предоставлялась для экспертов и учёных. В этой ситуации многие университеты адаптируются и пытаются определить своё место в глобальном научно-образовательном мире, сохраняя при этом свои уникальные качества и имеющиеся конкурентные преимущества.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ

Образовательные учреждения в процессе выбора стратегии дальнейшего развития и направления, на котором следует сосредоточиться, разрабатывают долгосрочную программу цифровой трансформации образовательного процесса. Данная программа формирует базу для перехода к конкурентной образовательной и научно-исследовательской модели, которая включает обязательный этап - внедрение цифровых технологий в учебный и управленческий процесс.

На практике, в процессе внедрения цифровых технологий, возникают вопросы, связанные с этикой информации, защитой персональных данных, правовыми аспектами конкуренции образовательных учреждений и т.п.

Исходя из вышесказанного весь перечень существующих проблем системы электронного образования можно разделить на две группы:

- текущие (переходные);
- присущие специфике университета.

В состав текущих проблем, по нашему мнению, можно включить методы имитации «оффлайн» образования. То есть в результате копирования методов оффлайн образования получаем весь набор недостатков:

- весьма слабый контроль качества существующих образовательных продуктов;
- низкую интерактивность обучаемых;
- примитивизация знаний и компетенций обучаемых.

Кроме этого, наиболее существенными специфическими

недостатками системы цифрового образования являются проблемы социализации и передачи неявного знания. Цифровизация неизбежно приведет к трансформации рынка образовательных услуг. Основными игроками на рынке образовательных услуг станут:

- ведущие университеты (конкурентными преимуществами которых будут: принципиально новые образовательные продукты, квалифицированная подготовка научно-педагогических кадров);

- компании-производители электронных образовательных продуктов и глобальные образовательные платформы (modul, hemis, google class и т.п.).

Стремительность, с которой сегодня в цифровые технологии погружается система образования, даёт полное основание для необходимости научно-обоснованного их внедрения в текущую образовательную деятельность.

В практическом плане - цифровизация образовательной среды происходит в различных формах, показанных на рисунке 1.



Рисунок 1. Основные форматы цифровизации образовательной среды.

Как видно из данных, приведённых на рисунке 1, внедрение в образовательный процесс принципиально новых форм обучения происходит за счёт использования возможностей электронной среды – расширения спектра образной передачи информации, моделирования различных ситуаций в ходе проведения ролевых

игр, имитации состязательных игр и т.п.

Сегодня процесс цифровизации образования в подавляющем большинстве образовательных учреждений осуществляется преимущественно в первых двух форматах. Указанные форматы позволяют облегчить доступ обучаемых к учебно-методическим материалам; сократить объём преподавательской нагрузки, не имеющей содержательного смысла; облегчить контроль над содержанием учебной дисциплины и учебного процесса. Кроме того, данный процесс позволяет существенно расширять и разнообразить линейку дистанционных образовательных услуг.

ОБСУЖДЕНИЕ

Теоретики и практики цифровизации образования высказывают самые различные суждения, в большинстве своём положительные суждения. В частности, к примеру известный учёный, почетный профессор Технологического университета города Делфт (Нидерланды) Йохан Г. Виссем считает, что «... электронное образование использует «подрывную» инновацию, которая приведет к неизбежному отсеиванию неэффективных вузов, после чего выгоды от данной новой технологии получит относительно небольшое число университетов-победителей» [3, с.20].

По мнению профессора Леруа из Императорского колледжа Лондона «...учебные видеоролики ясно, кратко, точно и скромно являются машиной для передачи знаний, сконструированной с высшей степенью мастерства» [6, с.245].

Именно к такому типу инноваций относится электронное образование. В настоящее время оно существенно уступает оффлайн-образованию по целому ряду значимых для потребителей образовательных услуг характеристик. По нашему мнению, только те образовательные учреждения, которые смогут вовремя занять место на рынке онлайн-образования и предложить рынку постоянно улучшающееся качество соответствующих услуг, имеют шанс остаться в образовательном пространстве в будущем и быть высококонкурентоспособными.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Безусловно, к преимуществам электронного образования можно отнести и решение проблемы доступности, расширение возможностей выбора профессии и т.п.. На рисунке 2 приведены характеристики преимуществ электронного образования.

Как видно из данных, приведённых на рисунке 2, цифровые технологии являются эффективным дополнением к

традиционным методам обучения. По нашему мнению, самыми важными преимуществами являются дополнительные социально-экономические преимущества, а именно возможность формирования социальных интеллектуальных сетей по интересам а также относительная дешевизна (большие инвестиционные и низкие текущие затраты).




Рис. 2. Основные преимуществ электронного образования и их характеристики.

Несмотря на вышеприведенные преимущества, основными проблемами сегодняшнего дня, обуславливающими невысокое качество существующей системы электронного онлайн-образования, являются:

- стремление к имитации очного образования, приводящее к ухудшению качества копии по сравнению с оригиналом;
- недостаточный контроль качества используемых образовательных продуктов;
- низкая интерактивность;
- примитивизация компетенций;
- проблема социализации;
- проблема передачи неявного знания.

Характеристики каждой проблемы раскрыты в таблице.

Таблица.

Характеристика проблем существующей системы электронного цифрового образования

Проблема	Краткая характеристика
1. Стремление к имитации очного образования, приводящее к ухудшению качества копии по сравнению с оригиналом	Цифровая имитация традиционного образования ведет к обеднению инструментов общения, исключению из практики таких форм получения знаний, как их личностная переработка в процессе конспектирования, обсуждение спорных вопросов между собой и с педагогом, индивидуальная корректировка преподавателем знаний и навыков студента в процессе решения задач, разыгрывание ролевых игр и т.д.;
2. Недостаточный контроль качества образовательных продуктов	Многие из специалистов, занимающихся сегодня внедрением цифровых технологий в образовании, не знакомы с педагогикой, однако хорошо ориентируются в информационных и технических системах. Для этой категории работников – программистов, инженеров, важна элементарная психолого- педагогическая подготовка, знание результатов научных исследований в сфере психологии, педагогики, медицины, прежде всего, с позиций внедрения цифровых технологий
3. Низкая интерактивность.	На сегодняшний день можно считать доказанным тот факт, что традиционная система образования, основанная на триаде «понимание – повторение – запоминание», существенно уступает в эффективности активным методам обучения, основанным на вовлечении учащегося в процесс познания
4. Примитивизация учебных навыков и компетенций	Электронные гаджеты (калькуляторы, навигаторы, орфографы, словари, бухгалтерские и юридические программы и т.п.) атрофируют многие компетенции обучаемых, отучают их логически думать. Кроме того, сегодняшний бакалавр – выпускник, владеющий определенными стандартами компетенциями, ко многому готов и способен, но его необходимо научить, что конкретно делать на рабочем месте. В настоящее время это и происходит с выпускниками вузов. Сокращение нагрузки на лекционную работу и ее перенос на самостоятельное изучение студентами материала в режиме работы с электронным учебно-методическим комплексом становится альтернативой традиционно сложившейся вузовской производственной практике
5. Проблема социализации	Даже в условиях задействования интерактивных форм обучения остается еще проблема воспитания учащихся, передачи им навыков социального взаимодействия, проблема передачи неявного знания. Майкл Поланьи разделяет знания на две категории: явное (вербализованное) знание, которое может быть передано от одного лица к другому с помощью системы кодов, и неявное знание, которое неотделимо от человека, но может быть передано другому лицу в процессе совместной деятельности

Обучающийся в процессе интерактивного обучения перенимает от преподавателя способ видения мира, подходы к решению проблем, культуру работы с информацией, искусство генерирования идей. Все эти навыки передаются через личный

пример в процессе совместной работы от преподавателя к студенту. Как отмечает Дэвид Бромвич, обучение – это передача не только фактов, но и искусства интеллектуального поиска, которое требует общения со студентами лицом к лицу [4]. Проблемы социализации и передачи неявного знания обуславливают нецелесообразность полного вытеснения традиционного образования электронной образовательной средой, но естественно, что область офлайн-образования будет постоянно сужаться.

Основная угроза цифровизации образования для Республики Узбекистан – оказаться на периферии глобальной образовательной среды. Эта угроза может быть реализована в результате действия нескольких факторов:

- несколько запоздалого выхода на глобальный рынок;
- неадекватного качества продукта;
- языкового барьера;
- добровольного включения ведущих университетов страны в орбиты уже существующих глобальных сетей в качестве партнёров-спутников с принятием их условий образовательного процесса.

Опоздание с выходом на глобальный образовательный рынок может быть следствием иллюзии значительности масштабов внутреннего рынка, возможности сохранения образовательной автономии. Сегодня у большей части абитуриентов спрос именно на отечественное образование. Аргументом в пользу такой позиции является слабое знание нашим населением английского и русского языка. Однако уже сейчас в Республике Узбекистан (интернет) предлагаются бесплатные языковые курсы, и в дальнейшем предложение соответствующей образовательной услуги будет только расширяться. Для иностранных образовательных учреждений данный продукт будет стимулирующим товаром, обеспечивающим возрастание спроса на их основные образовательные продукты [9].

Таким образом, по мере развития электронного цифрового образования рынок образовательных услуг становится все в большей степени глобальным. При этом необходимо понимать, что несвоевременный выход на любой рынок обуславливает огромные трудности в достижении значимой позиции в его иерархии. И речь идет не просто о том, что завоевание существенной доли рынка всегда гораздо легче осуществлять на этапе его становления (роста), но и о том, что доминирующие игроки устанавливают на своем поле рынка собственные стандарты и собственные правила игры, препятствующие изменению иерархии этого поля [7].

Неадекватное качество существующих образовательных продуктов обусловлено недооценкой потенциальных

возможностей, создаваемых совместным использованием информационно-коммуникационных технологий и искусственного интеллекта. Пока даже самые лучшие университеты страны представляют собой имитацию очных занятий, способ расширения аудитории с использованием Интернета.

Существенное влияние оказывает и языковой барьер. Даже преподаватели, хорошо знающие английский язык, который постепенно становится общим языком элитного образования, в большинстве случаев уступают носителям языка как с точки зрения легкости его использования, так и с позиций восприятия слушателями (акцент, интонационные ошибки, качество юмора).

Добровольное принятие периферийной позиции приводит к тому, что в образовательном интеллектуальном сообществе поразительным образом уживаются друг с другом две идеи: ощущение собственной неповторимости и предпочтение перед западными образцами. Руководство системы образования и науки уже более 10 лет пытается реформировать систему отечественного образования путем внедрения западных институтов и внедрения системы оценки отечественных достижений с помощью сомнительной техники измерения (количество публикаций в системах Scopus & WOS, индексы Хирша и т.п.). Иными словами, мы сами принимаем правила игры, заведомо выгодные тем, кто является их разработчиками.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

На основе изложенного можно констатировать, что внедрение цифровых технологий очень важно для развития системы высшего и профессионального образования, однако необходимо наряду с этим формировать и научно обоснованный подход к их внедрению.

Нашей стране нужны высокопрофессиональные кадры, поэтому задача отечественной науки состоит не только в переносе в наши условия лучших зарубежных практик, но и в разработке научно обоснованной опережающей образовательной стратегии, опирающейся на лучшие отечественные научные школы и передовые цифровые технологии.

Необходимость перехода к цифровизации образовательного пространства объясняется несколькими факторами. Во-первых, в настоящее время практически все студенты относятся к поколению digital natives, они демонстрируют большую склонность к применению новых технологий в своей повседневной жизни. Особенно дело касается ИТ и интернет-технологий, а также их применения не только в профессиональной сфере, но и для социализации и

коммуникации. Таким образом, цифровизация университета делает его более адаптированным для целевой аудитории. Это однозначно приведет к повышению конкурентоспособности данного вуза на рынке образования, созданию дополнительной ценности и привлечению студентов.

Во-вторых, растет конкуренция среди университетов. Ввиду глобализации рынка борьба за студента будет происходить уже не в рамках одной страны или кластера стран, а на международном уровне. Таким образом, создание и сохранение за собой конкурентного преимущества университета будет определяться его своевременностью внедрения новых цифровых технологий в образовательный процесс и, как следствие, готовностью к фундаментальным сдвигам в сторону образовательной системы нового поколения.

В третьих, возрастает необходимость цифровизации внутренних процессов университета для увеличения эффективности взаимодействия подразделений на уровне всего учебного заведения. Это является необходимым для проведения всех инновационных и культурных преобразований, которые требуются от университета при переходе на цифровую образовательную модель.

REFERENCES

1. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-6079 от 5 октября 2020 года «Об утверждении стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по её эффективной реализации» // народное слово, 2020.
2. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2020 года. Режим доступа: <https://www.lex.uz>
3. Виссема Йохан Г. Университет третьего поколения. Управление университетом в переходный период / Й. Виссема. – М.: Олимп-Бизнес, 2016.
4. Bromwich D. Trapped in the Virtual Classroom // The New York Review of Books. – 2015. – July 9.
5. Глазьев С.Ю. Экономика будущего. Есть ли у России шанс? / С.Ю. Глазьев. – М.: Книжный мир, 2016.
6. Майхнер Х.Е. Корпоративные тренинги / Х.Е. Майхнер. – М.: ЮНИТИ, 2002.
7. Шаронин Ю.В. Цифровые технологии в высшем и профессиональном образовании: от лично ориентированной smart-дидактики к блокчейну в целевой подготовке специалистов / Ю.В. Шаронин // Современные проблемы науки и образования. – 2019. – № 1.
8. Устюжанина Е.В., Евсюков С.Г., Цифровизация образовательной среды: возможности и угрозы. //Новое в

- образовании. – Вестник РЭУ им. Г.В. Плеханова, № 1 (97) - 2018, с.3-12.
9. Умарова М. Х. К вопросу о цифровизации образования в Республике Узбекистан // Наука и образование сегодня. 2020. №12 (59). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-tsifrovizatsii-obrazovaniya-v-respublike-uzbekistan>.
10. Садыков Ш.Ш. Основные направления совершенствования высшего образования Республики Узбекистан в условиях цифровой трансформации экономики. Открытое образование. 2021; 25(1): 40-47. <https://doi.org/10.21686/1818-4243-2021-1-40-47>.

AUTHENTIC MATERIALS IN TEACHING READING

Zamira Khodjamuratovna Elmuratova
Teacher, Nukus State Pedagogical Institute

Sarbinaz Ametovna Kurbaniyazova
Senior teacher, Nukus State Pedagogical Institute

ABSTRACT

It is necessary to correct speech errors made by students in oral and written speech in time. Let the student learn the correct version of the mistake he made, and if possible, understand the reason for the error. The most useful way to correct a mistake is for the student to correct the mistake he/she has made, and if the student cannot correct the mistake, the teacher will correct it. . It is corrected depending on the type of error: the sentence or phrase is restructured, the word is replaced by another, the necessary word is added, the excess is crossed out. The second part of the lesson - 20-25 minutes - is allocated for the purpose of working on mistakes in the essay or statement analysis lesson. The teacher gives a brief understanding of how the students wrote an essay or a statement, reads the best written text, identifies flaws in the content, coverage of the topic, spelling and speech errors.

Keywords: Teacher, student, education, upbringing, spelling and speech errors, intellectual development.

Pedagogical psychology considers the study of psychological laws of education and training to be its subject. He researches the formation of thinking in students, studies the issues of managing the process of mastering mental activity methods and skills, the implementation of the teaching process, the interaction between the pedagogue and students, and the student team. determines the psychological factors affecting relationships, individual-psychological differences in students, specific features of educational work with children lagging behind in mental development.

In this way, pedagogical psychology helps methodical science in choosing educational material, determining the content and volume of the mother tongue in elementary grades, educational material, and arranging their distribution by classes in a certain consistency. They help to determine the effective methods and forms of teaching, the correct growth of students' analytical-synthetic activity. The methodology will be based on the information of the

science of psychology, and it will be possible to take into account the age and individual characteristics of students.

Psycholinguistics provides methodologists with information about speech - the factors that determine the types of expression, the apparatus of "speech reception signals", the benefits of speech influence on individual attitudes and public communication. This information is useful for solving methodological issues, especially It is very important for the method of developing communicative speech.

Each educational subject in school education, including the mother tongue, is not limited to imparting knowledge, skills and competences, but it is necessary to raise the child's consciousness and educate. In fact, in the process of teaching the mother tongue, the child's worldview is formed, cognitive abilities grow, they develop intellectually, morally, aesthetically, certain positive features appear in their character, they learn to work, etc.

The science of pedagogy deals with the issues of comprehensive development of children and their education from a scientific perspective. The methodology of teaching the mother tongue is based on the innovations of the science of pedagogy, its scientific information on the above-mentioned issues. Connecting the mother tongue methodology with general pedagogy is especially important in elementary grades. Many habits and skills necessary for collective and individual learning activities of young students have not yet been cultivated. Skills and habits such as organization, quick participation in team work, attentive listening, reading and writing, active and independent work, careful and orderly execution of all work form a system of general pedagogical activities implemented by the teacher and the school. is enough. Pedagogy develops similar theoretical and practical issues of education.

Only if the teacher fulfills the pedagogical requirements, he organizes the mother tongue in a way that will benefit the mother tongue in terms of education. The methodology of teaching the mother tongue involves theorizing a certain part of the Uzbek language, including phonetics and phonology, lexicology and phraseology, word formation and etymology, grammar - morphology and syntax, stylistics, as well as orthography, graphics, such subjects as orthography are an important basis of mother tongue methodology.

Phonetics and phonology in connection with graphics serve as a basis for the development of literacy teaching methods and the formation of elementary reading skills. Phonetics and graphics are also important in mastering spelling rules based on the phonetic principle.

Husnikhat methodology is based on graph theory. Knowledge of lexicology, vocabulary work at school (conducting

various exercises on synonyms and antonyms, working on a polysemous library of words, their meaning colors) is very important for proper organization. Word formation, etymology, and grammar serve as the basis for the methodology in studying word structure and word formation. Morphology and syntax make it possible to correctly organize the formation of abstract language phenomena, to form an understanding of language construction, to use grammatical concepts to solve problems of correct writing. It is impossible to develop skills and competence in spelling and punctuation in students who do not have knowledge of grammar.

Grammar plays an important role in the development of students' speech, because grammar is the correct formation of word forms, the correct connection of words in a sentence, and the correct sentence structure. teaches how to make a plan.

In the development of the methodology of teaching correct writing, it is necessary to take into account the theory of spelling of the Uzbek language. The methodology of reading is based on the theory of literature, because the students analyze the work of art in a practical way, they are not given theoretical information from literary studies, but the methodology is based on the laws of the creation of a literary work, their impact on students, especially from the topics related to literary studies. it is necessary to take into account the content of the poem, its subject and subject, composition, genre, visual means.

REFERENCES

1. S. Matchonov, H. Gulomova. Speech culture. //„B. magazine. - Tashkent, 2000. - 1. 8 - 10 pages.
2. S. Matchonov, H. Gulomova. How does the story unfold? //„B. tal". magazine. — Tashkent, 2004. — No. 6. Pages 26-27.
3. S. Fuzailov, M. Khudoyberganova. Mother tongue (textbook for grade 3). — T.: "Teacher", 2008. 31. T. Ghafarova, H. Gulomova, G. Eshturdiyeva. Literacy lessons in the 1st grade. - T.: "Teacher", 1996
4. M. Ghulamov. Formation of beautiful writing skills. — T.: "Teacher", 1992.
5. R. Ikromova, Kh. Gulomova, Sh. Yoldosheva, D. Shodmonkulova. Mother tongue (textbook for grade 4). - T.: "Teacher", 2007.
6. R. Safarova et al. Literacy lessons (methodical guide to teaching the alphabet). - T.: "Spirituality", 2003.

БУГУНГИ КУНДА ЎЗБЕКИСТОНДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ОЛИБ БОРИЛАЁТГАН ИСЛОҲОТЛАР

Нилуфар Абдурашидовна Абдурашидова

Тошкент давлат транспорт университети ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақола Ўзбекистонда таълимни ривожлантириш масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилганлигини, бу борада кенг қўламли ислоҳотлар бошланиб, соҳада жиддий ўзгаришлар ҳақида сўз боради. Илм-фан ва таълим соҳасидаги интеграция жараёни шунингдек, ушбу таълим тизимнинг ижтимоий ўзгаришларда ролини оширишдаги аҳамияти ҳақида сўз кетади.

Калит сўзлар: Таълим, узлуксиз таълим, таълим сифати, «Таълим тўғрисида»ги қонун, интеграция, Тараққиёт стратегияси, илм-фан, олий таълим, инсон, капитали

КИРИШ

Ҳозирги кунда дунёда таълимнинг аҳамияти изчил ошиб, у нафақат иқтисодиётни, балки бутун жамиятни сифат жиҳатдан янги босқичга олиб чиқишда энг муҳим омиллардан бирига айланди. таълим ва илмий маконга интеграциялаш истиқболларни ҳисобга олган ҳолда, Болония жараёнининг асосий тамойиллари, модернизация жамият ва инсон ҳаётининг барча институтлари, тизимлари, тузилмаларининг тубдан ўзгаришини, туб ўзгаришларни назарда тутиши оқибатида, иқтисодий, технологик мураккабликлар - инсон ва ижтимоий ҳаётнинг жиҳатлари, балки бутун жамиятни қамраб олиши, изчиллик, умумий ижтимоий-маданий тизимдаги бир омилнинг ўзгариши беихтиёр бошқа омилларнинг маълум ўзгаришларини келтириб чиқарди.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Илм-фан ва таълим соҳасидаги интеграция жараёни Магна Чарта Университатум деб номланган ҳужжат ҳомийлигида Европанинг етакчи университетлари ҳамдўстлигини шакллан-тириш ва миллий тизимларни бирлаштириш, ягона талаблар, мезон ва стандартларга эга бўлган Европа маконидаги таълим ва фан, илмий-педагогик ҳамжамият ва Европа мамлакатлари ҳукуматларининг жаҳон миқёсидаги Европа илм-фан ва олий таълим тизимининг рақобатбар-



дошлигини сезиларли даражада ошириш бўйича саъй-ҳаракатларини бирлаштириш, шунингдек, ушбу тизимнинг ижтимоий ўзгаришларда ролини ошириш, Болоня декларацияси деб номланган ҳужжатни имзолаши (1999 йил 19 июн), Лиссабон Конвенцияси (1997) мамлакатлари вакиллари томонидан Европа минтақаси олий таълим тизимининг малакасини тан олиш тўғрисидаги Конвенция ва Сорбонна декларациясини ишлаб чиқиш (Париж, Сорбонна, 1998) Европада олий таълим тизимининг тузилишини келишиш, билан ташкил этилган. Ушбу макон чегараларида фуқароларнинг таълим, иш билан таъминлаш ва ҳаракатчанлиги тўғрисидаги дипломларини тан олиш учун ягона талаблар бўлиши кераклиги, меҳнат бозори ва таълим хизматларининг рақобатбардошлигини сезиларли даражада ошириш, кредит тизимларини яратиш, шу жумладан узлуксиз таълим, таълим сифатини таъминлашда халқаро ҳамкорлигини ривожлантириш, сифатни баҳолашнинг таққосланадиган мезонлари ва усулларини ишлаб чиқиш, тўсиқларни бартараф этиш талабалар ва ўқитувчиларнинг маълум бир макон ичида ҳаракатчанлиги. Бутунжаҳон таълим форумида Инчхон декларациясининг қабул қилиниши (2015 йил 19-25 май Корея Республикасининг Инчхон шаҳри), ЮНЕСКО “Таълим-2030”, Мингйиллик Ривожланиш Мақсадларида таълимнинг янги концепцияси, Барқарор ривожланиш учун таълим (ЭСД) ва Глобал Фуқаролик Таълими (ГЕС) , ЮНЕСКОнинг ЭСД бўйича Бутунжаҳон конференциясида (2014 йилда Аичи Нагоя) сифатли таълим ижодкорлик ва билимларни рағбатлантиради ва асосий саводхонлик ва ҳисоблаш қобилиятларини, шунингдек таҳлилий кўникмаларни, муаммоларни ҳал қилиш кўникмаларини ва бошқа юқори даражадаги билим, шахслараро ва ижтимоий кўникмаларни эгаллашни кафолатлайди. Глобаллашув ва модернизация бугунги кунда глобал миқёсни эгаллаши барча маданиятлар замонавийлашишини ёки шу йўналишда ҳаракат қилиши, вақт бўйича давомийлик бугунги ривожланиш суръати ўтган асрларга қараганда беқиёс даражада юқори бўлса-да, туб ўзгаришлар шахслараро муносабатларга таъсир қилиши, замонавий жамиятнинг етук малакали мутахассисларга бўлган эҳтиёжларнинг ортиб боришини ҳамда таълимда ўзаро тажриба алмашишнинг кенгайиши, ижтимоий-маданий интеграциялашувнинг жадаллашиши эса олий таълимда ўзига хос мураккабликларни юзага келтирмоқда.

Кейинги пайтларда Ўзбекистонда олий таълимни ривожлантириш масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Бу борада кенг кўламли ислохотлар бошланиб, соҳада жиддий ўзгаришлар содир бўлмоқда. 2019 йилда қабул

қилинган Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси [1] олий таълимни ривожлантиришнинг стратегик мақсадлари, вазифалари, яқин ва узоқ муддатли истиқболдаги босқичларини белгилашда ҳамда соҳага доир дастурлар ва комплекс чора-тадбирларни ишлаб чиқиш учун муҳим асос бўлди.

2020 йилда қабул қилинган «Таълим тўғрисида»ги қонун [2] эса ушбу соҳа тараққиётида, ёшларимиз замонавий билимларни эгаллашда ҳеч шубҳасиз, янги уфқларни очиб берди.

Ушбу қонун ҳужжатлари ва кўрилган чора-тадбирлар натижасида Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёев таъкидлаганидек, “кейинги 5 йилда олий таълимга қабул квотаси 3 баробар оширилиб, 2021 йилда 182 минг нафар ёш учун талаба бўлиш имконияти яратилди. Бу умумий қамров 28 фоизга етди деганидир. Ваҳоланки, 4 йил аввал олий таълимда 100 нафар боладан фақатгина 9 нафарида ўқишга имконият бор эди”. [3]

Бу ишлар келгусида ҳам амалга оширилиши белгиланди. Жумладан, 2022- 2026 йилларда Тараққиёт стратегиясининг 2022 йилда амалга ошириш бўйича «йўл харитаси» га кўра, таклифлардан келиб чиқиб, қабул параметрларини ошириш кўзда тутилган.

Қайд этилишича, 2022 йилга бориб ёшларнинг олий таълимга қабул қилиш даражасини 38 фоизга етказиш режалаштирилган.

Шу қаторда Ўзбекистонда олий таълим муассасалари сони 159 тага етгани, 30 та хорижий олий таълим муассасалари ва уларнинг филиалларининг очилиши, маҳаллий университетларда хориж билан ҳамкорликда қўшма факультетларнинг ташкил этилиши ҳам талабалар қамровини сезиларли даражада ошишига ёрдам берган омиллардан бўлганлигини айтиб ўтиш зарур.

Кейинги йилларда мамлакатимизда ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг устувор йўналишларига ҳамда халқаро стандартлар талабларига мос келадиган олий таълим тизимини яратиш бўйича кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда. Худудларда янги олий таълим муассасаларининг ташкил этилиши, кадрлар тайёрлашнинг замонавий таълим йўналишлари ва мутахассисликлари ҳамда сиртқи ва кечки бўлимларнинг очилиши, олий таълим муассасаларига қабул квоталарининг оширилиши мазкур йўналишдаги муҳим ислохотлар ҳисобланади.

технологиялардан фойдаланиб, ўзимизнинг замонавий педагогик технология тизимини вужудга келтириш борасида амалга оширилаётган ишларни умумлаштириш ва амалда қўллаш учун қуйидагиларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ бўлади. Демак ўқув жараёнидаги танланган метод ҳам гуруҳдаги талабалар билимини ҳисобга олган ҳолда ишланиши керак. Агар танланган метод орқали талаба ижодий ишласа, гуруҳ фаол бўлса, мавзунини таҳлил қила олса, бу ҳар икки томоннинг кўзланган мақсадидир. Фанда ўзига хос қўллаш керак ва мумкин бўлган технологияни танлашда ўқитувчи ўз маҳорати ва имкониятига таянади. Педагогик технологияларни қўллашдан мақсад – дарсни қизиқарли ва самарали ўтказиш, талабаларнинг фанга бўлган қизиқишларини ошириш, билимини мустаҳкамлаш, шунингдек талаба ва ўқитувчи муносабатларини тўғри ташкиллаштиришдир. Бунда натижага эришиш учун ўқитувчи бирор техник воситадан ёки тарқатма материаллардан, ўйинли машқлардан, жумбоқли саволлар ва шунга ўхшашлардан фойдаланиши мумкин, лекин бунинг учун хонанинг, гуруҳнинг ҳолатини, яъни талабалар сонини, уларнинг имкониятини, билим савиясини ҳисобга олиши зарур. Агар ўқитувчи учун самарали, лекин талабага тушунарсиз ёки билимига нисбатан қийинлик қиладиган, вақт ҳисобга олинмаган педагогик технология натижа бермайди, шундай экан бу ҳар томонлама ўйлаб қўлланилиши керак бўладиган технологиядир. Юқоридаги ҳолатларни инобатга олган ҳолда чет тили дарсида ҳам бир неча янги педагогик технологиялардан фойдаланиш мумкин. Таълим жараёнида педагог мавзу ёки матнни ўргатиш режасини тузар экан, ушбу режада талаба фаолияти ўз аксини топмоғи, вазифаларни бажариш учун талабага бериладиган кўрсатмалар, юзага келган билиш машаққатини ҳал қилишда уларнинг шахсий манфаатдорлиги ҳисобга олиниши лозим. Жаҳон тажрибасига таянадиган бўлсак, сўнгги йилларда Европа мамлакатларида кенг оммавийлик тусини олган ўқитиш методларидан бири кичик гуруҳларни ташкиллаштириш. Гуруҳларга берилган вазифалар босқичма-босқич навбатланиши яъни галма-галланиши лозим. Таълим йуналиши ва педагогик мақсад ҳамда вазифалардан келиб чиққан ҳолда бундай гуруҳлар аралаш билимли (аъло, яхши, қониқарли) талабалар орқали шакллантирилади ва унда барча талабанинг галма-гал иштироки талаб қилинади. Бу эса ўқувчи-талабага ҳам ўз ижодини намойиш қилишга, муносабатга киришишида, ўз фикрини баён қилишига ва хатоларини англашига ёрдам беради. Таълим мазмунини ўзлаштиришда талабаларнинг билим савияси, ўзлаштириш даражаси, таълим манбаи, дидактик вазифаларга мувофиқ ва муносиб равишда қуйидаги интерфаол методлар

қўлланилади. Интерфаол методлар - бу жамоа бўлиб фикрлаш деб юритилади, яъни педагогик таъсир этиш усуллари бўлиб, таълим мазмунининг таркибий қисми ҳисобланади. Бу методларнинг ўзига хослиги шундаки, улар фақат педагог ва ўқувчи-талабаларнинг биргаликда фаолият кўрсатиши орқали амалга оширилади. [2,73]

ХУЛОСА

Хулоса ўрнида шуни айтиш керакки, ўқув-тарбия жараёнида замонавий педагогик технологиялардан ўз ўрнида фойдаланиш талабаларнинг билим олишга бўлган қизиқишларини орттиради, билиш фаолиятини фаоллаштиради, ўқув-тарбия жараёнининг самарадорлиги юқори даражада бўлишига имкон яратади.

REFERENCES

1. “Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат” Омонов Х.Т., Хўжаев Н.Х. Тошкент 2012й.
2. Абдурахмонова, З. Ю. (2021). ЗАМОНАВИЙ ЎҚИТИШНИНГ МУАММО ВА ЕЧИМЛАРИДА САМАРАЛИ ЁНДОШУВ. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 1189-1193.
3. Aripov, N., Kamaletdinov, S., Tokhirov, N., & Abduraxmanova, Z. (2022). Simulation Modeling of Train Traffic Based on GIS Technologies. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 16, 73-82.
4. М.Н.Хасанов, Б.З.Зайниддинов, О.А.Абдухалилов, & Д.Д.Джурайев. (2022). МЕҲНАТДА ИНСОННИ ШАКЛЛАНИШДАГИ АҲАМИЯТИ . *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 4(3), 116–123.
5. То‘рабоев, Ш. Г., Тоиров, З. Т., Абдуллаев, Ж. З., Г‘улломов, Ш. М., Hasanov, M. N. (2022). FOROBIYNING FALSAFIY ASARLARIDA INSONNING KELIB CHIKHISHI.
6. Mirshod Numonovich Hasanov ABU NASR FOROBIYNING INSONNI AHLAKKII KAMALOTI TUGRISIDAN KARASHLARI SHAKLANNISININING IJTMOYTARIHIKHIY MANBALARI // Pedagogik fanlarda akademik tadqiqotlar. 2022 yil. 6-son. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/abu-nasr-forobiyning-insonni-ahlo-iy-kamoloti-t-rishniy-arashlari-shaklanishining-izhtimoiytarihiy-manbalari> (kirish sanasi: 29.10.2022).
7. Ramatov, J.S., & Khasanov, M.N. (2022). ANALYSIS OF THEORETICAL MODEL OF INNOVATION INVOLVEMENT IN EDUCATIONAL PRACTICE. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (6), 937-942.
8. Раматов, Ж. С., Муратова, Д., Султанов, С. Ҳ., Тухтабоев, Э., Кушаков, Ф., & Хасанов, М. Н. (2022). ИЖТИМОИЙ



АДОЛАТ ВА ҚАДРИЯТЛАР ПЛЮРАЛИЗМИ. *World scientific research journal*, 8(1), 102-108.

9. Ж. С. Раматов, Л. А. Валиев, & М. Н. Хасанов (2022). АУРОБИНДО ГҲОШ ТАЛҚИНИДА ИНСОН БОРЛИГИНИНГ АНТРОПОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (6), 688-695.

10. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Ҳ., Муратова, Д.А., Хасанов, М.Н., & Эрнийёзов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10), 376-386.

11. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Ҳ., Кушаков, Файзулла Абдуллаевич., Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). ҲОЗИРГИ ДАВРДА ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ ҲАҚИДАГИ ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЛҚИНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (9), 647-656.

12. Ж. С. Раматов, & М. Хасанов (2022). ШАХС ДИНИЙ ДУНЁҚАРАШИНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА ИЛМНИНГ АҲАМИЯТИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (7), 35-39.

13. Ш.Ф.Турабоев, З.Т.Тоиров, Ж.З.Абдуллаев, Ш.М.Ғуломов, & М.Н.Хасанов. (2022). ФОРОБИЙНИНГ ФАЛСАФИЙ АСАРЛАРИДА ИНСОННИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШИ. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 4(3), 141-146.

14. Бобошев, З. Н., Хасанов, М. Н., & Нуруллаев, Э. А. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ПЕДАГОГИКА ФАНИНИНГ АСОСЧИСИ СИФАТИДА.

15. Рашит Ўсарович Баратов (2022). ТРАНСПОРТ ТИЗИМИДА ТАЪЛИМ ИСЛОҲОТЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 1), 90-95.

16. Baratov, R. U. (2019). INTEGRATION OF A SCIENCE, FORMATION AND MANUFACTURE IN THE COURSE OF PROFESSIONAL TRAINING. In *ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПОЛИТОЛОГИЯ, СОЦИОЛОГИЯ, ФИЛОСОФИЯ, ИСТОРИЯ* (pp. 51-54).

17. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Ҳ., Муратова, Д.А., Хасанов, М.Н., & Эрнийёзов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10), 376-386.

18. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Ҳ., Кушаков, Файзулла Абдуллаевич., Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). ҲОЗИРГИ ДАВРДА ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ ҲАҚИДАГИ ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЛҚИНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (9), 647-656.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ИНСОН ХУҚУҚЛАРИ ВА СЎЗ ЭРКИНЛИГИ

Ф. А. Кушаков

Ташкент давлат транспорт университети катта ўқитувчиси

М. Н. Ҳасанов

Тошкент давлат транспорт университетининг ўқитувчиси

Р. Ў. Баратов

Ташкент давлат транспорт университети доценти

Ж. С. Рамагов

Тошкент давлат транспорт университети профессори

С. Ҳ. Султанов

Ташкент давлат транспорт университети катта ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Мақолада янги Ўзбекистонда инсон ҳуқуқларини таъминлаш масаласи, ва сўз эркинлигининг кўрсаткичлари, диний ва сиёсий қарашлари, Инсон ҳуқуқларини миллий кўламда ҳимоя қилиш тегишли қонун ҳужжатлари ёрдамида, мустақил суд ҳокимияти орқали, ҳимоя воситаларининг яқка тартибдаги қафолатларини қонунчилик йўли билан расмийлаштириш ва амалиётга татбиқ этиши, Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар ва инсон ҳуқуқларини ҳимоя этиш ва рағбатлантириш каби масалалар таҳлил этилган.

Калит сўзлар: Инсон ҳуқуқлари, виждон, шахс, мулк, сўз эркинлиги, плюрализм.

ABSTRACT

The article examines the issue of human rights in Uzbekistan, its indicators, religious and political views. Issues such as the formalization and implementation of individual remedy guarantees, international human rights treaties, and the protection and promotion of human rights were analyzed through relevant legislation and an independent judiciary.

Keywords: Human rights, conscience, personality, property, freedom of speech, pluralism.

КИРИШ

Барчамизга маълумки, сўнги йилларда мамлакатимизда барча соҳалар қатори инсон ҳуқуқларини таъминлаш масаласида ҳам қатор ўзгаришлар кўзга ташланди. Виждон, шахс, мулк ва сўз эркинлиги, плюрализм, сиёсий қарашларнинг хилма-хиллиги ва бошқа масалаларда ижобий ўзгаришлар кўзга ташлана бошлади. Бу борада қатор халқаро рейтингларда ҳам Ўзбекистоннинг кўрсаткичлари сезиларли даражада ўзгарди. Диний ва сиёсий қарашлари боис узоқ муддатларга озодликдан маҳрум қилинган минглаб юртдошларимиз ўз оиласи бағрига қайтди. Узоқ йиллардан бери шу юртда яшаб келаётган ўн минглаб фуқаролиги бўлмаган шахсларга Ўзбекистон Республикаси фуқароси паспортлари топширилди. Қўшни ва қардош, яқин ва узоқ хориж мамлакатлари билан алоқалар яхшиланди. Ўзбекистон ҳар жиҳатидан яна дунё эътиборига тушди.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Ўзбекистон инсон ҳуқуқлари бўйича 80 дан ортиқ халқаро ҳужжатларга, шу қаторда, БМТнинг 6 та асосий шартномаси ва 4 та факультатив протокоliga қўшилган. Мамлакатда инсон ҳуқуқлари соҳасини янада ривожлантириш мақсадида Президент Фармони [1] билан 2020 йилнинг 22 июнь куни Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикасининг Миллий стратегияси ва уни амалга ошириш бўйича Йўл харитаси ҳам тасдиқланган. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош ассамблеясининг 2020 йил 13 октябрда қабул қилинган қарорига асосан Ўзбекистон БМТнинг Инсон ҳуқуқлари бўйича Кенгашига кўпчилик овоз билан тарихда биринчи марта уч йиллик муддатга сайланди. Энди Ўзбекистон уч йил муддат мобайнида БМТнинг Инсон ҳуқуқлари бўйича Кенгашига аъзо 47 давлатдан бири сифатида фаолият юритади. Яқин тарихимизга мурожаат қилсак, маълумки, Ўзбекистон мустақилликка эришганидан кейин, инсон манфаатларига, унинг ҳуқуқ ва асосий эркинликларига олий қадрият сифатида қарай бошлади. Бунга, 1991 йилнинг 30 сентябрида Инсон ҳуқуқлари бутунжаҳон Декларацияси Ўзбекистоннинг аъзо бўлишининг ўзиёқ яққол мисол бўла олади. Чунки, ушбу ёш давлат мустақиллигининг биринчи кунлариданоқ ўз олдига, эркин бозор иқтисодиётига асосланган ҳуқуқий демократик давлат қуришни мақсад қилиб қўйган ва бу йўлда жаҳон ҳамжамияти томонидан эътироф этилиб келинган умуминсоний қадриятларнинг устуворлиги тан олинган эди.

Инсон Ҳуқуқлари тўғрисидаги Халқаро Билл инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш борасида қабул қилинган энг

асосий ҳужжатлар мажмуи бўлиб, у бу соҳада кейинчалик қабул қилинган барча ҳужжатлар учун асос бўлиб хизмат қилади. Инсон Ҳуқуқлари тўғрисидаги Халқаро Билл ўз ичига инсон ҳуқуқлари соҳасидаги асосий ҳужжатларини бирлаштирган. Бу халқаро ҳужжатлар қуйидагилардан иборатдир:

Инсон ҳуқуқларини миллий даражада ҳимоя қилиш. XX-асрнинг иккинчи ярмида кўпгина мамлакатлар инсон ҳуқуқлари бўйича асосий халқаро шартномаларнинг иштирокчиси бўлиб қолдилар. Бу ҳужжатлар инсон ҳуқуқлари соҳасидаги нормаларни амалга ошириш юзасидан ҳуқуқий мажбуриятлар юклаганлиги боис мазкур соҳага оид нормалар халқаро кўламда амалга ошириладиган мажбуриятлар даражасига кўтарилди. Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар айрим шахсларнинг ўзаро муносабатларини ҳамда муайян шахслар билан давлат ўртасидаги муносабатларни қамраб олади. Шу сабабли инсон ҳуқуқларини ҳимоя этиш ва рағбатлантириш энг аввало давлатнинг ички вазифаси бўлиб, унинг бажарилиши учун жавобгарлик ҳар бир давлат зиммасига тушади. Инсон ҳуқуқларини миллий кўламда ҳимоя қилиш тегишли қонун ҳужжатлари ёрдамида, мустақил суд ҳокимияти орқали, ҳимоя воситаларининг яқка тартибдаги кафолатларини қонунчилик йўли билан расмийлаштириш ва амалиётга татбиқ этиш, шунингдек, демократик институтлар ташкил этиш йўли билан таъминланади. Бундан ташқари миллий ва маҳаллий кўламда ишлаб чиқилиб амалга ошириладиган, маҳаллий шароитлар ҳамда анъаналар инobatга олинадиган кампаниялар ҳам борки, улар маърифий ва ахборот хусусиятга эга бўлган самарали тадбирлар тариқасида тан олинган. Инсон ҳуқуқлари миллий кўламда ҳимоя этилишини самарали тарзда амалга ошириш муаммоси жаҳонда, айниқса XXI аср бошида катта қизиқиш уйғотмоқда. Кўпгина мамлакатларда бошқарувнинг демократик шакли пайдо бўлганлиги ёки тикланганлиги инсон ҳуқуқлари ўзагини ташкил этувчи ҳуқуқий ва сиёсий асосларни таъминлашда демократик институтлар ўйнайдиган ролнинг аҳамияти катта эканлигидан далолат бермоқда. Шундай қилиб, инсон ҳуқуқларини самарали тарзда амалга ошириш энг аввало бу ҳуқуқларни рағбатлантириш ва ҳимоя этиш учун миллий инфратузилмалар яратишни тақозо этиши аниқ-равшан кўриниб турган фактга айланиб бормоқда. Кейинги йилларда жаҳоннинг кўпгина мамлакатларида зиммасига инсон ҳуқуқларини ҳимоя этиш билан боғлиқ аниқ вазифалар юклатилган муассасалар ташкил этилди. Гарчи бундай муассасаларнинг вазифалари ҳар бир мамлакатда ўзига хос бўлиб, бир-биридан фарқ қилса-да, уларнинг ҳаммаси битта муштарак мақсадга

эришишни кўзлайди. Шу сабабли ҳам улар инсон ҳуқуқларини рағбатлантириш ва ҳимоя этиш билан шуғулланувчи миллий институтлар деб юритилади.

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг инсон ҳуқуқлари бўйича вакили. Парламент ҳузуридаги Инсон ҳуқуқлари бўйича вакил (омбудсман) институти Ўзбекистон Республикаси 1 чи Президенти ташаббуси билан Олий Мажлиснинг биринчи сессиясида ташкил этилди ва 1995 йил 6 майда Олий Мажлис қарорига биноан унинг ҳузурида Вакилнинг инсон ҳуқуқлари борасидаги вазифаларни намунали амалга оширишига кўмаклашиш учун фуқароларнинг конституциявий ҳуқуқлари ва эркинликларига риоя қилиш Комиссияси ташкил этилди.[2]

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Мамлакатимизда олиб борилаётган ислохотлар самарасини янада ошириш, давлат ва жамиятнинг ҳар томонлама ва жадал ривожланиши учун шарт-шароитлар яратиш, мамлакатимизни модернизация қилиш ҳамда ҳаётнинг барча соҳаларини либераллаштириш бўйича устувор йўналишларни амалга ошириш мақсадида аҳоли ва тадбиркорларни ўйлантираётган долзарб масалаларни ҳар томонлама ўрганиш, амалдаги қонунчилик, ҳуқуқни қўллаш амалиёти ва илғор хорижий тажрибани таҳлил қилиш, шунингдек кенг жамоатчилик муҳокамаси натижасида ишлаб чиқилган ҳамда қўйидагиларни назарда тутадиган 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралда — Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисидаги ПФ-4947-сон Фармони билан тасдиқланди [3]. Демак, айтишимиз мумкинки, ҳуқуқий демократик жамият қуриш билан бир қаторда фуқароларнинг ҳуқуқий онги ва маданиятини ортиб бораётганидан далолат беради. Шунингдек, Ҳозирги вақтда республикамизда инсон ҳуқуқларига риоя қилиш ва ҳимоялаш масалалари билан шуғулланувчи бир неча идоралар мавжуд. Улардан иккитаси қонун чиқарувчи, биттаси ижроия ва яна бири ноҳукумат органидир. Масалан, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг биринчи йил иш фаолиятида 1995 йилда Олий Мажлиснинг Инсон ҳуқуқлари бўйича вакили органи таъсис этилди ва унинг ихтиёрида инсон ҳуқуқ ва эркинлиги билан шуғулланувчи Комиссия тузилди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармонига кўра Республика инсон ҳуқуқлари бўйича Миллий марказ тузилди. Ўзбекистон Республикаси Инсон ҳуқуқлари миллий маркази давлат идоралараро

таҳлил, тушунтириш ва мувофиқлаштириш органи ҳисобланади, яъни мазкур орган инсон ҳуқуқлари соҳасида давлат бошқарув органлари фаолиятини мувофиқлаштиради, инсон ҳуқуқлари соҳасидаги ишлар миллий режасини ишлаб чиқади, Ўзбекистонда инсон ҳуқуқлари ҳимояси бўйича миллий маърузалар тайёрлайди, давлат хизматчилари учун эса инсон ҳуқуқлари муҳофазаси соҳасида ахборот базаси яратади, уларни ўқитади, маслаҳатлар беради, ташвиқот ишлари олиб боради. Марказнинг асосий мақсади – устувор вазифаларни ҳар томонлама ҳал этиш йўли билан Инсон ҳуқуқлари соҳасидаги Миллий фаолият дастурини – ҳуқуқ ва эркинликларни ҳимоя этишнинг кўп жиҳатли тизимини ишлаб чиқиш ва ҳаётга тадбиқ этиш, жумладан: Инсон ҳуқуқлари соҳасидаги қонунчиликни такомиллаштириш;

- Ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш ва инсон ҳуқуқларини суд йўли билан ҳимоя қилиш;
- Инсон ҳуқуқларини суддан ташқари ҳимоя қилиш тизимини яратиш;
- Турли тоифадаги шахслар ҳуқуқини ҳимоя қилиш стратегиясини ишлаб чиқиш;
- Инсон ҳуқуқларига риоя қилиш кафолати сифатида ахборот олиш эркинлигини таъминлаш;

Инсон ҳуқуқлари соҳасидаги таълимнинг кўп мақсадли тизимини – алоҳида ихтисослашган курслардан тортиб оммавий маълумот – танишув дастурларигача ташкил этиш

- Ижро ҳокимияти доирасидаги вазирликлар, қўмитилар, идоралар ва муассасаларни инсон ҳуқуқлари соҳасидаги фаолиятини мувофиқлаштириш;
- Ўзбекистон Республикасида Инсон ҳуқуқлари ва эркинликлари тизимининг ривожланиши асосида халқаро ҳамжамиятга кириш йўллари шакллантириш.

Марказ фаолияти дастурининг ғоявий асоси – Инсон ҳуқуқлари Умумжаҳон Декларациясида баён этилган ҳуқуқий маданиятни ривожлантиришнинг умумбашарий тамойилларидир. Ҳуқуқий давлат мафкурасини ривожлантиришни илмий режалаштириш инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш Миллий концепциясини яратишни кўзда тутди. Бу конвенцияда Шарқнинг кўп асрли ҳуқуқий маданияти тажрибаси, бизнинг буюк аجدодларимиз турмуш тарзи анъаналари акс этиши лозим. Марказнинг инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш миллий концепциясини яратиш фаолияти инсон ҳуқуқлари соҳасидаги ҳаракатлар миллий дастурининг муҳим назарий қисми, мамлакатнинг ижтимоий-



сиёсий ҳаётида туб ўзгаришлар босқичининг бошланиши ҳисобланади. Ўзбекистон Республикаси Инсон ҳуқуқлари миллий маркази давлат идоралараро таҳлил, тушунтириш ва мувофиқлаштириш органи ҳисобланади, яъни мазкур орган инсон ҳуқуқлари соҳасида давлат бошқарув органлари фаолиятини мувофиқаштиради, инсон ҳуқуқлари соҳасидаги ишлар миллий режасини ишлаб чиқади, Ўзбекистонда инсон ҳуқуқлари ҳимояси бўйича миллий маърузалар тайёрлайди, давлат хизматчилари учун эса инсон ҳуқуқлари муҳофазаси соҳасида ахборот базаси яратади, уларни ўқитади, маслаҳатлар беради, ташвиқот ишлари олиб боради [4]. Халқаро алоқалар воситалари орқали маълумотлар алмашиш; ҳамкорликда нашрлар – монографиялар, ўқув қўлланмалари, мақолалар тўплами; семинар, конференция, симпозиумлар ўтказиш; телекўрсатувлар тайёрлаш, ўқув ва илмий-оммабоп фильмлар яратиш; тезкор экспедициялар, мамлакатнинг турли ерларида жойларга чиқиб тадқиқотлар ўтказиш. Марказ ўз фаолиятини амалга оширишда қатор халқаро ташкилотлар билан; БМТ, ЕХХТ, ТАСИС, ЮНЕСКО, АҚШ, Франция, Англия, Италия элчихоналари, қатор халқаро ноҳукумат ташкилотлар ва бошқа халқаро ташкилотлар билан ҳамкорлик қилмоқда. Бундан ташқари Миллий марказ олий ўқув юртларида инсон ҳуқуқлари бўйича дарсликлар, маърузалар ва семинарлар ўтказилишини амалга оширмоқда [4].

ХУЛОСА

Ўзбекистонда ҳуқуқий демократик жамият қуриш билан бир қаторда фуқароларнинг ҳуқуқий онги ва маданиятини ортиб бораётганлигидан далолат беради. Мухими, аҳолининг Президент ва Халқ қабулхоналари воситасида юз бераётган ҳолатларни тўғридан-тўғри етказиш имконияти яратилди. Шунингдек, бугунги кунда инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг қонунчилик ва ташкилий-ҳуқуқий базасини мустаҳкамлаш, инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро стандартларни миллий қонунчиликка имплементация қилиш ва халқаро мажбуриятларни бажариш, шунингдек, инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш масалалари юзасидан халқаро ташкилотлар билан ҳамкорликни фаоллаштиришга доир тизимли ишлар олиб борилмоқда.

REFERENCES

1. Раматов, Ж. С., Ҳасанов, М., & Назарова, Н. Ж. (2022). МЕДИАМАДАНИЯТ ВА АХБОРОТДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3(6), 984-988.

2. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Кушаков, Файзулла Абдуллаевич, Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н. (2022). ТРАНСПОРТ ТИЗИМИ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИ МИСОЛИДА). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (9), 606-612.
3. Файзулла Абдуллаевич Кушаков (2022). ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОЙ ФИЛОСОФИИ ТЕХНИКИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 1), 428-432.
4. М.Н.Хасанов, Б.З.Зайниддинов, О.А.Абдухалилов, & Д.Д.Джурайев. (2022). МЕХНАТДА ИНСОННИ ШАКЛЛАНИШДАГИ АҲАМИЯТИ . *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 4(3), 116–123.
5. To‘raboev, Sh. G., Toirov, Z. T., Abdullaev, J. Z., G‘ulomov, Sh. M., Hasanov, M. N. (2022). FOROBIYNING FALSAFIY ASARLARIDA INSONNING KELIB CHIKHISHI.
6. Mirshod Numonovich Hasanov ABU NASR FOROBIYNING INSONNI AHLAKKII KAMALOTI TUGRISIDAN KARASHLARI SHAKLANNISINING IJTMOYTARIIKHIIY MANBALARI // *Pedagogik fanlarda akademik tadqiqotlar*. 2022 yil. 6-son. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/abu-nasr-forobiyning-insonni-ahlo-iy-kamoloti-t-rishniy-arashlari-shaklanishining-izhtimoiy-tarihiiy-manbalari> (kirish sanasi: 29.10.2022).
7. Ramatov, J.S., & Khasanov, M.N. (2022). ANALYSIS OF THEORETICAL MODEL OF INNOVATION INVOLVEMENT IN EDUCATIONAL PRACTICE. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (6), 937-942.
8. Раматов, Ж. С., Муратова, Д., Султанов, С. Ҳ., Тухтабоев, Э., Кушаков, Ф., & Хасанов, М. Н. (2022). ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ ВА ҚАДРИЯТЛАР ПЛЮРАЛИЗМИ. *World scientific research journal*, 8(1), 102-108.
9. Ж. С. Раматов, Л. А. Валиев, & М. Н. Хасанов (2022). АУРОБИНДО ГҲОШ ТАЛҚИНИДА ИНСОН БОРЛИҒИНИНГ АНТРОПОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (6), 688-695.
10. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Ҳ., Муратова, Д.А., Хасанов, М.Н., & Эрнийёзов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10), 376-386.
11. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Ҳ., Кушаков, Файзулла Абдуллаевич., Валиев, Л.А., & Хасанов, М.Н.



(2022). ҲОЗИРГИ ДАВРДА ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ ҲАҚИДАГИ ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЛҚИНИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (9), 647-656.

12. Ж. С. Раматов, & М. Ҳасанов (2022). ШАХС ДИНИЙ ДУНЁҚАРАШИНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА ИЛМНИНГ АҲАМИЯТИ. Academic research in educational sciences, 3 (7), 35-39.

13. Ш.Ғ.Турабоев, З.Т.Тоиров, Ж.З.Абдуллаев, Ш.М.Ғуломов, & М.Н.Ҳасанов. (2022). ФОРОБИЙНИНГ ФАЛСАФИЙ АСАРЛАРИДА ИНСОННИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШИ . JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS,4(3),141–146.

14.Бобошев, З. Н., Ҳасанов, М. Н., & Нуруллаев, Э. А. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ПЕДАГОГИКА ФАНИНИНГ АСОСЧИСИ СИФАТИДА.

15. Рашит Ўсарович Баратов (2022). ТРАНСПОРТ ТИЗИМИДА ТАЪЛИМ ИСЛОҲОТЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3 (TSTU Conference 1), 90-95.

16.Baratov, R. U. (2019). INTEGRATION OF A SCIENCE, FORMATION AND MANUFACTURE IN THE COURSE OF PROFESSIONAL TRAINING. In ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПОЛИТОЛОГИЯ, СОЦИОЛОГИЯ, ФИЛОСОФИЯ, ИСТОРИЯ (pp. 51-54).

17.Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Ҳ., Муратова, Д.А., Ҳасанов, М.Н., & Эрнӣёзов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10), 376-386.

18.Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Ҳ., Кушаков, Ғайзулла Абдуллаевич., Валиев, Л.А., & Ҳасанов, М.Н. (2022). ҲОЗИРГИ ДАВРДА ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ ҲАҚИДАГИ ИЛМИЙ-ФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЛҚИНИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (9), 647-656.

МАФКУРАВИЙ ТАҲДИДЛАРГА ҚАРШИ КУРАШИШДА ДИНИЙ ҚАДРИЯТЛАР АҲАМИЯТИ

Э. Шамсиддинова

Тошкент давлат транспорт университети ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Мафкуравий таҳдидларга қарши курашишда бири илму маърифат, таълим-тарбия, уларга инсон камолоти ва миллат равнақининг энг асосий шарти ва гарови сифатида қаралган. Ёшларнинг таълим-тарбиясини энг бирламчи масалаларидан бири қилиб илгари сурилган ҳолда, ушбу сиёсатнинг яқин йилларда ўзининг кутилган натижаларининг илмий хулосалари келтириб ўтилган.

Калит сўзлар: Мафкуравий таҳдид, маънавият, талим-тарбия, демографик, “Байтул ҳикма”, Маъмун академияси, “Тарбия” фани.

КИРИШ

Бугунги кунда дунёда таҳдидларни шартли равишда иқтисодий, социал, сиёсий, табиий –иқлимий, экологик, демографик, мафкуравий ва ҳарбий тоифаларга ажратар эканмиз буларнинг барчасини умумий «ижтимоий таҳдид» номи билан белгилаш мақсадга мувофиқ. Чунки, барчасининг замирида ижтимоий муносабатлар, авваламбор инсон фаолияти билан боғлиқ жараёнлар ётади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

«Таҳдид» - (арабча сўздан олинган бўлиб, хавф- хатар дегани) бу инсон ҳаётининг фаолияти, умуман, яшашни чигаллаштирувчи унинг ўз салоҳиятига таяниб асрлар давомида ўзи учун мақбул, шу билан бирга жамият барқарорлиги, хавфсизлигини асрашга қаратилган муҳофаза тизимида ҳамда маълум тарихий давр мобайнида барпо этилиб, аниқ мақсад сари йўналтирилган ижтимоий сиёсий тузилма, аниқроғи, давлатнинг сиёсий асосини заифлаштириши, кейинчалик эса, уни емирилишига олиб келувчи маҳаллий, ҳудудий, минтақавий ва ниҳоят, умумсайёравий салбий омилларнинг кириб келиши натижасида аниқ макон ва замонда юз берувчи ўта салбий ноҳуш, беқарор сиёсий ижтимоий тарихий вазиятдан иборатдир. Юқоридан келтирилган таърифдан келиб чиқадиган бўлсак, сўз асосан, жамиятга, сиёсий ҳаётга турли-

туман салбий таъсирлар, омилларнинг кириб келиши натижасида шакллланган ва уни издан чиқаришга қаратилган макон ва замонда аниқ ва ўта салбий, беқарор ижтимоий вазият тўғрисида бормоқда. Умуман, тажриба гувоҳлик берадики, жамият, давлат, инсон манфаатларига нисбатан таҳдидлар даражасидан катъий назар улардан келадиган зарарли оқибатларнинг таъсири нуқтаи назаридан деярли бир хиллигини эътироф этиш мақсадга мувофиқ. Шу ўринда Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг, “Фарзандларимизнинг турли радикал ва зарарли ғоялар таъсирига тушиб қолишига йўл қўймаслик – асосий вазифамиздир. Бу борадаги ишларни янгича ёндашувлар билан давом эттиришимиз керак” – деган сўзи барчани огоҳликка чақиради.

Биз тадқиқотимизда таҳдидларнинг миллий маънавиятимизга салбий таъсири ва уларга қарши курашишда шахс масъулиятини исломий қадриятлар асосида такомиллаштиришнинг ўзига хос жиҳатларини тадқиқ этишни бугунги глобаллашув жараёни шиддатли тус олаётган бир даврнинг энг долзарб фалсафий муаммолари сифатида ёритишга ҳаракат қилдик.

Биринчи Президентимиз Ислом Каримовнинг «Юксак маънавият - энгилмас куч» асарида: «Маънавий таҳдид деганда, аввало, тили, дини, эътиқодидан қатъи назар, ҳар қайси одамнинг том маънодаги эркин инсон бўлиб яшашига қарши қаратилган, унинг айнан руҳий дунёсини издан чиқариш мақсадини кўзда тутадиган мафкуравий, ғоявий ва информацион хуружларни назарда тутиш лозим.» деб таъриф берилади.

Дарҳақиқат, бугунги глобаллашув жараёнлари шиддат билан кечаётган бир даврда маънавиятга қарши қаратилган бундай мудҳиш хавф – хатарлар азалий умуминсоний ғоялар билан йўғрилган ислом дини билан бевосита боғлиқ миллий қадриятларимизнинг илдизига ҳам болта уришга хизмат қилмоқда.

«Бинобарин, маънавиятга қарши қаратилган ҳар қандай таҳдид ўз - ўзидан мамлакат хавфсизлигини, унинг миллий манфаатларини, соғлом авлод келажагини таъминлаш йўлидаги жиддий хатарлардан бирига айланиши ва охир оқибатда жамиятни инқирозга олиб келиши мумкин».

Маънавий таҳдидлар вайронкор кучларнинг ўз моддий, сиёсий манфаатларини кўзлаган ҳолда ҳар хил марказлар томонидан бирон бир мамлакатга нисбатан ичкаридан ёки ташқаридан туриб бевосита амалга ошириладиган маънавий бузғунчиликнинг муайян шаклидир. Улар ўз мақсадларига эришиш учун ҳар қандай усуллардан, одамларнинг маънавий руҳий ҳиссиётлари, миллий туйғулари, ҳар қандай жамиятда мавжуд ижтимоий-иқтисодий муаммолардан, шунингдек

ОАВ, Интернетдан усталик, фирромлик, ноҳолислик билан фойдаланишга ҳаракат қилади.

Маънавий тажовузлар кўпинча турли ниқоблар, жозибали шиор ва ғоялар ниқоби ортида иш кўради.

Бу борада маънавий таҳдидларнинг уч турини алоҳида таъкидлаш жоиз:

Мафкуравий таҳдидлар.

Ғоявий таҳдидлар.

Информацион таҳдидлар.

Мафкуравий таҳдид – ижтимоий сиёсий ҳаракат, оқим ёки сиёсий куч ўз мафаатини ифодаловчи ўз мафкурасини кўрқитув, зўрлик йўли билан бошқаларга тиқиштириш. Мафкуравий таҳдидлар жамият, давлат ёки халқ, миллат ёки элат тақдирига хавф солиб турган, фожиали оқибатларга олиб келиши мумкин бўлган мафкуравий хавф – хатарлар мажмуаси. Ўзбекистон ҳам бундай таҳдидлардан четда қолаётгани йўқ. Фуқаролар онгида бу сиёсий экстремизм, диний фундаментализм, этник ва миллатлараро зиддиятлар, коррупция ва жиноятчилик, мафкуравий таҳдидлар шаклида намоён бўлмоқда. Айниқса, ўрта аср араб халифалигини қайта ўрнатиш ғояси ҳамда халқаро террорчилик ва диний экстремизм марказлари орқали моддий – ғоявий таъминланаётган ақидапарастлар мафкураси бугун минтақамиздаги тинчлик ва барқарорлик, учун катта хавф бўлиб турибди.

Ғоявий таҳдидлар инсон маънавий оламида ёт ғоялар, қарашлар ва мақсад – муддаоларни шакллантиришга интилади. Бугунги кунда ғоявий таҳдидларнинг қуйидаги кўринишлари намоён бўлмоқда: ахлоқий бузуқлик, зўравонлик, эгоцентризм, индивидуализм, «оммавий маданият», миллий давлатнинг тараққиёт моделига ишончсизлик уйғотиш, миллатлараро низолар келтириб чиқаришга уриниш, ёшлар онгини заҳарлаш.

Бундан кўзланган мақсад ривожланаётган давлатнинг моддий ва маънавий бойликларига эгалик қилишдир. Чунки ғоявий таҳдидлар охир – оқибатда давлатни инқирозга олиб келади.

Информацион таҳдидлар эса инсоннинг онгини заҳарлаш ва шу тариқа ўзлигига эга бўлмаган оломонни таркиб топтиришни кўзлайди. Бугунги кунда информацион таҳдидлар асосан интернет воситасида кириб келмоқда. Ҳозирги давр дунё миқёсида мафкуравий жараёнлар мисли кўрилмаган даражада глобаллашиб бораётган даврдир. Ахборот тарқатиш жараёни бутун Ер юзини қамраб олмоқда. XX асрнинг сўнгги ўн йиллигида яратилган мўъжиза халқаро компьютер тармоғи, яъни интернет тизимининг вужудга келиши ва у орқали ахборот

алмашинуви жараёнларининг тезлашиб бориши бугунги кунда ғоявий таъсир ўтказиш кўламини кенгайтормоқда.

Дарҳақиқат, дунёда глобаллашув шароитида интернет тизими бугунги кунда мафкуравий таъсир ўтказишнинг асосий воситаси бўлиб қолмоқда. Бу жараён ўсиб келаётган ёш авлод онгини салбий қарашлар билан банд этиб, бугунги кунда жамиятда ўта жиддий ва хавфли муаммоларни келтириб чиқармоқда. Масалан, интернетдан шахс онгини вайронкор ғоялар орқали захарлаш ва зарарлаш мақсадида фойдаланиш, аниқроқ қилиб айтганда, шахснинг қалби ва онгини мафкуравий кураш объектига айлантириш, мафкуравий курашнинг энг оммавий ва тезкор усулларида бири бўлиб қолмоқда. Натижада шахс кибер хуружлар қаршисида ожиз бўлиб қолмоқда. Яъни, биз буни фалсафий нуқтаи назардан таҳлил қилар эканмиз, шахснинг ижтимоий тармоқлар орқали юборилаётган нотўғри информациялар, бузғунчи ғоялар домига тушиб қолишининг асосий сабаби, уни онг соҳасиданда кучлироқ бўлган онгости соҳасига таъсир этишининг илғор методларидан фойдаланилишидир.

ХУЛОСА

Хулоса қилиб бугунги глобаллашув асрида компьютер техникаси терроризмнинг виртуал кўринишларидан кибертерроризмнинг асосий объекти бўлиб қолмоқда. Энг оғриқли нуқтаси шундаки, ушбу техникадан маънавий таҳдид қилиш воситаси сифатида фойдаланилмоқда.

REFERENCES

1. Пахруддинов Ш.И. Дунёвий демократик давлатчилик қурилиши амалиётида диний экстремизм таҳдиди. Тошкент: 2001, 178-б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2018 йил, 28 декабрь.
3. Ислон Каримов «Юксак маънавият – енгилмас куч» Тошкент 2008 . Маънавият 14 бет
4. Ж. С. Раматов, & М. Ҳасанов (2022). МОЛОДЕЖЬ И ИНФОРМАЦИОННО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (6), 532-536.
5. Салимов, Бахриддин Лутфуллаевич, & Ҳасанов, Миршод Нўъмонович (2022). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ КОМИЛ ИНСОН ТАРБИЯСИ МАСАЛАЛАРИ ТАҲЛИЛИ. Oriental renaissance:



Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (6), 1345-1354.

6. Рамагов, Ж. С., Баратов, Р. Ў., Кушаков, Ф. А., Валиев, Л. А., & Хасанов, М. Н. (2022). ЖАМИЯТДА СИЁСИЙ ВА ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *PEDAGOGS journali*, 19(1), 13-18.

7. Ж. С. Рамагов, & М. Хасанов (2022). ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ЯНГИ БОСҚИЧИДА ИНСОН ХУҚУҚЛАРИНИНГ ТАЪМИНЛАНИШИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (6), 963-969.

8. Рамагов, Ж. С., Муратова, Д., Султанов, С. Х., Тухтабоев, Э., Кушаков, Ф., & Хасанов, М. Н. (2022). ИЖТИМОЙ АДОЛАТ ВА ҚАДРИЯТЛАР ПЛЮРАЛИЗМИ. *World scientific research journal*, 8(1), 102-108.

9. Хасанов, М. Н., Бекмуратов, Б. Ж., Турғунов, Б. Ш., & Маматқулов, У. С. (2022). ФОРОБИЙНИНГ ТАЪЛИМОТИДА ЁШЛАР ВА ИНСОН ТАЛИМ-ТАРБИЯСИ МАСАЛАЛАРИ ТАХЛИЛИ.

10. Хасанов, М. Н., Зайниддинов, Б. З., Абдухалилов, О. А., & Джурайев, Д. Д. (2022). МЕХНАТДА ИНСОННИ ШАКЛАНИШДАГИ АҲАМИЯТИ.

11. Ramatov, J.S. va Xasanov, MN (2022). Ta'lim amaliyotida innovatsiyalarni jalb qilishning nazariy modelini tahlil qilish. *Sharq uyg'onishi: innovatsion, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar*, 2 (6), 937-942.

12. У.К.Эрниёзов, М.Н. Хасанов, & Х.С.Машарипов. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ИЖТИМОЙ-АХЛОҚИЙ ТАЪЛИМОТИ ВА УНИНГ АНТРОПОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 4(3), 130–136.

13. Ж. С. Рамагов, М. Хасанов, & Л. А. Валиев (2022). ИНСОН ДУНЁҚАРАШИНИНГНИНГ ДИНИЙ ВА ДУНЁВИЙ ТАЛҚИНИ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2 (7), 78-82.

14. J. S. Ramatov, M. Hasanov МАФКУРАВИЙ АХЛОҚ ТАРБИЯСИНИНГ АНАМИЯТИ // *Pedagogik fanlar boyicha akademik tadqiqotlar*. 2022 yil. 6-son. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mafkuraviy-ta-didlarni-oldini-olishda-ahlo-iy-tarbiyaning-a-amiyati> (kirish sanasi: 04.10.2022).

15. Ж. С. Рамагов, & М. Хасанов (2022). МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР – ЖАМИЯТИМИЗ БАРҚАРОРЛИГИ ВА ЁШ АВЛОД ТАРБИЯСИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (6), 973-979.

16. Ж. С. Рамагов, М. Хасанов, & Лочин Азаматович Валиев (2022). АУРОБИНДО ГХОШ ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ ФАЛСАФИЙ МЕЪРОСИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (6), 1161-1169.

17. Ramatov, J.S. va Xasanov, MN (2022). Ta'lim amaliyotida innovatsiyalarni jalb qilishning nazariy modelini tahlil

- qilish. *Sharq uyg'onishi: innovatsion, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar*, 2 (6), 937-942.
- 18.У.К.Эрниёзов, М.Н. Ҳасанов, & Х.С.Машарипов. (2022). АБУ НАСР ФОРОВИЙНИНГ ИЖТИМОИЙ-АХЛОҚИЙ ТАЪЛИМОТИ ВА УНИНГ АНТРОПОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ .*JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 4(3), 130–136.
- 19.Ж. С. Раматов, М. Ҳасанов, & Л. А. Валиев (2022). ИНСОН ДУНЁҚАРАШИНИНГНИНГ ДИНИЙ ВА ДУНЁВИЙ ТАЛҚИНИ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2 (7), 78-82.
- 20.J. S. Ramatov, M. Hasanov МАФКУРАВИЙ АХЛОҚ ТАРБИЯСИНИНГ АНАМИЯТИ // *Pedagogik fanlar boyicha akademik tadqiqotlar*. 2022 yil. 6-son. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mafkuraviy-ta-didlarni-oldini-olishda-ahlo-iy-tarbiyaning-a-amiyati> (kirish sanasi: 04.10.2022).
- 21.Ж. С. Раматов, & М. Ҳасанов (2022). МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР – ЖАМИЯТИМИЗ БАҲАРАҚЛИГИ ВА ЁШ АВЛОД ТАРБИЯСИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (6), 973-979.
- 22.Ramatov, J.S., & Khasanov, M.N. (2022). HISTORY OF RAILWAY CONSTRUCTION IN UZBEKISTAN: YESTERDAY AND TODAY. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (6), 925-930.
- 23.Ж. С. Раматов, & М. Н. Ҳасанов (2022). АБУ НАСР ФОРОВИЙНИНГ ЖАҲОН ИЛМ-ФАН ТАРАҚҚИЁТИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ ВА УНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ АҲАМИЯТИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 1), 648-653.
- 24.М. Н. Ҳасанов, С. У. Бошмонов, & Т. О. Жонибеков (2022). АБУ НАСР ФОРОВИЙНИНГ ИЛМ-ФАНЛАР ТАСНИФИДА АХЛОҚИЙ ВА ДИНИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ТАҲЛИЛИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (TSTU Conference 1), 608-613.

ЁШЛАРНИ ЁТ ВА ЗАРАРЛИ ҒОЯЛАРДАН ҲИМОЯ ҚИЛИШДА МИЛЛИЙ ҒОЯ НЕГИЗИГА ТАЯНИШНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Нуржахон Одиловна Рахмонова

Тошкент давлат транспорт университети талабаси
rahmonovanurjaxon54gmail.com

Сирожбек Ҳабибуллаевич Султанов

Илмий раҳбар, ТДТрУ доценти
sirojbek.sultanov@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада мамлакатимиз ёшларини ёт ва зарарли ғоялардан ҳимоя қилишнинг ўзига хос йўллари илмий жихатдан асослаб берилган. Шунингдек, ёшларда ёт ғояларга қарши мафкуравий иммунитетни шакллантириш учун миллий ғоя ва мафкурамизни шакллантириш ва мустаҳкамлаш бўйича амалий тавсиялар келтириб ўтилган.

Калит сўзлар: глобал тинчлик, ёшлар онги, қадрият, миллий ғоя, ёт ғоялар, ғоявий хуруж, маданият, маънан соғлом, мафкура, иммунитет, мафкуравий таҳдид.

КИРИШ

XX аср дунёда ғоявий қарама-қаршилиқлар кескин ва мураккаб тус олган давр сифатида тарихга кирди. Аср сўнгида икки қутбли дунёнинг барҳам топиши, нисбий мувозанатнинг бузилиши жаҳондаги мафкуравий манзараларни тубдан ўзгартириб юборди. XXI асрнинг дастлабки ўн йиллигида сиёсат, иқтисод, илм-фан, маданият соҳаларида инсоният томонидан улкан тараққиёт натижаларига эришилган бўлса, айти пайтда глобал тинчлик ва дунё барқарорлигига таҳдид солувчи жиддий хавф- хатарлар ҳам кучаймоқда. Инсониятнинг кўп мингйиллик тажрибаси ҳануз уруш оловини ёқишга, ундан ўз манфаатлари йўлида фойдаланиб қолишга уринаётган қора кучларнинг сайёрамизнинг турли бурчакларида ўзларининг қабих ниятларига эришиш йўлида жадал фаолият олиб боришига тўсқинлик қила олмаяпти. Бундай вазиятда ёшлар учун миллий ғоя негизига таянган таълим ва тарбия янада долзарб аҳамият касб этади. «Турли хил диний эътиқодларни инсон, хусусан, ёшлар онги ва ички дунёсига синдириш орқали сиёсий мақсадларга эришиш – мафкуравий

тажовузнинг бир шаклига айланмоқда». Бу хусусида тадқиқотчи олим М.Бекмуродовнинг қуйидаги фикрларини эслаш жоиз деб биламиз: «Турли хил диний эътиқодларни омма онгига сингдириш орқали сиёсий мақсадларга эришиш XX аср охири ва XXI аср бошларидаги даврнинг ўзига хос хусусиятларидан бирига айланди. Бугун оммага мафкуравий тазйиқ ўтказиш дунёдаги энг йирик ислом, христианлик, буддавийлик ва иудаизм динларидаги анъанавий эътиқод амалларидан ажралиб чиққан мазҳаблар, секталар, оқимлар фаолиятида яққол намоён бўлмоқда. Диний эътиқод орқали таъсир ўтказиш жараёнлари одамлар онги, дунёқарашини ўзгартириш ва пировард натижада уларни маънавий манқурт – зомбига айлантириш билан якун топмоқда. Ёшлар онгини заҳарлаб, уларни зомби қилиш механизми қай тарзда намоён бўлиши, бу жараён қандай кечиши, ёт мафкуравий кучлар ўз мақсадларига эришиш учун қандай шакл ва услублардан фойдаланаётганликларини тадқиқ этиш ҳамда уларга қарши курашиш бугун жамият олдида турган долзарб масалалардан бири саналади».

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Жаҳонда кечаётган иқтисодий-сиёсий ва маънавий-маданий жараёнлар асносида глобал ахборотлашувнинг бир қатор жиддий салбий оқибатлари ҳам намоён бўлмоқда. Бу борада тадқиқотчи Н.Умарова шундай ёзади: «...Ахборотни тараққиёт кушандасига айлантираётган кучлар ҳам йўқ эмас. Ахборотлаштириш жараёнининг ижобий жиҳатлари билан бир қаторда ахборот соҳасидаги ютуқлардан ёмон ниятларда фойдаланиш хавфи ҳам туғилмоқда. Бунда ахборотдан жаҳонда тинчлик ва хавфсизликни таъминлаш, давлатларнинг суверен тенглиги тамойилларига амал қилиш, низоларни тинч йўл билан ҳал қилиш, кучдан фойдаланмаслик, ички ишларга аралашмаслик, инсон ҳуқуқи ва эркинликларини ҳурмат қилиш каби мақсадларга зид равишда фойдаланилмоқда». Бундай мураккаб шароитда миллий қадриятларни асраш, умуминсоний қадриятларни тушуниш, мамлакат суверенитетини мустаҳкамлаш, иқтисодий барқарорликни таъминлаш учун фуқароларнинг мафкуравий иммунитетини ошириш масаласи ҳар бир давлат олдида турган устувор вазифалардан бирига айланади. Зеро, ўзгариб бораётган дунё ва унинг мазмун-моҳиятини тушуниш, вужудга келаётган сиёсий воқелик ва ўзгаришлар ва жараёнларни миллий манфаатлар асосида таҳлил этиш, мавжуд таҳдидларнинг келиб чиқиш сабабларини тушунган ҳолда уларга қарши курашда бутун жамиятни сафарбар этиш мамлакат келажаги ва барқарор тараққиётининг муҳим шарти

ҳисобланади. Глобал ўзгаришлар даврида зарарли мафкуравий таъсирларга қарши кураш миллий ғоянинг бунёдкор мазмун-моҳиятини кишиларимиз, айниқса, ёшларимиз орасида мақсадга мувофиқ тарзда тарғиб ва ташвиқ этиш давомийлигини тақозо этади. «Бироқ, мамлакатимиз тинчлиги, жамиятимиз барқарорлиги умуминсоний, миллий ва диний қадриятларимизга қарши қаратилган, миллий ўзликни англаш, халқимизнинг асрлар давомида шаклланган ҳаёт тарзини барбод қилишга йўналтирилган мафкуравий таҳдидларга қарши курашишнинг самарали усул ва воситаларини ишлаб чиқиш, қўллаш ишлари замон талабидан ортда қолмоқда». Бинобарин, ўтмишимиз ва келажагимиз учун қудрат бағишлайдиган миллий ифтихор туйғуси билан биз янги авлодларни тарбиялашимиз, ўз миллий давлатчилигимизни мустаҳкамлаб боришимиз лозим. Бу жараёнда миллий ва умуминсоний қадриятларни ёш авлодга етказишнинг замонавий инфраструктураси ва технологиясини янада такомиллаштириш масаласи зарарли ва ёт ғояларни, мафкуравий таҳдидларни бартараф қилишнинг муҳим омили эканини ҳаётий тажрибанинг ўзи исботламоқда. Инсониятни таназзулдан асраб қолувчи миллий анъана ва урф-одатлар халқимизнинг узоқ йиллик ҳаётий тажрибаси маҳсулидир. Авлоддан авлодларга ўтиб келаётган қадриятларимизнинг, миллий-руҳий сифатларнинг инкор этилиши натижасида баъзи ёшларда кейинчалик қонунларимизга ҳам беписандлик билан қараш ҳолатларини келтириб чиқаради. Шундан келиб чиқиб айтиш мумкинки, ёшларимизда миллий-маънавий мерос ва қадриятлар, урф-одат ва анъаналарга нисбатан муносабатининг янада мустаҳкамланиши учун миллий ғоя негизига таянишнинг шарти сифатида қуйдагиларни келтириш мумкин:

- ёшларнинг умуминсоний қадриятларга содиқлигини янада юксалтириш мақсадга мувофиқдир. Масалан, инсонларнинг бир-бирига бўлган ҳурматини, озодликни, фаровонликни, тинчликсеварликни тарғиб қилиш, бузғунчиликка қарши кураш, атроф-муҳит тозаллиги ва табиатни асраш ҳамда динлараро бағрикенглик каби умуминсоний қадриятлар руҳида тарбиялаш тамойилларини янада юксалтириш лозим;

- миллий маънавиятга таяниш учун инсон, аввало, ўзлигини англаб етмоғи лозим. Зеро, бу миллий ўзлгимизни англаб етишга бўлган кучли эҳтиёж натижасидир. Умуминсоний қадриятлар ҳар доим миллий қадриятлар билан озиқланади ҳамда миллий маънавиятни шакллантириш ва ривожлантиришга хизмат қилади. Бу эса миллий ғоя негизига таянишда бутун инсониятни бирлаштириб турувчи муштарак омил ҳисобланади. Шундагина биз истиқболда маънавий

баркамол инсонни, соғлом фикрлайдиган авлодни тарбиялашга эришамиз. Жамиятимизнинг устувор вазифаларидан бири ҳам баркамол авлодни тарбиялашдан иборатдир. Зеро, маънавий баркамол инсонларгина буюк келажакни ярата оладилар. Маънавий баркамол инсонни тарбиялашда, шубҳасиз, таълим тизимининг ҳам роли беқиёсдир. Ҳозирги дунёда ёшлар потенциали ва интеллектуал қудрат ҳал қилувчи аҳамият касб этмоқда. Маънавий баркамол, интеллектуал салоҳияти юқори авлод тарбияси нафақат Ўзбекистонда, балки бутун жаҳонда энг муҳим вазифалардан бири сифатида намоён бўлмоқда. Шунинг учун ҳам ёшлар тарбиясига катта хавф солаётган бамисоли бало-қазодек тарқалиб бораётган ёт ғоялар ва ғоявий хуружларга қарши курашиш ҳаётий-амалий аҳамиятга эгадир.

Ахборотлашган жамиятда ёшларимизни турли хил ёт ва зарарли ғоялардан, айниқса, «оммавий маданият», диний экстремизм, терроризм ва ахборот хуружларидан ҳимоялаш учун замонавий ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда тушунарли ва ишонарли қилиб тайёрланган материаллар асосида тизимли равишда тадбирлар ўтказиб бориш, миллий ғоянинг тарғибот самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Ўз навбатида таълимга етарли даражада эътибор қаратмаслик, унинг фаолиятини ижтимоий манфаатлар билан мослаштирмаслик, унга иккинчи даражали омил сифатида қараш жамият ривожига салбий таъсир кўрсатади, ҳатто, унинг таназзулига ҳам олиб келиши мумкин. «Умумий таълим, ягона ўқув системаси демократик жамият устунларидан бири, асосий социал институт бўлиб, унинг илмий, маънавий, ғоявий, ахлоқий асосларини белгилаб берувчи, бирлаштирувчи ва тараққиёт йўлида ҳаракатга келтирувчи муҳим восита сифатида фаолият кўрсатади». Бугунги давр талабидан келиб чиқиб, ёшлар муаммоларини ҳал этиш мамлакат тараққиёти ва хавфсизлигининг кафолати экан, миллий тараққиётнинг муҳим вазифаларини ҳал этишда, таълим-тарбия бериш ҳамда миллий ғоямизни тарғиб қилиш орқали барча ёшларга зарур шароитларни яратиш, замонавий билим ва касб-ҳунарга эга, дунё майдонида ўз тенгдошлари билан беллашишга қодир бўлган ёшларни тарбиялаш давр талабидир.

Жаҳондаги ҳар бир халқ ва давлат ўз ёшларини миллий ғоя руҳида тарбиялаган тақдирдагина ўз келажакини таъминлаши, юксак тараққиётга эришиши мумкинлигини ҳозирда бутун дунё тан олмоқда. Ўзбекистон мустақиллик йилларида ёш авлодни интеллектуал жиҳатдан кучли, жисмонан бақувват, маънан соғлом этиб тарбиялашга алоҳида урғу бериб келади. Махсус дастурлар ташкил этилмоқда, миллий ғоя, миллий мафқурани тарғиб этиш бўйича, жаҳон

чемпионлари, машхур санъаткорлар билан учрашувлар ва давра суҳбатлари мунтазам равишда амалга оширилиб келинмоқда. Ўз навбатида тарбиявий, маънавий-маърифий ишлар фуқаролар учун иқтисодий таъминотнинг ортиши, турмуш фаровонлигининг ўсиши, ёшларнинг ўз имкониятларини тўла юзага чиқаришлари учун барча объектив шарт - шароитларнинг яратилиши билан мустақамланмоғи талаб этилади. Мамлакатмизда турли хил миллатга мансуб кишилар яшайди ва уларни турли хил мақсадлар, манфаатлардаги муштараклик – фуқаролик ва ягона Ватан туйғуси бирлаштириб туради. Ғоялар хилма-хиллиги ижтимоий ҳаётни, воқеликни англаш, идрок этишда унга муносабатида турли-хил ижтимоий гуруҳ ва қатламларнинг дунёқараши, онг ва тафаккур шакли билан боғлиқ мақсадлар, фикрлар, тасаввурлар, майллар мажмуи ҳисобланади. Бу инсон эркинлиги билан боғлиқ табиий жараён дир.

ХУЛОСА

Миллий ғоя негизига таянишнинг истиқболларида турли халқларни бирлаштириб турувчи муштарак мақсадлар ҳам бўлиши зарур. Булар қуйидагилар: 1) руҳий-маънавий бирлик; 2) тарихий онг, мерос; 3) она тили; 4) умумий маданият; 5) ижтимоий ҳаёт; 6) миллий ва умуминсоний қадриятлар; 7) мустақиллик ва эркинликни англаш; 8) ягона Ватан туйғуси, унга бўлган садоқат; 9) тинчликни қадрлаш, асраб-авайлаш, 10) фуқаролик бурчи ва бошқа туташ омиллар инсонларни, халқларни бирлаштириб туришга хизмат қилади. Толерант мамлакатларда турлича қарашлар ва эътиқодлар кесишган бўлади. Шунинг учун, фикрда, ғояда муштарак мақсадларнинг бўлиши, онгда ижтимоийлашиши уларни умуммиллий манфаатларга йўналтиради, сафарбар этади, жипслаштиради. Бу ҳар бир кишининг фикрини эшитишни, ҳурмат қилишни тақозо этади. Шу умумий мақсадга хизмат қиладиган сиёсий-ижтимоий, ғоявий-мафкуравий, маънавий муҳит мавжуд бўлган жамиятда инсон қадрлари ҳар доим эъзозланади, турли халқлар ва миллатлар ўртасида миллий тотувлик, ҳамжихатлик, динлараро бағрикенглик ғоялари амалий ҳаётда ўзининг аниқ ифодасини топади. 123 Мамлакатда тинчлик, барқарорлик, бунёдкорлик ишлари инсонларни эзгу ғоя, мақсад сари етаклайди, сафарбар этади. Мафкуравий иммунитетни шакллантириш учун эса ватанпарварликни, эркин тафаккур тарзини, нозик дид ва юксак ахлоқийликни тарбиялаш зарур. Ёш авлод онгига ватанпарварлик каби универсал тамойиллар, мезонлар ҳисобланадиган гуманизм (инсонпарварлик), халқчиллик ва тараққийпарварлик ғояларини замонавий технологияларидан фойдаланиб сингдирилиши лозим. Ҳозирги кунда

What is the result of communicative system-activity method? Its main goal is to teach to communicate freely in the language, to behave adequately in various situations of communication. That is, the main thing in this approach is the interaction during communication and the achievement of a communicative goal. "The study of communicative system-activity method and its features which are considered one of the best methods in teaching foreign languages at technical universities, made it possible to identify its significant advantages and disadvantages and their methodological support in the learning process" [5]

As I have understood that the main disadvantages of this method are the following: This method creates ideal prerequisites for the emergence of the so-called language barrier, since a person ceases to express himself in the learning process. He begins not to speak himself, but simply to combine words through some rules. "Therefore, much attention of students is paid to the analysis of texts, the writing of expositions and essays" [8]. In addition, everyone should learn the structure and logic of a foreign language, be able to relate it to their native language, understand what their similarities and differences are. This is impossible without a serious study of grammar and without the practice of two-way translation. The advantages of the communicative method: It is the communicative method that best develops the ability to communicate competently and fluently, do not hesitate to speak English and avoid awkward pauses in speech. However, there is an opinion that the communicative method of teaching English is best for those who already have some lexical and grammatical base of the language obtained at school, university or basic courses. 80% of the lesson time, which takes place according to the communicative method, is devoted to conversational practice. The communicative technique simulates the English language

environment, without having to travel to another country. “The communicative teaching methodology can be supplemented with game elements - role-playing games, skits. Group and pair work helps in the formation of communication skills”[2]. Lexical and grammatical constructions in a ready-made (not abstract) form are easier to learn than memorizing rules from a sheet - this is an important condition for the communicative method. “Discussions and speech games - an important part of the communicative teaching methodology - help to achieve the ability to easily communicate in English in real speech situations”[11].

DISCUSSION

Communicative-system activity method of teaching of foreign languages is of an activity nature, since speech communication is carried out through speech activity, which, in turn, serves to solve the tasks of productive human activity in conditions of social interaction. “Participants of the communicative-system activity method try to solve real and imaginary tasks of joint activity with the help of a foreign language” [7]. With this approach, positive conditions are created for the active and free development of the individual in activity. In general, these conditions boil down to the following: students get the opportunity to freely express their thoughts and feelings in the process of communication, each participant in communication remains in the focus of attention of others, self-expression of personality becomes more important than demonstrating language knowledge. “Participants in communication feel safe from criticism for mistakes. The use of language material is subject to the task of individual speech design. The language material corresponds to the speaker's speech-thinking capabilities. The relationships are based on lack of appreciation, neocriticism and “empathy” (empathy and understanding of the experiences of others)”[9]. The communicative system-activity method in its modern form is a synthesis of proven methods and techniques for creating common foundations for teaching foreign languages. The communicative system-activity method involves the implementation of such a method of learning, in which, on the basis of all interacting components, an orderly, systematized and correlated mastery of a foreign language is realized in the conditions of speech activity simulated in the classroom, which is an integral of the general (extra linguistic) activity. “The communicative-system activity method is focused on language proficiency as a system of practical interaction of a number of competencies, including language, speech, communicative, socio-cultural, compensatory and educational”[7]. Language proficiency as a specialty also includes linguistic, metalinguistic and intercultural competencies. Each competence corresponds to a group of skills,

although in reality all the formed skills are mainly integrated. According to the learning objectives, the skills are grouped as follows: 1) proficiency in aspects of the language being studied (phonetics, grammar, vocabulary); 2) proficiency in types of speech activity - speaking, listening, reading, writing; 3) ability to implement the basic functions of language (communicative, expressive and cognitive) in teaching; 4) communicative, perceptual and interactive skills of using language in 5) the ability to implement the main functional aspects of communication (communicative, perceptual, interactive); 6) reflexive skills, including skills of self-assessment, self-control and self-correction; 7) educational skills, including research and methodological skills. These groups of skills characterize a complete and comprehensive practical knowledge of a foreign language.

CONCLUSION

In today's world, everything is changing rapidly. Methods of learning English are also changing. More and more educational centers use video materials, multimedia, role-playing games in their work. It is believed that language learning will be effective only if a person enjoys the process itself, and does not motivate himself only by the fact that language learning is a necessity. The main goal of learning English is not only the formation and development of the communicative culture of people learning the language, but also their training in the practical mastery of the English language. Now language teaching has become more applied, while earlier it was more theoretical. The role of the teacher has also changed. The dictator-teacher is not able to give students the freedom of choice that is necessary in the process of learning English. This teacher was replaced by a teacher-intermediary, a teacher-observer, just a leader. Although the role of the teacher in this case is not the main one, his influence on the audience, which, in turn, becomes more intimate, does not decrease, but, on the contrary, increases. It is the teacher who is the organizer of group interaction, encourages students to communicate with each other with maximum effect, interest and benefit. In the classroom, students are no longer limited in the choice of language means and speech behavior. The teacher also has the opportunity to choose any teaching methods and techniques - role-playing games, trainings, exercises. Now, more than ever, an English teacher has the ability to select any teaching aids, as well as the ability to create, combine and modify material based on the needs of students. Therefore, in modern conditions, the role of the teacher is also changing. The main attention in this method is paid directly to the practice of communication and, at the same time, overcoming the language barrier that many students often face.

"Speak as much as you can!" - such a slogan can be safely assigned to a communicative technique.

REFERENCES

1. Anikeeva N. P. Psychological climate in the team [Text]: Scientific publication , Moscow, Obrazovaniye, 1989. - 223 p.
2. Anisimov G. A. To the question of the specifics of teaching methods and techniques. — Moscow, RYANSH, 1980, 85. pp. 17–24.
3. Abramova E.D. Situational exercises at the initial stage of training, Moscow, IYASH, 1965, No. 3. pp. 35–37.
4. Belogradova, V.P. About the research activity of students in the conditions of the project method, V.P. Belogradova , Moscow, Inostranniy yazik v shkole - 2005. No. 8. - pp. 6-11
5. Breygina, M.E. Project methodology in Spanish lessons, M.E. Breygina , Moscow, Inostranniy yazik v shkole - 2004. ? No. 2. - pp. 28-31.
6. Demyanenko, M.Ya. Fundamentals of general methods of teaching foreign languages: theoretical course , M.Ya. Demyanenko, K.A. Lazarenko, S.V. Kiev: Vishchay shkola, 1984. - 280 p.
7. Denisova, L.G. The place of intensive methodology in the system of teaching foreign languages in secondary school, L.G. Denisova ,Moscow, Inostranniy yazik v shkole. - 1995. M. 4. - pp. 6-12.
8. Melnik I. M. Toporov A. O. Use of game methods in psychological practice: Textbook. - Kharkov: KhGU, 1992. - 6s
9. Mirolubov, A.A. Audio-lingual method / A.A. Mirolubov, Inostranniy yazik v shole, - 2003, No. 4. - pp. 42-44.
10. Villiers K.S. Books on resources for teachers. - Oxford University Press, 2006
11. Willis D. Rules, Patterns and Words: Grammar and Vocabulary in English language teaching. Cambridge University Press, 2003
12. Ramatov, J.S., Umarova, Rozigul , & Khasanov, M.N. (2022). METHOD OF DETERMINATION OF TRANSPORT INTENSITY IN URBAN CONDITIONS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (6), 931-936.
- 13.3. Н. Бобошев, М.Н.Хасанов, & Э.А.Нуруллаев. (2022). АБУ НАСР ФОРБИЙНИНГ ПЕДАГОГИКА ФАНИНИНГ АСОСЧИСИ СИФАТИДА . *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 4(3), 108–115.
14. Абдурахмонова, З. Ю. (2021). ЗАМОНАВИЙ ЎҚИТИШНИНГ МУАММО ВА ЕЧИМЛАРИДА САМАРАЛИ ИНДОШУВ. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 1189-1193.
15. Aripov, N., Kamaletdinov, S., Tokhirov, N., & Abduraxmanova, Z. (2022). Simulation Modeling of Train Traffic Based on GIS Technologies. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 16, 73-82.



ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОН ЁШЛАРИНИНГ ВАТАНПАРВАРЛИК ТУЙҒУСИНИ ЮКСАЛТИРИШДА ИЛМ- ФАННИНГ АҲАМИЯТИ

Исажан Мирзақулов

Тошкент давлат транспорт университети доценти

Жанар Жалгасбаева

Фотима Сабирова

Тошкент давлат транспорт университети талабалари

АННОТАЦИЯ

Ватанимиз келажаги бўлмиш ёш авлодни ҳар томонлама соғлом ва баркамол қилиб вояга етказиш нафақат давлат сиёсати даражасидаги вазифа, балки умуммиллий стратегия ҳисобланади. Уларни маънавий ва маърифий жиҳатдан етук, миллий қадриятларимизни оқилона идрок этадиган, тафаккури кенг инсонлар этиб камолга етказиш, ғурурли ва ор-номусли, фикр ва ғояларини мустақил равишда аниқ ифода эта оладиган шахслар сифатида ривожлантириш долзарб ижтимоий вазифадир. Ушбу мақсадларга эришишда энг аввало, анъанавий ва замонавий қарашларни ўзаро уйғунлаштириш муҳимдир. Фалсафий тафаккурнинг ижтимоий-сиёсий асослари ҳар қандай жамиятнинг ижтимоий онгини ўзгартиришга ҳамда унинг пировард мақсадларига хизмат қилишга қаратилган.

Калит сўзлар: Ватан, миллий ғоя, давлат, сиёсат, маънавият, маданият.

КИРИШ

Бугунги кунда фалсафий тафаккурнинг янгиланиши бутун жамият аъзоларининг ижтимоий қиёфаси, руҳий дунёси, мақсад ва эҳтиёжларининг ўзгариши ҳамдир. Бу эса ўз ўрнида энг аввало, аҳолига, қолаверса, ёш авлодга илмий билимлар асосларини пухта ва мукамал ўргатиш, ҳар бир соҳа йўналишларини самарали таълим-тарбия асосида ташкил этиш билан боғлиқдир. Билимли ва малакали кадрлар тайёрлаш жараёнининг ҳар бир босқичи таълим-тарбия жараёнини самарали ташкил этиш, уни юқори босқичларга кўтариш, жаҳон таълими даражасига етказиш борасида муайян вазифаларни амалга ошириш лозим. Ушбу жараёнда ўқув-услубий мажмуалар ҳамда таълим жараёнининг дидактик ҳамда ахборот таъминотининг янги авлодини ишлаб чиқиш

ва жорий этиш, таълим муассасаларининг моддий-техник ва ахборот базасини мустаҳкамлашни давом эттириш, ўқув-тарбия жараёнининг юқори сифатли ўқув адабиётлари ва илғор педагогик технологиялар билан таъминлаш ҳамда таълим муассасаларининг ресурс, кадрлар ва ахборот базаларини янада мустаҳкамлаш, ўқув-тарбия жараёнини янги ўқув услубий мажмуалар ва илғор педагогик технологиялар билан тўлиқ таъминлаш орқали сифат босқичи тарзида жорий этилишини кўзда тутган эди. Бу вазифалар ўтган давр мобайнида муваффақиятли равишда бажарилди. Лекин ҳаёт ва кундалик турмуш олдимизга қадамбақадам ечилиши зарур бўлган янгидан янги ва хилма-хил вазифаларни ҳам қўймоқдаки, биз бу ишга доимо ҳушёр ва онгли муносабат билдириб боришимиз шарт.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Янги Ўзбекистон истиқболда ўз олдига каттадан-катта мақсадларни қўйган ҳолда ислоҳотларни давом эттирмоқдаки, бундай вазиятда ўсиб келаётган авлод онгида шу юртга нисбатан муҳабат ҳиссини юксалтириш ҳар қачонгидан долзарб вазифа сифатида қолаверади. Муҳтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёев, “Инсоният тарихи шундан далолат берадики, ҳар қайси халқ ҳаётидаги маънавий уйғониш жараёнлари миллий ўзликни англашга олиб келади ҳамда мамлакатнинг иқтисодий, маданий тараққиётини янги босқичга кўтаради. Бундай ижтимоий ноёб ҳодиса “Ренессанс” – уйғониш, қайта тикланиш, юксалиш деб аталиши барчамизга аён” деб таъкидлади. Учинчи Ренессансга йўл эса аввало, таълим-тарбия, илм-фанни ривожлантиришдан бошланади. Бунинг учун юртимизда таълимнинг барча бўғинларида кенг қўлланма ислоҳотлар бошлаб юборилган. Шу қисқа вақт ичида мактабгача таълим муассасалари сони ва сифати жиҳатидан сезиларли даражада кўпайди.

Ёшларининг ватанпарварлик туйғусини юксалтиришда анъанавийлик ва замонавийлик диалектикаси файласуф олимлар томонидан жуда кам ўрганилган йўналиш ҳисобланади. Ижтимоий фалсафий тадқиқотларнинг кўпчилигининг асл негизда баркамол авлод масаласи ётсада, тор доирада илмий тадқиқотлар амалга оширилмаган десак хато бўлмайди.

Оламини фалсафий англаш ва тушуниш жараёнида вужудга келган диалектика фалсафа тарихида ҳар хил маънода ишлатиб келинган.

Абу Наср Форобийнинг ёзишича, диалектика, яъни “Ал-Жадал” атамаси қадимги юнон файласуфлари Суқрот ва Афлотун томонидан қўлланилган бўлиб, маъноси баҳс, мунозара юритиш орқали баҳслашувчининг фикридаги зиддиятларни фош этиб



ҳақиқатга эришиш демакдир. “Инсон, - деб ёзган эди Форобий, - ҳақиқатга ёки фалсафага фақат диалектик баҳс орқали эришиши мумкин» Диалектика атамаси, шунингдек, фалсафий тафаккурлаш санъати, қоидалари, йўллари эгаллаш усули шаклида ҳам кенг ишлатилиб келинган. “Инсонни диалектик деб унинг шуғулланадиган иши, музокара қилиш қобилияти, ўз санъатини амалда қўллана олишига қараб ҳисоблайди”, - деб кўрсатади Форобий.

Ва, ниҳоят, диалектика атамаси борлиқнинг моҳияти ва қонуниятларини ўрганиш учун фалсафий ва илмий тадқиқотлар юритиш усули сифатида ҳам қўлланилиб келинган.

Миллий тафаккур, диалектика назарияси, миллий онг муаммолари ва масалалари бўйича маҳаллий олимлардан Жондор Туленов, С.Отамуратов, С.Шермухамедов, Н.Шермухамедовлар тадқиқотларида кўплаб учрайди.

Антик давр фалсафасида баҳс юритиш, мунозара ўтказиш шакли кенг тарқалган бўлиб, мазкур усул ёрдамида битта нарса, ҳодисага ҳар томонлама ёндошиб, унинг асл моҳиятини билиш мақсад этиб қўйилади. Буни биз Юнонистоннинг машҳур файласуфи ҳисобланган Сукротнинг (469—399 м. а.) ижодидан яққол кўришимиз мумкин Маълумки, Сукрот ёзма асарлар колдирган эмас. Лекин шу даврнинг таниқли файласуфлари ҳисобланган Аристофан, Ксенофонт ва Афлотуннинг асарларида Сукрот билан ўтказилган баҳслари ҳажмда бизга кўпгина маълумотлар етиб келган. Мазкур асарларда Сукрот билан ўтказилган баҳс ва мунозаралар диалог, яъни савол-жавоб тариқасида ёритиб берилган. Унга мувофиқ диалоглар ўтказиш жараёнида «бу нарса нима», «у нарса нима» деган саволлар қўйилади. Унга берилган жавоблар бирин-кетин рад этилади, то биттаси ҳақиқат деб топилмагунча. Баҳс ўтказиш жараёнида умумий тушунчалар бир неча алоҳида-алоҳида томонларга бўлиниб таҳлил этилади. Бу эса баҳслашаётган нарса ва ҳодисаларга ҳар томонлама ёндошиш имкониятини беради.

XVII—XVIII асарларда диалектика илм-фан тараққиёт қонунларини ўрганадиган фалсафий ва илмий билиш усули сифатида кулланила бошлайди ҳозирги вақтда диалектика таълимоти оламни фалсафий англаш мантики, илмий билиш методологияси сифатида ривожланиб келмоқда. Диалектика борлиқдаги нарса ва ҳодисаларнинг энг умумий алоқадорлик ва тараққиёт қонунлари ҳақидаги таълимот бўлиши билан бирга билиш назарияси, тафаккурлаш шакллари ва қонуниятлари ҳақидаги фан ҳамдир. Диалектика илмий билиш жараёни ва амалиётда фалсафа фани вужудга келгандан бошлаб, то ҳозиргача самарали ишлатилиб келинаётган илмий усулдир.

Маънавий тарбиянинг яна бир анъанавий усули бу диний томондан олиб борилган тарбия жараёни бўлиб, Ислом динида ватанпарварлик масаласи хусусида етарлича мисоллар топиш мумкин.

Ислом – ватанпарвар дин. У фақат ўзини ўйлайдиган, жамиятнинг тараққиёти ёки ҳалокатига эътибор бермайдиган худбин дин эмас. У меҳр-оқибат, шафқат, сийлаи раҳм динидир. Исломда ватанпарварлик олий туйғу сифатида эътироф этилади. Ўтган алломаларнинг ўғитлари, панд-насихатларида ҳам бунга алоҳида урғу берилган.

«Ватан» атамаси арабча сўз бўлиб, тилимизда «она юрт» деган маънони англатади. У ҳам кенг ва ҳам тор маънода қўлланилади. Бир халқ вакиллари жамул-жам яшаб турган, уларнинг аجدодлари азал-азалдан истиқомат қилган ҳудуд назарда тутилса, бу кенг маънодаги тушунча, киши туғулиб ўсган уй, маҳалла, қишлоқ назарда тутилса, бу тор маънодаги тушунчадир.

Қуръони Каримда Ватан, мамлакат, ер, диёр, яшаш манзили каби маъноларни англатадиган иборалар 47 марта такрорланган.

Маълумки, инсонга берилган энг бебаҳо неъматлардан бири – ўз Ватанида яшашдир. Чунки Ватан унинг киндик қони тўкилган, гўдаклик чоғи ўтган, илк қадамларини қўйган, ёшлик, кексалик даврларини сурадиган, хотиралари муҳрланган, ота-боболарининг юрти, фарзанду набиралари улғайган заминдир! Аллоҳ таоло ҳар бир инсонга ватанни севиш ва унга муҳаббат қўйиш табиатини ато этган.

Исломда ватанга муҳаббат бу – туғилиб ўсган юртига нисбатан эъзоздан иборатдир! Демак, мусулмон киши ватанини севади! Унинг иқболи учун ҳаракат қилади, уни ҳимоя қилади, хурсанд бўлса – хурсанд, хафалик етса – қайғуради. Инсон “Ватан менга нима берди?” деб эмас, балки “мен Ватанимга нима қилдим?” деган олий туйғу билан яшамоғи лозим.

Баъзи олимлар ватанпарварлик тарбиясига урғу берганиди Ҳадислардан далиллар келтиришга ҳаракат қилади. “Ватанни севмоқ имондандир” деган ҳадис жуда кўп жойда учрайди. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуфга ушбу ҳадис қайси саҳоба ривоятида учрайди деган саволни берганда, у киши шундай жавоб берганлар. -““Ватанни севмоқ иймондандир” деган гап ҳадис деб тушунилади, айтилади ва ёзилади. Лекин бирор киши уни ким ривоят қилганини, қайси китобда келганини зикр қилмайди. Аслида эса у гап ҳадис эмас, исломий ҳикматлардандир” . Зеро, иймонли кишида ўзи туғилиб ўсган масканга меҳр ва ҳурмат юқори бўлади ҳамда шу маскан учун кўпроқ қайғуради. Диншунослик қўлланмаларида иймонни еттита устунни ҳақида гап кетади. Булар, Оллоҳга,

фаришталарга, пайғамбарларга, Оллоҳ томонидан нозил бўлган китобларга, тақдирга, қиёматга ва ўлимдан сўнг қайта тирилишга ишончдир. Иймони бут киши ўзгаларга иззатда, ҳурматда бўлади. Ўзидан кўра атрофдагиларга, яшаб турган юртига нафи тегиб яшашни ўз олдига мақсад қилади.

Анъанавийлик диалектикаси хусусида гап кетганда ҳеч иложсиз фикр-мулоҳазаларда дунёвийлик билан бир қаторда диний тарбия асосларини ҳам киритмасдан иложи йўқ. Ислом дини инсонпарвар дин сифатида кўпчилик олимлар томонидан эътироф этилган.

Истиклол туфайли тарихимизга муносабат ижобий томонга ўзгарди. Бугунги кунда улуғ бобокалонларимиз Имом ал-Бухорий, Имом ат-Термизий, Хожа Аҳмад Яссавий, Нақшбандий, Нажмидин Кубронинг инсонни маънавий етукликка чорловчи диний ахлоқий ва ҳуқуқий ҳикматлари қайтадан жаранглай бошлади. Буларнинг барчаси халқимизнинг улкан маданий меросга эга эканлигини англаш, уни тўлиқ ва яхлит ҳолда тасаввур этиш имкониятини яратди. Юртимиз мустақилликка эришгандан буён республикамизда маданий меросни, ўтмишдаги алломалар ижодини ўрганиш орқали миллий кадриятларни тиклашга катта эътибор берилмоқда. Илгари ўрганилмаган олимлар ҳаёти ва ижоди, асарлари тадқиқ этила бошланди. Бошқа соҳалар намोёндалари қатори муҳаддислар фаолияти ва уларнинг асарлари тадқиқ этилиб келинмоқда .

2017 йил 19 сентябрь куни Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги Президентимиз нутқи ўз мазмун-моҳияти, аҳамияти билан халқаро иштирокчилар диққатини тортди. Нутқ қисқа бўлишига қарамай, даврнинг энг долзарб мавзуларини қамраб олди. Хусусан, Ўзбекистонда Ҳаракатлар стратегияси доирасидаги ислохотлар, демократия, инсон ҳуқуқлари, ёшлар масаласи, диний бағрикенглик, халқаро хавфсизлик, минтақавий ҳамкорлик, экология, жумладан, Орол муаммоси каби қатор глобал масалалар Ассамблея иштирокчилари ва халқаро экспертлар ҳукмига ҳавола этилди.

Муқаддас китобларимиз ва кадриятларимиз, буюк мутафаккир аждодларимиз меросида доимо ҳалол меҳнат билан яшаш, ватанпарварлик, мардлик, саховат ва камтарлик улуғланади. Президентимиз ўз нутқида: “Биз бутун жаҳон жамоатчилигига ислом динининг асл инсонпарварлик моҳиятини етказишни энг муҳим вазифа, деб ҳисоблаймиз. Биз муқаддас динимизни азалий кадриятларимиз мужассамининг ифодаси сифатида беҳад кадрлаймиз. Биз муқаддас динимизни зўравонлик ва қон тўкиш билан бир қаторга қўядиганларни қатъий

қоралаймиз ва улар билан ҳеч қачон муроса қила олмаймиз. Ислон дини бизни эзгулик ва тинчликка, асл инсоний фазилатларни асраб-авайлашга даъват этади” .

Давлатимиз раҳбари БМТ Бош Ассамблеясида “Маърифат ва диний бағрикенглик” деб номланган махсус резолюция қабул қилиш таклифини билдирди. Президентимиз мазкур резолюциянинг аҳамияти ҳақида сўзлаб: “Бу ҳужжатнинг асосий мақсади - барчанинг таълим олиш ҳуқуқини таъминлашга, саводсизлик ва жаҳолатга барҳам беришга кўмаклашишдан иборат. Ушбу резолюция бағрикенглик ва ўзаро ҳурматни қарор топтириш, диний эркинликни таъминлаш, эътиқод қилувчиларнинг ҳуқуқини ҳимоя қилиш, уларнинг камситилишига йўл қўймасликка кўмаклашишга қаратилган” , дея таъкидлади.

Маънавиятшунос олим М.Имомназаров: “Масъулият – шахс маънавиятининг муҳим таркибий жиҳати, ўзи англаб етган ва тўғри деб билган Борлиқ ҳақиқатига амалда садоқат сақлаш, ҳар бир хатти – ҳаракатининг оқибатини ўйлаб қадам қўйиш. Инсон эркин иродаси билан ўзини дунёдаги барча мавжудот учун масъул деб билса ва ҳар бир қадамини қўйишда ана шу масъулиятни ҳис қилиб турса айни шу шахс ҳақиқий маънавият соҳибидир” - деб таъриф беради. Олимнинг фикрига қўшилган ҳолда шуни таъкидлаб ўтиш жоизки, ёшларда ватанпарварлик туйғуларини чуқур сингдириш орқали юксак масъулиятини ҳам шакллантиришимиз мумкин экан. Чунончи, шахс масъулияти бу ўзлигини англаб етишдир. Демак, ўзлигини англаб етган шахсдагина ўз хатти – ҳаракати учун жавобгарлик ҳисси мавжуд бўлади. Энг муҳими бу жавобгарлик инсоннинг Аллоҳ олдидаги жавобгарлик ҳиссини англашдир. Мана шу жавобгарлик натижасида шахс масъулияти вужудга келади. “Ушбу ваҳддин, ўзлигини танимоқ Ҳақ субҳонаху ва маърифатининг калидидур. Чунончи, ўз зотингни танисанг Ҳақ субҳонаху ва таолонинг зоти вожибул вужудини танийсан” . Демак, Аллоҳни танимоқ ва яратган олдидаги масъулиятини англаган шахс унинг бандалари олдидаги масъулиятини ҳам англаб этади.

Тарбия ҳам таълим ҳам узлксизлик тамойилига асослансагина мамлакат маънавий юксалишида улкан силжишга эришилади. Президентимиз Шавкат Мирзиёев, “Маълумки, ёш авлод тарбияси ҳамма замонларда ҳам муҳим ва долзарб аҳамиятга эга бўлиб келган. Аммо биз яшаётган XXI асрда бу масала ҳақиқатан ҳам ҳаёт-мамот масаласига айланиб бормокда” - дея таъкидлагани ҳолда юртимизда тарбия жараёнини етакчи қадрият эканлигига ишора қилиб ўтдилар.

2018 йил 14 августда Президентимизнинг ПҚ-3907 сонли “Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чоратадбирлари тўғрисида” ги Қарорида мафкуравий иммунитет, миллий ва умуминсоний кадриятларга ҳурмат, таълимдан ташқари тарбиявий ишлардаги сусткашликлар каби камчиликларни бартараф этиш чоралари белгилаб берилган.

ХУЛОСА

Умуман олганда, сўнгги икки йил ичида таълим тарбия тизимини тубдан ўзгартириш бўйича Президентимизнинг ўнлаб қарорлари, вазирлик ва юқори ташкилот органларининг кўплаб фармойишлари ижро учун тақдим этилмоқда. Мақсад битта. Яъни, бугун ўсиб келаётган авлод онгида миллий ва умуминсоний кадриятлар чуқур сингдириш, ватан ва юрт учун фидойилик руҳиятини шакллантириш, маънавий ва маданий оламини соғломлаштириш ишларида сусткашликка йўл қўйилса, олдимиш қўйган эзгу мақсадларга эришиш шунча қийинлашиб бораверади.

Президентимиз, “Айнан таълим ва маърифат башарият фаровонлигининг асосий омилларидан ҳисобланади, инсонларни эзгуликка даъват этади, саховатли, сабр-қаноатли бўлишга ундайди” - дея таъкидлаб ўтди. Яна Президентимиз Шавкат Мирзиёев “Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV курултойидаги нутқида: “Маълумки, ёш авлод тарбияси ҳамма замонларда ҳам муҳим ва долзарб аҳамиятга эга бўлиб келган. Аммо биз яшаётган XXI асрда бу масала ҳақиқатан ҳам ҳаёт-мамот масаласига айланиб бормоқда” , деб қайд этади. Бу бежиз эмас, албатта. Зеро, жамиятда соғлом муҳитни қарор топтириш нақадар мушкул вазифадир.

Бугунги кунда кўпчилик олимлар биз яшаётган XXI асрни – интеллектуал бойлик ҳукмронлик қиладиган аср, замонавий ва илғор технологияларга асосланган ишлаб чиқариш соҳаларини шиддатли ўсиб бораётган давр деб баҳоламоқда.

REFERENCES

- 1.Эргашев И. С. Шахс маънавий камолотида эркинлик ва ижтимоий масъулият уйғунлиги. номз. Дисс.Автореферати . - Тошкент: 2011, -Б. 15.
- 2.Сафоев Н.С. Психологические особенности национального самосознания студенческой молодежи. Автореф. Дисс. ... док. псих. Наук. –Ташкент: 2005,



-С. 14.

3. Сагиндикова Н.Д. Талабалар ўқув фаолиятида масъулиятнинг гендер хусусиятлари. (PhD)док. дисс. Автореферати . - Тошкент: 2017, -Б. 13.

4. Ж. С. Раматов, & М. Ҳасанов (2022). МОЛОДЕЖЬ И ИНФОРМАЦИОННО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (6), 532-536.

5. Салимов, Бахриддин Лутфуллаевич, & Ҳасанов, Миршод Нўъмонович (2022). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ КОМИЛ ИНСОН ТАРБИЯСИ МАСАЛАЛАРИ ТАҲЛИЛИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (6), 1345-1354.

6. Раматов, Ж. С., Баратов, Р. Ў., Кушаков, Ф. А., Валиев, Л. А., & Ҳасанов, М. Н. (2022). ЖАМИЯТДА СИЁСИЙ ВА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. PEDAGOGS *jurnali*, 19(1), 13-18.

7. Ж. С. Раматов, & М. Ҳасанов (2022). ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ЯНГИ БОСҚИЧИДА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИНИНГ ТАЪМИНЛАНИШИ. Academic research in educational sciences, 3 (6), 963-969.

8. Раматов, Ж. С., Муратова, Д., Султанов, С. Ҳ., Тухтабоев, Э., Кушаков, Ф., & Ҳасанов, М. Н. (2022). ИЖТИМОЙ АДОЛАТ ВА ҚАДРИЯТЛАР ПЛЮРАЛИЗМИ. World scientific research journal, 8(1), 102-108.

9. Ҳасанов, М. Н., Бекмуратов, Б. Ж., Турғунов, Б. Ш., & Маматқулов, У. С. (2022). ФОРОБИЙНИНГ ТАЪЛИМОТИДА ЁШЛАР ВА ИНСОН ТАЛИМ-ТАРБИЯСИ МАСАЛАЛАРИ ТАҲЛИЛИ.

10. Ҳасанов, М. Н., Зайниддинов, Б. З., Абдухалилов, О. А., & Джурайев, Д. Д. (2022). МЕҲНАТДА ИНСОННИ ШАКЛАНИШДАГИ АҲАМИЯТИ.

11. Ramatov, J.S. va Xasanov, MN (2022). Ta'lim amaliyotida innovatsiyalarni jalb qilishning nazariy modelini tahlil qilish. *Sharq uyg'onishi: innovatsion, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar* , 2 (6), 937-942.

12. У.К.Эрниёзов, М.Н. Ҳасанов, & Х.С.Машарипов. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ИЖТИМОЙ-АХЛОҚИЙ ТАЪЛИМОТИ ВА УНИНГ АНТРОПОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ . JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 4(3), 130–136.

13. Ж. С. Раматов, М. Ҳасанов, & Л. А. Валиев (2022). ИНСОН ДУНЁҚАРАШИНИНГНИНГ ДИНИЙ ВА ДУНЁВИЙ ТАЛҚИНИ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (7), 78-82.

14. J. S. Ramatov, M. Hasanov МАФКУРАВИЙ АХЛОҚ ТАРБИЯСИНИНГ АНАМИЯТИ // Pedagogik fanlar boyicha akademik tadqiqotlar. 2022 yil. 6-son. URL:



<https://cyberleninka.ru/article/n/mafkuraviy-ta-didlarni-oldini-olishda-ahlo-iy-tarbiyaning-a-amiyati> (kirish sanasi: 04.10.2022).

15.Ж. С. Раматов, & М. Ҳасанов (2022). МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР – ЖАМИЯТИМИЗ БАРҚАРОРЛИГИ ВА ЁШ АВЛОД ТАРБИЯСИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ. Academic research in educational sciences, 3 (6), 973-979.

16.Ж. С. Раматов, М. Ҳасанов, & Лочин Азаматович Валиев (2022). АУРОБИНДО ГХОШ ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ ФАЛСАФИЙ МЕЪРОСИ. Academic research in educational sciences, 3 (6), 1161-1169.

17.Ramatov, J.S. va Xasanov, MN (2022). Ta'lim amaliyotida innovatsiyalarni jalb qilishning nazariy modelini tahlil qilish. *Sharq uyg'onishi: innovatsion, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar* , 2 (6), 937-942.

18.У.К.Эрниёзов, М.Н. Ҳасанов, & Х.С.Машарипов. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ИЖТИМОИЙ-АХЛОҚИЙ ТАЪЛИМОТИ ВА УНИНГ АНТРОПОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ . *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 4(3), 130–136.

19.Ж. С. Раматов, М. Ҳасанов, & Л. А. Валиев (2022). ИНСОН ДУНЁҚАРАШИНИНГНИНГ ДИНИЙ ВА ДУНЁВИЙ ТАЛҚИНИ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (7), 78-82.

20.J. S. Ramatov, M. Hasanov МАФКУРАВИҲ АХЛОҚ ТАРБИЯСИНИНГ АНАМИЯТИ // Pedagogik fanlar boyicha akademik tadqiqotlar. 2022 yil. 6-son. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mafkuraviy-ta-didlarni-oldini-olishda-ahlo-iy-tarbiyaning-a-amiyati> (kirish sanasi: 04.10.2022).

ДИНИЙ ВА ДУНЁВИЙ БИЛИМЛАРНИНГ ИНСОН ДУНЁ ҚАРАШИГА ТАЪСИРИ

Исажан Мирзақулов

Тошкент давлат транспорт университети доценти

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Бугун мамлакатимиз Ўзбекистонда кенг қамровли ислохотлар амалга оширилаётган бир даврда шахснинг жамият олдидаги масъулиятини юксалтириш ҳар қачонгидан ҳам муҳимлиги намоён бўлмоқда. Айниқса, глобаллашув шароити таъсирида авж олаётган “оммавий маданият” каби таҳдидларга қарши туришда шахсда масъулият туйғусини такомиллаштириш бугунги даврнинг долзарб муаммоларидан бири ҳисобланади.

Калит сўзлар: Диний билим, дунёвий билим, маънавият, демографик, “Байтул ҳикма”, Шарқ фалсафаси, “Тарбия”.

КИРИШ

Асрлар давомида халқимизнинг юксак маънавияти, адолатпарварлик, маърифатпарварлик каби эзгу фазилатлари Шарқ фалсафаси ва Ислом дини таълимоти билан узвий боғлиқ равишда ривожланиб келган. Аммо ўтган асрнинг 70 йили давомида халқимиз маънавиятига тамомила ёт бўлган ва умуман инсоният маънавий тараққиётини буткул тескари изга солиб юборишга уринган даҳриёна "инқилобий" фалсафа асосидаги тоталитар мафкуравий тазйиқ бир неча авлод онгига шафқатсиз қатағонлар йўли билан сингдиришга уринди. Бундан 28 йил олдин эришилган сиёсий Мустақиллик миллатимизга ўз асл қадриятларимизни эркин ўрганиш ва ҳаётга татбиқ этиш имкониятини қайтиб берди. Эндиликда бизнинг вазифамиз қадимий ва барқарор анъаналаримизни ҳозирги замоннинг мутлақо янгича шароитларига мос равишда қайта тиклаб, халқимиз тафаккур тарзига мувофиқ ва тушунарли шаклда ёш авлоднинг маънавий баркамол бўлиб улғайишига имкон даражасида ўз ҳиссамизни қўшиш бўлмоғи керак.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Бугун мамлакатимиз Ўзбекистонда кенг қамровли ислохотлар амалга оширилаётган бир даврда шахснинг жамият олдидаги масъулиятини юксалтириш ҳар қачонгидан

ҳам муҳимлиги намоён бўлмоқда. Айниқса, глобаллашув шароити таъсирида авж олаётган “оммавий маданият” каби таҳдидларга қарши туришда шахсда масъулият туйғусини такомиллаштириш бугунги даврнинг долзарб муаммоларидан бири ҳисобланади. Дарҳақиқат, инсонни ҳайвонот олаmidан фарқловчи жиҳати бу унда масъулият ҳиссининг мавжудлигидадир. Мана шу масъулият туйғуси орқали инсон ўзининг маънавий мавжудот эканлигини англаб боради. Инсон ўзининг маънавий камолот имкониятларини юзага чиқариш лозимлигини англаб етган сари ўзлигини англай бошлайди. Ҳар қандай инсонни шахс деб атай олиш қийин. Шахсга ижтимоийлик хусусиятлари хос. Инсонлар шахс бўлиб дунёга келмайдилар, ижтимоийлик хусусиятлари наслдан наслга ўтмайди, балки кишилар ижтимоий муҳитда, жамиятда шахс бўлиб шаклланадилар. Инсон жамиятдаги кишилар билан мулоқоти жараёнида ижтимоий муносабатларга киришади ва унда секин аста индивиддан шахсга айлана бориш имконияти юзага келади. Ижтимоийлашув сабабли инсонда янгидан-янги шахсий хислатлар пайдо бўлади, яъни ўзининг ҳатти-ҳаракатлари учун жавоб бериш, ўзини ўзи назорат қилиш, ўзи-ўзини тарбиялаш, ижтимоий фаоллик, мустаҳкам эътиқодга, ўз дунёқарашига эгалик, мустақил қарорлар қабул қилиш ва ўз фикрларини эркин баён этиш шахсга хос хусусиятдир. Инсон қачон ўзининг оила аъзолари олдидаги, миллат олдидаги, Ватан олдидаги, жамият олдидаги ва, қолаверса, умуминсоният олдидаги масъулиятини жиддий ҳис этса, уни том маънодаги ҳақиқий шахс ҳисоблаш мумкин. Шулардан келиб чиқиб, шахс масъулияти инсоннинг ҳақиқий моҳиятини белгилайди, деб хулоса қилиш мумкин.

Дунёвий нуқтаи назардан шахс масъулиятини шакллантирувчи омиллар сифатида қуйидагиларни келтириб ўтиш мумкин:

- ҳуқуқий жиҳатдан шахс масъулиятини таъминланиш даражасининг мавжудлиги;
- шахс масъулиятини иқтисодий фаровонликка эришилишдаги муҳим аҳамияти;
- шахснинг сиёсий масъулияти яъни, фуқароларнинг ўз давлати олдидаги бурч ва мажбуриятларини англаган ҳолда фаолият олиб бориш кўникмаси;
- инсонларнинг интеллектуал қобилиятларини намоён қилиш имкониятларининг таъминланиши;

Шахс масъулиятини шакллантирувчи мазкур омиллар ўзаро уйғун бўлгандагина таъсирчанлиги юқори бўлади.

“Масъулият ижтимоий характерга эга. Ижтимоий масъулият оилавий, фуқаролик, жамият ва шахсий хизматларни бажараётганда вужудга келади”.

Ёшларда масъулият сифатларини ўстириш уларда мустақиллик, шижоатлилик, доминантлилик, ўзига ишончлиликни шакллантиришга хизмат қилади. Психолог олим Н.С.Сафоев, “Инсон ҳаёт қонуниятларини билиш ва уларни ўз фаолиятида қўллашга қодир экан, демак шу нуқтаи назардан унинг хулқ-атворини ижтимоий меъёрлар билан бошқариш мумкин. Қолаверса, инсон ўз қилмишлари учун масъулиятни ҳис қилиши лозим” - деб таъкидлайди.

Яна бир психолог олима Сагиндикова “Масъулият ўзи ва бошқалар, жамоа олдидаги ўз ҳатти-ҳаракатлари учун масъулликни бўйнига олиб, шахснинг ўзини бошқариши ва хулқ-атворини шакллантирувчи энг асосий характер сифатидир” – деб таърифлаб ўтади.

“Масъулият” – фалсафий категория сифатида ижтимоий воқеликда инсоннинг англанилган ҳатти-ҳаракатларини ифодалайди. Бу фалсафий категория орқали инсонларнинг ижтимоий-маънавий, моддий-жисмоний, руҳий-табиий масъулият каби хислатлари қамраб олинади ва таҳлилга тортилади. Ижтимоий фалсафада бу тушунча шахснинг жамият олдидаги маънавий-ахлоқий талабларни бажариши нуқтаи назаридан олиб қаралади. Шахс маънавий камолотида масъулият масаласи алоҳида аҳамият касб этади.

Масъулиятнинг ижтимоий–маънавий функцияси турли замон ва маконга қараб ўзгача мазмун касб этиб боради. Бу бевосита шахслараро, гуруҳлараро, давлат ва жамиятлараро муносабатлар тарзида намоён бўлади. Шу билан бирга, шахс маънавий тараққиётининг ҳар бир босқичида ўз ифодасини топган масъулият даражаси ҳам ўзгариб боради ва шахс маънавий фаолияти, унинг турфа хусусиятлари билан бир бутунликда кечади. Демак, ижтимоий масъулият инсон маънавий ҳаётининг мазмун- моҳиятини ташкил қилувчи бош омил ҳисобланади. Ҳар бир шахс ўзининг ватан, халқ, жамият олдидаги фуқаролик бурчи виждон иши эканлигини ҳис қилмоғи лозим. Зеро, ўз бурчини, масъулиятини яхши ҳис қилган одамларнинг халқ, юрт олдида обрўйи, кадр-қиммати, мавқеи ошиб, бундай шахсларни барча бирдай эъзозлайди.

Мутафаккир олим Абдурауф Фитрат масъулиятни шахснинг “ маънавий хатти – ҳаракатлари мажмуи ” сифатида талқин этади. Дарҳақиқат, инсон маънавий мавжудот экан, унинг хатти – ҳаракатларида ҳам маънавийлик акс этиши табиий ҳолдир. Шахс қачон ўзининг ҳаракатлари оқибатини ўйласа ва бунинг учун маънавий жавобгарлигини виждонан ҳис этса, ана шунда масъулият ҳақиқий маънавий

хатти- ҳаракатлар мажмуасига айланади. Масъулиятда шахнинг ўзига хос маънавий жиҳатлари намоён бўлади. Масалан иймон-этиқодлилиқ, виждонийлик, ор-номуслилиқ, иродалилиқ, руҳан поклик, самимийлик, гурурилиқ, инсонпарварлик, ватанпарварлик. Демак, маънавий баркамол шахсни шаклланишида масъулиятнинг ўрни беқиёс.

“Масъулият” араб тилидан олинган бўлиб, “жавоб бермоқ”, “жавобгар бўлмоқ” деган маъноларни англатади. Масъулият тушунчаси Европа илмида илк бора фалсафий тушунча сифатида XIX асрнинг 2-ярмидан бошлаб қўлланила бошланган. “Масъулият” тушунчаси биринчи марта фалсафага 1859 йилда Альфред Бэн томонидан киритилган. хулосага келинди:

ХУЛОСА

Шахс масъулиятини шаклланишида диний ва дунёвий омилларни тадқиқ этиш бир қатор адабиётлар, илмий тадқиқотларни ўрганишни тақозо этди.

Биринчидан, Шахс масъулиятининг диний ва дунёвий талқинига кўра киши ўз-ўзини чуқур англашига урғу берилади. Ўзини англаган кишида ижтимоий ва иқтисодий масъулият ҳисси юксак бўлади. Инсоннинг етуқликка эришуви ҳақидаги тасаввурлар ҳар қандай даврда ҳам маданий-маънавий ғоялар, концепсияларнинг асосини ташкил этган.

Иккинчидан, исломий қадриятларни шакллантиришдан мақсад миллий ва диний қадриятларнинг тарихан муштарақлиги, уларнинг умуминсоний қадриятлар билан уйғунлиги, бу қадриятларнинг ҳозирги мустақил Ўзбекистон шароитидаги аҳамиятини янада аниқроқ ёритиб бериб, кенг жамоатчилик хусусан ёшлар дунёқарашида ислом динига нисбатан тўғри ёндашувни шакллантириш ва жамият учун юксак маънавийли кадрларни тарбиялашдан иборат.

Учинчидан, исломий қадриятларни асл мазмун-моҳиятини ёритишда ислом дини асрлар мобайнида халқимиз қалбидан чуқур жой олиб, ўзлигимизни англаш, миллий маданиятимиз ва турмуш тарзимизни сақлаш, қадриятларимиз, урф-одат ва анъаналаримизни бир авлоддан иккинчи авлодга безавол етказишда беқиёс омил бўлиб келаётганига алоҳида эътибор қаратиш зарур. Чунки ислом диннинг ҳеч нарса билан ўлчаб, қиёслаб бўлмайдиган аҳамиятли жиҳатлари айнан ана шу масалаларда намоён бўлади.

REFERENCES

1.Эргашев И. С. Шахс маънавий камолотида эркинлик ва ижтимоий масъулият уйғунлиги. номз. Дисс.Автореферати . - Тошкент: 2011, -Б. 15.

2. Сафоев Н.С. Психологические особенности национального самосознания студенческой молодежи. Автореф. Дисс. ... док. псих. Наук. –Ташкент: 2005, -С. 14.
3. Сагиндикова Н.Д. Талабалар ўқув фаолиятида масъулиятнинг гендер хусусиятлари. (PhD) док. дисс. Автореферати. - Тошкент: 2017, -Б. 13.
4. Ж. С. Раматов, & М. Ҳасанов (2022). МОЛОДЕЖЬ И ИНФОРМАЦИОННО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2 (6), 532-536.
5. Салимов, Бахриддин Лутфуллаевич, & Ҳасанов, Миршод Нўъмонович (2022). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ КОМИЛ ИНСОН ТАРБИЯСИ МАСАЛАЛАРИ ТАҲЛИЛИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (6), 1345-1354.
6. Раматов, Ж. С., Баратов, Р. Ў., Кушаков, Ф. А., Валиев, Л. А., & Ҳасанов, М. Н. (2022). ЖАМИЯТДА СИЁСИЙ ВА ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *PEDAGOGS jurnali*, 19(1), 13-18.
7. Ж. С. Раматов, & М. Ҳасанов (2022). ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ЯНГИ БОСҚИЧИДА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИНИНГ ТАЪМИНЛАНИШИ. *Academic research in educational sciences*, 3 (6), 963-969.
8. Раматов, Ж. С., Муратова, Д., Султанов, С. Ҳ., Тухтабоев, Э., Кушаков, Ф., & Ҳасанов, М. Н. (2022). ИЖТИМОЙ АДОЛАТ ВА ҚАДРИЯТЛАР ПЛЮРАЛИЗМИ. *World scientific research journal*, 8(1), 102-108.
9. Ҳасанов, М. Н., Бекмуратов, Б. Ж., Турғунов, Б. Ш., & Маматқулов, У. С. (2022). ФОРОБИЙНИНГ ТАЪЛИМОТИДА ЁШЛАР ВА ИНСОН ТАЛИМ-ТАРБИЯСИ МАСАЛАЛАРИ ТАҲЛИЛИ.
10. Ҳасанов, М. Н., Зайниддинов, Б. З., Абдухалилов, О. А., & Джурайев, Д. Д. (2022). МЕҲНАТДА ИНСОННИ ШАКЛЛАНИШДАГИ АҲАМИЯТИ.
11. Ramatov, J.S. va Hasanov, MN (2022). Ta'lim amaliyotida innovatsiyalarni jalb qilishning nazariy modelini tahlil qilish. *Sharq uyg'onishi: innovatsion, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar*, 2 (6), 937-942.
12. У.К.Эрниёзов, М.Н. Ҳасанов, & Х.С.Машарипов. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ИЖТИМОЙ-АХЛОҚИЙ ТАЪЛИМОТИ ВА УНИНГ АНТРОПОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 4(3), 130–136.
13. Ж. С. Раматов, М. Ҳасанов, & Л. А. Валиев (2022). ИНСОН ДУНЁҚАРАШИНИНГНИНГ ДИНИЙ ВА ДУНЁВИЙ ТАЛҚИНИ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2 (7), 78-82.

14.J. S. Ramatov, M. Hasanov МАФКУРАВИЙ АХЛОҚ ТАРБИЯСИНИНГ АНАМИЯТИ // Pedagogik fanlar boyicha akademik tadqiqotlar. 2022 yil. 6-son. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mafkuraviy-ta-didlarni-oldini-olishda-ahlo-iy-tarbiyaning-a-amiyati> (kirish sanasi: 04.10.2022).

15.Ж. С. Раматов, & М. Ҳасанов (2022). МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР – ЖАМИЯТИМИЗ БАРҚАРОРЛИГИ ВА ЁШ АВЛОД ТАРБИЯСИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ. Academic research in educational sciences, 3 (6), 973-979.

16.Ж. С. Раматов, М. Ҳасанов, & Лочин Азаматович Валиев (2022). АУРОБИНДО ГХОШ ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ ФАЛСАФИЙ МЕЪРОСИ. Academic research in educational sciences, 3 (6), 1161-1169.

17.Ramatov, J.S. va Xasanov, MN (2022). Ta'lim amaliyotida innovatsiyalarni jalb qilishning nazariy modelini tahlil qilish. *Sharq uyg'onishi: innovatsion, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar* , 2 (6), 937-942.

18.У.К.Эрниёзов, М.Н. Ҳасанов, & Х.С.Машарипов. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ИЖТИМОИЙ-АХЛОҚИЙ ТАЪЛИМОТИ ВА УНИНГ АНТРОПОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ . *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 4(3), 130–136.

19.Ж. С. Раматов, М. Ҳасанов, & Л. А. Валиев (2022). ИНСОН ДУНЁҚАРАШИНИНГНИНГ ДИНИЙ ВА ДУНЁВИЙ ТАЛҚИНИ. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2 (7), 78-82.

20.J. S. Ramatov, M. Hasanov МАФКУРАВИЙ АХЛОҚ ТАРБИЯСИНИНГ АНАМИЯТИ // Pedagogik fanlar boyicha akademik tadqiqotlar. 2022 yil. 6-son. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mafkuraviy-ta-didlarni-oldini-olishda-ahlo-iy-tarbiyaning-a-amiyati> (kirish sanasi: 04.10.2022).

АЙРИМ ЎСИМЛИКЛАРДАН АЖРАТИБ ОЛИНГАН ТАББИЙ МОДДАЛАРНИНГ БИОЛОГИК ФАОЛЛИГИНИ *IN VITRO* ШАРОИТИДА АНИҚЛАШ

Муҳаммаджон Абдувалиевич Мустафакулов

Гулшода Озат қизи Қаландарова

Шерали Насуруллаевич Қўзиёв

Абдуманнон Искандарович Ўралов

Рахматилла Нуриллаевич Рахимов

Биофизика ва биокимё инстиути

mmustafakulov@bk.ru

АННОТАЦИЯ

Антиоксидантлар организмни эркин радикаллардан ва кислородни фаол шаклларида химоя қиладиган моддалардир. Эркин радикаллар органик молекулаларни кислород билан чала оксидланишида, яъни перекисли оксидланишида ҳосил бўлади.

Калит сўзлар: НАДН, 2,2-дифенил-1-пикрилгидразил (ДППГ), Рутан, Провидин, Бехи, Антиоксидант.

КИРИШ

Маълумки, жигар митохондрияси икки оксидланиш тизимига эга НАД орқали оксидланувчи субстратлар ва сукцинат оксидланишининг ички фосфорланувчи йўли ва қўшилган НАДН эркин оксидланишини ташқи йўли; ушбу йўлнинг нафас олиш занжирининг бошланғич қисми V_5 -редуктазининг НАДН₂-цитохроми ҳисобланади. Умумий НАДН – оксидаза фаоллигидан РС НАДН оксидаза фаолигини ҳисоблаб чиқарилди. Энзимли антиоксидант тизими супероксиддисмутаза, каталаза, пероксидазалардан ташкил топган. Бу тизим НАДН фонди манбаси бўлиб хизмат қиладиган эркин радикал протон оқимлари тизимини ўчиради [1,2]. Антиоксидантлар эркин радикалли оксидланиш реакциясига тўсқинлик қилади ва бузилган бирикмаларни қайта тиклайди. Уни ўзини ишга ярайдиган ҳолатга ўтиши учун уни яна қайта тиклаши керак бўлади. Шу сабабдан антиоксидантлар тезлик билан икки ёки гуруҳ бўлиб ишлайди, яъни оксидланган шеригини химоя қилади ва тезда уни қайта тиклайди. Ана шундай антиоксидантлардан бири ионол (2,6-дитретбутил-4-метилфенол) ҳисобланади [3]. Антиоксидантларни организмга таъсирини кўрадиган бўлсак,

кўплаб адабиёт маълумотларига кўра флавоноид моддалар табиий антиоксидантлар ҳисобланади. Антиоксидантлар митохондрия мембранасидаги липидларни перекисли оксидланишида ингибирловчи таъсир этиши ва супероксиддисмутаза, каталаза ферментларининг фаолликлари билан изоҳланади. Бундай флавоноидларга рутин, пуликарин, кверцетин, апигенин ва шу каби кўплаб моддалар тажрибаларда антиоксидант хоссаларини намоён қилади. Антиоксидантлар митохондриялар дисфункциясида нафас занжирларида эркин радикалларни ҳосил бўлишини камайтириш, яъни антирадикал механизми иштирокида таъсир этади. Бундан ташқари прооксидант моддалар ҳам бор. Бундай моддалар митохондрияларда эркин радикалларни ортишига олиб келади, натижада мембрана липидларида перекисли оксидланиш жараёни бошланиб кетишига сабабчи бўлади. Бизнинг организмимиз учун кислород миқдорининг меъерий даражадан ортиб кетиши ҳам яхши оқибатларга олиб келмайди. Бу кўринишдаги ҳолат юз берганда эркин радикалларнинг ҳосил бўлиши натижасида хужайра структуралари емирила бошлайди. Организмда эркин радикалларнинг ҳосил бўлиши ва липидларнинг перекисли оксидланиш жараёни кучайиши (баъзан бу жараён оксидатив стресс деб аталади) нафақат кислород миқдори ортиб кетган ҳолатларда, балки бир қатор бошқа сабаблар асосида ҳам юзага келиши мумкинлиги таъкидланган. Шундай қилиб, оксидатив стресс таъсирида биологик мембраналар хусусиятлари ва хужайра функциясида бузилиши юз беради. Липидларнинг перекисли оксидланиши нисбатан учта бевосита таъсир натижасида юз бериш ҳолатларидаги натижалари бўйича кўпроқ ўрганилган [4, 5].

Ўсимликлардан ажратиб олинган айрим препаратларнинг антиоксидантлик ва антирадикаллик хусусиятларини аниқлашдан иборат.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ МЕТОДОЛОГИЯ

а) ДФПГ (радикал)нинг эркин радикалининг оптик зичлиги ўзгаришини қайд этиш орқали кверцетин ва дигидрокверцетиннинг антирадикал фаоллиги аниқланди; б). Руч услубига асосланган усул бўйича водород пероксидга нисбатан бирикмалар (кверцетин ва дигидрокверцетин)нинг антирадикал ва антиоксидант фаоллиги аниқланди; ДППГ усули: Кверцетин ва дигидрокверцетин флавоноидларининг антиоксидант ва антирадикал хусусиятларини ДФПГ (радикал) эркин радикалининг оптик зичлиги ўзгаришини қайд этиш орқали амалга оширилди. Ушбу ишда АРА ни аниқлаш учун биз барқарор радикал 2,2-

дифенил-1-пикрилгидразил (ДППГ) молекулаларининг антиоксидантлар билан қайтарилиш кинетикасини спектрофотометрик ўлчов техникасидан фойдаландик. Синов аралашмалари сувда 1 мг/мл концентрациясида эритилди. ДППГ усули. Ушбу ишда АРФни баҳолаш учун биз антиоксидантлар томонидан барқарор радикал 2,2-дифенил-1-пикрилгидразил (ДППГ) молекулаларини камайтириш кинетикасини спектрофотометрик ўлчаш усулидан фойдаландик [6]. Усул антиоксидантларнинг барқарор хромогенрадикали 2,2-дифенил-1-пикрилгидразил (ДППГ) билан ўзаро таъсирга асосланган. Сирка кислотаси билан кислоталанган этанолдаги ДППГ ($5 \times 10^{-4} \text{M}$) стандарт эритмаси иш эритмасини олиш учун 1:10 нисбатда этанол билан суюлтирилди. Олинган эритма 517 нмда 0,9 дан юқори бўлмаган оптик зичликка эга бўлиши керак. 5 мл ДППГ ишчи эритмасига 50 мкл ўрганилаётган ўсимликлардан олинган экстрактлар қўшилди, аралаштирилди ва эритманинг оптик зичлиги пасайиш кинетикаси 30 дақиқа давомида 517 нм тўлқин узунлигида қайд этилди. Назорат намунаси сифатида ДППГ ишчи эритмаси ишлатилган. Антирадикал фаоллик қуйидаги формула бўйича аниқланади:

$$\% \text{ингибирлаш} = \frac{A_{\text{контр}} - A_x}{A_{\text{контр}}} \times 100\%$$

Бу эрда A_x – синов эритмасининг оптик зичлиги, ҳисоблагич – синов намунасининг оптик зичлиги.

H_2O_2 усули: Водород пероксидга нисбатан бирикмаларнинг антирадикаллик фаоллигини аниқлаш учун Руч услубига асосланган усул ишлатилган. 2 мл 20 М фосфат тампони, 1 мл 43 М водород пероксид эритмаси ва 1 мл дистилланган сувни ўз ичига олган ҳар бир найчага намуналар алоҳида қўшилди. Назорат сифатида фосфат тампони эритмаси ва фосфат тампонсиз водород пероксид эритмасини қабул қилиш ишлатилган. Хона ҳароратида 10 дақиқа инкубациядан сўнг, намуналарнинг оптик зичлиги фосфат тампонининг назорат эритмасига нисбатан 230 нм да ўлчанди. Водород пероксидни қабул қилиш фоизи қуйидаги формуладан фойдаланиб ҳисоблаб чиқилган:

$$\text{H}_2\text{O}_2\% = [(A_c - A_e) / A_c \times 100]$$



бу ерда A_c - водород пероксид эритмасининг фосфат тампонсиз оптик зичлиги ва A_e - намуналарнинг оптик зичлиги.


Метод адреналиннинг аутооксидланиш реакциясининг ингибирланишига асосланган, препаратларнинг *in vitro* шароитида адреналинни вақт давомида КФШни ҳосил бўлиши ва аутооксидланиши ҳисобига (%) фоизларда ифодаланади. Бунинг учун 0,2 М

